

H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, A. Ismailov

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

III



**ALFRAGANUS UNIVERSITY**

**H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, A. Ismailov**

# **IQTISODIYOT NAZARIYASI**

**(darslik)**

**III tom**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan  
“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan barcha yo‘nalishlar uchun darslik sifatida  
tavsiya etiladi

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 330(075)**

**KBK: 65.9ya7**

**M 23**

**ISBN 978-9943-8628-7-6**

Mamedov, H., Muminov, N., Umarov, A., Ismailov, A.

Iqtisodiyot nazariyasi III tom [Matn] : darslik / H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov., Ismailov, A.– Toshkent: Bookmany print, 2022. – 420 b.

Mazkur darslikda predmet, bilish metodlari, rivojlanish davrlari, jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning tuzilishi va bozorning harakat qilishi; butun jahon va alohida mamlakatlar miqyosida mikro-, mezo-, makro-, mega iqtisodiyotning asosiy muammolari ko‘rib chiqilgan.

Material ommabop, yaqqol, keng va ko‘p sonli sxemalar, jadvallar, grafik-rasmlar orqali bayon etilgan.

Mualliflar o‘ziga xos dizayn orqali o‘quvchi tomonidan kitob mazmunini qabul qilish va asosiy jihatlarini yodda saqlashni yengillashtirishni ko‘zda tutadi. Mazkur darslik oxirida iqtisodiy tarixni xronologiyasi, jahon davlatlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari, iqtisodiyot fani bo‘yicha A.Nobel mukofoti sovrindorlari ro‘yxati keltirilgan.

#### **Taqrizchilar:**

**H.P.Abdulqosimov**

O‘zMU Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası  
professori, iqtisod fanlari doktori

**M.A.Mahkamova**

ToshDTU Iqtisodiyot va marketing kafedrası  
mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor

**K.Q.Ismoilov**

ToshFI Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, iqtisod  
fanlari nomzodi, dotsent

© ALFRAGANUS UNIVERSITY

© Mamedov, H., Muminov, N., Umarov, A., Ismailov, A.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2022.

## V BO‘LIM. MEGAIQTISODIYOT

### 48 BOB. JAHON XO‘JALIGI VA UNING EVOLYUSIYASI

*Hozircha nisbiy samaradorlik farqlari mavjud bo‘lib bu o‘z navbatida mamlakatning ixtisoslashgan tovarlarni ishlab chiqarishda taqqoslash afzalligiga ega bo‘lib, ularni boshqa mamlakatlarning ishlab chiqarishda taqqoslash afzalligiga ega bo‘lgan tovarlarga ayirboshlab juda katta foydaga ega bo‘lishi mumkin.*

*Pol Samuelson*

Milliy iqtisodiyot hozirgi vaqtda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda juda ham keng ma’noda yoritilmoqda va ochiq makroiqtisodiyot tizimi vujudga kelmoqda, shu sababli bugungi kunda alohida mamlakatning iqtisodiyotini umumjahon iqtisodiy jarayonlarini hisobga olmasdan tadqiq qilib bo‘lmaydi. Ushbu bobda biz xalqaro mehnat taqsimotini va jahon iqtisodining shakllanishida ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi, xalqaro savdoning asosiy nazariyasini ko‘rib chiqamiz hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishini hamda asosiy e‘tiborni kapitalning xalqaro harakati va xalqaro valyuta tizimiga qaratamiz.

So‘nggi mavzuda bizga bamisoli yer tevaragidagi kosmik fazodan turib insoniyat go‘shasiga nazar tashlashga to‘g‘ri keladi. Bu ayniqsa XXI asrda o‘z faoliyatini boshlagan xodisalar barchada katta qiziqish uyg‘otadi. Jahon hamjamiyati unutilmas marraga chiqdi: jahon xo‘jaligini yangi asoslarda tashkil etish voqelikka aylandi, sayyoramiz xalqlarining mushtarakligi ancha shunga asoslanadi. Mamlakatlar o‘rtasidagi ularni bir-biriga tobora yaqinlashtirayotgan, birini-biriga qaram qilib ko‘payayotgan bunday iqtisodiy munosabatlar qanday qilib va nima sababdan rivoj topdi?


#### **Jahon xo‘jaligi rivojlanishining hozirgi bosqichi va uning asosiy belgilari. Jahon xo‘jaligining qaror topish bosqichlari**

Tarix jahon xo‘jaligi shakllanishining to‘rt bosqichini biladi. **Birinchi bosqich** ishlab chiqarishning industriyaga qadar davrida vujudga kelgan. Xalqlar mushtarakligining sarchashmalari izlanadigan bo‘lsa, ularni moziyning ko‘hna qa‘ridan topish mumkin, ularni bizdan 10 ming yil ajratib turadi. O‘sha vaqtda savdo almashuvi endigina tashkil topayotgan bo‘lib, bir-biridan ajralgan holda urug‘lardan tashkil topgan jamoalarda va qabilalarda yashagan odamlar o‘zaro foydali iqtisodiy hamkorlikning poydevorini qo‘yishayotgan edi. Qo‘shni qabilalarda, ayrim oilalarda va shaxslarda vujudga kelgan ortiqcha g‘alla, go‘sht va boshqa ne‘matlar uning birinchi

ob'ekti bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan tovar ishlab chiqarishi tobora ko'proq mahsulot yarata boshladi, bu mahsulotlar turli davlatlar o'rtasida muntazam almashish uchun yetkazib beriladigan bo'ldi. Savdogarlar tabaqasi tarkib topishi natajasida xalqaro savdo-sotiq rivojlana boshladi.

Iqtisodiy muloqotning navbatdagi bosqichi ishlab chiqarishning industrial davrida vujudga keldi. Rivojlangan bozor munosabatlari va mashinalashtirilgan yirik ishlab chiqarishning paydo bo'lishi, sarmoyadorlarning boylik orttirishga haddan tashqari intilishi natijasida savdo-sotiq har qanday milliy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Jahon bozorining vujudga kelishi - klassik kapitalizmning eng yuksak iqtisodiy natijasidir.

Dunyo miqyosidagi iqtisodiyot tashkil topishining uchinchi bosqichi XIX- XX asrlar chegarasida boshlandi. Ana shunda birinchi marotaba jahon ho'jaligi tizimi vujudga keldi. Mazkur tizim uchun 48.1-chizmada ko'rsatilgan bir qator alohida belgilar xosdir.



#### **48.1-chizma. XX asr boshlaridagi jahon ho'jalik tizimining o'ziga xos xususiyatlari.**

G'arb mamlakatlarining oyoqqa turgan aksiyadorlik kapitaliga ichki bozor torlik qila boshladi. U mo'may foyda ketidan quvib, boshqa mamlakatlarga yo'ldi. Kapital olib chiqishning kuchayishi va keng ko'lamdagi xalqaro almashuv xalqaro monopoliyalarning vujudga keltirdi. Ular jahon tovar o'tkaziladigan bozorlarini, xomashyo manbalarini va iqtisodiyotga kapital xarjlash sohalarini o'zaro bo'lishib oldilar. Bu shartnomalar, ijaraga olish, konsepsiyalar va hokazolar vositasida amalga oshirildi. Jahon iqtisodiy hududining bo'lib olinishi yirik kapital uchun tobora ko'p sonli mamlakatlarning hududida monopoliyachi sifatida haddan tashqari foyda olish imkonini yaratdi.


Yetakchi yirik davlatlar moliya kapitalida boshqa mamlakatlar ustidan siyosiy-ma'muriy hukmronlik o'rnatish yo'li bilan ularning hududlarini mustahkam qaram qilib olishga intilish paydo bo'ldi. Buning natijasida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ilgari ozod bo'lgan xalqlarni asoratga solish keskin kuchaydi. Ma'lumki, bu butun dunyoning buyuk davlatlar o'rtasida taqsimlab olinishiga olib keldi. Ana shu davlatlar 25 million kvadrat kilometrdan ziyod maydonni bosib oldi, mustamlakachilar asoratiga tushgan

aholi soni chorak milliardga ko‘payib, jami 570 million nafarni tashkil etdi. Shunday qilib, jahon ho‘jaligini tashkil etish yo‘lida so‘nggi qadam qo‘yildi.

Jahon ho‘jaligi - bu murakkab iqtisodiy organizm bo‘lib, unda sayyoramiz barcha xalqlari va mamlakatlarning uzviy bog‘liqligi tarkib topgan. Ammo joriy yuz yillikning birinchi yarmida bunday yaxlitlik insoniyatning aksariyat qismiga nisbatan ko‘proq iqtisodiy bo‘lmagan majburlash yordamida ta‘minlanar edi.

XX asrning boshlarida tashkil topgan jahon xo‘jalik tizimi ichida keskin ijtimoiy - iqtisodiy ziddiyatlar yashiringan bo‘lib, ular tizimni baqaror qilar va pirovard natijada yemirilish sari yetaklar edi. Jumladan, asosiy kapitalistik mamlakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar jahon urushiga - dunyo hududini qayta taqsimlash uchun shiddatli kurashga olib keldi. Mustamlakalar bilan metropoliyalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar qudratli milliy-ozodlik harakatlarini keltirib chiqardi, bu harakatlar ma‘lumki, Yer shari xaritasidan mustamlakachilik tizimini o‘chirib tashladi.

60-yillardan, mustamlaka mamlakatlarning aksariyati siyosiy qaramlikdan ozod bo‘lganidan so‘ng, jahon ho‘jaligi taraqqiyotining **hozirgi zamon boskichi** boshlandi. Jahon iqtisodiyotidagi ilg‘or o‘zgarishlarning yangi jihatlari shu bosqichda paydo bo‘ldi (48.2 -chizma).



#### **48.2 -chizma. Jahon xo‘jaligi rivojining hozirgi zamon jihatlari.**

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyoti mamlakatlarni iqtisodiy bo‘lmagan majburlashni istisno etadi. Mamlakatlar o‘rtasidagi doimiy iqtisodiy hamkorlikda kuchayib borayotgan milliy manfaatdorlik tobora ustuvorlik kasb etib bormokda.

So‘nggi o‘n yilliklarda yangi **jahon bozori hududi** shakllanmoqda. Natural yoki yarim natural ishlab chiqarish hukm surgan, iqtisodiy jihatdan qoloq bo‘lgan ko‘pgina mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o‘tmoqda. Yopiq

harbiy-siyosiy bloklarga kirgan sobiq sotsialistik davlatlar iqtisodiyoti ochiq mamlakatlarga aylanmoqda.

Xalqaro aloqalar, jahon tarixining ilk bosqichlarida bo'lgani kabi, birgina mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdo aloqalari bilan cheklanayotgani yo'q. *Jahon xo'jalik aloqalarining hozirgi yig'indisi* shu aloqalarning quyidagi ko'rinishlarini o'z ichiga oladi:

- xalqaro mehnat taqsimoti;
- tashqi savdoni;
- ishlab chiqarish kooperatsiyasini;
- ilmiy-texnik axborotlar va texnologiya ishlanmalari almashinuvini;
- ishchi kuchining bir mamlakatdan ikkinchisiga o'tishini; ,
- xalqaro kreditlar va chet el investitsiyalarini;
- davlatlarning valyuta bilan bog'liq o'zaro munosabatlarini.

Bunday aloqalar dunyo miqyosidagi infrastrukturaga asoslanadi. Uning tarkibiga, birinchi navbatda, xalqaro transport tizimi (dengiz, temir yo'l, havo transporti), axborot kommunikatsiyalarining jahon tarmog'i (shu jumladan, qit'alararo telekommunikatsiyalar tarmog'i) kiradi.

Hozirgi jahon xo'jaligi unga yuksak dinamizm bag'ishlovchi omillarning ta'siri ostida tinmay o'zgarib bormoqda. Fan-texnika inqilobi, milliy xo'jaliklarning oshib borayotgan o'zaro bog'liqligi, ko'pgina mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan qayta qurish shular jumlasidandir. Ishlab chiqarishning kuchayib borayotgan baynalmilallashuvi ana shu o'zgarishlar uchun zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Ishlab chiqarish baynalmilallashuvining yangi bosqichi**

**Ishlab chiqarish baynalmilallashuvi** — hozirgi zamon jahon xo'jaligining iqtisodiy asosi bo'lib xizmat qiladi. U tashkiliy-iqtisodiy hamkorlikning shunday bir ko'rinishiki, bir mamlakatda buyumlar ishlab chiqarilishini ularni boshqa mamlakatda iste'mol qilinishi bilan bog'laydi. Xalqaro mehnat taqsimoti — ayrim mamlakatlarning jahon bozorida sotish maqsadida tovarlarning va xizmatlarning u yoki bu turini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi vujudga kelganidan so'ng milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi aloqalar muntazam bo'lib qoladi.

Dastavval mamlakatlarning u yoki bu buyumlarni, ayniqsa qishloq xo'jaligi, mahsulotlarini, xomashyo ko'rinishidagi tovarlarni tayyorlashga ixtisoslashuvi ularning tabiiy-iqlimiy sharoitlari o'rtasidagi farq bilan izohlanar edi. Mineral resurslar sayyoramiz hududida notekis taqsimlangani yaxshi ma'lum. Turli mintaqalarda yer fondi bir xil emas — ayrim joylarda ular ko'proq ekinchilik uchun yaroqli, boshqa joylarda esa — chorvachilik uchun.

Ishlab chiqarishning bunday tabaqalashuvi azaldan mavjud bo'lib, bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Hozirgi qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan, eksport qilinadigan sermehnat mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mamlakatlar jahon bozorida yetakchi o'rinni egallaydi. Ular ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish borasida juda yuqori darajaga erishgan. Masalan, 2005 yilda aholi jon boshiga hisoblanganda Italiyada 230 kg, Germaniyada - 25, Finlandiyada - 45, Rossiyada (2006 yilda) - 76 kg sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirilgan. Tabiiyki, ayrim davlatlar ko'proq ortiqcha mahsulotlarni eksport qilish haqida, boshqalari — yetishmayotgan tovarlarni xorijdan keltirish haqida qayg'uradilar. Shu sababli, ularning har ikkisi tashqi savdoga ehtiyoj sezadi. Avval Angliya (XIX asrdayoq u «jahon fabrikasi» hisoblanardi), so'ngra Yevropa va Shimoliy Amerikaning boshqa yirik davlatlari jahonning industrial markazlariga aylandi, ular milliy ehtiyojlarni emas xalqaro iqtisodiy ehtiyojlarni nazarga tutib ish yuritishar edi. XX asrda ho'jalik hayotidagi mahalliy va milliy o'z qobig'iga o'rog'lik tugadi, millatlarning bir-biriga bog'liqligi qudratli turtki bo'ldi.

Ishlab chiqarish baynalmilallashuvining hozirgi bosqichi ilmiy-texnika inqilobining kengayishi tufayli vujudga kelgan. Bu sohada ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlar qator belgilariga ko'ra umumjahon tamoyillariga ega bo'lib, xalqlarning birlashgan kuch-g'ayratlarini talab qiladi. Fan, texnika va texnologiyalarni yangilash shu qadar keng ko'lamli, serqirra va chuqur jarayonki, uni birorta, hatto yirik davlatlarning kuch-g'ayrati bilan amalga oshirib bo'lmaydi.

FTI qisqa muddatlarda yangi mahsulot ishlab chiqarishni shu darajada ko'paytirish imkonini beradiki, undan to'la foydalanish uchun ayrim mamlakatlarning ichki ko'lami ancha torlik qilib qoladi. Ishlab chiqarishni bir mamlakat ko'lamini emas, nisbatan keng ko'lamlarni nazarda tutib kengaytirish zarurati paydo bo'ladi. Bu borada jahon bozoriga texnik jihatdan eng mukammal mashinalarni, dastgohlarni, transport vositalarini va boshqa tayyor buyumlarni, shuningdek, eng yangi texnologiyalarni va ilmiy-texnik ishlanmalarni yetkazib beruvchi yuksak rivojlangan davlatlar alohida ajralib turadi. Masalan, 2005 yilda har 1000 aholiga hisoblanganda, Yaponiyada - 61 ta, Germaniyada - 53 ta, Fransiyada - 52 ta, AQShda - 24 ta, Rossiyada (1996 yilda) - 6 ta va Xitoyda - 0,3 ta yengil avtomobil ishlab chiqarilgan.

Fan-texnika inqilobi xalqaro mehnat taqsimotida yangi bosqichni — predmetlar bo'yicha (tarmoqlararo) ixtisoslashuvdan ***detallar*** bo'yicha (tarmoq ichida) ixtisoslashuvga o'tishni keltirib chiqaradi. Masalan, Amerika va yapon televizorlarini, boshqa elektron apparaturalarini yasash bilan bog'liq



talaygina ish jarayonlarini «yangi industrial mamlakatlarda» joylashgan zavodlarning ishchilari bajaradilar.

Shunday qilib, ishlab chiqarishning yangidan baynalmilallashuvi jahon xo'jaligining umumiy lashish jarayonini kuchaytiradi.

### **2000-yillardagi globallashuv**

XX asrning so'nggi o'n yilligida jahon iqtisodiyotini globallashuvi yangi sifat jihatlarini kasb etdi. Avvalgi mavzularda ana shu eng yangi jarayonning muhim belgilari ko'rib chiqildi. Endi biz yuqorida aytilganlarni umumlashtiramiz va bugun jahon iqtisodiyoti olamida ro'y berayotgan o'zgarishlar haqidagi tasavvurimizni kengaytiramiz.

Gap quyidagi muhim yangiliklar haqida boradi:

1. 2000-yillarda jahon xo'jalik aloqalari tizimi avvalambor sobiq sotsialistik iqtisodiyot mamlakatlari hisobiga sezilarli darajada kengayadi. Unga ikkinchi avlodga mansub yangi industrial mamlakatlar va boshqa rivojlanayotgan davlatlar faol qo'shildi.

2. Tobora ko'p miqdordagi mamlakatlar uchun milliy xo'jalikning ochiqligi, tashqi iqtisodiy aloqalar va xalqaro savdo-valyuta hisob-kitoblarning liberallashuvi xos bo'lib boradi. Shu bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining taxminan yarmi o'z qobig'iga o'ralgan, xalqaro savdo almashuvi va kapitallar harakati nimaligini bilmagan iqtisodiyotda yashaydi.

3. Xo'jalik taraqqiyoti tashqi omilining roli sezilarli darajada oshib boradi. Birinchi navbatda bu milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksportning ahamiyati oshib borishi bilan bog'liq.

Xo'jalik faoliyatining baynalmilallashuvi darajasini aniqlash uchun ***ishlab chiqarishning eksport me'yori*** degan ko'rsatkich qo'llaniladi. Unda eksport uchun tayyorlanayotgan mahsulotlar ulushi ko'rsatiladi:

$$\frac{E \times 100}{E_m} = YaIM$$

bunda  $E_m$  — eksport me'yori;

$E$  — yil mobaynidagi eksport;

$YaIM$  — yillik yalpi ichki mahsulot.

Mazkur ko'rsatkich 1997 yil ma'lumotlariga ko'ra so'nggi o'n yillikda 20 foizga o'sdi. Ayni vaqtda bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlar uchun 27 foizni, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun 12 foizni, iqtisodiyotga o'tish davri bo'lgan davlatlar uchun (Rossiyadan tashqari) - 5,5 foizni tashkil etadi.

O'zbekistonga kelganda, uning eksport me'yori (rublning rasmiy kursiga asoslanib qayta hisoblaganda) 1991 yilgi 4 foizdan 1996 yilga kelib 20 foizga o'sgan. Ammo bu asosan YaIM hajmining qariyb ikki barobar qisqarishi hisobiga ro'y berdi. Yana shuni ta'kidlash muhimki, O'zbekiston xomashyo

eksportining hajmi (neft, gaz, yog‘och materiallari, metallar, olmoslar) to‘la-to‘kis jahon bozoridagi ahvolga bog‘liq, uni kengaytirish imkoniyatlari aslida tugab bo‘lgan.

4. 2000-yillarda milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga bog‘liqligi kuchayishda davom etdi. Ko‘p jihatdan bu butun dunyoda mikroelektronika sohasidagi inqilobning eng yangi yutuqlari tezkor o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq axborot tarqatish jarayonining olamshumul ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi. XX asrning oxiri XXI asrning boshlari uchun quyidagi jarayonlarning xos bo‘lishi ayon ko‘rinadi:

a) dunyo miqyosidagi axborot tizimlari («Internet» kabi) rivoj topadi, bu yer yuzining to‘liq kompyuterlashuvini taxmin qiladi;

b) yangi yer yo‘ldoshlari tizimlari (past uchuvchi yer yo‘ldoshlari bilan) uyali telefon aloqasidan umumiy yer yo‘ldoshlari aloqasiga o‘tish imkonini beradi;

v) insoniyat XXI asr axborotlar jamiyatini kashf etish sari harakatda davom etadi.

Turli mamlakatlar texnologiya sohasidagi taraqqiyotini tenglashtirish tamoyili kuchayishda davom etadi. Axborot vositalari, aloqa va transportdagi texnika yangiliklari yer sharining barcha mintaqalarida fan-texnika yutuqlarini tezkor joriy etish imkonini beradi. Natijada, bir davlatda yaratilgan eng zamonaviy texnika va texnologiya, sun‘iy to‘siqlarni yengib o‘tib, jadal butun dunyoga yoyiladi.

5. 2000-yillarda jahon iqtisodiyotining ulkan ko‘lam kasb etish jarayonida ikki jihat ko‘zga tashlanadi: a) AQSh mavqeining kuchayishi va b) iqtisodiy ko‘p markazlikning shakllanishi, bu pirovard natijada kurrai zamin ko‘lamida iqtisodiy tizimlarning tashkil topishiga olib keladi. Masalan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlar iqtisodiy qudratining jadal oshib borishi ana shu mintaqada yangi valyuta-moliya bozorlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Mazkur bozorlarga yuksak rivojlangan mamlakatlardan kapitalning oqib kelishi natijasida moliya bozorlarining haddan tashqari yiriklashishi ro‘y berdi.

To‘g‘ri, bir tizimga sifat jihatidan har xil moliya bozorlari tushib qoldi. Yuksak rivojlangan davlatlarda valyuta-moliyaviy ahvol mustahkamlanib, valyuta, aksiya va obligatsiyalarning bozor kursi dinamikasi nisbatan bir tekis bo‘lib turdi. Janubiy - Sharqiy Osiyo mamlakatlarida esa, tashqi qarzni yuqori darajadali hamda chet eldan kapitalning oqib kelishiga qaramlik natijasida valyuta-moliyaviy ahvol g‘oyatda keskin bo‘lib qoldi. Fond bozorlari davlat tomonidan yetarli darajada boshqarilmaganligi uchun ko‘pgina moliya tashkilotlari qimmatbaho qog‘ozlar va valyuta bilan keng

ko‘lamda chayqovchilik qila boshladilar. Tabiiyki, bu jiddiy valyuta-moliyaviy tanglikka olib keldi, jumladan 1997-1998 yillardagi tanglik deyarli barcha rivojlanayotgan mamlakatlarning fond bozorlarini larzaga soldi, shuningdek, Lotin Amerikasi, Sharqiy Yevropadagi qator mamlakatlar va Rossiyaning qimmatbaho qog‘ozlar va valyuta bozorlaridagi ahvolni chigallashtirdi.

6. 2000-yillarda barcha mamlakatlar uchun texnologiyaga, atrof-muhitning ifloslanishiga, moliya institutlarining faoliyatiga, buxgalterlik hisob-kitoblariga, milliy statistikaga va hokazolarga doir yagona standartlar (me‘yoriy-texnik hujjatlar) tobora kengroq qo‘llanila boshladi.

7. Xalqaro tashkilotlar orqali (Xalqaro valyuta fondi, Jahon savdo tashkiloti) makroiqtisodiy siyosatning bir xil mezonlari joriy etiladi, soliq siyosatiga, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta‘minlash sohasidagi siyosatga va hokazolarga doir talablarni bir qolipga solish (bir ko‘rsatkichga keltirish) ro‘y berdi.

Jahon iqtisodiyotining umumiy lashuvini biz bundan keyin ham jahon ho‘jaligining ayrim jarayonlarini ko‘rib chiqish vaqtida kuzatib boramiz.

#### **48.1. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo**

##### **Xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo‘jaligining shakllanishida iqtisodiyotni baynalmilallashtirish**

Davlatlararo iqtisodiy munosabatlarning ob‘ektiv asosi xalqaro mehnat taqsimoti bo‘lib, alohida davlatlarning jahon iqtisodiyoti doirasida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda ixtisoslashuvidir. O‘z navbatida bu ixtisoslashuv turli mamlakatlar o‘rtasida faoliyat natijalarini almashuvning zarurligini shartlaydi. Iqtisodiyot nazariyasi fanida xalqaro mehnat taqsimotining uchta tipi ajratiladi:

1. Umumiy – ishlab chiqarish sohasi bo‘yicha mehnat taqsimoti (qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaradigan, qazib oluvchi va boshqalar) va oqibatda mamlakatni xomashyoviy, agrar va industriallashtirishga bo‘linishi.

2. Juz‘iy – mamlakatni aniq ishlab chiqarish tarmoqlari bo‘yicha ixtisoslashtirish (masalan, mashinasozlik, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati va boshqalar). Juz‘iy xalqaro mehnat taqsimoti tarmoqlararo ayirboshlashuvni keng ma‘noda rivojlantirishni bildiradi.

3. Yakkalik – mamlakatning ishlab chiqarish texnologik bosqichlarida mashina, agregatlarning alohida detallarini, qismlarini tayyorlashga ixtisoslashuv. Masalan, xalqaro kosmik stansiyalarni qurishda alohida detallarini, uzellarini va agregatlarning bittasi Rossiyada, boshqasi AQShda, uchinchi Fransiyada va boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan edi.

Bugungi kunda tayyor mahsulotlarning milliy kelib chiqishini aniqlab berishni amaliyotda imkoniyati yo‘q: Masalan, Yaponiyada ishlab chiqarilgan televizorning detallari Osiyo mamlakatlarida tayyorlangan detallardan iborat bo‘lib, Yaponiyada, Buyuk Britaniyada, Ispaniyada va dunyoning boshqa mamlakatlarida yig‘iladi. Yakkalik xalqaro mehnat taqsimoti tarmoqlar ichida rivojlangan ixtisoslashuvni bildiradi va yuqori darajadagi ishlab chiqarish kuchlarga to‘g‘ri keladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi sabablari quyidagilardan iborat:

— mamlakatni foydali qazilma boyliklari, haydalgan yer va boshqalar bilan ta‘minlashga bog‘liq tabiiy iqlimning turfaligi;

— mamlakatning geografik holati, avvalambor uning asosiy transport yo‘llarining sotuv bozorlaridan uzoqligi bilan xarakterlanadi;

— egallab turgan hududi va aholi sonining turlichaligi;

— tarixiy rivojlanish xususiyati (tashqi iqtisodiy an‘analari va ishlab chiqarish tuzilishi). Jahonda eng yaxshi, a‘lo darajada ishlab chiqarilgan tovarlar, jahon tan olgan liderlar bo‘lib hisoblanadi: Shveysariyada ishlab chiqarilgan soatlar, Buyuk Britaniyadagi gazlamalar, Italiyadagi oynadan yasalgan buyumlar Hindiston, Xitoy, Seylon choylari, Braziliyadagi kofe va boshqalar;

— mamlakatda fan-texnika rivojlanish darajasi.

Hozirgi vaqtda yuqoridagi ikkita omilning yangicha yaratilgan transport vositalarining, ayniqsa, axborot kommunikatsiyalar bilan bog‘liq natijasiga nisbatan roli pasayib ketmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida alohida mamlakatlar orasida ishlab chiqarishda iqtisodiy munosabatlarning mustahkam shakllanishi yuz bermoqda, ya‘ni bu jarayon baynalmilal iqtisodiyot nomini olib, milliy iqtisodiyotning o‘zaro o‘sishi, mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishi takror ishlab chiqarish jarayonida milliy chegaralar doirasidan chiqib ketishi yuz bermoqda. Shunga qaramasdan, mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy aloqalari o‘rtasida milliy davlatlarning paydo bo‘lishi bilan iqtisodiy aloqalarni shakllanishi yuzaga keldi. (ya‘ni iqtisodiyotning baynalmilalashuvi jarayoni) bunda faqat yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o‘tishi mumkin bo‘ldi. Iqtisodiyotning baynalmilal rivojlanishiga fan-texnika taraqqiyoti turtki bermoqda. Hozirgi vaqtda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar ham barcha moddiy ishlab chiqarishni, fan va texnika tarmoqlaridan samarali rivojlantirishni amalga oshira olmayapti. Hozirgi vaqtdagi ko‘pgina muammolarni muvaffaqiyatli hal etish uchun (masalan, koinotni o‘zlashtirish) anchagina moddiy mablag‘lar va yuqori malakali kadrlar talab qilinadi, bu esa faqat bir qancha mamlakatlarning

birlashishi natijasida amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotning baynalmilal rivojlanish jarayoniga hozirgi vaqtdagi global muammolar — ekologiya, xomashyo, yonilg‘i-energetika, yadro halokatlari kabilar katta ta’sir etadi. Bularni hal etish ham bir necha mamlakatlarning integratsiyasiz amalga oshmaydi. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning baynalmilallashuvi birinchi navbatda barcha transmilliy korporatsiya va transmilliy banklarning (TMK va TMB) xalqaro iqtisodiy va valyuta integratsiyalari faoliyatida yuzaga keladi. Hozirgi vaqtdagi iqtisodiyotning baynalmilallashuv davri fan-texnika inqilobi natijasi bo‘lib, globallashuv xarakteriga egadir, bu jarayon qonuniy hodisa hisoblanadi. Kishilar hayotining milliy davlat shakli globallashuv jarayoni natijasida yangi shaklda transformatsiyalashadi.

## **48.2. Jahon iqtisodiyotining mohiyati**

XX asrning boshlarida jahon xo‘jaligi shakllanib hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyoti deb yuritilmoqda. Jahon iqtisodiyoti milliy iqtisod va uning bir-biri bilan bog‘liq xo‘jalik munosabatlarining yig‘indisida ifodalanadi (ya’ni xalqaro iqtisodiy munosabatlar). Hozirgi vaqtda jahonda 226 davlat bo‘lib, bularda 7 mlrd. odam yashaydi. BMT rasmiy ma’lumotiga ko‘ra, jahon iqtisodiyotida mamlakatlar uch guruhga ajratiladi:

— bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda olti milliard inson yashaydi. Bularga taxminan 25-27 sanoat sohasida rivojlangan Shimoliy Amerika, G‘arbiy Yevropa va Osiyo, Tinch okean hududlaridagi mamlakatlari 27 davlat kiradi.

— bozor iqtisodiyoti rivojlanib kelayotgan mamlakatlar. Bu guruhga 100 dan ko‘proq davlatlar kiradi, bularning umumiy xususiyati ko‘p ukladli iqtisodiyot, sanoat, qishloq xo‘jaligida, ijtimoiy infratuzilmada, qoloq rivojlangan, jahon iqtisodiyoti tizimida chetdagi ahvoli va qaramligi bilan xarakterlanadi.

— o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar. Bularga Yevropaning sobiq sotsialistik mamlakatlari, MDH mamlakatlari kiradi, bular asta-sekin oldingi ikkita guruh mamlakatlarga bo‘linmoqda. Shunday qilib, jahon iqtisodiyoti jahon xo‘jaligining mexanizmlarini o‘z ichiga oladi, buning tarkibiga milliy xo‘jaliklar kiradi. Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyoti katta o‘zgarishlarga bardosh berib kelmoqda. Agarda ishlab chiqaruvchi asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarda joylashgan bo‘lsa, qoloq mamlakatlar esa agrar xomashyo sifatida qo‘shimcha qism bo‘lib rivojlangan edi, endi hozir amaliyotda barcha mamlakatlar tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradilar. Ammo rivojlangan mamlakatlar katta fan hajmli tovarlarni eksport qilishga ixtisoslashgan (ilmiy tadqiqot va tajriba loyiha ishlariga sarf-xarajatlarning ustunlik qilishi) va

texnohajmli mahsulotlar (mikroelektronika misolida), qoloq mamlakatlar esa resurslar, mehnat va kapital hajmdagi mahsulotlarni eksport qilishga ixtisoslashib, ularni tayyorlashda ko‘pincha atrof-muhit ifloslanadi. Jahon iqtisodiyoti sub’ektlariga davlatlar va ularning aholisi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hamda huquqiy va jismoniy shaxslar kiradi.

Mamlakatlar orasida mustahkam tovar-pul munosabatlari sohasi jahon bozori bo‘lib hisoblanadi, uning yuzaga kelishi boshlang‘ich kapitalning jang‘arilish davriga tegishli.

### 48.3. Xalqaro savdo

Iqtisodiyotning milliy modelidan jahon nazariyasi miqyosidagi modelga o‘tishining metodologik muammolari allaqachon merkantilistlar tomonidan muhokama qilingan edi, ya’ni kapital o‘zining boshlang‘ich geografik chegaralaridan chiqishidan ancha oldin merkantilistlar bilan munozara qilishda klassik maktablarning g‘oyalari shakllangan edi. Xalqaro savdoning asosiy nazariyalarini qisqacha tahlil qilib chiqamiz.

1. A.Smit xalqaro mehnat taqsimoti savdolarini ko‘rib chiqishda, eng yaxshisi qanday tovarlarni eksport qilish, qanday tovarlarni import qilish haqida fikr yuritadi. Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda uning xalqaro savdo nazariyasi **mutlaqo afzallik nazariyasi** nomini oldi. Uning mohiyati shundan iboratki, tashqi savdoda ancha katta foydaga ega bo‘lishi mumkinki, qachonki eksport qiladigan davlat shunday tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerakki, u mutlaqo afzallikka ega bo‘lishiga yordam berish. Mutlaqo afzallik yuqori darajadagi mehnat unumdorligi va tovarlarni ishlab chiqarishda kamroq sarf-xarajatlar qilishda yuzaga keladi. Jahon bozorida shunday mamlakat bilan raqobatlashishga ijozat beradiki, u davlat bunday afzallikka ega emas. Masalan, OPYeK mamlakatlari (neftni eksport qiladigan tashkilotlar, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi davlatlari), neftni qazib chiqarishda mutlaqo afzallikka ega bo‘lib, ularga tabiiy resurslarga jahon hajmi, narxini belgilash, monopol katta foyda olishga imkoniyat yaratadi. Bu nazariyaning asosiy kamchiliklari qachonki mutlaqo afzallik barcha tovarlarni ishlab chiqarishda bitta yoki bir necha mamlakatlarga tegishligidir. Xalqaro savdoda mamlakat tovarlarni ishlab chiqarishda hech qanday mutlaqo afzallikka ega bo‘lmasa, u mamlakat xalqaro savdoda qatnashish imkoniyati bormi kabi masalalarga bu nazariya yo‘l ko‘rsatmaydi.

2. Jahon savdosi nazariyasining asoschisi D.Rikardo bo‘ldi. A.Smitning mutlaqo afzallik nazariyasi uning nazariyasiga tasodif sifatda kirib kelgan. D.Rikardo **qiyosiy (nisbat) afzallik nazariyasini** ishlab chiqdi, bu o‘z navbatida jahon fonida va savdosida umum tan olingan nazariya bo‘ldi.

Qiyosiy afzallik nazariyasiga binoan, import qilinadigan mahsulotlarning milliy qiymati mahsulotlarning baynalmilal qiymatiga nisbatan, eksport qilinadigan mahsulotlarning milliy qiymati baynalmilal qiymatiga qaraganda katta bo‘lib, tovarlarning importi foydali bo‘ladi. Qiyosiy afzallik ko‘proq past almashtirilgan sarf-xarajatlarga qaraganda shartlangan. Shuning uchun bu nazariyani D.Rikardoning “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish” kitobi misolida tushuntiramiz. Faraz qilamiz, Angliyada sukno va vino ishlab chiqariladi, ularning qiymati 100 va 120 pul birligiga to‘g‘ri keladi. Portugaliyada aynan shunday tovarlarni ishlab chiqarishga 90 va 80 pul birligi sarf qilingan (48.1-jadval).

#### 48.1 jadval

##### Solishtirma afzallik nazariyasi pul birligida

	mato	Vino
Angliya	100	120
Portugaliya	90	80

Ushbu misolda Portugaliya suknoni va vinoni ishlab chiqarishga Angliyaga nisbatan kam pul birligini sarflaydi. A.Smitning nazariyasiga binoan Portugaliyaga Angliya bilan savdo qilish foydasiz bo‘lar edi. Lekin mutlaqo samarasini emas, balki nisbiy samarasini solishtirish kerak edi. Bu yerda Angliyaga import qilishda nima foydali, Portugaliyaga import qilishda nima foydali? Portugaliya uchun ikkita tovarning nisbatini solishtiramiz (faraz qilsak, Portugaliyani milliy davlat deb, Angliyani esa internatsional davlat deb):  $90/100$  va  $80/120$ ;  $0,9 > 0,6$ , shunday ekan, Portugaliyaga vinoga almashtirish uchun sukno import qilish foydali. Haqiqatan ham, Portugaliyada 80 pul birligi turgan vino Angliyada ishlab chiqarilgan suknoqa almashtiriladi, o‘zida ishlab chiqarilgan 90 pul birligi teng bo‘ladi, ya’ni Portugaliya 10 pul birligini iqtisod qiladi, Angliya esa qiymati 100 pul birligi bo‘lgan suknoni Portugaliya vinosiga almashtiradi, uning o‘zida ishlab chiqarilsa, 120 pul birligiga teng bo‘ladi, shu sababli u 20 pul birligini foyda qiladi. Biz ko‘rib turibmizki, Angliya suknoni ishlab chiqarishda solishtirma afzallikka ega, Portugaliya esa vinoni ishlab chiqarishda foyda ko‘radi. Shunday qilib, D.Rikardo tomonidan barcha qatnashadigan mamlakatlar uchun xalqaro savdoning foydaliligi haqida xulosa qilingan. Bu nazariyaning kamchiligini iqtisodchilar faqat ishlab chiqarishning bitta omili – mehnat ko‘rib chiqarganligini, boshqa omillari esa e’tiborga olinmagan deb aytadilar.

3. Hozirgi vaqtdagi qiyosiy afzallik nazariyasi modifikatsiyasi bu E.Xeksherning va B.Olinning ishlab chiqarishning qiyosiy **ta’minlangan omili** bo‘lib hisoblanadi. Ushbu nazariya kelgusi holatlarga asoslangan:

— mamlakatning ishlab chiqarish bir xil bo‘lmagan omil bilan ta’minlanganligi, masalan, bir mamlakatda mehnat resurslari ko‘p, boshqa mamlakatda esa kapital ko‘p;

— har xil tovarlarni ishlab chiqarishda ishlab chiqarish omillari har xil o‘zaro nisbatda foydalaniladi. Masalan, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda katta miqdorda mehnat sarflari va kichik miqdorda kapital sarflari talab qilinadi. Samolyotlar va raketalar ishlab chiqarishda esa aksincha, kapital sarflari katta miqdorda va kichik miqdorda mehnat sarflari talab qilinadi.

Xeksher-Olinning nazariyalariga ko‘ra, ko‘p kapitalga ega bo‘lgan mamlakat katta kapital hajmidagi tovarlarni eksport qiladi, mehnat resurslari ko‘p mamlakat esa mehnat hajmi ko‘p bo‘lgan tovarlarni eksport qiladi.

4. Hozirgi zamon xalqaro savdo nazariyasi Xeksher-Olinning konsepsiyasini rivojlantirdi. Buning xulosasiga ko‘ra aholining kasb-hunarlarini, aql-idroklari va texnologiya darajasi tashqi savdoga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillar bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, mamlakatning texnologik rivojlanish konsepsiyasi, raqobatdoshlik afzallik nazariyasi va boshqa xalqaro savdo nazariyalari asosida yuzaga kelgan.

### **Tashqi iqtisodiy faoliyat. Tashqi savdo dinamikasi va tarkibi**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti mustaqillikni qo‘lga kiritishimizga qadar, asosan sobiq Ittifoq respublikalarini xomashyo resurslari bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan edi. Iste’mol mahsulotlarining asosiy qismini respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligiga qaramasdan, ular chetdan keltirilgan edi.

1990 yilda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi 805,6 million dollarni, jumladan, eksport - 442,7 million dollarni, import - 362,9 million dollarni tashkil etgan. Ijobiy saldo esa 80 million dollar atrofida bo‘lgan edi.

O‘tgan 21 yil mobaynida tashqi savdo aylanmasi 31,7 barobar o‘shdi, shu jumladan, eksport hajmi - 33,9 barobar, import - 28,9 barobar oshdi. Bu jarayonda tashqi savdoning ijobiy saldosi 56,5 barobar ortib, oltin-valyuta zaxiralarining yuqori darajada o‘sishi va milliy valyuta barqarorligini ta’minladi.

Eksport va import tarkibi tubdan o‘zgardi. O‘zbekiston mustaqillikkacha bo‘lgan davrdagi chetga xomashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan iste’mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunda tobora qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va ko‘proq ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik modernizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.



Eksportning tovar tarkibini diversifikatsiya qilish natijasida mamlakatimiz paxta yakka hokimligi oqibati bo‘lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos bo‘ldi.

## 48.2. jadval

### Tashqi savdo tarkibi<sup>1</sup>

	2011	2015	2020
Tashqi savdo aylanmasi, mln.doll.	26365,9	24924,2	36256,1
Eksport, mln.doll.	15021,3	12507,6	15102,3
Import, mln.doll.	11344,6	12416,6	21153,8
Saldo (+,-),mln.doll.	3676,7	91,0	-6051,5
<b>Eksport (foiz)</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Paxta tolasi	9,0	5,9	1,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	13,3	10,5	9,6
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	5,6	4,9	5,8
Energiya va neft mahsulotlari	18,5	21,4	4,4
Qora va rangli metallar	7,4	6,6	8,2
Mashina va uskunalar	6,6	1,3	2,9
Xizmatlar	11,8	24,5	13,3
Boshqalar	27,8	24,9	54,9
<b>Import (foiz)</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	11,5	12,8	10,2
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	12,5	17,0	16,2
Energiya va neft mahsulotlari	8,5	5,8	5,2
Qora va rangli metallar	7,6	7,4	8,3
Mashina va uskunalar	44,0	40,5	42,1
Xizmatlar	5,0	7,7	5,8
Boshqalar	10,9	8,8	12,2

Uning eksportdagi ulushi kamayib, 1990 yildagi 59,7 foizdan 2011 yilda 9,0 foizga tushdi. 1990 yilda eksportning umumiy hajmida xomashyo hisoblanmaydigan tovarlar ulushi 30 foizdan kamroq bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu ko‘rsatkich 70 foizdan ziyoddir.

2011 yilda yurtimizda yengil avtomobillar eksporti 2000 yilga nisbatan 11,6 barobar, paxta kalavasi - 4,1 barobar, trikotaj matolar - 144,8 barobar,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plam. 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent 2021. B.258,268.

mineral o'g'itlar - 11,3 barobar, neft mahsulotlari - 6,5 barobar, sement - 6,5 barobar, sabzavot va mevalar eksporti 23,5 barobar o'sdi. Kichik biznes korxonalarining eksport hajmi 16 barobardan ko'proq oshdi.

1999-2011 yillar mobaynida mamlakatimiz iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarining tezkor rivojlanishi natijasida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 4,1 barobar qisqardi. Masalan, oxirgi 15 yilda bug'doy importi nafaqat qisqartirildi, balki O'zbekiston o'z bug'doyi va g'allasidan tayyorlangan unni eksport qila boshladi. Go'sht mahsulotlarini import qilish 5 barobar, sut mahsulotlari 2,6 barobar, qayta ishlangan qishlok xo'jaligi mahsulotlari 3,5 marta, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar 16 va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari 7 barobardai ko'proq, gilam va yerga to'shaladigan qoplamalar 10 marta, trikotaj matolar 10 barobar, to'qimachilik-trikotaj liboslari 11 marta, poyabzallar importi 11 barobar kamaydi.

Mashina va uskunalarning import tarkibidagi ulushi o'sib, 1990 yildagi 12,1 foizdan 2000 yilda 35,4 foizga, 2011 yilda esa 41,3 foizga yetdi.

Tashqi savdo geografiyasi ham diversifikatsiya qilindi. Tashqi savdoda sobiq Ittifoq respublikalarining emas, balki uzoq xorij mamlakatlarining ulushi orta boshladi.

#### **48.4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar**

Xalqaro iqtisodiy **munosabatlarning** asosiy shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tovarlar bilan savdo qilish. An'anaviy tovarlar bilan almashuv ming yillar ichida mavjud. "Savdo" degan atama birinchi boshlanishida aynan shunday almashuvni ko'zda tutgan. Xalqaro tovarlar bilan savdo qilish jahondagi barcha mamlakatlarning tashqi savdosining yig'indisini ifoda etdi. U xomashyo tovarlari, mashina asbob-uskunalari hamda iste'mol tovarlari bilan savdo qilishga bo'linadi.

2. Xizmatlar bilan savdo qilish. Bu ko'zga "ko'rinmaydigan" narsa, buyum, ashyo shaklida bo'lmagan tovarlar bilan savdo qilmoq. Bunga quyidagilar kiradi:

— fan-texnika bilimlari bilan almashuv;

— tovar sifatida aqliy mehnat mahsuloti sifatida patentlar shaklida chiqadigan tovar belgilari, texnikaviy bilimlar va tajribalar "nou-xau" ("qanday bilaman") deb nomlangan texnika xizmatlari (injiniring) va boshqalar;

— xalqaro turizm;

—ijara operatsiyalari;

—axborotlashuv va reklama xizmatlari;

—vositachilik va boshqa turdagi xizmatlar;

3. Chetga kapital chiqarish – milliy chegaralar orqali kapitalning harakati yoki migratsiyasi.

4. Ishchi kuchining xalqaro ko‘chishi, mehnatga layoqatli aholining iqtisodiy xarakter sabablariga ko‘ra ko‘chishi, o‘rin almashinishi.

5. Iqtisodiy integratsiya – alohida davlatlarning iqtisodiyoti qo‘shilib ketishi asosida yagona internatsional xo‘jalikni yaratish. Bunga misol Yevropa Ittifoqi.

6. Xalqaro valyuta operatsiyasi. Bularning yordami bilan barcha xalqaro iqtisodiy munosabatlar amalga oshiriladi.

O‘zbekistonning tashqi savdo tarkibida 2012 yilda birinchi o‘rinda MDH davlatlari, ikkinchi o‘rinda Yevropa davlatlari, keyinchalik Osiyo, Tinch Okean iqtisodiy hamkorligi mamlakatlari (OTIH). O‘zbekistonning yirik tashqi savdo aloqasi mamlakatlari orasida Rossiya, Germaniya, Ukraina va boshqalar bilan tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 40-42 foizni tashkil etadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha shakllaridan kapitalning chetga chiqishini va xalqaro valyuta munosabatlarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

#### **48.5. To‘lov balansi**

To‘lov balansi – ushbu mamlakatning barcha iqtisodiy bitimlarining boshqa dunyo davlatlari bilan ma’lum bir davr ichida yozilgan yakuni bo‘lib hisoblanadi. To‘lov balansi ikkita hisob-kitob prinsipida yaratiladi, ya’ni har qanday xalqaro bitimlar avtomatik ravishda savdo balansida ikki marotaba hisoblanadi:

1. Kredit sifatida (mamlakatdan qimmatbaho buyumlarning ketishi va mamlakatga valyutalarning kelishi aks ettiriladi).

2. Debit sifatida (valyuta xarajatlarining sotib olingan qimmatbaho buyumlarga almashuvi).

To‘lov balansi xalqaro valyuta fondining ishlab chiqilgan (XVF) standartli klassifikatsiyasi bo‘yicha ikkita asosiy hisob-kitobni o‘z ichiga oladi:

1. Joriy hisob-kitob operatsiyasi. Bu hisob-kitobning bo‘limi tashqi savdo balansi, xizmatlar balansi va daromad balansi. Bu yerda chet el investitsiyalaridan daromadlar hisoblanadi. Birinchi bo‘limda yakuniy balans - joriy operatsiyalar balansi.

2. Moliya instrumentlari bilan kapital operatsiyalar hisob-kitobi. Bu yerda kapital operatsiyalari va moliyaviy instrumentlar, xususan, bevosita va portfel investitsiyalari hisob-kitob qilinadi. To‘lov balansining bu bo‘limida rasmiy hisob-kitob balansi yakunlanadi.

Birinchi va ikkinchi bo‘limlarining balansi qo‘shiladi hamda “xatolashgan va qolib ketgan” moddalarida, ...13 bet yashirin kapitallar hisob-kitob qilinadi, bular yakuniy balans qilishga ijozat beradi. Ikkala hisob-kitob prinsipi bo‘yicha tuzilgan to‘lov balansi nolga teng bo‘lishi shart. Bu degani, mamlakatning barcha qarzlari to‘lanishi shart. Shu sababli, joriy operatsiyalar hisob-kitobi bo‘yicha tanqismlik operatsiyasi aniq ijobiy savdo (qoldiq)ga kapital va moliyaviy instrumentlari operatsiyalari hisob-kitobi bilan to‘g‘ri kelishi kerak. Agar mamlakat rezidentlari chet el tovar-xizmatlarini va aktivlarini sotib olishga o‘zlarining tovar xizmatlarini va aktivlarini chet elliklarga sotishdan kelgan pulga qaraganda ko‘proq harajat qilsalar, unda rasmiy hisob-kitob balansi tanqislik bilan solishtiriladi. Bunday holatda qarzlarni yopish Markaziy bank tomonidan chet el valyutalarining rasmiy zaxiralarini qisqartirish yo‘li bilan amalga oshiriladi yoki valyuta kursini korektirovka qilish hisobiga milliy valyutani arzonlashtiradi (devalvatsiya). Valyuta kurslarining qimmatlashishi revalvatsiya deyiladi. To‘lov balansidagi tanqislik muammolarini eksport-import operatsiyalarining tarkibiy o‘zgarishlarini hal etadi.

#### **48.6. Kapitalning xalqaro ko‘chishi**

Jahon iqtisodiyotining baynalmilallashuvining chuqurlashuvi va globallashuv jarayonlarining rivojlanish sharoitida kapital eksportining roli ancha ko‘tarildi. Shu bilan birga agarda XX asrning birinchi yarmi (50 yillargacha) davomida kapital harakatining an‘anaviy yo‘nalishi rivojlanib kelayotgan davlatlar bo‘lgan bo‘lsa, unda o‘tgan ming yillikning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida rivojlangan mamlakatlar kapitallarining integratsiyasining kuchayishi bilan xarakterlanadi.

#### **48.7. Kapitalning xalqaro harakati va uning shakllari**

Kapitalning xalqaro harakati bu kapitalning mamlakat chegarasidan tashqari joylashuvi va harakat qilishidir. Buni kreditlar va qarzdorlar orasida moliyaviy bosqichlarning va moliyaviy talab harakati sifatida tasavvur qilish mumkin. Kapital harakati sabablarini aniqlashda har xil talqin qilish mavjud.

Qiyosiy afzallik va ishlab chiqarish omillarining yuksak unumdorlik nazariyasiga asoslangan neoklassik yo‘nalishlarning vakillari kapital harakatining unumdorlik past joydan yuqori bo‘lgan joylarga harakat qiladi deb, tasdiqlaydilar. Shu bilan birga kapitalning xalqaro harakati ishlab chiqarish omillarining ikkala mamlakatda samarali kombinatsiyasini yaratadi va ularning yalpi milliy daromadini ko‘paytiradi.

Neokeynscha yoʻnalish tarafdorlari makroiqtisodiy tahlilga asoslanib kapital harakatini mamlakatning toʻlov balansi ahvoliga va ichki ish faolligiga bogʻlab, joriy toʻlov balansi ijobiy saldo (qoldiq)da chetga kapital chiqarishni import ustidan eksportni koʻpaytirishni tenglashtiradi, bu oʻz navbatida kapital import qiluvchi mamlakatlarga tovarlarni sotib olishni koʻpaytirishga imkoniyat beradi.

Markscha yoʻnalish tarafdorlari, qoʻshimcha qiymat nazariyasiga, kapitalning jamgʻarilishiga va imperializm nazariyasiga asoslanib, chetga kapital chiqarish sabablarini uning nisbiy koʻpligi uni monopoliyalarga koʻproq foyda olish maqsadida chetga olib chiqadi; ishlab chiqarishning baynalmilallashuvining oʻsishi; monopoliyalar orasida raqobat kurashining kuchayishi. Shu bilan birga kapitalni chetga olib chiqaruvchi mamlakatlar va chetda kapital olib keluvchi mamlakatlar uchun chetga kapital chiqarish ijobiy va salbiy oqibatlarga ega deb hisoblaydilar. Umuman, bu kamroq rivojlangan mamlakatlarni ekspluatatsiya qilish va boʻysundirishlar xalqaro moliya kapital tizimining hukmronlik qismidir.

### **Kapitalning xalqaro harakatining shakllari**

Kapitalning xalqaro harakat shakllari ularni aniqlaydigan mezonlari bogʻliqligi bilan farqlanadi:

1. Mahsuloti boʻyicha farqlanadi:

- davlat kapitali;
- xususiy (jismoniy shaxslar va kompaniyalar);
- xalqaro tashkilotlar;

2. Shakli boʻyicha:

- bevosita investitsiyalar;
- portfel investitsiyalar;
- boshqalar.

Davlat kapitali asosan rivojlangan davlatlardan rivojlanib kelayotgan mamlakatlarga chiqariladi. Koʻpchilik dinamik ravishda rivojlanayotgan bozor bilan yuzaga kelayotgan (Xitoy, Hindiston, Koreya, Malayziya, Filippin va boshqalar)larda chet el investitsiyalarning kelishi sezilmoqda. 2010 yil maʼlumot boʻyicha 40% yalpi investitsiyalar Osiyo-Tinch okean hududlariga toʻgʻri keladi. Mamlakatga chet el investitsiyalari oqib kelishi hozirgi vaqtdagi qonunlarga binoan tashqi qarzlarning oʻsib borishi bilan bogʻliq, yaʼni bu oʻz navbatida milliy xoʻjaliklarga soliqlarning ortiqchasini kamaytirishga ijozat etadi va iqtisodiy oʻsishga qoʻshimcha zamin yaratadi. Bunday omillarni rivojlangan davlatlar ham boshqa rivojlanib kelayotgan davlatlardan chiqishda foydalanadilar. Bunday munosabatlarda AQSh klassik misol boʻladi, uning hozirgi vaqtdagi davlat budjetining tanqisligiga 5 mlrd. dollar oʻlchamida

rejalashtirilgan. Xususi kapitalning asosiy eksportyorlari hozirgi vaqtda Yaponiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Italiya, Shvetsiya, Finlyandiya va boshqa mamlakatlardir.

Asosiy investor – mamlakatlar Rossiya, Germaniya, Fransiya, Kipr, AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Italiya, Lyuksemburg. Bularning o'sishiga jamg'arilgan chet el investitsiyalarining 75-80%i to'g'ri keladi. Jamg'arilgan chet el kapital bu birinchi boshlanishidan to'lov hisobi bilan birga ishlab chiqarilgan chet el investitsiyalarining umumiy hajmi. O'zbekiston iqtisodiyotiga 2012 yilning oxirida umumiy jamg'arilgan investitsiyalarning summasi 10 mlrd.dan ko'proq dollarga teng bo'ldi.

#### **48.8. Bevosita chet el investitsiyalari**

Bevosita chet el investitsiyalariga chet mamlakatlarida zavod, fabrika, do'konlar va boshqalarni qurish yoki sotib olish kabilar hamda chet el kompaniyalarining nazorat paketi aksiyalarini sotib olish kiradi. Bu o'z navbatida chet el ob'ektlarining kapitallarini sarflash ustidan to'liq nazorat qilishni ta'minlaydi. Chet el investitsiyalarining asosiy oqimlari TMK tomonidan amalga oshiriladi. Bunga chet ellarda ishlab chiqarish quvvatlariga ega kompaniyalar kiradi.

Bevosita chet el investitsiyalarini import qiladigan mamlakat o'zining foydasiga va zarariga ega bo'ladi. Foydaga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishlab chiqarishning o'sishini;
- yangi ish joylarini yaratish va kadrlarni tayyorlash;
- yangi texnologiyalardan foydalanish;
- solish tushumlarining o'sishi va boshqalar.

Shuning uchun ko'pchilik jahon mamlakatlarining hukumatlari mamlakat importerlarni bir necha yilga soliq to'lashdan ularning olib keladigan xomashyolari va yarim fabrikatlar uchun chet el poshlinasidan ozod qilib, bevosita chet el investitsiyalarini olqishlaydilar. Maxsus chet el korxonalarini joylash uchun erkin iqtisodiy zonalar yaratilmoqda. (EIZ), bunday korxonalariga tashqi savdo cheklanishlar tarqatilmaydilar (mamlakat ichidagi firmalar, korxonalarda ko'pincha zavod, fabrikalarni qurishga, kengaytirishga modernizatsiya qilishga vositalar bo'lmay qoladi). O'zbekistonda yirik erkin iqtisodiy zona (EIZ) Navoiy viloyatida bo'lib va boshqa viloyatlarda yaratish ham mo'ljallanmoqda.

Iqtisodchilar bevosita investitsiyalardan keladigan zararining orasida quyidagilarni aytadilar:

- davlat tomonidan nazoratning yo'qolishi hisobiga milliy iqtisodiyotning xavfsizligi;

- TMK tomonidan davlat hukumatga ta'sir ko'rsatish imkoniyati;
- mamlakat ishlab chiqaruvchilar mahalliy investor raqobatchilarni yo'qotishi va boshqalar.

Ko'pincha TMKni ishlab chiqaradigan sanashga hech qanday kapital sarflamasdan faqat qazilma boyliklarga ishlov berish qiziqtiradi. Chet el manbalaridan foydalanib, milliy iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlab, raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish bu davlatning eng asosiy vazifalaridan biridir. Chet el investitsiyalarini jalb etish uchun teng raqobatchilik sharoitini ta'minlashdir, aynan milliy tartibga amal qilish, ya'ni chet el va mamlakat investorlariga teng yondashuv kerak, bular barchasi yana bir prinsipial vazifalardir.

Umuman, bevosita chet el investitsiyalarining ko'proq hajmi tashvishli xabardir, sababi milliy iqtisodiyot raqobatbardosh sektorlarga ega emasligini ko'rsatadi, uning firmalarining ko'pchilik tarmoqlari bozorda o'zlarini chet el firmalarining zo'ravonligidan himoya qila olmaydi. Ammo chet el investitsiyalarining ijobiy samarasi raqobatchilikning kuchliligida paydo bo'lishi mumkin, bu o'z navbatida milliy ishlab chiqaruvchilarning mehnat unumdorligini o'sishida va texnologiyalarning mukammallashishida rag'bat bo'ladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar aholi jon boshiga yuqori daromadi bilan bevosita investitsiyalar shaklida kapitalni asosan eksport qiluvchilar: AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Niderlandiya, Shvetsiya. Shu bilan birga bu mamlakatlar asosan, (Yaponiyadan tashqari) import qiladigan mamlakatlardir. Bu rivojlangan davlatlarda investitsiyalar siyosiy iztiroblardan kafolatlanganligi bilan bog'liqdir. Bu yerda shuni asosan aytish kerakki, oxirgi yillarda rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning roli chet el kapitalini jalb etishda to'satdan ko'tarildi: ayniqsa, iqtisodiy qoloq davlatlar, chet el kapitali uchun "ochiq eshik" siyosatini o'tkaza borib, uni iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat sifatida ko'rib chiqadilar. Bunga misol Xitoy, Koreya, Malayziya, Braziliya, O'zbekiston kabi mamlakatlar xizmat qiladilar.

O'zbekiston iqtisodiyotida bevosita chet el investitsiyalarning asosiy shakllaridan biri bu qo'shma korxonalarining yaratilishi. Investitsiyalarning asosiy qismi moliya-kredit, savdo, neft, gaz, metallurgiya sanoati, telekommunikatsiya kabi sohalardir.

#### **48.9. Portfel investitsiyalari**

Portfel investitsiyasi bu ushbu davlatning qimmatbaholi qog'ozlarni (aksiya va obligatsiya, shu davlatning) chet el investorlarining sotib olishi. Shu bilan xaridor ushbu firmaning 10% aksiyasidan ko'p sotib olishi mumkin

emas. Portfel investitsiyasi chet el firmalarining nazorati uchun belgilangan emas, balki o'sha sotib olingan qimmatbaho qog'ozlardan dividend sifatida va aksiya kursi qiymatining o'sishi hamda obligatsiyalar foizi bo'yicha daromad olishdir. Portfel investitsiyalarini afzal ko'radigan davlatlarga Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya kiradi.

Portfel investitsiyalarining oqimi kapitalni import qiladigan mamlakat uchun juda ham foydali, sababi firmalarga va davlatlarga butun jahondan vositalarni jalb etishga va foydalanishga ijozat etadi. Shu bilan birga foiz stavkalarining tushib ketishini kutishda yoki qandaydir oliftalik – kayfichog'lik sharoitlarida fond bozorlarida Portfel investitsiya shaklida qo'yilgan chet el kapitali XX asrning 90 yillarida Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergandek importer mamlakatdan tezda "ketib qolishi" mumkin bo'ldi, bu mamlakatlarning iqtisodiyotini inqirozga olib keldi.

O'zbekiston iqtisodiyotida jamg'arilgan chet el kapitalida portfel investitsiyasi 2013 yilning boshlarida 0.5% edi.

Portfel investitsiyasining bevosita investitsiyadan asosiy farqi, ya'ni portfel kapital soluvchi qoida bo'yicha u investitsiya qilingan korxonani boshqarishga intilmaydi. Ba'zi xalqaro kompaniyalar nizomiga muvofiq, investorga (kapital soluvchi) avvalambor o'zi vosita qo'ygan kompaniyalarni boshqarishda qatnashish, direktorlar majlisida qatnashishda ta'qiqlangan.

#### **48.10. Boshqa investitsiyalar**

Boshqa investitsiyalarga ssuda kapitali jahon bozori va pulsiz, bepul yordamlar kiradi. Ssuda kapitali jahon bozori bu kapital qarzdorlari va har xil mamlakatlar kreditlariga yalpi talab va taklif yig'indisini o'z ichiga oladi. Xalqaro kredit har xil mamlakatlar kreditorlari va qarzdorlari o'rtasida ssuda berish, foydalanish foizi bilan birga yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifoda etadi. Bunday munosabatlarning sub'ekti bo'lib davlat, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar TMK va boshqalar chiqadilar. Ssuda kapitali jahon bozori banklarining va savdoga oid kreditlar, xalqaro kreditlar tashkiloti yevro obligatsiyalarni chiqaruvchilar va boshqalarni tasavvur etadi. Hozirgi vaqtda jahon bozorida ssuda kapitalining bevosita va portfel investitsiyalari bilan yaqinlashuvi yuz berdi, sababi ko'pincha yirik kreditlar aniq sanoat loyihalariga beriladi, qarzga beriladigan vositalar qimmatbaholi qog'ozlarni sotib olishda foydalaniladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning ulushi jamg'arilgan chet el kapitalida 2013 yil boshlarida 20% ni tashkil etdi. O'zbekiston investitsiyalari bo'lib chet elda amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalarini huquqiy shaxs sifatida O'zbekiston hududida ro'yxatdan o'tgan fuqarolar chiqishi mumkin.



Sobiq Ittifoq parchalanganidan keyin, 90 - yillarning o'rtasida uning tarkibidagi respublikalarga kapital chiqarish shuning asosiy shakli bo'lib Rossiyadan ssuda kapitali eksport bo'ldi. 90 - yillarning o'rtasida MDH davlatlari orasida o'zaro investitsiyalar oqimi o'sa boshladi. Rossiya MDH davlatlariga o'zini qisqa muddatli va uzoq muddatli aktivlarini 10 barobar ko'paytiradi. O'z navbatida MDH davlatlari Rossiya iqtisodiyotiga qo'shma korxonalar yaratib, kapitalni investitsiya qildilar.

#### **48.11. Xalqaro valyuta tizimi**

Jahon iqtisodining barcha mexanizmining asosiy harakat qiluvchi elementlaridan biri xalqaro valyuta tizimi bo'lmoqda. Yuqorida biz ko'rsatgandek, valyuta munosabatlari yordamida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qolgan barcha shakllari amalga oshirilmoqda.

##### **Xalqaro valyuta tizimi va valyutta kursi tushunchalari**

Valyuta – mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarida ishlatiladigan pul birligidir. Valyuta munosabatlari xalqaro aylanmada pul harakatida yuz beradigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisini ifoda etadi. Valyuta munosabatlarning sub'ekti quyidagilar bo'ladi:

- alohida davlatlar;
- xalqaro tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar;
- bank va boshqa tashkilotlar;
- jismoniy shaxslar.

Valyuta munosabatlari xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvida, baynalmilallashuv va globalizatsiyalashuv jarayoninig rivojlanishi asosida yuzaga keladi va rivojlanadilar. Xalqaro valyuta munosabatlarning davlatli-huquqiy shakllarning tashkillashuvi xalqaro valyuta tizimini ifoda etadi, ya'ni valyuta munosabatlarning tashkiliy shaklini u davlatlar o'rtasidagi shartnomalar bilan mustahkamlanadi. Bitta davlat pul birligining bahosi boshqa davlatning pul birligidagi ifodasi valyuta kursi deb ataladi. Buning asosida milliy va chet el pul birligining sotib olish qobiliyati, ya'ni pul birligining qobiliyati ma'lum miqdorda tovar va xizmatlarga ayirboshlashda yotadi. Shu bilan birga valyuta kursiga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

- iqtisodiy (mamlakatning to'lov balansi, inflyatsiya darajasi va foiz stavkasi va boshqalar);
- noiqtisodiy misol, mamlakatda siyosiy barqarorlik, harbiy mojarolarning naqdligi va boshqalar.

Valyuta kursining kelgusi talablari farqlanadi:

1. Fiksirovatlash, ya'ni davlat tomonidan valyuta kursini o'zaro nisbatlarining qat'iy belgilanishi.

2. Suzuvchi, ya'ni talab va taklifning ta'siri ostida shakllanishi, ammo davlat tomonidan valyuta yordamida foiz stavkalarining o'zgarishi, kirishi yoki valyuta cheklanganligi va boshqalar.

Valyuta tizimi o'zining 100 yildan ko'proq mavjudligida qat'iy o'zgarishlarga bardosh berdi.

Xalqaro valyuta tizimining evolyutsiyasida quyidagi ajratiladi:

- oltin standarti;
- Bretton-Vud valyuta tizimi;
- Yamay valyuta tizimi.

#### **48.12. Oltin standarti**

Tarixga oid birinchi xalqaro valyuta tizimi paydo bo'lganda, pul rolini asl metallar bajargan – oltin va kumush, keyinchalik esa faqat oltin bajargan. Bu mexanizm oltin standarti nomini oldi va uchta shaklda mavjud bo'ldi:

1. Oltin monetali standart. Bu asosan Birinchi Jahon urushigacha qo'llanildi. Oltin monetali standart xususiyatiga asosan quyidagi kiradi:

- pul birligi ma'lum miqdordagi oltinga tenglashtirgan;
- oltin monetalar erkin chekanka qilindi va boshqa metallardan qilingan monetalarga hamda bank biletlarini oltin monetalarga erkin ayirboshlash amalga oshirildi;
- davlat ichida va har xil mamlakatlar o'rtasida qarshiliksiz muomalada bo'ldi.

2. Oltin yombi standarti. Bu rivojlangan mamlakatlarida Birinchi Jahon urushidan keyin chiqarilgan bo'lib, kelgusi xususiyatlarda xarakterlangan:

- pul birligi haligacha aniq miqdordagi oltinga tenglashtirilib, lekin banknotlarning va boshqa to'la qimmatga ega bo'lmagan pullar erkin bo'lmagan holda, oltin monetalarga faqat oltin yombi 12,5 kg ga almashtirilgan;
- oltin monetalarning erkin chekanka qilinishi to'xtatilgan edi;
- oltin endi pul muomalasi ichida foydalanilmagan edi, balki faqat xalqaro hisob-kitob uchun belgilangan.

3. Oltin valyuta standarti (oltin deviz). Deviz - bu chet el valyutasida to'lov vositasi (pervodlar, cheklar, akkreditivlar va boshqalar) xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladi. Oltin standart to'la qimmatga ega bo'lmagan pullar oltin yombi standarti bo'lgan mamlakatlar valyutasiga almashishi.

Oltin yombi va oltin deviz standarti deb "qisqargan" shakldagi oltin standarti. Ular bir amallab qisqa vaqt yashadi: XX asrning 30 yillarining boshigacha bank valyutalarining oltinga almashishi barcha davlatlarda (AQShdan tashqari) bekor qilingan edi (AQShda bunday almashuv 1971 yil

to'xtatildi). 25 bobdan biz bilamizki, XX asrning 30 yillarining o'rtalarida butun jahon qog'oz va kredit pullari aylanmasiga asoslangan pul tizimi harakati boshlangan edi.

#### **48.13. Bretton-Vud valyuta tizimi.**

Bretton-Vud valyuta tizimi huquqiy 1944 yil AQShning Bretton-Vud konferensiyasida shakllangan edi va oltin deviz, mohiyatan esa – oltin dollar standartida ifoda etilgan. Bretton-Vud valyuta tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Jahon pullarining vazifasini oltinda saqlash (u mamlakatlar orasida asosiy hisob-kitob vazifasi bo'lib qolishi davom etmoqda va jamiyatning boyligida) mo'ljallangan;

2. Xalqaro to'lov vositasi sifatida oltin bilan bir vaqtda "asosiy" valyuta AQSh dollari va ancha cheklangan hajmda – ingliz funt sterling foydalanilgan.

3. Milliy valyutalar fiksirovant qilingan rejim asosida erkin muomalada valyuta kursi dollarda ifoda etilgan.

4. Valyutalarning bozor kursi fiksirovant qilingandan dollar paritetidan bu valyutalarning og'ish plus-minus 1%, ya'ni barcha valyuta qat'iy dollarga tenglashganligi.

5. Davlatlararo valyutalarning tartibga solinishi **Xalqaro valyuta fondi** (XVF) orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro qayta qurish va rivojlanish banki ham tashkil etilgan edi, bu mamlakatlarga uzoq muddatli kreditlarni (XVF) a'zolariga berish uchun.

Bu tizim AQSh dollarini imtiyozli holatda saqlab va Ikkinchi Jahon urushidan keyin qolgan kuchlarni joylashtirishni aks ettirdi. Umuman XX asrning 50-60 yillarida Bretton-Vud tizimi yaxshi harakat qildi, xalqaro savdoga hamda sanoat ishlab chiqarishga yordam berdi. O'tgan asrning 70 yillarida tashqi bozorda AQSh o'rnining zaiflashishi, natijada oltin zaxiralarning qisqarishi va boshqa mamlakatlarning iqtisodiy o'rnining kuchayishi oqibatida ko'rsatilgan tizim barbod bo'ldi. Shunday qilib, 1971 yili dollarning oltinga almashuvi to'xtaldi, oltinning rasmiy dollardagi narxi bekor qilindi hamda valyuta kurslarining suzuvchi rejimi kiritildi. Bu rasman va amalda Bretton-Vud tizimining prinsipidan ketish bo'ldi.

#### **48.14. Yamay valyuta tizimi**

Yamay valyuta tizimi XVFning a'zo mamlakatlarni 1976 yilda Yamaykadagi Kingston shahridagi bitim hujjatlarida rasmiylashtirilgan edi. Yamay bitimi 1978 yilda o'z kuchiga kirdi. Bunda xalqaro valyuta tizimidagi o'zgarishlar qayd qilindi. XX asrning 70 yillarining birinchi yarmida bo'lgan

o'zgarishlar yuz berdi. Yamay valyuta tizimining asosiy xususiyatlarini sanab o'tamiz:

1. Oltinning rasmiy demonitizatsiyasi qayd qilindi, ya'ni oltin odatdagi tovar bo'ldi va jahon puli vazifasini bajarishi to'xtatildi.

2. AQSh dollari rasman boshqa erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarga tenglashtirildi, lekin amalda uni hukmronlik holatiga putur yetkazilmadi.

3. Xalqaro to'lov vositasi sifatida maxsus o'zlashtirmoq huquqiga ega (SDR) e'lon qilindi, bu valyuta paritetining asosi bo'lishi kerak edi.

4. Valyuta kursi suzishi rejimi qonunlashtirildi.

5. XVF uni a'zolari ustidan ko'proq qattiq nazorat qilish huquqiga ega bo'ldi.

Yamay valyuta bitimi barcha ziddiyatlarni yo'qotmadi, ya'ni suzuvchi valyuta kurslari hamda Meksikadagi, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi va boshqa mamlakatlardagi moliyaviy va valyuta inqirozlari mukammallashti.

#### **48.15. Yevropa valyuta tizimi**

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonida G'arbiy mamlakatlarida 1979 yili hududiy valyuta tizimini yaratish haqida e'lon qildi. Yevropa valyuta tizimi (EVT) 1979 yildan 1999 yilgacha yevro valyuta birligi sifatida EKYu dan foydalandilar. Buning kursi 10 ta G'arbiy Yevropa davlatlarining valyutasi asosida tuzilgan edi. Valyuta savati bu davlatlarning har qaysisining YaMMga qo'shgan salmog'idan kelib chiqqan holda ichki savdoni hisobga olgan holda hamda har bir mamlakatning qisqa davrdagi valyutani qo'llab-quvvatlash mexanizmiga qo'shgan ulushi shakllandi. 1999 yilning 1 yanvaridan EKYu o'rniga 11 davlat – YeS qatnashchilari yagona valyuta – yevroni kiritdi. 2002 yil 1 yanvardan u banknot va moneta ko'rinishida oborotga kiritildi. 2002 yil 1 iyuldan bu davlatlarning milliy pul birliklari to'lov vositasi sifatida yurishi to'xtatildi. Hozirgi vaqtda yevroning dollarga nisbatan va bunga kirmaydigan mamlakatlar valyutasiga nisbatan, kurslarining kotirovkasini Yevroning Markaziy banki amalga oshiradi, uning shtab-kvartirasi frankfrunt Maynda joylashgan.

Bugungi kunda Yevro soyuzda 17 mamlakat a'zo: Avstriya, Belgiya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Kipr, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Portugaliya, Slovakiya, Sloveniya, Finlyandiya va Fransiya. Estoniya 2011 yil 1 yanvardan qo'shildi.

Yevropali soyuz – buning a'zolari 27 mamlakat: Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Daniya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya,

Ruminiya, Slovaniya, Sloveniya, Angliya Birlashgan Qirolligi, Finlyandiya, Fransiya, Chexiya, Shvetsiya va Estoniya.

### **Qisqacha xulosa**

Ushbu bobda jahon xo'jaligining asosiy bosqichlari, jahon iqtisodiyotining nazariy muammolarining rivojlanishini ko'rib chiqdik, bu hozirgi zamon iqtisodiyot fanining eng yosh va dinamik ravishda rivojlanib kelayotgan qismi bo'lib hisoblanadi. Bunga xalqaro mehnat taqsimotining rolini va jahon iqtisodiyotining shakllanishida va rivojlanishida ishlab chiqarishning baynamilallashuv jarayonlarini, uning mohiyatini va tuzilishini aniqladik, mamlakatlarning nazariy xalqaro savdoni to'lov balansini tahlil qildik hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shaklini, bular doirasida ayniqsa, kapital chiqarishga va xalqaro valyuta munosabatlariga katta e'tibor qaratdik.

### **Asosiy tayanch atamalari**

Xalqaro iqtisodiyot  
Xalqaro mehnat taqsimoti  
Xalqaro savdo  
Xalqaro ish kuchining ko'chishi  
Xalqaro kapitalning ko'chishi  
Xalqaro valyuta munosabatlari

### **Mavzuning namunali savollari**

1. Milliy iqtisodiyot va xalqaro iqtisodiy munosabatlar?
2. Xalqaro mehnat taqsimoti va uning asosiy turlari nimalardan iborat?
3. Xalqaro savdo va uning rivojlanish bosqichlari?

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bosqichlari va o'zaro munosabatlarning paydo bo'lishi?
2. Xalqaro jahon iqtisodiyotining asosiy sub'ektlarini aytib bering.
3. Xalqaro savdoda mutlaqo va taqqoslash afzalliklarining mohiyati?

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Xalqaro iqtisodiyot munosabatlarning asosiy shakllarini aytib bering.
2. Xalqaro kapital harakatlarining mohiyati nimalardan iborat?
3. Xalqaro ish kuchining ko'chishi va boshqa xalqaro munosabatlardagi iqtisodiy harakatlarni aytib bering.

## **49 BOB. JAHON IQTISODIYOTIDAGI INTEGRASIYA JARAYONLARI**

Integratsiya baynalmilal xo‘jalik aloqalarini rivojlantirishning ko‘rinishi sifatida Integratsiya lotincha – integration so‘zi tarjima qilinganda alohida qismlarni umumiya, yaxlitga, bir butunga birlashtirish degan ma‘noni anglatadi. Mikro va makro darajalarda integratsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi bugungi voqelikning muhim belgilari hisoblanadi. Xo‘jalik hayotining baynalmilallashuv jarayoni xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi hamda chuqurlashishi bilan izohlanadi va ishlab chiqarish, fan-texnika, boshqa sohalarda turg‘un aloqalar shakllanishini anglatadi. Davlatning bir biriga iqtisodiy qaramligi, ishlab chiqarish kuchlarining baynalmilallashuvi iqtisodiyotda integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga yordam beradi. Alohida-alohida dily xo‘jaliklarning yanada mustahkam hamkorligi va bir - biriga kirib borishi, ishlab chiqarishning markazlashuvi va kapitallar chirmashib ketishi uchun shart-sharoitlarni ta‘minlash, o‘zaro kelishilgan davlatlararo iqtisodiy siyosatning o‘tkazilishi xo‘jalik aloqalarini baynalmilallashtirishning sifat jihatidan yangi va murakkabroq bosqichi bo‘lmish iqtisodiy integratsiyaning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Iqtisodiy integratsiya quyidagi eng muhim omillar bilan belgilanadi:

Ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi va yangi turdagi xalqaro monopoliyalarning tashkil topishi – 90 - yillarning boshlariga kelib, sanoat ishlab chiqarishining taxmiman 50 foizi, shuningdek, chet ellarga xususiy to‘g‘ridan to‘g‘ri kapital sarflarning 90 foizidan ko‘pi, eng yangi texnika, texnologiya, yangi ishlanmalarga patentlar va litsenziyalar qariyb 80 foizi millatlararo korporatsiyalar hissasiga, shundan qariyb 34 foizi amerikaliklar hissasiga to‘g‘ri kelar edi.

Xalqaro mehnat taqsimoti tarkibiy tuzilishidagi chuqur siljishlar, bunda ishlab chiqarish aloqalari keng rivojlangan tarmoq ichki ixtisoslashuvi bilan “bir zavod sexlari” ni vujudga keltirib, firmalar o‘rtasida va alohida kompaniyalar ichida mustahkam o‘zaro hamkorlikni tashkil etadi.

Ilmiy-texnika inqilobi, u fan va texnika yutuqlari natijalarini xalqaro almashish, yangi texnologiya bazasini shakllantirish zaruratini shart qilib, bozor va chiqarishning baynalmilallashuvini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Milliy iqtisodiyotlarining ochiqligi va savdo - sotiq erkinligi, zero, xalqaro almashuvning liberallasuvi milliy hujjatlarning tashqi shart-sharoitlar va ta‘sirlarga moslashuvini yengillashtirdi. Ularning xalqaro mehnat taqsimoti

va kooperatsiyasiga, keng davlatlararo hamkorlik jarayoniga yanada faol qo'shilishiga yordam berdi.

Integratsion birlashmalarning o'ziga xos xususiyati ularning mintaqalar darajasida rivojlanishidir. Mintaqaviy integratsiya ayni vaqtda qator bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har biri faqat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunga qo'shimcha ravishda har bir bosqichda muayyan to'siqlar bartaraf etiladi, ishlab chiqarish va mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdo aloqalari samaradorligini yanada oshirish uchun shart-sharoitlar vujudga keltiriladi. Natijada milliy va davlatlararo boshqaruv organlari umumiy bo'lgan yaxlit mintaqaviy xo'jalik majmualarini tashkil etish jarayoni kechadi.

Shartli ravishda integratsion birlashmalarning beshta asosiy turini ajratish mumkin: ular yaqinlarining darajasi, ko'lami va ayrim mintaqalarda namoyon bo'luvchi o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi:

Erkin savdo - sotiq zonasi iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy ko'rinishi: qatnashuvchi mamlakatlar o'zaro savdo-sotiqdagi to'siqlarni bartaraf etadilar; integratsiyaning bu turi YeESU, ShAESU mamlakatlarda va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi.

Bojxonalar ittifoqi guruh ichida tovarlar va xizmatlar erkin harakat qilishini, uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona ta'rifini taxmin qiladi; integratsiyaning bunday varianti dastavval G'arbiy Yevropa mamlakatlarining Yevropa Ittifoqi doirasida amalga oshiriladi.

Umumiy bozor - integratsion birlashmalarning nisbatan murakkab turi, bunda mamlakatlar o'rtasida nafaqat o'zaro savdo-sotiqdagi, shu bilan birga ishchi kuchi, xizmatlar va kapital ko'chishi yo'lidagi to'siqlar bartaraf etiladi, iqtisodiy siyosatdagi kelishuv ta'minlanadi.

Iqtisodiy ittifoq davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning eng murakkab ko'rinishi, u yagona iqtisodiy va valyuta-moliya siyosati o'tkazilishini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning boshqaruv tizimi tashkil etilishini, milliy soliq, inflyatsiyaga qarshi, valyuta va boshqa sohalardagi chora-tadbirlar muvofiqlashtirilishini taxmin qiladi: iqtisodiy ittifoq shakllanishini tezlashtirilishi uchun Yevropa Ittifoqi 1991 yilning dekabrda Masstrix shahrida yuqorida aytib o'tilgan maqsadlarning bajarilishini tezlashtirish va yagona Markaziy bank emissiyasini tashkil etib, yagona valyuta - yevroni joriy etish xaqida qaror qabul qildi;

Siyosiy ittifoq – mintaqaviy integratsiyaning eng yuqori bosqichi – yagona bozor hududining yaxlit iqtisodiy va siyosiy birikmaga aylantirilishini taxmin qiladi; umuman olganda gap jahon xo'jaligi va xalqaro siyosiy munosabatlarning yangi ko'pmillati sub'ekti vujudga kelishi haqida borishi mumkin, u ana shu ittifoqning barcha qatnashchilari nomidan ish yuritadi.

## **Integratsion birlashmalarning asosiy turlari**

Hozir Yer sharining asosiy mintaqalari va qit'alarida integratsiya ko'rinishidagi 20 taga yaqin xalqaro iqtisodiy birlashmalar mavjud. Ko'p sonli integratsion guruhlar orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: G'arbiy Yevropada - Yevropa ittifoqi \YeI va Yevropa erkin savdo uyushmasi \YeESU\; Shimoliy Amerikada - Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi \ShAESU\; Osiyo-Tinch okeani mintaqasida – Osiyoda-Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarni uyushmasi \ASYeAN\; Lotin Amerikasida integratsiya uyushmasi \LAI\ va “Merkosur”; Afrikada - G'arbiy Afrika davlatlari iqtisodiy hamdo'stligiga \EKOVAS\ va Markaziy Afrika bojxona va iqtisodiy ittifoqi \YuDYeAK\.

### **Yevropa Ittifoqi \YeI\**

Integratsiya jarayonlari tarixan nisbatan erkin G'arbiy Yevropada XX asrning ikkinchi yarmida, ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi sohasida yangi jihatlar paydo bo'lishi munosabati bilan namoyon bo'ldi. Milliy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida Harbiy Yevropaning olti mamlakati \GFR, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg\ 1957 yilning yanvar oyida Rim shartnomasini imzoladilar. Shartnoma qatnashchilarining fikriga ko'ra, integratsiya siyosati xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy hamkorligi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga, tovar olib kirilishiga, bojxona soliqlarini asta-sekin kamaytirishga, kapitallar, xizmatlar va ishchi ko'chi erkin kuchirilishi uchun imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratilgan edi.

1969 yilning dekabrda Gaagada hamjamiyatni kengaytirish va integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1973 yildan boshlab unga Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, 1981 yilda - Gretsiya, 1986 yilda - Ispaniya va Portugaliya, 1995 yilda - Avstriya, Shvetsiya, Finlyandiya a'zo bo'lib kirdilar. Hozir Yevropa Ittifoqi 15 davlatni birlashtirgan integratsiya guruhini tashkil etadi. Markaziy va Sharqiy Yevropadagi 10 davlat, Malta va Kipr YeH a'zolaridir. 1995 yilda Turkiya Yevropa Ittifoqi bilan bojxona ittifoqini tuzdi. 1993 yilning 1 noyabriga qadar G'arbiy Yevropa mamlakatlarining yetakchi integratsion guruhi Yevropa hamjamiyati deb atalib keldi. Mazkur hamjamiyat umumiy rahbar organlari va yagona budjetni tashkil etgan, ilgari mustaqil bo'lgan uch mintaqaviy tashkilotning 1967 yilda uyushishi natijasida vujudga keldi.

### **Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi \YeKPB\**

Shartnoma 1952 yildan boshlab, ko'mir, temir rudasi, metallurgianing umumiy bozori tashkil etilishi munosabati bilan kuchga kirdi. Import va eksportga barcha bojxona soliqlari va miqdoriy cheklashlar bekor qilindi.



YeKPB tarkibiga kirmagan mamlakatlar bilan savdo-sotiqda ko'mir va po'lat importiga yagona soliqlar joriy etildi. YeKPB tarkibiga GFR, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Italiya kirdi.

### **Yevropa iqtisodiy hamjamiyati \YeIH\**

YeIH «umumiy bozor» ni tashkil etish haqidagi Rim shartnomasini 1957 yilda, ta'kidlab o'tilganidek, G'arbiy Yevropaning olti mamlakati imzoladi.

#### **Quyidagilar YeIHning shiorlari deb e'lon qilingan edi:**

A'zo mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiqdagi cheklashlarni olib tashlash;

Uchinchi mamlakatlar bilan savdo-sotiqda yagona umumiy ta'rifni belgilash;

Kapitallar, xizmatlar va ishchi kuchi erkin harakatini ta'minlash;

Qishloq xo'jaligi, transport, energetika sohasida yagona siyosatni kelishib olish va uni o'tkazish;

Soliqlarni bir qolipga solish va muvofiqlashtirish.

Valyuta ittifoqini tashkil etish. «Umumiy bozor» g'oyasini amalga oshirish uchun YeH komissiyasi YeH mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy almashuvda mavjud to'siqlarni bartaraf etishga doir taxminan 300 dasturni ishlab chiqdi. 90-yillarning o'rtalariga kelib, bu to'siqlar deyarli bartaraf etilgan edi.

### **Atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati \Yevratom\**

Yevratom haqidagi shartnoma 1957 yilgi Rim shartnomasini imzolagan mamlakatlar \GFR, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg\ mamlakatlari tarkibida 1958 yildan boshlab kuchga kirdi. Yevratomning maqsadlari deb quyidagilar e'lon qilindi:

Parchalanuvchi materiallardan foydalanish ustidan nazorat;

Tadqiqot ishlarini olib borish;

Texnik axborotlarni almashish;

Birgalikda atom energetikasi korxonalarini qurish va hokazolar.

1991 yilning dekabrda va 1992 yilning fevralida iqtisodiy va valyuta ittifoqini shakllantirish to'g'risidagi shartnoma \Maastrixt bitimi\ imzolandi, buning natijasida YeIHda yagona valyuta - yevro hamda valyuta va pul-kredit siyosatini shakllantirishning yagona markazi - Markaziy bank va AQShning Federal zaxira tizimi tarzida Yevropa markaziy banklar tizimi joriy etildi.

1993 yil noyabrda Maastrixt bitimlari kuchga kirganidan so'ng Yevropa ittifoqi ana shu nomni rasmiy ravishda qabul qildi. Bu vaqtga kelib, aslini olganda YeIHda yagona bozor va davlatlararo boshqaruv tizimi asoslarini tashkil etish nihoyasiga yetgan edi. Mamlakatlar iqtisodiy valyuta va siyosiy ittifoqni yakuniy rasmiylashtirishga yuzma-yuz yaqinlashib qolgan edi.

YoHning faoliyati mexanizmi boshqaruvning siyosiy-huquqiy tizimiga asoslanadi, mazkur mexanizm ham umumiy milliy va davlatlararo organlardan, ham milliy-davlat boshqaruvi elementlaridan iborat.

Quyidagi institutlar YeHning asosiy huquqiy tuzilmalari tarkibiga kiradi:

Vazirlar kengashi - YeHning asosiy qonun chiqaruvchi organi bo'lib, YeHning yagona siyosati malakali ko'pchilik hozir bo'lganlarning 2/3 yoki 3/4 ovozi bilan amalga oshirilishiga doir qarorlarni qabul qiladi. Qishloq xo'jaligi, moliya, maorif, umumiy muammolarga va tashqi ishlar bo'yicha qonuniy hujjatlar majburiy bo'lib, ular milliy qonunlar bilan mustahkamlanadi. Vazirlar Kengashida rotatsiya tartibi amal qiladi, ana shu tartibga muvofiq, har bir davlatning vakili navbati bilan 6 oy muddatga raislik lavozimini egallaydi.

Yevropa kengashi tarkibiga YeHga a'zo bo'lgan mamlakatlar davlat va hukumat rahbarlari kiruvchi organdir. Davlat va hukumat rahbarlari bir yilda kamida ikki marta eng muhim siyosiy qarorlarni kelishib qabul qilish uchun uchrashadilar. Yevropa kengashi 1974 yilda tashkil etilgan bo'lishiga qaramay, katta vakolatlarga ega emasdi. Maastrixt shartnomasiga Yevropa kengashi maqomini kuchaytirish to'g'risidagi nizom kiritildi, ana shu nizomga ko'ra u «Ittifoqning rivojlanishiga zarur turtki berish va uning umumiy siyosiy tamoyillarini belgilashga da'vat etildi».

Yevropa hamjamiyatlari komissiyasi /UHK/ - ijroiya organi bo'lib, u Vazirlar kengashi tasdig'iga qonun loyihalarini taqdim etish huquqiga ega. UHK 5 yil muddatga milliy hukumatlar tomonidan saylanadigan, ammo ularga qaram bo'lmagan 20 nafar (rais va 19 nafar rais o'rinbosaridan iborat) a'zolardan iborat. YeHK qator xalqaro tashkilotlarda YeH nomida ish yuritadi. Komissiya keng vakolatlarga ega, jumladan bojxona tartibi, soliq siyosati, dehqonchilik ustidan nazoratni amalga oshiradi, yana qator vazifalarni, jumladan o'z ixtiyoridagi jamg'armalar ijtimoiy, qishloq xo'jaligi, mintaqaviy jamg'armalar hisobidan moliyaviy ta'minlash vazifalarini bajaradi, mustaqil ravishda uchinchi mamlakatlar bilan muzokaralar olib boradi; umumiy budjetdan foydalanish huquqiga ega. YeHK faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri - qabul qilingan qarorlarni milliy konunlarga, standartlarga va me'yorlarga muvofiqlashtirishdan iborat.

Yevropa parlamenti \Yevroparlament\ - 1970 yildan beri ham jamiyatga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri yalpi ovoz berish yili 5 yil muddatga saylanadi. Yevropa parlamenti nazoratchi organ bo'lib, hozir 626 deputatdan iborat. YeH qonunlarida Yevroparlamentning roli oshib bormoqda. 1993 yil 1 noyabrda Maastrixt shartnomasi kuchga kirganidan so'ng Yevroparlament yangi vakolatlarni - Vazirlar kengashi bilan birgalikda qonunlarning ayrim masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, yagona bozorni

boshqaruvchi huquqini; YeHKga siyosatning ba'zi yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqishni topshirish huquqini, budjetni tasdiqlash va boshqa huquqlarni qo'lga kiritdi.

Yevropa hamjamiyatlari sudi \YeH sudi\ - oliy sud organi bo'lib, qonunlarga rioya qilinishini, bitimlarning bajarilishini, YeH prinsiplarining amalga oshirilishini ta'minlaydi. YeH sudi 14 nafar sudyadan tashkil topgan bo'lib, ular 6 yillik mandatga ega.

YeHning ana shu besh asosiy organidan tashqari vazifasi moliyaviy faoliyat ustidan nazorat olib borishdan iborat. Nazorat taftish palatasi va ikkita maslahat organi - Yevropa Iqtisodiy hamjamiyati va Yevropa Iqtisodiy va ijtimoiy komitetlari hamda YeKPBning Maslahat qo'mitasi mavjud. Yevropa ittifoqi doirasida boshqa yordamchi muassasalar bor: har xil qo'mitalar, komissiyalar, kichik komissiyalar, jamg'armalar va hokozolar shular jumlasidandir. Ulardan ayrimlarining faoliyati ustida batafsilroq to'xtalish maqsadga muvofiq, sababi ular birgina YeH doirasidagina muhim rol o'ynashmaydi. Bu birinchi navbatda Yehning moliyaviy asosini tashkil etuvchi turli moliyaviy institutlarga va jamg'armalarga taalluqli.

Yevropa investitsiya banki \YeIB\ - qatnashchi mamlakatlar ajratgan kapital bazasida tashkil etilgan. YeIBga tijorat banki maqomi berilgan, o'z faoliyatini xalqaro bozorlarida amalga oshiradi, qatnashchi mamlakatlar davlat tuzilmalariga kreditlar beradi.

Yevropa qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan va kafolatlar jamg'armasi \FYeOGA\ - umumiy qishloq xo'jaligi siyosatini moliyaviy ta'minlash hamda ortiqcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini uchinchi mamlakatlarga eksport qilishga doir operatsiyalarga yordam berish maqsadida tashkil etilgan.

Yevropa ijtimoiy jamg'armasi - ishchi kuchining ko'chishi va kasbiy o'quvini ta'minlaydi.

Yevropa mintaqaviy rivojlanish jamg'armasi \YeMRJ\ - mintaqaviy siyosatni Yevroittifoqning kengroq doirasida amalga oshirish maqsadida YeHning qoloq hududlariga investitsiyalar va yordam mablag'larini berish uchun tashkil etilgan.

YeH maqsadlarining izchillik bilan amalga oshirilishi qator bosqichlarni bosib o'tdi.

1-bosqich \1958-1968 yillar\ . Bojxonalar ittifoki asosan shakllanib bo'lgan, natijada soliqlar bekor qilinib, qatnashchi mamlakatlarning o'zaro savdo-sotig'ida miqdoriy chegaralar olib tashlangan edi; yagona bojxona ta'rifi va uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo-sotiq siyosati ishlab chiqilgan edi; yagona qishloq xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish nihoyasiga

yetib, YeH doirasida kapitallar va ishchi kuchi harakatini liberallashtirish boshlangan edi.

2-bosqich \1969-1992 yillar\. 1987 yilda kuchga kirgan Yagona Yevropa aktini \YAYEA\ ana shu davrning eng muhim voqeasi deb hisoblash kerak. Unda YeHning tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchining harakatiga asoslangan yagona ichki bozorini shakllantirish ko'zda tutilgan edi. Gap hamjamiyat doirasida Huquqiy va jismoniy shaxslarning xo'jalik faoliyati uchun yagona Huquqiy va iqtisodiy muhitni vujudga keltirish haqida borar edi. Bir vaqtning o'zida integratsiyani fan-texnika, valyuta munosabatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi yangi sohalarga yoyish uchun huquqiy baza tashkil etilgan edi. YeH mamlakatlarining tashqi siyosat sohasidagi hamkorligi to'g'risidagi shartnoma ham YAYEAning mug'im bo'limi bo'ldi. 1992 yilning oxiriga borib, yagona ichki bozorni tashkil etishga doir tadbirlar umuman tugallangan edi. 1993 yildan boshlab tovarlar, xizmatlar, kapitallar va fuqarolar YeH doirasida erkin harakat qila boshladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Shengen bitimi imzolanganidan so'ng YeHga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi chegarani vizasiz kesib o'tish imkoniyati paydo bo'ldi.

3-bosqich, shartli ravishda Yevropa hamjamiyatiga a'zo 12 davlat tashqi ishlar vazirlari 1992 yil 7 fevralda Yevropa ittifoqi haqidagi Maastrixt shartnomasini imzolaganidan so'ng boshlandi. Shartnoma 1993 yilning 1 noyabriga qadar a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar tomonidan tarifikatsiya qilindi va u YeHning rivojlanishida yangi bosqichni - uning iqtisodiy va valyuta ittifoqiga o'sib o'tishini boshlab berdi. Hozir YeHda Yevropa Markaziy banki tashkil etilib, yagona valyuta - yevro muomalaga kiritildi, yagona fuqarolik joriy etilishi hamda tashqi siyosat va xavfsizlik siyosatini qatnashchi mamlakatlar o'rtasida kelishishning tashkiliy va hukumat mexanizmlari tashkil etilmoqda.

Maastrixt shartnomasiga muvofiq Yevropa ittifoqiga quyidagi muhim vazifalar yuklanadi:

Yevropaning yagona valyutasini joriy etish.

Yagona iqtisodiy siyosatning, birinchi navbatda budjet siyosatining muvofiqlashtirilishini kuchaytirish.

Erkin va adolatli raqobat tamoyillariga asoslangan yagona bozorni muhofaza qilish.

YeH doirasida boy va kambag'al mintaqalari mablag'lariga teng yondashuvni qo'llab-quvvatlash.

Qonunlarni, huquq-tartibotini qo'llab-quvvatlash.

Yagona tashqi siyosatni, shu jumladan umumiy mudofaa xavfsizligi shakllanishini boshqarish.

Integratsiyaga intilayotgan Yevropa uchun yagona valyutani joriy etishga alohida e'tibor beriladi. Bojxonalar ittifoqini va YeH yagona ichki bozorini a'zo mamlakatlar pul siyosatining «milliylikdan ustuvorligi» ga hamda ularda milliy valyutalar o'rniga umumiy birligi - yevroning joriy etilishiga asoslangan valyuta ittifoqi XX asr bo'sag'asida YeHga iqtisodiy integratsiyani mantiqiy nihoyasiga yetkazishga va hamjamiyatni AQShning dollari va Yaponiyaning iyenasi kabi tashqi moliyaviy siyosatning qudratli vositasi bilan ta'minlashga da'vat etiladi.

Shu bilan bir qatorda yevroga o'tishning o'z mushkulliklari bor, ham Fapb mamlakatlariga, ham Rossiya va MDHga daxldor har xil oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yagona valyutaga o'tish YeH davlatlariga quyidagi imtiyozlarni beradi:

YeHning yagona iqtisodiy bozori turli milliy tobelikda qoluvchi pul tizimlariga tayanar ekan, yagona bozor bo'la olmaydi. Bu kreditlarni, hisob-kitoblarni, valyuta kursi siyosatini tashkil etishda, ya'ni narx-navolarda, soliqlarda, pul siyosatida va valyuta bozorlarida UX ichidagi tafovutlarni saqlab qoladi. Shunday qilib yevro YeHda tarkib topgan tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchi umumiy bozorlariga pirovard poydevor hozirlaydi, uni mukammal valyuta - iqtisodiy ittifoqiga aylantiradi.

Yevro inflyatsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish, foiz stavkalarini va soliqlar yukini kamaytirish imkonini beradi, ya'ni investitsiyalar, ishlab chiqarishning o'sishini, ish bilan bandlik yaxshilanishini rag'batlantiradi, qatnashchi mamlakatlar davlat moliyasi mustahkamlanishiga yordam beradi, deb taxmin qilinadi. Agar YeHda yagona ichki bozorga o'tish G'arbiy Yevropada 300 mingdan tortib 900 mingtagacha qo'shimcha ish joylarini tashkil etish, aholi jon boshiga o'rtacha daromadlar darajasini 1,1-1,5 foizgacha ko'tarish inflyatsiyani 1-1,5 punktga kamaytirish, sanoat eksportini 20-30 foizga ko'paytirish, YeHning turli mamlakatlari ichidagi tovarlar narx-navosi farqini 22,5 foizdan 19,6 foizgacha, xizmatlar narx-navosi farqini 33,7 foizdan 28,6 foizgacha kamaytirish, chet elga chiqariladigan jami xalqaro kapitalning 44 foizini YeHga jalb etish /1992 yilgi 28 foizga nisbatan/ imkonini bergan bo'lsa, yevroning joriy etilishi qo'shimcha makroiqtisodiy imtiyozlarni olib kelishga qodirdir.

Siyosiy jihatdan olganda yevro YeHga dunyodagi o'z siyosiy mavqeini iqtisodiy imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Xo'jalik sub'ektlari uchun yevro YeHning butun hududida pul kredit, valyuta va jamg'armalar boshqaruvini bir ko'rsatkichga keltirilishini anglatadi. Jamlanish va markazlashish jarayonlarining faollashishi, soliq tizimining bir qolipga tushishi kutiladi.

UX fuqarolari yevrodan mehnat bozoridagi talab va ehtiyoj yaxshilanishini kutadi. Bir mamlakatdan ikkinchisiga xususiy pul o'tkazish, plastik kartochkalar bo'yicha hisob-kitoblar (hozircha har xil valyutadagi to'lovlar uchun oshirilgan komissiya amal qiladi), xalqaro aloqalar arzonlashadi, turizm biznesi avj oladi va hokazolar shular jumlasidandir.

Jahon iqtisodiyotining qator muhim sohalarida, shu jumladan markaziy banklarning zaxiralar siyosatida, moliya va valyuta bozorlari faoliyatida, xalqaro to'lovlar sohasida, savdo-sotiq va moliyaviy bitimlarni huquqiy rasmiylashtirishda o'zgarishlar bo'lishini bashorat qilish mumkin. Bu o'zgarishlar korxonalar va banklarning kundalik faoliyatiga bevosita amaliy ta'sir o'tkazishi aniq. Yevroning valyuta zaxiralarida bugungi kundagi Yevropa valyutalarining solishtirma vaznidan salmovutiroq vaznga ega bo'lishi kutiladi. Ehtimol, qator milliy valyutalar kursi yangi valyutaga bog'lab qo'yiladi. Yevroga o'tish markaziy banklar zaxoda siyosatining qayta ko'rib chiqilishini, Yevropaning o'z strategiyasi ishlab chiqilishini talab qiladi. Ushbu vazifalarning hal etilishi zarur hujjatlar tayyorlanishini, tegishli qonunlar qabul qilinishini, kadrlar qayta tayyorlanishini va hokazolarni talab qiladi, ular yevroga o'tishni yengillashtirishi kerak.

Valyuta bozorlari hajmining qisqarishi Yevropa valyutalari yakuniy qayd etilgan o'zaro kursining dastlabki bevosita natijasi bo'ladi. «Dollar-evro», «iyena-evro» operatsiyalariga, shuningdek, «ekzotik valyutalar» dagi, shu jumladan Sharqiy Yevropa valyutalaridagi chayqovchilikka qiziqishning oshib borishi ikkilamchi oqibat bo'lishi mumkin. "Qaynoq, pullar"ni bozorning shu hududiga tortib o'tkazish kurs tebranishlarini jiddiy ravishda kuchaytirishi va ana shu valyutalar ta'sirchanligini oshirishi mumkin.

Muvaffaqiyatga erishilgan taqdirda yevro jahon moliya tizimiga juda katta ta'sir o'tkazadi. «Doyche Morgan Grenfell» xalqaro bank konserni ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra yagona yevrovalyuta joriy etilishi bilan UHP davlatida kattaligi jihatidan jahonda ikkinchi qimmatbaho kog'ozlar bozori vujudga keladi. Ularning ma'lumotlariga qaraganda, Yevropa valyuta ittifoqi davlatlari qimmatbaho qog'ozlarining jami qiymati 1998 yilda 5,256 trillion EKYu /1 EKYu 1,12 AKD1 dollariga teng tashkil etgan, bu yapon jamg'armalar bozoridan ko'p, ammo 10,8 trillion EKYu ga teng deb baxolanuvchi Amerika jamg'armalar bozoridan kam. «Drezdner Klyanvort Benson» banki mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, yevroga o'tayotgan mamlakatlarning birlashgan aksiyalar bozori YeH a'zo bo'lgan davlatlar jamg'armalar kapitali yig'indisining 79 foizini tashkil etadi. Muvaffaqiyatga erishilgan taqdirda, yagona valyutaning joriy etilishi Yevropa integratsiyasining so'nggi 40 yildagi eng katta voqeasi bo'lib qoladi.

#### **49.1. Yevropa erkin savdo-sotiq uyushmasi - YeESU**

YeHdan tashqari 1960 yilda Stokgolmda imzolangan konvensiya asosida yana bir tashkilot vujudga keldi. YeESU - savdo-iqtisodiy birlashma bo‘lib, umumiy bozor tashkil etilganiga javob tariqasida Buyuk Britaniyaning tashabbusi bilan tashkil topgan. Dastavval unga Avstriya, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shveysariya va Shvetsiya kirgan. 1961 yildan YeESUga birikkan a‘zo sifatida Finlyandiya qo‘shildi. 1970 yilda Islandiya YeESU qatnashchisi bo‘ldi. YeESUdan 1973 yilda Buyuk Britaniya va Daniya, 1986 yilda Portugaliya, 1995 yilda esa Avstriya, Shvetsiya va Finlyandiya chiqdi. Hozir Islandiya, Norvegiya, Shveysariya va Lixtenshteyn YeESUning a‘zolaridir.

YeESUning asosini erkin savdo zonasi tashkil etadi. O‘zaro savdo-sotiqda bojxona soliqlari va miqdoriy chegaralar bekor qilingan, ammo yagona tashqi tarif yo‘q. Har bir davlat uchinchi mamlakatlarga nisbatan o‘zining mustaqil savdo-sotiq siyosatini o‘tkazadi, ana shu mamlakatlarning tovarlari esa YeESU ichida erkin harakat qila olmaydi /YeHning sanoat tovarlari bundan mustasno/. Fan va texnika, atrof muhitni muhofaza qilish sohalaridagi hamkorlik kengayib bormoqda.

Uyushma iqtisodiy va valyuta, ustiga ustak siyosiy ittifoqni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi.

YeESU faoliyatini vazirlar kengashidan iborat Kengash yoki delegatsiyalarning doimiy rahbarlari boshqaradi. Uning vazifasiga tavsiyanomalarni ishlab chiqish va uyushma doirasida tuzilgan bitimlarning unga a‘zo bo‘lgan mamlakatlar hukumatlari tomonidan ijro etilishini kuzatish kiradi. Qarorlar va tavsiyanomalar odatda yaxlitlikni talab qiladi. Kundalik ishlarga kotibiyat rahbarlik qiladi. Uyushmaning qarorgohi Jenevada joylashgan.

YeESUning YeHdan farqlari:

YeESUda milliy organlardan yuqori organlar yo‘q, Oliy rahbar organi - maslahat Kengashi bo‘lib, unda har bir mamlakat bir ovozga ega.

YeESU doirasida erkin soliqlarsiz tovar oboroti tartibi faqat sanoat tovarlariga nisbatan amal qiladi, u qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga yoyilmaydi.

YeESU a‘zo bo‘lgan har bir mamlakatning tashqi savdodagi avtonomiyasi va uchinchi mamlakatlar bilan savdo-sotiqdagi o‘z bojxona soliqlari saqlab qolingan.

YeESUda yagona bojxona tarifi yo‘q.

YeESU bilan YeH o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatilgan. 1991 yilda YeH va YeESU Yevropa iqtisodiy hududini /YeIH/ tashkil etish to‘g‘risidagi

bitimni imzoladilar. Erishilgan ahdomaga muvofiq 1993 yil 1 yanvardan boshlab YeESUga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'z milliy qonunlariga tovarlar, kapitallar va xizmatlarning erkin harakatiga taalluqli YeH qonun hujjatlariga hamda raqobat sohasidagi YeH siyosatiga kiritadigan bo'lishdi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarining integratsiyasi ko'zda tutilmaydi, sababi YeESUning qishloq xo'jaligi YeHning qishloq xo'jaligi bilan raqobatga dosh berolmagan bo'lardi.

#### **49.2. Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi - NAFTA**

Yevropada emas, Shimoliy Amerikada rivojlanib borayotgan markazga intiluvchi integratsiya tamoyillariga boshqa bir misol-NAFTAdir. Shimoliy Amerika erkin savdo-sotiq uyushmasi 1992 yilning dekabrda uch mamlakat — AQSh, Kanada va Meksika tomonidan bitimni imzolash yo'li bilan tashkillangan. Mazkur bitim 1994 yil 1 yanvardan kuchga kirgan. NAFTAning vujudga kelishidan oldinroq 1989 yilda AQSh va Kanada o'rtasida erkin savdo-sotiq zonasi haqida bitim tuzilgan bo'lib, Shimoliy Amerikada integratsiya jarayonini boshlab bergan edi. Ushbu bitimga Meksika 1991 yilning fevralida qo'shildi.

NAFTA doirasida uch mamlakatni ajratib turuvchi chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar va kapitallar harakatini liberallashtirishga doir chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Keyingi 15 yil mobaynida savdo-sotiq va investitsiyalar sohasidagi deyarli barcha to'siqlar olib tashlanishi kerak. Ana shu uch mamlakat tomonidan atrof muhitni muhofaza qilish hamda mehnat qonunchiligi sohasida bir xil qonunlarni qabul qilish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. AQSh va Kanada o'rtasida shu xildagi tadbirlar amalga oshirildi, navbatga Meksikaga ham uni amalga oshirish qoldi xolos. Bitimda Shimoliy Amerika bozorini Osiyo va Yevropa kompaniyalari egallab olishidan himoya qilish ko'zda tutilgan. Ana shu kompaniyalar o'z tovarlarini Meksika orqali AQShga o'tkazish yo'li bilan Amerika bojxonalarining to'siqlarini chetlab o'tishga intilmoqda. Tomonlar shuningdek, kapital harakatidagi chegaralarni olib tashlash haqida kelishib olishdi /Meksikaning neft, Kanadaning madaniyat va maorif, AQShning samolyotlarda yuk tashish va radiokommunikatsiyalar sektori bundan mustasno/. Meksika 2007 yilga qadar Amerika va Kanadaning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari uchun chegaralarni asta-sekin olib tashlash majburiyatini oldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga aksariyat ta'riflarni tugatish /jo'xori, shakar, ayrim sabzavotlar va mevalar savdo-sotig'idagi cheklashlar bundan mustasno/ hamda avtomobillar va gazlama savdo-sotig'idagi bojxona to'siqlarini asta-sekin /10 yil davomida/ olib tashlash haqida bitimga erishildi.



Ma'naviy mulkni muhofaza qilish, texnik standartlarni va sanitariya me'yorlarini muvofiklashtirish bo'yicha zarur tadbirlar ko'zda tutilgan.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, bugungi kunda NAFTA aholisi 375 milliondan ziyod hududni birlashtiradi, jahon savdo-sotig'i xajmining 20 foizi shu guruh hissasiga to'g'ri keladi.

Lekin shuni qayd etish kerakki, YeHdagi kabi hamkorlikni boshqaruvchi maxsus mexanizmlar /Komissiya, Sud, Parlament va hokazolar/ tashkil etilmagan.

Umuman olganda, NAFTA yosh iqtisodiy uyushma. NAFTAning hamkorlik mexanizmlari hali shakllanish bosqichida.

Hozircha NAFTA faoliyatining samaradorligini baholash qiyin, sababi, uning tashkil etilganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ammo aytish kerak, hozir ham qator Janubiy Amerika mamlakatlarning NAFTAga qo'shilishga intilayotgani ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston uchun Shimoliy Amerika mintaqasi, birinchi navbatda AQSh iqtisodiy va ilmiy-texnik aloqalarni rivojlantirish istiqbollari nuqtai nazaridan ma'lum darajada qiziqish uyg'otadi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston iqtisodiyoti AQSh uchun kapitalni foydali joylashtirish ob'ekti bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, AQSh tomonlar o'zaro manfaatdorligi tamoyilini nazarda tutib, O'zbekistonning ilmiy-texnika majmui yutuqlaridan foydalanishi mumkin bo'lardi.

### **49.3. Osiyo Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik uyushmasi – OTIH**

Osiyo - Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik uyushmasi 1989 yilda tashkil etilgan. Shakllangan mintaqaviy integratsiya guruhi sifatida OTIH endigina tarkib topayapti, unda hamkorlik ko'rinishlarini jadal izlanish jarayonlari kechmoqda. Bugungi kunda integratsiyaning Shimoliy amerikacha va Osiyo Tinch okeani modeli G'arbiy Yevropa modelidan farq qiladi. Agar G'arbiy Yevropada integratsiya jarayoni yagona bozorni tashkil etishdan iqtisodiy, valyuta va siyosiy ittifoq sari borgan bo'lib, bu milliy tuzilmalardan yuqori turuvchi tuzilmalarning shakllanishi va mustahkamlanishiga olib kelgan bo'lsa, Shimoliy Amerika va Osiyo Tinch okeani mintaqalarida integratsiya jarayonlari millatlararo korporatsiyalar bazasida birinchi navbatda mikrodarajani qamrab oladi.

Hozir OTIH tarkibiga Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikadagi 18 davlat: Kanada, AQSh, Meksika, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Papuya-Yangi Gvineya, Bruney, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin, Janubiy Koreya, Tayvan, Gongong, XXR, Yaponiya va Chili kiradi.

OTIHning boshqaruv tizimi 10 ishchi guruhini, kotibiyat, savdo-sotiq va investitsiyalar maxsus qo‘mitasini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga OTIH qarorlarni qabul qilish mexanizmiga ega emas, ko‘p jihatdan maslahat guruhi xususiyatlarini saqlab qolgan.

OTIHning o‘ziga xos xususiyati Uyushmaga kiruvchi mamlakatlarning geografik joylashuvida aks etadi, ular bir-biridan olis masofada joylashgan bo‘lib, ularni Tinch okeani yo‘li birlashtiradi. Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, OTIHning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unga yirik sanoat rivojlangan mamlakatlar ham /AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya/, ularga ko‘p jihatlariga ko‘ra tenglasha olmaydigan Meksika, Chili, XXR va boshqa davlatlar ham a‘zodir. Jahon YaMIning 55 foizi, jahon savdo-sotig‘ining 40 foizi, yer shari aholisining 40 foizidan ziyodi OTIH hissasiga to‘g‘ri keladi.

OTIH qatnashchilarining 1993 yili Sietlda va 1994 yili Bogorda bo‘lgan uchrashuvlarida savdo-sotiqni /mintaqaviy va jahon miqyosidagi/ liberallashtirish, chet el investitsiyalari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, texnologiyalar sohasida hamkorlik dasturlari, bojxonalarni ochish va 2000 yilga kelib /kam rivojlangan mamlakatlar uchun 2020 yilga/ erkin savdo-sotiq zonalariga tashkil etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

1995 yilda OTIHning Osaka (Yaponiya)dagi uchrashuvida 18 mamlakatning yetakchilari 1994 yilda oldinga qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha aniq «xatti-harakatlar rejasi yuzasidan bir bitimga kelisholmadi». OTIHda guruhning «osiyolik», va «osiyolik bo‘lmagan» qatnashchilari o‘rtasida jiddiy ziddiyatlar mavjud.

Bir yil keyin, 1996 yilning noyabrida, Filippinning poytaxti Manilada OTIH qatnashchilari tovarlar va xizmatlar bozorlarini liberallashtirishning alohida-alohida va birgalikdagi rejalarini muvofiqlashtirib olish haqida kelishishga muvaffaq bo‘ldilar. 2020 yilga kelib, tovarlar va kapitallar harakati uchun erkin zonani tashkil etish, asr oxiriga qadar yangi a‘zolar qabul qilinishiga moratoriyni saqlab qolishga intilish tasdiqlandi. Umuman, OTIHni «ochiq iqtisodiy integratsiya» guruhi sifatida tavsiflash mumkin, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Mongoliya, Kolumbiya, Ekvador unga a‘zo bo‘lib kirish uchun ariza berishgan.

#### **49.4. Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi - ASEAN**

Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi - 1967 yilda Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippindan iborat tarkibda tashkil etilgan mintaqaviy siyosiy-iqtisodiy tashkilot. 1984 yilda ASYANga Bruney, 1995 yilda Vetnam a‘zo bo‘lib kirdi.

A'zo bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga, ijtimoiy taraqqiyotiga va madaniy rivojlanishiga yordam berish ASEANning rasmiy maqsadlari deb e'lon qilingan. Uning boshqaruv tizimi oliy organ - Tashqi ishlar vazirlarining Kengashi va doimiy qarorgohi Jakartada bo'lgan ASEANning doimiy Kotibiyatidan iborat.

ASyEAn faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning barcha qatnashchilari aslida ayni vaqtning o'zida boshqa mintaqaviy birlashmalarning a'zolari hisoblanadi hamda ASEAN bilan AQSh o'rtasida ikki tomonlama shartnoma majburiyatlari mavjudligidir.

Shuni qayd etish kerakki, ASEAN hozirgi paytda Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi eng samarali tuzilma hisoblanadi. 30 yillik faoliyati davomida u mazkur mintaqada erkin savdo-sotiqning shakllanishiga ancha-muncha muvaffaqiyatli yordam berdi, vaholanki, unga a'zo mamlakatlar o'zaro savdo-sotig'ining ulushi ularning tashqi savdo obroti jami hajmining 20-22 foizidan oshmaydi. 2000 yilga kelib ASEAN 38 ming turdagi tovarlar bo'yicha bojxona soliqlarini 5 foizgacha kamaytirishni va o'ziga xos «umumiy bozor» - soliqsiz savdo-sotiq tizimini tashkil etishni rejalashtirgan.

#### **49.5. Lotin Amerikasining hamkorlik birlashmalari**

Lotin Amerikasi hamkorlik uyushmasi (LHU) ~ savdo- iqtisodiy tashkilot bo'lib, 1961 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelgan Lotin Amerikasi erkin savdo uyushmasi (LESU) o'rniga «Montevideo-80 shartnomasi»ga muvofiq 1981 yilda tashkil etilgan. Argentina, Boliviya, Braziliya, Venesuela, Kolumbiya, Meksika, Paragvay, Peru, Urugvay, Chili, Ekvador LHUning qatnashchilaridir. LHU doirasida uch submintaqaviy guruhga bo'linish saqlanib qolgan:

La-Plata havzasi shartnomasi;

And pakti;

Amazoniya pakti shular jumlasidan.

Ba'zi mamlakatlar ayni vaqtning o'zida boshqa mintaqaviy guruhlarning a'zosi hamdir.

LHUNing boshqaruv tizimi uning oliy organi - Vazirlar kengashidan iborat (qarorgohi Montevideoda, Urugvay).

LHUNing ichki mintaqaviy savdo-sotig'i va mintaqaviy hamkorligi mintaqaviy va submintaqaviy, shuningdek, funksional (ikki tomonlama va ko'p tomonlama), savdo-sotiq va bojxona masalalariga doir shartnomalarni tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnoma munosabatlari nafaqat savdo-sotiq masalalariga, shu bilan bir qatorda sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab

chiqarishi, transport, valyuta-moliya munosabatlari kabi sohalarga taalluqli bo‘lishi mumkin.

«Merkosur» — erkin savdo-sotiq zonasi bo‘lib, Lotin Amerikasidagi to‘rt mamlakat - Braziliya, Argentina, Urugvay va Paragvayning ittifoqi sifatida 1995 yilda tashkil topgan. Blok tarkibiga Boliviya ham kirgan. Lotin Amerikasi hududining taxminan 68,6 foizi, mintaqa aholisining 51 foizi, YaIMning 60 foizi «Merkosur» mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi yig‘indisi bo‘yicha «Merkosur» YeH NAFTA va OTIHdan so‘ng dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turadi. «Merkosur»ni tashkil etish haqidagi bitim bilan guruh chegaralarida harakat qiluvchi tovarlarning 90 foiziga bojxona soliqlari bekor qilindi, tovarlarning qolgan 10 foiziga soliqlar 2001 yilga qadar saqlanadi. Umumiy tashqi tariflarni olganda, «Merkosur» a‘zolari tovarlarning 85 foizi bo‘yicha tariflarni kelishishga muvaffaq bo‘lishgan, tovarlarning qolgan 15 foiziga tariflar 2006 yildan kechikmay kelishilishi lozim.

«Merkosur»ni tashkil etishdan kuzatilgan pirovard maqsadni uning qatnashchilari mintaqada «umumiy bozor»ni tashkil etish, deb belgilashgan. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagilar zarur bo‘ladi:

Milliy soliq solish tartibini, mehnat va migratsiya haqidagi qonunlarni muvofiqlashtirish;

Valyuta almashish kurslarini boshqarish mexanizmini vujudga keltirish;  
«Merkosur» qarorlari va qoidalarining milliy qonunlardan ustuvorligini joriy etish.

«Merkosur» doirasida davlat va hukumat rahbarlari, tashqi ishlar, iqtisodiyot, moliya, savdo, ijtimoiy ta‘minot vazirlari darajasida doimiy maslahatlashuv mexanizmi ishlab chiqilgan va u faoliyat ko‘rsatmoqda.

1995 yilning dekabrda «Merkosur» va YeH Janubiy Amerika tarixida birinchi qit‘alararo erkin savdo-sotiq zonasini tashkil etish haqidagi bitimni imzoladilar.

#### **49.6. Afrikaning hamkorlik birlashmalari**

G‘arbiy Afrika davlatlarining iqtisodiy hamjamiyati (EKOVAS) 1975 yilda ta‘sis etilgan. Benin, Burkina-Faso, Gana, Gambiya, Gvineya, Gvineya-Bisau, Kabo-Verde, Nigeriya, Senegal, S‘erra-Lione, Togo va Kot Divuar EKOVASning a‘zolari hisoblanadi.

Quyidagilar tashkilotning maqsadlari deb e‘lon qilingan:

Har tomonlama iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish;

Tabiat resurslarini safarbar etish;

Mintaqa mamlakatlari rivojlanish darajasini tenglashtirish;

Bosqichma-bosqich 15 yil mobaynida Afrika umumiy bozorini vujudga keltirish;

Birgalikda iqtisodiy siyosatni o'tkazish, a'zo davlatlar rivojlanish rejalarini muvofiqlashtirish.

EKOVAS doirasidagi iqtisodiy integratsiya quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanmoqda:

Mintaqaviy savdo-sotiqni liberallashtirish;

Bojxonalar va valyuta ittifoqini tashkil etish;

Fuqarolar va mol-mulkning erkin harakat qilish tartibini o'rnatish;

Energetika, kon qazish sanoati va yo'l qurilishi sohalarida qo'shma loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

EKOVAS doirasida hamkorlik, kompensatsiya va rivojlanish jamg'armasi /FKKD/ tashkil etilgan, uning doimiy qarorgohi Lomo shahrida /Togo/. FKKD vazifalari doirasiga quyidagilar kiradi: erkin savdo-sotiq zonasi tashkil etilganligi sababli soliqlar kamaytirilganligidan ko'rilgan zarar o'rnini qoplash; qo'shma ob'ektlar qurilishini moliyaviy ta'minlash va hokazolar.

80-yillarning oxirida EKOVAS mamlakatlari o'rtasidagi savdo-sotiq guruh a'zolari bo'lgan mamlakatlar savdo-sotig'i jami hajmining 5 foizga yaqinini tashkil etar edi, 90- yillarning boshlarida esa - 7,7 foizini tashkil etdi.

EKOVAS faoliyatining huquqiy asoslarini hamjamiyatning oliy organi - davlat va hukumat rahbarlarining har yili o'tkaziladigan konferensiyasi himoya qiladi. Doimiy ma'muriy organi - Ijroiya kotibiyati. Uning qarorgohi - Logos shahrida (Nigeriya).

Markaziy Afrika Bojxonalar va iqtisodiy, ittifoqi /YuDYeAK/ 1964 yilda Brazzavil shahrida /Kongo/ tashkilotni ta'sis etish haqidagi bitim imzolanganidan so'ng tashkil etilgan va u 1966 yil 1 yanvardan kuchga kirgan. YuDYeAKka a'zo bo'lgan mamlakatlar: Gabon, Kamerun, Kongo, MAR, Chad, Ekvatorial Gvineya /1983 yilning dekabridan/.

Blok doirasidagi mamlakatlararo savdo - sotiqning hajmi a'zo davlatlar jami eksportining atigi 0,9 foizini tashkil etadi.

Quyidagilar YuDYeAKning maqsadi deb e'lon qilingan:

o'zaro savdo-sotiqdagi chegaralarni asta-sekin olib tashlash yo'li bilan umumiy bozorni tashkil etish;

iqtisodiy dasturlarni kelishish;

soliq tizimlarini muvofiqlashtirish;

qo'shma korxonalarini qurish;

O'zaro moliyaviy yordam va dengizga chiqish yo'li bo'lmagan, ammo blokka a'zo bo'lgan mamlakatlar /Chad, MAO/ uchun imtiyozli bojxona sharoitlarini yaratish.

YuDYeAK doirasida Birdamlik jamg'armasi, Rivojlanish banki /BDYeAS/, Markaziy Afrika davlatlari banki /BYeAS/ kabi moliya tashkilotlari faoliyat olib boradi.

Faoliyatning huquqiy asoslarini YuDYeAKning oliy organi — Davlat rahbarlari kengashi amalga oshiradi, har yili uning sessiyalari bo'lib turadi. Har yili qatnashchi mamlakatlarning prezidentlaridan biri bir yilga YuDYeAK raisi etib tayinlanadi. YuDYeAKning qarorgohi Bangida /MAR/ joylashgan.

YuDYeAKda tovarlar, kapitallar va ishchi kuchining mamlakatlararo harakati yo'lida ko'p sonli to'siqlar saqlanib turibdi. Mintaqa ichida savdo-sotiqning kengayishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy sabablar, birinchi navbatda quyidagilar:

- uning qatnashchilari barchasi bir xilda sust rivojlanganligi;
- xalqaro mehnat taqsimotida ularning ixtisoslashuvi bir xilda ekanligi;
- mintaqada rivojlangan transport tarmog'ining yo'qligi.

### **Qisqacha xulosa;**

Ishlab chiqarishning kuchga to'lib borayotgan baynalmilallashuvi yangidan-yangi tashkiliy ko'rinishlarni vujudga keltiryapti, ular davlat chegaralari tomonidan qo'yilgan to'siqlarni yengib o'tish imkonini berayapti. Ana shu ko'rinishlardan eng muhimi milliy xo'jaliklarning baynalmilallashuvidir Iqtisodiy integratsiya — xo'jalik hayoti baynalmilallashuvining hozirgi bosqichidagi eng yuqori bo'g'inidir, integratsiya natijasida xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashadi bu tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi almashinuvini jadallashtiradi, ishlab chiqarishni umumiyashtirish darajasi oshadi, bu esa iqtisodiy jarayonlarni davlatlararo birlashmalar miqyosida aniq maqsadni ko'zlab, rejali boshqarishni taqozo etadi.

Yer sharining turli mintaqalarida bir nechta integratsion birlashmalar vujudga kelgan. Ular birlashmalarga kiruvchi mamlakatlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar tavsifi bo'yicha ham, tashkiliy ko'rinishlari bo'yicha ham, milliy xo'jaliklarga va aholiga keltirayotgan foyda bo'yicha ham birbiridan jiddiy farq qiladi.

G'arbiy Yevropaning bir qator davlatlari /Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg/ 1958 yili Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini /YeIH/ tuzishdi. Bu hamjamiyat aholisi AQSh aholisining 1,4 baravar ko'p va uning xo'jalik potensialiga teng bo'lgan potensialga ega qudratli guruhga aylandi. YeIH a'zolarining soni kengayishi bilan bir qatorda asosini savdo-sotiq tashkil etuvchi xamkorlikdagi xo'jalikning boshqa sohalaridagi, shu jumladan ilmiy - texnik faoliyat sohasidagi integratsiyaga

/qo'shma tadqiqot va ishlanmalarni ishlab chiqish umumiy dasturlarni yaratishga/ o'tish ro'y berib bordi. Ana shu jarayon nihoyasiga yetgach integratsiya birlashmasi Yevropa hamjamiyati /YeH/ deb nomlanadigan bo'ldi, YeH milliy valyutalarning erkin almashuvi yo'lga qo'yilgan, hisob-kitoblarni boshqarish, valyuta kurslarini belgilash mexanizmiga ega Yevropa valyuta tizimi tashkil etilgan. Yagona valyuta birligi /evro/ muomalaga chiqarilgan bo'lib, u jahon valyutalaridan biriga aylandi, hozir Yevropa hamjamiyati integratsion rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Davlatlarni ajratib turgan ko'p sonli chegara va bojxona to'siqlari bartaraf etilmoqda. Bu qator ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Savdo-sotiq va ishlab chiqarishdagi to'siqlarni bartaraf etishga sarf-xarajatlarni kamaytirish hisobiga ko'riladigan tejamni, bozor integratsiyasi raqobatining kuchayishidan olinadigan daromadi shular qatoriga qo'yish mumkin. Bundan ko'riladigan iqtisodiy samara o'rtacha bahoda 244 milliard dollarni tashkil etadi.

Integratsiya G'arbiy Yevropa kapitaliga asosiy raqiblari AQSh va Yaponiyaga tengma-teng qarshi turish imkonini beradi. Hamjamiyatga kirmagan davlatlar boshqa tarkibi nisbatan kengroq Iqtisodiy tashkilotlar rolini oshirish yo'li bilan integratsion birlashmaga a'zo bo'lgan mamlakatlar ustunligini yo'q qilishga harakat qilmoqdalar. Tarkibi nisbatan kengroq tashkilotlar qatoriga, birinchi navbatda, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti /IHRT/ va Jahon savdo-sotiq tashkiloti /JST/ kiradi. 1961 yilda tashkil topgan IHRT ga jahonning 24 davlati a'zodir. Bu tashkilot o'z a'zolarining iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtiradi, kapitalning xalqaro migratsiyasiga ta'sir o'tkazadn, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam beradi, JST hozir 90 dan ortiq davlatni birlashtiradi. Mazkur tashkilot bojxona soliqlarining kamaytirilishiga, mamlakatlarning tovar almashinuviga to'sqinlik qilayotgan boshqa to'siqlarning hal etilishiga erishmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning hamkorlik tashkilotlari biroz boshqacha. Bunday mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyadan manfaatdorligi shundaki, bu ularga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish imtiyozlaridan foydalanish imkonini beradi, rivojlanish uchun zarur tabiiy va boshqa resurslar sari yo'l ochadi.

Integratsiya ozod bo'lgan mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi mavqeini mustahkamlaydi, nisbatan kuchli sheriklar bilan munosabatlarda ularning manfaatlarini himoya qiladi. Sababi, yakkama-yakka birorta ham davlat ularga qarshi turolmaydi. Ana shundan kelib chiqib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari o'z resurslaridan jamoa tarzida foydalanish yo'li bilan hamkorlikni kengaytirishyapti. Bunday guruhlarining ko'rinishlari va turlari har xil; savdo-sotiq bloklari, qo'shma loyihalarni yaratuvchi tashkilotlar,

valyuta ittifoqlari, investitsiya tashkilotlari va tovar uyushmalari shular jumlasidandir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning hamkorlik birlashmalari umummaqsad yo'lida har xil samaradorlik bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning qiyinchiliklari ana shu davlatlarning hozirgi umumiy og'ir ahvolini, haqiqiy iqtisodiy qudratga ega g'arb davlatlarining yirik korporatsiyalar, xalqaro moliya muassasalarining ularga nisbatan keskin pozitsiyasini aks ettiradi.

### **Asosiy tushunchalar**

1. Xalqaro integratsiya jarayonlari
2. Xalqaro birlashmalar
3. Valyuta tushunchasi

### **Mavzuning namunaviy savollari**

4. Yevro valyutani joriy qilish sabablari va xususiyatlari.
5. Yevropa ittifoqining yagona iqtisodiy bozori iqtisodiy integratsiyaning tushunchasi va mohiyati.
6. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari va omillari.
7. Yevroni erkin savdo-sotiq uyushmasi (YeESU).
8. Osiyo-tinch okean iqtisodiy hamkorlik uyushmasi.
9. MDH iqtisodiy integratsiyaning muammolari.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar:**

10. Jahon iqtisodiyotidagi integratsiyaning mohiyati va xususiyatlari.
11. Yevropa iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari va omillari.
12. Yevropa erkin savdo-sotiq uyushmasi (YeESU).
13. Osiyo - Tinch okean iqtisodiy hamkorlik uyushmasi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

14. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonining mohiyati va ob'ektiv asoslari.
15. Iqtisodiy integratsiyaning eng muhim omillari.



## **50 BOB. JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI**

**Jahon bozori** – bu jahon mamlakatlari orasida tovar-pul munosabatlarining mustahkam tizimli bo‘lib, bular orasida xalqaro mehnat taqsimotida qatnashuvchilarni o‘z ichiga oladi. Jahon bozorining yuzaga kelishi XVI-XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. XIX - XX - XXI asrlar boshlarida butunlay shakllangan va rivojlangan. Shu bilan birga biz jahon valyuta kurslarini va xalqaro kredit munosabatlarini ko‘rib chiqamiz.

### **50.1. Milliy iqtisodiyotda valyuta kurslarining ahamiyati**

#### **O‘tish davri iqtisodiyotida almashuv kursining funksiyasi**

O‘tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda valyuta siyosatining mazmuni va yo‘nalishlari jiddiy o‘zgarishga yuz tutmoqda. Markazdan rejalashtiriladigan iqtisodiyotning tashqi iqtisodiyotda faoliyatga davlat monopoliyasi hukmronligida milliy valyuta konvertatsiyasi istisno qilinardi. Barcha eksport-import operatsiyalari ustidan qattiq valyuta nazorati, jumladan valyuta resurslari taqsimoti ustidan nazorat mavjud edi. Eksportchilar valyuta tushumlarini amaldagi almashuv kurslari bo‘yicha topshirishga majbur edilar. Ayni vaqtda tashqi iqtisodiy faoliyatining turli ko‘rinishlari uchun bir-biriga o‘xshamagan almashuv kurslaridan foydalanilardi (ko‘p sonli almashuv kurslari tizimi mavjud edi), bu eksportchi va importchilar turli guruhlarini tengsiz iqtisodiy sharoitlarga solib qo‘yardi. Milliy valyutaning rasmiy kursi juda ham oshirib yuborilgan bo‘lib, ko‘pincha valyuta “qora” bozori kursidan 4-7 barobar yuqori bo‘lardi. Bularning hammasi ochiq valyuta bozorlari yo‘qligi bois cheklangan valyuta zaxiralarining samarali taqsimotiga to‘sqinlik qilar, joriy operatsiya balansining yomonlashishiga olib kelardi. Ana shunday sharoitlarda to‘lov balansi muammolari tashqi savdoni qattiq cheklash (birinchi navbatda bu importga tegishli bo‘lardi) yordamida va davlat yo‘li bilan tashqi zayomga murojaat etilib hal qilinardi. Importning miqdoriy cheklanishi, import litsenziyalarining ma‘muriy taqsimlanishi narx-navoning davlat tomonidan tartibga solinishi bilan birga ichki va jahon bozori narxlari o‘rtasida tafovutlarga, qiyosiy afzalliklarning boy berilishiga, mamlakat ishlab chiqaruvchilarning tashqi dunyo bilan raqobatda yakkalanib qolishiga olib kelardi.

Umuman iqtisodiy tizimning eng yuqori samaradorligiga erishish maqsadida bozor munosabatlariga o‘tish tubdan o‘zgarayotgan iqtisodiy muhitda valyuta almashuv kursi rolini yangicha baholash imkonini beradi. Narx-navo “erkinlashuvi”, boshlangan import tartibini liberallashtirish

jarayoni va eksport ustidan davlat nazoratining kamayishi (1995 yilga kelib, Markaziy va Sharqiy Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida, shuningdek Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Moldova va O‘zbekistonda eksport kvotalari tugatilgan edi), davlat buyurtmalarining ob‘ektiv ravishda valyuta almashuv kursini makroiqtisodiy siyosatning ustuvor sohasiga aylantirdi.

Tashqi savdoni liberallashtirish, miqdoriy cheklashlardan tariflarga o‘tish, tashqi savdodagi cheklashlarning asta-sekin qisqarishi valyuta almashuv kursi zimmasiga to‘lov balansining, birinchi navbatda joriy operatsiyalar balansining barqarorlashuvi uchun ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidagidan ko‘ra ko‘proq mas‘uliyat yuklaydi. Aynan bir xil valyuta almashuv kursi tashqi savdodagi cheklashlar qisqartirilishning oqibatini imkon qadar yumshatishga davat etilgan. Masalan, milliy valyutaning devalvatsiyasi yoki qadrsizlanishi import tovarlari narxini oshirib, importning miqdoriy cheklashlardan chekinishni yengillashtirib, ularning proteksionistik samaradorligini pasaytiradi.

Valyuta bozorida talab va taklifni tenglashtiruvchi muvozanatli valyuta almashuv kursi yana bir, faqat o‘tish davri iqtisodiyotiga xos juda muhim vazifani bajaradi: u ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan meros qolgan nisbiy narxlar tuzilishidagi nuqsonlarni to‘g‘rilashga da‘vat etilgan. Me‘yoriy tamoyillarga asoslanib mahsulotlarga bunday narxlar amalda bozor mexanizmini hisobga olmas edi, narx-navo iqtisodiy agentlarga bozor to‘g‘risida zarur axborotlarni xabar qilmasdi va shu sababli yuqori samarali ishlab chiqarishga rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qila olmasdi. Tashqi savdo erkinligi sharoitida, tovarlarni jahon bozori narxlarida sotib olish va sotish imkoniga ega bo‘lgan, xalqaro savdo-sotiq ob‘ekti sifatida ishtirok etuvchi mamlakatning ichki tovar ishlab chiqaruvchilari va iste‘molchilari muqarrar ravishda o‘z ishlab chiqarishini almashuv kursi orqali milliy valyutada ifodalangan amaldagi jahon narxlari darajasiga “moslashtiradilar” ( $P_t = P^* \times e$  bunda  $P_t$ -xalqaro savdo-sotiq ob‘ekti bo‘lmish tovar narxi,  $P^*$ -narxlarning jahon darajasi,  $e$ -nominal almashuv kursi). Narx-navo turtkisi keyinchalik xalqaro savdo ob‘ekti bo‘lmagan tovar ishlab chiqaruvchilarga ko‘chadi, bunday tovarlar narxi xalqaro savdo ob‘ekti bo‘lgan tovarlar narxiga bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, mamlakat ko‘proq yoki kamroq tezlikda nisbiy narxlar jahon tuzilishini import qiladi.

Mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan tanlab olingan valyuta almashuv kursiga bog‘liq. Agarda, mamlakat birinchi navbatda ichki narx-navoning tez o‘sishi natijasida o‘z valyutasining rosmana qimmatlashishiga duch kelsa, devalvatsiya raqobatbardoshlikni qayta

tiklashning ta'sirchan vositasi bo'lishi mumkin. Qanday sabablar ta'sirida raqobatbardoshlik tushib ketganligini, buning oqibatida joriy operatsiyalar balansi yomonlashganini aniq tasavvur etish kerak. Asosan pul emissiyasi hisobiga moliyalashtiriladigan davlat budjeti kamomadining kutilmagan o'sishi yuz bersa, devalvatsiya muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin: u almashuv kursi rosmi o'sishi va tushib ketgan raqobatbardoshlik qayta tiklanishiga yordam beradi. Ammo muammo shundan iboratki, valyutani qanchaganarxlarning o'sish sur'atiga nisbatan ko'p yoki kam miqdorga devalvatsiya qilishni hal etish lozim, sababi tovar va valyuta bozorlarida iqtisodiy larzalarga sezgirlik tezligi har xil.

Mamlakat savdo-sotiq sharoitlari yomonlashishiga duch kelgan hollarda devalvatsiyaga g'oyatda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Basharti mamlakat importga g'oyat darajada bog'liq bo'lsa, import xom ashyosidan foydalanuvchi mamlakatdagi tovar ishlab chiqaruvchilarning chiqimlari anchagina ko'payadi, bu ichki narx-navoning yanada ko'tarilishiga, valyutaning qimmatlashishiga, raqobatbardoshlikning susayishi va joriy operatsiyalar balansining yomonlashishiga olib keldi. Bu holda raqobatdoshlikni qayta tiklash muammosi ichki omillar (iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish, investitsiya siyosatini qayta ko'rib chiqish va boshqalar) hisobiga hal etilishi lozim, uni qayta tiklash anchagina uzoq muddatni talab qiladi.

Almashuv kursining tegishli budjet - soliq va kredit - pul siyosati bilan qo'llab-quvvatlangan turg'unligi yoki uni bashorat qilish imkoniyati milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga va unga ishonchni mustahkamlashga da'vat etilgan. Bu iqtisodiyoti o'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa muhim, ana shu mamlakatlarning aksariyatida (birinchi navbatda, sobiq SSSR respublikalarida) milliy kredit-moliya tizimini (shu jumladan, valyuta bozorlarini) tashkil etish hamda milliy pul birliklarini joriy etish faqat 90-yillarda boshlandi.

Almashuv kursi, uning dinamikasi tegishli qonunlar bazasi bilan bir qatorda kapital xalqaro oqimi yo'nalishi va xususiyatiga ta'sir etadi. Iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalarining hajmi kapital oqimlari ustidan qattiq valyuta nazorati mavjudligiga, milliy valyuta qay darajada konvertatsiya qilinishiga, chet el kompaniyalarining qabul qilayotgan mamlakatlardan daromadlarni olish imkoniyatlari qanday ekanligiga bog'liq.

Iqtisodiyoti o'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda almashuv kursi inflyatsiyaga qarshi kurashda jiddiy rol o'ynashi mumkin. Almashuv kursi tarixan barqaror narx-navoni saqlab turishning muhim vositasi

bo‘lib xizmat qilgan. Oltin standarti davrida u inflyatsiyaning oldini olishda birinchi darajali rol o‘ynagan (joriy operatsiyalar balansi kamomadining vujudga kelishi bilan kuzatiluvchi iqtisodiy o‘tish qayd etilgan almashuv kursi sharoitlarda mamlakatdan oltinning chiqib ketishiga, bu demak, pul massasining kamayishiga olib kelar, pul massaning hajmi faqat mamlakatdagi oltin zaxiralari bilan belgilanar edi). Aynan almashuv kursiga birinchi jahon urushidan so‘ng Yevropadagi giperinflyatsiyani to‘xtata olgan asosiy omil deb qaraladi. Iqtisodiyoti o‘tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda ajabtovur vaziyat vujudga kelganki, ichki narx-navo almashuv kursiga yo‘naltirilgan (sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa buning aksi). Yuqori darajadagi inflyatsiyaga qarshi kurashda almashuv kursidan nominal langar sifatida foydalanish ma‘lum shart-sharoitlarda barqarorlashtirish jarayonining ta‘sirchan vositasi vazifasini o‘tashi mumkin. Shu munosabat bilan iqtisodiyoti o‘tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarga yuqori darajadagi inflyatsiyaga qarshi kurashda 70-80-yillarda giperinflyatsiya va yuqori darajadagi inflyatsiyaga qarshi kurashda almashuv kursidan nominal langar sifatida foydalangan Lotin Amerikasi mintaqasining Argentina, Chili, Braziliya kabi mamlakatlarning, shuningdek Isroilning tajribasidan foydalanish asosli bo‘ladi. Mazkur mamlakatlarning tajribasi shundan dalolat beradiki, almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirish qattiq kredit – pul va budjet - soliq siyosati bilan qo‘shib olib borilganda, almashuv kursi aholining asosiy massasi ishonchiga sazovor bo‘lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin ekan.

## **50.2. Almashuv kursi(ning) tizimini tanlash**

Biror davlatning almashuv kursi tizimini tanlash birinchi navbatda iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari, to‘lov balansining ahvoli, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi, raqobatdoshlik darajasi, zaxiradagi chet el valyutasi miqdori, iqtisodiyotning tashqi savdoga qaramlik darajasi, jamiyatdagi ijtimoiy larzalarning tabiati va xususiyatlari bilan belgilanadi.

Valyuta siyosatining muvaffaqiyati uning makroiqtisodiy siyosatning boshqa yo‘nalishlari bilan naqadar jips muvofiqlashtirilganligiga bog‘liq. Basharti almashuv kursiga nisbatan tanlangan strategiya tarkib topayotgan haqiqiy iqtisodiy vaziyatga javob bermasa, u mamlakat boshdan kechirayotgan iqtisodiy larzalarni yanada chuqurlashtirishi mumkin. Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning, shuningdek, iqtisodiyoti o‘tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarning tajribasi bir xil darajada ana shundan dalolat beradi. Shu narsa ayonki, agar yopiq iqtisodiyotga ega bo‘lgan mamlakat, masalan, u davlat budjetining katta kamomadi huquqini saqlab

tursa, qayd qilingan almashuv kursini davom ettirish strategiyasi voqelikka zid bo‘ladi, chunki qisqa muddatda u mamlakatdan rasmiy zaxiralarning chiqib ketishiga olib keladi.

Iqtisodiyoti o‘tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda almashuv kursi tizimini tanlash muammosi ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi parchalanganidan so‘ng bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan yanada murakkablashdi: aytish mumkinki, mamlakatlar oldida almashuv kursining mutlaqo yangi tizimini tanlash vazifasi turar edi, mazkur mamlakatlarda topgan davlatlarning aksariyati to‘laqonli o‘z milliy valyutasiga ega emasdi, valyuta bozorlarning tarkib topish jarayoni kechayotgan edi.

Iqtisodiyoti o‘tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlar hozirgi vaqtda almashuv kursining xilma-xil tizimlarini namoyish etayotganiga qaramay –Latviyada qattiq qayd qilingan valyuta kursi, Estoniya, Litva va Bolgariyada valyuta kengashi, Vengriyada “sirg‘aluvchi tutqich”, Polshada, Moldavada “erkin suzuvchi” almashuv kursi amal qilayotganligiga qaramay, ma‘lum darajadagi chekinishlar bilan ana shu mamlakatlarning aksariyatida almashuv kursi tizimining tadrijiy rivojlanish qonuniyatlarini kuzatish mumkin.

Iqtisodiyotni isloh qilishning dastlabki bosqichlarida, 90-yillarning boshlarida barcha mamlakatlar o‘z valyutalarini jiddiy ravishda devalvatsiya qilganiga ayrimlari bir qator eksport-import bitimlari uchun suzuvchi almashuv kursini joriy etganiga qaramay almashuv kurslarining ko‘p sonli tizimlari saqlanib qolgan edi. Ammo, ko‘p sonli almashuv kurslari tizimining saqlanib qolishi eksportchilarni g‘oyatda mushkul ahvolga qo‘yar, eksport tushumlarining talaygina qismi yashirib qolinishiga, oxir-oqibatda valyuta zaxirasiga tushumlarning kamayishiga, “qora” yoki “parallel” valyuta bozorlarining faollashishiga olib kelardi. Ko‘p sonli almashuv kurslari tizimidan voz kechish, almashuv kursini muvofiqlashtirish bozor islohotlari nisbatan izchillik bilan amalga oshirilayotgan mamlakatlarda jadalroq kechardi. 90-yillarning boshlarida Chexiya, Polsha, Vengriya, 1992-1993 yillarda - Rossiya, Bolgariya, Estoniya, Latviya, Litva, Moldova, Qirg‘iziston almashuv kurslarining ko‘p sonli tizimlaridan voz kechishdi.

Iqtisodiyoti o‘tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlar almashuv kurslarining ko‘p conli tizimlaridan voz kechish bilan bir qatorda valyutaning ichki konvertatsiyasini joriy etishardi, bu rezidentlarga aktivlarning ba‘zi turlarini (masalan, valyuta va bank depozitlarini) xorij valyutasida qo‘lga kiritish va saqlash imkoniyatini berardi. Ammo bu qoida o‘z eksport tushumlarini to‘la topshirishi lozim bo‘lgan korxonalariga taalluqli emasdi. Ichki konvertatsiyani joriy etish ortida rezidentlarni o‘z qo‘llaridagi naqd

valyutani sotishga yoki depozitga o'tkazishga undash, shunday qilib valyuta resurslarini bank sohasiga yo'naltirish hamda "qora" bozorlarni rasmiy iqtisodiyot tarkibiga integratsiya qilishga intilish kuzatildi. Bir qator mamlakatlar, masalan, Polsha, Chexiya, Bolgariya, Estoniya valyutaning ichki konvertatsiyasini narx-navoni erkinlashtirish bilan bir vaqtda joriy etishdi, Vengriya, Ruminiya, Rossiya, Latviya, Qirg'iziston, Moldova kabi boshqa mamlakatlar ichki konvertatsiyani asta-sekinlik bilan rasmiy valyuta zaxiralari jamlanishiga karab joriy etishdi. Ichki konvertatsiya ana shu mamlakatlarga ma'lum imtiyozlarni berardi, jumladan u ichki tovar va valyuta bozorlarining rivojlanishiga turtki berdi, import imkoniyatlarini kengaytirdi, raqobat muhitini vujudga keltirishga yordam berdi. Ayni vaqtda sog'lom makroiqtisodiy siyosat olib borilmagan mamlakatlarda ichki konvertatsiya iqtisodiyotning "dollarlashishini" kuchaytirdi, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovarlarga talabning kamayishiga olib keldi, kapitalning olib chiqilishi ustidan samarali nazorat o'rnatishni qiyinlashtirdi. Shu sababli o'sha vaqtda aksariyat mamlakatlarda tashqi savdoga nisbatan cheklashlar (ham tarifli, ham tarifsiz) saqlanib turardi.

Hozir iqtisodiyoti o'tish davrini boshdan kechirayotgan aksariyat davlatlarda almashuv kursi muvofiqlashtirgan, ammo Belorussiya, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston kabi mamlakatlarda almashuv kursining ko'p sonli tizimlari saqlanib turibdi, valyuta ustidan qattiq nazorat mavjud: valyuta bozorlariga kirib borish cheklangan, valyuta tushumining ma'lum bir qismini oshirib ko'rsatilgan rasmiy almashuv kursi bo'yicha topshirish majburiy. Masalan, O'zbekistonda eksport tushumining 30 foizini rasmiy almashuv kursi bo'yicha majburiy topshirish amal qiladi, vaholanki, almashuv kursi taxminan 80 foizga oshirib ko'rsatilgan. Mazkur mamlakatlarda narx-navo ustidan davlat nazorati, tashqi savdo-sotiqda ma'lum darajadagi cheklashlar saqlanib turibdi, nisbiy narxlarning ichki tuzilishi buzib ko'rsatilgan. Jumladan, O'zbekistonda iste'mol tovarlarining va oraliq maqsadlar uchun mo'ljallangan tovarlarning aksariyatiga 10-15 foizli eksport bojlari, eksport qilinadigan eng muhim tovarlarga eksport kvotalari saqlanib turibdi (birinchi navbatda davlat paxta eksportini nazorat qiladi), importchilar o'rtasida cheklangan valyuta mablag'lari ratsionalizatsiya qilinadi, davlat buyurtmalari tizimi ustuvorlik qiladi (davlat buyurtmalari tizimi O'zbekistonda yetishtiriladigan paxta va g'allaning taxminan yarmini qamrab oladi, paxta va g'allaning harid narxlari jahon narxlaridan anchagina past).

Tashqi savdoni erkinlashtirish bilan bir qatorda ko'p sonli almashuv kurslari tizimidan voz kechish, almashuv kursini muvofiqlashtirish va ichki valyuta konvertatsiyasining joriy etilishi valyuta "qora" bozorini tugatish,

eksport tushumlaridagi talaygina yo'qotishlardan qochib qutilish, iqtisodiyot agentlarining valyuta bozorlariga teng huquqli kirib borishini ta'minlash, ko'p sonli almashuv kurslari tizimi va uning eksportchi va importchilarning alohida guruhlari uchun "maxsus mukofotlari" keltirib chiqaradigan poraxo'rlikni bartaraf etish ichki narx-navo darajasini jahon darajasiga yaqinlashtirish imkonini berdi.

Iqtisodiyoti o'tish davrini boshdan kechirayotgan aksariyat mamlakatlarda ko'p sonli almashuv kurslarining o'rniga erkin suzuvchi almashuv kursi keldi. Sobiq Ittifoqning aksariyat sobiq respublikalarilari (Estoniya bundan mustasno) hamda Sharqiy va Markaziy Yevropaning bir qator mamlakatlari (Chexiya, Vengriya, Polsha, Slovakiya va Xorvatiya bundan mustasno) ana shunday yo'lni tanlashdi. Bunday qaror bir qator umumiy jihatlar: avvalambor markaziy banklarning valyuta zaxiralari past darajasi bilan taqozo etilardi (ba'zi mamlakatlarda xorijiy valyuta zaxiralari importning bir necha kunlik xarajatlarini qoplash darajasida edi, vaholanki, ana shu ko'rsatkich 2,5-3 oylik import xarajatlarini qoplash darajasida bo'lishi maqbul hisoblanadi), bu qayd qilingan almashuv kursining joriy etilishiga to'sqinlik qilar edi. Bundan tashqari, rubl zonasining barbod bo'lishi, milliy valyutalarning joriy etilishi va hali iqtisodiy agentlarning ishonchini qozonib ulgurmagan bir qator davlatlarda qayta tashkil etilgan markaziy banklarning qaror topishi hamda yuksak inflyatsiya sharoitidagi siyosiy beqarorlik qayd etilgan almashuv kursi joriy etilgan taqdirda ko'p sonli valyuta chayqovchiliklarining oldini ola bilmasligi mumkin edi. Bozor islohotlarini amalga oshirishning dastlabki bosqichlarida barqarorlashtirishning izchil dasturlari bo'lmaganligi bois markaziy bankning valyuta bozorlari faoliyatiga aralashmaslik siyosati o'zini to'la oqlar edi. Yana shuni nazarda tutish kerakki, suzuvchi almashuv kursi tashqi kutilmagan zarbalarni nisbatan yaxshi "amortizatsiya" qilar edi, sobiq sotsialistik mamlakatlar ana shunday zarbalarga (savdo-sotiq sharoitlarining yomonlashishi, valyutaning qimmatlashib borishi, raqobatbardoshlikning susayishi, tashqi savdo hajmining qisqarishi shular jumlasidan) duch kelishgandi.

Iqtisodiyoti o'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlar sharoitida esa, kapital harakatiga taqiqlar mavjud bo'lgan va kapital oqimi valyuta bozorlariga deyarli ta'sir o'tkazmaydigan bir sharoitda aynan raqobatbardoshlik ko'rsatkichi va joriy operatsiyalar balansining holati almashuv kursi siyosatini tanlashda mo'ljal bo'lib hisoblanadi. SSSR va O'YYoK barbod bo'lganidan so'ng mintaqalararo integratsiyaning bo'shlig'i, to'laqonli moliya bozorlarining yo'qligi, haqiqiy almashuv kursining muvozanatli darajasini belgilashdagi (bunda iqtisodiyotdagi ichki va tashqi

muvozanatga bir yo‘la erishiladi) qiyinchiliklar suzuvchi almashuv kursi tanlanishini taqozo etar edi, vaholanki, yuqoridagi ko‘rsatkichlar qayd qilingan almashuv kursiga o‘tish vaqtida nominal almashuv kursi ilk darajasini belgilashda muhim hisoblanadi.

Ammo oradan ko‘p vaqt o‘tmay tanlab olingan strategiyaning kamchiliklari ham ayon bo‘lib qoldi. Iqtisodiyoti o‘tish davrini boshdan kechirayotgan aksariyat mamlakatlarda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ilk bosqichlarida asosan pul emissiyasi hisobiga moliyaviy ta‘minlanadigan juda katta budjet kamomadi saqlanib turardi. Budjetni aniq maqsadli kreditlashtirish kredit - pul siyosatining asosiy bezagi bo‘lib qolaverdi, narx-navoning erkinlashtirilishi va iqtisodiy aloqalarning barbod bo‘lishi munosabati bilan ishlab chiqarish chiqimlarining keskin o‘sishi kuzatilardi. Shularning hammasi narx-navoning jadal o‘shishini izohlaydi, qator mamlakatlarda u giperinflyatsiyaga aylandi. Masalan, ayrim yillarda iste‘mol narxlari indeksi Polshada (1990 y) - 586 foizni, Bolgariyada (1991 y) - 474 foizni, Estoniyada (1992 y) - 1069 foizni, Latviyada (1992 y) - 951 foizni, Belorussiyada (1994 y) - 2220 foizni, Rossiyada (1992 y) - 1353 foizni, Ukrainada (1993 y) - 4735 foizni tashkil etdi. Ana shu almashuv kursini erkinlashtirish sharoitlarida, valyuta ichki konvertatsiyasining joriy etilishi iqtisodiyotning "dollarlashish" darajasi o‘shishiga, milliy valyutaga ishonchning yo‘qolib borishiga, undan iloji boricha tezroq qutulishga intilishga olib keldi. 1990 - 1992 yillarda iqtisodiyotning "dollarlashishi" Polshada 80 foizni, Bolgariyada-55 foizni, Estoniyada-60 foizni, Litvada-50 foizni, Latviyada-35 foizni, Rossiyada - 40 foizni, Ukrainada-35 foizni tashkil etdi (Rossiya va Ukrainaga doir statistika ma‘lumotlari, ma‘lumki, pasaytirib ko‘rsatilgan, chunki ana shu mamlakatlarning aholisi jamg‘armalarini "paypoq" da saqlashi inobatga olingan). Buning ustiga milliy valyutaning qadrsizlanishi an‘anaviy bozorlar yo‘qotilganligi, G‘arb bozorlariga kirish cheklanganligi sababli eksportning o‘shishiga olib kelgani yo‘q. Ayni vaqtda import qiymati, birinchi navbatda energiya qiymati oshib bordi, bu ana shu mamlakatlar joriy operatsiyalar balansining yomonlashishiga olib keldi.

Milliy valyutaning doimiy qadrsizlanib borishi inflyatsiyaga “turtki berardi”. Kutilayotgan o‘zgarishlarga va har qanday yangi axborotlarga g‘oyatda sezgir bo‘lgan suzib yuruvchi almashuv kurslari o‘zini moliya aktivlarining narxidek tutar, tovar bozorlaridagi narxlarga qaraganda iqtisodiy va siyosiy narxlarga tezroq munosabat bildirishar, narx-navoda o‘ziga xos yetakchilik qilishardi. Milliy valyutaning qadrsizlanishi inflyatsiyaga qarshi kurashda kredit - pul siyosati vositalarini tanlashni cheklar (jumladan, real salbiy foiz stavkalari sharoitlarida diskont siyosatini o‘tkazish imkonini



bermas, hukumatning qimmatbaho qog'ozlariga ishonchsizlikni keltirib chiqarardi), tashqi qarzga xizmat ko'rsatish harajatlarini ko'paytirib borardi. Bundan tashqari, almashuv kursining o'zgaruvchanligi, uning doimiy tebranishlari iqtisodiy tizimga beqarorlik elementlarini olib kirardi, o'tkazilayotgan siyosatga ishonch yo'qolishiga olib kelardi, investitsiya muhitini ko'ngilsiz va xatarli qilar edi, sababi moliya bozorlarining shakllanish davrida valyuta bozorlari va almashuv kursining fe'l-atvori umuman iqtisodiyotning faoliyati haqidagi axborotlarning asosiy manbai hisoblanardi. Aynan ana shu sharoitlarda iqtisodiy o'sishning omili hisoblanuvchi inflyatsiyaning pasayishi barqarorlashtirish dasturlarining ustuvor maqsadi bo'lishi kerakligi ayon bo'ldi, chunki qattiq moliyaviy intizomsiz hech qanday barqarorlikka erishib bo'lmaydi.

### **50.3. Barqarorlik va almashuv kursi**

O'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar oldinga qo'yilgan maqsadga erishganlaridan so'ng ularning oldida inflyatsiyaga qarshi kurashning qay bir strategiyasini: pul zamiridagi barqarorlikni, yoxud almashuv kursiga asoslangan barqarorlikni tanlash muammosi turardi. Pul zamiridagi barqarorlashtirish nominal langar sifatida kreditlashtirish hajmlarini yoki foiz stavkalarini yoxud pul massasi agregatlaridan birini (M1, M2 va M3) tanlashini taxmin qilardi.

Pul zamirida barqarorlashtirish vaqtida inflyatsiyani kamaytirishga pul massasi o'sish sur'atlarini susaytirish orqali erishiladi. Bu holda erkin suzib yuruvchi almashuv kursi yoki "boshqariladigan suzish" saqlanib qolardi. So'nggi hol almashuv kursi noxush tebranishlarini yumshatish maqsadida Markaziy bank tomonidan valyuta bozorida intervensiyalar amalga oshirilish imkonini anglatardi.

Valyutaning nominal qadrsizlanishi natijasida eksportni kengaytirish, yangi bozorlarga yo'naltirish va joriy operatsiyalar balansi bo'yicha ijobiy savdoga erishish hisobiga, xalqaro tashkilotlar vositasida olinadigan zayomlar yoki tashqi qarzdorlikni qayta ko'rib chiqish hisobiga yetarli darajada valyuta zaxiralarini jamlagan mamlakatlarda "boshqariladigan suzishni" muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin bo'ldi.

Almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirish nominal langar sifatida qayd qilingan almashuv kursidan (uning turli variantlaridan: qattiq qayd qilingan almashuv kursidan, "valyuta kengashi"dan, "suzib yuruvchi tugun"dan, valyuta yo'lagidan) foydalanishni taxmin qilar edi.

Inflyatsiyaning kamayishiga xalqaro savdo-sotiq ob'ekti hisoblanuvchi almashuv kursi bilan bevosita bog'liq bo'lgan tovarlar narxini

barqarorlashtirish, ular orqali bevosita xalqaro almashuv bilan bog'liq bo'lmagan tovarlar narxini barqarorlashtirish natijasida erishilardi. Aksariyat mamlakatlar pul zamiridagi barqarorlashtirishni o'z strategiyasi qilib tanladi, faqat bir nechta mamlakat - Chexiya, Polsha, Estoniyagina almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirishni muvaffaqiyatli (o'tkazish) tajribasiga namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirishning afzalliklari yuqori darajadagi inflyatsiyani yoki giperinflyatsiyani nisbatan "qisqa" muddatlarda qoniqarli yoki past darajagacha kamaytirishdan iqtisodiy tanazzul pul zamiridagi barqarorlashtirishni amalga oshirgan mamlakatlarga qaraganda chuqur bo'lmasligidan iboratdir.

Almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirish qattiq kredit – pul siyosatiga nisbatan bir qator imtiyozlarga ham ega. Qayd qilingan almashuv kursi nazorat qilinadigan va iqtisodiyotning har qanday agenti uchun ma'lum bo'lgan ochiq maqsadni ko'zlaydi, vaholanki, iqtisodiy agentlarning hammasi ham pul agregatlarining sirlaridan to'la voqif bo'lmaydi, pul massasi haqidagi axborotlarni olish ham oson emas. Bundan tashqari, almashuv kursining o'zgarishi hamisha narx-navoning (har xilda xalqaro savdo-sotiq ob'ekti bo'lmish tovarlarning) o'zgarishlari bilan bevosita bog'liq, pul massasi o'zgarishining ta'sirini umuman kuzatib borish qiyin, chunki narx-navo o'zgarishlari mavsumiy tebranishlarni, pulga talabning o'zgarishlarini va hokazolarni aks ettirishi mumkin. O'tish davri iqtisodiyotida pulga bo'lgan talabni bashorat qilish va o'lchash g'oyatda mushkul, bu demak, pul massasining maqbul hajmini hisoblab chiqish ham qiyin, almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirish kredit-pul boshqaruvi organlariga ana shu ko'rsatkichlarni hisoblash vaqtida xatolikka yo'l qo'yimaslik imkonini beradi.

Almashuv kursini qayd qilish inflyatsiyaning kutilayotgan hajmini nisbatan oldindan ko'rish imkonini beradi va inflyatsiyaning tizg'inlanishiga xizmat qiladi. Barqaror almashuv kursi orqali milliy valyutaga ishonch oshib boradi, iqtisodiyotning "dollarlashish" darajasi pasayadi. Jumladan, almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirishni amalga oshirgan mamlakatlarda ana shu ko'rsatkichning nafaqat qisqa muddatlarda shu bilan birga sezilarli darajada pasayishi ro'y berdi. Masalan, Estoniyada 1992 yilgi 60% dan 1999 yilga kelib 5% gacha, Polshada - 1989 yilga 80% dan 1994 yilga kelib 25% gacha kamaydi, Chexiyada dollarlashish darajasi islohotlarni amalga oshirishning ilk bosqichidayoq nisbatan past bo'lib, taxminan 10-12% ni tashkil etar edi. Ana shu mamlakatlarda "dollarlashish" darajasi pul zamiridagi barqarorlashtirishni amalga oshirgan mamlakatlarga qaraganda sezilarli darajada past: masalan, Latviyada iqtisodiyotning dollarlashish darajasi

arzimagan miqdorga kamaydi - 1992 yilgi 40% dan 1994 yilga kelib 25% ga, Bolgariyada - 1991 yilgi 55% dan 1994 yilga kelib 35% ga kamaydi. Ehtimol bunga qayd qilingan almashuv kursi amal qilgan mamlakatlardagi qattiq valyuta nazorati: eksportchilarning barcha valyuta tushumini majburiy topshirishi va milliy valyutaga almashtirish. U ma'lum darajada xizmat qilgan bo'lishi mumkin (bunday nazorat Polshada 1990 yilda, Estoniyada 1992 yilda joriy etilgan edi). Valyuta nazoratining joriy etilishi ana shu mamlakatlarning o'z xorij valyutalar zaxiralarni chayqovchilik tarkiblaridan himoya qilish istagi bilan izohlanadi. Qayishqoq almashuv kursiga ega bo'lgan mamlakatlarda aksincha liberal valyuta tartibi amal qilgan, Rossiya va Ukraina bundan mustasno kelib 25% ga, Bolgariyada - 1991 yilgi 55% dan 1994 yilga kelib 35% ga kamaydi. Ehtimol bunga qayd qilingan almashuv kursi amal qilgan mamlakatlardagi qattiq valyuta nazorati: eksportchilarning barcha valyuta tushumini majburiy topshirishi va MILLIY valyutaga almashtirish ma'lum darajada xizmat qilgan bo'lishi mumkin (bunday nazorat Polshada 1990 yilda, Estoniyada 1992 yilda joriy etilgan edi). Valyuta nazoratining joriy etilishi ana shu mamlakatlarning o'z xorij valyutalari zaxiralarini chayqovchilik siquvlaridan himoya qilish istagi bilan izohlanadi. Qayishqoq almashuv kursiga ega bo'lgan mamlakatlarda, aksincha, liberal valyuta tartibi amal qilgan, Rossiya va Ukraina bundan mustasno.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, importga jiddiy ravishda qaram bo'lgan iqtisodiyotlarda barqaror almashuv kursi ishlab chiqarish chiqimlari va ichki narx - navoning o'sishini tizg'inlaydi. Qayd etilgan almashuv kursi Markaziy bankni va moliyani idora qilish organlarini intizomli qiladi, sababi pul massasi o'sishiga nisbatan qattiq cheklashlar endilikda ularning zimmasiga yuklanadi, ortiqcha pul massasi darhol almashuv kursiga nisbatan tazyiqqa va xorij valyutasi zaxiralarning yo'qotilishiga olib keladi.

Ammo almashuv kursidan nominal langar sifatida foydalanish muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liq. Birinchidan, almashuv kursi muvofiqlashtirilgan almashuv kursidan oldin nominal langar sifatida joriy etilishi lozim, chunki ko'p sonli almashuv kurslari tizimida qay bir almashuv kursini qo'llab-quvvatlash va qayd etish lozimligini bilib bo'lmaydi. Mazkur strategiya, shuningdek, rasmiy xorij zaxiralarning yetarli darajasini talab qiladi. O'tkaziladigan siyosatga ishonch va chayqovchilarning valyuta bozoridagi faoliyati ana shunga bog'liq. Masalan, XVF ning Polshaga zlotiy kursini qo'llab - quvvatlash uchun 1 milliard dollar hajmida barqarorlashtirish fondini berish haqidagi 1991 yilgi bayonotining o'zinigina hukumatning tanlagan strategiyasiga ishonchni ta'minladi, vaholanki, Polsha ana shu fondan foydalangani ham yo'q XVF va 24 lar guruhi yo'li bilan Chexiyaga talaygina

mablag'lar ajratildi. Estoniyaga Angliya banklarida saqlanayotgan urushdan avvalgi oltin zaxirasi qaytarilib, XVF yo'li bilan yordam ko'rsatildi. Bu Estoniyaga "valyuta kengashi" deb atalmish qayd etilgan valyuta kursining qattiq tizimini joriy etish imkonini berdi. Mazkur tizimning g'oyasi pul bazasini faqat xorij valyutasi zaxiralari bilan qoplashdan iborat bo'lib, hukumatga va tijorat banklariga ichki kreditni istisno qilardi. Bu Markaziy bankdan farqli ravishda "valyuta kengashi" pul bilan bog'liq o'z majburiyatlarini hamisha zaxira valyutasiga konvertatsiya qilishi mumkinligini anglatardi, (Estoniya kronani bog'lash uchun valyuta sifatida G'arbiy Germaniyaning markasini tanladi), ularni hech bo'lmaganda birga - bir hisobida qoplar edi. Bunday tizimda Markaziy bankdan farqli ravishda "valyuta kengashi" budjet kamomadini pul emissiyasi yo'li bilan moliyaviy ta'minlashi mumkin emasdi (bundan tashqari Estoniyada majburiy muvozanatga keltirilgan davlat budjeti haqidagi qonun qabul qilingan edi).

Markaziy bankning valyuta siyosatiga ta'sirini cheklash turli suiqa-sdlar natijasida inflyatsiya jarayonlarini vujudga keltirish imkonini kamaytiradi. Bundan tashqari, chet el zaxiralari darajasidagi to'lov balansi bilan bog'liq har qanday o'zgarish avtomatik ravishda pul bazasi o'zgarishini idora qiladi. "Valyuta kengashi" 90-yillarning boshida Argentinada muvaffaqiyatli qo'llanilgan, uning yordamida qariyb bir asrlik yuksak darajadagi an'anaviy inflyatsiyani yengishga muvaffaq bo'lingan edi.

Ammo, shuni aniq tasavvur qilish kerakki, har qanday qayd etilgan almashuv kursi mamlakatni raqobatbardoshlikdan mahrum qilishi mumkin.

Raqobatbardoshlik masalasi barqarorlashtirishdan avval valyutaning jiddiy devalvatsiyasi yoki o'z vaqtida nominal langar sifatida almashuv kursining boshqa shakliga o'tish yo'li bilan hal etilishi lozim. Bu borada Polshaning namunasi ibratlidir, u 1991 yilning boshida zlotiyni jiddiy ravishda devalvatsiya qildi, so'ngra dollarga, undan keyin valyutalar savatiga nisbatan qayd etilgan almashuv kursini joriy etdi, almashuv kursi 1991 yilning may oyidan oktabr oyigacha saqlab turildi, so'ngra Polsha valyutaning oldindan rejalashtirilgan va e'lon qilingan mikdorga kundalik devalvatsiyasini taxmin qiluvchi o'rmalovchi bog'lamlarga o'tdi. Natijada mamlakat raqobatbardoshlikka hech qanday zarar yetkazmagan holda inflyatsiyani jiddiy ravishda pasaytirishga muvaffaq bo'ldi. Umuman barqarorlashtirish davrida inflyatsiya 1990 yilgi 586 foizdan 1995yilgi 29% foizga qadar pasaydi, 1993 yildan boshlab Polshada iqtisodiy o'sish kuzatilmokda.

Agar "valyuta kengashi" bilan bog'liq holdagidek mamlakat o'z milliy valyutasini chet el valyutasi zaxiralari qattiq bog'lab qo'ysa, inflyatsiya kamayib borayotgan davrda raqobatbardoshlikning susayishidan qochib

qutulib bo'lmaydi. Shuning uchun "valyuta kengashlari"ni tashkil etish faqat iqtisodiyoti ochiqlikka yaqin bo'lgan va yomonlashib borayotgan joriy operatsiyalar balansi iqtisodiyotga xorij kapitalining oqib kelishi hisobiga birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyalari hisobiga moliyaviy ta'minlanishi mumkin bo'lgan o'rtacha mamlakatlarda joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. 1994 yilda "valyuta kengashi" Litvada joriy etildi. Estoniyada esa inflyatsiyaning 1992 yilgi 1069 foizdan 1995 yilga kelib 26,% ga, 1998 yilga kelib 4%ga kamayishi iqtisodiy o'sish (1992 yilda 17 % ga; 1994 yilda 4,7% ga; 1995 yilda 6 % ga; 1998 yilda 4%) qattiq makroiqtisodiy siyosatning natijasi bo'ldi. Ayni vaqtda iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyalari jadal sur'atlar bilan ko'payib bordi. Estoniya kronasi nemislarning markasiga qarshi tura oldi, vaholanki xatto funt sterling, dollar va frank kabi yetakchi valyutalar kursi ham markaga nisbatan tushib borar edi. Shuni ta'kidlash kerakki, almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirish jarayonida hukumatga ishonch yetarli darajada yuqori bo'lishi kerak. O'z navbatida, hukumat shu xildagi o'ziga qattiq monetar va xazina cheklashlarni yuklaydigan siyosatni o'tkazish istagiga ega bo'lishi, uni o'tkazishga qodir bo'lishi lozim. Monetar va Xazina cheklashlari ko'pincha jamiyatda ijtimoiy keskinliklarga olib keladi.

Almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirishni muvaffaqiyatsiz amalga oshirgan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, tanlab olingan strategiyadan voz kechish inflyatsiyaning jiddiy o'sishiga olib keladi, ko'pincha narx-navoning o'sish sur'atlari dasturni amalga oshirishdan avvalgi davrdagidan yuqoriroq bo'ladi.

O'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasi, jumladan Bolgariyaning tajribasi shuni namoyish etadiki, nominal langar sifatida almashuv kursidan foydalanish hukumatning rasmiy siyosati deb e'tirof etilgan bo'lishi lozim, aks holda oldin xabar qilmay turib bundan foydalanish kutilganidan mutlaqo teskari natijaga olib kelishi mumkin. Bolgariya narx-navoning oshishiga nisbatan anchagina sabr-bardoshli bo'lib qolaverishiga qaramay, 1992 yilning oktyabridan 1993 yilning iyuliga qadar e'lon qilinmay qayd etilgan valyuta kursini qo'llab-quvvatlab turdi, bunga valyuta zaxiralari ko'payganligi va savdo balansining ijobiy saldosi tufayli muvaffaq bo'ldi. Qayd etilgan almashuv kursi siyosatchilarning taxminiga ko'ra inflyatsiyaga qarshi kurashda nominal langar bo'lib xizmat qilishi, tashqi qarzning muayyan qismini o'z vaqtida qaytarishga yordam berishi, import bilan bog'liq vaziyatni yaxshilashi, valyuta bozorlaridagi larzalardan qochib qutilishga yordam berishi, eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining bir qismini ichki bozorga qayta yo'naltirishi lozim edi. Ammo kredit - pul siyosati va

"daromadlar siyosati" hukumatga ishonchsizlikni keltirib chiqarib, uning bunday siyosatni uzoq vaqt mobaynida amalga oshirish qobiliyatiga shubha uyg'otardi (bundan tashqari bu haqda oldindan e'lon qilinmagan edi). Natijada oshib borayotgan mo'ljaldagi inflyatsiya nominal langarni falaj holatiga soldi, rasmiy valyuta zaxiralari boy berilishi munosabati bilan qayd etilgan almashuv kursini qo'llab-quvvatlash maqsadida Bolgariya Milliy banki tomonidan navbatdagi valyuta intervensiyalari amalga oshirilishiga imkon bermadi. Bularning hammasi levning qadrsizlanishiga, inflyatsiyaning yuksalishiga, iqtisodiyotning "dollarlashishi" kuchayishiga olib keldi. Bolgariyaning tajribasi inflyatsiyaga qarshi kurashda almashuv kursidan nominal langar sifatida foydalanish, basharti u qattiq budjet - soliq va kredit-pul siyosati bilan qo'llab-quvvatlansa samarali bo'lishi mumkin ekanligini tasdiqlaydi. Siyosat muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda hukumat pul zamiridagi muvaffaqiyatsiz barqarorlashtirish vaqtidagidan ko'proq o'z obruyidan ayriladi, sababi rejalashtirilmagan valyuta devalvatsiyasi yoki qayishqoq almashuv kursiga o'tishni iqtisodiyotning har qanday vakili oldindan kutishi mumkin, pul massasining rejalashtirilmagan ko'payishini esa undan yashirib qolish qiyin emas.

Bolgariyadagi inflyatsiyani tizg'inlashga doir muvaffaqiyatsiz urinishlar hamda muvozanatga keltirilmagan makroiqtisodiy siyosat kutilgan yuksak darajadagi inflyatsiyani barqaror qilib qo'ydi. 1997 yilga qadar Bolgariyadagi inflyatsiya» darajasi Yevropadagi eng yuqori daraja bo'lib qoldi (ko'rsatkich 1996 yilda 310,8% ni, 1997 yilda esa 578,5% ni tashkil etdi). Shuning uchun 1997 yilning yozida Bolgariya inflyatsiyani qisqa muddatlarda pasaytirish maqsadida qayd etilgan almashuv kursining eng qattiq variantini - "valyuta kengashi"ni joriy etishga majbur bo'ldi, davlat budjetini muvozanatga keltirdi, "daromadlar siyosati"ni, tarkibiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirib, korxonalarining moliyaviy intizomini mustahkamlashga kirishdi. 1998 yilga keliboq mamlakatdagi vaziyat sezilarli ravishda yaxshilandi, 1998 yilning dekabriga kelib inflyatsiya 1% ga tushdi, iqtisodiy o'sish boshlandi.

O'tish davri iqtisodiyotida nominal langar sifatida almashuv kursidan foydalanish cheklangan, sababi bunda inflyatsiyaning kelib chiqishi faqat pul bilan bog'liq emas, u iqtisodiyotning monopolistik xususiyati va uzilmagan to'lovlar tanazzuli bois ishlab chiqarishning oshib borayotgan chiqimlari bilan ham bog'liq.

Ba'zi mamlakatlar muvozanatli haqiqiy almashuv kursini, bu demak, nominal almashuv kursi darajasini aniqlash imkoniga ega bo'lmaganligi sababli qayd etilgan almashuv kursini joriy etishdan voz kechishdi.

Umuman o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning tajribasi shundan dalolat beradiki, barqarorlashtirish, basharti u oqilona makroiqtisodiy siyosat bilan qo'llab-quvvatlanganda almashuv kursiga asoslanganda ham, pul zamiriga asoslanganda ham muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin. Almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirishning afzalligi inflyatsiyaning jadalroq sur'atlar bilan kechishi, ishlab chiqarish va ish bilan bandlikning kamroq tushkunligi bilan bog'liq, vaholanki qayd etilgan almashuv kursini joriy etish nisbatan qattiq tayyorgarliklarni talab qiladi.

Shak-shubhasiz, nominal langar sifatida almashuv kursi variantini tanlash muammosi, uni amalga oshirish davomiyligi o'tish davri iqtisodiyotlari uchun dolzarb bo'lib qolmokda. Polsha, Chexiya, Estoniya qattiq qayd etilgan almashuv kursidan boshlashdi. Estoniya hozir ham tanlab olgan strategiyasidan voz kechgani yo'q. Polsha bir necha yil mobaynida "o'rmalovchi bog'lam"dan, so'ngra "boshqariladigan so'zish" tartibidan foydalandi, hozir esa "o'rmalovchi" valyuta yo'lagidan foydalanmoqda. Bu Polshaga inflyatsiya o'zgarishlarini raqobatbardoshlikka sezilarli shikast yetkazmay tizginlash imkonini bermoqda. Ammo bu borada yagona tavsiya bo'lishi mumkin emas. Jumladan, Litva, Rossiya va Bolgariyaning tajribasi almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirish pul zamiridagi barqarorlashtirish o'rniga kelishi mumkin ekanligini namoyish etadi. Masalan, Rossiyada valyuta yo'lagi nominal langarning eng yumshoq varianti sifatida 1995 yilning iyulida joriy etilgan edi, u 1998 yilning avgust oyidagi tanglikka qadar davom etdi. Valyuta yo'lagi chayqovchilikni valyuta bozorlaridan qisqa muddatli davlat obligatsiyalari bozoriga ko'chirish, nominal sifatida turg'un dinamikaga, jumladan rublning haqiqiy kursiga erishish, inflyatsiyani pasaytirish nuqtai nazaridan so'zib yuruvchi valyuta kursiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega edi. Agar 1994 yilda iste'mol narxlari indeksi 302 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1995 yilda u 190% gacha, 1996 yilda 47,6% gacha, 1997 yilda - 14,6% gacha pasaydi.

Yo'lak sarhadlarini qayta qurib chiqish muayyan iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib ozmi-ko'pmi ohistalik bilan amalga oshirilib bordi, ayni vaqtda eski va yangi sarhadlar bir-birining o'rnini bosar, bu kursning keskin sakrashlari oldini olar edi. Valyuta yo'lagi Rossiya korxonalariga, ayniqsa, tashqi bozorlarga kirib borayotgan korxonalariga o'z faoliyatlarini rejalashtirish, valyuta tahlikalarining oldini olish imkonini berardi. Ayni vaqtda qayd etilgan almashuv kursini narx-navo o'sishi davom etayotgan bir vaqtda uzoq muddat qo'llab-quvvatlash eksportchilar ahvolini mushkullashtirar va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishning qayta tiklanishiga to'sqinlik qilardi.

"Langarni ko'tarish" deb atalmish qayd etilgan valyuta kursidan o'z vaqtida voz kechish Markaziy bank valyuta siyosatining jiddiy holatlaridan biri hisoblanadi, chunki "o'tish vaqti"ni boy berish ma'lum vaziyatda mamlakat uchun og'ir iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan Chexiya, Rossiya namunasi e'tiborga molik.

Chexiya qayd etilgan almashuv kursi tartibini 1997 yilning may oyiga qadar saqlab turdi, ammo tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikning boy berilishi natijasida joriy operatsiyalar balansining doimiy yomonlashib borishiga duch kelgach (1996 yilning oxiriga kelib joriy operatsiyalar balansining kamomadi 5,9 milliard dollarni tashkil etdi), Chexiya "boshqariladigan suzib yurish" tartibiga o'tdi. Ayni vaqtda hukumat qattiq budjet-soliq va kredit-pul siyosatini o'tkazish kursini og'ishmay qo'llab-quvvatlab turdi. Bu 1998 yilda boshlangan iqtisodiy tanglik sharoitlarida ham joriy operatsiyalar balansining yaxshilanishiga erishish (1998 yilda ijobiy saldo 1,1 milliard dollarni tashkil etdi) va inflyatsiyaning past darajasini saqlab turish imkonini berdi (1996 yilda iste'mol narxlari indeksi -8,8% ni, 1997 yilda -8,4% ni, 1998 yilda -10,7% ni tashkil etdi).

Rossiya Markaziy bankining 1998 yil avgustidagi moliyaviy bo'hrondan avvalgi siyosati "langarni ko'tarish" ni kechiktirish oqibatiga yorqin misol bo'la oladi. Valyuta yo'lagini qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga qaratilgan ana shu siyosatni ro'y bergan inqirozning asosiy sabablaridan biri deb hisoblash mumkin. 1997 yilning oxiridan Rossiyaning to'lov balansi, birinchi navbatda joriy operatsiyalar balansi keskin yomonlasha boshladi. Rossiya eksportining asosiy mahsuloti - neftning jahon narxlari pasayib ketishi; Osiyoda moliya inqirozi boshlanishi, Rossiyaning o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarini to'lamasligidan rezident bo'lmagan agentlarning tashvishlari munosabati bilan Rossiyadan kapitalning chiqib keta boshlaganligi; Rossiya tovarlarining raqobatbardoshligi yomonlashib borganligi va qayd etilgan valyuta kursini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan siyosatning muqarrar oqibati sifatida eksport hajmi qisqarishi shu davrda to'lov balansi yomonlashganligining asosiy sabablari bo'ldi.

RMB mamlakatning raqobatbardoshligi yomonlashib borayotgan sharoitlarda oshirib ko'rsatilgan almashuv kursini sun'iy ravishda qo'llab-quvvatlab, valyuta bozoridagi ahvolni barqarorlashtirish uchun ommaviy valyuta intervensiyalarini muntazam amalga oshirishga majbur edi. Bundan tashqari GKO bozoriga rezident bo'lmagan agentlarni jalb etishga intilish RMBni o'zini oqlamaydigan yuksak darajadagi foiz stavkalarini qo'llab-quvvatlashga majbur qiladi. Natijada bunday siyosat mamlakatning



investitsion faolligini so'ndiribgina qolmay, rezident bo'lmagan agentlarga to'lanadigan foiz to'lovlari hajmining muntazam o'sib borishiga olib kelar edi.

Shularning hammasi MDH mamlakatlarining ham joriy, ham to'lov balansi kapital hisob raqamining yomonlashishiga, rasmiy valyuta zaxiralarining qisqarishiga olib keldi.

Defolt (davlatning ichki qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'z majburiyatlarini ado eta olmasligi), rublning devalvatsiya qilinishi, suzib yuruvchi almashuv kursiga o'tish, narx-navoning oshishi, iqtisodiyot sog'lomlashib borishining ilk alomatlari boy berilishi, bank tizimining kollapsi, aholi turmush darajasining tushib ketishi va hokazolar 1998 yilning avgust oyidagi moliyaviy bo'hronning salbiy oqibatlari bo'ldi. Agarda RMB jahonda boshlangan moliyaviy tanglik sharoitlarida Rossiyadan xorij kapitalining muqarrar chiqib ketishini va to'lov balansining shiddat bilan yomonlashib borishini oldindan ko'ra bilib "valyuta yo'lagi" siyosatidan bir muncha oldinroq voz kechganida Rossiyada moliyaviy tanglik bir muncha yumshatishga muvaffaq bo'lgan bo'lar edi.

Rossiyaning tajribasida agar almashuv kursi makroiqtisodiyotni idora qilishning yagona ob'ekti bo'lib qolsa, ayni vaqtda real sektorni rivojlantirish, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishi "oqsasa", valyuta siyosatining muvaffaqiyati o'tkinchi bo'ladi va qisqa muddatlarda iqtisodiy oqibatlarga olib kelmaydi deb xulosa chiqarish imkonini beradi.

#### 50.4. Xalqaro kredit

**Xalqaro kredit** -xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakli bu xalqaro kreditdir. U jahon mamlakatlarining bir-biriga pul shaklida yoki (valyuta) tovar resurslarini qarzga berishini taqozo etadi, ya'ni qaytarib berishi, to'lovligi va tezligi sharti bilan. Shu bilan birga kreditorlar va qarzdorlar sifatida alohida xususiy firmalar va davlatlar, mamlakatlar, hududlar, shaharlar hukumatlari ham, hamda har xil xalqaro tashkilotlar chiqishi mumkin.

Hozirgi vaqtda jahonda yetakchi moliya-kredit markazlari bo'lib kelgusi to'rtta (jadval), bular quyidagilar:

<b>Xalqaro moliya institutlari</b>	<b>Harakatga kelgan yili</b>	<b>XX asrning oxiridagi a'zolar soni</b>
Xalqaro valyuta fond (XVF).	1947	182
Xalqaro qayta qurish va rivojlantirish banki (XQQRB) yoki jahon banki.	1947	181
"Parij klubi" kreditor mamlakatlar	1956	18
"London klubi" kreditor banklar.	-	600

Endi Xalqaro valyuta fondi yoki (XVF) - bu BMT ning ixtisoslashgan idorasi bo'lib, bunga kiradigan mamlakatlarga savdo qilish, valyuta va kredit berish bo'yicha hamkorlikka chaqirishga ko'maklashadi. 1947 yili bunga 49 mamlakat a'zo bo'lsa, hozirgi vaqtda 180 tadan ortiq.

Bu XVF kapitali bu tashkilotga a'zo davlatlarning to'lovidan iborat. Shu bilan birga buning har bir a'zosi kapitalda aniq kvotaga(ulushga) ega, ya'ni jahon iqtisodiyotiga ega bo'lgan o'rinlaridan chiqqan holda. Bunda tabiatan bu fond vositasining katta hissasi, demak, ancha ko'p ovozlari oldingi qatordagi g'arb mamlakatlariga tegishlidir. Aynan ular qarzdor mamlakatlarga kredit berish to'g'risidagi masalalarni hal qiladi. Misol uchun, XXI asrning boshlarida eng katta foizdagi ovozlari AQSh va Yaponiyada to'plangan edi (shunga yarasha 17,3 va 6,2%) o'sha vaqtda sobiq SSSR tarkibidan chiqqan mamlakatlarda xususan Rossiyaning ulushi katta 2,78% edi.

Xalqaro valyuta fondi bilan zich bog'langan boshqa moliyaviy institut bu- xalqaro qayta qurish va rivojlantirish banki (XQQRB) yoki jahon banki (inglizcha international). Bu ham BMT idorasi bo'lib, bu ham XVF bilan birga bir vaqtda asoslangan(bu institutga ham XVF bilan bir vaqtda asos solingan) va u a'zo mamlakatlarga kredit va investitsiya berishga ko'maklashishga ixtisoslashgan. Shuni aytish kerakki, ya'ni jahon bankiga o'xshagan moliya kredit institutlari hududiy darajada ham mavjuddir. Misol uchun Yevropa katta qurish va rivojlanish banki (YeKQRB) - Xalqaro kreditlash sohasida asosiy rol o'ynaydigan ikkita "klub" (birlashma) ham mavjud, bu shunday davlatlarga va xususiy banklarga tegishli, ya'ni chet el mamlakatlariga faol ravishda kreditlar olishga imkoniyat beradilar va ular ham birgalikda (o'z navbvtida) zudlik bilan bergan kreditlarning qaytarib olishni ta'minlashga ishonch beradilar. Xususan "Parij klubi" mamlakat kreditorlari 1956 yilda 12 g'arbiy Yevropa davlatlari tashkillashtirilgan. 1999 yilda esa 18 a'zolari birlashtiradi.

U ushbu klub a'zolari rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning tashqi qarzini tartibga solish bilan shug'ullanadi (bu qarzlarni to'lash vaqtini uzaytirib berish, to'lash shartlarini o'zgartirish, kredit foizlarini qayta ko'rib chiqish va boshqalar bilan).

Mana shunday yo'nalishlarda boshqa shunga o'xshagan moliyaviy institut "London klubi" kreditor bank ham harakatda bo'lib, u vaqtincha va o'zgaruvchan asosda bir necha yuz (600ga yaqin) har xil mamlakatlarning tijorat banklarning xorijiy qarzlarni undirish maqsadida guruhlarni birlashtiradi.

1997 yilda Parij va London klublarining ishida sobiq SSSR ning va o'zining qarzini qaytarib berish maqsadida Rossiya ham qatnashgan.

Xalqaro kreditlarning ijobiy roli avvalambor mamlakatlar orasida savdo-sotiq ishlarini o'sishiga, bular orasida pul hisob-kitobini yengillashtirishda faollik ko'rsatadi. Bundan tashqari kredit mamlakatlarning zudlik bilan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun qo'shimcha moliyaviy manba bo'ladi. (hisoblanadi)

(Ishlab chiqarishni kengaytirish, sog'liqni saqlashni, taqsimni rivojlantirish, oziq-ovqat yetkazib berish va boshqalarda), bu asosan rivojlanib kelayotgan mamlakatlar uchun juda kerak.

**Xalqaro kredit quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- savdoning o'sishini(da) ko'maklashishni;
- xalqaro hisob-kitoblarni yengillashtirishni;
- qo'shimcha moliyaviy manbalarni;
- to'lov balanslarini tartibga solishni;
- valyutalarni inflyatsiyaga qarshi kurashda qo'llab-quvvatlashni;
- qo'shimcha ish joylarni va kredit berish bilan bog'langan mamlakatlarning mahsulotlarini sotish kafolatlarini;
- tashqi qarzlarni, kelgusida moliyaviy barqarorlikka xizmat qiladi.

Xususan ular u yoki bu mamlakatlarning passiv to'lov balansini tartibga solishda yordam beradi (bankda salbiy qoldiqni pul bilan yopish vaqtida), hamda milliy valyutalar kursining inflyatsiyaga qarshi kurashida barqarorligini qo'llab quvvatlashda yordam beradi (mamlakatlar shuning uchun kreditlar hisobiga moliyaviy vositalar maxsus barqarorlik fondlarini yaratadi). Nihoyat kreditlash kreditor-mamlakatga qo'shimcha fond olishni ta'minlashi mumkin, qachonki u shunday bog'lanish kreditlarini berishda, ya'ni berilgan kreditlarga o'zining ishlab chiqarilgan mahsulotlarini sotib olish sharti bilan.

Masalan, Yaponiya bog'lanish kreditlarini(dan) Xitoyda truboprovod inshootlarini qurishda foydalaniladi, shu bilan birga ularga o'zining trubalarini yetkazib beradi. Natijada Yaponiya tomoni o'zining po'lat buyumlar quyadigan, mashina qurish tarmoqlariga va qo'shimcha ish kuchini hamda Xitoy uchun ta'minlangan mahsulot olishni kafolatlaydi.

Ammo ijobiy tashqi o'zlashtirish bilan bir qator salbiy samaralarni ham tug'dirishga qobiliyatli. Shunday qilib, olingan kreditlarni suiste'mol qilinsa, ularnidani iqtisodiy asossiz yoki samarasiz foydalanilsa, mamlakatni nochor qarzlarga (qarzdorga) aylantirish mumkin, unda kredit beruvchilar katta zarar ko'rishlari mumkin. Misol uchun YeKQRB 2000 yillarda qarzdor davlatlarni defolti va pullarining devalvatsiyasi natijasida ko'rgan zarari 240 mln. dollarga yaqin bo'ladi.

Bulardan tashqari, tashqi qarzlarni ularning qimmat turadigan xizmatlarini hisobga olganda (ancha foiz to'lovini va qarzlarni to'lovini) mamlakat

kreditorlarini moliyaviy inqirozga olib keladi, kambag'allik va boylikni kamaytiradi va kelajakdagi uning rivojlanishiga putur yetkazadi. Buning ustiga hozirgi zamondagi sharoitda xo'jalik hayotining globallashuvida hatto mahalliy<sup>1</sup> (masalan, Meksikadagi yoki Tayvandagi) moliyaviy inqirozlar barcha mamlakatlarga xavf-xatar, tahdid olib keladi. Bunday mamlakat o'zlarining bankrot bo'lishi bilan, qarzdorlik marotoriyalari va davlatlari bilan jahonda ular kurs aqtsiyalari va valyutalarda o'pirilish chaqirishi mumkin, birjalarda narx-navolarning ko'tarilishi va boshqalar hamma joylarda har qanday buzilishlarga olib keladi.

Mana shuning uchun iqtisodiy kuchli davlatlar (XVF va jahon banki donorlari) kredit va moliyaviy yordam oluvchi mamlakatlar bilan o'zlarini shunday tashvishga soladi, yanada ularga kredit berishni davom ettirib, hatto bankrot bo'lganda ham ularning qarzlarini moliyalashda, qarzlarni qaytarib berish vaqtini uzaytiradi, qisman qarzlardan kechadi va boshqalar. Shuning uchun ham XVF qarzlar mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini (budget daromadlarini va harakatlarini, soliq to'lovini, iqtisodiyotining samaradorligini va bozorga oidlik darajasini) ularning "moliyaviy ochiq-oydinligini" mustaqil tekshirishlarni o'tkazishni, aniq qoidalarga va normalarga rioya qilishni talab qiladi. Agarda qonun-qoidalarga (misol uchun qarzga olingan vositalarni noto'g'ri foydalansa) rioya qilish buzilsa XVF qarzdor mamlakat jarima solishga, sanksiyalar e'lon qiladi (kredit berishni to'xtatadi). Bu yerda hammasi mantiqiy, chunki qarzga bog'langan mamlakat kredit bergan mamlakatga bo'ysunishga tayyor bo'lishi kerak. Muqaddas kitoblarda "qarz beruvchi qarzdorni qul qiladi" deb bekor aytmagan.

2000 yillarning boshlarida jahondagi yigirmata asosiy kredit beruvchi guruh davlatlar aniqlandi, bularni "katta yigirmatalik" deb ataldi. Bunda 7 mamlakat donor, ma'lumki "katta yettilik" sifatida bo'ldi, Yevropa birligi (bular ham donor sifatida chiqar edi) va 12 retsipentlik - bu rivojlanayotgan bozor bilan (Braziliya, Indoneziya, Xitoy, Koreya, Rossiya va boshqa) chiqadigan mamlakatlar.

Albatta xalqaro kredit beruvchi mamlakatlarning ijobiy tomoni salbiy tomoniga qaraganda ko'proq. Shuning uchun ular tez sur'at bilan rivojlanmoqda.

Kredit beruvchilarning ko'payishi bilan bir qatorda G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikalarning an'anaviy yo'llari orqali rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning (Singapur, Xitoyning Syangan (Sobiq Gon Kong), Quveyt va boshqalar) yangi yirik moliyaviy-kredit markazlari o'z kuchlarini yig'moqda, yangi kredit munosabatlari paydo bo'lmoqda.

Xususan olganda, hozirgi vaqtda shunday atalgan kredit liniyalari soni ko'paymoqda, ya'ni uzoq vaqtga kredit va qarz oluvchilar orasida shartnomalar tuzilmoqda, bular tufayli qarz oluvchi mamlakatlar o'zlarini xo'jalik loyihalariga uzoq vaqt mo'ljallangan, kafolatlangan kreditlar olinmoqda. Bunday kredit „liniyalari” bo'lib –bo'lib amalga oshiriladi, bular qarz oluvchilar vaqti-vaqti bilan yoki maxsus grafiklar bo'yicha keladi, yoki zarurligi bo'yicha, tayyor bo'lgan kredit summalari o'zining vaqti kelganda, ya'ni rejim bo'yicha “stendbay” (ingl. Stand by - zaxirada tayyor bo'lib tur) ya'ni doimo foydalanishga tayyor holatda bo'lish kerak.

1.Mahalliy faqat shunga tegishli, bundan chiqmaydigan, faqat o'sha joyga xos.

2.Donor kimdir nima beradi, bir narsani qurbon qiladi (o'zining qonuni, kiyimini, mulkini).

3.Sanksiya tasirchan chora (savdo, moliyaviy, siyosiy) qonuni bo'zuvchilar tomoniga iqtisodiyotda tovar yetkazib beruvchilar o'z vaqtida jarima solish va boshqalar.

4.Retsipiyyent yordam yoki sovg'a sifatida oluvchilar.

### **Qisqacha xulosa**

Xalqaro valyuta tizimida eng asosiy mexanizmlarining elementi bo'lib jahon iqtisodiyotida harakat qiladi. Shu bilan birga bu pul birligi xalqaro tashqi savdo va tashqi iqtisodiy munosabatlarda qatnashadi.

### **Asosiy atamalar**

Almashuv kursi

Almashuv kursiga asoslangan barqarorlashtirish

Almashuv kursi tizimi

Valyuta siyosati

Pul zamiridagi barqarorlashtirish

Nominal langar

Valyuta yo'lagi

### **Mavzuning namunaviy savollari**

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida valyuta tizimining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Xalqaro valyuta tizimidagi evolyutsiyaviy o'zgarishlarda yuz berayotgan oltin standart nimalardan iborat?
3. Bretten-Vud, Yamay valyuta tizimlarining ahamiyati?

### **Seminar darslarida muhokama qilish usun savollar**

1. Xalqaro valyuta tizimi tushunchasi?
2. Xalqaro valyuta tizimida qatnashadigan asosiy elementlarini tushuntirib bering.
3. Oltin standarti, Bretten-Vud, Yamay valyuta tizimlarini izohlab bering.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida valyuta tizimining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Xalqaro valyuta tizimi tushunchasi?
3. Xalqaro valyuta tizimida qatnashadigan asosiy elementlarini tushuntirib bering?

## **51 BOB. O‘ZBEKISTON OCHIQ IQTISODIYOTINING SHAKLLANISHI**

*O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy maqsadlari bu davlat mustaqilligi va suverenitetini yanada mustahkamlashdan, mamlakatning xalqaro munosabatlarini to‘laqonli sub’ekti sifatidagi o‘rni va ro‘lini yanada kuchaytirishdan, hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, mamlakat iqtisodining barqaror va tez sur‘atlar bilan o‘sishi, uning ochiq demokratik davlat qurish yo‘lidagi jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iboratdir.*

**Shavkat Mirziyoyev**

### **51.1. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarining xususiyatlari**

Xalqaro iqtisodiy aloqalarining asosiy shakllari bu quyidagilardan iborat: xalqaro tovar va hizmat savdosi ishlab chiqarish sohasida xalqaro korporatsiya aloqalari; chet el investitsiyalari va kapitallarining harakati; ish kuchining xalqaro kuchi; fan va texnika sohasida almashuvlar; moliya-valyuta va kredit munosabatlari.

Tashqi iqtisodiy aloqalar doirasida asosiy operatsiyalar hajmida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakli xalqaro tashqi savdo hozirgacha bo‘lib kelmoqda. Mana shunga muvofiq hozirgi zamon jahon xo‘jaligi harakatida, jahon bozori, bir-biri bilan juda ham yaqin o‘zaro harakat qilib kelmoqda, shu bilan birga 48-bobda berilgan jahon xo‘jaligida ishlatiladigan iqtisodiy munosabatlar O‘zbekistonga ham tegishli, shu sababli, biz bu yerda O‘zbekistonga xos iqtisodiy aloqalardan kelib chiqqan holda quyidagilarni ham keltirdik:

- tovar va xizmatlar;
- kapitallar;
- ish kuchi;
- valyuta;
- kredit munosabatlari;
- fan-texnika texnologiyalari;
- eksport-import;
- axborotlashuv.

Bular hammasi jahon xo‘jaligi doirasida milliy iqtisodiyot o‘rtasida yaratilgan oldi-sotdi aloqalarini o‘z ichiga oladigan yagona jahon bozorini tashkil qiladi. Bunday munosabatlar yoki almashuv milliy chegaralar orqali ishlab chiqarish omillari harakati deb ham ataladi. Bu yerda bir necha bor tashqi savdo oboroti ob‘ekti o‘zi kengaytiriladi. Xuddi shunday, “klassik” savdo oborotidan tashqari, ayriboshlash sohasida birinchi navbatda har xil xizmatlar muomalaga chiqmoqda. Shunday qilib, xalqaro (tashqi) savdo qat’iyan jahon mamlakatlari o‘rtasida tovar va xizmatlarning almashuv bo‘yicha asosiy shakliga va vosita kompleksiga aylanmoqda.

Iste‘mol tovarlari bozorining birinchi navbatda qondirilishi, bu ishlab chiqarish sohasida-yangi texnika va texnologiyalar bilan birga ham iste‘molga oid ham ishlab chiqarishga oid xizmatlarga, shu jumladan fan-texnologiyalarga, hamda qurilish-ta‘mirlash xarakterlariga talab o‘sib bormoqda. Xizmatlar bozorida amalga oshiriladagan almashuv, ko‘pincha har xil: litsenziyalar va patentlar, “Nou-Xau”, injener-konsultatsiya va transport xizmatlari, ishlab chiqarish jarayoniga kerakli narsalarni o‘zaro yetkazib berish, kapital qurilish ob‘ektlari va boshqalar. Hozirgi zamon taraqqiyotining rivojlanishida va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi hamda kooperatsiyalashuvining murakkablashuvi asosida hozirgi zamon xizmatlarining har xil turdagi shakli jahonda o‘ziga xos “kurtaklanishi” xalqaro iqtisodiy munosabatlari paydo bo‘lmoqda. Xuddi shunday, xalqaro harakatdagi (almashuv) fan-texnika bilimi, yangi texnologiya, litsenziyalar oldi-sotdisi, patentlar va “Nou-Xau” hamda fan-texnika xarakteridagi har xil xizmatlar turi xaqiqatdan ham jahon iqtisodiyotining gurkirab rivojlanib borayotgan alohida sektoriga aylanmoqda va hozirgi vaqtda yalpi tovarlar almashuv operatsiyalari yil sayin oboroti o‘n va yuz milliard dollarni tashkil qilmoqda. Masalan, xalqaro litsenziyalar savdosi 2010 yillarga kelib, butun jahon savdosiga nisbatan yana tezroq sur‘atda rivojlangan.

SEV ning barbod bo‘lishi va izchil metindek mustahkam sobiq SSSRning parchalanishi bilan iqtisodiyotning Rossiyada, O‘zbekistonda va sobiq SSSR respublikalarining territoriyalarida umumiy inqirozni boshlanishiga to‘g‘ri kelishi O‘zbekiston tashqi savdosining geografik yo‘nalishi jiddiy o‘zgarishiga olib keldi. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oldi: ishlab chiqarishning pasayib ketishi, transport infrotuzilmasining yomonlashuvi, bu o‘z navbatida tovarlar narxining tez o‘sib ketishini; bizning yurtimiz uchun ko‘pgina an’anaviy oldi-sotdi bozorlarning va ko‘p yillar davomida rivojlanayotgan sharqiy Yevropa mamlakatlari va davlatlarni yo‘qotishini; yangi paydo bo‘lgan bozorlarda tayyor mahsulotlarning raqobatchilikka yetarli emasligi bilan birinchi navbatda g‘arbdagi rivojlangan davlatlar bu yo‘qotishlarni muqarrar sharoitda



yoqilg'i, xomashyolarni import tovarlarini olib kelishni o'stirish uchun kuchaytirish, yarim fabrikat va mahsulotlarga birinchi darajali ishlov berish.

O'zbekistonning sobiq SEV mamlakatlari bilan hamda sobiq SSSR respublikalari bilan iqtisodiy aloqasida qandaydir o'pirilishi yuz berdi. O'zbekiston sobiq SEV davlatlari bilan umumiy tovar oborotida ulushi izchil kamayaverdi, 20% gacha 1992 yil va 10% gacha 1995 yili. 1999 yilga kelib u 8% dan oshmadi. Karshisida, g'arbiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqasining ulushi tegishli o'sa boshladi va endi 2010 yil 40% oshib ketdi.

Shu bilan birga O'zbekistonning hamma tashqi savdo oborotining 40% ga yaqini YeI davlatlari ulushiga to'g'ri keldi, bular asosiy savdo bo'yicha sherik bo'lib keldi. O'zbekiston bilan tashqi savdo qilishda Germaniya, Italiya, Rossiya, Niderlandiya davlatlari oldingi qatordagi o'rinni egallaydi. Oxirgi yillarda iqtisodiy savdo hajmi aloqalari AQSh bilan rivojlanmoqda. G'arb davlatlaridan tashqari O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarida asosiy o'rinni Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Belorussiya, Qirg'iziston egallamoqda. O'zbekistonning asosiy tashqi savdo bo'yicha sheriklari Rossiya Federatsiyasi hamda Janubiy Koreya, Xitoy va sharqiy Yevropada - Polsha, Chexiya, Slovakiya bo'lib qolmoqda.

Oxirgi yillarda O'zbekistonning tashqi savdosida katta ijobiy saldo tashqi savdo balansida yuz berdi, bu 2 milliard dollardan oshib ketdi.

Shu bilan birga O'zbekistonning hozirgi zamondagi eksportiga kelsak, bu uning asosiy muammolari bo'lib qolmoqda: sanoatda ishlab chiqaradigan mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardosh emasligi (paxta, oltindan tashqari); xalqaro kon'yunktura narxidan yoqilg'i, xomashyo tovarlariga va mahsulotlarga birinchi darajali ishlov berishda kuchli qaramliligi.

90 yillarning oxirida Jahon bozoriga 40% dan ko'proq mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yoqilg'i, 30% dan ko'proq tabiiy gaz, 35% dan ko'proq ishlab chiqarilgan mineral o'g'itlar va boshqalar yetkazib berildi. Bu eksport qilingan statyalardan davlatlarda o'zaro olingan soliqlar va poshlinalar davlat budjetining daromad qismini yarimni shakllantiradi.

Hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy va ajratib bo'lmaydigan qismi dunyo bo'yicha **xalqaro ish kuchining ko'chishi** bo'lib qoldi, ya'ni milliy chegaralar orqali mehnat resurslarining ko'chishi. Har qanday ko'chish ham emigratsiyasi, ham immigratsiyasi deyiladi. Emigratsiya - fuqaroning o'z mamlakatdan chiqib ketishi, doimiy yoki vaqtincha yashash maqsadida boshqa mamlakatlarga ko'chib borishi. Immigratsiya - bu mamlakatga boshqa davlat fuqarosiining doimiy yoki vaqtincha yashash uchun ko'chib kelishidir.

Hozirgi vaqtdagi xalqaro iqtisodiy aloqalari tarkibida xalqaro kapitallarning harakati (ko‘chishi) ko‘proq muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda -bu milliy chegaralar orqali pullar oqimlarining zayomlar, kreditlar, davlatlarning o‘zaro kapitallarning harakatining asosiy shakli investitsiyalar bo‘lib, bular chet el mamlakatlarida amalga oshiriladi (chet el investitsiyalari). Bunda agarda oldingi davrlarda chet el kapitallari oqimi ko‘proq iqtisodiy qoloq mamlakatlarga faqat foyda chiqarish maqsadida qaratilgan bo‘lsa (arzon mehnat kuchidan oxirgi o‘n yilliklarda birinchi o‘ringa kapitallarning ko‘chishi davlatlarning rivojlanish darajasi bo‘yicha tenglar o‘rtasida (yoki nisbatan tenglar) surildi, ajralmas tarkibiga va hamkorlikning doimiy qismiga va bir vaqtda bular o‘rtasidagi raqobatga aylantirildi.

Mamlakatga chet el investitsiyalarining kelishiga ta’sir qiluvchi aniq omillar quyidagilar: chet el investitsiyasini qabul qiluvchi mamlakatda umum iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikning kafolati; uzoq vaqt ichida umum xo‘jalik va soliq qonuniyatlarining o‘zgarmasligi; ustama foydani bir lahzada olish imkoniyati emas, balki oldindan aytib va pastroq olishga kafolat berilishi, ammo foyda olishga ishonch va uni investorlarning erkin foydalanishi.

Hozirgi zamon O‘zbekiston iqtisodiyotining yuksalishida chet el investitsiyalari ham jiddiy ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa, birinchi navbatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish sohalariga, transport infratuzilmalariga hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish va saqlash infratuzilmalariga. Ammo O‘zbekistonda yuqorida qayd etilgan sharoitlarning yo‘qligi oqibatida har qanday mamlakatda investitsiyalarning sharoitini yaxshi shakllantiradigan, yuksak darajada siyosiy va iqtisodiy tavakkallikning borligi hozirgacha O‘zbekiston iqtisodiyotida chet el investitsiyalari shu qadar jiddiy rol o‘ynamaydi.

Bulardan tashqari, chet el investorlari uchun noqulay muhit bu asosiy yashirin ichki investitsiyalar manbasi bo‘lib O‘zbekistonning xususiy kapitali o‘zining milliy bozorida o‘zi uchun yetarli darajada ishonchli emasligi; butun iqtisodiyotda va bizning tashqi iqtisodiy aloqalarimiz sohasida ahvolning jiddiy yaxshilanish yo‘lida to‘siq bo‘lib turgan mamlakatdan ozmi-ko‘pmi kapitalning yilma-yil chiqib ketishining sezilishidir har xil baholar bo‘yicha, ushbu islohotlar yillarida mamlakatdan 2 milliondan ko‘proq dollar chiqib ketgan.

O‘zbekistonning hozirgi zamondagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarining tuzilishi va ahvoli birinchi navbatda davlatimizning iqtisodiyotining hozirgi kundagi ahvoli va geosiyosiy haqiqatda qolganligidir.

Bizning mamlakatimizning xalqaro munosabatlarining o‘tish davridagi ahvoli, ya’ni nisbatan yopiq iqtisodiy tuzumdan ochiq iqtisodiy tuzumga

o'tishi, integratsiyalashgan jahon xo'jaligiga kirishidir. O'zbekiston iqtisodiyotiga tegishli ravishda rivojlanish bilan birga, o'zini tutib turgan tashqi – iqtisodiy faoliyat shakli ulkan rol o'ynaydi.

### **51.2. Ochiq iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari va shakllari.**

O'zbekistonning yangi iqtisodiy tizimining shakllanishining muhim yo'nalishi bu samarali xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yaratish, ochiq iqtisodiyotga o'tishi bo'ladi.

Sobiq SSSR va boshqa sotsialistik davlatlarning iqtisodiyoti nisbatan yopiq tuzum bo'lib, qolgan jahon iqtisodiyoti qismidan o'zini kattaroq muxtor ravishda tutgan edi. Bu quyidagicha ifodalangan. Tashqi dunyo bozoriga chiqish huquqiga faqat sobiq SSSR tashqi savdo vazirligiga tegishli tor doiradagi ixtisoslashtirilgan, maxsus tashqi savdo tashkilotlarga yoki sobiq SSSR tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha Davlat komitetiga tegishli tashkilotlari kirgan. Jahon bozoridagi realizatsiya shartlarining o'zgarishi ishlab chiqish korxonalar faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmagan. Garchan nazariyada hamma vaqt xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) ishlab chiqarishning samarasini oshirish sifatida muhim deb e'tirof qilingan, lekin amaliyotda avtarsiyali fikr hukumronlik bo'lgan. Import yetishmaydigan yo'q tovarlarni olish vositasi sifatida, eksport esa – muqarrar “yomon-yovuz”lik, chet el valyutasini ishlab olish uchun zarurlik sifatida qarab chiqilgan.

Sobiq sovet iqtisodiyotining qarab chiqilgan yopig'ligi bir necha muqarrar ko'rsatmalar va xususiyatlarga ega edi: mamlakatda jahon bozoridagi narx-navolardan jiddiy farqlanuvchi narx-navo tizimi harakatda bo'lgan; rubl konvertatsiya qilingan valyuta emas edi; korxonalar to'g'ridan-to'g'ri jahon bozori bilan aloqada bo'lmaganlar va bunda ishlash tajribasiga ega emas edi.

Hozirgi zamon O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy aloqalar nafaqat xalqaro mehnat taqsimoti afzalligi hisobiga ishlab chiqarish samarasini oshirish vositasi sifatida qarab chiqilishi shart edi. Gap bu yerda O'zbekiston iqtisodiyotining uzviy ravishda jahon xo'jaligiga bozor iqtisodiyoti muhim elementi shakllanishi sifatida kirishi to'g'risida ketayapti.

Bozorning o'zgarishlari oqimi sharoitida O'zbekistonning barcha tashqi iqtisodiy aloqalari tizimida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Uning asosiy xususiyatlari shulardan iborat, ya'ni oldingi iqtisodiyotning nisbat yopiqlikka qaratilganligi endi “ochiq” iqtisodiyotga va uning jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuvi, tashqi iqtisodiyot faoliyatining hamma shakllarini erkinlashtirishga qaratilganligidir. Bu milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi bilan o'zaro harakati sharoitini va ichki xo'jalik sharoitini tubdan o'zgartiradi:

agarda iqtisodiyotning nisbatan yopiqligi bir qandaydir ma'noda tashqi omillar ta'sirini hisobga olmaslikka imkoniyat bergan bo'lsa, xususan, jahon iqtisodiy inqirozlarini va mamlakat xalq xo'jaligining rivojlanishiga noqulay konyunkturalarini unda ochiq iqtisodiyotga o'tishida ular ancha katta miqdorda xalqaro tovarlar va moliya bozorlarida, jahon miqyosida ro'y berayotgan siyosiy voqealardan iborat vaziyatlarga bog'liq bo'lib qoladi. O'zbekiston milliy ishlab chiqarishning "ochiq"ligida tashqi dunyo uchun chet el raqobatchilari bilan kurashishni boshlaydi unda nafaqat tashqi bozorda, ammo o'zining ichki bozorida ham.

**Ochiq iqtisodiyot**, milliy iqtisodni tuzumining asosiy holati sifatida, bir qancha belgi va xususiyatlarga ega.

**Makro miqdorda:**

- mamlakatning mustahkam tashqi iqtisodiy ixtisoslashtirilganligi, jahon xo'jaligi bilan almashuv tanqislik yoki mamlakatning ichki mahsulotlarining -ortiqchaligi bilan emas, balki ishlab chiqarish sarf-xarajatlari va tovarlar sifatining solishtirilishi bo'yicha yuz beradi;
- asosiy tovarlarga milliy va jahon narx-navolarini solishtirish nisbati;
- xalqaro mehnat bozorida, moliyalar bozorlarida, hamda boshqa shakldagi makroiqtisodiy faoliyatlarda qatnashish;
- milliy valyutaning xalqaro tiklanishi.

**Mikro miqdorda:**

- barcha shakllardagi mulkchilik korxonalarining tashqi tovarlar, xizmatlar va kapitallar bozorlariga chiqishi;
- xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha mamlakat va chet el sherikchilari va bozorlarining barcha iqtisodiy sub'ektlarining erkin tanlovi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni korxonalar faoliyatining uzviy tarkibiy qismiga aylantirishi.

**Davlat faoliyatiga:**

- chet el raqobatchilariga ichki bozorni mamlakat ishlab chiqarishini ephil himoya qilish bilan birga ochib berish;
- chet el kapitallarining xo'jalik harakatlarini huquqiy va iqtisodiy kafolatini ta'minlash;
- iqtisodiyot sohasidagi milliy qonuniyatlarni bir-biriga yaqinlashtirish, O'zbekiston xalqaro shartnomalar majburiyatlarining mamlakat huquqiy normalaridan ustunligi;
- jahon amaliyotida umum qabul qilingan tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish vositalari va metodlari aslaha xonalarning qo'llanilishi;

- O‘zbekistonning barcha xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda qatnashishining ta’minlanishi;
- tashqi jahon bozorida mamlakat eksport qiluvchilarini qo‘llab-quvatlashi.

Mutlaqo ochiq iqtisodiyot soddalashtirilgan tushunchada, ya’ni shunday, harakat qilish jarayonlarida hech qanday cheklanmasdan tovarlar, mehnat va kapitallarning milliy chegaralar ham ichki, ham tashqi orqali harakati dunyoda xech qanday davlatlarda ro‘y bermagan. Bozor tipi xo‘jaligidagi chet el hukumatlari xalqaro resurslar oborotini har xil chora-tadbirlar yordamida, sof ma’muriy choralarni ham qo‘llab tartibga soladi. Bunda iqtisodiyotning ochiqligida qat’iy milliy iqtisodiy manfaatning ustunligi hisobga olinadi.

Iqtisodiyot nazariyasida “katta ochiq iqtisodiyot” va “kichik ochiq iqtisodiyot” farqlanadi.

**Katta ochiq iqtisodiyot** – bu shunday iqtisodiyotki, o‘zining miqyosi tufayli, haqiqattan ham xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishi, jahon tovarlar, kapitallar va xizmatlar bozorlarda ta’sir darajasi, hamda o‘z ixtiyoridagi milliy iqtisodiyotga va resurslar salohiyotlariga haqiqatan ham asosiy iqtisodiy parametrning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan; inflyatsiya darajasi va jahon narx-navosiga; asosiy tovarlar guruhiga talab va taklifning dinamikasi; jahon moliya bozorining ahvoliga, foizlar stavkasini qo‘shib hisoblanganda; tashqi iqtisodiy aloqalarni tartiblaydigan xalqaro huquq va normalar sohasidagi siyosatni aniqlashda va boshqalar.

Katta ochiq iqtisodiyot shakllangan (masalan AQSh, Yaponiya, Germaniya, Rossiya) davlatlari xalqaro bozorlarning ahvoliga va jahon foiz stavkalariga ta’sir ko‘rsatadi.

**Kichik ochiq iqtisodiyot** – bu shunday iqtisodiyotki, jahon bozorlari jarayoniga va jahon foiz stavkasi harakatiga jiddiy ta’sir ko‘rsata olmaydi. Qoidaga binoan, bunday iqtisodiyotning rivojlanishi jahon bozorlarida va xalqaro munosabatlarda yuz beradigan intilishlar ta’siri ostida amalga oshiriladi.

O‘zbekistonning milliy iqtisodiyoti bir qancha yashirin hollardagi afzalliklari resurslari, industriyali va intellektualli salohiyatiga ko‘ra katta ochiq iqtisodiyotning shakllanishi uchun boshlang‘ich dastlabki imkoniyatga ega bo‘ladi.

### **51.3. O‘zbekiston ochiq iqtisodiyotning shakllanishi maqsadi va ziddiyatlari**

O‘zbekiston ochiq iqtisodiyotning shakllanishi yangi imkoniyatlar rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Bular orasida kelgusilarni (quyidagilarni) ajratadi:

- O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishini kengaytirish;

- tashqi iqtisodiy aloqalarni iqtisodiy o‘shishga investitsiya omillari sifatida va tarkibiy o‘zgarishlari rolini kuchaytirish;

- mamlakat ishlab chiqarishini jahon darajasi texnikaviy qurollanishi jihatdan qattiqroq tortish, sarf-xarajatlar va mahsulotlar sifatini, ya’ni milliy iqtisodiyotning raqobatlashish qobiliyatini ko‘tarish;

- O‘zbekistonning jahon xo‘jaligi bilan o‘zaro harakat modelini o‘zgartirish: an’anaviy tovar – almashuvidan ko‘proq yuksak hamkorlik shakliga o‘tish mamlakatning yangi tashqi iqtisodiy ixtisoslashtirilgan asosida kapitallarning ko‘payishi, fan-texnika kooperatsiyasi, ishlab chiqarish integratsiyasi va boshqalar;

- mamlakatda alohida bozor institutlarini va mexanizmlarining shakllanishi, ya’ni hozircha kuchsiz yoki umuman yo‘q, raqobat muhiti bir butunligini jadallashtirmoq kerak.

Butunlay tushunarliki, ya’ni O‘zbekiston iqtisodiyoti hozircha ochiqlik afzalligini to‘liq foydalana olmayapti. Lekin aniq, ya’ni islohotlar yo‘lida tashqi iqtisodiy aloqalarning erkinlashuvi mamlakat xalq xo‘jaligidagi inqiroz hodisalarining oqibatlarini qandaydir yengillashtirishga yordam berdi.

Import ichki bozorni to‘ldirishda asosiy kanal, birinchi navbatda iste’mol tovarlari, taklifning assortimenti va tarkibiy shakllanishi va shu tufayli talab xarakteriga ta’sir etuvchi omil bo‘ldi. Eksport esa valyuta resurslarining kelishida asosiy omil bo‘lib qoldi. Shunday qilib, ochiq iqtisodiyotning shakllanishini realizatsiya qilish yo‘li iqtisodiyotning rivojlanishi uchun bir qancha yangi imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga bularning ko‘pchiligi, O‘zbekiston iqtisodiyotida ochiq xo‘jalikning aniq miqdoriy o‘shish va sifatli xarakterining yuksalishiga qarab sekin-asta amalga oshiriladi. Lekin bulardan shunday xulosa chiqarib bo‘lmaydi, ya’ni O‘zbekiston ochiq iqtisodiyotining hozirgi vaqtdagi sharoitda shakllanishi – bu so‘zsiz ne’mat va faqat bitta afzallikni bildiradi. O‘zbekistonda ochiq iqtisodiyotni jadallashtirish buning hozirgi faqat tarkibiy shaklini o‘zgartirishi va inqiroz ahvoli yetarli bama’ni oqibatlarga va yomon yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Bunday O‘zbekiston iqtisodiyotining “ochiq” ligini jadallashtirishda asosiy xavfsizliklar qatoriga shularni kiritish mumkin:

- Mamlakat ishlab chiqarish salohiyotini, tarmoq va alohida pirovard mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarni vayron qilish.

- Qazib olish sanoati ustunligi bilan og‘ir tarkibdagi ishlab chiqarishni konservatsiya qilish.

- O‘zbekistonga asosan xomashyoni yetkazib beruvchi va tayyor mahsulotni iste‘mol qiluvchi qilib mustahkamlash shu yo‘l bilan tovar va xizmatlar eksporti.

- Jahon savdosida O‘zbekiston o‘rnini kamaytirish bir qancha tashqi bozorni yo‘qotish, asosan mashina va asbob-uskunalar, texniklarni yo‘qotishni.

- Sanoatda rivojlangan davlatlarga moliyaviy va texnologiya jihatidan bog‘lab qo‘yishni.

- Milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki bozorning bir qismini yo‘kotish.

Islohotlarning boshlanish bosqichlarida tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirishni jadallashtirish bozor munosabatlarining elementi sifatida iqtisodiyotni ochiq deb talqin qilish ko‘proq ustunlik qildi. Oxirgi yillardagi tajriba shuni ko‘rsatmoqda, O‘zbekiston iqtisodiyotining ishlab chiqarish infratuzilmasi jahon bozori orqali oldingi qatordagi ishlab chiqarish texnikasi kompleksi bog‘lanmaganligi, mana shu oqibatlar tufayli iqtisodiyotni ochiq deb talqin qilish yaxshi natijalarga olib kelmadi, yana mamlakatimiz yuqori darajada samarali eksport tarmoqlariga boy emas (asosan yuqori texnologiya darajasida ishlab chiqarish va asbob – uskunalarga), hamda eksport tarmoqlari mahsulotlarining sarf-xarajatlari haligacha yuqori. Natijada texnologiya jihatdan G‘arbda rivojlangan davlatlariga bog‘lanib qolgan, xomashyo va yoqilg‘ilarni eksportga koservatsiya qilishga mo‘ljallanganligi.

Umumjahon amaliyotida ochiq iqtisodiyotga o‘tish shuni ko‘rsatmoqda, avvalam bor tovarlar, kapitallar va ish kuchlari ichki va jahon bozorlari o‘rtasida yo‘llardagi to‘siqlarni yo‘qotish zarur. Albatta, bugun tashqi iqtisodiy cheklanishlarni hech qanday davlat amalga oshirmaydi. Jahonda barcha davlatlar aniq shakldagi tarif va tarifsiz tashqi savdodagi, valyutani tartiblashdagi, ish kuchi migratsiya yo‘lidagi cheklanishlar kabi tartiblanishni saqlab qolmoqdalar. Hozirgi yillarda G‘arbdagi sanoatda rivojlangan davlatlar ob‘ektiv jarayonlar ta’siri ostida xo‘jalik hayotida internatsionallashish tashqi iqtisodiy asosan savdo va kapital harakati sohasidagi to‘siqlarni olib tashlashdagi birinchi qadamlarni amalga oshirmoqda. Bu birinchi navbatda G‘arbiy Yevropaga tegishli ya’ni integratsiya jarayonlari yetarli darajada mustahkamlashmoqda hamda AQSh va Yaponiyaga tegishli, bularda ochiq iqtisodiy darajasi oxirgi yillarda jiddiy ravishda o‘smoqda.

Jahon tajribasining ko‘rsatish bo‘yicha vositalarni qo‘llashda o‘zlarining birinchi ishlab chiqarishlari iqtisodiyotning eksport sektorini kengaytirish hisobiga yuborishga samarali darajada rivojlangan mamlakatlar rozi bo‘lishi

mumkin. Ichki bozorning ochilish jarayoni, odatda, asta-sekin shart-sharoitlariga tegishli choralarning yetilishi bo'yicha boradi. Hatto bozor xo'jaligi bunga kiruvchi sanoatda rivojlangan G'arb davlatlari ochiq iqtisodiyotga o'tishi ikkinchi jahon urushidan keyin ancha uzoq davrni egalladi. Faqat o'zlarining iqtisodiyotining raqobatlashish qobiliyatiga ega bo'lganligida ular boj poshlinasini pasaytira boshladi, tashqi savdo sohasida litsenziyalarni va miqdoriy cheklanishlarni bekor qilishda o'zlarining milliy valyutalarining konvertatsiya qilinishiga o'tishida va boshqalarda.

Ochiq iqtisodiyot shakllanishining asosiy savoli – bu milliy iqtisodiyotning himoya qilish sharti bo'yicha ichki va tashqi iqtisodiyotni bir-biriga moslashtirishdir. Ochiq iqtisodiyot shakllanishining boshlang'ich muammosi – birinchi navbatda qaysi birini ichki yoki tashqi munosabatlarni erkinlashtirish kerak. Iqtisodiy o'zgarishlar O'zbekistonda va boshqa o'tish davri iqtisodiyotida haqiqatan bozorga intilishdan emas, balki haqiqatan iqtisodiyotni “ochish”dan boshlangan. Tashqi sohadagi erkinlashtirish ichki soha bilan solishtirganda nisbatan tez sur'atda ketgan. Real iqtisodiy munosabatlar orqasida turgan real pullar korxonalarining o'zaro munosabatlaridan emas, balki xorijiy sheriklari munosabatlaridan boshlangan. Jahon bozori milliy bozorning yo'qligida uning o'rnini to'ldirgan. Bunday jarayonlar milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga har taraflama integratsiyasi deb bo'lmaydi. Jahon iqtisodiyotiga bu bo'yicha milliy xo'jaliklar emas, balki alohida korxonalar va regionlar integratsiyalashadi.

O'zbekiston eksportida 1990 yillarning o'rtalarida kvotalar va litsenziyalar, eksporti tarifi, eksport bo'yicha tovarlarni yetkazib berish to'liq tugatilgan edi. Haqiqatan mamlakatga tovarlarni olib kelishning yagona usuli import tarifi bo'lib qoldi. Hozircha antidempinga oid va kompensatsiyaviy poshlinalar qo'llanilmaydi, chet ellarda keng qo'llanilayotgan tarifsiz importni cheklash amalda foydalanilmayapti.

Tashqi savdoni erkinlashtirish ichki iqtisodiy haqiqatlar uzilgan holda va kerakli darajada xalqaro amaliyotda davlat tomonidan tashqi savdolarni tartibga solish chora – tadbirlarini inobatga olinmasdan shoshilib va chuqur o'ylamasdan amalga oshirgan edi.

G'arb mamlakatlar ulardan olingan kreditlar O'zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari iqtisodiyotiga va uning ochiqligiga “ta'siri” qisqa muddatli vazifalarni hal etishga va iste'mol bozorlarini to'ldirishga qandaydir imkoniyat yaratdi, ammo bu nishonning teskari tomoni – davlat budjetining tezda ko'payishi, tovarlarning (paxta, oltin va boshqalar) nazoratsiz chetga olib chiqib ketilishi, kapitallarning yashirin chegaralardan chiqib ketishi, soliq



to'lovlarining qisqarishi, milliy sanoatning va qishloq xo'jaligining ma'lum sektorlarining to'xtab qolishiga va boshqa yo'qotishlarga olib keldi.

Natijada eksport rejimini liberallashtirish qavat yoqilg'i, energetika komplekslarida va yarimfabrikatlarni ishlab chiqarish (qora va rangli metallar) yaxshi sharoitda bo'lib qoldi. Ammo ularga ham ishlab olingan investitsiya vositalaridan foydalanish o'zlarining moddiy texnika bazasini tiklashga, zamonaviylashtirishga va kengaytirishga yordam bermadi.

Ko'p holda tashqi jahon bozoriga raqobatdosh tovar va mahsulotlarni ishlab chiqaradigan tarmoqlarga noqulay bo'lib qoldi.

O'zbekiston va boshqa MDH davlatlarining iqtisodiyotining jahon bozori oldida tezda "ochilishi" g'arb sherikchilaridan ko'pchilik eksport tovarlariga bo'lgan tahqirlash, kamsitish munosabatlari yo'qotilmadi.

Bunday murakkab import mahsulotlari bilan raqobatlashadigan ishlab chiqaruvchilar qoldi. Birinchi navbatda jiddiy ahvolda yengil oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi tarmoqlar bo'lib, bular ancha vaqtdan beri o'zlarining faol himoyasini talab qilmoqda, ko'plab raqobatdosh tovarlarni olib kelishni cheklashni kutmoqda, bu G'arbda odatdagidek amalda bo'lib qolgan.

Natijada, ham ichki bozorni to'ldirishga (birinchi navbatda iste'mol tovarlari) erishilgan bo'lsada, xalq xo'jaligining oldingi bir qancha nomutanosibliigi strukturasi bartaraf qilingan bo'lsada, O'zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari kapitallari qo'shimcha ish joyini va mamlakatlarning ichki investitsiyalarini yaratish uchun foydalanishga qobiliyatsiz bo'ldi.

Katta ochiq iqtisodiyotni shakllantirish – bu taraqqiyparvar jarayondir. Lekin buning shakllanishidagi ziddiyatlar bizlarning o'tish jarayonidagi sharoitlariga moslashuvida yangi o'zgarishlar davrida bir qancha prinsiplarga amal qilishni talab qiladi.

Birinchi, O'zbekiston ochiq iqtisodiyotning shakllanishi faqat uning jiddiy strukturali o'zgarishi natijasida bog'liq bo'lishi mumkin, ya'ni aniq bosqichga va sur'atga ega bo'lgan, ko'proq milliy xo'jalikka xos xususiyatlarga (uning miqyosiga, ishlab chiqarish ukladlariga, ishlab chiqarish va sotish darajasining monopollashganligiga va boshqalarga) bog'liqligi.

Ikkinchi, bozor iqtisodiyotining ochiq tipdagi shakllanishi davlat rolining o'zgarishini, nafaqat ishlab chiqarishni, balki hamda har xil regulyatorlar (sozlagich) kombinatsiyasi yordamida (bozorga va ma'muriyatga oid) strukturali, sanoat va tashqi iqtisodiy siyosatlarni realizatsiya etishni talab qiladi.

Uchinchi, ochiq iqtisodiyot O'zbekistonning xalqaro bozorlarda va xalqaro tashkilotlarda egallagan o'rnini aniqlash shart, shuning uchun ochiq iqtisodiyotning afzalligini eksport-import va valyuta operatsiyalarini

ma'muriy yo'l bilan cheklanishni olib tashlab, balki og'irlik markazini raqobatchilik sohasidagi erishilgan yutuqlarga o'tkazish lozimdir.

#### **51.4. Tashqi iqtisodiyot siyosati.**

O'zbekistonning geosiyosiy ahvolidan tubdan o'zgarishi, mamlakat iqtisodiyotining sifatli asosda shakllanish uchun jahon iqtisodiyoti bilan o'zaro harakatda bo'lishi davlatning samarali tashqi iqtisodiy rivojlanish siyosatida muhim o'rin egallaydi. Tashqi iqtisodiy siyosat (TIS) – bu davlat va organlarining tashqi iqtisodiy aloqalarining (TIA) aniq rejim bo'yicha tartiblanishi va mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish yo'lidagi aniq maqsadga mo'ljallangan harakatidir.

Davlatning hozirgi zamon sharoitidagi vazifasi – bu bozor prinsiplari iqtisodiyotining harakatiga, ochiq iqtisodiyotiga o'tish va uning jahon xo'jaligiga izchil integratsiyalashuviga o'xshagan tashqi iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishdir. Bu davlat faoliyatining o'zgarishida tarmoq va hududlarning rivojlanishiga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatiga faollashtirish maqsadidagi talabdir; O'zbekiston korxonalar va firmalarining tashqi iqtisodiy faoliyatining o'zgarishida birgalik tashqi iqtisodiy bitimlar afzalligidan tashqi bozorda doimiy faoliyatiga yo'l olish; TISni amalga oshirishda hokimiyat tarmoqlari, idoralar hamda viloyatlar va ularning sub'ektlari o'rtasida funksiyalarni aniq taqsimlash.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosatida o'tish davridagi asosiy maqsad quyidagilar:

- mamlakatdagi korxonalar va firmalarni jahon bozoriga chiqishni ta'minlash, ya'ni mashina va asbob-uskunalar, texnologiya va informatsiyalar, kapitallar, xomashyo resurslari, transport kommunikatsiyalariga. Bu yerda asosiy ahamiyatga siyosiy, moliyaviy, O'zbekiston korxonalarining mahsulotlarining bozorga intilishini qo'llab-quvvatlovchi informatsiyalar, ya'ni nazorat qiluvchi korporatsiyalar yoki chet davlatlari va ularning ittifoqdoshlari himoya qiladigan proteksionizm to'siqlari;

- chet mamlakatlar bilan savdo-siyosat munosabatlarida yaxshi rejimlarga erishish va ularning savdo-iqtisodiy guruhlarini, tashkilotlari va ittifoqlari bilan mavjud to'siqlarni olib tashlash;

- uzoq muddatli kredit beruvchi mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan va O'zbekistondagi qarzdorlarning o'zaro munosabatlaridagi valyuta-moliya muammolarini tartiblash;

- O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi samarali tizimini shakllantirish (valyuta, eksport, bojxona nazorati va boshqalarni).

Bu yuzaga kelgan sharoitlarda va yangi geosiyosiy holatlarda O‘zbekistonning joriy tashqi iqtisodiy siyosati hozirgi vaqtdagi bosqichda birinchi navbatda kelgusi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- eksport qilinadigan xomashyoviy tovarlarni, keyinchalik xalq xo‘jaligini modernizatsiyalash uchun va uning asosi sifatida valyuta tushumlarining o‘shirishini ko‘paytirishni;

- faol investitsiya siyosatiga o‘tish uchun resurslarni jamg‘arish va eksport salohiyati tizimini qayta qurish, kerakli darajada to‘lov qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, kommersiya kreditlari bo‘yicha va chet el kommersiya banklaridagi uzoq muddatli davlat majburiyatlarini;

- eksport imkoniyatlarini rivojlantirish, iqtisodiyotning qayta qurish tizimini kengaytirish uchun mamlakatga qo‘shimcha valyuta va investitsiyalarni jalb etishni;

- jahon bozorlarida va qayta ishlab chiqarish mahsulotlarini eksport qilishda O‘zbekistonning iqtisodiy manfaatini faol savdo-siyosatini qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishni;

- yangidan yaratilgan import o‘rnini bosadigan ishlab chiqarishga munosabatini o‘rtacha protensionizmni ta‘minlash, ayniqsa, davlat konversiya dasturini realizatsiya qilishda.

Jahon tajribali TIA foydalanishda rivojlangan davlatlardan orqada qolishni bartaraf qilish uchun TIS rivojlanishida ikkita asosiy yo‘nalishni beradi. Birinchi eksport afzalligini faraz qilishni, ikkinchisi import o‘rnini bosishni. Birinchi yo‘nalishda o‘tgan asrning oxirida AQSh ketdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin yangi industrial davlatlar ketmoqda. Ikkinchi yo‘nalishni oxirgi ikki o‘n yilliklarda bir qancha Lotin Amerika mamlakatlari tanladi. O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga ko‘proq harakatchan va samarali strategik integratsiyasi iqtisodiyotning qayta qurish tizimini uning tajribali o‘shirish faolligi bilan birgalikda bo‘ldi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, TIF (tashqi iqtisodiy faoliyat).

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasining to‘lovga qobiliyatli hamkor sifatidagi xalqaro obro‘-e‘tibori oshib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy siyosatga quyidagi tamoyillar asos qilib olingan: mafkuraviy qarashlardan qat‘iy nazar, tashqi munosabatlarda ochiqlik; teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik; boshqa mamlakatlarning ichki

ishlariga aralashmaslik; to'la ishonch negizida ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish; o'zining milliy davlat manfaatlari ustuvorligiga amal qilgan xalqaro huquq me'yorlariga rioya qilish va xalqaro andozalarga izchillik bilan o'tish.

O'zbekiston Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Halqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro elektr aloqa ittifoqi, Osiyo va Tinch okean iqtisodiy hamda ijtimoiy komissiyasi, hamdo'stlik bojxona kengashi kabi e'tiborli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosi.

Respublikaning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki bir qancha yirik davlatlararo loyihalarni birgalikda amalga oshirish, mintaqalararo muammolarni hal etish imkonini beradi.

Respublikada chet el investitsiyasi kiritilgan 3300 dan ko'proq korxonalar ro'yxatga olingan.

Valyuta-kredit munosabatlari sohasidagi hamkorlik ham rivojlanmoqda, xorijiy valyuta bilan operatsiyalar o'tkazish vakolatini olgan banklar tarmog'i kengaymoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki shu banklarning eng baquvvatidir.

### **51.5. Tashqi savdo siyosati.**

Tashqi savdo siyosati – bu har qanday mustaqil davlatning boshqa davlatlar bilan savdo munosabatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan maqsadlar, vositalar va metodlar yig'indisidir. Tashqi savdo siyosati aniq geografik ham eksport, ham import qilinadigan tovarlar strukturasi hamda ularni davlat tomonidan tartibga solish tizimini o'z ichiga oladi.

O'tish davri iqtisodiyoti tashqi savdo siyosatini ishlab chiqish va uning aniq choralari realizatsiya qilish uchun kelgusi hollarni hisobga olmoq kerak. Sobiq SSSRning barbod bo'lganidan keyin O'zbekiston oldingi sobiq SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublikalar bilan ancha-muncha xo'jalik aloqalarini yo'qotdi. Shu sababli O'zbekiston mustaqil iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olganidan keyin xalqaro maydonda shunday qisqa vaqt ichida ichki va tashqi savdo siyosatlarini ishlab chiqishning o'zi bo'lmadi va kreditorlar bilan iqtisodiy munosabatlarni qiyinlashtirdi.

Shunga qaramasdan bozor islohotlarini amalga oshirishda hamda tashqi iqtisodiyotni liberallashtirishda, buning ustiga ularning ziddiyatlari va oxirigacha yetmaganligi, tashqi savdoga nafaqat xalq xo'jaligining boshqa sektorlaridan tezroq inqirozidan chiqishga, balki undan iqtisodiyotning eksportga qaratilgan tarmoqlaridan tortib olishga, hamda ichki bozordagi

ASMDa va yengil sanoatda chuqur pasayib ketishlarning o‘rnini to‘ldirmoqqa ijozat berdi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirishda tashqi savdo asta-sekin barqarorlashtiruvchi va rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib kelmoqda. Tashqi savdo mamlakatning boshqa asosiy sotsial-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining rivojlanishida tezroq ijobiy dinamik o‘shishga chiqdi, o‘zining savdo aylanmasini 2007 yilda 15 foizdan va 2008 yilda 17 foizga ko‘paytirdi. O‘zbekiston tashqi savdo hajmining tiklanishi asosan xomashyo tovarlarini eksport qilishning o‘shishi tufayli ketmoqda. Savdo balansi barqaror o‘smoqda. 2000 yilda 6212,1 mln AQSh dollarda, 2016 yilda esa 24309,4 mln AQSh dollarni tashkil etdi. Eksport-import operatsiyalaridan olinadigan poshlina, soliq va budjetning daromad qismining deyarli to‘rtidan birini tashkil etdi, savdo balansining bunday saldosi 1990 – 2015 yillarda valyuta rezervlarining asosiy manbasi bo‘ldi. O‘zbekiston tashqi savdo siyosatining asosiy maqsadlariga quyidagilarni kiritish kerak:

1) aniq maqsadga yo‘naltirilgan mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy qurishga ko‘maklashuv;

2) O‘zbekiston jahon iqtisodiyotiga qo‘shilish xarakterini tovar ixtisoslashuvi liniyasi bo‘yicha ham, hamda huquqiy shartnoma va siyosiy shartlar munosabatlari bo‘yicha ham o‘zgartirish;

3) O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash.

Bu maqsadlarga erishish quyidagilarni faraz qiladi:

- Mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy siljishlar ta‘siri ostida ro‘y berayotgan eksport tarkibining yangilangan shakli birinchi navbatda qayta ishlab chiqarish sanoatida, bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hissasi va hajmlarining ancha ko‘payishi hisobiga hamda eksportga yo‘naltirilgan xizmatlar sohasining rivojlanishi orqali;

- O‘zbekiston eksporti sektorlari uchun ko‘proq jahon bozorlaridagi to‘siqlarni kelajakda aniq maqsadlarga o‘zlashtirish, keyinchalik asosiy kuchlarni jahon bozori yutuqlarining rivojlanishiga mahkam joylanishini tanlab olingan yo‘nalishlari bilan birga fan-texnika hamkorligining faol rivojlanishiga, xorijiy sheriklari bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasini chuqurlashtirish ishiga;

- tashqi iqtisodiy sheriklar bilan yaxshi rejimdagi savdo munosabatlariga erishish, O‘zbekiston bilan savdo qilishda har qanday to‘siqlarni olib tashlash, yangi to‘siqlarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- O‘zbekiston korxonalarini uchun jahon kapital, mashina va asbob-uskunalar, texnologiya, informatsiya, mineral, xomashyo bozorlariga kirishini

hamda eksportchi va importchi sifatida global transport kommunikatsiyalarini ta'minlashni O'zbekiston tovar va xizmatlarini, ayniqsa jahon yuqori darajadagi monopollashgan (xorijiy davlatlarining jahon bozoridagi yuqori himoya qilingan proteksionizmga oid choralarini) bozorlariga kirish jarayonlarida davlatning puxta o'ylangan siyosiy, moliyaviy va informatsiyaviy qo'llab-quvvatlashlari bu yerda katta rol o'ynashini aytmoq kerak;

- xorijiy mamlakatlar hamda xalqaro kreditlash tashkilotlari bilan uzoq vaqtga mo'ljallangan valyuta-moliyaviy o'zaro munosabatlar va qarzdorlik muammolarini tartibga solishni;

- O'zbekistonning tashqi iqtisodiy manfaatlarini samarali himoyalash tizimini mukammallashtirish yo'lini bir qator hollarda-eksport, valyuta, bojxona nazoratlarini kengaytirish hamda kerak bo'lsa boshqa shakldagi tashqi iqtisodiy faoliyat nazoratlarini yaratishni.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonning tashqi savdosi haligacha xalqaro tovar almashuvini ratsional tashkillashtirish xarakteriga ega emas, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki bozor chegarasidan tashqarida realizatsiya qilishni kengaytirish hisobiga eksport mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga imkoniyat tug'dirmoqda, import esa uning o'rnini bosa olmayapti, ichki milliy ishlab chiqarishni to'ldirmoqda. Sobiq SSSRning yagona iqtisodiy bo'shliqning vayron bo'lishi va O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy parokandalik sharoitida savdo balansining faolligi avvalambor tashqi iqtisodiy aloqalarning tabiiy liberallasuvi va xususiy lashuvi natijasidir. Eksportning o'sishi, ayniqsa, ichki bozorlarda to'lashga qodir talabning yaqqol pasayib ketishi hamda bir qator tovarlarga ichki narx-navoning jahon bozori narxlaridan hozirgacha ancha orqada qolganligidir. Mahalliy sanoatning ichki bozorni yetarli miqdorda keng iste'mol qilinadigan tovarlarning ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar bilan to'ldirishga qobiliyatsizligi xorijiy mamlakatlar ishlab chiqilgan tovarlarning assortimenti va sifati bo'yicha raqobatchilik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, importni kengaytirishi vaqtincha majburiy xarakterga ega bo'lishi, importni kengaytirishi vaqtincha majburiy xarakterga ega. Shunday qilib, tashqi savdo oborotini ko'paytirish asosan ekstensiv omillarning hisobiga yuz bermoqda va mustahkam uzoq vaqtga mo'ljallangan asosga ega emas.

Yana shuni aytish kerak, ya'ni ichki bozorda sotishi (iste'molchi sheriklarning ishlab chiqarishni qisqartirish, to'lamaslik muammosining kuchayishi, aholining harid qilish qobiliyatining pasayishi) mahsulotlarni chetga olib chiqish qiyinchiligining o'sishi biron hollarda O'zbekiston ishlab chiqaruvchilari uchun ularning yagona tirikchilik va mavjudlik manbasiga

aylandi. Tovarlarini mamlakat ichida sotish imkoniyatidan mahrum qilinishi, ularni har qanday yo‘llar bilan chetga sotishga majburladi, ko‘pincha xavfli sharoitda va past bahoda, faqat bir narsa olish va yashash uchun edi. Shunday majburiy sharoitda eksport qilishga mo‘ljallangan milliy ishlab chiqarishning oldingi vaqtlarda mustaqil rivojlangan ancha tarmoqlari, endi tashqi omillarga. Xalqaro kon’yundiktivlarga va chet ellik buyurtmachilar hamda haridorlarning manfaatiga xavfli ravishda bog‘lanib qoldi.

O‘zbekiston importining tuzilishi ichki talabni o‘ziga xos xususiyatga tegishli ravishda tashkil etilgan ishlab chiqarish kapital mablag‘larning qisqarish ta’siri ostida investitsiya tovarlari va sanoat xomashyo ulushi pasaymoqda. Ularning o‘rnini iste’mol mahsulotlarini sotib olish egallamoqda. Buning natijasida faqat 2000 yildan keyin import o‘rnini bosa oladigan mamlakat mahsulotlarini ishlab chiqarish, yo‘qotilgan bozor sektorlarini qaytadan qo‘lga kiritishga sharoit yaratildi.

O‘zbekiston eksportida yoqilg‘i, xomashyo tovarlarning ustunligi hozirgi vaqtda O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida ayniqsa, muhim raqobatdoshlik afzalligini aks ettiradi. Ammo bu O‘zbekiston eksportining birinchi navbatda mashina texnikaviy va tayyor mahsulotlar qismini ko‘tarish hisobiga kengaytirish zaruriyatini va tarkibini yaxshilash savollarini yo‘qotmaydi. Shu sababli xuddi mana shu tovarlar bo‘yicha xalqaro bozorlarda ko‘pincha jiddiy raqobatlar mavjud bo‘lib, O‘zbekiston ega bo‘lgan boyliklar afzalligiga tayanib o‘zining o‘rnini topish zarurdir (o‘zi ega bo‘lgan yoqilg‘i, xomashyo bazasi nisbatan arzon va ish kuchining yetarli darajadagi malakasi va bir necha tarmoqlarda fan-texnika yutuqlari va hokazolar). Moliyaviy resurslarning cheklanganligi mudofaa tarmoqlari eksporti salohiyatini kengaytirishga kuch va vositalarni qaratish zarurligini bildiradi hamda O‘zbekiston mashina texnika eksportini MDH mamlakatlariga va rivojlanayotgan davlatlar e’tiboriga qaratish zarurdir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning eksport salohiyati iqtisodiyotining ancha tarmoqlarida mavjud.

Ayrim hollarda O‘zbekiston elektroenergetika tarmog‘i katta salohiyatga ega.

O‘zbekistonning oltin kompleksining salohiyati 1990 yillarning oxirida 2,2 mlrd. dollarga yaqin baholangan.

Ancha eksport salohiyati imkoniyatiga ilmiy texnika tarmoqlariga ega, birinchi navbatda kimyo sohasidagi, aloqa va telekommunikatsiya, bular har yili davlat xazinasiga 1,5-2 million dollar olib kelishi mumkin.

Ko‘pchilik chet el davlatlarining tajribasi – sanoatda rivojlangan va rivojlanib kelayotganlar davlatning eksportini rivojlantirishni va milliy

eksportchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni haddan tashqari muhimligiga guvohlik qiladi. Amaliyotda barcha xorijiy davlatlar, shu jumladan AQSh, va Yaponiya davlatlari ko‘maklashadigan bular uchun siyosiy va iqtisodiy sharoitlarni yoritish yo‘li bilan eksportchilarga ko‘maklashadigan barcha dasturlarni amalga oshirmoqda. O‘zbekistonda bunday yondashuvlar faqat endi-endi shakllanmoqda. O‘zbekiston hukumati 2000-yillar boshida uzoq muddatli ekspertni rivojlantirish dasturini ma’qulladi. Ushbu dasturning asosiy vazifasi O‘zbekiston eksportini rivojlantirish va uning samarasini oshirish uchun yaxshi iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va boshqa turdagi davlat mexanizmini yaratishni shakllantirdi. Bu dastur O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida uzoq muddatga mo‘ljallangan va yangi ko‘proq samarali qatnashish modelning shakllanishiga yo‘naltirilgan.

Kelajakdagi tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda import siyosatini yangicha ta’riflamoq kerak. Bozor islohotlarining chuqurlashuvi bo‘yicha importning an’anaviy ahamiyati xalq xo‘jaligi defitsiti vositalarini yo‘qotish sifatida albatta kamaytiriladi, uning roli esa kuchli raqobatni yuzaga keltiradigan va antimonopol omillar sifatida ko‘paytiriladi.

Import yondashuv u yoki bu tovarlarning xalq xo‘jaligidagi va ijtimoiy ahamiyatiga bog‘liqligiga qarab tabaqalashtirilgan bo‘lishi shart. Xalqaro umum qabul qilingan amaliyotga muvofiq davlatga importni asosan bilvosita usullari bilan tartibga solish lozim, faqat shunday mahsulotlarni olib kelishni cheklash, ya’ni kelajakda milliy ishlab chiqarishga yoki o‘z harajatini o‘zi ko‘taradigan, ziyon keltirmaydigan, ammo proteksionizm o‘rtacha bo‘lishi shart, ichki bozorda narx-navo va ishlab chiqarish haqiqatan ahvol bilan o‘zaro munosabatda bo‘lmoq (eng muhimi ularning sun’iy ko‘tarishiga yo‘l qo‘ymaslik), ya’ni monopolistlarni va qoloq ishlab chiqaruvchilarni mukofotlash sistemasiga aylantirmaslik, import o‘rnini bosa oladigan, o‘z harajatini o‘zi ko‘taradigan va hayotiy zarur tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan, ya’ni O‘zbekiston o‘zi yetarli darajada ishlab chiqarishi mumkin va shart (masalan, g‘alla va oziq-ovqat mahsulotlari, medikamentlar, texnologik asbob-uskunalar va boshqalari), bularni sotib olishga endi ko‘p yillardan beri oltin valyuta tushumlarining ancha qismi harajat qilinmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda tashqi savdoni tartiblovchi juda ham murakkab va unga yetarli darajada bo‘lmagan samara sistemasi harakat qilmoqda. Bu shu bilan bog‘liq, ya’ni davlat birinchi navbatda hozircha tsivilizasiyalashgan munosabatlardan yiroq kommersiya amaliyotida to‘zilgan hamda har xil turdagi xalqaro shartnomalarni olmoqda.



## **51.6. Tashqi savdo faoliyatini davlatning tartibga solishi.**

Hozirgi vaqtda tashqi savdoni tartibga solishda bir necha muhim qonunlarga amal qilinmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning tashkiliy va huquqiy negizlari yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida “Xorijiy investitsiyalar va chet el investitsiyalari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida” gi, “O‘zbekiston bojxona ta‘rifi” va “O‘zbekiston bojxona kodeksi” qonunlari, shuningdek, boshqa bir qancha qonun va me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan, ular tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish xorijiy investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish hamda chet el tadbirkorlari va firmalari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkonini beradi va O‘zbekiston tashqi faoliyatini amalga oshirish iqtisodiy manfaati himoya qilishdagi chora-tadbirlari bo‘yicha qonun - qoidalar ishlab chiqildi.

Qabul qilingan me‘yoriy hujjatlarning asosiy tamoyillarini amalga oshirishda va tashqi savdo faoliyatini tartibga solinishi aniq belgilab berdi:

- O‘zbekistonning tashqi savdo siyosati tashqi siyosatining tarkibiy qismi sifatida;

- davlatning tashqi savdo faoliyatini tartiblash va uning nazoratini amalga oshirish yagona tizim ekanligi;

- davlatning milliy xavfsizligini siyosiy, iqtisodiy va harbiy manfaatini amalga oshirish maqsadi hamda O‘zbekistonning ommaviy halokatga keltiradigan harbiy qurol -yarog‘larni boshqa, ayniqsa, xavfli qurollar turlarini chetga olib chiqishga qaratilgan xalqaro majburiyatlarini ta‘minlash vazifasi eksportni nazorat qilish siyosatining yagona ekanligi;

- O‘zbekiston Respublikasining bojxona territoriyasining yagonaligi;

- davlatning xalqaro savdo faoliyatini tartibga solishda iqtisodiy chora-tadbirlarning ustuvorligi;

- tashqi savdo faoliyatida qatnashuvchilarning tengligi, bular orasidagi o‘zaro munosabatlarda kamsitishning yo‘qligi;

- tashqi savdo faoliyatida qatnashuvchilarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini davlatning himoya qilishi;

- davlat va uning tashqi savdo faoliyati organlarining, O‘zbekiston Respublikasi organlarining, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga va uning qatnashuvchilariga zarar keltiradigan noo‘rin aralashuvini yo‘qotish (mustasno qilish).

O‘zbekiston Respublikasi davlat tashqi savdo faoliyatini, uning qatnashuvchilari tomonidan tartibga solishni, xalqaro tashqi savdo aloqalari

sohasidagi bitimlarni amalga oshirishni O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga yuklatilgan.

Hozirgi vaqtdagi tashqi savdoning davlat tomonidan tartibga solinishi keng chora-tadbirlar, tarifli va tarifsiz bo‘lgan metodlar yordamida amalga oshirilmoqda, bularning soni doimo o‘sib bormoqda. Avvalambor O‘zbekistonning tashqi savdo aloqalarining kengayib borishi xalqaro ixtisoslashishida uning qatnashishining yangi-yangi optimallashtirish vositalarini, milliy iqtisodiyotni tashqi omillarning salbiy ta‘siridan cheklanishni, (ishlab chiqarishning ma‘lum davrlarda pasayib ketishi, valyuta kurslarining haddan tashqari tebranishi, raqobatchilikning noinsofligi va boshqalar), jahon bozorida milliy ishlab chiqarish nazariyasini mustahkamlashga ko‘maklashishni talab qilmoqdalar, mamlakatning bojxona-tarif tizimi izchil qaytadan tashkil qilishni talab qilar edi. Tarif tizimi davlat budjetining alohida statiyalari o‘rtasidagi qayta taqsimlash vositasi ramzi tizimidan tashqi savdo siyosatining asosiy instrumentiga aylandi. Bojxona tarifi hozirgi vaqtda tarifni tartibga solishda asosiy o‘lchov bo‘lib qolmoqda va tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi chegarasi orqali olib o‘tish bo‘yicha qo‘llaniladigan bojxona poshlinasi (bojxona tariflari) stavkalari to‘plami bo‘lib hamda tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlar nomenklaturasi tufayli sistemaga solinadi. Tovarlar nomenklaturasi xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan tovarlar klassifikatsiyasi sistemasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan aniqlanadi. Bojxona tariflari O‘zbekiston Respublikasiga tovarlarni olib kelishda ham va undan olib chiqishda ham qo‘llaniladi. Shunga tegishli ravishda importga va eksportga oid bojxona tariflari bo‘ladi. Bojxona tarifi tovarlarni davlat chegaralari orqali olib o‘tish bo‘yicha olinadigan soliq tashqi savdo aylanmasi hajmini va tuzilishini tartibga soluvchi hamda davlat budjetiga moliyaviy vositalarning tushishi manbasi vazifalarini bajaradi.

“Bojxona tarifi” to‘g‘risidagi qonunga muvofiq bojxona poshlinasi ikki turga bo‘linadi:

- Eksport va importga oid tezlik bilan tartiblash uchun mo‘ljallangan, ya‘ni mavsumi ularning harakat qilish davri yiliga olti oydan oshib ketmasligi kerak.

- O‘zbekiston Respublikasi manfaatini himoya qilish uchun mo‘ljallangan. Bunday maxsus turdagi bojxona poshlinasi stavkalari vaqtincha qo‘llaniladi va quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) maxsus, ya‘ni O‘zbekiston tovarlarini ko‘rsatilgan miqdorda va shartlarda import qilishda, shunday mahsulotlarni tayyorlovchi yoki tovarlarning bevosita raqobatlashuvida keltiradigan himoya qilish choralari

sifatida hamda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini cheklashga va boshqa harakatlarini kamsitishga javob choralari sifatida;

2) tovarlarni arzon sotishga qarshi, ya’ni ularni import qilishda narxlarni, o‘z mamlakat ichidagi narxlarga qaraganda ko‘pincha past narxlarda sotishda qo‘llaniladigan narxlar bo‘yicha; agarda O‘zbekistonda shunday mahsulotlarni tayyorlovchilarga moddiy zarar keltirsa yoxud ularni tashkillashtirishga yoki O‘zbekiston Respublikasida ularni ishlab chiqarishga to‘sqinlik qilinsa;

3) o‘rni to‘ldirish, ya’ni tovarlarni import qilishda, ularni chegaradan olib chiqishda yoki ishlab chiqarishda subsidiyalardan foydalanishda qo‘llaniladigan va agarda shunday O‘zbekiston chegarasiga olib kelishda keltiradigan yoki shunday tovarlarni tayyorlovchilarga xavfli moddiy zarar keltirilsa yoxud ularni tashkillashtirishga yoki mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirishga to‘sqinlik qilinsa.

Oxirgi yillarda jahon amaliyotida tarifsiz foydalanish tomoniga siljishlar yuz bermoqda, O‘zbekiston uchun ham shunday xarakterga ega.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosini tartibga solishdagi hozirgi choralarning ko‘pinchasi tarifsiz instrument deb nomlanishiga to‘g‘ri keladi, bularning import va eksport tuzilishiga, hajmi va geografik yo‘nalishga ta’sir ko‘rsatishda tutgan o‘rni bo‘yicha bojxonalar tariflaridan, ancha yuqori turadi. Hozirgi zamon savdo siyosatidagi tarifsiz tartiblash keng doiradagi instrumentlarni o‘z ichiga oladi, bularni ikkita guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga tashqi savdo choralariga, ya’ni aniqrog‘i milliy ishlab chiqarish tarmoqlarini himoya qilish maqsadida importni to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklashga yo‘naltirganlar kiradi: importni litsenziyalashtirish va kvatalash, o‘rni to‘ldirish bo‘yicha yig‘malar, minimal import narxlari sistemasi va boshqalar.

Ikkinchi guruh choralariga, rasmiy jihatdan tashqi savdoni cheklashga qaratilgan va ko‘pincha ma’muriy tartiblashga kiradigan, shunga qaramasdan bular savdoni cheklaydiganlarga kiradi: rasman bojxona, texnik va ekologik standartlar hamda sanitarlar va me’yori, joylashtirish, o‘rash, solish va yuklarga tamg‘a bosish, belgi qo‘yish va hokazolar.

Ko‘pincha importni tarifsiz instrumentlar bilan tartiblash jumlasiga tarqatilgan, ba’zan eksportni ham kvotalar va litsenziyalar kiradi. Amaliyotda barcha sanoatda rivojlangan va rivojlanib kelayotgan mamlakatlar ana shu tarifsiz choralarni qo‘llaydilar. O‘zbekiston 1992 yilda mulkchilik shakllaridan qat’i nazar barcha xo‘jalik sub’ektlariga “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonun va O‘zbekiston Respublikasi hududida eksport va import qilinadigan tovarlarni litsenziyalashtirish va kvotalashtirish uchun aniq tartib belgilangan.

**Kvotalashtirish** bu davlatning xalqaro iqtisodiy aloqalarni (XIA) tartibga solish bo'yicha qo'llaniladigan chora-tadbiri bo'lib, davlat tegishli organlari tomonidan eksportni, importini va ma'lum bir tovarlarni ishlab chiqarishni cheklash bo'yicha, ularni miqdorini mutlaq yoki nisbiy o'lchamlarini (kvotalarini) belgilash vositalari bo'lib ma'lum bir muddatga chiqariladi. Bunday choralar mamlakatning mavjud shartnomalari va majburiyatlarini bajarish, o'z davlatining, o'zining ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilari manfaatlarini amalga oshirish maqsadida chiqariladi. Ajratilgan kvota hajmida tovarlarning eksporti va importi litsenziyalari bo'yicha, ya'ni ruxsatnomalari bo'yicha amalga oshiriladi. Litsenziyalashtirish ham, kvotalashtirishdek, tashqi iqtisodiy faoliyatini (TIF) tartibga solish chorasidek bo'lib, davlat organlari tomonidan eksportga yoki importga oid kvotalar doirasida eksport va import tovarlari bilan operatsiyalarga ruxsat berishni amalga oshiradi. Litsenziyalar mavjud qoidalarga ko'ra, birgallik va umumiy bo'lishi mumkin. Bir g'allik litsenziya O'zbekiston chegaralari orqali tovarlarni olib chiqish yoki olib kelishni bitta bitim bo'yicha aniq tovarlar turlari ma'lum shaxsga hajmi, qiymati, tovarlarning o'tadigan mamlakatlari ko'rsatilgan holda ruxsatnoma beriladi, ayrim hollarda shu tovarlarning bojxona deklaratsiyasi ham ko'rsatiladi. Umumiy litsenziya O'zbekiston chegaralari orqali tovarlarning ma'lum turlarini olib chiqish yoki olib kelishga ko'rsatilgan shaxsga ruxsat beradi. Bunday huquqlarning harakati ko'rsatilgan qoidalarga binoan bir yil muddatga beriladi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida keyingi yillarda muhim tarkibiy o'zgarish sodir bo'lmoqda.

Dunyoning 140 dan ortiq mamlakati bilan tashqi savdo qilinmoqda. Dunyodagi iqtisodiy rivojlangan davlatlar bilan tashqi savdoning ulushi ko'payib bormoqda. Chet ellarda qo'shimcha moddiy-moliyaviy resurslar jalb qilish, jahon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini iqtisodiyotga joriy etish, aholining xilma-xil yuqori sifatli tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, xizmat sohasini rivojlantirishda chet el tajribasidan foydalanish, qo'shimcha ish o'rinlarini vujudga keltirish maqsadida uzoq xorij mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlantirib bormoqda.

Uzoq xorij mamlakatlari orasida O'zbekiston bilan tovar aylanmasining xorij jihatidan Janubiy Koreya, yaqin xorij mamlakatlari orasida esa Rossiya birinchi o'rinda turibdi. Tovar aylanmasida bu mamlakatlardan tashqari Buyuk Britaniya, Shveysariya, Germaniya, Qozog'iston, Turkiya va boshqa davlatlar anchagina salmoqqa egadir.

O'zbekiston tashqi savdosining asosiy qismi (63,1%) Yevropa mamlakatlari bilan, 31,4% Osiyo mamlakatlari bilan, 5,2% Amerika va bir oz

qismi (atigi 0,3%) Afrika, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari bilan amalga oshiriladi.

Eksport tarkibida avalgidek paxta tolasi yetakchi o‘rinda turadi, so‘nggi o‘rinlarni energiya manbalari, mashina va asbob-uskunalar, xizmatlar, oziq-ovqat mahsulotlari, qora va rangli metallar, kimyo mahsulotlari, plastmassa va boshqa mahsulotlar egallaydi.

Eksportning umumiy hajmida mashina va asbob-uskunalarining, qora va rangli metallar, energiya manbalarining ulushi ko‘payib bormoqda. Toshkent shahri, Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Navoiy viloyatlarining ishlab chiqarish korxonalarini katta hajmda eksport operatsiyalarini amalga oshirmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash uchun zarur texnologiyalar, mashina va asbob-uskunalar keltirilmoqda. Iste‘mol mollarining olib kelinishi ichki bozorni to‘ldirish imkonini beradi.

Paxta tolasi asosan uzoq xorij mamlakatlariga eksport qilinmoqda. Va ayni vaqtda MDH mamlakatlariga ko‘p miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari yuborilmoqda. Jahon narxlari bilan MDH bozorlaridagi narxlar darajasi o‘rtasida tafovut borligi uzoq xorijga mahsulot eksport qilishni ko‘paytirishga olib bordi. Jahon bozorlariga nisbatan MDH bozorlarida narxi ancha past bo‘lgan tovarlar uzoq xorij bozorlariga tobora ko‘proq yuborila boshladi.

Olis xorijdan keltirilgan mashina va asbob-uskunalarining importdagi ulushi 49,9%ni, oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 11,1% tashkil etmoqda. Hajmi esa MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi.

Respublika eksporti va importida xizmatlar muayyan ulushni egallaydi. Ularning ulushi eksportda 14,1, importda 10,3%. Temir yo‘l va havo transporti xizmatlari, turizm, mahsulotni qayta ishlash xizmatlari ularning anchagina qismini tashkil qiladi.

Importning o‘rnini bosa oladigan mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish sohasida o‘tkazilgan siyosat natijasida chetdan keltiriladigan oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi kamayib bormoqda. Ayni vaqtda import qilinayotgan tovarlar orasida mashina va asbob-uskunalar ulushi ko‘paymoqda.

#### **Tashqi savdo aylanmasi tarkibi**

Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
100	51,0	49,0

Mashina va asbob-uskunalar importining hajmi ko‘payib borishi yangi industrlash siyosatining, shuningdek, moddiy ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, modernizatsiyalash va ko‘paytirishga bevosita sarflanadigan

xorijiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi faol siyosatining ifodasidir.

Xorijiy investitsiyali korxonalar sonining muntazam oshib borishi iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga, texnika bilan qayta jihozlash hamda yangi texnika xo‘jalik faoliyatining ustuvor tarmoqlari va yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashga davlat investitsiya siyosatining natijasidir.

Xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini rag‘batlantirish va faollashtirish maqsadida respublikada kafolatlar va imtiyozlarning keng tizimi vujudga keltirilgan, bu tizim ularning mulkka bo‘lgan huquqlari himoya qilinishini, qulay investitsiya iqlimi yaratilishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqilgan va dasturning asosiy maqsadi eksport hajmlarini muttasil oshirish uchun sharoit yaratishdan, mavjud resurslar, ishlab chiqarish imkoniyatlari va malakali mutaxassislardan foydalanish negizida iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirishdan iborat.

### **51.7. Eksport**

Tashqi iqtisodiy aloqalar asosan uzoq xorijiy mamlakatlar bilan rivojlantirildi, respublika umumiy tovar aylanmasining 64,3 foizdan ko‘prog‘i ularning ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Tovarlar:** yog‘och, yog‘och materiallar, mashina va asbob-uskunalari, xalq iste‘mol mollari, ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari.

**Savdo-sotiqdagi asosiy mijozlar** – Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Shveysariya, AQSh, Janubiy Koreya, Rossiya, Italiya, Niderlandiya, Belgiya, Turkiya, Fransiya, Xitoy va boshqa mamlakatlar.

### **51.8. Tashqi iqtisodiy siyosatning hududiy jihatlarini.**

Dunyo davlatlarining shaklan tuzilishi bo‘yicha ma‘muriy shaklga unitar va federal tuzilishiga bo‘linadi.

Unitar davlat – bu bir butun, yagona davlat tuzilishidan iborat bo‘lib, ma‘muriy – hududiy birlashmalar markaziy hukumat organiga bo‘ysunadi va davlat suverniteti belgisiga ega bo‘lmaydi.

Unitar davlatda odatda yagona qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat, yagona davlat tizimi va yagona konstitutsiya mavjud bo‘ladi. Jahonda bunday davlatlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Federal davlat – bu ham davlat tuzilishi shakli bo‘lib, bunda bir necha davlat birlashmalari, ya‘ni ma‘lum siyosiy mustaqil yuridik maqomga ega bo‘lgan yagona ittifoqdosh davlatni tashkil etadi.

Endi bizning O‘zbekiston davlatining ma‘muriy - hududiy tuzilishiga kelsak, bugun O‘zbekiston yagona unitar davlat hisoblanadi, ammo O‘zbekistonni yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasini federal davlat deyilsa ham bo‘ladi.

Endi bevosita tashqi iqtisodiy siyosatining hududiy jihatlariga ahamiyat berilsa, bunda ko‘pgina tashqi iqtisodiy siyosatlarning (TIS) shakllanishi va realizatsiya etilishi sohasidagi vakolatlarning markaz bilan Qoraqolpog‘iston Respublikasidagi to‘g‘ri va optimal ravishda taqsimlanishi so‘zsiz bu siyosatning bir butunligiga va yagonaligiga bog‘liq. O‘zbekistonning markaz darajasida TISning kelgusi asosiy vazifalari hal etiladi: O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarining (TIS) strategik rivojlanishi va tashqi iqtisodiy siyosatning (TIS) asosiy prinsiplarining shakllanish konsepsiyasi; O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlarining, O‘zbekistonning iqtisodiy va boshqa, O‘zbekiston yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, ularga jahon va mamlakat bozorlarida zaruriy raqobat imkoniyatlarini ta‘minlash; bojxona siyosati, bojxona ishlarining huquqiy va boshqa savollarni tartibga solish; valyutani tartibga solish, valyutani nazorat qilish, xorijiy davlatlar bilan hisob – kitob to‘lov munosabatlarini tartibga solish; xorijiy davlatlarga va ulardan oladigan davlat kreditlari va boshqa iqtisodiy yordamlarning umumiy miqdorlarini aniqlash, ularga zayom va yordamlarni berish; O‘zbekistonning xorijiy davlatlardan oladigan xalqaro davlat zayomlari va kreditlari bo‘yicha shartnomalar to‘zish; O‘zbekistonning tashqi davlat qarzi elementlarini aniqlash va O‘zbekiston mintaqasidagi sub’ektlarning xalqaro huquqlari savollari to‘g‘risidagi savollarni ishlab chiqish murakkabroq bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlarining erkinlik darajasi va ularning tashqi kompetensiyasi hajmi unitar davlatning Konstitutsiyasida hamda uning umumiy qonunlarida aniqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlarining xalqaro tashqi iqtisodiy aloqalari koordinatsiyasi...” bilan birgalikda olib borilishini tan olgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartiblash to‘g‘risida”gi Qonunda nafaqat markazning tashqi iqtisodiy siyosatni realizatsiya qilish vakolati aniqlangan hamda O‘zbekistonda va uning sub’ektlarining birgalikdagi faoliyat sohasi ajratilgan, Respublika sub’ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi vakolatlari yetarli, keng ma‘noda aniqlangan. Hozirgi vaqtda markaz bilan Qoraqolpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hokimiyat o‘rtasidagi hamkorlik sohasi o‘zaro harakati kelgusi yo‘nalishlar bo‘yicha mo‘ljallangan: O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlarining tashqi iqtisodiy aloqalari (TIA)

koordinatsiyasi; O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlarining kafolati ostida kredit va ssuda olishi, undan foydalanish va to‘ldirish; chet el investorlarning vositalarini jalb qilish va tartibni aniqlash; tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF)ning hududlar va hududlar o‘rtasidagi dasturini shakllantirish va realizatsiya qilish.

O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlarining tashqi iqtisodiy siyosiy (TIS)ni realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyati Respublika qonunlari doirasida o‘zlarining me‘yoriy aktlari va nizomlarini qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlari huquqiy qonunlariga muvofiq asoslangan, ya’ni mahalliy sharoitlarni va hududlarning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF)dan tushgan daromadlarni taqsimlashda qatnashish imkoniyatlari Respublika qonunlarida aniqlanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlariga ro‘yxatga olingan qatnashuvchilarni, chet el investitsiyalari bilan ishlaydigan korxonalarni qo‘shgan holda markazga loyiq qo‘shimcha moliyaviy kafolatlar yaratiladi.

Xalqaro dasturlarning asosiy va ko‘pincha salmoqli ahamiyatga ega bo‘lganligi bu O‘zbekiston sub’ektlarining MDH mamlakatlari va ularning regionlari va hukumatlari bilan iqtisodiy aloqalari. Regionlarda assotsiyalarning samarali harakatdagi iqtisodiy savdodagi prinsipial shartnomalari, fan-texnika va madaniy hamkorliklari. Bunday hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining Qoraqalpog‘iston viloyatlari bilan Rossiya va Qozog‘iston viloyatlari o‘rtasida imzolangan.

Ammo hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida, to‘liq hajmda O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlarining tashqi aloqalarini tartiblovchi me‘yoriy hujjatlar yo‘q, ya’ni bu o‘z navbatida ularni ikki tomonlama tashqi aloqalar shartnomalarning umumiy shakllarini aks ettiruvchi bu sub’ektlar kompetensiyasiga kiradigan huquqlarni amalga oshirishni majburlaydi. Bunday vaziyatlar xalqaro munosabatlarda muqarrar ravishda noqulay aloqalarni yaratadi, ularda milliy – hududiy sub’ektlarning qaramliligini talqin etadi, tashqi iqtisodiy faoliyatdan normal ravishda, tartiblashda qarama-qarshilik yaratadi. Hududlarning tashqi iqtisodiy faoliyatning yangi bosqichdagi o‘zgarishlarni tartibga solishni xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi umum milliy ustuvorlik doirasida amalga oshirilishi shart.

### **51.9. Tashqi iqtisodiy faoliyatning o‘tish shakllari**

Tashqi iqtisodiy faoliyatning o‘tish shakllariga qo‘shma korxonalarni kiritish kerak. Bu, chet el kapitallari (investitsiyalari) ishtirokida tashkil qilingan va harakatdagi xo‘jalik sub’ektlari, jumladan bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlar ularni birinchi navbatda imtiyozli rejimi farqlaydi.



Bunday korxonalar kelgusilar yordamida yaratilishi mumkin: ularning idoralari, ya'ni bir vaqtda o'zbekistonlik va chet ellik sherikchilari yangidan qatnashishi ulushini yoki O'zbekistonning harakatdagi korxonalari badalini sotib olishi; chet el qatnashuvchilarining butun bir korxonani sotib olishi.

Qo'shma tadbirkorlikning asosiy ahamiyati shundaki, qo'shma korxonalarni foydalanuvchi mamlakat chet ellik yangi, ilg'or texnikalarni, texnologiyalarni hamda hozirgi zamon raqobatiga qobiliyatli ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun tajriba va mahorat oladi. Hamda asosiy ahamiyatga qaysi davlatning bozoriga chiqish kerak, ya'ni kimning firmasi aralash tadbirkorlik jarayonida yangi assortiment tovarlari, birinchi navbatda ishlab chiqaradigan sanoat mahsuloti bilan qatnashayapti.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning o'tish shakliga jumlasiga **erkin iqtisodiy zonalarni** (variantlardan biri-erkin tadbirkorlik zonasi) kirish mumkin. Bu qonunlar bilan aniqlangan maxsus hududlar, bu yerda mamlakatning asosiy hududiga qaraganda imtiyozli soliq rejimi yaratilgan hamda tovarlarni va kapitallarni olib chiqish va olib kirish uchun yengil bojxona rejimi o'rnatilgan. Odatda, bunday zonalar chegara yonidagi yoki katta xalqaro aeroport hududiga yondashgan, dengiz yoki katta daryo portlariga yaqin joylarda tashkil qilinadi, ya'ni yuklarni transportlarga ortishni yengillashtiradi.

Erkin iqtisodiy zonalar sanoatda rivojlangan mamlakatlarda ham harakat qiladi, ammo o'tish iqtisodiyoti bilan harakatdagi davlatlar uchun bularning hududida, ayniqsa, chet el investorlari uchun bunday korxonalarni tashkil qilishga, foyda olishga va uni tasarruf qilishga jozibali sharoitlar yaratiladi. O'zbekistonda bunday zona hozircha Navoiy viloyatida yaratilgan.

Erkin iqtisodiy zonalarning bizda hozircha kamligi quyidagi sabablarni qayd etish mumkin: mamlakatda davom etib kechayotgan bu umumiy iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning yetilmaganligi; bunday savollarning huquqiy tartiblanmaganligi; O'zbekistonda geosiyosiy sharoitlarning yetarli emasligi; O'zbekistonda iqtisodiyotida bunday alohida zonalar va umumiy jarayonlar o'rtasida haqiqiy aloqalarning yo'qligi va boshqalar. Natijada bugungi kunda ko'pgina loyihalarning haqiqatda loqaydligi.

Shunday qilib, tashqi iqtisodiy faoliyatning o'tish shaklining afzalligi, boshqa davlatlardagi o'zining samarasini isbotlab berishi, O'zbekistonda yaratilgan vaziyat to'liq foydalana olinmayapti.

#### **51.10. Iqtisodiy xavfsizlik.**

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy tizimning asosiy sifatli xarakteristikasi bo'ladi. **Iqtisodiy xavfsizlik** – bu milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlovchi sharoit va omillar yig'indisi bo'lib, uning barqarorligini va

mustahkamligini, doimo mukammallashishiga intilish qobiliyatidir. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning doimo qobiliyatini aniqlab milliy davlatchilik manfaatlarini izchil qo'llab-quvvatlab, xo'jalik sub'ektlarning mustahkam salohiyatiga, aholining hayotiy faoliyatiga normal sharoit yaratishdir.

Iqtisodiy xavfsizlik har xil xo'jalik jihatlarini o'z ichiga oladi: moliyaviy, tashqi iqtisodiy xavfsizligi jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashgan va noqulay tashqi omillarga mustahkam ta'sir ko'rsatuvchi, xalq xo'jaligining shakllanishiga mo'ljallangan mustaqil tashqi savdo siyosatini olib borishda realizatsiya etiladi. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni realizatsiya qilishga mamlakatning jahon bozoriga chiqarilgan mahsulotning yuqori darajadagi raqobatdoshligi (tovar xizmatlarning tarkibiy tuzilishi, jahon bozorida boshqa qatnashuvchilar bilan shunday tovarlarga teng raqobatlashuv qobiliyatiga ega bo'lishi kerak) asosi bo'ladi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi tashqi va ichki omillarga deb farqlanadi. O'zbekistonning o'tish iqtisodiyotida tashqi omillari o'rtasida shularni ajratadi: O'zbekiston tabiiy resurslarning sof og'irlik eksportiga aylanishiga xavfsizlik borligini; O'zbekistonning import tovarlarining shiddatli o'sib borishiga qaram bo'lib qolishini; tashqi qarzlarning o'sishini; kapitalning chiqib ketishini; noqulay investitsiyaviy iqlim.

Tashqi iqtisodiy tahdidlarning asosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ular iqtisodiy xavfsizlikni ichki omillarga nisbatan ikkinchi o'rinda bo'ladi. O'zbekistonning o'tish davri iqtisodiyotida iqtisodiy xavfsizlik omillarining noqulay o'sishi kelgusi yo'nalishlarda ro'y beradi: ishlab chiqarishning pasayib ketishi yoki to'xtab qolishi; mamlakat ishlab chiqarish strukturasi og'irlashtirilishi va uning deindustrializatsiyalashuvi; investitsiyaviy sohalarining keskin o'zgarishi; fan-texnika salohiyatining vayron bo'lishi; ijtimoiy himoya qilinmaganligi; iqtisodiyotning kriminallasuvi (iqtisodiy jinoyat harakati).

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligida aniq tahdidlarni ham farqlash lozim. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: asosiy eksport tovarlariga jahon bozorlarida narx-navoning o'ta pastga tushib ketishi yoki aksincha import mahsulotlariga narx-navoning o'ta o'sib ketishi; O'zbekiston uchun bironta davlat yoki bir guruh davlatlar mahsulotlarni sotishda va sotib olishdagi asosiy bozorlardagi savdoni taqiq qilib qo'yish; iqtisodiyotning alohida turdagi mahsulotlarni bironta mamlakatdan yoki bir guruh mamlakatlardan olib kelishga yuqori darajada qaramlilik (masalan, u yoki bu oziq-ovqat tovarlarini); yuqori darajada xorijiy davlatlardan moliyaviy qaramlilik bo'lishi, ya'ni kreditorlar uchun ularga faqat O'zbekistonning iqtisodiy siyosati foydali deb atash imkoniyatini berishi va boshqalari.

O'zbekiston uchun hozirgi vaqtdagi tahlilning ko'rsatishiga ichki tahdidining o'sib borayotgan tashqi tahdidi bilan birgaligi jiddiy muammo bo'lib turmoqda.

Tashqi iqtisodiyotning bosh manbasi, bu tashqi qarzlarning o'sib borishi, xomashyo eksportining ko'payib borishi-yoqilg'i, xomashyo tovar guruhlari eksportining 60% dan oshib ketishi, tashqi savdo aylanmasi hajmining yaqin chet el va MDH mamlakatlari bilan pasayib ketishi, bular nafaqat milliy iqtisodiyot samarasining pasayishi, mahsulot ishlab chiqaradigan tarmoqlar raqobatining pastligi, balki tashqi omillarning natijalari ham bo'lish mumkin. Tashqi omillarni hisobga olmaslik, ro'y beradigan tahdidlarga o'z vaqtida javob bermaslik nafaqat tashqi iqtisodiy xavfsizlik uchun, balki butun O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham jiddiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat ishining ahvoriga yuqorida sanab o'tilgan omillar ta'siri davlat tomonidan moliyaviy, tashkiliy va axborotlashuv bo'yicha O'zbekiston eksportini qo'llab-quvvatlashning nomukammalligini hamda saqlanib qolgan import strukturasiining noratsionalligini kuchaytirmoqda.

Davlat iqtisodiy xavfsizligini baxolash uchun ham sifatli hamda miqdoriy parametrlari foydalaniladi. Mamlakat iqtisodiyoti o'z-o'zidan moslashuvchan bo'ladi, shuning uchun boshlang'ich ko'rsatkichlari harakatlanuvchi xarakterga ega. Nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zi muhim, balki ularning dinamikasi ham. Sistemani rivojlanishi qanday yo'nalishda ro'y berayotganini ko'rsatgan holda, xuddi mana shu dinamika ko'rsatkichlarining boshlang'ich mazmuniga yaqinligining o'zgarishini aks ettiradi. Monitoring va dinamika tahlili inqiroz kelib chiqishini oldindan aytib berishga yordam berishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik miqdorini tahlil qilish uchun uch darajali ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi daraja iqtisodiy o'sishga erishish uchun olib boriladigan iqtisodiy siyosat mo'ljali bo'lib xizmat qiladi. Bu ko'rsatkichlar mamlakat iqtisodiyoti uchun ko'proq muhimdir, lekin ularga erishish uzoq vaqtga mo'ljallangan.

Ikkinchi darajadagi iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari – mezon o'lchami bo'lib, bunda iqtisodiy sistema ishlab chiqarishning pasayib ketishi sharoitida ham mavjudligi mumkin. Ikkinchi darajadagi ko'rsatkichlari bilan tenglashtirganda haqiqiy ko'rsatkichlarning og'irlashuvi kelgusida inqiroz holatlarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Sifatli o'zgarishlarga misol bo'lishga xizmat qilishi mumkin: milliy valyutani qadrsizlanishi, bozorga xizmat qilish sharoitlarini o'zgartirishni davlatning o'zlashtirishi, soliq islohotlari va boshqalar. Xuddi ikkinchi darajadagi ko'rsatkichlarini o'tish

davri iqtisodiyotining iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilish uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchi darajadagi iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari, bularning yutuqlariga erishishi iqtisodiy sistemani jiddiy strukturali inqiroz olib kelishi mumkin bo'ladi. Bu ko'rsatkichlarni iqtisodiy xavfsizlikning ikkinchi darajadagi ko'rsatkichlari bilan baravar mamlakatning moliyaviy tizimining vayronligining oldini olishga va qarzlarning keskin bo'lishini oldindan aytib berishga yordam berar edi. Bunday ma'lumotlar ko'rsatkichlari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun juda ham muhim bo'lib, modomiki, ular iqtisodiy sistemani halokatga olib boradigan ko'proq kuchsiz elementlarni aniqlashga yordam beradilar.

### **51.11. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizlik darajasi**

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizlik darajasi uning integratsiyasida kelgusi ko'rsatkichlar to'plamini kompleks ravishda xarakterlashi mumkin:

**1. "Savdo sharti" Indeksi**, ya'ni xalqaro savdoda eksport va import narxlarining o'zaro nisbati, jahon bozori narxlarining eksport va import tovarlariga o'zgarishi milliy iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi, birgina import to'lovga mamlakat resurslaridan ko'proq yoki kamroq harajat qilish kerak, ya'ni hozirgi tovar aylanmasi strukturasi ketgan yoki kelgan summa.

**2. Ichki bozorda chet el raqobatining miqyoslari**, ya'ni tovarlar va firmalar bo'yicha iste'moldagi import ulushi (faqat yirik firmalar bo'yicha), ayniqsa shunday mahsulotlarga, mamlakat ularni ishlab chiqarish uchun yetarli salohiyatga ega.

**3. Tashqi tovar aylanmasi texnikaviy o'lchovda**, ya'ni eksport va importda mashina va asbob-uskunalar, litsenziyalar, lizinglar salmog'i (uzoq vaqtga mashina va asbob-uskunalar ijarasi).

**4. Tashqi bozorlar sotuvida diversifikatsiya darajasi** va import resurslarining manbasi, ya'ni firmalarning eksport va importdagi strukturasi.

**5. Tashqi qarz xizmatining koeffitsiyenti**, ya'ni qarz o'lchamini to'lovi uchun uning hajmiga nisbatan yil davomida eksportdan tushgan daromad.

**6. Oltin valyuta rezervlarining o'lchovi** import hajmiga yoki yil davomida tashqi qarzlarni to'lovi. Bu har bir ko'rsatkichlarning (o'lchami yomonlashuvi) og'irlashuvi natijada iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish imkoniyatlarining torayishi haqida guvohlik qilmoqda. Tashqi tahdidlarni to'sishga kerakli choralarning o'z vaqtida qo'llanmasligi shunday nomaqbul, yoqimsiz oqibatlari, ya'ni kelgusida

iqtisodiy pasayishga, bandlikning qisqarishiga, milliy ishlab chiqarish samaradorligining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlik, mamlakatning jahon xo'jaligi aloqalarida qatnashishi uchun milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish ko'proq qulay sharoitlarni yaratishni talab qiladi hamda milliy iqtisodiyot dunyoda noqulay voqealarni ham iqtisodiy, ham siyosiy sohalarda rivojlanishni kamroq darajada sezishi kerak.

Tashqi savdoni liberallashtirish nafaqat mamlakat bozorlarida chet el mahsulotlarining ko'proq, keng ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratishni mo'ljallaydi, balki tashqi bozorlarda mamlakat ishlab chiqaruvchilarining manfaatini ham izchil himoya qiladi. Birinchi navbatda O'zbekiston mahsulotlarini rivojlangan G'arb mamlakatlari bozoriga olib chiqishda kamsitishni cheklashni yo'qotish to'g'risida gap ketayapti, ular o'zlarining qaror, yechimlarini bog'lashga yo'l qo'ymaslik haqida, ularni realizatsiya qilish mamlakatning iqtisodiy manfaatiga bevosita va bilvosita zarar keltiradi, haqiqatan ham o'zaro foydali tashqi iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish haqida, chet el sherikchilari bilan o'zaro ma'qullangan jahon bozoriga yuksak texnologiyali mamlakat mahsulotini siljitish (har xil turdagi xizmatlarni, turizmga oid mahsulotlarni, paxta tolasidan tayyorlangan mahsulotlarni, aeroflot sanoat mahsulotlarini, aloqa sistemasi mahsulotlarini va boshqalarni).

Bular O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro integratsiyada chuqurlashishi uchun ko'proq qulayroq siyosiy-iqtisodiy iqlimlarni yaratish zarurligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lagan, shu jumladan O'zbekiston mahsulotlarini sotish bozorlarini kengaytirish orqali ham.

### **Qisqacha xulosa**

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan keyin milliy iqtisodiyotining rivojlanishida nafaqat ichki iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, balki ochiq tashqi iqtisodiyot bilan, ya'ni katta va kichik ochiq iqtisodiyot munosabatlarini rivojlantirishi kerak bo'ldi.

### **Asosiy tushunchalari**

Ochiq iqtisodiyot

Tashqi iqtisodiy munosabat

Tashqi iqtisodiy munosabatlarini erkinlashtirish

Iqtisodiy xavfsizlik

Tashqi iqtisodiy siyosat

Bojxona ta'rifi

### **Mavzuning na'munaviy savollari**

1. Tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va ochiq iqtisodiyotning shakllanishi?
2. Tashqi iqtisodiy munosabatlardagi katta va kichik ochiq iqtisodiyot tushunchasi?
3. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida ochiq iqtisodiyot tushunchasi?

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Ochiq iqtisodiyot va xalqaro mehnat taqsimoti tushunchalari?
2. Katta va kichik ochiq iqtisodiyot tushunchasi?
3. Ochiq iqtisodiyotda yevro valyutasi va yevro ittifoq tushunchalari va ularning umumiyliigi va farqlari nimalardan iborat?

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Xalqaro iqtisodiy munosabat va ochiq iqtisodiyot tushunchalari?
2. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va ochiq iqtisodiyotning ahamiyati?
3. Ochiq iqtisodiyotda yevro valyutasi va yevro ittifoq tushunchalari va ularning umumiyliigi va farqlari nimalardan iborat?

## **52 BOB. O‘ZBEKISTONDA CHET EL INVESTISIYALARI**

Korxonalar va tashkilotlarning to‘liq yoki qisman xususiy mulk sifatida qo‘lga kiritilishi, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarning sotib olinishi, qo‘shma korxonalarining nizom fondiga o‘tkaziladigan badallar, huquqiy va jismoniy shaxslarga kreditlar, texnologiyalar, mashinalar, dastgohlar, litsenziyalar, boshqa har xil mol- mulk, aql - zakovat boyligi ko‘rinishidagi sarf - xarajatlari, bank omonatlari va ko‘chmas mulkning sotib olinishi investitsiyalar sirasiga kiradi.

O‘zbekistonga chet el investitsiyalari deganda, chet el kapitalining, shuningdek, O‘zbekiston yuridik shaxslarining chet ellardagi filiallari kapitalining keyinchalik foyda olish maqsadida O‘zbekiston hududidagi korxonalar va tashkilotlarga sarf - xarajatlari tushuniladi. O‘zbekistonning xorijdagi investitsiyalari deganda, O‘zbekiston kapitalining, shuningdek, chet ellik yuridik shaxslarning O‘zbekistondagi filiallari kapitalining O‘zbekistondan tashqarida joylashgan korxonalar va tashkilotlarga sarf - xarajatlari tushuniladi.

O‘zbekistonga chet el investitsiyalarining yalpi hajmi ikki yirik real va moliyaviy bloklarga bo‘linadi.

Real investitsiyalar – bu kapitalni biron-bir mahsulotni ishlab chiqarishga safarbar etishdir. Real investitsiyalar bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar – bu bevosita investorlar, ya‘ni korxonalar to‘liq egalik qiluvchi yoki korxonaning aksiyalari yoxud aksiya ko‘rinishidagi kapitalining kamida 10 foizini nazorat qiluvchi (bu korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi) yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalardir.

To‘g‘ridan - to‘g‘ri investitsiyalar orasida quyidagilar ajralib turadi: nizom jamg‘armasiga badallar – nizom jamg‘armasining aslida korxonaning chet ellik tomonidan qo‘shilgan qismi: nizom jamg‘armasiga badallar moddiy aktivlarni (ko‘chmas mulk, dastgoh tovarlar va hokazolar ko‘rinishidagi badallarni) va pul mablag‘larini (pul qurinishida o‘tkazilgan badallarni) o‘z ichiga oladi.

Korxonaning xorijdagi sheriklikdagi egasidan olingan kreditlar va hokazo; masalan, bunga bevosita investor tomonidan sotib olingan qo‘shimcha aksiyalar, qayta investitsiya qilingan daromad; bevosita investor tomonidan korxonalar berilgan (nizom jamg‘armasiga badallardan tashqari) dastgohlar va boshqalar kiradi.

To‘g‘ridan – to‘g‘ri real investitsiyalar ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi. O‘z kapitalini chet elda joylashtirgan kompaniyalar korxonani tashkil etishdan tortib, mahsulotni realizatsiya qilishgacha bo‘lgan

butun ishlab chiqarish jarayonini o'sha yerda amalga oshirishlari mumkin. Tabiiyki, shu sababli ular korxonani zamonaviy dastgohlar va texnologiyalar bilan jihozlashdan, unga yangi ishlanmalarni yetkazib berishdan, ishchi kuchini o'qitishdan manfaatdordir. Chet el kapitalini qabul qiluvchi mamlakatning rivojlanishi jadallashadi. To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar investor uchun g'oyat katta xavf - xatar bilan bog'liq, shu bilan birga katta sarf-xarajatlarni talab qiladi. Ammo ular xorijiy investorlarga texnologiyalarni almashish haqida bevosita kelishish, qo'shma ilmiy tadqiqotlarda va yangi ishlanmalarda ishtirok etish, boshqa mamlakatning hududida marketing operatsiyalarini o'tkazish, o'z mahsulotlarini sotish uchun chet el bozoriga chiqish imkonini beradi.

Davlat tuzilmalari vositasida mamlakatga kirib keluvchi chet el investitsiyalari bilvosita to'g'ridan - to'g'ri investitsiyalar deb nomlanadi. Milliy iqtisodiyotga chet el kapitalini jalb etish jarayonida davlatning vositachiligi iqtisodiyotning asosiy ehtiyoj sezuvchi tarmoqlari o'rtasida uning tekis taqsimlanishini ta'minlaydi. Qarz ko'taruvchi sifatida davlat olingan investitsiyalarni sanoatning qaysi tarmoqlariga, qaysi bir loyihaga sarflashni o'z irodasi bilan belgilaydi.

Moliyaviy investitsiyalar o'z – o'zidan moliyaviy uskunalarga, ya'ni aksiyalarga, obligatsiyalarga, boshqa qimmatbaho qog'ozlarga (portfel) xarajatlardan va bank depozitlaridan (hokazo) iborat.

Portfel investitsiyalari – bu omonatchilarga korxonaning faoliyatiga ta'sir o'tkazish huquqini bermaydigan va korxonaning aksiyalar ko'rinishidagi jami kapitalining 10 foizidan kamrog'ini tashkil etuvchi aksiyalarini, shuningdek, obligatsiyalarini, veksellarini va boshqa qarz bilan bog'liq o'z kapitali hamda zayom kapitalining qimmatbaho qog'ozlarini sotib olishdir.

Boshqa investitsiyalar – bu qoldiq kategoriya bo'lib, u to'g'ridan – to'g'ri va portfel investitsiyalari ta'rifiga to'g'ri kelmaydi. Hokazo investitsiyalar orasida quyidagilari ajralib turadi:

savdo-sotiq (import yoki eksport uchun oldindan haq to'lash, import yoki eksport uchun kredit berish shular jumlasidandir).

Hokazo kreditlar (to'g'ridan-to'g'ri investorlardan olingan har xil kreditlarni o'z ichiga oladi, savdo-sotiq kreditlari bundan mustasno) – ularning orasida xalqaro moliya tashkilotlaridan:

Jahon bankidan, Xalqaro valyuta fondidan, Yevropa rekonstruksiya va rivojlanish bankidan olingan kreditlar ajralib turadi;

bank omonatlari (chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston banklaridagi o'z hisoblari) – O'zbekistonga chet el investitsiyalari va O'zbekiston yuridik



shaxslarining xorij banklaridagi hisoblari (O‘zbekistonning chet davlatlarga investitsiyalari) shular jumlasiga kiradi;

hokazo (ushbu qoldiq kategoriyaga yuqorida aks etmagan barcha moliya aktivlari va passivlari, masalan, vaqti o‘tgan foiz to‘lovlariga, vaqti o‘tgan qarz to‘lovlariga, to‘lanmagan ish haqiga, to‘lanmagan soliqlarga aloqador debitorlik va kreditorlik qarzlari kiradi).

Jahon bozori investitsiya loyihalarining ko‘p sonli tijorat manbalarini va moliyalash uskunalarini taklif etadi, ular deyarliq barcha qarz oluvchilar uchun, shu jumladan O‘zbekistondagi qarz oluvchilar uchun OChIQ – Bilvosita investitsiyalarni amalga oshirayotgan asosiy chet el investorlari, ya’ni O‘zbekiston hukumati vositasida O‘zbekiston iqtisodiyotini moliyaviy ta’minlayotgan moliya institutlari quyidagilar hisoblanadi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF).

Jahon banki.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK).

Yevropa rekonstruksiya va rivojlanish banki (YeRRB).

Chet mamlakatlar hukumatlari–Parij klubi a’zolari.

Chet el tijorat banklari–London klubi a’zolari.

Ixtisoslashgan moliya – kredit tashkilotlari.

Kredit beruvchi chet el banklar tijorat manfaatlari asosida London klubiga birlashgan. Bu klubni xususiy tijorat banklarining xalqaro birlashmasi desa ham bo‘ladi. Klub 70-yillarning oxirlarida qator mamlakatlar (birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlar) o‘z tashqi qarzlarni muntazam uzolmayotganligi sababli vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun tashkil etilgan edi. Parij klubidan farqli ravishda, London klubi bergan qarzlari davlat kafolati yoki sug‘urtasi himoyasida bo‘lmagan xususiy tijorat banklaridan qarzdorlik masalalari bilan shug‘ullanadi.

Qarzdorlik muammolarini hal etishga doir asosiy usullar quyidagilar: qarzni restrukturizatsiya qilish, qarzni uzish muddatini kechiktirish, qayta tiklanuvchi qarzlarni berish. Klubning birinchi majlisi 1976 yilda doir muammolari munosabati bilan bo‘lib o‘tdi. 1981–1983 yillar mobaynida 10 milliard AQSh dollariga jami 14 bitim tuzildi, shundan keyingi ikki yil mobaynida, 1982 yilgi qarzlarni bilan bog‘liq jahon inqirozi ro‘y berganidan so‘ng, 130 milliard AQSh dollariga 47 ta bitim tuzildi.

Bugungi kunda klubga jahondagi sanoati rivojlangan mamlakatlarning 600 ga yaqin tijorat banklari (Doyche Bank AG, Drezden Bank, Kommersbank AG, Bank Kommersial Italyano, Bank of Amerika, Midland Bank, Bank of Tokio–Mitsubishi, Industrial Bank of Japan, Kredit Lionnes, Kreditanstalt Bankveren va hokazolar) kiradi.

Shunday qilib, so‘nggi vaqtlarda XVF kreditlar O‘zbekiston uchun favqulodda iqtisodiy vaziyatlarda qo‘lga kiritish, eng qulay va tez-tez foydalanish mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari vazifasini o‘tamoqda. O‘zbekiston Yevropa rekonstruksiya va rivojlanish banki va Xalqaro bank tomonidan berilayotgan kreditlar qayta qurish va mamlakat xalq xo‘jaligi infratuzilmasini yangilash, bozor iqtisodiyoti uchun g‘oyatda muhim tarmoqlarni rivojlantirishdek uzoq muddatli sarf-xarajatlar uchun mo‘ljallangan.

Ixtisoslashgan moliya – kredit tashkilotlari tomonidan O‘zbekistonga qilingan investitsiyalarga kelsak, ular tor ixtisoslarga mo‘ljallangan, hajmi ham katta emas va iqtisodiyotning ayrim sohalarida axborot bozori infratuzilmasini tashkil etish hamda qo‘llab – quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Shu maqsadda, islohotlarning dastlabki bosqichlarida iste‘mol bozorini bir qadar cheklashga to‘g‘ri keldi. Ayni chog‘da mablag‘ va zaxiralarni iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga sarflab, xorijga mahsulot tayyorlaydigan, ilg‘or texnologiya bilan jihozlangan zamonaviy korxonalar barpo etib, ichki bozorni o‘z mollarimiz bilan to‘ldirish yo‘lidan bordik. Shu maqsadlardan kelib chiqib, o‘z mablag‘larimiz va olgan qarzlarning asosiy qismi investitsiyalarga, respublikaga yangi texnologiya va texnika keltirishga sarflandi. Iste‘molni emas, balki investitsiyalarni ko‘paytirdik. Hozirgi vaqtda bu siyosat o‘z samarasini bermoqda. Bu – Asaka shahridagi avtomobil zavodidir. Bu–Buxoro neftni qayta ishlash zavodini ishga tushurishdan iboratdir. Bu–Ko‘kdumaloq va Mingbuloq konlarini ishga solish, chet ellik sheriklar ishtirokida o‘nlab to‘qimachilik va ip–yigiruv fabrikalarini, Andijon, Qo‘kon va Yangiyo‘lda spirt ishlab chiqaruvchi korxonalarini, Xorazm viloyatida qand zavodi, Qizilqum fosforit kombinati, Qoraqalpog‘istondagi Qo‘ng‘irot soda zavodini qurish, O‘zbekiston qiyin eriydigan va o‘tga chidamli materiallar kombinatini, Olmaliq va Navoiy kon – metallurgiya kombinatlarini, kimyo tarmog‘i korxonalarini qayta ta‘mirlash, yangi temir yo‘l va avtomobil yo‘llari yangi telekommunikatsiya ob‘ektlarini barpo etish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, shuningdek, oziq - ovqat va mahalliy sanoatga qarashli o‘nlab yangi va zamonaviy korxonalar demakdir.

Agarda 1990 yilda mamlakatimizning investitsiya portfelida xorijiy investitsiyalar deyarli mavjud bo‘lmagan bo‘lsa, 2000 yilda investitsiya va kreditlarning ulushi 23,2%, jumladan, hukumat kafolati bilan jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 19,8%, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar esa 3,4% tashkil qildi. Xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini rag‘batlantirishga qaratilgan butun bir chora – tadbirlar majmuasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri

xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi. Natijada 2011 yilda xorijiy investitsiyalarning jami kapital ko'yilmalar tarkibidagi ulushi 21,5% jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 17,9% va hukumat kafolati ostidagi investitsiyalar 3,6% tashkil etdi.

1990–2011 yillarda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan siyosat natijasi sifatida ishlab chiqarishga jalb qilingan investitsiyalarning ulushi o'sib umumiy kapital qo'yilmalari hajmidagi 58,3% dan 69,1% ga yetdi.

Faol investitsiya siyosati iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. O'zbekistonning investitsiya strategiyasida yangi va yuksak texnologiyalarga asoslangan, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarimizni chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar yordamida 2000 yilda 727,5 mln. AQSh dollarida, 2011 yil 2247,0 mln. AQSh dollarida shu jumladan, to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2000 yil 105,2 mln; 2011 yil 1874,7 mln. AQSh dollarida quyidagi korxonalar qurildi.

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda jahondagi eng yirik va mashhur AQShning "Jenerel Motors", "Teksako", Germaniyaning "MAN", "Daymler - Bens", "Klass", Buyuk Britaniyaning "BAT", Ispaniyaning "Maksam", Yaponiyaning "Iso'zu", "Itochu", Malayziyaning "Petronas", Koreyaning "Korean Eyr", "CNOC", "LG", Xitoyning "CNPC", Rossiyaning "Lukoyl", "Gazprom" kabi kompaniyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xalqaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va bir qator arab davlatlarining investitsiya banklari mamlakatimizning xalqaro hamkorlari bo'lmoqda.

Investitsiya va sanoat sohasidagi faol siyosat natijasi sifatida mustaqillik yillarida yurtimizda yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi avtomobil zavodlari tashkil etildi. Jahondagi yetakchi joriy kompaniyalar bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz kimyo majmuasi, Qo'ng'iro't ruda zavodi, o'nlab to'qimachilik majmualari barpo etildi.

Iqtisodiyotning yetakchi, avvalambor bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni va shuningdek, samarali tarkibiy o'zgarishlar va investitsiya siyosatini amalga

oshirishda 2006 yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi muhim o‘rin egallamoqda.

Jamg‘armaning eng asosiy vazifalaridan biri – iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari rivoji, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi bilan bog‘liq ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

Hozirgi paytda jamg‘armaning investitsiya portfelida umum qiymati 21,1 milliard dollardan ortiq 71 ta investitsiya loyihasi mavjud. Shuning 4,54 milliard dollari jamg‘arma mablag‘lari hisobidan birgalikda moliyalashtirildi.

Jamg‘arma faoliyat yuritayotgan davri mobaynida umumiy qiymati 3,1 milliard dollarni tashkil etadigan 26 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi qurilishi, Xonjiza polimetall konini o‘zlashtirish loyihasi, Qamchiq dovoni orqali “Ohangaron - Pungan” magistral gaz tarmog‘ining qurilishi, “Farg‘onaazot” va “Maksam – Chirchiq” ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida yirik ammiak agregatlarining rekonstruksiya va modernizatsiya qilinishi, 500 kVli “G‘o‘zor” kichik stansiyasi va “Surxon” kichik stansiyasi yuqori voltli liniyasi qurilishi, Pomuq va Dengizko‘l konlarida siqish kompressor stansiyalarining barpo etilishi, Qo‘ng‘irot kompressor stansiyasidagi gaz namini qochirish qurilmasi, Qarshi kaskadi nasos stansiyalarining rekonstruksiya qilinishi, “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasining havo flotini yangilash va unifikatsiya qilish loyihalari, 400 ta “Mercedes – Bens” rusumli yo‘lovchi tashish avtobuslarini, Toshkent – Samarqand temir yo‘l yo‘nalishida foydalanish uchun “Talgo – 250” yuqori tezyurar elektropoyezdlarini harid qilish loyihalari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, umumiy qiymati 10,7 milliard dollarga teng bo‘lgan investitsiya loyihalari amalga oshirish arafasida turibdi. Ular sirasiga Sho‘rtan gaz - kimyo majmuasida tozalangan metanni qayta ishlash bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarish zavodini barpo etish, Surgil konini negizida Ustyurt gaz - kimyo majmuasini qurish, Yangi “Angren” ko‘mir konini modernizatsiya qilish orqali Angren issiqlik elektr stansiyasining 1 – 5 -sonli energiya bloklarini yil bo‘yi ko‘mir asosida ishlash tizimiga o‘tkazish, Navoiy va Toshkent issiqlik elektr stansiyalarida bug‘- gaz moslamalarini qurish, Olmaliq tog‘ metallurgiya kombinatini kompleks modernizatsiya qilish kabi loyihalar kiradi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hal etadigan yana bir muhim vazifa xorijiy investorlar, moliya institutlari va sheriklarni investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish va amalga oshirish maqsadida mamlakatimizga

keng jalb etish hisoblanadi. Jamg‘armaning qo‘shma loyihalarda ishtirok etishi Osiyo taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Islom taraqqiyot banki, Xitoy eksport - import banki, Xitoy davlat taraqqiyot banki, Koreya taraqqiyot banki, boshqa xorijiy moliya institutlari, bank va kompaniyalarning mablag‘lari hisobidan 4,1 milliard dollardan ziyod chet el investitsiyasi va kreditlarini jalb etish imkonini berdi.

Shu bilan birga chet ellik investorlar ishtirokida o‘nlab qo‘shma korxonalar tashkil etildi. «Qabul–To‘ytepa–Tekstaylz» (Janubiy Koreya), «Asnamtekstil», «Kateks», «Elteks», «Samjinteks» (Turkiya), «Supertekstil» (AQSh) va boshqalar shular jumlasidandir.

Shu bilan birgalikda tashqi iqtisodiy siyosatga doir tamoyillarimizni belgilab beruvchi konstitutsiyaviy qoidalarga asoslangan holda, «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to‘g‘risida»gi, «Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, shuningdek, bir qancha boshqa qonun hujjatlari va me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish, chet ellik investorlar uchun qulay sharoitlarni yaratish hamda xorijiy mamlakatlar tadbirkorlari bilan savdo - iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkonini berdi.

Mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasiga keng ko‘lamda integratsiyalashuvi, iqtisodiyotimizga investitsiyalar oqib kelishi uchun huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratdik. O‘zbekiston «ochiq eshiklar» siyosatini olib bormada, bu chet ellik investorlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun ishonchli huquqiy kafolatlarni va keng iqtisodiy imkoniyatlar bermoqda.

Xorijiy investorlar uchun bizda eng qulay tartiblar yaratilgan, ular muttasil takomillashtirib borilmoqda. Chet el sarmoyasi ishtirokida ishlab chiqarish korxonalarini ochish jarayoni mumkin qadar osonlashtirilgan.

Respublikada qabul qilingan qonunlar va qonuniy hujjatlar chet el firmalari va kompaniyalariga O‘zbekiston bozorlariga faol kirib kelish uchun soliq sohasida imtiyozlar va rag‘batlantirish choralarining, siyosiy va tijorat sohasidagi xavf – xatarlardan kafolatlarning yaxlit tizimini, qulay qonuniy sharoitlarni yaratib beradi.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar chet ellik investorlarga beradigan kafolatlarga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasidagi xorijiy investitsiyalar natsionalizatsiya va rekvizitsiya qilinmaydi;
- Xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olingan foydani va boshqa mablag‘larni hech bir cheklovsiz chet el valyutasida chet elga o‘tkazish

kafolatlanadi. Shuningdek, import bo'yicha olib kirilayotgan xomashyo, butlovchi buyumlar va zamonaviy texnologiyalardan olingan tushumni hech moneliksiz chet el valyutasiga ayriboshlash ta'minlanadi;

– Chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarga davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida, shu jumladan ko'chmas mulk oldi - sotdisida erkin qatnashish kafolatlanadi. Chet ellik investorlar mulkchilik huquqlarini, shu jumladan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlariga hamda turar joy binolari va ular joylashgan yer uchastkalariga mulkchilik huquqini yer va tabiiy manbalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qo'lga kiritishga haqlidirlar.

– Chet el investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan korxonalar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksport qilish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotni import qilish hamda qo'shma korxonalarining ustav fondiga hissa qo'shish uchun boj to'lamasdan mulk olib kirishga haqlidir.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda amal qilayotgan qonunlar chet ellik investorlar uchun kafolatlar bilan bir qatorda soliq sohasiga keng imtiyozlar ham beradi. Agar ular investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni investitsiyalashda qatnashsalar, yetti yil mobaynida foydadan soliq to'lashdan ozod qilanadilar.

Chet el investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan korxonalar daromadlarining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiya bilan qayta jihozlashga sarflanadigan qismi ham soliqdan ozod qilinadi.

Qo'shma korxonalarining qayta moliyalashga hamda investitsiyalarni amalga oshirish uchun olingan kreditlarni to'lashga sarflanadigan mablag'lariga ham soliq solinmaydi.

Chet el sarmoyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari uchun foydadan soliq olishning tabaqalashtirilgan stavkalari joriy etilgan. Bu stavkalar xorijlik investorning qo'shma korxonada ustav fondidagi ulushi miqdoridan kelib chiqib, ular uchun soliq stavkalarining tegishlicha kamaytirilishini nazarda tutadi.

Ustav fondida chet el sarmoyasining ulushi 30 foizdan ortik bo'lgan, qishloq, xo'jalik mahsulotini, xalq iste'moli mollarini va qurilish materiallari, tibbiyot uskunalari, qishloq xo'jaligi, yengil va oziq - ovqat sanoati uchun mashina va uskunalarni ishlab chiqarish hamda qayta ishlashga, ikkilamchi xomashyo va ro'zg'or chiqindilarini qayta ishlashga ixtisoslashgan qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab ikki yil mobaynida foydadan soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Chet ellik sherikning o'z ehtiyojlari uchun respublikamizga olib kirayotgan mulki, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining ustav sarmoyasiga mulk bilan qo'shadigan hissasi hamda O'zbekiston iqtisodiga umumiy hajmi 50 million dollardan ortiq miqdorda qilinadigan investitsiyalar ham boj to'lashdan ozod qilinadi.

Bular chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun hozir amal qilib turgan imtiyozlarning to'liq bo'lmagan ro'yxati. Bulardan tashqari chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar respublikaning hamma korxonalariga berilgan soliq sohasidagi imtiyozlardan ham foydalanadi.

Chet ellik investorlarga yordam ko'rsatish maqsadida O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar tarmog'i tashkil etilgan. Chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi. «O'zbekinvest» milliy eksport–import sug'urta kompaniyasi shular jumlasidan. AIG (AQSh) bilan birga siyosiy xavf–xatarlardan sug'urtalash bo'yicha qo'shma korxonasi «O'zbekinvest Interneshnl» ta'sis etilgan. Uning qarorgohi Londonda joylashgan. Lizing kompaniyasi tashkil etildi. Uning muassasalari–xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa rekonstruksiya va taraqqiyot banki, «Malayzon BENK Berxard» (Malayziya) va bizning tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankimizdir.

Respublikada chet el investitsiyalarini ishonchli sug'urta bilan himoyalash ta'minlanmoqda. Sug'urtalashning tayanch stavkalari xalqaro amaliyotda qabul qilinganidan ancha past. Sug'urta puli to'lanmagan taqdirda o'z sarmoyalarini O'zbekiston Respublikasiga investitsiya qilingan chet ellik kreditorlar sug'urta hodisasi yuz berganidan so'ng, atigi 30 kun o'tganidan keyin talab bilan murojaat qilishlari mumkin. Holbuki, jahon amaliyotida bu muddat 180 kun qilib belgilangan.

Chet ellik investorlarga respublikada mavjud bo'lgan kafolatlar, imtiyozlar va rag'batlantirish choralarining to'liq bo'lmagan ro'yxatini keltirishning o'zigina O'zbekiston kapital sarflash uchun qulay, hamkorlik uchun qulay, hamkorlik uchun ishonchli mamlakat ekanligidan dalolat beradi.

Boshqa mamlakatlarda qabul qilinganidek, O'zbekistondagi chet el investitsiyalari davlatning to'la huquqiy himoyasidan foydalanadi. Qonunga muvofiq ular majburiy tortib olishlardan hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarning g'ayrihuquqiy xatti-harakatlaridan kafolatlanadi. Davlat mulkiga aylantirish yoxud rekvizitsiya ro'y bergan hollarda chet ellik investorga «tezda, teng miqdorda va samarali tovon to'lanishi» lozim. Davlat organlarining chet el investitsiyalarini ularning tasarrufidan chiqarish haqidagi qarorlari ustidan shikoyat bilan O'zbekiston sudlariga murojaat qilish mumkin. Bundan tashqari chet el investorlari o'zi manfaatlarini himoya qilish uchun

jahon amaliyotda qabul qilingan imkoniyatlardan ham foydalanishlari mumkin.

### **Qisqacha xulosalar**

O‘zbekiston Respublikasida tarmoq va sohalarni, ya’ni sanoat qishloq xo‘jaligini, qurilishni, transport va boshqa tarmoq xo‘jaliklarini uzoq vaqt ichida rivojlantirish uchun sarflangan chet el investitsiyalarining yig‘indisini tushuniladi. Bu investitsiyalar jumlasiga pul vositalari, butun bank qo‘yilmalari, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob–uskunalar, litsenziyalar, shu jumladan–tovar belgilari, kreditlar, har xil narsalar yoki mol-mulkiy huquqlar, turli ob’ektlarga foyda olish maqsadida va ijtimoiy samaraga ijobiy erishishga sarflangan qimmatbaholi intellektual kashfiyotlar va boshqa faoliyat turlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining (1994 yil, 5 - son, 128 - moddasiga) muvofiq chet el investitsiyalarini amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy – iqtisodiy asoslarini hamda tartibini belgilab beradi. Qonun chet ellik investorlar samarali faoliyat yuritishining kafolatlarini ta’minlab beradi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga ko‘maklashish maqsadida chet elning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini xorijning zamonaviy texnologiyasi va boshqaruv sohasidan tajribasini jalb etishga va ulardan omilkorlik bilan foydalanishga qaratilgandir.

### **Asosiy tushunchalar**

Investitsiya–davlat va tadbirkorlik ob’ektlari yoki boshqa faoliyat uchun va natijada samarali ish yurgizib biron foyda olish uchun sarflanadigan hamma narsalar va intellektual xarajatlar turidir.

Investirlash–investitsiyani amalga oshirish; biron ish uchun investorlarning sarf–xarajatlari.

Investitsiya faoliyati–davlat, yuridik shaxslar va fuqarolarning investitsiyalarini realizatsiya etishga qaratilgan amaliy harakatlar yig‘indisidir.

Intellektual (aqliy) mulk–aqliy, ijobiy mehnat mahsuloti.

### **Mavzuning namunali savollari:**

1. O‘zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarning ahamiyati?
2. Yalpi va sof investitsiya?
3. Investitsiyalarning iqtisodiy o‘lishga ta’siri?



### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Yalpi va sof investitsiya nima?
2. Iqtisodiy o‘shni investitsiyalash, nominal va real investitsiya?

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Investitsiya tushunchasi va uning ahamiyati?
2. O‘zbekiston Respublikasida investitsiyalarning iqtisodiy o‘shni investitsiyalash, nominal va real investitsiya?

## **53 BOB. TO‘LOV BALANSI VA O‘ZBEKISTONNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI**

### **53.1. To‘lov balansining makroiqtisodiy va tahliliy roli**

To‘lov balansini ma‘lum vaqt mobaynida muayyan mamlakat rezidentlari bilan tashqi dunyo o‘rtasidagi barcha iqtisodiy bitimlar yakunlarining tartibga solingan yozuvidan iborat. To‘lov balansini mazkur mamlakatning tashqi dunyo bilan ikki asosiy kanal – xalqaro savdo va moliya kanallari orqali amalga oshiriladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlarini aqhvolini aks ettiradi. U mamlakatda tarkib topgan iqtisodiy vaziyat tahlili uchun va unga mos makroiqtisodiy (budjet soliq, kredit pul, tashqi savdo, valyuta va hokazo) siyosatni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan juda ko‘p qimmatli va foydali axborotlarni o‘z ichiga oladi.

To‘lov balansini mazkur mamlakat bilan qolgan dunyo o‘rtasidagi moliya oqimlarining ko‘lamlari haqida rosmi va to‘liq tasavvur beribgina qolmaydi, u “mamlakatning tashqi nuqtai nazaridan”, jumladan tovarlar va xizmatlar xalqaro bozoridagi eksportchi yoki importchi sifatidagi rolini tavsiflaydi. Bir necha yil mobaynidagi to‘lov balanslari ma‘lumotlariga asoslanib, mamlakatning to‘plangan xalqaro investitsiyalar bo‘yicha nuqtai nazarini aniqlash, ya‘ni mamlakatning ma‘lum vaqt mobaynidagi tashqi aktivlari va passivlaridan iborat bo‘lgan “tashqi qarzdorlik balansini” ni hisoblab chiqish mumkin. Basharti mamlakatning xorijdagi aktivlari uning tashqi dunyo oldidagi qadrli majburiyatlaridan ko‘p bo‘lsa, umuman mamlakat qolgan davlatlarining netto – kreditori sifatida namoyon bo‘ladi. Tashqi dunyo oldida qadrli majburiyatlari xorijiy aktivlaridan ko‘p bo‘lgan taqdirda mamlakat zayom mablag‘lari jahon bozorida netto – qarzdorga aylanadi.

To‘lov balansini hisob- kitoblari to‘plangan qarzdorlik, foizlar to‘lovi va qarzning asosiy summasi bo‘yicha to‘lovlar haqida axborot beribgina qolmay, mamlakatning kelajakda tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish va uni o‘zish uchun valyuta ishlab topish imkoniyatlari haqida ham axborot beradi.

To‘lov balansining oltin valyuta zaxiralari harakati haqidagi ma‘lumotlari almashuv kursining u yoki bu tizimini qo‘llab – quvvatlashning maqsadga muvofiqi haqida mulohaza yuritish, valyuta va pul bozorlarida yaqin orada ro‘y beradigan tamoyillarni bashorat qilish imkonini beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning harakati va hajmiga qarab mamlakatdagi investitsiyalar muhitini baholash mumkin. Jumladan, xorijiy kapital oqimi umumiy hajmida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashqi investitsiyalar ulushining kamligi mamlakatga ishonchning yetarli emasligidan dalolat beradi, uning investitsiyalar muhitiga noxush va xatarli deb qarash uchun asos bo‘la oladi.

To'lov balansida milliy iqtisodiyot boshdan kechiradigan jiddiy larzalar ham aks etadi. Masalan, mamlakatdan chayqov kapitali keng ko'lamda ketib qolayotgani haqida ma'lumotlar bo'lsa, yaqin orada uning valyuta va fond bozorlarining bezgak tutishi, bank tizimi inqirozga uchrashi haqida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi.

To'lov balansi qo'sh hisob tamoyili bo'yicha tuziladi, ya'ni barcha iqtisodiy bitimlarning ikki tomonlama yozuvidan iborat bo'ladi. Qo'sh hisob tamoyili har qanday xalqaro bitimning avtomatik ravishda to'lov balansida ikki bora: bir marta kredit tarzida, ikkinchi marta debet tarzida inobatga olinishini taxmin qiladi.

Tuzilishi natijasida boyliklar chiqib ketadigan va mamlakatga valyuta oqib keladigan bitimlar (ular "qo'shuv" belgisi bilan yoziladi) kredit sirasiga kiradi. Jumladan, samolyotlarning chet elga sotilishi, xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatish, chet mamlakatlardan pensiyalarni olish, mamlakat kompaniyalari aksiyalarining chet elliklar tomonidan sotib olinishi kreditga yoziladi, sababi ana shu bitimlar (ular "ayiruv" belgisi bilan yoziladi) debet sirasiga kiradi. To'lov balansining debet hisobida avtomobillarni import qilish, litsenziyalarni sotib olish, mamlakatdan chet el kompaniyalarining daromadlarini chiqarish, uzoq muddatli zayomlarni berish kabi bitimlar aks etadi. Bunday bitimlar rezidentlar hisob raqamida xorijiy valyutalar zaxirasining kamayishiga olib keladi.

### **53.2. To'lov balansining tuzilishi**

To'lov balansi Xalqaro valyuta fondi (XVF) tomonidan ishlab chiqilgan standart tavsifnomaga muvofiq ikki asosiy yozuvni o'z ichiga oladi:

- 1) joriy operatsiyalar hisobini;
- 2) kapitallar va moliya uskunalari bilan operatsiyalar hisobini.

O'zbekistonning to'lov balansi XVFning standart tavsifnomasiga muvofiq tuziladi.

Joriy operatsiyalar hisobida rezident bo'lmaganlarga tovar sotish va xizmat ko'rsatishdan keladigan barcha tushumlar, rezidentlarning chet elliklarga sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga barcha harajatlari, shuningdek, investitsiyalardan olinadigan sof daromadlar va sof joriy transfetlar ("sof" atamasi olingan va to'langan daromadlar o'rtasidagi saldoni anglatadi) aks etadi.

Tovarlar eksporti va importi orasidagi farq savdo balansini tashkil etadi. Ayrim mamlakatlarning savdo balanslarini tahlil qilib, xalqaro savdo-sotiqning yalpi hajmi haqida ma'lumotlar olish mumkin.

Eksporthning import ustida ustuvorlik qilishi, ya'ni savdo balansining ijobiy saldosi iqtisodiyot sog'lom holatining ko'rsatkichi hisoblanadi, chunki mazkur mamlakat tovarlariga jahonda talab kuchayadi va ichki bozorda haridorlar xorij tovarlarining o'rniga mahalliy tovarlarni sotib olishni afzal ko'radilar.

Ammo savdo balansi ahvoriga bunday baho berish hamisha ham to'g'ri bo'lavermaydi. Jumladan, savdo balansining ijobiy saldosi oshishiga mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarining o'sishi emas, savdo-sotiq shart-sharoitlarining o'zgarishi, jumladan eksport mahsulotlariga jahon narxlarining ko'tarilishi yoki importga jahon narxlarining pasayishi sabab bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan qaraganda, savdo balansining kamomadi hamisha ham mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatning noxush ekanligidan dalolat bermaydi. Savdo balansining kamomadiga mamlakatdagi qulay investitsiyalar muhiti (zavodlar, temir yo'llar, shaxtalar qurilishi va hokazolar) sabab bo'lishi mumkin, buning oqibatida yangi import jihozlarini qo'shimcha ravishda harid qilish zarurati vujudga keladi.

Joriy operatsiyalar hisobi, shuningdek, xizmatlar eksporti va importini qayd etadi, aqliy mulkdan (patentlardan, texnologiyalardan, mualliflik huquqlaridan) foydalanganlik uchun to'lovlar, xalqaro turizm, transport, sug'urta bilan bog'liq harajatlar shular qatoriga kiradi.

Joriy operatsiyalar balansida investitsiyalardan keladigan sof daromadlar aks etadi. Ular kredit xizmatlarining "sof eksporti" bilan, ya'ni chet elda sarflanayotgan milliy pul kapitali xizmatlari bilan bog'liq.

Investitsiyalardan keladigan daromadlar, qarz majburiyatlari bo'yicha foizlar hamda chet elda ishlayotgan rezidentlarning mehnat haqi shu moddaga kiritiladi. Basharti xorijdagi milliy kapital mazkur mamlakatga investitsiya qilingan chet el kapitalidan ko'p hajmda foizlar va devidendlar keltirayotgan bo'lsa, investitsiyalardan olinayotgan sof daromadlar ijobiy, aks holda salbiy bo'ladi.

### **53.3. Sof joriy transfetlar**

Sof joriy transfetlar javob tariqasida, tovarlar yoki xizmatlarni olmagan holda, xususiy va davlat mablag'larining boshqa mamlakatlarga o'tkazilishini (pensiyalar, sovg'alar, chet mamlakatlarga pul jo'natish yoki chet mamlakatlarga beg'araz yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Mamlakat aktivlari bilan bog'liq barcha xalqaro bitimlar (ularning sotib olinishi yoki sotilishi) kapitallar va moliya uskunalari bilan operatsiyalar hisobida aks etadi. Aytaylik, masalan, O'zbekistonga xorijdan qarz berilayotgan bo'lsa, bu uning o'z aktivini sotayotganligini, ya'ni kelajakda uni foizlari bilan to'lashga va'da

berayotganligini anglatadi. Bunday bitim kapital va moliya uskunalari bilan operatsiyalar hisobining “kredit” (majburiyatlar) bobida aks etadi. Agar O‘zbekiston kredit berayotgan bo‘lsa, uning aktivlari oshib boradi, ammo moliyaviy mablag‘lar mamlakatdan chiqib ketadi, shuning uchun mazkur bitim “debet” bobida aks etadi.

Kapital va moliya uskunalari bilan operatsiyalar hisobi, shuningdek, sof kapital transfetlarini (asosiy kapitalga egalik huquqining beg‘araz boshqa kimsaga topshirilishini) o‘z ichiga oladi. Masalan, yo‘llar, kasalxonalar, aerodromlar qurilishiga ajratilgan investitsiya grantlari shular jumlasiga kiradi. Hukumat qarzlarning “bekor qilinishi” ham to‘lov balansining shu bo‘limiga kiritiladi.

Kapital va moliya uskunalari bilan operatsiyalar hisobining qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar berilishi va olinishini aks ettiruvchi moddalari bo‘yicha saldo aktivlar bilan barcha bitimlardan keladigan sof chet el valyutalari tushumini ko‘rsatadi. Kreditlarni berish xorijda aktivlarni (aksiyalarni, obligatsiyalarni, ko‘chmas mulk va hokazolarni) sotib olishga qilingan harajatlarni, kreditlarni olish esa aktivlarni sotishdan keladigan tushumlarnigina anglatadi.

Kapitalning xalqaro oqimlari sarflanish maqsadlariga ko‘ra to‘lov balansida bevosita, portfel va hokazo investitsiyalarga bo‘linadi. Investorning kapital joylashtiriladigan ob‘ekt ustidan nazoratini ta‘minlaydigan ko‘lamlarda kapitalning uzoq muddatli sarfi bevosita investitsiyalar sirasiga kiradi. Portfel investitsiyalari investorga investitsiya qilinayotgan ob‘ekt ustidan nazorat qilish huquqini bermaydigan, kapitalning qimmatbaho qog‘ozlarga uzoq muddatli va qisqa muddatli sarfidan iborat. Boshqa investitsiyalar berilgan va jalb etilgan savdo kreditlari va avanslarni, berilgan va jalb etilgan ssudalarni va zayomlarni, joriy hisob raqamlaridagi qoldiqlarni va depozitlarni, naqd chet el va mamlakat valyutasini, muddati o‘tib ketgan qarzlarni, eksport va so‘m hisobidagi o‘z vaqtida kelib tushmagan tushumlar va qoplanmagan import avanslari bo‘yicha qarz o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

Qo‘sh hisob tamoyili bo‘yicha tuziladigan to‘lov balansi aniqrog‘i nolga teng, bu mamlakatning barcha qarzlari to‘lanishi shartligini anglatadi. Shuning uchun joriy operatsiyalar hisobi bo‘yicha kamomad kapital va moliya uskunalari hisobi bo‘yicha ijobiy saldogga to‘la-to‘kis mos bo‘lishi kerak. Agar mamlakat rezidentlari chet el tovarlarini, xizmatlarini va aktivlarini sotib olishga o‘z tovarlarini, xizmatlarini va aktivlarini chet elliklarga sotishdan ko‘proq sarflaydigan bo‘lsalar, qarzni o‘zish xorij valyutalari rasmiy zaxiralarini qisqartirish hisobiga Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, O‘zbekistonning to‘lov balansi XVF uslubiyatiga muvofiq ravishda tuziladi, ammo ayrim milliy xususiyatlarga ega. Jumladan, ba’zi bandlar bo‘yicha rasmiy zaxiralar hisob-kitobining uslubi to‘lov balanslari bo‘yicha XVF qo‘llanmasida keltirilgan uslubdan (beshinchi nashr) farq qiladi. Shuning uchun to‘lov balansi va O‘zbekistonning bir tomondan to‘lov balansi bo‘yicha XVF qo‘llanmasiga, ikkinchi tomondan rasmiy xalqaro zaxiralar milliy statistikasi ma’lumotlariga muvofiq shakllanadigan xalqaro investitsiya nuqtai nazari ma’lumotlarini muvofiqlashtirish maqsadida “Zaxira aktivlariga to‘zatislar” moddasi kiritilgan.

To‘lov balansiga, shuningdek “Sof kamchiliklar va xatolar” moddasi ham kiritilgan. Nazariy jihatdan har bir bitim to‘lov balansida ikki marotaba – debet va kredit bo‘yicha aks etishi lozim bo‘lishiga qaramay, amaliyotda bu talab ko‘pincha bajarilmaydi. Qator hollarda to‘zilayotgan bitimlar turli xizmatlar tomonidan hisobga olinadi, ularning axboroti ham zamon, ham miqdor jihatdan bir – biriga mos kelmasligi mumkin. Iqtisodiy qadriyatlarning ba’zi oqimlari, bu ayniqsa qonunlarga xilof bo‘lgan bitimlarga taalluqli, umuman statistika hisob – kitoblaridan tashqarida qolib ketishi mumkin. Bunday hisobga olinmagan oqimlarning umumiy summasini kredit va debet bo‘yicha umumiy yakunlarni hisob –kitob qilibgina aniqlash mumkin.

#### **53.4. O‘zbekiston to‘lov balansining o‘zgarish tamoyillari**

Mustaqillik yillaridagi O‘zbekiston Respublikasi to‘lov balansining tahlili shu davrda ham ijobiy, ham salbiy tamoyillar ko‘zatildi, deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Joriy operatsiyalar balansining aktiv saldosi va mamlakat oltin valyuta zaxiralari o‘sganligini uning ijobiy tomonlari qatoriga kiritsa bo‘ladi. 2000 yilning oxiriga kelib, oltin valyuta zaxiralari ancha mustahkamlandi. Bu zaxiralar ko‘rsatkichi yetarli darajada – 4 oylik importni qoplash miqdorida bo‘ldi. Joriy operatsiyalar hisobi bo‘yicha aktiv saldo, avvalo, savdo balansining ijobiy saldosi hisobiga qo‘llab - quvvatlab turildi. 90 - yillarning birinchi yarmida so‘mning doimiy qadrsizlanib borishi asosiy ulushi paxtaga to‘g‘ri keladigan eksport hajmining kengayishiga xizmat qildi. So‘nggi yillarda jahon bozorlarida paxta narxining tushib ketishi iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Joriy operatsiyalar hisobida xizmatlar importi doimo salbiy saldo bilan yakunlanganligi ham salbiy tamoyillar qatoriga kiritsa bo‘ladi. Bu turizm bo‘yicha xizmatlar importiga O‘zbekiston rezidentlarining harajatlari muntazam oshib borganligi bilangina emas, balansda keltirilgan raqamlar

qisman qalbakilashtirilganligi bilan ham izohlanadi hamda “kapital chiqib ketishini” ifodalaydi.

Joriy operatsiyalar hisobidagi investitsiyalardan va mehnatga haq to‘lashdan keladigan daromadlar ham salbiy ko‘rsatkichni tashkil etar edi, ya’ni O‘zbekistonning chet elga investitsiyalardan olgan daromadlari O‘zbekistonga xorij investitsiyalari bo‘yicha to‘langan daromatlardan ancha kam edi. Ammo to‘lov balansida qilinganidek, investitsiyadan daromadlarni “to‘lashga” va “olishga” saldolar chiqarishga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur.

O‘zbekiston 90 yillarning oxirlarida XV F Nizomning VIII moddasiga imzo chekib, joriy operatsiyalar hisobi bo‘yicha valyutani konvertatsiya qilish majburiyatini olganidan so‘ng investitsiyalardan keladigan daromadlar bo‘yicha salbiy saldo muntazam ko‘payib bordi. Valyutani konvertatsiya qilish tovarlar va xizmatlar eksporti hamda norezidentlar ixtiyoridagi kapitalga daromadlar repatriatsiyasi bilan bog‘liq valyuta almashinuviga barcha cheklashlar bekor qilinishini anglatar edi.

Chet elga investitsiyalarini jalb qilish mamlakat uchun samarali deb hisoblanadi, ammo olib chiqib ketiladigan daromad investitsiyalarining o‘zidan jiddiy ravishda oshib ketmasligi zarur. O‘zbekiston 90 yillardagi chet el investitsiyalarining samaradorligi umuman past bo‘ldi: investitsiyalardan olib ketilgan daromad 60 foizdan ko‘proqni tashkil etdi. Bundan tashqari shu davr mobaynida ichki investitsiyalar keltirib chiqargan YaIMning o‘sish sur‘ati jalb etilgan chet el investitsiyalari bo‘yicha to‘langan daromadlarning o‘sish sur‘atlaridan past bo‘ldi.

O‘zbekistonning joriy operatsiyalar balansi turg‘un ijobiy saldosi qanday baholash mumkin? Bir tomondan, bu mamlakatga xorij valyutasi oqib kelayotganini, uning oltin – valyuta zaxiralari o‘sayotganini, so‘mning qadri oshib borayotganligini anglatadi, bu inflyatsiyani tizginlab turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan, O‘zbekistonning joriy operatsiyalar balansi tashqi favqulodda hodisalar tasirchan, sababi uning saldosi jahon bozorida ro‘y berayotgan voqealar va ichki bozordagi vaziyatga bog‘liq. Bundan tashqari, pul massasining ko‘payishi natijasida inflyatsiyaning kuchayish ehtimoli bor. So‘m ko‘rinishidagi pul massasini sterilizatsiya qilish bo‘yicha yetarli imkoniyatlar bo‘lmagan taqdirda Markaziy bank tomonidan chet el valyutalarining sotib olinishi oqibatda pul bazasining, ya’ni pul taklifining o‘sishiga olib keladi.

O‘zbekiston Markaziy bankining so‘mga nisbatan siyosatini ham inobatga olish lozim, u eksportni rag‘batlantirish maqsadida uni past darajada

ushlab turibdi. Buning natijasida bojxona to'lovlaridan budgetga tushumlarning talaygina qismi boy berilmoqda, sababi eksportga importdan farqli ravishda qo'shimcha qiymat solig'i solinmaydi.

Investitsiyalardan keladigan daromadlar haqidagi va to'lov balansi moliya hisobining moddalari ma'lumotlariga asoslanib, kapital harakati dinamikasini tahlil qilish mumkin. Kapital harakati deganda, to'lov balansi joriy hisobining "Investitsiyalardan va mehnatga haq to'lashdan daromadlar" va "Joriy transfertlar" moddalari bo'yicha, shuningdek, kapital va moliya uskunalari bilan operatsiyalar hisobi hamda "Sof xatolar va kamchiliklar" moddalari bo'yicha hisobga olinadigan operatsiyalar yig'indisi tushuniladi. Agar ularning yig'ma saldosi ijobiy bo'lsa, kapitalning netto – oqib kelishi, agar salbiy bo'lsa, kapitalning netto – chiqib ketishi ko'zatiladi.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sish istiqbollari nuqtai nazaridan qaraganda, bevosita xorij investitsiyalarining (BXI) hajmi va yo'nalishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kapitalning chayqovchilik oqimlaridan farqli ravishda BXIning talaygina qismi iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltiriladi. Ular investitsiyalarning qo'shimcha manbai vazifasini o'taydi va ichki bozorda raqobatni faollashtiradi.

90 yillardagi to'lov balanslari ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekistonga bevosita investitsiyalar hajmi O'zbekiston rezidentlarining xorijdagi bevosita investitsiyalari hajmidan ko'proq bo'lgan. Shu yillarda jamg'arilgan chet el investitsiyalarining hajmi salmoqli miqdorni – 10-15 milliard dollarni tashkil etdi. Ayni vaqtda milliy iqtisodiyot hajmiga nisbatan BXI oqimini tavsivlovchi ko'rsatkichlar nuqtai nazaridan qaraganda, O'zbekistonning mavqei kamtarona ko'rinadi. Jumladan, 1998 yilda aholi jon boshiga BXIning ulushi Rossiyada – 18,9 dollarni, Estoniyada – 397,3 dollarni, Litvada - 250,3 dollarni, O'zbekistonda – 10-15 dollarni tashkil etdi. BXI oqimi ko'rsatkichlari YaIMning har bir dollari hisobiga olganda, Rossiyada – 1,0 dollar, Estoniyada – 11,4 dollar, Litvada – 8,7 dollar, Ozarbayjonda – 25 dollar, Qozog'istonda – 5,3 dollar, O'zbekistonda – 1,0 dollar darajasida bo'ldi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga BXIning past darajada ekanligi sabablari investitsiyalar qilishning o'ta xavfliligi, moliya bozorlarining rivojlanmaganligi, qonunlarning takomillashmaganligi, chet elliklarning mahalliy bozor xususiyatlarini bilmasligi, chet el investorlariga nisbatan salbiy munosabatlar, kapital harakatining cheklanganligi va hokazolardir.

Shunday qilib, to'lov balansida uning ko'rsatkichlari tizimi orqali O'zbekiston iqtisodiyotining ichki muammolari aks etadi. Iqtisodiy o'sishning istiqbollari va tashqi qarzlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyati faqat joriy operatsiyalar balansiga, avvalambor, jahon bozorlarida vujudga kelayotgan



vaziyatlarga, ya'ni jahon bozoridagi paxta va boshqa xomashyolar narxiga bog'liq. Sababi, hozirgacha O'zbekistonning asosiy eksporti – paxta va yoqilg'i xomashyo resurslari bo'lib qolmoqda. Investitsiyalar uchun xatarli muhit BXIning o'sishiga to'sqinlik qilmoqda, vaholanki, u iqtisodiy o'sishning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar uchun noxush muhit, shuningdek, mukammal bo'lmagan soliq qonunlari kapital yalpi chiqib ketishning, investitsiya resurslarini kamaytirib boruvchi va mamlakat iqtisodiy salohiyatini yemiruvchi asosiy sabablar hisoblanadi.

Bu demak, ishlab chiqilayotgan makroiqtisodiy siyosat va qabul qilinayotgan qonunlar investorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga, kapitalning yashirin ravishda olib chiqib ketilishi ustidan nazoratni kuchaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Hukumat o'z ixtiyoridagi kapital oqimlari beboshligi salbiy oqibatlarining oldini oluvchi chora-tadbirlarga ham ega bo'lishi lozim. Budjet - soliq sohasini tartibga solish va kapitalning qisqa muddatli oqimlari ustidan bank nazoratini kuchaytirish shu sohadagi ustuvor chora-tadbirlar hisoblanadi. Hukumat bugun o'zining imkoniyatlarini qo'ldan boy bermasligi, jahon yoqilg'i va boshqa bozorlarida ro'y berayotgan qulay vaziyatlardan foydalanishi, paxta va boshqa eksport mahsulotlaridan keladigan daromadlarni real o'zgarishlarga hamda iqtisodiyotning rivojlanayotgan asosiy tarmoqlariga yo'naltirishi kerak. Faqat shu taqdirdagina 90 yillarning oxiri va 2000 yillarning boshlarida O'zbekistonda ko'zatilgan iqtisodiy o'sish uzoq muddatli xarakterni kasb etishi mumkin.

### **Qisqacha xulosalar**

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari va ularning asosiy shakllari – bu tashqi savdo, kapitallar ko'chishi (migratsiyasi), ishchi kuchining ko'chishi, litsenziyalar savdosi, transport, turizm va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir. Ularni o'zida aks ettiruvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkich – to'lov balansidir. Unda har qanday davlatning xorij davlatlari bilan iqtisodiy aloqalari natijasida hamma to'lovlar bo'yicha ma'lum bir davr (chorak, yil) mobaynida tushadigan pul mablag'lari, tovarlarni eksport va import qilishning asosiy ko'rsatkichlari aks etadi. To'lov balansida shuningdek, joriy operatsiyalar natijasida – tovar va xizmatlar savdosidan tashqari chet el investitsiyalaridan keladigan daromadlar va pul o'tkazishlar, kapitallar harakati ko'rsatiladi. To'lov balansining saldosi oltinlarni olib kelish yoki olib chiqish, ya'ni to'lov balansining “oltin valyuta zaxiralarining o'zgarishi” moddasida aks etadi, bu chet el davlatlaridan qarzlarni ko'paytirish yoki kamaytirish yo'li bilan qoplanadi.

To'lov balansi mamlakat iqtisodiyoti ahvolidning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Uning salbiy saldosi mamlakatning jahon maydonidagi mavqei pasayib ketganligidan dalolat beradi. Shu boisdan dunyodagi davlatlarning ko'pchiligi iqtisodiy rivojlanish borasidagi tengsizliklarni, shu jumladan sanoati rivojlangan davlatlar ham jiddiy qiyinchiliklarni va to'lov balansi inqirozlarini boshdan kechirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari o'zluksiz kengayib bormoqda.

### **Asosiy tushunchalar**

**To'lov balansi** – ma'lum bir davlatga xorij davlatlaridan kelgan to'lovlar hamda davlatning o'zida amalga oshirilgan to'lovlar nisbatini o'z ichiga oladi. Tashqi savdo (savdo balansi) xizmatlar, transportda xalqaro yuklarni tashish, sug'urta va hokazo operatsiyalarni, boshqa savdo-sotiqqa aloqasi bo'lmagan (elchixonalar, vakolatxonalar bilan bog'liq) xarajatlarni, mutaxassislar xizmat safarlari, xalqaro turizm operatsiyalarini hamda kreditlar bo'yicha foizlar tarzidagi to'lovlarni va kapital qo'yish kabilarni o'z ichiga oladi. To'lov balansi kapitallar harakatini, investitsiyalarni va kreditlarni o'zida aks ettiradi.

**To'lov balansining tuzilishi** – xalqaro valyuta fondi (XVF) ishlab chiqqan tasnif standartiga muvofiq to'lov balansi ikki asosiy hisobni joriy operatsiyalar hisobini hamda moliya va kapitallar uskunalari bilan hisob operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

**Savdo balansi** – mazkur davlat bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi tovarlar eksporti va importi harakatini aks ettiruvchi hujjat. Savdo balansi oy, chorak va yil bo'yicha tuziladi. Mazkur davlat va boshqa davlatlar o'rtasidagi tovarlar harakatini aks ettiradi hamda “operatsiyalar turlari bo'yicha savdo balansi” nomiga ega.

**Bevosita xorij investitsiyalari** – boshqa chayqovchilik kapitallari oqimidan farqli ravishda bevosita xorij investitsiyalarining anchagina qismi faqat iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltiriladi.

### **Mavzuning namunaviy savollari**

1. Mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarida asosiy o'rin egallaydigan to'lov balansining ahamiyati?
2. To'lov balansining asosiy ko'rsatkichlari?
3. Mamlakatning eksport va import sohasidagi asosiy ko'rsatkichlari?

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. To'lov balansi barcha iqtisodiy bitimlarni ko'rsatkichi va uning mezonlari?
2. To'lov balansi eksport va importni ko'rsatishda qanday rol o'ynaydi?
3. Mamlakatning eksport - import operatsiyalari va to'lov balansi?

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarida asosiy o'rin egallaydigan to'lov balansining ahamiyati?
2. To'lov balansi eksport va importni ko'rsatishda qanday rol o'ynaydi?

## **54 BOB. XALQARO IQTISODIY TASHKILOTLAR RIVOJLANISHINING UMUMIY JIHATLARI**

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM) huquqiy jihatlardan (xalqaro shartnomalar, bitimlar, kodekslar, xartiya va hokazolardan) va boshda uni tashkil etuvchilardan tashqari, uni amalga oshirish omillarini, jumladan, ta'limni va jahon taraqqiyotining maqsadlariga erishishga safarbar etilgan tegishli xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda XIMda hamon tashqi savdo-sotiq munosabatlarning ustuvorligi saqlanib turibdi (XIM jami hajmining 80 foizi). Dastavval ushbu munosabatlar mamlakatlararo, tor mintaqaviy asosga qurilgan edi, hozir keng ko'lam kasb etishi ro'y bermoqda. Agar ilgari mamlakatlararo yoki tor mintaqaviy munosabatlar asosida bir-biriga qarama-qarshi ikki tamoyil: erkin tashqi savdo-sotiq va undagi rahnamolik yotgan bo'lsa, endi erkin savdo-sotiq tamoyili kengayib bormoqda. Bu importning miqdoriy chegaralari bekor qilinishida, bojxona soliqlari kamayib borayotgani, erkin iqtisodiy zonalar, umumiy bozorlar tashkil etilayotgani va hokazolarda namoyon bo'lmoqda.

Mazkur munosabatlarni amalga oshirish uchun savdo-iqtisod bloklar, erkin savdo-sotiq zonalar va boshqa uyushmalar tashkil etilib keldi va tashkil etilyapti. Hozir faoliyat ko'rsatayotgan taniqli mintaqaviy tashkilotlar sifatida avvalgi bobda ko'rib chiqilgan YeH, YeESU, NAFTA, ASYeAN, OTIHni hamda IHT-EKO - 1992 yilda tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy hamkorlik tashkilotini (Eron, Pokiston, Turkiya); SAARK - Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik uyushmasini (Hindiston, Pokiston, Shri-Lanka, Bangladesh, Maldiv orollari, Butan, Nepal); And pakti - Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru va Boliviyaning savdo bitimini; YuEMOA - G'arbiy Afrika iqtisod va valyuta ittifoqini (Kotd Ivuvar, Burkina-faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Beniya, Mali); SADK janubiy Afrika rivojlanish qo'mitasini (Angola Botsvana Lesoto, Malavi, Mozambik, Mavrikiy, Namibiya, MR, Svyazileyad, Tanzaniya, Zimbabve) aytish kerak.

XIT larning g'oyatda kengayib borishi OPYeK (neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti, 1960 yilda asos solingan bo'lib, uch qit'aning 13 mamlakatini birlashtiradi); OYESR (iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, 1961 yilda asos solingan bo'lib, to'rt qit'aning 24 mamlakatini birlashtiradi) kabi mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Hozir XIT larning savdo-sotiq faoliyatining g'oyatda kengayishida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimidagi bir qator muassasalar, masalan quyidagilar asosiy rol o'ynamokda:

- YuNKTAD – BMT ning savdo-sotiq va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi, 1964 yilda ta’ sis etilgan bo‘lib, BMT ning Bosh Assambleyasi rahnamoligida faoliyat ko‘rsatadi;

- EKOSOS – BMT ning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi;

- KNTR - Rivojlanish maqsadidagi fan va texnika komissiyasi;

- YuNIDO – BMT ning Sanoatni rivojlantirish bo‘yicha tashkiloti, 1966 yilda ta’ sis etilgan;

- JST – Jahon savdo-sotiq tashkiloti, 1995 yilda GATTI ni (Ta’riflar va savdo-sotiq to‘g‘risidagi bosh bitimni, 1947 yil tashkil etilgan) qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan JST tarkibiga TRIPS) Akdiy mulkning savdo-sotiq jihatlari bo‘yicha bitim) va GATS (Xizmatlar sohasidagi savdo-sotiq haqidagi bitim) kiradi.

- XMS – Xalqaro savdo markazi;

- BMTRD – Birlashgan Millatlar Tashkilotini rivojlantirish dasturi;

- BMT YeIK – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi:

#### **54.1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) 1945 yilda tashkil etilgan bo‘lib, 185 mustaqil davlatlarni birlashtiruvchi, barcha jabhalarni qamrab olgan noyob xalqaro tashkilot hisoblanadi.

BMT o‘z faoliyatini bevosita mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish sohalarida amalga oshiradi, davlatlararo hamkorlik uchun ijobiy, barqoror va maqbul muhitning shakllanishiga yordam beradi.

1997 yilning iyun oyida BMT Bosh Assambleyasining 19 maxsus sessiyasi o‘tkazildi, unda mamlakatlarning barqoror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish manfaatlari yo‘lidagi, XXI asrda rivojlanishning xalqaro va milliy strategiyalarini shakllantirish manfaatlari yo‘lidagi xatti-harakatlar ulkan rejasining muhim jihatlari ko‘rib chiqiladi. BMT Bosh Assambleyasining 1998 yil sentabr oyida bo‘lib o‘tgan 53-sessiyasi ham iqtisodiyotni globalashtirish, dunyodagi iqtisodiy jarayonlarni boshqarish muammolariga bag‘ishlandi.

**Ustuvor xalqaro iqtisodiy aloqalar va mamlakatlarning o‘zaro munosabatlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi va boshqariladi:**

- Mamlakatlarning rivojlanish borasidagi mustaqilligi va tengligi, tashqi iqtisodiy aloqalar va munosabatlarda adolatni ta’minlashi.

- Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarining bir-biriga bog‘likligi va bir-biridan kelib chiqishi.

- Xalqaro majburiyatlarni sidqidildan bajarish, barcha mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama, real natijalarga erishishi.
- Xalqaro munosabatlarda davlatlararo iqtisodiy va ijtimoiy adolatni amalga oshirishi.

**Xalqaro iqtisodiy hamkorlikdan ko'zatilgan asosiy maqsadlar quidagilar:**

- Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni rivojlantirish, barcha mamlakatlar va xalqlarning yuksak turmush darajasini ta'minlashi.
- Adolatga, manfaatlar birligiga, hamma davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng ilg'or shakllarini aniqlash va ulardan foydalanishi.
- Davlatlararo iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish uchun xalqaro aloqalarni va hamkorlikni rivojlantirishi.
- Teng imtiyozlar asosida fan-texnika, sanoat ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda hamkorlikka erishish, barcha davlatlar uchun ikki tomonlama manfaatli va foydali aloqalarni takomillashtirishi.
- Mamlakatlarning, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning jadal rivojlanishini va iqtisodiy o'sishini ta'minlashi.
- Yanada ilg'or, ratsional va adolatli tashqi iqtisodiy munosabatlarga erishish, jahon iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga yordam berishi.
- Barcha millatlar va xalqlar o'rtasidagi izchil iqtisodiy hamkorlik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi.
- Xalqaro hamkorlik va davlatlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va ularni rag'batlantirish, davlatlarning mustaqil iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tengligiga rioya qilish asosida umumiy xavfsizlikka yordam berish.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan tamoyillarni va asosiy g'oyalarni takomillashtira borib, BMT faoliyatning eng muhim jihatlarini amalga oshiradi, ularning ichida globallashtirish va dunyoda iqtisodiyotni rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro aloqalar muammolarini tadqiq etish, iqtisodiyotni globallashtirishning jahondagi moliyaviy jarayonlarni boshqarishdagi roli va ta'sirini o'rganish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy jihatdan qay darajada rivojlanganligini hisobga olib, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi sherikchilikning istiqbolli ko'rinishlari va usullarini ishlab chiqish, BMT faoliyatining muhim funksional sohasi hisoblanadi.

Jahon mamlakatlarining taraqqiy etishi, gullab-yashnashi va barqaror rivojlanishga, rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro savdo-sotiq tizimiga

samarali integratsiyasiga erishishga yordam beruvchi samarali va sermahsul xalqaro iqtisodiy muhitni shakllantirish BMT da ustuvor ahamiyatga ega.

BMT har bir mamlakatning rivojlanish, o'zining jamiki tabiiy boyliklari va resurslariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni ishlatishning o'z iqtisodiy tizimini tanlash bilan bog'liq ajralmas huquqini ta'minlashga, milliy resurslarni iqtisodiy rivojlanishga safarbar etish uchun sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ilmiy – texnika faoliyatini kengaytirishga yordam beradi.

Hozir BMT ning dunyoda istiqbolli iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish uchun tahliliy va meyoriy faoliyatni rivojlantirish sohalarida mamlakatlar integratsiyasini yanada kuchaytirish bilan bog'liq funksional jihatlari alohida ahamiyat kasb etib bormokda.

BMT iqtisodiyotni globallashtirishning jahondagi moliyaviy munosabatlarni boshqarishga ta'siri muammolarini tadqiq etishga qaratilgan xizmat faoliyatini amalga oshirish jarayonida turli mamlakatlar milliy iqtisod sohalarining barqaror moliyaviy rivojlanishiga erishishiga, o'zaro foydali, teng imtiyozlar va eng ko'p qulayliklar yaratib berish asosida halqaro iqtisodiy aloqalarni takomillashtirishga yordam beradi. BMT sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning talablariga javob beradigan ustuvor yondashuvlar, chora-tadbirlarni ishlab chiqish yo'li bilan jahon iqtisodiyotining og'ishmay rivojlanishiga xizmat qilmoqda, bu global jahon iqtisodiyoti nuqtai nazarlariga va shart-sharoitlariga javob beradi.

Mamlakatlar o'rtasidagi sherikchilikning istiqbolli ko'rinishlari va usullarini ishlab chiqish bilan bog'liq xizmat jihati BMT faoliyatida alohida o'rin tutadi. Ayni vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy-iqtisodiy madad berish, tashqi iqtisodiy aloqalarni liberallashtirish va kengaytirish bo'yicha xalqaro bitimlarning qoidalarini va ularni to'zish jarayonlarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun sanoati rivojlangan mamlakatlar BMT rahnamoligida rivojlanayotgan mamlakatlarga beriladigan kamsitmaydigan tarif madadlari dasturlarini mustahkamlashlari va takomillashtirishlari, ularning milliy iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar qabul qilinishining oldini olishlari, buning uchun rivojlanayotgan mamlakatlar har birining xalqaro iqtisodiyot sohasidagi ehtiyojlarini maqsadga muvofiq ravishda qondirishni ko'zlab, ularning har biriga mos yondashuvlardan foydalanishlari lozim.

BMT ning mamlakatlarning samarali va sermahsul xalqaro iqtisodiy faoliyatini shakllantirish sohasidagi xatti – harakatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan yaratilayotgan barcha tovarlarni va xizmatlarni foydali, adolatli va barqaror narxlarda qo'lga kiritilishiga, shu yo'l bilan yer

yuzida savdo-sotiqning ustuvor rivojlanishiga xizmat qiladigan tartib o'rnatilishiga yordam berganliklari uchun davlatlarning mas'uliyatini oshirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilmokda. Liberallashtirishni va BMT rahnamoligi ostida jahon savdo-sotig'ining muntazam kengayib borishini ta'minlashga xalqaro savdo-sotiq sohasidagi muammolarni adolatli hal etishga, tovarlar va xizmatlar eksportini diversifikatsiya qilishga, har bir mamlakat savdo-sotiqdan qo'shimcha daromad olishga erishishiga, ularning valyuta tushumlari sezilarli darajada ko'payishiga, ularning rivojlanish talablarini hisobga olib savdo-sotiqning o'sish sur'atlarini jadallashtirish va takomillashtirishga, tovarlar va xizmatlar bozorlariga kirib borish shart-sharoitlarini jiddiy ratsionalizatsiya qilish vositasida ularning jahon savdo-sotig'ini kengaytirishda ishtirok etish imkoniyatlarini yaxshilashga, xalqaro bozorlarda adolatli, foydali va barqaror narx-navo o'rnatilishiga qaratilgan ko'pchilik imkoniyatlari va kuch-g'ayratlarining amalga oshirilishi yordam bermoqda. Xalqaro majburiyatlarga va davlatlararo iqtisodiy hamkorlik ehtiyojlariga javob beradigan ko'p tomonlama bitimlarning rivojlanishini inobatga olib, har bir davlatning o'z tashqi iqtisodiy munosabatlarini qanday ko'rinishda tashkil etishni erkin tanlashiga xizmat qiluvchi jarayonlarga BMT ning ta'siri xalqaro savdo-sotiqning tizim holida yuqori siljishiga yordam bermoqda.

Har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyotining o'z tizimini tanlash, o'z tabiiy resurslari va boyliklariga egalik qilish, foydalanish va ularni ishlatishdek ajralmas huquqini ta'minlashga yordam berish bilan bog'liq xizmat jihatlari BMT ning faoliyatida muhim rol o'ynaydi. BMT ana shu prinsipial yo'nalishni amalga oshirish uchun mamlakatlarning resurslar bilan bog'liq imkoniyatlari shakllantirilishiga va qo'llanilishiga, barcha mavjud resurslarning to'liq safarbar etilishiga va maqsadga muvofiq foydalanilishiga kafolat beruvchi qonunlarning tahliliy va me'yoriy asoslarini ishlab chiqmoqda. BMT ning axborot dasturlari va tavsiyalari asosida bir nechta mamlakatlarga qarashli tabiiy resurslardan serunum foydalanilishiga erishish uchun davlatlar o'rtasida ahdlashuvlar va maslahatlashuvlar o'tkazilmoqda, millatlararo korporatsiyalarning faoliyati qabul qilingan me'yorlar va qarorlarga zid chiqmasligi, mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, ularning milliy manfaatlariga muvofiq bo'lishi uchun millatlararo korporatsiyalarning faoliyati boshqarilayapti va nazorat qilinayapti.

BMT faoliyatida sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ilmiy-texnik hamkorligini kengaytirishga yordam berish bilan bog'liq xizmat jabhasi salmoqli o'rin egalaydi. BMTda fan va texnikani rivojlantirishda har bir davlat natijaga erishishi uchun barcha davlatlararo manfaatlar, shu



jumladan ustuvor texnologiya yaratuvchilarining, yetkazib beruvchilarning va ulardan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari tegishli ravishda hisobga olingan ilg'or texnologiyalarni yaratish va keng yoyish sohasida xalqaro ilmiy - texnikaviy hamkorlikni amalga oshirishga qaratilgan tizim asosi shakllantirilmokda. U rivajlanayotgan mamlakatlarga zamonaviy fan va texnika yutuqlari sari yo'l ochib berishga, ilmiy-texnik va texnologiya infrastrukturasi mustahkamlashga va rivojlantirishga, shuningdek, ularning ilg'or ilmiy tadqiqodchilik va texnik-texnologiya sohalaridagi faoliyatiga yordam beradi.

Butun dunyoga istiqbolli iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini ishlab chiqish uchun tahliliy va me'yoriy faoliyatini rivojlantirish sohalarida mamlakatlarning bundan keyingi integratsiyasini ta'minlash borasida BMT amalga oshirayotgan xizmat jihati alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda har haftada BMT da 700-800 ming operatsiya qayd etiladi, mavjud ma'lumotlar axborot bazasini kengaytirish bo'yicha doimiy ish olib borilmokda. Boshqaruv axborotlarining kompleks tizimi (IMIS) ishlab turibdi, u butun dunyoda amalga oshirilayotgan operatsiyalar mexanizmining negizi bo'lib qoldi.

Jahon Investitsiyalarini shakllantirish va amalga oshirish, xalqaro tadbirkorlik sohalarida ularning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liq muammolarni muvofiklashtirish BMT ning muhim vazifasi hisoblanadi. BMT to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining sohasidagi faoliyatini liberallashtirish uchun chinakam zamin yaratilishi jahonning ko'pgina mamlakatlarida bozor munosabatlarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi ochiq investitsiya siyosatini olib borish tamoyillarini qo'llab quvvatlashga yordam bermoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustuvor xizmat vazifalari shakllanishi va amalga oshirilishi BMT doirasida ish olib borayotgan va rivojlanayotgan xalqaro tashkilotlarning faoliyatida bevosita aks etadi.

#### **54.2. BMT ning rivojlantirish dasturi**

Birlashgan Millatlar Tashkilotini rivojlantirish dasturi (BMTRD) 1965 yilda tashkil etilgan bo'lib, hozir ham eng salmoqli va yetakchi xalqaro tashkilotlardan biri hisoblanadi. BMTRD turli davlatlar aholisi barcha qatlamlarining o'z manfaatlariga erishishini ta'minlash bo'yicha hayotiy muhim muammolarni amalda hal etish jarayonlarini rivojlantirishga, ish joylarini tashkil etish, xotin-qizlar ahvolini yaxshilash, yer yuzida qashshoqlikni yengish, ekologiya omillarining ta'sirini inobatga olib, tabiatni

muhofaza qilish vazifalarini hal etish sohalarida ularga yanada kengroq huquqlarning berilishiga yordam ko'rsatmoqda.

BMT rivojlanish dasturi (RD) BMT ning muhim moliyaviy ta'minlovchi organi sifatidagi asosiy maqsadi hayot ta'minoti va inson ravnaqining turg'un jarayonlari faoliyat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bozor munosabatlari tizimiga o'tish uchun haqiqiy iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishda rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berishdan iborat.

**BMTRD o'z ishida quyidagi tamoyillarga amal qiladi:** faoliyatning universalligi - resurslar bilan bog'liq o'z imkoniyatlarini dunyo mamlakatlari aksariyatining har yildagi ko'ngilli badallari evaziga shakllantirish, BMT ga a'zo davlatlarni rivojlantirishning ustuvor dasturlarini moliyaviy ta'minlash sohasidagi muhim qarorlarning bamaslahat ijroiya Kengashi tomonidan qabul qilinishi;

\* faoliyatning g'oyatda keng ko'lamligi – BMTRD dunyodagi 175 dan ziyod mamlakatda va mintaqaviy birlashmalarda o'z vakolatxonalarining juda katta tarmog'iga ega, bu rivojlanish maqsadlarida ko'pgina mamlakatlarning hukumatlari, huquqiy va jismoniy shaxslari bilan hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. BMTRD ning vakillari rezidentlari uning dunyo mamlakatlaridagi bo'limlariga rahbarlik qilishadi, BMT tezkor faoliyatining asosiy muvofiqlashtiruvchilari hisoblanadilar. Mazkur tezkor faoliyat maxsus aniq maqsadga qaratilgan jamg'armalarni boshqarish, tabiiy ofatlar ro'y berganda va favqulodda vaziyatlarda mamlakatlarga yordam berish bo'yicha kuch-qudratlarni muvofiqlashtirish bilan bog'liq;

\* jahon yutuqlarini keng yoyish – dunyo mamlakatlarida, shu jumladan xalqaro va mintaqaviy ilmiy tadqiqot muassasalarida, hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlarda to'plangan ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni rivojlantirishga va foydalanilishiga, mamlakatlarni rivojlantirish davlatlararo va milliy dasturlarining bajarilishini jadallashtirishga yordam berish;

\* faoliyatning ustuvor sohalarini safarbar etish, jamlash va amalga oshirish – har yili 9 milliard AQSh dollariga teng miqdordagi mablag'larni jalb etish, talaygina resurslarni BMT boshqaruvi ostida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan maqsadli va trast jamg'armalari ixtiyoriga berish yo'li bilan istiqbolli muayyan hukumat dasturlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashi.

**BMTRD faoliyatining muhim xizmat jihatlari quyidagi ustuvor yo'nalishlarni moliyaviy ta'minlashni o'z ichiga oladiki, ularni amalga oshirish jarayonida ma'lumvaqt ichida mamlakatlarda ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik sohalarda sezilarli natijalarga erishiladi:**

- mamlakatlarga faoliyatning birinchi navbatdagi sohalarini rivojlantirishda yordam berish, bunda umumiy keng ko‘lamli muammolar, resurs imkoniyatlari, faoliyatning milliy ustuvor yo‘nalishlari va oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishishning real yo‘llarini aniqlash bilan o‘zaro bog‘liq holda ularni barqaror shakllantirish manfaatlari ko‘zda tutiladi;

- mamlakatlarning hukumatlariga milliy rivojlanish strategiyasi aks etgan aniq maqsadli dasturlarni amalga oshirishda yordam berish;

- qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni jalb etishda ishtirok etish uchun turli manbalardan, shu jumladan, jahon bankidan va boshqa ixtisoslashgan kredit tashkilotlaridan ularning safarbar etilishiga yordam berish;

- mamlakatlarning birgalikdagi faoliyatini takomillashtirish hamda har ikki tomon manfaatlarini ko‘zlab ularning imkoniyatlari va ehtiyojlarini muvofiqlashtirish, hozirgi zamon fani yutuqlari va ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘li bilan mamlakatlar o‘rtasida ilmiy-texnik hamkorlik rivojlanishini ta‘minlash;

- fuqarolik va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish borasida mamlakatlarning mavjud imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash, hukumatga qarashli bo‘lmagan hamda jamoat tashkilotlarining davlat muammolarini hal etishda faol ishtirok etishini ko‘zlab, ana shu tashkilotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash;


- mamlakatlarning faoliyatlarining yangi ko‘rinishlaridan foydalanish bilan bog‘liq real siyosiy qadriyatlarga erishishga doir ustuvor loyihalari bevosita olg‘a siljishida ishtirok etish;

- mintaqaviy iqtisodiy bloklar va birlashmalar o‘rtasida sherikchilik munosabatlari rivojlanishi, jahon taraqqiyotining keng ko‘lamli muammolari bo‘yicha xalqaro bitimlarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- mintaqaviy va milliy darajadagi tinchlik jarayonlari rivojlanishini, ixtiloflar oldi olinishini, jahon hamjamiyati asoslarining takomillashtirilishini qo‘llab-quvvatlash.

Hozirgi vaqtda BMTRD inson kamoloti va uning real ehtiyojlari sohasidagi birinchi darajali muammolarini hal etishda bevosita yordam bermoqda. BMTRD jahondagi 30 dan ziyod mamlakatning aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan rivojlanish budjet strategiyasini moliyaviy ta‘minlamoqda. BMTRD ning tashkiliy faoliyati inson potensialini rivojlantirish imkoniyatlarini tavsiflovchi eng yangi konsepsiyalardan foydalanish sohasidagi jahon hamjamiyatining o‘zgarib borayotgan ehtiyojlariga sezgirlik bilan yondashishda ifodalanadi.

BMTRD da faol amalga oshirilayotgan tashkilot faoliyatini aksimarkazlashtirish jarayonlari bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonlar dastur bo‘linmalarining jahonning turli mamlakatlarida ustuvor dasturlar ishlab chiqilishi uchun vakolatlari va mas’uliyatini yanada kengaytiradi. Bu BMTRD faoliyatining muhim jihatlari muvaffaqiyatli bajarilishiga xizmat qiladi (54.1-chizma).



#### **54.1-chizma. BMTRD faoliyati eng muhim jihatlarning komponentlari.**

BMT ning kapital rivojlanish jamg‘armasi yer yuzi aholisining hayotini ta’minlash infrastrukturasi bilan, kam rivojlangan mamlakatlar aholisining hayotini yaxshilash bilan bog‘liq istiqbolli rivojlanish loyihalarini moliyaviy ta’minlaydi.

Global iqtisodiy jamg‘armaning faoliyati atrof-muhit ekologik barqarorligi darajasini oshirish, sayyoramiz ekologiya tizimini muhofaza qilish borasida hal qiluvchi siljishlarga erishishga, suv toshqinlari, texnologiya chiqindilarini atmosferaga chiqarib tashlanishi, o‘rmonlarning kesilishi, suv havzalarining bulg‘anishi, yerning azon qatlami yemirilishi va hokazolarning salbiy oqibatlarini pasaytirishga qaratilgan.

Milliy tiklanish va rivojlanishda, aholi turmush darajasini oshirishda yordam berish uchun texnik jihatdan tayyorlangan mutaxassislarning rivojlanayotgan mamlakatlarga yo‘nalishini (ko‘ngilli ravishda) ta’minlash Ko‘ngillilar Dasturini amalga oshirish natijalari hisoblanadi.

BMT ning xotin-qizlar manfaati yo‘lida rivojlanish jamg‘armasi xotin-qizlarga yordamni ta’minlash, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish,

ularning muhim davlat qarorlarining qabul qilinishi va amalga oshirilishida ishtirokini kengaytirish maqsadlaridagi istiqbolli rivojlanish loyihalariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni amalga oshiradi va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

Hozirgi vaqtda BMTRD milliy ahamiyatga molik ustuvor davlat yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash uchun dasturiy hamkorlik yondashuvlaridan foydalanmokda, bu yondashuvlar to'g'ridan-to'g'ri mamlakatlarning rivojlanish sohasidagi istiqbolli maqsadlari bilan bog'liq. Bu resurslarni maqsadga muvofiq taqsimlash, BMT ning boshqa xalqaro tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarda yanada yuksak darajaga erishish imkoniyatini ta'minlaydi.

### **54.3. BMT ning savdo-sotiq va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (YuNKTAD)**


YuNKTAD doimiy hukumatlararo organ hamda savdo-sotiq, moliya, texnologiyalar, investitsiyalar va rivojlanish sohalarida BMT Bosh Assambleyasining muvofiqlashtiruvchi markazi hisoblanadi. Tashkilot faoliyatidan ko'zatilgan maqsad – xalqaro iqtisodiy munosabatlarni globallashtirish va adolatli asosda jahon iqtisodiyoti bilan hamkorlik qilish bilan bog'liq vazifalarni hal etishda rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berishdan iborat.

YuNKTAD ana shu maqsadlarga erishish uchun tadqiqotchilik va tahliliy ishlarni olib boradi, tegishli masalalarning hukumatlararo darajada muhokama qilinishini tashkil etadi, texnik hamkorlik kabi sohalarda faoliyat ko'rsatadi. Hozir 188 davlat ana shu tashkilotning a'zosi hisoblanadi. Ko'pgina hukumatlararo va hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar ko'zatuvchi maqomiga ega bo'lib, uning ishida ishtirok etadilar.

Konferensiya – YuNKTAD ning oliy rahbar organi bo'lib, har to'rt yilda vazirlar darajasida tashkilot faoliyatining strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish va ustuvor vazifalarni aniqlash uchun o'tkaziladi. Navbatdagi 10-Konferensiyaning 2000 yilda Tailanda chiqarilishi kelishilgan. Midrandda (Janubiy Afrika) bo'lib o'tgan bundan avvalgi 9-Konferensiya tashkilotning qayta ko'rib chiqilgan mandatini qabul qildi va uning butun tarixi mobaynidagi tub islohotlarni ma'qulladi. Ushbu islohotlar «Yuksalish va rivojlanish maqsadidagi sherikchilik» deb nomlangan yakuniy hujjatda o'z aksini topdi.


Konferensiyalar oralig'ida har yili Savdo-sotiq va rivojlanish bo'yicha kengash chaqiriladi, u ham YuNKTADning rahbar organi hisoblanadi. Konferensiyaning barcha a'zolari uchun ochiq bo'lgan. Kengash tarkibiga hozir 144 mamlakat kiradi. Kengash bir nechta yordamchi organlarga - xizmat

komissiyalariga ega, shuningdek, BMT EKOSOS ining yordamchi organi - KNTR ishini ta'minlash uchun javob beradi. Islohotlardan keyingi YuNKTAD faoliyatini tashkil etishning hukumatlararo tarkibiy tuzilishi 54.2- chizma tasvirlangan.



#### **54.2 - chizma. YuNKTAD faoliyatini tashkil etishning hukumatlararo tarkibiy tuzilishi.**

YuNKTAD ga BMT Bosh kotibining o'rinbosari lavozimiga Konferensiya Bosh kotibi rahbarlik qiladi. Jenevada (Shveysariya) joylashgan va 400 ga yaqin xodimi bo'lgan kotibiyat BMT Kotibiyati tarkibiga kiradi. YuNKTAD Kotibiyatining yangilangan tarkibiy tuzilishi 54.3-chizmada tasvirlangan. Tashkilotning tezkor faoliyatiga ajratiladigan yillik budjet qariyb 50 million dollarni tashkil etadi, bu mablag' BMT budjetidan ajratiladi. Texnik hamkorlik yo'nalishidagi faoliyat donor-mamlakatlar, benefitsiar-mamlakatlar hamda ayrim tashkilotlar tomonidan ajratiladigan budjetdan tashqari resurslardan ta'minlanadigan bo'lib, yiliga taxminan 24 million dollarni tashkil etadi.



### 54.3-chizma.

YuNKTAD BMT dorasida boshqa ko‘pgina tashkilotlar bilan, shu jumladan, DESV (BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy masalalari bo‘yicha Departamenti), BMTRD, shuningdek, jahon banki guruhi, XVF va hokazolar bilan hamkorlik qiladi. Bundan tashqari, BMT ning ishtirokisiz, OESR kabi bir qator tashkilotlar bilan, turli mintaqaviy guruhlar va hokazolar bilan hamkorlik qilinadi.

YuNKTAD tezkor faoliyatini quyidagi asosiy dasturiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiradi:

#### **1. Globalashtirish va rivojlantirish sohasidagi strategiya.**

Mazkur yo‘nalishda quyidagi qator vazifalar hal etiladi:

- jahon iqtisodiyoti tamoyillarini o‘rganish va ularning rivojlanish jarayoniga ta’siriga baho berish;
- mamlakatlar va iqtisodiyot sohaslarining o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib makroiqtisodiy siyosatni tahlil qilish;
- bozor iqtisodiyotiga o‘tishni amalga oshirayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar foydalanishi uchun rivojlanishning muayyan muammolari va shu muammolarni muvaffaqiyatli hal etish tajribalarining tahlili;
- savdo-sotiq va rivojlanish masalalariga doir axborotlarni taqdim etish hamda ma’lumotlar bankini kengaytirish.

## **2. Tovarlar, xizmatlar va xomashyo bilan xalqaro savdo-sotiq.**

- Quyidagilar mazkur yo‘nalishning vazifalari hisoblanadi: ba’zi bir xalqaro bitimlarning savdo-sotiq va rivojlanishga ta’sirini tahlil qilish asosida mamlakatlar eksport imkoniyatlarini kengaytirish;

- xomashyo sektoriga qaram rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarish faoliyati diversifikatsiyasini rag‘batlantirish va savdo-sotiqdagi tavakkalchilikni boshqarishda ularga yordam berish;

- savdo-sotiq, atrof-muhit muammolarining har tomonlama hal etilishida vositachilik qilish va ana shu faoliyatni muvofiqlashtirish yo‘li bilan rivojlantirish;

- raqobat sohasidagi faoliyatning qonuniy va siyosiy asoslarini takomillashtirish borasida mamlakatlarga tahliliy va amaliy yordam berishi.

## **3. Investitsiyalar, texnologiyalar va korxonalarni rivojlantirish.**

Ushbu yo‘nalish quyidagi vazifalarning hal etilishi bilan bog‘liq:

- chet elga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning umumiy tamoyillarini, ularning savdo-sotiqqa, texnologiyalarga va mamlakatlarning rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilish hamda shu ta’sir oqibatlarini o‘rganish;

- mitti, kichik va o‘rtacha korxonalarning rivojlanish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash siyosati va amalga oshirish mexanizmini o‘rganish;

- rivojlanayotgan mamlakatlar texnologik imkoniyatlari va innovatsion faoliyati rivojlanishini rag‘batlantiruvchi siyosatni kuchaytirish hamda ularga texnologiyalarni yetkazib berish;

- mamlakatlar xatti-harakatining ehtimoliy variantlarini aniqlash uchun ilmiy-texnik va innovatsion siyosati bo‘yicha axborotlar sharhini o‘tkazish;

- investitsiyalar muhiti yaxshilanishini rag‘batlantirishda rivojlanayotgan mamlakatlarga madad berish;

- rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlikning rivojlantirilishini va kadrlar tayyorlash innovatsiya dasturlarini qo‘llab-quvvatlash.

## **4. Savdo-sotiqni rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun xizmatlar infrastrukturasi.**

Mazkur yo‘nalishda quyidagi vazifalar hal etilmoqda:

- ▶ texnik hamkorlik dasturlari vositasida savdo-sotiqning qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlovchi xizmatlar sohasi samaradorligini oshirishda rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish;

- ▶ savdo-sotiqning rivojlanishi, soddalashishi va samaradorligining oshishiga xizmat qiluvchi xizmatlar infrastrukturani rivojlantirish bo‘yicha milliy siyosat ishlab chiqishini va huquqiy ta’minlanishini qo‘llab-quvvatlash;



▶ rivojlanayotgan mamlakatlarga BMT ning savdo-sotiq samaradorligi bo'yicha xalqaro anjumani (1994 y) tavsiyalariga muvofiq savdo-sotiqning kengayishiga yordam berish;

▶ tegishli markazlarning global tarmoqlari orqali elektron axborot texnologiyasi qo'lga kiritilishini yengillashtirish yo'li bilan savdo-sotiqning kengayishiga yordam berish;

▶ norasmiy sektor va mitti korxonalarining kredit resurslardan foydalanishini yengillashtiradigan xizmatlarning yangi turlarini rivojlantirishda yordam berish;

▶ katta transport xarajatlari bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etishda rivojlanayotgan, dengizga chiqish yo'li bo'lmagan va orol davlatlarga yordam berish.

## **5. Eng kam rivojlangan, dengizga chiqish yo'llari bo'lmagan va orol davlatlari.**

Mazkur yo'nalish quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog'liq:

◆ eng kam rivojlangan mamlakatlarning muammolari sohasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, ularga savdo-sotiqni rivojlantirishda texnika bilan yordam berish;

◆ xalqaro va ichki shart-sharoitlaridan kelib chiqib, shu mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarini baholash;

◆ mazkur mamlakatlar bo'yicha so'nggi yillarda qabul qilingan qator xalqaro dasturlarni amalga oshirishda vositachilik qilish;

◆ YuNKTAD ning eng kam rivojlangan mamlakatlar bilan ishining asosiy yo'nalishlari bo'yicha yangi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yordam berishga mo'ljallangan Kennet Dadzi Maqsadli jamg'armasini boshqarish.

Yuqorida qayd etib o'tilgan dasturiy yo'nalishlardan tashqari texnik hamkorlik sohasida ham faoliyat olib boradi.

### **Ana shu faoliyat quyidagilarga yo'naltirilgan:**

◆ rivojlanayotgan mamlakatlarning odam va institutsional imkoniyatlarini mustahkamlash, shu yo'l bilan ularning rivojlanish shart-sharoitlarini yaxshilash;

◆ mazkur mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida, shu jumladan xalqaro savdo-sotiqda, moliyaviy va investitsiyalar faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;

◆ rivojlanayotgan mamlakatlarga ularning xalqaro muammolarini hal etishda yordam berish;

◆ mazkur mamlakatlarning xalqaro savdo-sotiq, moliya va investitsiya masalalariga doir mo'zokaralarda ishtirok etish imkoniyatlarini mustahkamlash.

## **Texnika sohasidagi hamkorlikni moliyaviy ta'minlash quyidagilarning mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi:**

- ✘ BMTRD;
- ✘ Yevropa komissiyasi;
- ✘ Jahon banki guruhi;
- ✘ Amerika rivojlanish banki;
- ✘ rivojlanishni moliyaviy ta'minlovchi jamg'armalar;
- ✘ ayrim donor-mamlakatlar;
- ✘ benefitsiar mamlakatlar, ya'ni eng rivojlangan mamlakatlar.

Hozirgi vaqtda asosiy donor-mamlakatlar quyidagilar: Angliya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Finlandiya, Fransiya, GFR, Shveysariya, Shvetsiya, Yaponiya.

Hozirgi vaqtda texnik hamkorlik yo'nalishi bo'yicha 100 dan ziyod mamlakatda 300 dan ko'p loyiha amalga oshirilmoqda, ularga bir yillik harajatlar 24 million dollarni tashkil etadi. MTS, YuNKTAD, VTOning Afrikaga texnik yordam ko'rsatish bo'yicha Kompleks dasturi ana shunday loyihalarga misol bo'la oladi. Mazkur dastur Afrika mamlakatlarining xalqaro savdo-sotiqda yanada faol ishtirok etishi hisobiga ularning rivojlanish istiqbollari yaxshilashga, raqobatbardoshligini oshirishga yordam berishga da'vat etilgan. Shu o'rinda asosiy e'tibor odam resurslarini va institutsional imkoniyatlarni rivojlantirishga hamda eksportga mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini mustahkamlashga qaratiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, texnik hamkorlik yo'nalishi bo'yicha resurslarning eng katta qismi Afrika mintaqasidagi loyihalarga (33 foiz) hamda mintaqalararo loyihalarga (32 foiz) sarflanmoqda. Yevropa mintaqasidagi harajatlar ana shu resurslar yalpi hajmining atigi 12 foizini tashkil etadi.

Savdo-sotiq, rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzlari, eng kam rivojlangan va dengizga chiqish yo'li bo'lmagan davlatlar hamda tranzit mamlakatlarning muammolari, transport va hokazolar bo'yicha to'zilgan ko'p sonli xalqaro bitimlar YuNKTAD ning so'nggi 30 yil mobaynidagi faoliyati natijalaridir. Bundan tashqari mazkur tashkilot har yili o'z faoliyatining turli jabhalari bo'yicha tahliliy materiallarni, ekspertlarning baholarini, tavsiyanomalarni o'z ichiga olgan obro'li maqolalarni, lug'atlarni va boshqa ma'lumotlarni nashr etadi.

### **Qisqacha xulosalar:**

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning asosiy vazifalari bu xalqaro davlatlararo tashqi savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishining saqlanib turishidir. Dastavval ushbu munosabatlar mamlakatlararo, tor mintaqaviy

asosda qurilgan edi. Hozir keng ko‘lam kasb etishi ro‘y bermoqda. Umuman hamma xalqaro tashkilotlar BMT doirasida o‘z faoliyatlarini olib boradi. BMT esa o‘z faoliyatini va siyosiy rivojlanish sohalarida amalga oshiradi, davlatlararo va maqbul muhitning shakllanishiga yordam beradi. BMT ga dunyodagi 225 davlatdan 185 tasi suveren davlatlar a‘zodir.

Bu yerda asosan BMT ning rivojlanish dasturi (BMTRD) rol o‘ynaydi. Bu BMT ning muhim moliyaviy ta‘minoti va inson ravnaqining turg‘un jarayonlari faoliyat ko‘rsatish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bozor munosabatlari tizimiga o‘tish uchun haqiqiy iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishda rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berishdan iborat.

### **Asosiy tushunchalar:**

**Birlashgan Millatlar Tashkiloti:** BMT 1945 yil tashkil etilgan bo‘lib, 185 mustaqil davlatlarni birlashtiruvchi, barcha jabhalarni qamrab olgan noyob xalqaro tashkilot hisoblanadi.

**BMT ning sanoati bo‘yicha rivojlanish tashkiloti (YuNIDO)** – bu tashkilot 1966 yil BMT ning avtanom organi sifatida rivojlanayotgan davlatlarning sanoatini yuksalishiga yordam berish uchun yaratilgan.

**Butun jahon savdo tashkiloti (VTO)** – 1966 yil tashkil etilgan, bu xalqaro savdodagi tarif va savdoni modifikatsiya (GATT) qilish uchun yaratilgan.

**BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (YeIK)** – 1947 yil tashkil etilgan. Buning asosiy maqsadi, bunga a‘zo davlatlarga yaxshi qulay sharoit tug‘dirish. Siyosiy va amaliy ishlarda jamoa bo‘lib harakat qilish, bir-birini tushunishdan iborat.

### **Mavzuning namunali savollari:**

1. BMT va uning iqtisodiy tashkilotlari?
2. Jahon iqtisodiy tashkilotlari va ularning tashkiliy ishlari?

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Jahon iqtisodiy tashkilotlarining vazifalari va o‘rnashgan joyi?
2. BMT va uning iqtisodiy tashkilotlarining jahon mamlakatlarining milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga ta‘siri?

### **Mustaqil ta‘lim uchun savollar:**

1. Jahon iqtisodiy tashkilotlarining mohiyati va xususiyati.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning asosiy vazifasi.
3. BMT ning Yevro iqtisodiy komissiyasi.

## **55 BOB. XALQARO IQTISODIY MA'LUMOT (XIM) VA TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT (TIF) GA DOIR IQTISODIY AXBOROT**

### **55.1. Iqtisodiy axborotning asosiy turlari**

XIA va TIF sohasida ham nazariy, ham amaliy yoʻsindagi tadqiqotlarni olib borish, jahon iqtisodiyotidagi asosiy jarayonlarni va tamoyillarni aniqlash, turli mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiy ahvolini tahlil qilish uchun tegishli axborotlardan foydalanish kerak boʻladi. Shu munosabat bilan axborot yigʻish, uni saralash va tasniflash mazkur ishda muhim oʻrinlardan birini egallaydi.

XIA muammolarini toʻlaqonli tahlil etish va vaziyatni oldindan bashorat qilish uchun, tabiiyki, nafaqat sof iqtisodiy shu bilan bir qatorda, xoh bevosita, xoh biror vosita orqali taʼsir oʻtkazuvchi boshqa omillarni: geografik shart-sharoitlarni, siyosiy va qonun chiqaruvchi muhitni, ijtimoiy-madaniy rivojlanish xususiyatlarini va hokazolarni ham inobatga olish kerak boʻladi.

U yoki bu muammoni yoxud vaziyatni tahlil qilishda foydalaniladigan axborotning asosiy turi – bu iqtisodiy axborot hisoblanadi. Oʻz navbatida bu axborot uch asosiy turga statistik, buxgalterlik va tezkor axborotlarga boʻlinadi.

Statistika – milliy xoʻjalikning ahvoli va rivojlanishining umumiy manzarasini koʻz oldingizga keltiradi, mamlakatda yoki uning maʼlum bir hududida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritadi. Ayni vaqtda ommaviy voqea-hodisalarni koʻzatish va tahlil qilishning maxsus usullaridan foydalaniladi.

Buxgalterlik hisobotlari – korxonalar va tashkilotlarning mablagʻlarini ularning ahvoli, joylashtirilishi va kelib chiqish manbaalari bilan bogʻliq holda aks ettirishning oʻziga xos bir usulidir. Ular korxonaning rivojlanish jarayonini aks ettiradi va xoʻjalik-moliyaviy faoliyatini tahlil qilishda asos boʻlib xizmat qiladi.

Tezkor axborot – bu kundalik faoliyat uchun, tezkor qarorlarni qabul qilish uchun zarur boʻlgan maʼlumotlardir. Rasmiy statistika koʻrsatkichlari ham, shuningdek, eʼlon qilinmagan koʻzatuvi, shaxsiy tajriba, turli sinovlarning natijasi boʻlmish maʼlumotlar ham tezkor axborot vazifasini oʻtashi mumkin.

Tobora global xarakter kasb etib borayotgan Xalqaro iqtisodiy aloqalar sohasidagi jarayonlarni tatbiq etish birinchi navbatda makroiqtisodiy koʻrsatkichlardan foydalana bilish koʻnikmasini talab qiladi. Shuning uchun statistika asosiy axborot manbai boʻlib xizmat qiladi. Bunda qandaydir voqea-hodisa yoki jarayon ustida olib boriladigan biron-bir statistik tadqiqotlar natijasida olingan tayyor rasmiy statistika maʼlumotlaridan foydalaniladi. Har

qanday statistik tadqiqot esa o'z tabiatiga, o'z mazmun-mohiyatiga ega bo'lgan ommaviy voqea-hodisalar bilan ish olib boradi. Statistika sifat tahliliga asoslangani holda o'zini aniq manbalar bilan boyitib boradi. O'z navbatida ana shu manbalar nazariy tahlil qilish uchun material bo'lib xizmat qiladi.

Statistika axborotlari ham xalqaro, ham milliy statistika tashkilotlari tomonidan, shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar va tashkilotlar tomonidan to'planadi va maxsus statistika to'plamlarida e'lon qilib boriladi.

### **55.2. Xalqaro statistikaning tashkil etilishi**

Xalqaro statistikani tashkil etish jarayonini 1853 yilda birgalikda olib boriladigan ishlarning yagona usullarini, bir xil qonun-qoidalarini va dasturlarini ilmiy asosda ishlab chiqish maqsadida Xalqaro statistika kongressini tashkil etishni taklif qilgan Yevropa statistikachilari boshlab berishdi. Ana shu xalqaro anjumanni rivojlantirish uchun Xalqaro statistika institutini - XSI ni ta'sis etishga qaror qilindi. Bu institut 1885 yilda tashkil etildi. Nizomga muvofiq dunyoning turli mamlakatlarida statistika usullarini rivojlantirish va takomillashtirish XSIning asosiy vazifasi hisoblanadi. Aslini olganda XSI statistika ko'rsatkichlarini hisoblashning bir xil usullarini ishlab chiqish, statistikaning turli sohalaridagi ana shunday ko'rsatkichlarning hamma uchun qulay ta'rifini yaratish yo'li bilan statistika usullarini rivojlantirish va takomillashtirish, statistika va uning tashkilotlar ilmiy hamda amaliy xodimlari o'rtasida fikr almashinuvni rivojlantirish kursini o'tkazadi.

XSI mustaqil xalqaro tashkilot hisoblanadi, BMTning ixtisoslashgan muassasalari tizimiga kirmagani holda BMTning EKOSOS va YuNYeSKO tashkilotlari ho'zurida maslahat berish maqomiga ega, BMT statistika komissiyasining a'zosi bo'lmasa ham uning ishida muntazam ishtirok etadi. XSIning amaliy faoliyati uning ijroiya organi – Doimiy byuro tomonidan muvofiqlashtiriladi. Mazkur byuro hozir Voorburg (Gollandiya) shahrida joylashgan.

Xalqaro statistikaning hozirgi zamon mexanizmida o'ziga xos mehnat taqsimoti ko'zatiladi: bir xil statistika tashkilotlari statistika uslubiyatini, ko'zatuvi dasturlarini ishlab chiqaradi, boshqalari statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va e'lon qilish ishlarini bevosita amalga oshiradi. Birinchi toifadagi tashkilotlarga ilgari o'tkazib kelingan xalqaro statistika kongresslari (XSK) va hozir faoliyat ko'rsatayotgan Xalqaro statistika instituti kiradi. Ikkinchi toifaga esa BMTning statistika apparati va uning ixtisoslashgan muassasalari, boshqa ko'p sonli xalqaro tashkilotlarning statistika xizmatlari kiradi.

Xalqaro statistika sohasidagi asosiy amaliy faoliyat BMTning ixtisoslashgan xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Ayni vaqtda ish hajmining eng ko‘p qismini BMTning Statistika komissiyasi va shu Komissiyaning qobiliyati vazifasini bajaruvchi BMT Kotibiyatining statistika byurosi amalga oshiradi.

BMTning Statistika komissiyasi (u 1946 yilda tashkil etilgan) BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining (EKOSOSning) xizmat ko‘lami keng komissiyalaridan biri hisoblanadi, u BMTning statistika sohasidagi barcha bo‘linmalari faoliyatini boshqaradi va nazorat qiladi. Hozir Statistika komissiyasi o‘z faoliyatini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirmoqda:

- statistika uslubiyatini ishlab chiqish borasidagi ayrim mamlakatlarning tajribalarini tahlil qilish;

- ma‘lumotlar qiyosiylikini yaxshilash va Xalqaro standartlarni ishlab chiqarish;

- xalqaro statistikada EHMni qo‘llash, xalqaro axborotlarni to‘plash va qayta ishlatishning integratsiyalashgan tizimini rivojlantirish;

- milliy statistikaning rivojlantirishda rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berishga doir tadbirlarni ishlab chiqish.

Axborotlarning, BMT tashkilotlari va muassasalari tomonidan xalqaro statistika axborotlari qayta ishlanishi va tarqatilishining yagona tizimiga erishish Statistika komissiyasi faoliyatining pirovard maqsadi hisoblanadi.

BMT kotibiyati Statistika byurosining xizmat vazifasi doirasiga quyidagilar kiradi:

- statistika komissiyasining sessiyalari uchun barcha tadbirlarni tayyorlash;

- uslubiyatga doir ma‘ro‘zalarni tayyorlash va yakuniy qayta ishlash, mamlakatlar va turli tashkilotlarning statistika masalalariga oid xulosalarini qayta ishlash, BMTga a‘zo bo‘lgan davlatlar va ixtisoslashgan muassasalardan olinadigan statistika ma‘lumotlarini yig‘ish, tahlil etish va e‘lon qilish;

- qo‘shimcha tadqiqotlar va hisob-kitoblarni o‘tkazish yo‘li bilan ma‘lumotlar qiyosiylikini yaxshilash;

- BMTning, ixtisoslashgan muassasalarning, milliy statistika va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning statistika borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- umuman statistikaning, birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlar statistika xizmatining rivojlanishi va yaxshilanishiga yordam berish, Statistika komissiyasining sessiyalariga zarur hujjatlarni tayyorlash va ularga xizmat ko‘rsatish.

Statistika byurosi tarkibida oltita bo‘lim bo‘lib, ularning har biri ma‘lum doiradagi axborot, xizmat va texnik vazifalarni hal etadi, tegishli raqamlar yoki uslubiyatga oid maqolalarni tayyorlaydi. Demografiya statistikasi va iqtisodiy statistikaning boshqa barcha tarmoqlari BMTning markaziy apparati ixtiyorida, qishloq xo‘jaligi va mehnat statistikasi bundan mustasno, u ixtisoslashgan muassasalar vakolatiga kiradi. Ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni Statistika komissiyasi va Statistika byurosi amalga oshiradi.

### **55.3. Asosiy xalqaro iqtisodiy tasniflar**

XIX asrning ikkinchi yarmida jahon xo‘jaligining vujudga kelishi nihoyasiga yetdi. Bu turli mamlakatlarning e‘lon qilinayotgan statistika ma‘lumotlari bir xil tushunilishini, ko‘rsatkichlarni hisoblashning ma‘lum Xalqaro standart usullari va yagona tasniflari ishlab chiqilishini talab qildi.

Xalqaro iqtisodiy tasniflar statistika ma‘lumotlarini muvofiqlashtirish jarayonida alohida rol o‘ynaydi. Bu turli mamlakatlar bilan kelishgan umumiy uslubiyat tamoyillari asosida iqtisodiyot rivojlanishini ta‘riflovchi statistika axborotlarini sistemalashtirish zarurati bilan bog‘liq. Bunday tizimlar standart tasniflar hamda xalqaro qiyosiylik nomenklaturasi va statistik ma‘lumotlar tahlili tarzida Xalqaro va hukumatlararo tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Jahon hamjamiyati tasniflari (masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) bir-biridan farqlanadi.

Jumladan, hozir tovarlar va xizmatlarni tasniflash uchun, iqtisodiy faoliyat turlarini ta‘riflash uchun quyidagi tasnif tizimlari (nomenklaturalar) qo‘llaniladi:

- Iqtisodiy faoliyat barcha turlarining Xalqaro standart tarmoq tasnifi (XSTT);
- BMTning Standart Xalqaro savdo-sotiq tasnifi (SXST);
- Tovarlarni tasniflash va kodlashning Garmonlashtirilgan tizimi (GT);
- Asosiy mahsulotlar klassifikatori (AMK). Endi ularni qisqacha ko‘rib chiqamiz.

XSTT – iqtisodiy faoliyat barcha turlarining Xalqaro standart tarmok tasnifi. Bu tizim, ayniqsa, keng qo‘llaniladi. U 1948 yilda ishlab chiqilgan bo‘lib, 1968 va 1989 yillarda qaytadan ko‘rib chiqilgan (hozirgi vaqtda 3-qaytadan ko‘rib chiqilgan variantga amal qilmoqda). BMTning Statistika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan. XSTT ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini, ya‘ni ishlab chiqarish birliklari doirasida iqtisodiy faoliyat turlarining birlashtirish usullarini va shu turlarning ular o‘rtasida mamlakatlarda taqsimlanishini aks ettiradi.

Asosiy statistika birliklari – muassasalar, korxonalar; qo‘shimcha birliklar - faoliyatning umumiy turi bilan birlashadi; yordamchi va texnik birliklar. XSTTda xo‘jalik faoliyatining barcha turlari to‘qqiz bo‘limga birlashgan, o‘z navbatida ular kichik bo‘limlarni, guruhlarni va kichik guruhlarni o‘z ichiga oladi. XSTTning barcha darajalarini oladigan bo‘lsak, uning 159 alohida toifalari bor.

SXST – BMTning Standart Xalqaro savdo-sotiq tasnifi. Mazkur tizim sanoati rivojlangan aksariyat mamlakatlarning ko‘pgina milliy tashqi savdo tasniflari uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda. SXST bazasida ko‘pgina mamlakatlar indekslarini hisoblab chiqishmokka.

SXST tuzilishining asosida tovarlarni qayta ishlash darajasi yotadi. Ana shu xususiyatlardan kelib chiqib, SXSTda barcha tovarlar qismlar, bo‘limlar, guruhlar, kichik guruhlarga tasniflanadi. Bu muayyan darajada turli mamlakatlar standart ko‘rsatkichlarining ma‘lum qiyosiylikini ta‘minlaydi va xalqaro savdo-sotiqdagi tovarlar tuzilishi tahlilini o‘tkazish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda SXSTning 3-qayta ko‘rib chiqilgan, 1985 yilda BMTning Statistika komisiyasi tomonidan ma‘qullangan varianti amal qilmoqda. SXST ichida 10 ta qism, 67 ta bo‘lim, 261 guruh, 1033 kichik guruh bo‘lib, ana shulardan 720 tasi o‘z navbatida 2805 pozitsiyaga bo‘linadi. Tashqi savdo-sotiq statistikasini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun SXST pozitsiyalari qaytadan yiriklashtirilgan toifalarga guruhlashtirilgan, masalan, xomashyo va ishlov berilgan oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar, mashinalar, transport jihozlari va hokazolar.

GT – tovarlarni tavsiflash va kodlashning Garmonlashtirilgan tizimi. Garmonlashtirilgan tizim nomenklaturasi umuman, xalqaro amaliyotda Bryussel bojxona nomenklaturasi nomi bilan ma‘lum bo‘lgan, Bojxonalar hamkorligi kengashining avvalgi nomenklaturasiga va BMTning tashqi savdo tovarlari klassifikatoriga asoslanadi. Bundan tashqari, yangi xalqaro tovarlar nomenklaturasini tashkil etishda yana 12 xil xalqaro va milliy tasnif tizimlaridan foydalanilgan. Bu tasnifning universal tizimini vujudga keltirishga bo‘lgan urinishdir.

Tovarlarini tavsiflash va kodlashning garmonlashtirilgan tizimi 1983 yilda bojxonalar hamkorligi kengashi tomonidan qabul qilingan bo‘lib, 1988 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan.

Garmonlashtirilgan tizim – ko‘p maqsadli tovarlar nomenklaturasi bo‘lib, bojxona organlarining, statistika xizmatlarining, tijorat faoliyati talablariga, savdo-sotiq to‘g‘risidagi milliy statistika ma‘lumotlarining qiyosiylikini ta‘minlashga va turli davlatlarning Tashqi savdo va ishlab chiqarish statistikasini yanada jips qilib bir-biri bilan bog‘lash talablariga



javob beradi. Kod bilan belgilashning tuzilishi – oltinchi; yettinchi va sakkizinchi razryadlardan foydalanish mumkin.

GT tasnifning olti bosqichi mavjud: qismlari 21 ta, guruhlari 96 ta, kichik pozitsiyalari 3553 ta, yordamchi pozitsiyalari 5019 ta.

Mazkur tovar nomenklaturasining tuzilishi uchun tovarlarning turli belgilari majmui: kelib chiqishi, tovar yasalgan materialning ko‘rinishi, tovarning qanday madsadga mo‘ljallanganligi, kimyoviy tarkibi asos qilib olingan. Tovarlarning guruhlari ularga ishlov berish tartibi: xomashyo - yarim fabrikat - tayyor mahsulot tarzida shakllanadi. Bu GTdan bojxona tariflarida muvaffaqiyatli foydalanish imkonini beradi, buning natijasida garmonlashtirilgan tizimdan 150 dan ziyod mamlakat foydalanmoqda. 1991 yilning 1 yanvaridan u sobiq SSSRda ham qabul qilingan edi, Rossiyada 1994 yildan beri amal qiladi. GT Rossiya Federatsiyasi tashqi savdo statistikasining asosini tashkil etadi.

Asosiy mahsulotlar klassifikatori – AMK. U XSTT bilan bog‘liq va iqtisodiy statistikaning kichik tarmoqlarini kelishtirish hamda milliy hisoblarning iqtisodiy statistikasini muvofiqlashtirish vositasi sifatidagi rolini oshirish uchun mo‘ljallangan. AMK ichki yoki tashqi bozorda operatsiyalar predmetiga aylanishi mumkin bo‘lgan yoxud zaxira sifatida jamlab boriladigan va statistika hisob-kitoblarining barcha turlari bilan qamrab olinadigan mahsulotlarning hamma toifalarini o‘z ichiga oladi. Klassifikator transportda tashiladigan va transportda tashilmaydigan tovarlar, xizmatlar, moddiy va moddiy bo‘lmagan aktivlarni o‘z ichiga oladi.

#### **55.4. XI Aga doir axborot manbalari**

Iqtisodiy axborotlar milliy va Xalqaro statistika tashkilotlari tomonidan nashr etiladigan va davriyligi har xil bo‘lgan nashrlarda, byulletenlarda, jurnallarda va hokazolarda bo‘ladi.

XSI nashrlari. “Xalqaro statistika institutining byulleteni” (1886 yildan beri chiqadi) uning asosiy nashri hisoblanadi, u 1933 yildan boshlab har chorakda bir marta chop etiladi. Bundan tashqari XSI 1933 yilga qadar “Xalqaro statistika institut revyusi”ni nashr etib keldi, keyinchalik u “Xalqaro statistika revyusi” deb nomlandi. Yana XSI ayrim muammolar bo‘yicha ma‘ro‘zalarni chop etishga tayyorlaydi, “XSI yangiliklari” jurnalini chiqaradi. 1994 yildan boshlab XSI Fransiyaning Iqtisodiy tadqiqotlar va statistika milliy instituti hamda qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda Xalqaro statistikaning yillik sharhlarini chop eta boshladi.

Hozirgi Statistika atamalari lug‘atining yangi nashri (14 tilda, shu jumladan rus tilida) tayyorlanmoqda.

BMTning statistikaga oid nashrlari. Umumiy iqtisodiy mazmundagi nashrlar.

Yillik lug‘at 1949 yildan beri ingliz va fransuz tillarida chop etib kelinadi. Unda aholi, ishchi kuchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, sanoatning tog‘ qazish va kon boyitish tarmoqlari, qurilish, yoqilg‘i-energetika tarmog‘i, ichki va tashqi savdo-sotiq, transport, aloqa, iste‘mol, to‘lov balansi, ish haqi, sog‘liqni saqlash, uy-joy majmui, maorif, fan, madaniyatga oid iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishdagi ko‘plab ma‘lumotlar e‘lon qilinadi.

Oliy statistika byulleteni. Oylik (18 oylik) ma‘lumotlar bilan bir qatorda byulletenda 7 yoki 8 yilga oid chorak va yillik ma‘lumotlar ham chop etiladi. Byulleten 1946 yildan beri ingliz va fransuz tillarida chiqadi. 200 dan ziyod mamlakatlar va mintaqalarning milliy xo‘jaliklari va ko‘pgina tarmoqlariga doir ma‘lumotlar bor. Unda aholi nufo‘zi bilan bog‘liq vaziyat, davlatlarning mehnat sohasidagi siyosati, sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi, ichki va tashqi savdo-sotiq; (dollarda va milliy valyutalarda), transportni rivojlantirish, ijtimoiy ahvol haqidagi va hokazo ma‘lumotlar chop etiladi.

Milliy hisob-kitoblarga oid yillik statistika lug‘ati 1953 yildan beri ingliz tilida chop etiladi. Bir necha jild bo‘lib, uning dastlabki jildlaridan birida dunyodagi 200dan ziyod mamlakat va mintaqalarning milliy valyutalari haqidagi ma‘lumotlar keltiriladi. Mamlakatlarga oid ma‘lumotlar quyidagi ko‘rsatkichlar: yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotdan, milliy daromaddan foydalanish; yalpi milliy mahsulotning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi; ichki ishlab chiqarishdan olingan daromadning omillar bo‘yicha taqsimlanishi; resurslar hamda tovarlar va xizmatlardan foydalanish; davlat apparatini saqlash uchun sarf-xarajatlar; xususiy xarajatlar; asosiy kapitalni shakllantirish; joriy operatsiyalar (daromad va xarajatlar) hamda jamiyatlar, institutlar, davlat muassasalari va xususiy xo‘jaliklar bilan operatsiyalar, xorijdagi operatsiyalar kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha BMTning hozir amalda bo‘lgan Milliy hisob-kitoblar tizimiga (CHC) to‘g‘ri keladi.

Ixtisoslashgan tarzdagi ayrim nashrlar. Yillik demografik to‘plam 1948 yildan beri ingliz va fransuz tillarida nashr etiladi. Unda 200 dan ziyod mamlakatlar va mintaqalarning hududi, aholisining zichligi, uning tarkibi, o‘rtacha o‘shish sur‘atlari, o‘lim soni, umrning uzoqligi, nikohlar, ajralishlar, migratsiya va hokazolar to‘g‘risida ma‘lumotlar berib boriladi. Birinchi jildida (“Mamlakatlar bo‘yicha savdo-sotiq”) jahon savdo- sotig‘ining mintaqalar, mamlakatlar va hududdar bo‘yicha taqsimlanishiga doir batafsil ma‘lumotlar berilgan. Qiymat, o‘rtacha narx-navo va jismoniy hajm indeksleri keltirilgan, jahon savdo-sotig‘i rivojlanish tamoyillari, aholi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish tamoyillariga qiyosiy ravishda yoritilgan.

Ikkinchi jildda (“Tovarlar bo‘yicha savdo-sotiq”) BMT SMTKsining tovar guruhlari darajasida mamlakatlarning importi va eksporti to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlarni beruvchi maxsus jadvallar hamda tovarlar va mamlakatlar bo‘yicha xalqaro savdo-sotiq to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan. Ayni vaqtda tovarlar so‘nggi yildagi SMTKning tovar guruhlari bo‘yicha tavsiflangan.

Statistik tashqi savdo tovar lug‘ati 1962 yildan beri alohida broshyuralar holida nashr etiladi. Broshyuralarning har birida bir yoki bir nechta mamlakatlarga doir ma‘lumotlar bo‘ladi. Ma‘lumotlar klassifikatsion chizma va BMT SMTKsining tovar guruhlari bo‘yicha tadrijiy (chorak, yarim yillik, 9 oylik, yillik) yakun holida keltiriladi. Qiymat ko‘rsatkichlar AQSh dollarida, tovarlar miqdori – metrik o‘lchov birligida berilgan.

Jahon savdo-sotig‘i 1963 yildan beri ingliz tilida “Walker end Kompani” firmasi tomonidan, BMT Statistika bo‘limi bilan to‘zilgan shartnomaga binoan besh jild holida chop etib kelinadi. Ularda mamlakatning savdo-sotig‘iga oid ma‘lumotlar keltirilgan. Jahon savdo- sotig‘ining qariyb 4/5 qismi ana shu davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Jahonning barcha mamlakatlari bo‘yicha qiymat ko‘rsatkichlari AQSh dollarida, miqdori esa -metrik o‘lchov birligida hisoblangan.

EKOSOS doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi mintaqaviy komissiyalar (YeEQ ESKATO, EKLAQ EKA, EKZA) mintaqalardagi mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli, ularning mavqeiga doir batafsil ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan o‘z statistik nashrlarini chop etadilar.

BMT tizimiga qator ixtisoslashgan muassasalar kiradi. Ularning statistik nashrlari mamlakatlar iqtisodiy ahvolini tahlil qilishda katta qiziqish uyg‘otishi mumkin. Birinchi navbatda XVF, FAO, MOT va hokazolar shular jumlasidandir.

Sanab o‘tilgan xizmatlardan tashqari YuNKTAD va YuNIDO BMT Kotibiyatida katta statistika ishlarini olib boradilar. Jumladan, YuNKTAD xalqaro savdo-sotiq va rivojlanish bo‘yicha statistik lug‘at nashr etadi, unda jahon savdo-sotig‘i tahlili va muammolariga doir ma‘lumotlar chop etiladi. Lug‘at, odatda, har 4 yilda bir marta, ingliz va fransuz tillarida chiqariladi.

BMT tizimidan tashqarida faoliyat ko‘rsatuvchi xalqaro tashkilotlar ham statistik axborotlarni to‘plash va tarqatish bilan shug‘ullanadilar. Ana shunday tashkilotlardan eng yiriklari OESR va YeH hisoblanadi. Ulardan tashqari u yoki bu darajada statistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi juda ko‘p turli-tuman xalqaro siyosiy, kasaba uyushmalari, ilmiy, texnik, sport va boshqa tashkilotlar ham mavjud.

Va nihoyat, statistik axborotlarning katta guruhi milliy, shu jumladan, hukumatga qarashli va hukumatga qarashli bo'lmagan xizmatlarning statistik hamda tahliliy nashrlarida mavjud bo'ladi. Misol tariqasida ayrim milliy statistik nashrlarni keltiramiz: AQShda – Board of Governors of the Federal Reserve System va Survey of Current Business, Avstraliyada – Digest of current Economic Statistics, Germaniyada – Monthly Report.

Bundan tashqari, XIA va TSF masalalari bo'yicha axborotlarni to'playotganda, rasmiy manbalarni diqqat bilan o'rganib va tahlil qilibgina qolmay, masalan, hukumatning iqtisodiy siyosatiga oppozitsiya nuqtai nazarini ham o'rganish, ya'ni barcha muqobil nuqtai nazarlarni inobatga olish zarur.

### **55.5. O'zbekistonning xalqaro hisob-kitob va statistika tizimiga o'tishi**

Ma'muriy-taqsimot tizimi hukmronlik qilgan davrda shakllangan mamlakatimiz statistikasi jahonning aksariyat mamlakatlaridagidan mutlaqo farq qiluvchi metodologiya asoslariga tayangan edi. Iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi hisob-kitoblarning yangi uslubiyati va tizimiga o'tilishini qat'iyat bilan talab qila boshlaydi. Ko'rsatkichlar va statistik tahlilning shunday tizimini shakllantirish zarur bo'lib qoldiki, u iqtisodiyotning ahvoli va rivojlanishini har xil aks ettirishi kerak edi. Ayni vaqtda O'zbekiston Markaziy Osiyodagi davlat sifatida Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro aloqalarni amalga oshiribgina qolmay, boshqa qit'alardagi, dunyoning boshqa mintaqalaridagi o'z iqtisodiy manfaatlarini ham nazarda tutishi lozim. Bu demak, O'zbekistan ham Jahon hamjamiyati, ham Osiyo mamlakatlari uyushmalari bazasidan foydalanishi lozim. Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi klassifikatorlarining talaygina qismi to'g'ridan-to'g'ri amaldagi xalqaro klassifikatsiyalarga asoslanadi. O'zbekistonning hisob-kitob va statistikaning xalqaro amaliyotda qabul qilingan tizimiga o'tishi 1992 yildan amalga oshirila boshlandi.

Makro iqtisodiyot sohasida xalq xo'jaligi balansidan (XXB) milliy hisob-kitoblar tizimiga (MHT) o'tish, ya'ni yalpi jamoat mahsuloti (YaJM) hisob-kitobidan (bunga xizmatlarning aksariyati kirmay qoladi) MHTga o'tish (bunda yalpi mahsulot ishlab chiqarish asosiy ko'rsatkich hisoblanadi) asosiy vazifa bo'lib qoldi. Tashqi savdo-sotiq sohasida Tashqi savdo-sotiqning yagona tovar nomenklaturasidan (TSSYaTN) Tovarlarni tavsiflash va kodlashning garmonlashgan tizimiga (GT); ishlab chikarishda – Xalq xo'jaligi tarmoqlarining Umumittifoq klassifikatoridan Sanoat klassifikatsiyasining Xalqaro standartiga: moliya sohasida – XVFnning davlat moliya statistikasiga o'tish muhim vazifa bo'lib qoldi.

Davlat o'tish dasturini bajarish jarayonida talaygina ishlar qilindi. Jumladan tashkil etilgan Axborotlarni tavsiflash va kodlashning yagona tizimi (TKYaT) bozor munosabatlariga o'tish va xalqaro hamjamiyatga integratsiya qilish jarayonlarini rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi. TKYaT moliyaviy-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy-statistik va ijtimoiy ko'rsatkichlari haqqoniylikini ta'minlaydi. Bundan tashqari, dastur doirasida statistika tizimiga joriy etish va foydalanish uchun 20ga yaqin klassifikator ishlab chiqildi. Ammo bu bilan ishlar nihoyasiga yetgani yo'q. Davlat statistika qo'mitasining tegishli idoraviy klassifikatorlari o'rniga mulk shakllari va tashkiliy-hududiy shakllarning umumrespublika klassifikatorlari ishlab chiqilmoqda. Fuqarolar kodeksi va "Jamoat uyushmalari to'g'risida"gi, "O'zbekistonda chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Matbuot kooperatsiyasi to'g'risida"gi, "Dehqon (fermer) xo'jaliklari to'g'risida"gi qonunlar ana shu klassifikatorlar uchun asos qilib olingan. Statistikaning moliya kabi muhim sohasini hamma tomonidan qabul qilingan xalqaro talablarga o'tkazish borasida katta ishlar olib borilmoqda. BMT va Milliy hisob-kitoblarning xalqaro tizimi standartlari asosida moliya aktivlarining noishlab chiqarish aktivlari va axborotlar bilan qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan qimmatbaho boyliklarning umumrespublika klassifikatorlari ishlab chiqarilmoqda. Davlat statistika qo'mitasi va Davlat standartlari qo'mitasi, Markaziy bank moliya-kredit faoliyati bilan bog'liq umumrespublika klassifikatorlarini ishlab chiqayapti. Ular moliya-kredit faoliyati bilan, to'lov oboroti va pul muomalasiga doir axborotlar bilan bog'liq.

Tashqi savdo-sotiq statistikasida ham jo'z'iy o'zgarishlar ro'y berdi: 1994 yildan boshlab, xalqaro amaliyotda qabul qilinganidek, bunday ma'lumotlar bojxona organlari tomonidan tayyorlanadi va e'lon qilinadi. O'zbekiston Bojxona qo'mitasi vaqti-vaqti bilan, "O'zbekiston tashqi savdo-sotig'ining bojxona statistikasi" to'plamini chop etib keladi. "Sog'liq va bojxona xabarlari"haftanomasi chiqib turibdi.

MDH davlatlarining aksariyati statistikasi MHTga va turli xalqaro klassifikatsiyalarga o'tish amalga oshirilmokda. Ayrim mamlakatlarda ham YaJM, ham MHT bo'yicha ma'lumotlar to'planadi va e'lon qilinadi, sababi, XXB ning ko'pgina elementlaridan MHTni tashkil etishda ham foydalaniladi. Ba'zi mamlakatlar XXB tizimidan to'la-to'kis voz kechdi, ayni vaqtda boshqa mamlakatlarda XXB dan "o'tish kaliti" yordamida XXB taxminiy qiymatlardagina beriladi. Statistika ma'lumotlarining qiyosiyligi a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar tomonidan Statistika hisobotlarining yagona metodikasi haqida bitim imzolandi.

## **Qisqacha xulosalar**

Xalqaro iqtisodiy aloqalar va tashqi iqtisodiy faoliyat muammolarini tahlil qilishda iqtisodiy axborotlar yetakchi rol o'ynaydi. O'z navbatida iqtisodiy axborotlar statistika, buxgalterlik hisobotlari va tezkor ma'lumotlarga taqsimlanadi. Iqtisodiy axborotlarni ana shu turlari ichida fan va amaliyot uchun eng ahamiyatliligi statistik ko'rsatkichlar hisoblanadi. Hozirgi zamon xalqaro statistika tizimi murakkab mexanizm bo'lib, unda bir toifadagi statistika tashkilotlari statistika uslubiyatini, ko'zatuv dasturlarini ishlab chiqadi, boshqalari bevosita statistik ma'lumotlarni to'playdi, qayta ishlaydi va e'lon qiladi. Turli tashkilotlar tomonidan iqtisodiy faoliyatning turli sohalarini bo'yicha nashr etilayotgan statistik to'plamlarning rang-barangligi axborotlarni to'plash, ularni statistik qayta ishlash usullarni bir xil qilish, xalqaro tovar almashuvida ishtirok etuvchi klassifikatorlarning, faoliyat turlarining, o'lchov birliklarning qiyosiyliigi to'g'risidagi va hokazo masalalarni o'rta qo'yadi.

## **Asosiy tushunchalar**

**Statistika** – 1. Raqamli ma'lumotlarni to'plash, taqdim etish, tahlil qilish va sharhlashni qamrab oluvchi kasbiy faoliyat sohasi. 2. Qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlar, ma'lumotlarni, rasmiy e'lon qiladigan va faoliyatning alohida sohalarini, shu jumladan, xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

**Statistika ma'lumotlarini bir xillashtirish** – qiyosiyliigini ta'minlash maqsadida iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini bir xil ko'rinishga, hisob-kitoblarning turli mamlakatlar xo'jalik tarmoqlari va sohalarida foydalaniladigan yagona usullarga keltirish.

## **Mavzuning namunali rejalari**

1. Asosiy iqtisodiy ma'lumotlar (axborot).
2. Xalqaro statistika tashkilotlari va ularning ahamiyati.
3. Xalqaro asosiy iqtisodiy tasniflar (klassifikatsiya).
4. Xalqaro iqtisodiy (XIA) ma'lumotlar manbai.
5. O'zbekistonning xalqaro hisob-kitob va statistikaga o'tishi.

## **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Xalqaro iqtisodiy ma'lumotlar (axborotlar)ning ahamiyati va mohiyati nimada?
2. Xalqaro iqtisodiy ma'lumotlar (axborotlar) olish manbai.

3. O'zbekistonda xalqaro hisob-kitobga O'TISHNING zarurligi va uning asosiy xususiyatlari.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Xalqaro iqtisodiy ma'lumotlar va aloqalar tushunchasi va xususiyatlari.
2. Xalqaro statistika tashkilotlari.
3. Iqtisodiy ma'lumot (axborot) olish va ularning ahamiyati.

## **56 BOB. JAHON XO‘JALIGI SOHASIDAGI BIZNES: AYRIM YO‘NALISHLARI VA SHAKLLARI**

### **56.1. Lizing tushunchasi.**

Xalqaro lizing operatsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Xalqaro biznesda rezidentlar va norezidentlar ishtirok etadigan o‘nlab operatsiyalar va bitimlarning nisbiy afzalliklaridan foydalaniladi. Global biznes, chet eldagi biznes, qo‘shma tadbirkorlik, xorijiy biznes doirasida aktivlarning turli-tuman ko‘rinishlari va turlari, birinchi navbatda aqliy, moddiy valyuta va fond aktivlari, moliyaviy bank va kredit dasturlari va hokazolar ta’sir ob’ektlari sifatida namyon bo‘ladi. Golving, franchayzing, birja bitimlari, banking, lizing, diling, faktoring va hokazolar shartnoma shartlarida amalga oshiriladi. Lizing va faktoringning jahon tajribasida qo‘llaniladigan shakllari (ko‘rinishlari) xususida to‘xtalamiz.

### **56.2. Lizing mohiyati.**

Lizing ijaraning o‘ziga xos shakli sifatida uning boshqa ko‘rinishlaridan foydalanishga berish, kreditga sotish va prokatdan jiddiy farq qiladi. «Lizing» atamasi inglizcha "tolease"- «yollash, ijaraga olish» so‘zidan hosil bo‘lgan.

Lizing imkoniyatlari xususiy mulk vazifasining «bo‘lish», ya’ni mulkka (egasining) egaligi undan (foydalanuvchi tomonidan) foydalanishdan ajrab chiqishi va moliyaviy ta’minlashning maxsus tizimi qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Lizing – turli xil asbob-uskunalarni qo‘lga kiritishni moliyaviy ta’minlashning o‘ziga xos qo‘rinishidir.

Odatda lizing operatsiyalari ixtisoslashgan moliya (lizing) kompaniyasining vositachiligida amalga oshiriladi. Lizing beruvchi, lizing kompaniyasi – bu lizing oluvchi bilan kelishilgan shartnoma asosida lizing ob’ektini(predmetini) beruvchi ijaraga beruvchi - firma ya’ni shaxsdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2002 yil 28 avgustda imzolangan PF – 3112-sonli Farmoni asosida yurtimizda lizing operatsiyalari faol rivoj topmoqda. 2002 – 2011 yillar mobaynida lizing xizmati ko‘rsatuvchi kompaniyalar soni 15 tadan 86 taga ko‘paydi, lizing operatsiyalarining yillik hajmi esa 16 barobardan ziyod oshdi. Shu davrda lizing operatsiyalarining umumiy hajmi 8,7 barobar ortdi va 1.78 trillion so‘mni tashkil etdi.

### **56.3. Lizing beruvchining asosiy majburiyatlari.**

Lizing oluvchi va yetkazib beruvchi o‘rtasidagi kelishilgan tijorat va texnik shartlarga muvofiq, yetkazib beruvchi firma bilan oldi- sotdi shartnomasini to‘zish;



- Yetkazib beruvchiga ilgari kelishilgan shartlarga muvofiq, bitim ob'ektini yetkazib berishga naryadni qo'llash.
- Ob'ekt foydalanishga qabul qilingandan so'ng qabul bayonnomasini imzolash.
- Lizing beruvchi lizing operatsiyasi ob'ektining egasi va hujayini hisoblanadi: u lizing bitimining butun muddatiga sug'urta shartnoma to'zadi. Aynan lizing kompaniyasi harakatdagi mol-mulkning ishlab chiqaruvchidan (ya'ni egasidan) foydalanish uchun egalik huqiqini qabul qilib oladi va o'rta yoki uzoq, muddatli davrga lizingga beradi. Lizing xizmatlarini ko'rsatishning prinsipial chizmasi quyidagicha;
- Mol-mulk ishlab chiqaruvchidan foydalanuvchi tomon harakat qiladi.
- Foydalanuvchidan lizing firmasi nomiga lizing to'lovlari (badallari) yo'llanadi.
- Lizing firmasidan savdo-sotiq, haqi ishlab chiqaruvchiga yetkaziladi.
- Lizing to'lovlari – lizing operatsiyasi ob'ektidan ishlab chiqarishda foydalanilganlik uchun o'ziga xos turi bo'lib, o'zluksiz badallarning bir ko'rinishidir. Bir yo'la yoki vaqti- vaqti bilan to'lovlarni o'tkazishning tartibi, usullari va shartlari bitimda belgilanadi. To'lovlar vaqti o'tkazib to'langan yoki umuman to'lanmagan hollarda lizing beruvchi lizing bitimini bekor qilish va o'ziga berilgan kafolatlardan foydalanish huquqiga ega. Lizing to'lovlarni o'tkazish tartibida ana shu badallar proporsional, progressiv va degressiv bo'lishi mumkinligi nazarda tutiladi.

3. Lizingning turli shakllaridan kelib chiqib, ushbu prinsipial modelga o'zgartirishlar kiritilgan bo'lishi mumkin.

Lizing tizimi, jumladan xalqaro tijorat aloqalari sohasida teng yoyilgan. Lizing operatsiyasining barcha qatnashchilari o'rtasidagi, ya'ni ijaraga beruvchi yoki lizing beruvchi, mol-mulk egasi (yoxud lizing egasi) bilan ijaraga oluvchi yoki lizing oluvchi o'rtasidagi munosabatlar lizing bitimi shartlariga muvofiq belgilanadi. Ijaraga oluvchi(foydalanuvchi) – lizing beruvchi va yetkazib beruvchi bilan kelishilgan shartlar bilan lizing ob'ektini ishlab chiqishda foydalanish uchun qabul qilib olgan firma yoki shaxs lizing oluvchi sifatida namoyon bo'ladi. Lizing oluvchining majburiyatlari:

- Lizing bitimi ob'ektini qabul qilib olish;
- Ob'ekt but holda ekanligini va benuqson ishlayotganini tasdiqlashi, buni qabul bayonnomasida qayd etishi;
- Kamchiliklar aniqlangan holda ularning ro'yxatini qabul bayonnomasida qursatishi va lizing beruvchiga xabar qilishi.

Lizing beruvchi yetkazib beruvchidan kamchiliklarni tugatishni yoki lizing predmeti almashtirilishini talab qilishga haqli;

- Ob'ekt qabul qilib olinganidan so'ng yetkazib beruvchiga nisbatan lizing beruvchining barcha huquqlarini o'ziga olishi.

Lizing beruvchi rolini ijro etuvchi lizing kompaniyasi bilan lizing oluvchi o'rtasida lizing ob'ekti bilan bog'liq, o'ziga xos munosabatlar vujudga keladi. Lizing kompaniyasi ijara haqi stavkasi sarflangan kapitalga olinadigan o'rtacha foyda normasidan kam bo'lmasligi kerak, deya mantiqdan kelib chiqib, daromad olishni mo'ljallaydi. Lizing oluvchi ijara ob'ektdan foydalanish natijasida foyda oladi, ammo uning miqdori ijara qiymati bilan bog'liq, uning hajmi asbob - uskunalarni harid qilishga olinadigan bank kreditidan kamroq bo'lishi kerak. Ijaraga oluvchi lizing tufayli qimmatbaho texnikadan kapital sarflarga ancha - muncha dastlabki harajatlarni qilmay foydalanadi. Ijaraga beruvchi o'z navbatida oldi-sotdi bozori imkoniyatlarini kengaytiradi, buyurtmachining to'lov qobiliyatsizligi munosabati bilan yo'qotishlar xavfining oldini oladi. Lizing operatsiyalarida lizing kompaniyasi asbob - uskunalarni ishlab chiqaruvchi bilan foydalanishi kerak bo'lgan firma o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. Odatda yirik tijorat xususiy yoki munitsipal banklarning kichik jamiyatlari lizing kompaniyasi vazifasini o'taydi. Lizing kompaniyasi o'z faoliyatida ham shaxsiy, ham zayomga olingan mablag'dan, masalan, bank kreditlari qurinishidagi mablag'lardan foydalanadi. Lizing kompaniyasining daromadi ijara to'lovlari summasi va ularning qay muddatlarda to'lanishi bilan belgilanadi. Aynan lizing kompaniyasi asbob - uskuna yoki mol - mulkni ijaraga olishga davogar firmadan buyurtmalar qabul qiladi, ana shu firmaning ehtiyojlaridan kelib chiqib, lizing bitimi loyihasini tayyorlaydi.

1988 yilning may oyida Ottava (Kanada)da lizing va faktoring masalalari bo'yicha xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Uning ishida 55 davlat, shu jumladan Sovet Ittifoqi vakillari ishtirok etishdi. Konferensiya qatnashchilari Xalqaro faktoring to'g'risidagi konvensiyani va xalqaro konvensiyada lizingning aniq eng muhimi, davlatlararo darajada kelishilgan ta'rifi beriladi. Ana shu konvensiyada berilgan ta'rifga ko'ra lizing deganda, shunday operatsiya tushuniladiki, natijada yetkazib beruvchi shaxs foydalanuvchi ixtiyoriga moddiy mol-mulkni yetkazib beradi. Buning uchun u ana shu mol-mulkni foydalanuvchining hohishiga ko'ra qo'lga kiritadi, buning evaziga mol-mulk ammortizatsiyasi hisobga olingan belgilangan badal to'lovlarini oladi.

Yuqorida keltirilgan ta'rif tahlil qilinadigan bo'lsa, uning ayrim o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berish kerak bo'ladi. Birinchidan, gap foydalanuvchi keyinchalik moddiy mol-mulkni qo'lga kiritish huqiqini olishi xususida bormoqda. Ikkinchidan, moddiy mol-mulk umuman va qisman

shaxsiy maqsadlarda yoki foydalanuvchining uy (oilaviy) maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallanmasligi kerak. Uchinchi, konvensiya matnida yetkazib beruvchi va foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni boshqarib turish zarurligiga e'tibor qaratiladi. Aynan foydalanuvchi lizing predmetini parvarish qilish va undan oqilona foydalanish, hamisha soz holatda sarflash bo'yicha tashvishlarni o'z zimmasiga olishi lozim. Shu bilan birga foydalanuvchi badallarni o'z vaqtida to'lab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Uchinchi shaxs yetkazib beruvchi savdo-sotiq, to'g'risidagi bitimning bir tomoni bo'lmasa ham harid qiluvchi-beruvchiga nisbatan qanday bo'lsa, foydalanuvchiga nisbatan ham birlik majburiyatlarni qabul qiladi. Ijaraga beruvchi lizing ob'ekti o'z vaqtida yetkazib berilmagan holda foydalanuvchi oldida javobgar emas. Agar yuqoridagi kamchiliklar uning aybi bilan sodir bo'lgan bo'lsa, bunday hollar mustasno bo'ladi.

Lizing tushunchasining va uning ortida turgan lizing hodisasining ko'pgina ta'riflari mavjud. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan tashqari, masalan, Germaniyada lizing xizmatlarini ko'rsatish tajribasini misol keltirishimiz mumkin. U yerda lizingning quyidagicha talqini mavjud. Lizing-moddiy boyliklarni (odatda mashinalarni, asbob-uskunalar va harakat qilmaydigan mol-mulkni) vaqtincha foydalanish uchun ijaraga berishdan iborat, buning evaziga iste'mol qilingan qiymat, ijaraga beruvchi xizmat haqi va asbob-uskunalar qiymatidan kelib chiqib foizlar olinadi.

Lizingning turlari. Mashinalar, dastgohlar, asbob-uskunalar va nazorat moslamalari ijara ob'ekti sifatida namoyon bo'lgan hollarga nisbatan, muddatlardan kelib chiqib ijaraning quyidagi shakllarini farqlashdi: Reyting – qisqa muddatli (bir necha kundan yarim yilgacha) ijaraga olish; Xayring – o'rtacha muddatga (bir yildan uch yilgacha) ijara; Lizing – uzoq, muddatli (20 yilgacha) ijara. Masalan, donli ekinlar yetishtiruvchi fermerlarga turli qishloq, xo'jaligi mashinalari kerak. Aytaylik, "serna" unga ikki-uch kunga zarur, fermer uni reyting bo'yicha olishi mumkin. "Barana" unga uzoqroq muddatga kerak, bu mavsumiy ishlarni bajarish talablariga javob beradi. Fermer uni cherter (xayring) bo'yicha olishi mumkin. Traktor yoki yuk mashinasi esa uzoq muddat foydalanish uchun kerak bo'ladi, ularni u lizing bo'yicha olishi mumkin.

Ko'pgina turli yo'nalishlarda namoyon bo'luvchi omillarning bir yo'la amal qilishidan kelib chiqib, lizingning 30 ga yaqin ko'rinishlari (turlarini, shakllarini, tiplarini) farqlashadi. Lizingning turlari odatda, o'ziga xos, juft turlar sifatida (ilovaga qarang) sistemalashtiriladi. Jumladan, quyidagilarga ajratiladi:

- foydalanish usuli bo'yicha-ishlab chiqarish va iste'mol-moliyaviy ta'minotdan yoxud ishlab chiqarishga safarbar etilgan kapitaldan yoxud uzoq, muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlaridan kelib chiqib;

- predmeti bo'yicha-qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas birinchi holda gap mashinalar, mexanizmlar, asbob-uskunalar, dastgohlar xususida, ikkinchi holda zavod binolari, omborxonalar va boshqa faqat ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan inshootlar xususida bormoqda;

- foydalanish usuli bo'yicha-xususiy va lizing - blankolizing predmetidan foydalanishning iqtisodiy maqsadlaridan kelib chiqib, agar kompaniya yoki korxonalar faqat asosiy kapitalini (asosiy fondlarini) ta'mirlash borasidagi o'z ehtiyojlarini qondirayotgan bo'lsa, gap lizing ob'ektidan xususiy maqsadlarda foydalanish borasida boradi. Lizing-blako kompaniyaning nafaqat o'z ishlab chiqarish quvvatlarini, shu bilan birga o'zi bilan kooperatsiya munosabatlarida bo'lgan yoki yordamchi mahsulot yetkazib beruvchilari hisoblangan korxonalar yoki firmalarning ishlab chiqarish quvvatlarini texnika bilan qayta jihozlash haqida g'amxo'rlik qilayotganini anglatadi. Sifatli komplektlovchi qismlarga ega bo'lish uchun ana shu buyumlarni ishlab chiqarishning texnik shartlari va texnologiya darajasini ta'minlash zarur. Ular pirovard natijada mahsulot yig'ilishini va uning sotilishini amalga oshiruvchi kompaniyaning talablariga javob berishi kerak.

Lizing beruvchi bilan lizing oluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatlari bo'yicha – sof lizing (faqat lizing predmeti beriladi) va keng lizing – shuningdek, har xil yordamchi xizmatlar qursatiladi, bu xizmatlar ro'yxati anchagina keng bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, „pul“ lizing ham bor, unga muvofiq lizing oluvchi lizing ob'ektiga texnik xizmat ko'rsatilishiga, ta'minlanishiga, malakali xodimlar tayyorlanishiga, marketingga, tayyor mahsulot reklama qilinishiga, xomashyo yetkazib berilishiga va hokazolarga erishishi mumkin.

Lizing ob'ektining berilish sohasi bo'yicha - ichki, basharti lizing predmeti shu mamlakatdagi lizing oluvchiga berilayotgan bo'lsa, tashqi - basharti lizing predmeti xorijdagi lizing oluvchiga berilayotgan bo'lsa. Lizing xalqaro xususiyatiga ega bo'lgan hollarda uning quyidagi turlari ajratiladi: bitim tarzidagi eksport lizingiga, bunda lizing kompaniyasi lizing ob'ektini milliy kompaniyadan sotib oladi va uni chet eldagi lizing oluvchiga topshiradi: import lizinggiga, bunda lizing beruvchi mamlakat ichidagi lizing oluvchiga topshiradi: sublizing – bu shunday operatsiyaki, unda bir mamlakatda ro'yxatga olingan asosiy lizing beruvchi va boshqa mamlakatdagi vositachi ishtirok etadi, u lizing ob'ektini lizingdan foydalanuvchiga topshiradi. Ba'zi hollarda lizing kompaniyalari ofshor markazlarida o'z filiallarini ochadilar.

Lizing xizmatlari bozorida lizingning lizing ob'ektining berilish xususiyatlari bilan bog'liq, turlari, ayniqsa, ma'lum va mashhurdir. Bunda moliya lizingi ajralib turadi. Bu holda lizing kompaniyasi bitimning moliyaviy qisminigina o'z zimmasiga oladi, lizing predmetidan foydalanish tashvishlari esa foydalanuvchi zimmasiga yuklanadi. Moliya lizingi uchun uzoq muddatli bitimlar xosdir, bu ijaraga oluvchilarda pul mablag'larining yetishmovchiligi bilan bog'lik, ayni vaqtda lizing ob'ektining takroran berilishi nazarda tutilmaydi, ya'ni moliya lizingi aslida kreditga mol sotish shakliga yaqin turadi.

Moliya lizingi ko'yidagi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin: lizing - standart, ya'ni tayyorlovchi lizing predmetini moliya kompaniyasiga topshiradi, u o'z lizing kompaniyasi orqali uni iste'molchiga lizingga beradi: lizing yetkazib beruvchiga, bunda sotuvchining roli va ijarachi vazifalari qo'shib ketadi, vaholanki, lizing predmeti vositali ijaraga beriladi.

Tezkor lizing moliya lizingi uchun juft toifa hisoblanadi. Lizing operatsiyalarining bu turi ijara muddatining qisqaligi lizingga olingan jihozning xizmat davri katga emasligi; keng ko'lamdagi yordamchi xizmatlarning; jumladan, lizing predmetiga xizmat ko'rsatilishini, sozlanishini va sug'urta qilinishini taxmin qiluvchi xizmatlarning ko'rsatilishi bilan ajralib turadi. Qisman eskirgan jihozlar bozorining mavjudligini hamda lizing ob'ektini ikkinchi marotaba, albatta, arzonroq, narxda ijaraga berish ehtiyoji tezkor lizing qo'llanilishi uchun zarur shart hisoblanadi. Tezkor lizing lizing beruvchining harajatlarini bir shartnoma bilan qoplashga qaratilgan, ammo ijaraning asosiy muddati mobaynida ijaraga berilayotgan jihozlarning sotib olinishi va asralishi bilan bog'liq, ijara operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, lizing beruvchi o'zining barcha harajatlarini birgina lizing oluvchining tushumlari hisobiga qoplashga umid qilmaydi.

Lizingning ushbu turi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ijara muddatlarini qisqartirish (lizing ob'ekti jismonan eskirishga qadar);
- lizing predmetining bo'zilishi, boy berilishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq xavf - xatarni kamaytirish;
- ijara muddati tugaganidan so'ng ijara ob'ektini (ijaraga beruvchiga) sotish yoki uni boshqa mijozga ijaraga berish;
- ijaraga beruvchiga lizingga berilgan jihozlarga jismoniy xizmat ko'rsatish, shu jumladan joriy remont qilib turish, sozlash.

Tezkor lizing ijaraga berilgan mijoz foydalanishidan olinadigan daromad uning dastlabki narxini qoplamaydigan, lizing ob'ekti qisqa muddatga berilgan bo'lib, ijaraga olingan mijoz maxsus xizmat mashina va mexanizmlar ishlatilgan hollarda qo'llaniladi. Tezkor lizing, shuningdek, lizing

beruvchilarning odatda, asosli ravishda, tor tovar ixtisosligini qo‘llashi bilan ham bog‘liq. Qator hollarda ular lizing operatsiyalarini mazkur bozor xususiyatlarini yaxshi biladigan va keng ko‘lamdagi texnik xizmatlarni ko‘rsatishga qodir bo‘lgan dilerlar orqali amalga oshiradilar.

80 yillarda xorij amaliyotida lizingning ikki yangi turi qo‘llanila boshladi, shulardan biri **liz-bek yoki qaytarma** sxema bo‘yicha amalga oshiriladi: tadbirkor o‘zi egasi hisoblangan va tabiiyki, o‘zi foydalanayotgan mulkni lizing kompaniyasiga, keyinchalik lizingga olish uchun sotadi. Aytaylik firma yoki korxonaga o‘z xususiy mulkining bir qismini, ayni vaqtning o‘zida u bilan lizingga olish haqidagi shartnomani imzolash sharti bilan lizing kompaniyasiga sotadi. Bunday bitim firmaga asosiy kapitaldan foydalanishni to‘xtatmagan holda uning bir qismini sotish hisobiga pul mablag‘larini qo‘lga kiritish imkonini beradi, bu mablag‘lardan reinvestitsiya maqsadlarida foydalanish mumkin bo‘ladi. Yangi investitsiyalardan olinadigan daromad ijara haqidagi qanchalik katga bo‘lsa, shu xildagi operatsiyalarning rentabelligi shu qadar yukori bo‘laveradi.

#### 56.4. “Bay-bek”

“**Bay-bek**” tipidagi lizing bitimlari ham keng quloch yoygan, bunda majburiyatlarni lizingga olingan jihozlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘lash nazarda tutiladi. Lizingning bu turini keng qo‘llash uchun Rossiya tadbirkorlariga tavsiya etish mumkin, sababi gap yuqori unumli chet el jihozlarini sotib olish uchun zarur bo‘lgan valyuta mablag‘lari taqchilligini his etayotgan firmalar, korxonalar va birlashmalar uchun tipik bo‘lgan ahvol xususida borishi mumkin. To‘g‘ri, bu borada tegishli limitlar ham bor. Lizingning ushbu turini qo‘llashda foydalanadigan xomashyoning sifati va qo‘llaniladigan ishchi kuchining sifati jiddiy cheklash hisoblanadi. Sababi, pirovard natijada lizing kompaniyasi talabchan g‘arb bozorlarida realizatsiya qilish uchun xalqaro sertifikatning qat‘iy standartlariga javob beradigan mahsulotlarnigina qabul qilib oladi. Ayni vaqtda „raqobatbardoshlik“ tushunchasi buyumlarning nafaqat texnik parametrlari va texnologik ko‘rsatkichlariga, masalan, buyumlarning ekologik tozaligiga, pishiq-puxtaligi va boshqaruvning yengilligiga, shu bilan birga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning narx-navo tavsifiga ham yoyiladi.

Lizing operatsiyalarning yuqorida sanab o‘tilganidan boshqa muayyan joylarda qo‘llaniladigan turlari ham bor. Masalan, lizingning Qo‘shma Shtatlarda keng yoyilgan ko‘rinishi ko‘ptomonlama lizing hisoblanadi. Bu lizingning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, „normal“ lizing bo‘yicha ijarachi yetkazib beruvchi va lizing kompaniyasi o‘rtasidagi uch tomonlama

munosabatlarga an'anaviy bo'lmagan to'rtinchi shirikning-lizing mulki ishlab chiqarilishini bevosita moliyaviy ta'minlovchi shirikning qo'shilishini nazarda tutadi. Bundan tashqari keng ko'lamli deb atalmish lizing ham qo'llaniladi, bu lizing moliyaviy jihatdan yirik bitimlarni, masalan, samolyotlar, ko'p tonnali kemalar ijaraga olinishini va hokazolarni taxmin qiladi.

Lizingning yuqorida tilga olingan va tavsiflangan turlari bilan bir qatorda savdo lizingi, tadbirkorlik, kommunal lizingi kabi turlari ham qo'llaniladi.

Germaniya va Avstriyada hamda G'arbning boshqa ba'zi mamlakatlarida "Gross leasing", yoki to'la servisli lizing va "Teilservice-leasing", yoki qisman servisli lizing qo'llaniladi. Lizingning aytib o'tilgan turlari lizing kompaniyasi servis xizmatlari amalga oshirilishini qay darajada to'liq, o'z zimmasiga olishiga ko'ra bir - biridan farqlanadi: ba'zan bunday ro'yxat juda keng bo'ladi, aksariyat hollarda xizmatlar ro'yxati yetarli darajada to'liq bo'lmaydi.

### **56.5. Lizingning afzalliklari.**

Lizingning keng qo'llanilishi boisi shundaki, u shartnoma munosabatlarining barcha qatnashchilariga foyda keltiradi. Lizing bitimlari jozibasi mazmun - mohiyati nimalardan iborat?

Lizing operatsiyalari, odatda, servis bilan amalga oshiriladi. Jihozlarni ro'yxatdan o'tkazish, sug'urta qilish, eksportga litsenziyalar (kvotalar) olish, moliyaviy hujjatlarni rasmiylashtirish, soliq, valyuta va moliyaviy imtiyozlarni berish shular jumlasidandir. Masalan, eksportni moliyaviy ta'minlash fondlaridan davlat tomonidan yordam puli ajratilishi mumkin. Lizing kompaniyasi ko'rsatadigan xizmatlar transport ekspeditorlik xizmatlariga, jihozlarni montaj qilish (o'rnatish), ob'ektni ishga tushirish, loyiha quvvatiga yetkazish, joriy va davriy sozlash ishlarini amalga oshirish, yangi jihozdan malakali foydalanish uchun zarur. Kadrlarni tayyorlashga va boshqa xizmatlarga ham yoyilishi mumkin. Soliq imtiyozlarining mohiyati shundaki, lizing beruvchining mamlakati soliq tartibi lizingga olingan mol-mulkni amortizatsiya tariqasida jadal hisobdan chiqarish huqiqini berishi mumkin. Soliq imtiyozlari shuningdek, xususiy mulk huquqi va mulkka egalik qilish huquqiga har xil soliq solinishi bilan ham bog'liq.

Lizing operatsiyalarini amalga oshirish borasidagi xorij amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning iqtisodiy ahamiyati lizing beradigan imtiyozlar bilan o'zviy bog'liq ekan.

**Lizing afzalliklarini umumiy tarzda quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:**

1) **Moliyaviy:** aytaylik, jihozlarni qo'lga kiritish va ana shu operatsiyani moliyaviy ta'minlash masalalarining bir yo'la hal etilishi; faoliyat

ko'rsatayotgan kapitalning ham xususiy, ham zayom qismlari o'rtasidagi nisbat tadbirkor uchun imtiyozli bo'lib kelaveradi; lizing qo'shimcha jihozlarni va yangi texnologiyalarni ijaraga olish imkoniyatlari hisobiga bozordagi o'zgarishlarga tezkor munosabat bildirish imkonini beradi, bu ishlab chiqarish kapitalidan foydalanish samaradorligini oshiradi, sababi, mablag'lar eng ko'p daromad keltiradigan sohalarga safarbar etiladi; lizing to'lovlari narx-navo indeksiga bog'liq emas va ijara haqidan farqli ravishda o'zgarishsiz qoladi; lizing bitimining tomonlari lizing to'lovlarini – hajmini, to'lash tartibini va jarayonini kelishib oladilar, imtiyozlarning mavjudligi esa lizing beruvchiga lizing oluvchining moliyaviy manfaatlarini inobatga olish, masalan, lizing to'lovlari hajmini qisqartirish imkonini beradi.

2) **Investitsiya tarzidagi afzalliklar:** kompaniyaga, korxo-naga mulkni lizingga olish, uni sotib olish uchun qarz olishga nisbatan ham oson, ham yengil, sababi, lizing ob'ekti garov vazifasini o'taydi; lizing bank kredit berayotgan vaqtdagidek, xususiy mablag'larning talaygina ulushini talab qilmaydi. Gap shundaki, bank krediti harid qilinayotgan mulk qiymatining 75-80 foizi miqdorida beriladi, lizing esa bitim qiymatining 100 foizini ta'minlaydi va oborotni sezilarli darajada tezlashtiradi; mulk ko'rinishidagi investitsiya pul kreditidan farqli ravishda mablag'larning qaytarilmay qolish xavfini kamaytiradi; chunki lizing beruvchi mulkka egalik huqiqini saqlab qoladi; moliyaviy mablag'larni tejab qolish va ularni firma yoki korxonaning boshqa investitsion vazifalarini hal qilishga safarbar etish imkonini beradi; amaldagi soliq va huquq, qonun-qoidalari nuqtai nazaridan lizing kreditga qaraganda afzalroqdir; lizing kompaniyalari tomonidan, masalan, preyskurandagi narxdan chegirma tarzida beriladigan imtiyozlar shular jumlasidandir.

3) **Tashkiliy - ekspluatatsion afzalliklar:** jihozlar, mashina va mexanizmlar to'la qiymatini bir yo'la to'lashdan ozod bo'lish bilan birga, ularni darhol ishga tushirish; lizing ob'ektlarini ishlatish lizing to'lovlarini to'lash uchun zarur daromadni keltiradi, qolgan qismi esa ijarachining o'ziga qoladi; ishlab chiqarish vositalarining ma'nan eskirishi bilan bog'liq, yo'qotishlarni kamaytiradi.

4) **Servis afzalliklari:** lizing ob'ektining ijarachisi o'z ko'lami bo'yicha sezilarli qo'shimcha servis xizmatlaridan - sug'urta, transport, ishlatish kafolati bilan o'rgatib berish, profilaktika xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadi; bankning va bank operatsiyalari mijozlarining o'sish sur'ati bilan bog'liq xizmatlarning kengayishi.

5) **Hisob-kitob buxgalterlik sohasidagi afzalliklar:** lizing bo'yicha harajatlarga ularni kalkulyatsiyalash kelib chiqadigan barcha oqibatlar bilan



birga joriy sarf- harajatlar bilan qaraladi, ayni vaqtda lizing to'lovlari lizingdan foydalanuvchining ishlab chiqarish (tannarx) harajatlari sirasiga kiritiladi, bu soliq to'lanadigan daromadni kamaytiradi; Lizing predmeti lizing kompaniyasining balansida hisobga olinadi (bu haqda ko'pgina Fapb mamlakatlarning fuqarolik va soliqlar to'g'risidagi - qonun hujjatlarida aniq ko'rsatmalar bor) va foydalanuvchining balansida hisobga olinmaydi.

Bundan tashqari quyidagi afzalliklar ham muximdir:

- moddiy resurslarni lizing uchun mo'ljallangan aktivlarni ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotlarini kafolatli sotish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi;

- lizingdan foydalanuvchi undan foydalanib, o'z mahsulotlari raqobatbardoshligini oshiradi, mablag'larni tejaydi, soliq to'lashda imtiyozlarni qo'lga kiritadi.

Lizing operatsiyalari samaradorligini va investitsiyalarni moliyaviy ta'minlashning boshqa shakllarini qiyosiy tahlil qilganda, lizingning afzalliklari yanada yorqinroq namoyon bo'ladi.

- lizing kompaniyasining hayotiyliigi u ko'rsatadigan xizmatlarning narx-navo borasida raqobatbardoshligi va sifati bilan izohlanadi, ya'ni jihozning narxi sezilarli darajada arzon bo'ladi;

- ijara spravkasining miqdori ijarachining asosiy qarzi summasiga ijaraga beruvchi qo'ygan foizning katta-kichikligi bilan belgilanadi;

- ijara muddati tugagandan so'ng lizing to'g'risidagi bitimga muvofiq lizingni beruvchi lizing ob'ektini tijorat maqsadlarida realizatsiya qilish imkonini qo'lga kiritadi; milliy valyutalar kursidagi nisbatning tez o'zgarishi lizingni beruvchi uchun xavf-xatarni oshiradi. Basharti inflyatsiya jarayonlari kuchli bo'lgan hollarda lizing beruvchi eksport kreditlarni sug'urta qilish tizimi bo'yicha sug'urta jamg'armalaridan foydalanishga murojaat etadi.

Lizing operatsiyalarida ishtirok etish uning barcha tomonlariga yuridik, soliq va buxgalteriya sohalarida har xil aniq huquqlarni va me'yorlarni beradi, shuningdek, muayyan majburiyatlarni yuklaydi. Shunday qilib, lizing mashinasozlik mahsulotlarni sotish va investitsiya muammolarini hal etishning samarali vositasi hisoblanadi, bu lizing beruvchi nuqtai nazardan g'oyatda muhimdir. Lizing oluvchi uchun lizing xizmatlari bozorida faol ish olib borish bir yo'la yirik investitsiyalarni jalb etmay turib, asosiy kapitalni tezkor yangilash sharti hisoblanadi. Bundan tashqari, lizing operatsiyalarida ishtirok etish mayda va o'rtacha biznes vakillariga naqd moliya resurslari borasida ma'lum qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan o'zlari uchun zarur bo'lgan yangi va eng yangi jihozlardan unumli foydalanish imkonini beradi, ular ana

shu jihozlarni sotib olish uchun katta-katta mablag'larni sarflamaydilar, xonavayron qiluvchi kreditlarga murojaat etmaydilar.

Ammo shu bilan birga, lizing uchun xos qator kamchiliklarni ham qayd etib o'tish lozim. Ular quyidagilardan iborat; .

ishlab chiqarish, bitim shartlarini kelishish borasidagi, ham hujjatlarni rasmiylashtirish borasida anchagina mushkulliklar bilan ajralib turadi;

- lizing beruvchi kattagina dastlabki kapitalga yoki pul mablag'lari kelib turadigan muhim manbaga ega bo'lishi lozim:

- lizing oluvchi lizing mulki qoldiq qiymatining oshirilishida, jumladan inflyatsiya natijasida anchagina yutqazadi:

- lizing qiymati harid narxidan, yordam qarzidan (bank kreditidan ancha yuqori sababli, lizing ob'ektining eskirish xavfi (ma'nan eskirish xavfi) lizing beruvchi zimmasiga tushadi, shu sababli u ana shu bilan bog'liq harajatlarni lizing qiymatiga kiritadi.

#### **56.6. Lizing huquqiy ta'minoti.**

Lizing biznesi huquqiy jihatdan puxta ta'minlangan bo'lishi lozim, lizing bitimining barcha qatnashchilari shartnoma majburiyatlarining bekami - ko'st bajarilishining qat'iy yuridik kafolatlari bo'lishidan manfaatdordir. Lizing bitimi qatnashchilari o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy boshqarishning xalqaro darajadagi qat'iy parametrlari mavjud. Lizing borasidagi faoliyat ba'zi Fapb mamlakatlarda, masalan, Belgiya, Italiya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda lizing to'g'risidagi maxsus qonunlarga asoslanadi, jahonning aksariyat mamlakatlarida lizing shartnomasidan kelib chiquvchi munosabatlar fuqarolik (savdo-sotiq) huquqlarining umumiy qonun-qoidalari bilan boshqariladi.

1974 yilda Xususiy huquqni muvofiqlashtirish xalqaro instituti doirasida xalqaro (tashqi) lizing borasidagi huquqlarni muvofiqlashtirish ishlarini olib boruvchi guruh tashkil etilgan edi. Bu ish 1988 yilning 28 mayida Ottava shahrida yuqorida tilga olib o'tilgan Xalqaro moliya lizingi to'g'risidagi Konvensiyaning qabul qilinishi bilan nihoyasiga yetadi.

Konvensiya xalqaro moliya lizingini rivojlantirish yo'lidagi huquqiy to'siqlarni bartaraf etadi, ikki tomonlama ijara shartnomalarini lizingning uch tomonlama munosabatlariga aylantirish vositalarini taklif qiladi, lizing bitimi qatnashchilari o'rtasidagi munosabatlarni boshqarishning yagona me'yorlarini belgilaydi, ularda lizing beruvchining majburiyatlari va lizing to'lovlarining xususiyatlari oydinlashtirilgan.

RF Prezidentining 1994 yil 17 sentyabrdagi 1929-sonli farmoni, bayonnoma - topshiriq, yo'sinida bo'lishiga qaramay, Rossiyadagi lizing

to'g'risidagi dastlabki hujjat bo'ladi. RF hukumatining 1995 yil 29 iyundagi 633-sonli „Investitsiya faoliyatida lizingni rivojlantirish to'g'risida"gi qarori lizing biznesiga doir talablarni o'rgatadi va shart - sharoitlarini shakllantiradi. Mazkur qaror bilan „Lizing to'g'risidagi muvaqqat nizom" - moliya lizingini, uning ob'ektlari va sub'ektlarini hamda moliya lizingiga aloqador operatsiyalarga qo'llaniladigan asosiy talablarni ta'riflovchi birinchi me'yoriy hujjat tasdiqlandi. Ammo mazkur hujjatda jahon amaliyotidan chekinishlar ham mavjud. Lizing ob'ektlarining tasodifan nobud bo'lishi, yo'qotilishi yoki ishdan chiqishi uchun javobgarlik (buning uchun javobgarlik lizing beruvchi zimmasida bo'ladi) to'g'risidagi qoida shular jumlasidandir. Bugun dunyoda mol - mulk lizing oluvchiga o'tgan daqiqadan e'tiboran ana shu xavf ham unga o'tadi, deb qabul qilingan. Shuni ta'kidlab o'tish kerak, RFning fuqarolik kodeksida (II qismida) ana shu xavfni o'tishi jahon tajribasiga muvofiqlashtirilgan.

RF Hukumatining "Rossiya Federatsiyasida lizing faoliyatini litsenziyalash haqidagi Nizomini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (1996 yil 26 fevraldagi 167-son) ma'lum darajada ahamiyatga ega. Lizing faoliyatini olib borish uchun litsenziya O'zbekiston Iqtisodiyoti vazirligi tomonidan beriladi.

Hozir O'zbekiston Respublikasining qonunchilik palatasi ko'rib chiqishi uchun Lizing to'g'risidagi qonunning bir nechta loyihasi taqdim etilgan. Ana shu qonunning asosiy qoidalari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: uning amal qilishi lizingning barcha shakllarini qamrab olishi, lizing operatsiyalari qatnashchilarining soni cheklanmaganligi, lizing to'lovlarining kafolatlanganligi va hokazolar. Buxgalterlik ishi va auditda lizing operatsiyalarining hisob-kitobi jiddiy o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular sug'urta, valyuta hisob-kitoblarini amalga oshirishda, moliyaviy hisobotlarida va buxgalterlik hisob-kitoblarida muayyan xususiyatlarga ega.

### **56.7. Xalqaro faktoring**

O'zbekistonda lizing xizmatlari bozori vujudga kelishi bilan bir vaqtda moliya bozorida faktoring operatsiyalarining maxsus sektori ham asta-sekin shakllanib bormoqda (8-ilovaga qarang). Xalqaro savdo-sotiq amaliyotida faktoring shu asrning 60 yillarida paydo bo'ldi, 80 yillarida esa ayniqsa rivojlandi.

1981 – 1995 yillar mobaynida faktoring bo'yicha oborot Italiyada – 74 baravar, Ispaniyada – 14 baravar, Buyuk Britaniya va Fransiyada – 7,5 baravar o'sdi. O'zbekistonda 1989 – 1992 yillarda yuzaki qaragandagina faktoringga o'xshash operatsiyalarni Sanoat-kurilish banki to'lov talabnomalarini undirish tarzida amalga oshira boshladi. Ammo ana shu va boshqa banklar

mablag'larining qaytarilmaganligi natijasida katta zarar (1991 yilning 1 iyuliga kelib shunday zarar 12,3 milliard rublni tashkil etgan) faktoringga qiziqish susayishiga olib keldi. Tveruniversalbank faktoring bo'uyicha birinchi shartnomani Turkiyaning faktor kompaniyasi bilan to'zdi.

Bank bilan mustaqil aloqada bo'lgan yoki uning kichik firmasi hisoblangan kompaniya faktor kompaniya deb nomlanadi, faktoring - uning faoliyati ob'ektidir. Yetkazib berilgan tovar qiymatining 2 foizidan 8 foizigacha uning komission ulushi hisoblanadi. Faktor kompaniyalarning xalqaro birlashmasi bor. O'zbekiston Markaziy bankiga tegishli tashkilotlar o'rnatilgan.

Jahon amaliyotida maxsus faktor kompaniyalar, odatda, o'z mijozlariga faktoring xizmatlarining to'liq majmuini-to'lovlarga hisob-kitobi va nazoratidan tortib, tovar yetkazib berish, tovar yetkazib berilishini bevosita moliyaviy ta'minlashga bo'lgan xizmatlarini taklif qilishadi. Shu o'rinda faktoring to'g'risidagi shartnoma avtonom bo'lib, oldi-sotdi to'g'risidagi shartnomadan mustaqil bo'ladi. Tashqi (xalqaro) faktoring o'sha 1988 yilning mayida Ottavada imzolangan faktoring to'g'risidagi Xalqaro konvensiyaning ta'sir doirasiga kiradi. Ammo u ham lizing haqida Konvensiya kabi yuridik kuchga ega emas, sababi uni imzolagan mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilish jarayoni tugallagan emas. Shu bilan bir qatorda, lizing amaliyotida ham faktoring amaliyotida ham, shu jumladan O'zbekistonda ana shu hujjatlarning qoidalari inobatga olingan.

Xalqaro faktoring eksport savdo-sotig'ida qo'llaniladi: u eksportchining amaliy operatsiyalari jarayonida naqd pul olishni soddalashtiradi, bu muhim ahamiyatga ega, chunki eksportga mol yetkazib berishda kreditlash (ba'zan oborotsiz asosda) amalga oshiriladi, ana shunday dollarda faktoring umidsiz („yomon“) qarzlardan himoya qiladi. Faktoringni asosiy turlari qatoriga bevosita va bilvosita faktoringlar kiradi.

Bevosita faktoringda bir kompaniya faktor - import qiluvchi - sotuvchi mamlakatdagi eksport bo'yicha ish olib boradi, u bilan eksportchi faktoring to'g'risidagi shartnomaga ega bo'ladi. Bevosita faktoring to'g'risidagi bitimga muvofiq harid narxini talab qilish huquqi boshqaga o'tkazilishi bo'yicha faktor xorijiy haridor bilan bevosita munosabatlarga kirishadi.

Bilvosita faktoring ikki faktor kompaniyani taxmin kiladi: eksport bo'yicha faktor va import bo'yicha faktor (import qiluvchi haridor mamlakatida). Bilvosita faktoring qo'llanilgan hollarda chet ellik haridor eksport qilingan o'z mahsuloti qiymatini o'z mamlakatidagi import bo'yicha faktorga to'laydi, u esa ana shu to'lovni eksport bo'yicha faktorga o'tkazadi, eksport bo'yicha faktor esa kelishilgan summani eksportchiga beradi. Bilvosita

faktoringning afzalligi shundaki, faktorlarning har biri o'z mamlakatidagi mijoz bilan shartnoma munosabatlariga ega bo'ladi, mijozlarning kredit qobiliyati (kreditga munosibligi) ularga ma'lum bo'ladi.

Odatda faktoringning ikki asosiy qo'rinishi: ochiq va yopiq ko'rinishlari farqlanadi. Faktoringning ochiq tartibdagi operatsiyalari vaqtida to'lovning olinishi eksportchi bilan shartnomaga ega bo'lgan faktor orqali amalga oshiriladi, ana shu shartnoma bo'yicha faktor chet ellik haridorlarning tasdiqlangan qisqa muddatli qarzlarni o'ziga olish majburiyatini qabul qiladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, eksportchi eksport qilayotgan tovar haqini talab qilish huquqini faktorga beradi. Haridor harid narxini eksportchiga emas, faktorga to'laydi: ayni vaqtda to'lanishi lozim bo'lgan, tasdiqlanmagan qarzar, regressiv talab qo'yish huquqi bilan faktor tomonidan qabul qilib olinadi. Basharti, faktoring haqidagi shartnoma chet ellik haridorga oshkor etilmasa, gap yopiq faktoring haqida borayotgan bo'ladi: hisoblarni diskontlash yoki hisoblarni arzonga sotib olish uchun nisbatan keng tarqalgan turlaridir.

Eksportchining xohishiga ko'ra faktor harid narxini olish bo'yicha xizmatlarga qo'shimcha ravishda bitimni moliyaviy ta'minlashi ham mumkin. Bunday holda u tasdiqlangan hisoblar bo'yicha balans qiymatining 80 foizigacha bo'lgan qismini darhol eksportchiga to'laydi va bir yo'la chet ellik haridorga kredit beradi. Faktoring amaliyotida faktoring to'g'risidagi Ottava konvensiyasini oldi - sotdi shartnomalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi bilan muvofiqlashtirish muammolari uchrab turadi.

### **Qisqacha xulosalar:**

Jahon xo'jaligi sohasida biznes bozor iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Biznes prinsiplari xalqaro iqtisodiy aloqalarning barcha ko'rinishlariga singib ketgan. Hozirgi bosqichda xalqaro iqtisodiy aloqalardagi biznesning yangi yo'nalishlari va shakllari ahamiyati tobora oshib borayapti. Ularning orasida lizing va faktoring alohida ajralib turadi. Ana shu yo'nalishlar va ko'rinishlar jahon xo'jalik aloqalarining yangi sifat jihatlarini aks ettirib, xalqaro iqtisodiy aloqalarni boyitadi.

### **Asosiy tushunchalar:**

**Xalqaro biznes XB** – biznes, ustuvor sohasi xalqaro iqtisodiy aloqalar hisoblanuvchi tadbirkorlik faoliyati, jahon xo'jaligi, iqtisodiyoti. XBning tarkibiy qismlari sifatida global biznes, qo'shma tadbirkorlik, chet eldagi biznes, xorij biznesini ajratib ko'rsatishadi.

Lizing – o‘ziga xos ijara shartnomasi bo‘lib, unda lizing beruvchi tomonidan tovarning mijozga - ijarachiga - lizing oluvchiga qat’iy kelishilgan muddatga, kelishilgan mukofot evaziga to‘liq foydalanishga berilishi nazarda tutilgan ayni vaqtda mulkka egalik huquqiy ijaraga beruvchida qoladi, ya’ni begonaga o‘tkazilmaydi. Kapital sarfini moliyaviy ta’minlashning o‘ziga xos turi, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar eksportini kreditlashning ko‘rinishlaridan biri.

**Lizing bitimi** – lizing ob’ektini ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish uchun berilishining shart-sharoitlariga doir lizing beruvchi bilan lizing oluvchi o‘rtasida munosabatlar xarakterini belgilovchi asosiy hujjat; uning tavsifi bitimi spetsifikatsiyasiga ilova qilinadi. Bu lizing bitimining huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishi.

**Faktoring** - 1. Bank yoki faktor kompaniyaning tovar yetkazib beruvchi va haridor o‘rtasidagi hisob - kitoblar vaqtidagi vositachilik komission faoliyati. Bu faoliyat yetkazib beruvchilarning moliyaviy tovarlarini to‘lash va keyinchalik qarzni haridordan undirish vositasida amalga oshiriladi.

2. Qarzlarni undirish huqiqini olib sotish yoxud ishonch qog‘ozi bo‘yicha tijorat operatsiyasi.

3. Komission foyda olish maqsadida aktivlarni, tovarlarni olib sotish.

### **Mavzuning namunali rejalari:**

1. Lizing tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari.
2. Xalqaro lizing nimani bildiradi?
3. Faktoring yordamida qanday vazifalar hal etiladi?
4. Xalqaro biznes tushunchasi va uning xususiyatlari?

### **Seminar darslarda muhokama qilish uchun savollar:**

1. Xalqaro biznesning xususiyati va asosiy tushunchalari.
2. Xalqaro lizing nima va uning xususiyatlari?
3. Faktoring nima va uning yordamida nimalarni hal etish mumkin?

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar:**

1. Xalqaro biznes tushunchasi va uning asosiy yo‘nalishlari.
2. Lizingning asosiy xususiyatlari va mohiyati.
3. Faktoring ahamiyati va asosiy vazifalari.

## **57 BOB. XALQARO XIZMATLAR BOZORI**

### **57.1. Jahon xizmatlar bozorining shakllanish omillari va shart-sharoitlari**

Mamlakatlar o'rtasida xizmatlarni almashish sohasi bo'lmish - jahon xizmatlar bozori jahon tovarlar, kapital va ishchi kuchi bozorlari bilan bir qatorda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson faoliyatining fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv kabi muhim sohalari natijalari sifatida namoyon bo'luvchi xizmatlar ana shu bozorda almashuv predmeti vazifasini o'taydi. Bozorda xizmatlarni amalga oshirishning qurinishlari yetarli darajada rang - barang: doimiy litsenziya bitimlari hamda yangi texnologiya bo'yicha ishlab chiqarilgan mashina va dastgohlarni sotishdan tortib, kompensatsiya bitimlarini to'zishgacha bo'lgan xizmatlar shular jumlasiga kiradi.

Bozor asosini jahon xo'jaligining ulkan va jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan qismi - xizmatlar sohasi tashkil etadi. Xizmatlarni ko'rsatish - tashqi savdo-sotiksing eng dinamik moddasidir. 90-yillarga kelib, barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatish ulushi rivojlangan mamlakatlarning yalpi ishlab chiqargan mahsulotlarida 70 foizga yetdi. XVF ma'lumotlariga ko'ra, 2004 yilda ko'rsatilgan xizmatlar qiymati 1 trillion 100 milliard dollarga teng bo'lgan, bu eksport yalpi hajmining qariyb 25 foizini tashkil etadi. 2007 yilda ana shu raqam uchdan bir qismiga ko'payib, 1 trillion 500 milliard dollarni tashkil etdi.

Jahon tovarlar bozorining rivojlanishi mantiqan va tarixan xizmatlar bozorining vujudga kelishi va rivojlanishiga olib keladi. Tashqi savdo-sotiq hajmining ko'payishi, tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi jiddiy raqobat tovarlarni sotish bilan birgalikda muayyan xizmatlarni ko'rsatish, jumladan, transportda tashish, butligini ta'minlash, sug'urta qilish, bank va moliya xizmatlarini ko'rsatish kabi narx-navoga aloqasi bo'lmagan raqobatning paydo bo'lishiga olib keldi. Keyinchalik ana shu, xizmatlar alohida-alohida ajrala boshladi, so'ngra mustaqil bozor - xizmatlar bozori shakllandi. Bu bozor turizm, maorif, tibbiyot sohaslaridagi yangidan-yangi xizmatlarni o'ziga jalb qilish hisobiga kengayib bormoqda. Hozirgi zamon sharoitida, fan - texnika inqilobi taraqqiy etgani sayin, konsalting, muhandislik - qurilish xizmatlari, xizmatlarning yangi turlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Millatlararo korporatsiyalarning rivojlanishi, mayda va o'rtacha firmalarning siqib chiqarilishi, ishlab iqarishni tashkil etish, marketing va tovarlar taqsimotidagi yangiliklar bank va sug'urta xizmatlarining baynalmilallashuviga, ana shu sohaga buxgalterlik va muhandislik xizmatlarining jalb etilishiga yordam

bermoqda. Fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishi munosabati bilan savdo-sotiqni tashkil etishda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi - ilm-fan sarfining oshishi tovarlar narxida xizmatlar qiymatining o'sishiga olib keldi, xizmatlar yuzasidan bitimlarni to'zish tartibi o'zgardi, xizmatlarning savdo-sotiq yalpi hajmidagi ulushi qupaydi. Xizmatlarni ko'rsatish tarkibi ham o'zgardi. Boshqaruv, moliya markazlashuvining, tezkor nazorat va marketingning yuksak darajasi xos bo'lgan ishlab chiqarish hamda kasbiy xizmatlarning ulushi ko'paydi.

Umuman olganda, xalqaro xizmatlar o'sishining asosiy omillari quyidagilar hisoblanadi:

- fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi, iqtisodiyot ixtisoslashuvini yanada chuqurlashtirish va xizmatlar sohasini ijtimoiylashtirish tamoyillarini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratuvchi yangi texnologiyalarning joriy etilishi;
- daromadlarning oshishiga olib kelgan uzoq muddatli iqtisodiy yuksalish, bu o'z navbatida qator xizmatlarga, masalan, turizm sohasidagi xizmatlarga qo'shimcha talablarni keltirib chiqaradi;
- rivojlangan mamlakatlarning qayta industrlashuvi va ularning milliy xo'jaliklari "xizmatlar iqtisodiyoti"ga yo'naltirilishi. Ma'lumki, sanoatning rivojlanishi, birinchidan, ishchi kuchining ozod qilinishiga olib keladi, uni xizmatlar sohasi o'ziga singdiradi va tabiiyki kengayadi, ikkinchidan tovarlarni xizmatlar bilan birgalikda sotish imkonini beradigan "ishlab chiqarish" xizmatlariga ehtiyojni keltirib chiqaradi. Asosiy sanoat mamlakatlarining yetakchi pozitsiyalarni va qiyosiy raqobatbardoshlik afzalliklarini boy berishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga va farovonlik darajasi ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shu sababli, rivojlanishni to'ldiruvchi va hajmini kengaytirish hisobiga yalpi maxsulot ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlovchi xizmatlar sohasi kengayadi. Bu, birinchi navbatda, tovarlarning yaratilishi bilan bog'liq ishlab chiqarish xizmatlarining (sug'urta, moliyaviy, transport xizmatlarining) ko'rsatilishiga taalluqlidir;
- xizmatlar sohasida mashg'ul bo'lganlar sonining ko'payishi va qayta ixtisoslashuvi. So'nggi o'n yilda xizmatlar sohasida band bo'lganlar sonining o'sish sur'ati 5,7 foizni tashkil etdi. 2000 yilga kelib, Amerika sanoat kompaniyalarining aksariyati o'rta boshqaruv bo'g'inidagi xodimlar sonini sezilarli darajada qisqartirib, ularni mustaqil maslahatchilar bilan almashtirdi. Bu birinchi navbatda, ishlab chiqarish harajatlarning kamayishiga, tovarlar raqobatbardoshligi yaxshilanishiga, ikkinchidan,



maslahat xizmatlarining o‘shiga olib keldi;

- o‘rni to‘ldirilmaydigan tabiiy resurslarga nisbatan loqaydlik hamda kam samarali eksportni qisqartiruvchi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash hisobiga ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish.

Xalqaro xizmatlar bozori tovarlar bozoriga nisbatan jadalroq sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xizmatlarning ikki baravar o‘shishi uchun atigi 7 - 8 yil kerak bo‘ldi, vaholanki, tovarlar bozorining shu darajada kengayishi uchun 15 yil kerak bo‘lgan edi. Ayniqsa, xususiy firmalar ko‘rsatayotgan xizmatlar ulushi jadal o‘shib borayapti. Ana shu davrda u 2 baravar ko‘paydi. Jahon savdo-sotig‘i doirasidagi eksport qilinuvchi xizmatlarning umumiy hajmi 1975 yildagi 155 milliard dollardan, 1990-2000 yillarga kelib, 10 trillion dollarga ko‘paydi. Urushdan keyingi o‘n yilliklar mobaynida tovarlar va xizmatlar bilan jahon savdo-sotig‘i hajmi 30 baravar o‘ydi. Bunday iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning ulushi taxminan 80 foizni tashkil etadi. Yangi industrilashgan mamlakatlarning xizmatlar savdo-sotig‘i hajmi ham hisobga olinadigan bo‘lsa, ana shu ulush 85 foizdan ziyodroqni tashkil etadi. Butun jahon tizimidagi tovarlar eksportida xizmatlar eksportining ulushi 90 yillarning boshlariga kelib 30 foizga yaqinlashdi.

Xizmatlar tovarlar tashqi savdo-sotig‘iga, ayniqsa ko‘p ilm talab qiluvchi tovarlar savdo-sotig‘iga tobora kuchli ta‘sir o‘tkazmokda. Tovar bozorlar tahlilidap tortib, sotilgan tovarlarga texnik xizmat ko‘rsatish, bu xizmatlarni o‘z ichiga olgan tovarlarni yetkazib berish uchun xizmatlarni jalb etish sohasi kengayib bormoqda. Jami xizmatlar hajmining taxminan 3/4 qismi - ilmiy-texnik va ishlab chiqarish tajribasi bilan bog‘liq (litsenziyalar, yangi ishlanmalar, injiniring, konsalting va hokazolar savdo-sotig‘i) xizmatlar.

Lekin so‘nggi vaqtlarda xizmatlar sohasining rivojlanishi ilgari sur‘atlar darajasida emas. Xizmatlarning o‘shish sur‘atlari pasayib borayapti. Bu, jumladan, quyidagi ma‘lum omillar bilan bog‘liq:

- Savdo-sotiqning tovarlar savdo-sotig‘ida tan olingan va foydalaniladigan universal tamoyillari va mexanizmlari mavjud emas – tovarlarni iste‘molchiga yetkazib berish savdo-sotiqning eng maqsadga muvofiq ko‘rinishi hisoblanadi, xizmatlar sohasida esa, savdo-sotiqning, aytish kerak, katta bo‘lmagan bir qo‘rinishi xoloc.
- Keng raqobat

Bunday chekashlarga bardam berish uchun 1986 yilda “Urugvay raundi” doirasida xizmatlar bilan savdo-sotiq qo‘mitasi tashkil etilgan edi. 1987 yilda xizmatlar savdo-sotig‘ini boshqaruvchi tamoyillar va qoidalarga asos solindi, 1990 yilda esa, xizmatlar savdo-sotimi bo‘yicha Bosh bitim (GATS) loyihasi

tayyorlandi. So‘nggi yillarga xizmatlar xalqaro savdo-sotig‘ining liberallashib borayotgani xosdir.

So‘nggi vaqtlarga qadar xizmatlarning xalqaro bozori mayda va o‘rtacha firmalar ixtiyoriga berib qo‘yilgan edi. Bugungi kunda millatlararo kompaniyalar xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi va iste‘molchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning chet ellardagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari hajmining 40 foizi xizmatlar sohasida joylashtirilgan.

Xizmatlar savdo-sotig‘ining geografik taqsimlanishi g‘oyatda notekisligi bilan ajralib turadi, unda bozor iqtisodiyoti qaror topgan, rivojlangan davlatlar ustuvorlik qiladi. Bunday davlatlar to‘lov<sup>1</sup> balasning aktiv saldosi so‘nggi o‘n yillikda qariyb 7 baravar ko‘paydi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, odatda, xizmatlar tashqi savdo-sotig‘ida salbiy saldoning mavjudligi xosdir, vaholanki, ayrim mamlakatlar, masalan, injiniring, maslahat va qurilish xizmatlarni ko‘rsatuvchi Janubiy Koreya, turizm xizmatlarni ko‘rsatuvchi Meskika, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi Singapur ularning yirik eksportchilari hisoblanadi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari ayrim xizmatlarni eksport qilishda ma‘lum muvaffaqiyatlarga erishdi. Ularning ulushi 4 foizga, tovarlar eksportida esa 8 foizga teng keladi. Ammo mutaxassislar bank, sug‘urta, fraxt vositachilik xizmatlarning jadal rivojlanishiga umid qilishmayapti. Ko‘pgina mamlakatlar turizmni rivojlantirish, transport va boshqa qator zamonaviy xizmatlarni eksport qilish uchun talaygina imkoniyatlarga esa. Ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati pastligi ko‘pincha ana shu imkoniyatlardan foydalanilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Qator mamlakatlarda xizmatlarning butun tarmoqlari sust rivojlangan. Bundan tashqari, harbiy xizmatlar sohasining keng rivoj topganligi va rivojlangan mamlakatlarga xizmatlarni import qilish borasida talaygina cheklanishlirning mavjudligi MDH mamlakatlaridan bunday eksportning kengaytirilishiga to‘sqinlik qiladi.

### **57.2. Xizmatlar bozorining tarkibiy tuzilishi**

“Xizmat” tushunchasi – inson iqtisodiy faoliyatining rang - barang turlari majmuini o‘z ichiga oladi. Qazilma boyliklarni qazib olish,\* sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan hamma narsani xizmatlar sirasiga kiritish mumkin. Bunday umumiy ta‘rif, xizmatlar turlarining har xil tasnifiga olib keladi. MVF (Xalqaro Valyuta Fondi) ushbu savdo-sotiqni to‘rt turga taqsimlaydi - fraxt, boshqa transport xizmatlari, turizm xizmatlari va iste‘mol (turizm, mehmonxona xizmatlari), ijtimoiy (maorif, tabobat), ishlab chiqarish (injiniring, konsalting, moliya va kredit xizmatlari), taqsimot (savdo-sotiq, transport, fraxt) xizmatlariga taqsimlaydi.

O‘z navbatida xalqaro xizmatlar *omilli* bo‘lishi mumkin: chegarani kesib o‘tish bilan bog‘liq xizmatlar, shuningdek, kapital berish, turizm, maorif, tabobat sohasidagi klassik xizmatlar shular jumlasidandir; *omilsiz* bo‘lishi ham mumkin: bunday xizmatlarga ishlab chiqarish va iste‘molning hududiy taqsimoti (filmlar, patentlar, noshirlik faoliyati) xosdir.

Xizmatlar iste‘mol qilish vaqtida realizatsiya ko‘rinishlariga ko‘ra ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi qayerda bo‘lishidan kelib chiqib, to‘rt asosiy guruhga taqsimlanishi mumkin:

- Xizmat – uni iste‘mol qiluvchining hududida taklif etiladi. Ishchi kuchi, kapital migratsiyasi - “Makdonalds” restoranlari tarmog‘i, chet ellarda shu‘ba, bo‘limlarni, filiallarni ochish, mijozlarga ularning hududlarida xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bank va sug‘urta xizmatlari ana shunday “ko‘chirish”larga misol bo‘la oladi.

- Xizmat xorijda iste‘mol qilinadi, bu xizmat iste‘molchisining ko‘chishini taxmin qiladi. Bunga dam olish, ko‘ngil ochish, amaliy uchrashuv va hokazolar uchun xorijga chiqadigan turizm misol bo‘la oladi. Chet el bandargohlari va aeroportlarida kemalar va samolyotlarga xizmat ko‘rsatish uchun; xorijdagi klinikalar, kasalxonalarda davolash kurslarini bajarish, operatsiyalar o‘tkazish uchun; xorij universitetlari va kollejlari o‘qish uchun chet ellarga chiqish ham shular jumlasidandir.

- Xizmat ham iste‘mol qilinadigan hududda, ham chet ellarda taklif etiladi. Masalan, universitet professorlarining ma‘ruza qilishi, teatrlar va artistlarning gastrollari.

- Xizmat bir mamlakatdan ikkinchisiga ko‘chmaydi. Tovarlarni chet davlatlarga tashib berish uchun o‘z transportini berib turuvchi transport firmalarining xizmati, loyiha - smeta hujjatlarini tayyorlash (ular keyinchalik aloqa kanallari orqali uzatilishi mumkin) bilan bog‘liq xizmatlar ana shu guruhga kiradi.

Odatda, dastlabki uch guruh xizmatlari omilli xizmatlarga, to‘rtinchisi - omilsiz xizmatlar sirasiga kiradi.

Umuman olganda, transport, aloqa, turizm, konsalting, injiniring, muhandislik - qurilish, axborot, yuridik, sug‘urta, vositachilik, moliya, maorif, tibbiy va hokazo xizmatlar xalqaro xizmatlar qatoriga kiradi.

Xizmatlar, shu jumladan xalqaro xizmatlar, tovarlardan farqli ravishda o‘ziga xos xususiyatga ega: birinchidan, ular moddiy shaklga ega emas, vaholanki, qator xizmatlar magnit lentalaridagi kompyuter dasturlari, kino lentalar, turli hujjatlar ana shunday shaklni kasb etadi; ikkinchidan, xizmatlar asosan bir vaqtning o‘zida ko‘rsatiladi va iste‘mol qilinadi, ularni saqlab bo‘lmaydi, shu munosabat bilan chet ellarda bevosita xizmat

ko'rsatuvchilarning yoki xizmat ko'rsatiladigan mamlakatlarda chet ellik iste'molchilarning mavjud bo'lishi talab qilinadi; uchinchidan, xizmatlarning barcha turlari ham xalqaro oborotga keng jalb etish uchun yaroqli emas, masalan, kommunal xizmatlar; to'rtinchidan, xizmatlar sohasi, odatda, moddiy ishlab chiqarish sohasiga nisbatan davlat tomonidan chet el raqobatidan yuqori darajada muhofaza qilingan.

### **57.3. Xalqaro turizm**

Xalqaro savdo-sotiq va xalqaro iqtisodiy aloqalarning boshqa ko'rinishlari kengayib, madaniyat va maorif darajasi oshgani sayin xalqaro turizm rivojlana boshlaydi. Xalqaro turizm – bu chet eldan kelgan turistning keng doiradagi madaniy va ma'naviy ehtiyojini qondirish maqsadida turli xil turistik xizmatlar ko'rsatishga va turistlar ehtiyoj sezadigan tovarlar sotishga qaratilgan faoliyatning bir turidir. Turistik xizmat xalqaro tovar oborotida “ko'zga ko'rinmas” tovar sifatida namoyon bo'ladi.

Ommaviy turizm davrining boshlanishi ijtimoiy hayot barcha sohalarining baynalmilallashuvi, turmush darajasining oshishi, bo'sh vaqtning ko'payishi, transport va aloqa sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. 60 -70-yillarda xalqaro turizm olamshumul ahamiyat kasb etdi.

Xalqaro turizmga mamlakatlar iqtisodiyotni rivojlantirish vositalaridan bir deb qarashadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Turistlarga tovarlar va xizmatlarni taqdim etar ekan, mamlakat o'z tabiiy resurslaridan oqilona foydalanib, xalqaro mehnat taqsimoti tizimida ishtirok etadi.

— Xalqaro turizm – valyuta tushumlarining, shu jumladan, “ichki eksport”, ya'ni turistlarga mahalliy tovarlarni sotish hisobiga tushumlarning samarali manbaidir. Italiyani misol tariqasida keltirish mumkin. Bu mamlakatda turizmdan valyuta tushumlari, tashqi hisob-kitoblar muammosini hal etish imkonini beradi.

Xalqaro turizmdan olinadigan daromad muntazam ko'payib borayapti. Agar 1990 yilda bu daromad 255006 million dollarni tashkil etgan, eng ko'p daromadni AQSh olgan (40579 million dollar) bo'lsa, 1998 yilga kelib, bu ko'rsatkich 495 million dollarga (AQShning daromadi 120 million dollarga) ko'paydi. 2020 yilda 2 milliard dollar daromad olinishi kutiladi. Xalqaro turizmdan olingan daromad va sarf-xarajatlar o'rtasidagi nisbat mamlakatlar va mintaqalarda har xil. Bu borada Ispaniya, Fransiya, Avstriya, Italiya eng yuqori ijobiy saldog, Yaponiya va Germaniya eng yuqori salbiy saldog ega.

Xalqaro turizm milliy tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda tarkibiy siljishlarni amalga oshirish, sifatini yaxshilash va turlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Turizm industriyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan, rivojlangan mamlakatlarda mazkur modda bo'yicha tushumlar to'lov balansining boshqa moddalari bo'yicha passivlarni qoplaydi. Ko'pgina mamlakatlar xalqaro turizm vositasida to'lov balansi muammolarini hal etishga harakat qiladilar.

Turizm ish bilan band bo'lganlar sonining o'sishiga yordam beradi. Turizm mehnat resurslarining aksariyat qismi mehmonxona va restoran xo'jaliklariga, turistik xizmatlarga hamda turdosh tarmoqlarga - oziq-ovqat (mehnat resurslariga harajat hajmi tushumlarining 8 - 10 foizini tashkil etadi), qurilish, tog'-chang'i jihozlarini ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Turistlarni ko'proq qabul qiladigan mamlakatlarda turizmni rivojlantirish nafaqat valyuta tushumini ko'paytirish, shu bilan birga yangi ish joylarini tashkil etishga intilish bilan izohlanadi.

Turizm quyidagi turlarga taqsimlanadi:

- maqsadlar bo'yicha – tanishtiruvchi-marshrutli, sog'lomlashtirish-sport, havaskorlik, kurort, tog'-chang'i, festivallar, ovchilik, mol harid qilish, diniy, o'kuv turizmi;
- safarbarlik darajasi bo'yicha - ko'chma, turg'un, aralash turizm;
- ishtirok shakli bo'yicha - yakka, guruh tarzidagi, oilaviy turizm;
- yoshiga ko'ra - kattalar, yoshlar, bolalar turizmi, aralash turizm;
- davomiyligi bo'yicha - bir kunli, ko'p kunli, tranzit turizm;
- transport vositalaridan foydalanilishiga ko'ra - avtomobil, temir yo'l, aviatsiya, suv, velosiped, ot, aralash turizm;
- mavsumiyliги bo'yicha – faol turizm mavsumidagi, mavsumlar\* oralig'idagi va mavsumdan keyingi turizm;
- geografiyasi bo'yicha — qit'alararo, xalqaro, mintaqaviy turizm;
- harakatlanish usuli bo'yicha – piyoda, an'anaviy transport vositalaridan, transportning ekzotik turlaridan foydalaniladigan turizm.

#### **57.4. Xalqaro texnologiyalar bozori**

Xalqaro texnologiyalar bozori – bu haridorlar bilan sotuvchilar o'rtasidagi texnologiyalar, ilmiy - texnik bilimlar almashuvidir. Xalqaro texnologiyalar almashuviga ikki tomonlama qaraladi. Keng ma'noda olganda ushbu ibora mamlakatlar o'rtasida har xil ilmiy-texnik bilimlarning tarqatilishini, ishlab chiqarishga oid tajribalarning almashuvini anglatadi. Tor ma'noda esa, muayyan texnologiya jarayonlarini o'zlashtirishga aloqador ilmiy-texnik bilimlar va tajribalarning berilishini anglatadi.

Birinchi holda xalqaro texnologiya almashuvi notijorat ko‘rinishlarida amalga oshiriladi. Bunga ilmiy - texnik maqolalarning e‘lon qilinishini, ko‘rgazmalar, yarmarkalar, anjumanlar o‘tkazilishini, olim va muhandislar delegatsiyalari almashuvi va uchrashuvlarini, talabalar va aspirantlar o‘kitilishini, xalqaro tashkilotlarning fan va texnika sohasidagi hamkorlikka oid faoliyatini misol keltirish mumkin. Ikkinchi holda tijorat maqsadlarida amalga oshiriladi - litsenziya bitimlari asosida ixtirolardan foydalanish huquqining, texnik hujjatlarning berilishi, mashinalar va har xil sanoat jihozlarining yetkazib berilishi, texnik yordam, muhandislik xizmatlarini ko‘rsatish, komplektlovchi uskunalarni eksport qilish, mutaxassislarni tayyorlash va ularda malaka hosil qilish, boshqaruv shartnomalari, ilmiy-texnik va ishlab chiqarish kooperatsiyasi shular jumlasidandir.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida patentlar tizimining joriy etilishi texnologiyalar bozori paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu aqliy mehnat mahsulotiga yaratuvchisining egalik huquqini mustahkamladi. Natijada ishlab chikarish vositalarining savdo-sotig‘i keskin kengaydi. Bu bozor XX asrda, huquqiy baza paydo bo‘lganidan so‘ng, ayniqsa rivoj topdi.

Shu bilan bir qatorda ilmiy-texnik bilimlar savdo-sotig‘ining jadal o‘sishi nafaqat yuqoridagi omillar bilan, ayrim mamlakatlar notekis iqtisodiy rivojlanishi, bu demak, ularda fan va texnika taraqqiyotidagi farq bilan ham izohlanadi. Ilg‘or texnika va texnologiyalarning tor guruhdagi sanoati rivojlangan mamlakatlarda jamlanganligi kuzatiladi, ana shu mamlakatlar texnologiyalarning asosiy eksportchisi hisoblanadi. Bu mamlakatlar ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga har yili ko‘plab mablag‘larni sarflaydi.

Boshqa mamlakatlar fan-texnika taraqqiyoti natijalaridan faqat foydalanish yo‘lidan, ya‘ni fan-texnika yutuqlarini sotib olish va ulardan o‘zlarida foydalanish yo‘lidan borishdi. Shu yo‘lni tanlaganlar orasida nafaqat iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan mamlakatlar, ayrim industrial mamlakatlar ham bor. Jahon litsenziyalar importida ulushi 16 foizni tashkil etadigan Yaponiya bunga misol bo‘la oladi.

Ilmiy-texnika bilimlari xizmat tarzida bitimlar tuzish yo‘li bilan muayyan mukofot evaziga, ma‘lum muddat davomida foydalanish uchun berilishi mumkin. Bu odatdagi tovarlar savdo-sotig‘idan farq qiladi. Texnologiyalar bozorining agentlari sifatida yirik sanoat kompaniyalari ham, mayda innovatsiya firmalari ham namoyon bo‘lishi mumkin. Ular nafaqat ilmiy-texnika bilimlarini, shu bilan birga ma‘lum texnologiyalarni, jumladan, noyob, ilg‘or, an‘anaviy va ma‘nan eskirgan texnologiyalarni sotadilar va sotib oladilar. Millatlararo kompaniyalarning sheriklari bo‘lmish mayda va o‘rtacha

firmalar doirasi nisbatan keng va tarkibiy tuzilishi, ko‘lami va imkoniyatlariga ko‘ra bir xil emas. Ularning orasida baynalmilallashuvni boshlab bergan va bir qator operatsiyalarni xorijga ko‘chirgan an’anaviy kichik biznes ham bor.

### **57.5. Litsenziyalar va patentlar bozori**

Xizmatlar bozorining bir qismi bo‘lmish texnologiyalar bozorining tarkibiy qismi – bu litsenziyalar va patentlar savdo - sotig‘idir. Litsenziya – bu kelishilgan mukofot evaziga ma’lum muddat mobaynida tijorat va boshka mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga - haridorga ixtirodan, texnologiya bilimidan, texnologiyadan, ishlab chiqarish tajribasidan, ishlab chiqarish sirlaridan, savdo markalaridan foydalanish uchun beriladigan ruxsatnomadir.

Litsenziyalar bozorining predmeti sifatida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

- patent litsenziyalar, ya’ni tegishli yangi ishlanmalarsiz patentdan. foydalanish huquqining berilishi (sof lizing);

- patentsiz litsenziyalar, ya’ni yangi ishlanmalarni qo‘lga kiritish. Patentsiz litsenziyalarning roli (so‘nggi yillarda bu bozor qisqarib borayotganiga qaramay) patentli litsenziyanikiga nisbatan yuqoriroqdir. Bu rivojlangan mamlakatlarda texnologiya yechimlari, ixtirolar va yangi texnologiya bo‘yicha ishlab chiqarilgan tovarlarga patent berilayotgani bilan bog‘liqdir.

Jahon amaliyotida litsenziya bitimlaridan tobora tez-tez foydalanilmoqda. Bunday bitimlarda bir nechta patentni va ular bilan bog‘liq yangi ishlanmalarni kompleks ravishda berish nazarda tutiladi. Ko‘pincha bu injiniringda, dastgoh va xomashyolarni yetkazib berish bilan birga ko‘zatiluvchi litsenziya asosida ishlab chiqarishni tashkil etishda qo‘llaniladi. Bunday bitimlarda litsenziyalar o‘zini litsenziatning raqobatidan himoya qilish uchun litsenziyali mahsulotni eksport qilish huquqini nazarda tutadi.

Ko‘pincha imtiyozli shartlar bilan litsenziyalar savdo-sotig‘ining alohida ko‘rinishi sifatida litsenziyalar barteridan foydalaniladi. U dastavval 70 yillarning o‘rtalarida vujudga kelgan bo‘lib, hozir tobora rivojlanib borayapti. Barter almashuvi xususiy monopolistik (firmaning ichki) xarakterga ega, bu ilmiy - texnika yangiliklari xalqaro almashuvining bosh sub’ektlari savdo - iqtisodiy strategiyasi bilan bog‘liq. Yangi ishlanmalar, agar ular tijorat mohiyatiga ega bo‘lsa, ulardan ishlab chiqarish jarayonlarida va professional amaliyotda qo‘llanish mumkin bo‘lsa, inson faoliyatining barcha jabhalariga oid texnika bilimlarini, amaliy tajribalarni yetkazib berish imkonini beradi. Yangi ishlanmalar tijorat sirlarini, patentlashtirilmagan texnologiya

jarayonlarini, ishlab chiqarish va savdo-sotiqqa aloqador, keng jamoatchilik ko'liga qirita olmaydigan har xil axborotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Yangi ishlanmalarni sotish litsenziya bitimini to'zish bilan bir yo'la amalga oshiriladi. Ularning sotilishi texnika sohasidagi hamkorlik haqidagi shartnomalarda, konsalting va boshqa xizmatlar ko'rsatish haqidagi shartnomalarda nazarda tutilishi mumkin.

### **57.6. Injiniring xizmatlarining xalqaro bozori**

Injiniring jahon xizmatlar bozorining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Injiniring – bu sanoat, infratuzilma, qishloq xo'jaligi va boshqa ob'ektlar qurilishiga xizmat ko'rsatish hamda ulardan foydalanish bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlarini tayyorlash va mahsulot realizatsiyasiga doir faoliyatning mustaqil sohasiga ajralib chiqqan tijorat xususiyatiga ega xizmatlar majmuidir. Bu xizmatlar aql mahsuli bo'lib, amalga oshirishning barcha bosqichlarida investitsiya loyihalarini optimallashtirishga qaratilgan.

Injiniring xizmatlarining xalqaro savdo-sotig'i chet ellarda sanoat ob'ektlarini, boshqa ob'ektlarni loyihalashtirish va bunyod etish jarayonida bir davlatning ikkinchisiga muhandislik hisob-kitoblarining, maslahatlarning, muhandislik - qurilish xizmatlarining yetkazib berilishidan iborat.

Injiniring xizmatlari bozori 60 yillarning oxirida rivojlana boshladi, ammo tekis rivojlanayotgani yo'q. 60-70 yillarda Yevropa mamlakatlarida muhandislik - maslahat xizmatlari eksporti kuchaygani ko'zatildi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam qursatish bo'yicha xalqaro dasturlarning amalga oshirilishi bilan izohlanar edi. 70-80 yillardagi jahon iqtisodiyotidagi tushkunlik xizmatlarning ana shu turiga talabni pasaytirib yubordi. Ammo 80 yillarning ikkinchi yarmiga kelib, ana shu xizmatlar hajmining, ayniqsa Markaziy va Sharqiy Yevropada o'sishi qaytadan ko'zatildi. 1987 yildan boshlab muhandislik - maslahat xizmatlarining milliy bozorlari, keyinchalik esa muhandislik - qurilish xizmatlarining bozorlari kengaya boshladi. Ana shu bozorlarning rivojlanishida chakana investitsiyalarning ko'payganligi ma'lum rol o'ynadi. 1997 yilda bozorda yangitdan ko'tarilish ko'zatildi, bunga yalpi iqtisodiy o'sishning turg'un sur'atlari turtki bo'ldi. Boshlangan valyuta - moliya inqirozi (1997 yil iyul) bu tamoyilga to'siq bo'la olmadi, ammo ya'ni kelajakda kon'yunkturaning bo'zilishiga zamin yaratdi.

Injiniring xizmatlari bozorining rivojlanishiga quyidagi uch omil o'z ta'sirini utkazdi:

- davlat va xususiy investitsiyalarning hajmi, bu yangi ob'ektlar qurilishini kengaytirish va ishga tushirish imkonini beradi, mazkur ob'ektlarni



- loyihalashtirishda injiniring xizmatlari kerak bo‘lib qolishi mumkin;
- fan-texnika taraqqiyoti, turli mamlakatlarda uning natijalari har xil, bu maslahat xizmatlarini, loyihalarni bir mamlakatdan ikkinchisiga eksport qilish zaruratini keltirib chiqaradi;
  - injiniring xizmatlari bozorida joylashtiriladigan erkin kapitalning mavjudligi.

### **57.7. Konsalting xizmatlari**

Konsalting – bu mustaqil sohaga ajralib chiqqan tijorat xarakteridagi xizmatlar majmui bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish jarayonini tayyorlash hamda ta‘minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Boshqacha qilib aytganda, bu xo‘jalik faoliyatining turli ko‘rinishlarini axborot, konsalting va ekspertiza tarzida mashina vaqtini taqsimlash tartibida mijozlarning buyurtmalarini bajarish bo‘yicha axborotlarni ishlash va axborot xizmati ko‘rsatish bilan bog‘liq xizmatlar yig‘indisidir.

Konsalting xizmatlari savdosining o‘ziga xos jihati shundaki, eksport mazkur xizmat (maslahatlar, ishlatish)ning o‘zini import qiluvchi mamlakatga vaqtincha ko‘chirish yo‘li bilangina amalga oshirilishi mumkin. Bu tashqi iqtisodiy faoliyat mazkur ko‘rinishining yangiligi bilan emas, aytib o‘tilgan xizmat turining ko‘p sonli xususiyatlari bilan izohlanadi, ularni iste‘mol qilish vaqti ishlab chiqarish va realizatsiya qilish vaqtiga to‘g‘ri keladi.

Konsalting xizmatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- professional menejerlarni yoki ularning brigadalarini, umuman firmalarni bevosita boshqarish;
- xo‘jalik ob‘ektining tashkiliy faoliyatida yordam berish;
- kompaniya imijini (obro‘yini) shakllantirish.

Ushbu holda konsalting firmalari buyurtmachiga taklif qilinayotgan dastur amalga oshirilishi ustidan to‘liq nazoratni olib boradilar. Bu konsaltingning jahon savdo-sotig‘ida nisbatan eng ko‘p tarqalgan ko‘rinishidir. Uning savdo-sotig‘i hajmi jami konsalting xizmatlari eksportining 25 foizidan ortiqrog‘ini tashkil etadi.

Konsalting xizmatlarining klassik varianti 20 yillarda AQSh da paydo bo‘ldi. 50-60 yillarda u yanada rivoj topdi. 50 yillarning ikkinchi yarmida u Yaponiyada paydo bo‘la boshlaydi, ammo 70 yillarga qadar tadqiqotlar faqat chet el bozorlariga nisbatan, Yaponiya eksportini rivojlantirish va uni xomashyo bilan ta‘minlash maqsadida olib boriladi. 70 yillarda Yaponiyaning 50 ta konsalting firmasi marketing xizmatlari uyushmasiga birlashdi, shu davrdan boshlab uning xizmatlari hajmi har yili 8 - 8,5 foizga o‘sib borayapti. 60 yillarda G‘arbiy Yevropada ham konsalting xizmatlari bozori

rivojlana boshladi. Bunga qulay shart-sharoit - umum e'tirof etgan ko'p sonli universitetlar va firmalarning mavjudligi o'z ta'sirini o'tkazdi.

### **57.8. Axborot xizmatlari**

Xizmatlar orasida axborot xizmati sodasi, ya'ni axborotlarning har xil turlari savdo-sotig'i o'ziga yarasha o'rin egallaydi. Jumladan, axborotlar bozoriga amaliy, huquqiy, ekologik, tibbiy va boshqa axborotlar mutaxassislar uchun mo'ljallangan axborotlar va ommaviy iste'mol qilinadigan axborotlar kiradi. Jahon axborot bozorining nisbatan muqim rivojlanayotgan qismi amaliy axborotlar sektori hisoblanadi. U ayrim tovar bozorlari va davlat bozorlari haqidagi axborotlarni o'z ichiga oladi. So'nggi vaqtlarda milliy va jahon iqtisodiyotlari makro va mikro darajalari o'rtasida tezkor axborot tarmoqlarini tashkil etuvchi axborot xizmatlari, ayniqsa, jadal rivojlanib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar va ta'limning, bo'sh vaqtdan foydalanish, kredit, moliya sohasining yanada rivoj topishi aynan shu axborotlar majmui bazasida ro'y beradi. Sababi, ularning mahsulotlari to'la-to'kis mijozlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan.

Axborot xizmatlarining jahon bozori quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- so'nggi yillarda axborotlarga ehtiyojning sezilarli darajada oshib borishi kuzatilmoqda. Ko'pgina firmalar o'z korxonalari faoliyatini boshqarish uchun, birinchi navbatda, bozor strategiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli dasturlarni yaratish, ishlab chiqarish va savdo-sotiqning istiqbolli yo'nalishlarini tanlash uchun axborotlar yetishmovchiligini his eta boshladi. Axborotga ehtiyojning usishi kompaniyalarni boshqarish strukturasi umuman murakkablashib borayotgani, ularni oldida bashorat qiluvchi axborotlar asosida dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish zarurati ko'ndalang turganligi bilan izohlanadi.
- Elektron hisoblash texnikasini jadal rivojlantirish bazasida prinsip jihatidan mutlaqo yangi texnologiyani joriy etish. Hozirgi zamon aloqa kanallari vositasida operatorlar juda olisdagi axborot manbalariga yoki boshqa kompyuterlarga ulanishlari mumkin. Aloqa tizimlari o'z kanallari orqali ma'lumotlarning murakkab oqimini boshkarish uchun mikroelektronika va kompyuterlardan foydalanadilar. Kompyuterning telekommunikatsiya bilan birlashuvi butun aloqa tizimida jiddiy siljish yuzaga keltirdi va elektron pochta, "Videomatn", "Telematn" tizimlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu uyingizdan chiqmay turib, istalgan maslahatlashuvlarni o'tkazish, turli-tuman amaliy operatsiyalarni olib borish imkonini beradi.
- Axborot tizimlarida yangi texnologiyaning bazasini tashkil etuvchi

dasturlar ta'minotining jadal kengayishi. Dasturlar ta'minotining o'sish sur'atlari hatto informatikaning asosiy tarkibiy qismlarining nisbatan baland o'sish sur'atlari manzarasida ham 80 yillarning oxiri 90 yillarning boshida iqtisodiy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan o'zib borar edi.

— Yangi, yanada murakkab EHMning paydo bo'lishi bilan texnik vositalar va dasturlashtirishning bahosi mutlaq qiymatini olganda ham umuman oshib boradi, ayni vaqtda firmalarning axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishga sarflaydigan harajatlari elektron hisoblash texnikasini harid qilish va rivojlantirishga sarflaydigan xarajatlaridan ancha yuqori bo'ladi.

Axborot xizmatlari bozorining asosiy sub'ektlari kompaniyalar - ma'lumotlar banklarining egalari va vositachilar hisoblanadi. Qudratli moliya va texnika bazasiga, mijozlarning keng shaxobchasiga ega noshirlik va tadqiqot tashkilotlari hamda ularning filiallari axborot egalari hisoblanadi. Axborot egalari o'z filiallaridan, mijozlaridan ma'lumotlarni qabul qilib oladilar, qayta ishlaydilar, saqlaydilar va tijorat asosida vositachilarga yetkazib beradilar. Vositachilar o'z navbatida axborotni iste'molchilarga yetkazib beradi. Qayta ishlanayotgan axborotlar hajmi kengayib borishi munosabati bilan qayta ishlash texnikasi va usullarini tanlash, ma'lumotlarni saqlash va ularning ichidan zarurini izlab topish axborot egalari oldida turgan eng murakkab masalalarga aylanmoqda. Ana shu masalalarni hal etish uchun maxsus dasturlar ta'minoti yaratilmoqda, ular jami axborotlar massasi bilan birga ma'lumotlar bankini tashkil etadi.

### **57.9. Transport xizmatlari bozori**

Transport xizmatlari bozori deganda, yuklarni bir mamlakatdan ikkinchisiga yetkazib berish, transportda tashish bilan bog'liq xizmatlar savdo-sotig'i tushuniladi. Transport tovarlarning tashqi savdo-sotig'ida yetakchi, bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Tovarlarni o'z-o'zidan xaridorga yetib bormaydi, shu sababli ularni xaridorga yetkazib berish bilan bog'liq ma'lum vositachilik operatsiyasi vujudga keladi, ular o'z navbatida mustaqil xizmatlar sohasiga - transport tashkilotlari amalga oshiradigan transport operatsiyalariga ajralib chiqadi. Bunday operatsiyalar ham milliy (mamlakat ichkarisida transportda tashish), ham xalqaro bo'lishi mumkin.

Xalqaro transport xizmatlari o'ziga xos tovar hisoblanadi, ular xalqaro transport bozorlarida sotiladi va sotib olinadi. Ular bir – biridan quyidagi omillarga ko'ra farq qiladi:

1) Yuk tashiladigan geografik hududlarga ko'ra – mamlakatlararo va qit'alararo bo'lishi mumkin. Geografik jihatdan olganda, so'nggi vaqtlarda turli mamlakatlar va qit'alar oralig'ida yuk va yo'lovchilarni tashish tobora

yagona texnologiya jarayoniga aylanib bormoqda. 90 yillardan boshlab, transport yo‘laklari deb atalmish, qator mamlakatlar hududi orqali tegishli moliya va huquqiy ta’minot bilan yuk va yo‘lovchilarni tashish uchun ma’lum yo‘nalishlarda bir yo‘la transportning bir necha turlarini birlashtiruvchi yo‘laklardan keng foydalaniladigan bo‘ldi.

2) Tashilayotgan yukning turiga ko‘ra – yuk tashish, yo‘lovchilarni tashish. Yuk tashuvchi transport ayniqsa rivojlangan. AKD, Buyuk Britaniya, Fransiya yuk va yo‘lovchilarga transport xizmatini ko‘rsatish bozorida yetakchi rol o‘ynaydi.

3) Transport turiga ko‘ra – dengiz orqali yuk tashish, ichki suv havzalari transporti, avtomobil, havo transporti, quvur orqali, temir yo‘l transporti.

### **57.10. Sug‘urta va bank xizmatlari bozori**

Jahon xizmatlari bozorida sug‘urta va bank xizmatlari savdo-sotig‘i sezilarli o‘rin egallaydi.

Sug‘urta xizmatlari – bu turli xavf-xatarlardan sug‘urta qilish bo‘yicha xizmatlar majmuidir. Ularning vujudga kelishi xizmatlar bozorining rivojlanishi bilan bog‘lik bo‘lib, transport xizmati kabi xizmatlarni ko‘rsatish ma’lum xavf-xatarlar bilan bog‘liq ekanligi bilan izohlanadi. Xalqaro tovar oboroti, avvalambor, transportda yuk tashishga xos bo‘lgan xavf-xatarlar bilan bog‘liq. Shuning uchun tashqi iqtisodiy faoliyatni sug‘urta qilishda dengiz, havo, quruqlik transporti sug‘urtasi markaziy o‘rinni egallaydi. Tashqi iqtisodiy yuklarning aksariyat qismi dengiz transporti bilan tashilishi sababli dengiz transporti sug‘urtasi ana shu ro‘yxatda birinchi o‘rinni egallaydi. Transport va yuklar sug‘urtasi - kasko va kargo xalqaro sug‘urta kompaniyalarining mulk sug‘urtasida asosiy hisoblanadi.

Turizmning rivojlanishi xalqaro sug‘urtaning shaxsiy sug‘urta kabi turi paydo bo‘lishiga olib keldi, tegishli polisi bo‘lmasa, turist birorta ham mamlakatga kiritilmaydi. Bundan tashqari shaxsiy sug‘urta hayotni sug‘urta qilishni, birgina turistlarnigina emas, har bir fuqaroning baxtsiz tasodiflardan sug‘urta qilinishini ham o‘z ichiga oladi. Bunday xizmat sug‘urta kompaniyasi tomonidan nafaqat o‘z fuqarolariga, shu bilan birga chet el fuqarosiga ham ko‘rsatilishi mumkin, bu uni xalqaro xizmat turiga aylantiradi.

Mas’uliyatni sug‘urtalash bo‘yicha polislar savdo-sotig‘i, jumladan, zayom olgan shaxs kreditni qaytarmagan hollar uchun mas’uliyatni sug‘urtalash salmoqli o‘rin egallaydi. Xalqaro kreditlarning rivojlanishi ana shu kreditlarni ta’minlash zaruratini keltirib chiqardi, mas’uliyatni sug‘urtalash shu yo‘ldagi kadamlardan biri bo‘ldi. Odatda, bunday sug‘urta xizmatlari eksport kreditlarini davlat sug‘urtalashi ko‘rinishida amalga

oshiriladi, sababi, davlat sug'urtasi arzon narxlarda (shartnoma sug'urta qilingan qismining 1 foizi qiymatida) amalga oshiriladi, bu tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar olish imkonini beradi. Avtohavaskorlar mas'uliyatini sug'urtalash ko'pchilikka yaxshi ma'lum va rivojlangan sug'urta xizmati hisoblanadi. Kompaniyalar tomonidan bunday xizmatlar barcha mamlakatlarda ko'rsatiladi, ko'pgina mamlakatlarda esa, bu xizmat majburiy hisoblanadi. Sug'urta bozori rang-barang va ko'p qiyofalidir.

Huquqiy jihatdan olganda, har qanday xalqaro sug'urta operatsiyasi sug'urta shartnomasi tuzilishini taxmin qiladi. Agar bunday shartnoma qatnashchilari turli mamlakatlarda bo'lishsa, shuningdek, sug'urta ob'ekti sug'urta qilayotgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lsa, bunday bitim xalqaro bitim hisoblanadi.

Quyidagilar xalqaro sug'urta operatsiyalari sirasiga kiradi:

- To'g'ridan-to'g'ri xalqaro shartnoma operatsiyalari (bir mamlakatning sug'urta qiluvchisi ikkinchi mamlakatdagi sug'urta qiluvchi bilan kelishadi). Bunday shartnomalar chet ellik sug'urta qiluvchining bosh kompaniyasi bilan ham, shuningdek, sug'urta vositachilari yoki brokerlar orqali ham tuzilishi mumkin.
- To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari. Ular sug'urta qiluvchining chet eldagi agentlik organlari tomonidan tuziladi.
- Operatsiyalarning institutsional shakllari (sug'urta shartnomasi chet eldagi huquqiy jihatdan mustaqil sug'urta kompaniyasi, ya'ni shu'ba kompaniyasi tomonidan tuziladi).
- Xalqaro qayta sug'urta qilish operatsiyalari.

Jahon sug'urta bozorining globalashuvi milliy bozorlar o'rtasidagi chegaralarni barbod etmoqda.

Jahon ko'lamida jami sug'urta bozorining yarmini nazorat qiluvchi ATSTTT sug'urta bozori ayniqsa, katta ahamiyatga ega. U sug'urta hajmini olganda ham, aholi jon boshiga hisoblaganda ham yetakchi o'rinni egallaydi. Angliyaning sug'urta sektori ham o'ziga xos rol o'ynaydi. Jahonning ko'pgina mamlakatlarida o'z a'zolariga ega bo'lgan Lloyd sindikati ana shu sektorning – asosiy vakili hisoblanadi. Yaponiyaning sug'urta bozori ham kengayib bormoqda.

Bank xizmatlari bozorining sug'urta bozori kabi shakllanganiga ko'p bo'ldi. Uning ahamiyati beqiyos desak, mubolag'a bo'lmaydi. Yirik milliy va xalqaro banklar ana shu bozorning agentlaridir. Ular nafaqat o'z mamlakatlaridagi mijozlarga, shu bilan bir qatorda, yoxud o'zlarida, yoxud chet davlatlarda o'z filiallari va bo'limlarini ochish yo'li bilan ana shu davlatlarda xorijiy mijozlarga xizmat ko'rsatadilar. Banklarning talaygina

qismi xalqaro xarakterga ega bo'lganligi sababli, millatlararo banklarga aylangan. Ular chet ellarda keng institutsional shaxobchalarga ega, ularning operatsiyalari hajmi yildan-yilga kengayib bormoqda. Ayni vaqtda, bank kapitalining jamlanish va markazlashuv jarayoni, ma'lum cheklashlarga qaramay, banklarning birlashib ketishiga olib kelmoqda. Chunki, yirik banklarga nafaqat raqobat qilish, shu bilan birga o'z faoliyat doiralarini kengaytirish, amalga oshirilayotgan operatsiyalar sonini, turlari va hajmini ko'paytirish osonroq kechadi. Xalqaro darajada banklar amalga oshirayotgan operatsiyalarning asosiy turlari depozit va kredit operatsiyalari hisoblanadi.

### **Qisqacha xulosalar:**

Ma'lumki, hozirgi jahon iste'mol tovarlari bozorlari bilan birgalikda jahon xizmatlar bozori ham rivojlanib kelmoqda, ya'ni jahon xizmatlar bozori alohida shakllanmoqda, bular jumlasiga yangi-yangi xizmatlar - turizm, ta'lim, meditsina sohalari kirib kelmoqda. Ulardan tashqari jahon xizmatlar bozorida qatnashuvchilar qatoriga har xil transport xizmatlarini ko'rsatuvchi: dengiz va daryolar transporti, havo yo'llari transporti, avtomobil yo'llari transporti hamda temir yo'llari transporti kiradi.

Oxirgi o'n yillikda jahon xizmatlar bozorining hajmi olti marotaba oshdi va 600 mlrd. dollarni tashkil etdi. Jahon tovar oborotida xizmatlar qismi 19% ga oshdi. Agarda investitsiyalardan va ish haqidani kelgan daromadlarni qo'shib hisoblansa, bu ko'rsatkich 33% gacha oshadi, bunda xizmatlar eksporti 18,7% ga o'sadi. Albatta bunday o'sish ma'lum omillarning mavjudligiga bog'liq va avvalambor, birinchi navbatda, texnologiyaning inqilobiy o'zgarishlariga ularning yangi-yangi xizmatlar turlarining paydo bo'lishiga olib kelishi va ularga talabning kengayishi; ulardan tashqari telekommunikatsiya va axborot xizmatlari to'g'risidagi texnologik dasturlarning tez o'sishi ham yangi - yangi xizmatlar turlarining paydo bo'lishiga olib keldi, masalan, harakatchan aloqa tizimi bozorining rivojlanishiga; tovar shaklidagi xizmatlarga talabning o'sishiga (moliyaviy xizmatlar, sug'urta, bank xizmatlari).

Umuman xalqaro xizmatlar savdosining o'sishi, ularning TMK ichki ishlab chiqarish faoliyatining tarkibiy elementiga aylanishi jahon xizmatlar bozorini tartibga solish zarurligini o'rta qo'yadi.

Xalqaro xizmatlarni tartibga solish mexanizmining asosiga quyidagi prinsiplar qo'yilishi kerak:

- Bozor rakobati. Hamma mamlakatlar uchun barobar raqobatchilik muhitini yaratish, bozorga erkin kirish, tarif, boj, soliq kabi to'siqlarni va jiddiy taqiqlarni bekor qilishdir. Jahon xizmatlar bozorida qatnashish uchun

mamlakatlarga mumkin qadar qulaylik berish rejimini yaratish, bozor sub'ektini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xizmatlar eksporti va importini rag'batlantirish.

- Rivojlanib kelayotgan davlatlarga o'zlariga xos, tabaqalashtirilgan munosabatda bo'lib, bu davlatlar uchun har xil to'siqlarni bekor qilib, ular tomonidan ko'rsatilgan zamonaviy xizmatlarni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa texnologik xizmatlarni kengaytirish, xizmatlar bozorida eksportchi va importchi sifatida qatnashishiga imkoniyat yaratish, iqtisodiy qoloq, kam rivojlangan davlatlarga texnologiyalardan foydalanishda, patent, litsenziyalarni olish, turizm xizmatlarini rivojlantirishda, konsalting, injiniring kabilarni egallashda iqtisodiy yordam berish kerak.

### **Asosiy tushunchalar:**

Jahon xizmatlar bozori. – bu xalqaro tovar almashinuvida asosiy soha bo'lib, xizmatlarning oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol uchun belgilanganligini mustahkam, doimo xarakterlaydi. Hozirgi vaqtda jahon savdosida xizmatlar almashinuvi zimmasiga deyarli 1/3 qismi to'g'ri keladi. Bularning orasida axborot vositasi, injiniring, konsalting va boshqalar asosiy ob'ekt bo'lib hisoblanadi.

**Xizmatlar bozorining tarkibiy tuzilishi** – ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xalqaro turizm bozori;
- xalqaro texnologiya xizmatlari bozori;
- litsenziya va patent xizmatlari bozori;
- xalqaro injiniring xizmatlari bozori;
- konsalting xizmatlari bozori;
- axborot xizmatlari bozori;
- transport xizmatlari bozori;
- sug'urta va bank xizmatlari bozori va boshqalar.

### **Mavzuning namunali rejalari:**

1. Jahon xizmatlar bozori tushunchasi va asosiy belgilari.
2. Jahon xizmatlar bozorining tovar bozorlaridan farqi va bir- biridan ustunligi nimada?
3. Jahon xizmatlar bozori turlari va ularning farqlari.
4. O'zbekistan Respublikasining jahon xizmatlar bozorida qatnashishi, xizmatlar eksporti va importi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar:**

1. Jahon xizmatlar bozori nima?
2. Jahon xizmatlar bozorining turlari va ularning farqlari.
3. Jahon xizmatlar bozorining qatnashchilari (sub'ektlari) o'rni.

### **Mustaqil o'qish uchun savollar:**

1. Jahon xizmatlar bozorining shakllanishi va shart-sharoitlar tushunchasi.
2. Jahon xizmatlar bozorining tasnifi va turlari.
3. Jahon xizmatlar bozorining iqtisodiy asoslari.
4. Jahon davlatlarining iqtisodiy munosabatlari va xizmatlar bozorida integratsiyalashuvi.



## **58 BOB. MILLIY IQTISODIYOT JAHON SATHIDA**

### **58.1. Jahon xo‘jaligi megaiqtisodiyot sifatida**

Sobiq ittifoq parchalanganidan keyin butun jahon iqtisodiga har tomonlama ta‘sir ko‘rsatmoqda, Oldin ikki tizimli (sotsialistik va kapitalistik) rivojlanishga asoslangan bo‘lsa, hozirgi vaqtda bir tizimli rivojlanish hukmronlik qilmoqda, (rivojlangan, rivojlanib kelayotgan sobiq sotsializm tarkibidan chiqqan davlatlar ham). Shunday sabablardan biri, bu hozirgi zamon sharoitida milliy iqtisodiyotning ahvoli va kelajakda rivojlanishini jahonning umumiy rivojlanishidan alohida ko‘rsatib baholash murakkab bo‘lmoqda. Jahon xo‘jaligining tezda o‘sishi milliy rivojlanishga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shunday bo‘lsa ham jahon xo‘jaligining fundamental o‘zgarishi jahon xo‘jalik tizimining yangi sifati haqida gapirishga ijozat etadi, bunda xo‘jalik sub‘ektlarining o‘zaro harakati oldingiga qaraganda ancha chuqur va ko‘p qirrali bo‘lmoqda.

Milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jalik tizimida harakat qilish prinsiplarini aniqlash uchun, ko‘rilayotgan gipoteza sifatida megaiqtisodiy butunlikning shakllanishi haqida tasdiqlashni qo‘llaymiz.

An‘anaviy iqtisodiyot nazariyasida “iqtisodiyot” tushunchasini keng foydalanadigan tushuncha deb bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsa ham, uni “mikro” va “makroiqtisodiyot” tushunchalarining nuqtai nazardan mantiqiy qatoriga yaqinligini kiritish haqlidir. Axir xo‘jalik jarayonlarini tashkillashtirishda mikro-, mezomakro- va mego iqtisodiyot darajalarni farqlash mumkin.

Iqtisodiyotning asosiy takror ishlab chiqarish qismi (elementi) bu mikroiqtisodiy xo‘jalikdir (korxonalar, uy xo‘jaligi va boshqalar).

Iqtisodiyotning boshqa asosiy tarkibiy qismi mezo-iqtisodiy xo‘jalikda ko‘rsatilgan. Bular tarmoq, hudud, sektor kabilardir.

Iqtisodiyotda butunlik ostida ko‘pincha milliy xo‘jalik (mamlakat xo‘jaligi) tushuniladi. Aynan u makroiqtisodiy takror ishlab chiqarish funksiyasini bajaradi. Makroiqtisodiy butunlik milliy darajada tugallanmaydi. U ko‘proq yirik halqaro, jahonshumul ma‘nolarga o‘tishni anglatadi. Jahonshumul nafaqat mikro va mezo qismlardan, balki makro qismlardan iboratdir. Bunday mikro va makro tuzilishlarni mega butunlik deb nomlash qabul qilingan. Bu o‘z navbatida megaiqtisodiyotni anglatadi. Megaiqtisodiyot sathi jahonshumul, planeta miqyosidagi rivojlanishni anglatadi.

“Megaiqtisodiy” tushunchasi jahon xo‘jaligining shunday darajasini xarakterlaydi, ya‘ni bunda uning tizimlari, elementlari va sub‘ektlari o‘zaro boyligi bilan, o‘zaro kirishuvi bilan, o‘zaro taqozo qilishi, o‘zaro bog‘liqligi va harakati bilan ifodalanadi.

Har zamonda nemiy tadqiqotchilar iqtisodiyotning globallasuvi haqida gapiradilar.

### **Ishlab chiqarishni xalqaro umumlashtirish**

Jahon xo‘jaligining butunlik sifatini shakllantirishga yordam beradigan omillarni ko‘rib chiqamiz.

Megaiqtisodiyot iqtisodiy xo‘jalikni rivojlantirishning natijasi bo‘lib hisoblanadi, ya’ni makro takror ishlab chiqarishning chegarasidan chiqishga bundagi makroiqtisodiy sathga ega. Bunday jarayonlar asosida ikkita murakkab dialektik birlik yotadi. Bir tomondan, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan mehnat taqsimoti to‘xtovsiz ro‘y bermoqda, ixtisoslashish chuqurlashmoqda, asta-sekin xo‘jalik faoliyatining yangi sohalari, tarmoqlar, tarmoqqa kiruvchilar alohidalashmoqda. Boshqa tomondan - bu ixtisoslashgan mehnat turlari orasidagi to‘xtovsiz tiklanish mustahkamlanishi va aloqalarining murakkablashishi va o‘zaro bog‘liqligi faoliyat sohasida, tarmoqlar, tarmoqlarga kiruvchilar - ishlab chiqarishni umumlashtirish ro‘y bermoqda. Shu bilan birga mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishni umumlashtirish o‘zaro organik jihatdan bog‘langan, bir-birini shartli ravishda taxmin qiladi va o‘zaro to‘ldiradi. Bular har bir jarayonning o‘z navbatida har xil shaklda murakkab bo‘lib o‘tadigan jarayondir. Bular iqtisodiy tizimlarning har xil darajalarida mikro-, makro-, mezo- va mego darajalarida kengaytiriladi. Ushbu mega jarayonni darajada “halqaro umumlashtirilgan ishlab chiqarish” deb nomlanishi qabul qilingan.

### **Jahon xo‘jaligining texnologik birligi**

Jahon xo‘jaligi butunligining shakllanishi ishlab chiqarishning texnologik va milliy iqtisodiyotning yaqinlashishi va chatishibketishi bilan bog‘liq. Bu o‘z navbatida yangi axborotlashuv va kommunikatsiya texnologiyalarning (AKT) prinsipial ravishda paydo bo‘lishi bilan bog‘liqligi mumkin bo‘ldi. XVIII-XIX asrlarning marralarida sanoatda ro‘y bergan inqiloblardan iqtisodiy texnikaviy bir-birini izchil almashtiradigan texnologik ukladlar taraqqiyotini sanash boshlandi. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlar o‘zlarini beshinchi texnologik ukladlarning axborotlashuviga oid o‘sish davrida turmoqda. Axborotlashuv ukladi tarmoqlariga yuksak texnologiyalar, dasturlar mahsulotlar ishlab chiqarish, fan, ta’lim, elektrlashgan kommunikatsiyalar, reklamalar, ommaviy axborotlashuv vositasi va boshqalar kiradilar.

AKT ishlab chiqarish omili sifatida amalda barcha jahon xo‘jaligi sohasining o‘zaro harakatida qo‘llanilmoqda. Xususan, ular tez davom etadigan o‘zgarishlar miqyosi uchun asos bo‘lgan moliyaviy sohaga faol joriy etilmoqda, ya’ni ularni ko‘pincha “moliyaviy inqilob” sifatida

xarakterlaydilar. AKTni xalqaro operatsiyalarni hamda rasmiy marosimlarni amalga oshirishda firmalarning tashkiliy tuzilish sifatida ifoda etiladi. Ularning asosida har xil turdagi ko'rsatiladigan xizmatlar rivojlanmoqda.

Yangi texnologiyalar jahon xo'jaligining o'zaro harakatidagi vaqtincha va fazoli koordinatlarini o'zgartiradilar. Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi uzoq joylashgan bozorlarga chiqib sanoqli daqiqalarda axborotlarni olish imkoniyatlarini yaratadi. Masofalarning juda ham ko'p faoliyat turlari uchun mavjudligi to'xtatilmogda.

IKTning rivojlanishidagi erishilgan yutuqlar iqtisodiy faoliyatlarni amalga oshirish uchun global elektron muhitlarni shakllanishiga olib keladi va "chegarasiz" iqtisodiyot yuzaga kelmoqda.

### **Tovar shaklining tadrijiy rivojlanishi**

Yangi texnologiyalarning ta'siri ostida nafaqat yangi tovar va xizmatlar yuzaga keladi. Tovar shaklining o'zi sifatli ravishda transformatsiyalashuviga bardosh bermoqda.

XX asrning boshlanishida xo'jalik oborotiga tortilgan tovar shakli bilan bugungi kunda tovarning shakli mohiyatan har xildir. Hozirgi vaqtda xalqaro tovar muomalasi doirasida tovar evolyutsiyasining oddiy shaklidan murakkab kombinatsiyasigacha va buning asosida yuqori darajadagi tovarlar shaklining paydo bo'lishi aniq: tovar-ob'ekt, tovar dastur ko'zatilmoqda.

Tovar – guruhlarining shakli talab segmentatsiyasining va taklif differensiyasining keng ta'siri ostida yuzaga keladi. Bir vaqtda ikkita "assortimentning paydo bo'lishi va tovarni komplekt guruhlariga birlashtirishi" jarayoni yuz beradi. Tovarlarining to'xtovsiz o'sib borayotgan assortimentini, ularning iste'mol xususiyatini ochib ko'rsatish, ya'ni tovarlardagi "assortiment shleyf" tushunchalarini kengaytirib ko'rsatish, hozirgi zamonda va butunlay bir- biriga o'xshashini, bir-biridan bir necha xil turlari bilan farqlanib turishni va xarakteristikalarini aniqlab berishdan iborat. Hozirgi zamonda AQSh da 250-300ming xil, Germaniyada va Buyuk Britaniyada 100 ming, Yaponiyada va Italiyada 80-100 ming xildagi asosiy tipdagi mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqariladi.

Shu bilan birga, jahonda butunlay 600 ming asosiy tipdagi mashina va asbob-uskunalar mavjuddir.

Yirik loyihalarni realizatsiya qilish tovar-ob'ektning paydo bo'lishiga olib keldi (ob'ektlarni tayyor qilib qurib berish). Bu har xil ko'rinishdagi tovarlarning kompleks xarakteri: faqat keng doiradagi ishlarni o'rab olish va bir-biriga o'xshaydigan xizmatlar tipdagi "injiring" (oldindan qilingan ishlar, loyihalar, qurilishni boshqarish, tayyorlanish, sozlashga oid ishlar, ekspluatatsiya xizmatlari va boshqalar).

- bular bozorni kompleks o'zlashtirishni talab qiladi.

Yirik ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob'ektlarini realizatsiya qilish xarakteri bo'yicha tashqi iqtisodiy o'zaro harakatlar nafaqat bevosita mijozlarga va buyurtmachilarga mo'ljallangan, balki barcha shunday nomlangan "qimmatbaho tizimlarni yaratish" ni o'rab olishni ham mahsulotlarni yaratish va foydalanish jarayonida jalb etilgan, barcha turdagi faoliyatni o'z ichiga oladigan ishlab chiqarishning texnologik zanjirlarining cho'zilganligi har bir zvenoga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Har xil turdagi materiallarga butlovchi qismlarga, infrotuzilma xizmatlariga va boshqalar uzoq vaqtli multiplikatsion samaralarga olib boradigan talablar shakllanmoqda.

Yirik loyihalarni amalga oshirish uchun mamlakatlarning kuchlarini birlashtirish zarur bo'ldi, ya'ni kosmik texnikalar jahon iqtisodiy infrotuzilmalarni yaratish, gidrometo xizmatlar sohasida tabiiy va texnogen halokatlarning mumkin qadar ro'y berishi haqida bildirishlar, ishlab chiqarishni standartlash, transport va aloqa XX asrning yetmishinchi yillari oxirida tovar-tovar dasturlarining yangi turlarining yuzaga kelishi odatdagidek bo'lmagan o'zining iqtisodiy mazmuni va shakli paydo bo'lishga olib keldi.

Alohida mamlakatlarning agrosanoat tuzilmalarining rivojlanishini ta'minlaydigan aero kosmik biznesda loyihalar avtomatlashgan tizim va robotli texnika va xizmatlar sohasidagi ob'ektlar majmuasi axborotlarni taqsimlash va jamg'arish bilan bog'langan ob'ektlar kabi yirik ob'ektlar va inshootlar realizatsiya qilinmoqda. Tovar-dasturlarini sotuvchilar bir martalik samaralarga mo'ljallangan emas (bir yo'la foyda), balki milliy xo'jalikning butun tarmoqlarini va sektorlarining rivojlanishiga o'zining ta'sirini bo'ysundirishga intiladilar.

Tovar shaklining murakkablashish bo'yicha yagona boshqaruv va nazorat ostida g'oyat katta materialli-moddiy, mehnat va moliya-kreditlarning birlashishi yuz berdi.

### **Jahon iqtisodiyotining sub'ektlari**

Bugun jahon iqtisodiyoti har xil sifatlaridagi o'zaro harakatini va har xil tartibdagi davlatlar va nodavlatlar kayt sub'ektlarning yig'indisini o'z ichiga oladi.

An'anaviy sub'ektlar bilan davlatlar va TMK jahon iqtisodiyoti sub'ektlari sifati qatorida quyidagilar harakat qilmoqdalar:

- Xalqaro tashkilotlar: BMT, YuNYeSKO, XVF, jahon banki, VTO, FAO va boshqalar;
- Har xil hududiy tashkilotlar (ular oltmishga yaqin);

- Institutsional manfaatlar: pension va investitsiya fondlar, sugʻurta kompaniyalar va boshqalar;
- Jahon moliya markazlari (JMM);
- Ishlab chiqarish-hududiy majmualar;
- Katta shaharlar- London, Nyu York, Moskva, Tokio, Franifurtno-mayne, Parij, Toshkent va boshqalar;
- Baynalminal guruhlar;
- Har xil ijtimoiy harakatlar;
- Alohida - Dj. Soros, B. Geyts va boshqa kabi alohida individlar.

Jahon iqtisodiyotining sifatli koʻp obrazli subʼektlari asosida jahon xoʻjaligining oʻzaro harakatini qoʻllab mexanizmni koordinatsiyasi etadi. Anʼanaviy jahon xoʻjaligidan tashqari mego darajada subʼekt boʻlib milliy xoʻjaliklar chiqadi, boshqa institutsional shakllar ham foydalanishi mumkin, masalan “qattiq” yoki “yumshoq” tashkiliy tuzilishda har xil ijtimoiy harakatlar, shaxslar orasidagi assotsiatsiya shakllari va boshqalar.

### **Harakatchan ishlab chiqarish omillari**

Xalqaro savdo, moliyaviy va investitsiyaviy oqimlar hajmining oʻsishi jadallashmoqda, ularning oʻzaro aloqalari va oʻzaro bogʻliqligi kuchaytirilmoqda. Butun jahon savdo tashkilotining bergan bahosi boʻyicha (JST) oxirgi 50 yilda jahon savdosining oʻsish surʼati ishlab chiqarishning oʻsish surʼatiga qaraganda ikki marotabadan koʻproq oshdi. XX asrning oqimida jahon maxsuloti 18.8 barobar, jahon tovar eksporti esa 35,45 baravar koʻpaydi.

Shu bilan birga kapital eksporti anʼanaviy ravishda tovar eksporti dinamikasidan oʻzib ketmoqda. Bevosita chet el investitsiyalarining oʻrtacha yillik oʻsish surʼati deyarli uch baravar jahon YaIM ning shunga oʻxshagan oʻsish surʼatidan oʻzib ketdi. 2000 yilning boshlarida bevosita chet el investitsiyasining hajmi bir trln. AQSh dollaridan oshib ketdi. Jahonda jamgʻarilgan bevosita chet el investitsiyasining umumiy summasi 5 trln. AQSh dollariga yetib qoldi, 1980 yilga nisbatan oʻn baravar koʻpaydi.

Kapital harakati ustidan qatʼiy nazoratni bartaraf etgandan keyin moliya kapitalining haddan tashqari harakatchanligi yuz berdi. Xalqaro banklar orasida operatsiyalarning aylanmasi bir hafta ichida AQSh ning yillik ichki mahsulotiga teng boʻldi, toʻliq bir oy boʻlmagan aylanmasi esa butun jahon mahsulotiga teng boʻldi. Nyu York shahrining faqat valyuta bozoridagi bajarilgan operatsiyalar hajmi har kuniga 1.3 trln. AQSh dollariga teng boʻldi. Xalqaro qimmat baholi qogʻozlar bozorida esa hatto bu summadan oshib ketdi.

Aholining halqaro ko'chish masshtabining misli yo'q. O'tgan asrning 50 yillaridan boshlab aholi ko'chishining soni ikki baravardan ko'proq ko'paydi. Bugungi kunda o'ziga xos 125 mln odamdan ko'proq "milliy ko'chmanchi" shakli shakllandi.

### **Jahon xo'jaligi bir butunlik sifatida**

Jahon xo'jaligi ob'ektlarining transformatsiyalashuvidagi aloqalari, jahon xo'jaligi sub'ektlarining ko'p obrazli o'sishi, ishlab chiqarish omillarining harakatchan ko'payishi umum iqtisodiy, moliyaviy, axborotlashuv, transport, telekommunikatsiyaviy va boshqa sathlarga olib keldi, umuman bularsiz alohida mamlakatlarining rivojlanishi mumkin bo'lmas edi.

Natijada milliy iqtisodiyotni bir butunlik, ya'ni shu butunlikning bir qismi nuqtai nazardan boshqa bor qismlar bilan birga qarab chiqish mumkin. Jahon xo'jaligini bir butunlik sifatida va boshqalar bilan birga o'rganishda real aloqalarning sohibi bo'lmoqda. Albatta har bir milliy xo'jalik uning butunligini tan olishga ega. Ammo bu boshqa butunlikdan avtomatik alohida ajratib olinmagan butunlik. Bu butunlik, boshqalar uchun notipik ancha yirik butunlikni uning bir lahza bo'lib hisoblanadi.

Shu bilan birga jahon xo'jaligi bir butunlik sifatida uning qismlarga muvofiq to'zilgan xulq, fe'l-atvorini talab qiladi. Ammo bu hech qanday bir tizimning bir xil shakllanishi ma'nosini bildirmaydi. Jahon xo'jaligining bir butunlik doirasida milliy har xilligining cheksizligini saqlab qoladi. U faqat ko'proq jahon butunligi va uning aniq tizimiga bog'langan xolda milliy xo'jalikni baynalmilallikka o'zgartiradi.

Shuni esda tutmoq kerak, ya'ni to'liq ma'noli so'zda yagona jahon iqtisodiyoti (global) da, milliy xo'jalik yoki to'liq g'oyib yoki hali tuzilmagan yasama qism sifatida mavjud bo'ladi. Unga hali tamomila shakllanishi kerak. Jahon xo'jaligining butunligi – bu o'zining rivojlanishiga yetmagan vujudga kelish jarayonida turgan fenomendir.

### **Jahon va milliy xo'jalik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik**

Bu sharoitda alohida mamlakatlarning rivojlanish tahlili jahon xo'jaligi tuzilishining tahlilisiz o'tkazishi jahon xo'jaligining o'zaro harakati (davlatniki ham va nodavlatniki ham) sub'ektlarida mavjud ularning manfaatlari va mexanizmlaridan to'ldirilmagan va ishonchsiz bo'ladi. Shunga muvofiq agarda milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligi butunligining bir qismi sifatida ko'rib chiqilsa, iqtisodiy rivojlanishning o'sha yoki boshqa xarakterning olinishi mumkin bo'ladi (shakllanishi) faqat.

Jahon iqtisodiyoti va milliy xo'jalik orasidagi dialektik bog'liqligini ko'rib chiqamiz.

Xalqaro tizimning bitta o'zi bitta mamlakatdan iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishi va boshqa mamlakatda qiyin ahvolga solib qo'yishi yoki taqdim qilishi mumkin.

Milliy xo'jalikni jahon iqtisodiyotiga ulab qo'yishning katta har xil shakllari mavjuddir. Uning rivojlanishining ichki dinamikasi hamda jahon iqtisodiyotining o'sishi juda ko'p maxsus lahzalar bilan aniqlanadi. Jahon xo'jaligining aniq darajadagi butunlikka erishishi bo'yicha har xil sifatdagi bog'liqlikda tuzilishi suberdinatsiyalarning bog'liqligi, boshqaruv va boshqalar milliy xo'jalik bu tizimning qismi sifatida rivojlanmoqda.

Jahon xo'jaligi tizimining rivojlanish tendensiyalari milliy xo'jalikning boshqa davlatlar jahon xo'jaligining barcha sub'ektlari bilan yaqin aloqada, hamjihatlikda va raqobatlashuvda o'zaro munosabatlarni o'rnatish zarurligini shartlaydi.

### **Milliy xo'jalik va iqtisodiy chegaralar**

Milliy xo'jalik-bu tarixan aniq hududlar qabul qilingan makro iqtisodiy organizm doirasida, buning ichida mehnat tafsiloti asosida moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda, taqsimlash, ayirboshlash va to'xtovsiz iste'mol jarayonlarida amalga oshirilmoqda. Bir qancha yuz yilliklar mobaynida milliy davlatchilik shakllari jamiyatning xo'jalik ijtimoiy va madaniy hayotini tashkillashtirish uchun optimal ravishda qoldirilmoqda.

Milliy xo'jalik ichida ishlab chiqarishni umumlashtirish jarayonlari uning orasidagiga qaraganda intensiv ravishda o'tmoqda. Milliy davlat xo'jaliklari va ijtimoiy-madaniy majmualari uning ko'rinishida ancha katta darajadagi butunligida ajratilgan jahon hamjamiyatining tizimlari aniq ifodalangan. Uzoq vaqtlar mobaynida bunday vaziyatlar yagona tabiiy va mustahkam imkoniyatlarda tasarruf etilgan edi.

Jahon xo'jaligi an'anaviy yondashuv nuqtai nazardan o'zaro bog'langan xalqaro iqtisodiy munosabatlar milliy xo'jalik yig'indisi sifatida qarab chiqiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM) bir qator shakllarda: xalqaro tovar va xizmatlar savdosi, xalqaro ishlab chiqarish omillari, kapitallar va ish kuchi va boshqalarning ko'chishida chiqadilar.

Vaqt o'tishi bilan milliy davlat doirasi moddiy va jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari uchun ancha ko'proq yaqin bo'lmoqda (fan, mehnat taqsimoti, uning kooperatsiyalashuvi va boshqalar). Ularning rivojlanishi bu doiradan ko'pincha faol ravishda chiqadi.

Jahon xo'jaligining butunligi aniq darajada ko'p sonli bevosita va qarama-qarshilikda mikro va makro iqtisodiy daraja sharoitida bog'langan.

Jahon xo‘jaligi aloqalarda milliy tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar ustidan yangi sub’ektlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jahon xo‘jaligining arxitektonikasi ko‘proq murakkab ko‘rinishga ega bo‘ldi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti o‘zaro harakatdagi har xil sifatli har xil tartibdagi davlat va nodavlat kabi sub’ektlari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

Xalqaro mehnat taqsimotining doimiy chuqurlashuvi, yangi qulayroq tez yuradigan temir yo‘l aloqalari vositalarning, tez sur‘at bilan rivojlanayotgan va to‘xtovasiz xalqaro telekommunikatsiya infratuzilmasining mukammallashuvi, har xil mamlakatlar fuqarolarining fan, madaniy, diplomatik tufayli shaxsiy aloqalari, ya‘ni millatlarning geografik chegaralarida joylashuvdan tashqari alohida davlatlarning iqtisodiy manfaatlarini tasvirlaydigan iqtisodiy chegaralarining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Iqtisodiy chegaralar institutsionalga oid katta hajmdagi faoliyat maydonlarning vujudga kelishini o‘z ichiga oladi. Bir tomondan, ular hech qayerda rasmiy ravishda aytilmagan. U geografik xaritada yo‘q. Boshqa tomondan iqtisodiy chegara haqiqatan mavjud.

Iqtisodiy chegara – bu bojxona tashkilotlarining tashqi iqtisodiy balanslar (savdo, to‘lov, kapital) va valyuta tizimi, chegaraviy tizimi va boshqalar.

## **58.2. Jahon va milliyliklarning birgalikda rivojlanishi.**

### **Jahon va milliy xo‘jaligining rivojlanish turlari.**

Jahon xo‘jaligi o‘zining butunligicha uning omillari nafaqat o‘zaro harakat qilmoqdalar, balki bir-birini o‘zaro to‘ldiradilar. Bir tomondan har birining harakati boshqasining rivojlanishini shart qiladi, boshqa tomondan esa unga bog‘liqdir.

Bunday vaziyatlarni jahon xo‘jaligini bir butunligi sifatida milliy iqtisodiyotni uning doirasida rivojlanishi bilan ifoda etib, rivojlanishni va o‘zaro bog‘liqligini birgalashtiradi. Jahon xo‘jaligi aloqalari taqdim etadigan imkoniyatlardan foydalanadi hamda bir vaqtda birga bo‘ladigan salbiy tendensiyalarni va tahdidlarni betaraf qiladi.

Jahon va milliy xo‘jaliklarning birgalikda rivojlanishi organik, avtomatik, garmoniyaga oid bo‘lishi mumkin.

Har bir tipdagi birgalikda rivojlanish milliy o‘zlikning yetarliligini va tashqi majburlashning dialektik aloqalarni ochib tashlaydi. Bularning har biriga o‘zining o‘zaro harakatdagi mexanizmlari, kutishning shakllanishi, mojarolarni hal etish va boshqalar o‘ziga xosdir.

Shunday qilib organik tipdagi birgalikda rivojlanish shuni bildiradiki, ya‘ni sub’ektlar qandaydir organik butunligining qismi sifatida o‘zaro harakat qiladilar. Aynan butunlik o‘zida ularning hayotining mazmunini to‘playdi.



Qoida bo'yicha majburiylik yoki noilojlik aloqalarni o'rnatadi. Bu aloqa, ya'ni tashqi muhit ob'ektiv ravishda har bir sub'ektning rivojlanish darajasidan yoki o'ziga bog'langan butunlikdan oshirib yuboradi. Butunlik vazifasini o'ziga olgan jahon xo'jaligi va markaz tizimiga ongli ravishda bo'ysunish ro'y bermoqda. Bunga misol model doirasida o'zaro munosabatda bo'lgan "jahon xo'jaligining chetda joylashgan markazlari" bo'ladi.

Jahon va milliy xo'jalik o'zlarining organik, avtomatik tipdagi birgalikda rivojlanishning qarama-qarshisida jahon xo'jaligi o'zaro harakatining barcha spektri bo'yicha institutsional aloqalarini izlashga asoslangan o'zining mustaqil hayotiy yo'lga ega bo'lgan tashqi birlashgan sub'ektlarini ifoda etadi. Bunga o'xshagan tipdagi o'zaro harakat jahon xo'jaligi sub'ektlarining ko'pchiligi uchun xarakterlidir.

Jahon va milliy xo'jaliklarning garmonik turdagi birgalikda rivojlanishni oldingi ikkita organik va avtomatik tipdagi aloqalarning pozitiv lahzasining sintezi bo'lib hisoblanadi. Buning asosida o'zaro harakatdagi ikkita har xil yo'nalishdagi global va mahalliy kuchlar yetadi. Jahon xo'jaligi tizimidagi milliy xo'jalikning harakat qilmog'ida, birinchidan, milliy xususiyatlarga bog'lanmagan jahon xo'jaligining rivojlanishiga bog'langan va asoslangan tendensiyalari paydo bo'lmoqda. U aniq moddalarga asoslangan, ya'ni jahon xo'jaligi muhitiga milliy iqtisodiyotining moslashiga imkoniyat yaratadi, jahon miqyosida muvofiqlashishini yengillashtiradi. Ikkinchidan, iqtisodiyotning milliy asosi yuzaga kelmoqda, ya'ni tayanch modelidan og'ishni chaqiradilar, milliy o'ziga xoslikni yaratmoqda.

Garmonik tipdagi birgalikda rivojlanishining asosiy muammosi milliy va baynalmilallashuv orasidagi manfaatlarning balanslashuvini topish bo'ldi. Ularning optimal ravishda birgaligi va hamma vaqt berilmagan, balki har bir mamlakatlarning aniq sharoitlariga va an'alariga, ijtimoiy ishlab chiqarishning samarali darajasiga hamda boshqa shart-sharoitlariga bog'liqdir. Ushbu tipdagi birgalikda rivojlanish baynalmilallashuv jarayonlarining asosida yotadi.

Jahon va milliy xo'jalikning birgalikda rivojlanishining nomlangan har bir tiplari bularning o'zaro harakat qilish jarayonidagi fikr almashinuvlari, aniq rasmiy va norasmiy munosabatlari, baholashlari, muhokamalari, ijobiy va salbiy rag'batlantirish va jarimalar yig'indisini o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarining jahon xo'jaligi rivojlanishining global tendensiyalariga moslashuvi ziddiyatli harakatga ega.

Bir tomondan tashkil topgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimda ziddiyatli majburiy siljishlarga o'rin bor. Uning begona elementlari orasiga kirib, ular bilan chiqishib ketish zarurligi ro'y bermoqda.

Bunday elementlar tizimining mustahkamligini zaiflashtiradi va unga g'oyat balanslashmagan holat beradi. Boshqa tomondan bunday o'xshashliklarning o'zgarishi tizimga jo'shqinlik ta'minlaydi. Jahon xo'jaligi tizimiga jalb etilishi taraqqiyotiga va rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Shuning uchun birgalikda rivojlanish modelini tanlash, milliy xo'jalikni o'zgaradigan sharoitlariga imkoniyati boricha moslashtirishi bilan bog'langan hamda jahon xo'jaligi tizimida aniqlangan cheklanishlarni ko'rsatadi.

### **Rivojlanishning aktual darajasi va tayyorgalik sathi**

Birgalikda rivojlanish modelini tanlash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga va tarixan jamg'arilgan tajribalarga bog'liq.

Har qanday xo'jalikning rivojlanish holatini (mikro-, mezo, makro, mego xo'jalik o'xshashlar) har tomonlama ko'rib chiqish mumkin.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini ilgari erishilgan natijalari va hal qilingan vazifalari nuqtai nazardan xarakterlash mumkin. Bu aktual (haqiqatan) rivojlanish darajasidir Uning xarakteristikasi uchun har xil iqtisodiy ko'rsatkichlar, YaIM pirovard mahsulot, milliy daromad va boshqa kabilar hamda mamlakatning bo'yicha salohiyatini ochish kabi turli parametrlar (tabiiy yonilg'i-energiya, xomashyo, fan-texnika, insonga oid va boshqalar) foydalanadi.

Mamlakatning dinamik ravishda rivojlanishi va jahon xo'jaligining o'z harakatida samarali qatnashishi uchun hozirgi lahzada ega bo'lgan jahon xo'jaligi sub'ektlari o'zgarayotgan sharoitlarga moslashish real imkoniyatiga ega bo'lish katta ahamiyat ko'rsatadi. Bunday imkoniyatlarini tayyorgarlik sathi deb nomlaymiz.

“Aktual (haqiqatan) rivojlanish darajasi tayyorgarlik sathi” bo'lsa analitik loyiha jahon xo'jaligi sub'ektlarining ichki tayyorgarlikka yetib borishiga, o'zining hozirgi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy holatining o'zgarishini anglatmoqqa va boshqalarga chaqiradi.

Tayyorgarlik sathi o'zga kishilarning ijtimoiy va ma'naviy jihatlarini, madaniy an'analarini siyosiy, huquqiy, diniy, estetik va boshqa normalarining nafaqat o'tgan hozirgi va kelajak bilan bog'langanligini, balki tarixiy rivojlanish yo'llarini tushunish uchun asos yaratadi ham.

Shu bilan birga milliy xo'jalikning fundamental tendensiyalarning global rivojlanishiga moslashuvi ziddiyatli xarakterga ega, agarda o'zgarishlar, uning tayyorgarlikligi amalga ohsa, milliy xo'jalikning jahon xo'jaligi tizimiga kirishi mustahkam va samarali bo'ladi.

### **58.3. O‘zbekiston xo‘jaligi jahon iqtisodiyotida.**

#### **Butunlik bloki bilan harakat qilishi.**

Jahon xo‘jaligining butunligining shakllanishi milliy xo‘jalikning harakat qilish prinsiplarini ko‘p miqdordagi iqtisodiy bo‘shliq tizimida o‘zgartirmoqda. Hozirgi vaqtda, bu jahon bozorida nafaqat ish ko‘rish (moyili xatto global miqyosida), balki butun bloklar tizimi bilan rivojlanish tendensiyalari va ta‘sir qilish zonalari harakat qilishi.

Ushbu ahvol prinsipial ahamiyatga ega, sababi haligacha tashqi savdoning rivojlanish strategiyasiga urg‘u beradi, chet el kapitalini jalb etish va tashqi qarzni tartibga solish muammolarini alohida qarab chiqiladi.

Jahon iqtisodiyotida bir butunlik xalq xo‘jaligi bloklariga harakat qilishi jahon xo‘jaligi tizimlariga ko‘p qirrali va qo‘shilish yo‘llarini taxmin qiladi. Jahon xo‘jaligining o‘zaro harakatini bir qancha modelini qarab chiqamiz.

#### **Jahon xo‘jaligi aloqalarining savdo modeli**

Iqtisodiy rivojlanishning industrial davri uchun jahon xo‘jaligining savdo modeli xarakterli bo‘lar edi.

Bu model doirasida davlatning tartibga solishi eksportni rag‘batlantirishga va o‘zining iqtisodiyot tarmoqlarini himoya qilishga olib kelar edi.

Jahon xo‘jaligining sub‘ektlari vazifasi jahon bozoriga aniq tovarlar bilan chiqish o‘rnini va lahzasini aniqlab bo‘lib, ko‘pincha narx sotish hajmi, raqobat shartlari bo‘yicha ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan bo‘lishi kerak. Shunga yarasha yetarli yo‘l bilan izchil tizimda tahlil va jahon tovar bozorining konyunkturali prognoz qilinishi, narxlar va trendi ishlab chiqilar edi, jahon va ichki narx tenglashtirilardi, bitimlarning samaradorligi asoslanar edi.

Bizning mamlakatimizda jahon tovar bozorining yetarli izchil tizimda nazariy va metodologik konyunkturlash prinsiplari to‘zilgan edi. Lekin u yetarli darajada xo‘jalik amaliyotda talab qilinmagan edi. Rejali iqtisodiyot sharoitida va tashqi savdo davlat monopoliyasida bo‘lib, rejali o‘zaro kelishilgan va tovarlarni majburiy yetkazib berish tizimi amalga oshirilgan edi. Oldindan markazlashgan holda tovarlarni yetkazib berish sharoitlari aniqlangan: hajmi, vaqti, o‘zaro hisob-kitob tizimi va boshqalar bo‘lgan edi. Jahon bozorida konyunkturaning ta‘sirini amalda yetkazib berish majburiyatlari yuq edi. Sherikchilarni tanlab olish ancha katta bo‘lmaganligi raqobatga ta‘sir ko‘rsatmagan edi.

#### **Xalqaro ixtisoslashuv**

Jahon xo‘jaligi aloqalarning savdo modelini realizatsiya etish xalqaro ixtisoslashuv tarmoqlarning tanlab olishga asoslangan edi. Eksportga yo‘naltirilgan yoki import o‘rnini bosadigan strategiyalar orasidagi tanlov muammosini yuzaga keltiradi.

**Jahon xo‘jaligining eksportga yo‘naltirilgan strategiyasi** iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun kerakli bo‘lgan yuqori texnologiyalarni import qilishga va hajmi o‘sib kelayotgan valyuta daromadlarini olishi maqsadida xalqaro mehnat taqsimotining afzalligidan foydalanishga asoslanadi. Ushbu strategiyaning asosida ikkita tipdagi raqobat afzalligi: birinchidan, ancha kam hajmdagi sarf-xarajatlar va ikkinchidan mahsulotlarni differensiya qilish yotadi.

O‘zbekistonning eksportga yo‘naltirilgan strategiyasi umuman quvvatli xomashyo, nisbatan arzon va malakali ish kuchi, oldingi qatordagi bir necha ishlab chiqarish tarmoqlari va turdagi mahsulotlarga hamda ilmiy tadqiqot sohasidagi erishilgan yutuqlariga asoslangan.

Eksportga yo‘naltirilgan yoki import o‘rnini bosadigan strategiyalarni mutlaqo jiddiy norasmiylikka va bo‘zib ko‘rsatishga olib keladi.

### **Eksportga yo‘naltirilgan strategiyalarning xavfsizligi**

Eksportga yo‘naltirilgan strategiyalarning xavfsizligi kelgusi lahzalar bilan bog‘liq.

Resursli afzallikni keng miqyosida va qisqa vaqt ichida harakat qilishi mumkin emas. Shu bilan birga mineral xomashyolar mahsulotni eksport qilishdan olinadigan daromad nafaqat eksport qilinadigan resurslarning miqdori bilan bog‘liq, balki eksportga yo‘naltiriladigan strategiyadan kerakli real samara olish uchun ko‘pincha shunday miqdorda tortib ketishga tashqi bozorning hajmi ham qobiliyatsiz.

Jahon bozorining an‘anaviy strategiyalari uchun dastlabki sarf-xarajatlar raqobat uchun resurslarning arzonligi (xomashyo va mehnat) va katta hajmdagi shart-sharoitlar (xomashyo va mehnat) yaratilmoqda.

Shunga o‘xshagan ixtisoslashuvni uzoq vaqtga hisob qilingan natijalar deb bo‘lmaydi, sababi bunday bozorlar narxlarning kon‘yunkturasining tartibga solinmaganligida xarakterlanadi. Shunday qilib jahon tovar bozori uchun hamma vaqt isbotsiz, ayniqsa xomashyo, energetika, bir qator sanoat tovarlari bozorlariga muvofiq.

Hozirgi shunday nomlangan resurslarni saqlaydigan inqilobiy tushunchalar ko‘zatilmoqda. Endi, shunday 1973-1985 yillarda asosan rivojlangan jahon mamlakatlarida yalpi milliy mahsulot 32 %, energiya iste‘moli esa 5% ga ko‘paygan. Keyingi vaqtlarda iqtisodiy o‘shish hatto energiyani iste‘mol qilishning mutlaqo qisqarishda ro‘y bergan 90-yillarning boshida yalpi milliy mahsulotning 2,5 baravar o‘shishida AQSh qora metallaridan foydalanish 1960 yillarda kam bo‘lgan.

Yonilg'i xomashyo tovarlarga narx-navoning o'sish tendensiyalari barqaror xarakterga ega emas va har qanday vaqtda uning pasayishiga o'rin berishi mumkin.

Sarf-xarajatlarning afzalligiga asoslangan ixtisoslashuv milliy valyutaning past kursiga shaklini ma'lum darajada qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi.

Bizning mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasi qanchalik valyuta kursiga bog'liq bo'lishidan, bu to'g'risida milliy valyutaning oxirgi o'n yilliklarda bir necha baravar devalvatsiya bo'lishi guvohlik qiladi. Shu bilan birga mamlakatimizda eksport qilinadigan mahsulotlarning ko'payishi ham importning oz-oz bo'lsada kamayishi, o'zining o'zimizda import o'rnini bosadigan mahsulotlarning deyarli darajada ishlab chiqarishidir. Shu bilan birga oxirgi yillarda savdo balansida ijobiy savdo bilan taqozo etiladi. Bunga misol bo'lib o'tgan 2013 yilning yakunlariga ko'ra eksport hajmining o'sishi 10,9% dan iborat bo'ldi.

Tashqi savdo faoliyatidagi ijobiy savdo 1 milliard 300 million dollarni tashkil etdi, 2013 yilda qimmatbaho metallar narxining keskin pasayishiga qaramasdan mamlakatimiz oltin valyuta zaxirasi o'tgan yillar davomida 2 % ga ko'payishida xizmat qiladi.

Sarf-xarajatlarning afzalligiga yo'naltirilishi va iqtisodiy xavfsiz bo'lishi mumkin, misol yonilg'i xomashyolarni tartiblashga yo'naltirilish amalda butunlay mamlakat tashqarisida amalga oshiriladi. Bizning mamlakatimizning iqtisodiy dinamikasi jahon narxining energiya tashuvchilari ta'siri ostida shakllanadi va jahon iqtisodiyotining va O'zbekistonning savdo bo'yicha sherikchiliklariga, savdo va to'lov balansining va boshqa omillarining ahvoriga shartlanadi. Endi, eksportchilarning jahon narxining yalpi indeksi baholashda, O'zbekiston eksportining tuzilishi bo'yicha tortuvida 0,76. Shuning uchun faqat eksportning qiymatida narxning o'zgarishi bu yoki boshqa tomonga o'zgarishi 20-24% bo'lishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan strategiyasini realizatsiya qilishda jahon bozorida o'rnashib qolgan ishlab chiqaruvchilar tomonidan faol qarama-qarshi harakatdagilar bilan to'qnashish muqarrardir. Ular arzon mahsulotlarni yangi yetkazib beruvchilar bilan barqarorlikni bo'zishga ta'sir etib, hatto qat'iy iqtisodiy siyosatni qo'llab yarashishni istamas edi.

Eksportga yo'naltirilgan strategiyalar mamlakatga yaxshi ta'sir ko'rsatadigan investitsiyaviy sharoitlarda kapitalning ko'chishini ilgarilaydigan choralalar bilan birgalikda iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin. Bunga qarshi choralarda eksportni kengaytirish mamlakat iqtisodiyotida resurslarning kam qo'llanilishini bildiradi.

Eksportga yo'naltirilgan strategiyalarning ishlab chiqarish asosida (tabaqalash, farqlash, darajalash) darajalashning afzalligidan foydalanishda ko'proq mustahkam va istiqbolli bo'ladi. Ishlab chiqaruvchi o'zining tor ixtisoslashgan, noyob, yuqori narxga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga, yoki tovarga quyi sifat, yoki unga asosan, iste'molchi xususiyatini berish hisobiga tashqi bozorlar bir necha darajada o'zining shartlarini qabul qildirish mumkin. Shu bilan bir vaqtda potensial raqobatchilar shunday natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan vaqtni va vositalarni sarf qilishga imkoniyati cheklangan.

### **Tuzilishdagi kamchiliklar (nuqsonlar)**

Eksportga yo'naltirilgan strategiyalar rusurklarini ishlab chiqarish tarmoqlardan qazib oluvchi sanoat tarmoqlarining tovlanishga olib keladi.

Milliy xo'jalik majmualarida norasmiy tuzilishdagi kamchiliklar. xatoliklar paydo bo'ladi, iqtisodiyotning o'sishi sur'atlarida sekinlashish yuz beradi, to'xtab qolish tendensiyalar ro'y beradi. Bunga o'xshagan holatlar "gollandga oid kasallik" deb nomlanadi.

Bir vaqtlarda Gollandiyada (Angliyada, Norvegiyada) neft qazib olishning tezda rivojlanishi ishlab chiqarishning yuqori samarali omillar iqtisodiyotining bu tarmog'iga faol oqib kelishi bilan ko'zatilib, natijada bu milliy iqtisodiyotning butunlay o'sish sur'atining epchillashishiga olib keldi.

Tizimdagi kamchiliklar talabning import qilinadigan tovarlarga o'sishida kam va shu bilan birga bozorning boshqa egiluvchan bo'g'inlarida iste'mol qilishda ham, ichki taklif to'zishda ham ro'y bermoqda. Bu birinchi navbatda oziq-ovqat tovarlariga, qishloq xo'jaligi xomashyolariga, dori vositalarga, tovarlarga tegishli.

Bunday tizimdagi kamchiliklarni faqat iqtisodiyotning boshqa sohalaridan katta ichki milliy resurslarni jalb etish yo'li bilan to'ldirish mumkin.

### **O'zbekistonning xalqaro ixtisoslashuvi**

Hozirgi bozorning unsurli, stixiyali kuchlarining harakati O'zbekistonning tabiiy resurslarini eksport qilishga aylantirib ishlab chiqarish tarmoqlarini import mahsulotlariga bo'y bog'lab qo'yishga qaratilgan. O'zbekiston barcha asosiy turdagi xomashyolar bilan ta'minlangan. Bizning o'zishimizga jahonda qazib olinayotgan tabiiy gaz, neft, oltin, mis, uran va boshqa kerakli xomashyo yetarlidir. Ammo bunday afzalliklar qandaydir kamchiliklar bilan o'girilmoqda, sababi hozirgi vaqtda mamlakatning YaIM ancha qismi nomutanosiblik ravishda eksport qilinmoqda.

### **O'zbekiston jahon xo'jaligi tizimida.**

XXI asrning boshlarida O'zbekiston rivojlangan va rivojlanib kelayotgan mamlakatlar o'rtasidagi oraliq holatni egallamoqda. Jahon YaMMda

O'zbekiston iqtisodiyotning salmog'i 2010 yildan almashuv kursi bo'yicha o'lganda yanada o'sishni talab qiladi (juda ham kamroq). Agarda milliy valyutaning sotib olish qobiliyati pariteti asosida hali ancha o'sishini talab qiladi. Shu bilan birga O'zbekiston aholisi sonining jahon aholisidagi salmog'i 2,3 %. O'zbekistonning jahon eksportida 0,1 %, jahon importida 0,13 %, jahon bevosita investitsiyasida 0,01 % va boshqalar.

O'zbekiston iqtisodiyoti butunlay hozirgi vaqtda yetarli darajada jahon xo'jaligi jarayonlariga asta-sekin yoritilmoqda. YaMM da eksport hajmining 2013 yilda o'sishi 10,9 % dan iborat bo'ladi.

Hozirgi vaqtda buxgalteriya hisob-kitobi xalqaro standartiga o'tishni amalga oshirmoqda. Havo, yer ustidagi transport yo'llari jahonning juda ko'p mamlakatlari bilan aloqa qilmoqda.

### **Jahon xo'jaligining o'zaro harakatidagi investitsiyaviy ishlab chiqarish modeli.**

O'zbekistonning oldida innovatsiyaviy tipdagi iqtisodiy o'sish vazifasiga o'tishi turibdi. Bu yerda, birinchi navbatda hozircha jahon xo'jaligining o'zaro xarakterdagi investitsiyaviy ishlab chiqarish modelini realizatsiya qilish bo'lmoqda. Bu yerda aksent nafaqat tovar va xizmatlarning oldi-sotdi, balki takror ishlab chiqarish jarayonlarining boshqa zvenolariga: kapital harajati, ish kuchi, moliya kredit, valyuta va boshqa munosabatlarga qilinadi. Shu bilan birga savdo modelini bir holatdan boshqa holatga yoki bir shakldan boshqa shaklga aylantirmoq turida investitsiyaviy ishlab chiqarish modeli tizimiga kiritishni cheklash.

Eksportga yo'naltirilgan yoki import o'rnini bosadigan strategiya orasidagi tanlov muammolari olib tashlanadi.

Ular tanlashda emas, balki yagona strategiya doirasida o'zaro to'ldirish va o'zaro shartlangan yo'nalishlar rivojlanishda bo'ladi.

Investitsiyaviy ishlab chiqarish modeliga o'tish kelgusi prinsiplarga muvofiq amalga oshiriladi:

Milliy xo'jalik savdo, sanoat va moliyaviy faoliyatlarni birgalikda tartibga solishga tayangan asosiy bozorlarda taqdim qilinishi shart.

Jahon xo'jaligining o'zaro harakatining investitsiyaviy ishlab chiqarish modeli asosida jahon xo'jaligi majmuasining strategiyasi yotadi, bu global bozorlarning qatnashchilariga kelgusi talablarni hisobga olishi kerak:

- jahon miqyosida bozorlarni va raqobatchilikni ko'rishi;
- o'zining raqobatchilarini yaxshi bilishi kerak (jahon bozori qoida bo'yicha; oligapolitik tizimiga ega bo'lishi kerak va ularning qatnashchilari ko'p emas);

- jahon miqyosida o‘zining operatsiyalarini nazorat qilishi yoki AQSh, YeI va Yaponiya miqyosida;
- bozorlarning yuqori texnologiyalarga asoslangan turlarida operatsiya qilish;
- qiyosiy harajatlar qonuniga muvofiq joylashishida qatnashmoq;
- o‘zining faoliyatini takror ishlab chiqarishning yagona tizimiga birlashgan egiluvchan axborotlashuv texnologiyalari va egiluvchan ishlab chiqarish yordami bilan koordinatsiya qilish;
- jahon xo‘jaligi sub’ektlarining boshqa bo‘linmalari bilan bitimlariga birlashuvi.

Milliy xo‘jalik qancha mahalliy uyushmagan xarakterdagi an’anaviy mexanizmlarini rad qilsa, shuncha ko‘proq yuqori darajada miqdorga erishish uchun barcha xalqaro strategiyalarning sintetik tartiblangan asoslarini foydalanishga, ularni isbotlashga va ko‘rib chiqishga, bir vaqtda yoki izchil aniq sharoitga bog‘liqligidan foydalanadi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda jahon xo‘jaligi aloqalarining yangi modelini topishga qaytmoqda. Tartibga solish, yondashish yo‘llari, shakllari o‘zgarmoqda. Tashqi iqtisodiy jarayonlarning hamma tomoni tahlil qilinmoqda.

Jahon xo‘jaligining o‘zaro harakatida yuqori texnologiyadagi va katta fan hajmida yuqori darajali tovarlarni ayirboshlashuvida qayta ishlab chiqarish yuz berganida innovatsiyali modellarga o‘tish kerak bo‘lmoqda.

### **Xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro harakatda bo‘lishi.**

O‘zbekiston uchun global iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmining yuzaga kelishida xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan o‘zaro harakatda bo‘lish prinsipial ahamiyatga egadir. Bu tashkilotlarning faoliyatida dunyoda 180 ta mamlakat qatnashmoqda. Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi tizimida, o‘zlariga sinergetik samaraga erishishga ijozat beradigan va jahon maydonida milliy manfaatlarni ko‘zlaydigan hatto qat’iy kuchga ega jahon buyuk davlatlari ham, ko‘p tomonli tashkilotlar doirasida harakat qilmoqdalar.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston jahon moliya tizimida o‘zaro harakat mexanizmlari va qoidalarini kelishish jarayonida faol qatnashish imkoniyatlariga ega. Xalqaro moliya institutlari (XVF va XB) faoliyati jiddiy tanqidga duchor bo‘lgan. Ularning moliyalashtirish savollari muhokama qilingan. XVF faoliyatining xisoboti yaxshilash to‘g‘risida ishlar olib borilmoqda, uning harakat qilish samaradorligini (ichki va tashqi) doimiy amalga oshirilmoqda. XVF ning nazorat funksiyasini kuchaytirish uchun,



milliy-moliyaviy holatini va xususiy hamda davlat institutlarning fe'l-atvori qoidalariga tegishli xalqaro standartlar ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston davlat ustidan samarali tartibga solishga, ya'ni bir tomondan ko'proq aniq umumiy siyosiy-normasini tartibga soluvchi, boshqa tomondan esa milliy iqtisodiyotning unday yoki bunday xususiyatini, uning aniq davrda rivojlanishini hisobga olib, pozitsiyalarni moslashish uchun imkoni boricha ijozat berishga qiziqadi.

### **Jahon xo'jaligining o'zaro harakatidagi faol strategiya**

O'zbekiston iqtisodiyoti oldida XXI asrda jahon xo'jaligining butunlik tizimida harakat qilishda murakkab muammolar turmoqda. Bu yerda asosan bozor mexanizmning rivojlanishi va jahon maydonida o'yinlar qoidasiga moslashish emas, balki o'zi uchun jahonning hozirgi tizimida munosib va foydali o'rinni ta'minlashdir.

Jahon xo'jaligi butunligida o'zining o'rnini topish, jahon tizimining bugungi rivojlanish sharoitida, ya'ni jahonning yangi iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratishda o'tmoqda.

O'zbekiston xalqaro mexanizmlarning barcha darajalarini tartibga solishda va muhokama qilishda, qayta qurishda aralashmasligi mumkin bo'lmasa kerak. Hozirgi jahon xo'jaligi muhitida joyini topishi va yaratishida past va yetilmagan strategiyasini rad etishga majburlaydi. Milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi tizimi doirasida harakat qilishi xo'jalik ijtimoiy-siyosiy, institutlar va boshqa sharoitlarning qayta ko'rilishi o'zluksiz jarayon bo'lib hisoblanadi.

Milliy xo'jalik jahon xo'jaligining haddan tashqari, dinalik, mutanosibligiga moslashishi majburiydir. Bu jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga, voqea va hodisalarga ahamiyat berib, ro'y berayotgan muammolarning ta'sirini faol, oldinroqdan mo'ljalga olish deganidir. Oldingi vaqtlardagi o'rnatilgan, barqarorlashgan va turg'unlik o'rniga egiluvchanlik, moslashuvchanlik, ustaliklar burilishlar kelmoqda.

Albatta jahon xo'jaligining xulqi, fe'l-atvori universal modelining (algoritm) mumkin bo'lishi dargumondir. Shu sababli, mohiyatan globallashuv xarakterda o'ziga xos "keskin massa" zarurdir.

## **58.4. Ochiq iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish**

### **Iqtisodiy o'sishmi yoki rivojlanishmi?**

Ochiq iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish muammosiga yondashuv o'zgarib turadi. Ayniqsa "iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish" tushunchalarining chegaralanishi faol ko'rsatkich bo'lib turadi.

An'anaviy iqtisodiy nazariyasida uzoq vaqtlar davomida rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi tezda iqtisodiy o'sish hisoblangan edi, bu o'z navbatida bevosita asosiy makroiqtisodiyotning ko'rsatkichining o'sish sur'atida-YaIM (yoki YaIMning jon boshiga o'sishi) ifodalanardi. Globallashtirish jarayonlarining o'sishi bilan aks ettirish muammolari nafaqat YaIM ning miqdoriy o'sishi, balki sifatli o'zgarishda ham, misol farovonlikning o'sishi, ya'ni miqdoriy ise'tmoldan tashqari hamda inson salohiyatining o'sishini va ekologiyaning mustahkamligini ham o'ziga olardi.

Ochiq iqtisodiyotda milliy xo'jalikning rivojlanish jarayonining maqsadi kishilar hayotining sifatini yaxshilash ularning kelajagini shakllantirish imkoniyatini kengaytirishdan iborat edi.

Albatta, yuqori darajadagi farovonlikka erishish uchun jon boshiga ancha yuqori daromad talab etiladi. Shu bilan birga "hayot sifati" yaxshi va ko'proq adolatli ta'lim va ish, sifatli sog'liqni saqlash, yeb-ichish kabilarni hamda "toza" va mustahkam tabiiy muhitni, sudga va huquqiy tizimlarga betaraflik, keng fuqarolik va siyosiy erkinlik, ishonchli, "tiniq" institutlar, boy va rang-barang madaniy erkin kirishlarni o'z ichiga oladi .

YaMMning makroiqtisodiy ko'rsatkichi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishning to'liq darajada xarakterlamaydi. YaMMning miqdoriy o'sishi inson hayotining yuqori sifati bilan ham, pastki sifati bilan ham ko'zatisi mumkin. Inson hayotining sifatini baholash uchun juda ham ko'p qirrali faoliyat ko'rsatkichlari talab qilinadi. Bugungi kunda haqiqiy inson salohiyati sohasidagi va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ishonchli ko'rsatkichlar hozircha ishlab chiqilmagan.

### **Ochiq iqtisodiyotning balansga keltirilgan rivojlanishi**

Iqtisodiy o'sish uchta faol turlaridagi foydalanish bilan bog'liq: jismoniy (yoki ishlab chiqarilgan) kapital bilan, inson kapitali bilan va tabiiy kapital bilan. Bu yerda aktivlarning barchasidan samarali foydalanishdan ta'sir qiladigan faol rolini texnikaviy taraqqiyot o'ynaydi.

Ko'p sonli tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ya'ni balansga keltirilgan yondashuvning barcha aktivlarining rivojlanishining yo'qligi, inson va tabiiy kapitalarni hisobga olmaslik sifatli va mustahkam uzoq muddatli o'sishni ta'minlamaydi. Faqat jismoniy kapitalda boshlang'ich samaraning to'planishi qisqa muddatli kuchli o'sish bo'lishi mumkin, ammo keyinchalik o'sish sur'atining sekinlashishi hatto to'xtab qolishi ro'y beradi. Balanslashmagan aktivlarning o'sishi kapital zaxiralarining o'sishiga qaraganda boshqa turdagi ishlab chiqarish aktivlari bilan taqqoslaganda kapitalning yuqori unumdorligining pasayishiga olib keladi. Aynan shunday jarayonlar XX asrning oxirgi o'n yilligida bozor iqtisodiyoti rivojlanib kelayotgan ancha ko'p

mamlakatlar uchun shu jumladan O‘zbekiston uchun ham xarakterli edi. Bu yerda investitsiyalarning ta’limga va sog‘liqni saqlashga kamchiligi qanday bo‘lgan bo‘lsa, haddan tashqari tabiiy kapitalning milliy iqtisodiyotni eksport qilishga qaratilganligi va tabiiy resurslarga narxlarning past darajada shunday belgilanganligi ko‘zatiladi.

Iqtisodiy o‘shish, barcha turdagi aktivlarning balansga keltirilgan holatda foydalanishga suyanganligi uzoq vaqt ichida davom etishi mumkin, ya’ni uzoq muddatli mustahkam xarakterga ega bo‘lishi, sababi inson va tabiiy kapitallarning rivojlanishiga ishlab chiqarilgan kapitalning optimal ravishda jamg‘arilganligiga va foydalanganligiga tegishli yordam berishi, uning sermahsulligini va omillarning umumiy unumdorligini butunlay oshiradi.

Ochiq iqtisodiyotda iqtisodiy o‘shishning kelgusi tiplarini ajratish mumkin:

- balansga keltirilgan va turg‘un emas;
- balansga keltirilgan va turg‘un.

Balansga keltirilgan (yoki buzilgan) iqtisodiy o‘shishning tipi tabiiy resurslar sifatining yomonlashuvi hisobiga (misol, ularga narxning pasayishi), inson kapitaliga va ishlab chiqarilgan kapitalni (jismoniy) (misol, soliq to‘lashdan chiqarish hisobiga, aniq investitsiyalar va kreditlashgan investitsiyalarni subsidlashni rag‘batlantirish uchun tekin ssuda berish) subsidlashga investitsiyalarning kamchiligi. Natijada iqtisodiy harakat “buzuq” maromga ega bo‘ladi. Tezda o‘shish davri ro‘y beradi, shu bilan birga umumiy o‘shish sur‘ati pasayadi. Natijada bu iqtisodiyotda to‘xtab qolishga va farovonlikni yo‘qotishga olib keladi, ayniqsa, bundan aholining kam ta‘minlangan qatlamlari qattiq qiynaladi. Bunday o‘shish kambag‘allikning qisqarishiga xalaqit beradi, inson va tabiiy kapitallarni investitsiyalash uchun yetarli darajada resurslarni ajratishga ijozat bermaydi.

Mustahkam va balansga keltirilgan iqtisodiy o‘shish bo‘zilib ko‘rsatgan yoki balansga keltirilgan aktivlarning jamg‘arilishi tufayli erkin ta‘minlanmoqda, boshlang‘ich va o‘rta ta‘limning rivojlanishini, sog‘liqni saqlashning yaxshilanishi va tabiiy kapitalning himoya qilinishi davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlanmoqda. Bu ishlab chiqarilgan jismoniy kapital sermahsulligining pasayib ketishini bartaraf etadi hamda texnikaviy taraqqiyot darajasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarilish omillarining oshishi haqida inson kapitalining qandaydir minimal o‘shish miqdorini ta‘minlaydi. Barqaror, mustahkam o‘shish haddan tashqari kambag‘al va faqirlarning ahvoriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, ochiq iqtisodiyotda asosiy e‘tibor aktivlarning jamg‘arilishiga emas, balki ishlab chiqarish omillarining unumdorligining

umumiy o'sishiga. Bozor iqtisodiyoti rivojlanib kelayotgan mamlakatlar uchun aktivlarning ekstensiv jamg'arilishi omillarning unumdorligining o'sishi zarurligi bilan ham chambarchas bog'langan. Birinchidan, barcha mamlakatlarga texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi har xil darajada va har xil sur'atda o'ziga xosdir, undan tashqari yangi texnologiyalar mamlakat ichiga kapitallar va yangi tovarlarni olib kelish yordamida kirib keladi. Ikkinchidan, texnikaviy taraqqiyotning unumdorligidan foydalanish uchun ta'limning sifatini o'zluksiz oshirish zarur. Omillar unumdorligining o'sish sur'atini yuqori bo'ldiki, faqat shunday holatda, agarda qachonki inson kapitali tezda kengaytirilsa va chuqurlashtirilsa.

### **O'sish sifati yoki o'sish sur'ati**

Ochiq iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishning sifat va sur'atlarining nisbati masalalari juda ham muhimlidir.

Miqdoriy o'sish sur'ati va uning sifatining o'zaro bog'liqligi ularning oddiy qarama-qarshiligiga nisbatan ko'proq murakkabroqdir. Albatta, u ham bu ham zarurdir. Bu jihatlarning ikkalasi o'zaro bog'langan. Shunga qaramasdan iqtisodiy o'sish o'zining ustunligini inson va o'zining tabiiy kapitallari tomoniga o'zgartirish jarayonida boshqaruv va taqsimlash sifatining yaxshilanishi mustahkam va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga yordam beradi (mayli, qisqa vaqtdagi sur'atlarning bir qancha kamayishi bilan, lekin uzoq muddatdagi ancha ko'proq yuqori sur'atda o'sishini saqlash bilan). Inson va tabiiy kapitallar holatining yaxshilanishi, bir tomondan, jamiyatning erishilgan farovonligini, boshqa tomondan esa kelajakda uzoq vaqtda va balansga keltirilgan o'sish uchun qo'shimcha omillar bilan ta'minlanganligini bildiradi.

Iqtisodiy o'sish sur'ati qoida bo'yicha shunday mamlakatlarda mustahkam, qayerda uning sifatli jihatlarga yetarli e'tibor qaratilgan bo'lsa. Barqaror o'sish sur'ati ko'proq afzallikda ifodalanadi, hatto agarda "bo'zuq" maromga ega bo'lgan o'sish bilan taqqoslanganda qisqa vaqtda "ijobiy" uchastkalarda eng yuqori sur'atlarga erishadilar. O'sish va farovonlik orasidagi farqi sezilarli ravishda shunday o'ringa ega bo'lishi mumkin, agarda o'sish barqaror va noustuvor bo'lsa, sababi aynan aholining nochor qatlami iqtisodiyotining pasayishi va muvaffaqiyatsizligi oqibatida qiynalishadi. Shuning uchun mustahkam o'sishning ta'minlanishiga e'tiborni qaratish zarurdir, sababi ular avtomatik ravishda farovonlikni yaxshilaydi.

Iqtisodiy o'sish sifatiga urg'u berish uzoq vaqt davomida uning ko'proq yuqori sur'atini saqlab qolishga yordam beradi. Shuning uchun oxirgi yillarda aktivlarning miqdoriy kengayishiga asoslangan qisqa vaqtda yuqori sur'atda o'sish samaradorligining ommabopligi ancha kamroq bo'lmoqda, misol, chet

el investitsiyalarini jalb etish hisobiga yoki ekologiyaning tashqi samaralariga e'tibor bermaslik.

### **Inson kapitalining rivojlanishi**

Milliy iqtisodiyot uchun qayerda unchalik katta bo'lmagan yuqori o'qimishli massa savdosiz yoki maxsus tayyorlanmagan kishilar, ishlab chiqarilgan kapitaldan yuqori sermahsullikni qo'llab-quvvatlash murakkab bo'lib qolishi mumkin, sababi kapitalning jamg'arilishi bilan bog'langan potensial samara "texnologiyalarning bir joydan ikkinchi joyga qo'llanilishi" dek vujudga kelmasligi mumkin. Yangi texnologiyalarni foydalanishning natijasi o'rta va oliy ta'limga kirishni kengaytirish bilan kuchayadi.

Shu bilan bir vaqtda ancha katta davlat vositalarini ajratish ham ta'lim sifatini oshirishga va uning o'sish sur'atiga bevosita ta'sir qilishiga kafolat bermaydi. Mamlakatning xalqaro savdo va investitsiyalar uchun ko'proq ochiq bo'lishiga qarab ta'limdan sermahsullik ko'payaveradi. Kishilar ancha ko'proq sifatli ta'limni talab qiladi va u uchun katta mablag' to'lashga tayyor. Ta'limning sifatiga yuqori darajadagi talab bu sohaga xususiy investitsiyalarni rag'batlantiradi. Katta haq to'lanadigan pedagog-professorlar va har tomonlama ishonchli dalillarda ta'lim olayotgan yoshlar bilimlarining saviyasini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, inson kapitalining sifati ko'pincha bozor iqtisodiyotining ochiqligi bilan bog'liq.

Misol, ta'lim qisman ijtimoiy jamiyatga oid boylik, nozu nemat, farovonlik o'sishining kelgusi asosiy aktivi bo'lib hisoblanadi, ammo ta'lim olishda sof bozor mexanizmlarining tartibga solinishining kamchiligi (misol, ta'lim olishga kredit bozori) o'zining istalgan orzugacha miqdorda ta'limga pul sarflamoq kambag'allarga ijozat bermaydi, hatto agarda ular undan yuqori sermahsul olishga mumkin bo'lsa ham. Yana ko'proq o'zini ko'rsatadigan ekstrenallar, ya'ni tabiiy kapitalarning ahvolini aytib beradigan (atrof-muhitni), qachonki ko'pincha iqtisodiy o'sish tabiiy kapitalning rivojlanishiga muvofiq mablag'larsiz tabiatga ega mamlakatlarda yo'qotishlarni bartaraf etishning qiyinchiligiga olib keladi.

### **Vaziyat: iqtisodiyotning ochiqlik darajasi va inson kapitali rivojlanishining o'zaro bog'liqligi.**

Iqtisodiyotning ochiqligi texnikaviy taraqqiyotga va inson salohiyatining har xil yo'llar bilan shakllanishiga ta'sir etadi. Misol, birgalikdagi faoliyat jarayonida personallarni o'qitish, kadrlarni qayta tayyorlash va boshqalar. Iqtisodiy o'sishining sur'ati, ayniqsa, bozor bilan rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda, bu davlatlarda ta'lim darajasi makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiyotning ochiqligi yuqori. Tashqi iqtisodiy faoliyatning ko'proq uzoq muddatli kelajakda o'sishga bog'liqligi shundayki,

kishilar qanchalik axborotlarni va texnologiyalarni yaxshi o'zlashtiradilar va foydalanadilar, ular tashqi savdo operatsiyalarini va chet el investitsiyalarini ko'zatib boradi.

Ko'p sonli ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ya'ni inson kapitali zaxiralarining ko'payishi iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, aynan ochiq iqtisodiyotda bozor islohotlarini o'z vaqtida amalga oshiradi. Uning yo'qligi ta'limning yuqori saviyasida amalda hech qanday o'sishga ta'sir ko'rsatmaydi. Ochiq iqtisodiyotning va aniq miqdordagi ta'limning birgaligi iqtisodiy o'sishni yuqorida qayd etilgan tarkibiy qismlarining bittasini ajratilgan holda foydalanish bilan qiyoslaganda 3 foizli punktni beradi.

Shu bilan birga iqtisodiy o'sish uchun nafaqat ta'lim darajasi, balki uning taqsimlanishdagi bab-baravarliligi muhimroqdir. Ta'limni har xil kishilarning qobiliyatiga muvofiqlik bilan bab-baravar taqsimlash ishlab chiqarishning optimal miqdorigacha o'sishga yordam beradi. Qachonki ta'limni taqsimlash juda ham aralashtirilgan bo'lsa va qobiliyatlarni taqsimlashga muvofiq bo'lmasa, inson kapitali ega bo'lgan potentsialdan to'liq foydalanishga yetishmaydigan darajada bo'lsa katta ijtimoiy harajatlar yuzaga keladi. Bunday holatda jamiyatga tezda tayanch ta'limni kengaytirish foydali, birinchi navbatda, bunga kambag'al va faqirlarni kiritishni yaxshilamoq kerak.

Djini koeffitsiyenti bo'yicha ta'limi uchun, ta'limning va daromadning o'rtacha o'sish miqdori pasayadi. XX asr 90-yillarida ko'proq tengsiz taqsimlamoq Afg'onistonda va Malida yuz bergan taxminan 0,9% bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida Djini koeffitsiyenti ahamiyati yetarli darajada bo'lmagan, shu bilan birga ko'proq bab-baravar taqsimlanmoq AQSh da Polshada yuz bergan - 0.2 dan kamroq.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida bozorli katta o'zgarishlarning boshlanishigacha ta'lim miqdori va inson kapitalining rivojlanishi hamma vaqt ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'limga davlatning sarf xarajatlari nafaqat yuqori bo'lgan, balki olingan va berilgan ta'limning miqdori yuqori bo'lgan. Katta yoshdagi aholining savodxonligi amalda umumiy bo'lgan. Funktsional savodxonlikning darajasi yoshlar o'rtasida 16-25 yoshdagilarini yetarli darajada yuqori bo'lgan.

Shu bilan bir vaqtda bir qancha rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 45% dan AQSh, da 80% gacha Shveysariyada o'zgarib turgan.

XX asrning 90-yillaridan boshlab bozor iqtisodiyotining qayta o'zgarishlar vaqtida budjetlar qayta ko'rib chiqilgan. Ta'limga bo'lgan sarf-harajatlar tezda qisqara boshladi. Shu bilan birga ko'pgina davlatlar ta'limga oldingi bo'lgan miqdorni va sifatni saqlab qolishga uringan. Bu mamlakatlarda o'tgan asrning 90-yillarning davomida ta'lim tizimida bo'lgan tengsizlik, past

ko'rsatkichlar Djini koeffitsiyenti bo'yicha o'quv yurtiga kirish haqidagi ma'lumot asosida hisob-kitob qilinib, moliyalashtirish va aniq ta'lim darajasiga erishish saqlab qolindi. Djini koeffitsiyenti, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Chexiya va Ruminiya uchun 0.2 da 0.36 gacha o'zgargan. Lekin oxirgi vaqtlarda bu hududlarda ta'lim olishda bu o'z navbatida maktabgacha va o'rta ta'limga qabul qilishda har xil imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Sezilarli darajada ta'lim olishning farqi qishloq xo'jaligiga tegishli tomonlarda ham ro'y berdi. Bu barcha yangi tashvish, xavf-xatarli hodisalar bu hududlarda ta'lim olishdagi omillarning tengsizligining shakllanishi haqida guvohlik qiladi.

### **Tabiiy kapitaldan foydalanish.**

Ochiq iqtisodiyotda nobalanslashuvda resurslardan foydalanishni xarakterlashda boshqa muammo, bu tabiiy resurslarni haddan tashqari ekspluatatsiya qilish hisobiga jadallashtirishning o'sishi, ya'ni tabiiy kapitalning kamayib ketishi va ekologik mustahkamlikning pasayishidir.

Tabiiy kapital sezilarli ravishda kishilarning farovonligining ko'tarilishiga yordam beradi.

Tabiiy kapital antropogenli ifloslanishni o'ziga singdirishni hamda mavjudlik vositasini o'z ichiga oladi.

Tabiiy kapital bevosita kelgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda muhim tarkibiy qism bo'lib, kishilarning farovonligining o'sishiga yordam beradi.

Bevosita farovonlikka ta'sir ko'rsatadi, agarda qachonki kishilarning qadami yetmagan tabiiy qadimgi o'rmonlar, toza oqar ko'l va daryolardan mamnun bo'lish bilan birga cho'milish va baliq ovlash mumkin.

Mamlakatlar, o'zining daromadlarining ancha qismini tabiiy resurslarni eksport qilishdan oladigan bo'lsa, bular iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi mumkin emas.

Haddan tashqari o'rmonlarni, baliq resurslarini va foydali qazilma boyliklarini ekspluatatsiya qilish, suv va havoni ifloslantirish qisqa vaqt ichida iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga qobiliyatli bo'ladi.

Tabiiy kapitalni tanazzullashni aks ettirishda "haqiqiy tejash" tushunchasi, bu mamlakatning "ekologik sog'ligini" xarakterlaydi. Haqiqiy tejash ko'rsatkichi yalpi ichki tejash jismoniy kapital amortizatsiyasini chiqarib tashlash asosida shakllanadi, foydali qazilma boyliklarning va energotarqatuvchilarning o'rmonlarning sof kamayib ketishi, ifloslanishidan kelgan zararlarning shartli qiymati hamda inson kapitaliga investitsiyalarning qo'shilishi. Misol, barcha rivojlanib kelayotgan mamlakatlar uchun 2000 yilning boshlarida yalpi ichki tejash YaMM ga nisbatan 25% ni tashkil etadi.

Sof ichki tejash (amortizatsiyani to‘zatishtan keyin) - 16% yaqin YaMM ga nisbatan tashkil etdi. Tabiiy kapitalning keyingi kamayishiga to‘zatishtan kiritishda “o‘rmon, energiya tarqatuvchi va qazilma boyliklar” va CO<sub>2</sub> chiqindilardan kelgan zararlarni ichki tejash hajmi YaMM ga nisbatan 10 foizdan oshdi.

Inson kapitaliga investitsiyani hisoblagandan keyin haqiqiy tejash 14% gacha o‘sdi. Umuman energo tarqatuvchilarning kamayishi (neft, ko‘mir, tabiiy gaz) tejashni qisqartirishga yiliga 9% dan ko‘pga olib keladi.

Shu bilan birga iqtisodiy o‘shish va atrof-muhitni ifloslanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq birinchi ko‘rinishda shunday oddiy emas. Tabiiy kapitalning bir qator ko‘rsatkichlari, birmuncha chiqarib tashlagandan keyin iqtisodiy o‘shishning sur‘ati ham yuqori, ham past sur‘atda yomonlashadi.

Bu iqtisodiy o‘shishning kelajakda iqtisodiy sarf-xarajatlar va kelajakda yomonlashuviga olib keladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar, ya‘ni sanoatda ishlatiladigan suvning oqishi natijasida ifloslanish darajasi mamlakatning rivojlanishi davomida boshlanishda o‘sadi, jon boshiga daromadlar bo‘yicha taxminan 12 ming. AQSh dollari hisobida yetadi va faqat ushbu joylardan keyin barcha ko‘zatiladigan ahamiyatlarda barqaror bo‘lib qoladi.

Ko‘proq dinamikali o‘shish tabiiy kapital sifatining yaxshilanishiga katta vosita sarflashni ijozat etadi. Iqtisodiy o‘shish ekologik vositalarning yaxshilanishi uchun, atrof-muhit ko‘proq yuqori sifatiga talabni yaratib va ushbu resurslar uchun zaruriyat berib sharoitlarni ta‘minlaydi.

Ammo ushbu tendensiya mutlaqo harakatga ega emas.

Misol, chiqindilar uchun “qaytarish nuqtasi” CO<sub>2</sub> undan keyin ular pasayishni boshlaydi, bir qancha hisob-kitob bo‘yicha, jon boshiga daromad 4053 AQSh dollari darajasida bo‘ladi.

Shunday qilib, nisbatan yuqori sur‘atda o‘shishda Hindiston kabi mamlakatda (5% yiliga) to‘g‘ri keladi, bunday miqdordagi daromadlarga erishish uchun bir necha 10 yilliklar talab qilinadi.

Ekologik muammolarning keskinligi iqtisodiy o‘shishga yondashuvni almashtirish zarurligi shartlanadi. Oldingi vaqtlarda qisqa vaqtdagi o‘shish strategiyasiga “hozir o‘shish, keyingi tozalash” foydalanilgan. Uning almashishiga tabiiy kapitalning mustahkamlanishiga asoslangan iqtisodiy o‘shish strategiyasi kelmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilishning va o‘shish strategiyasi maqsad birligiga olib kelmoqdadir.

Shunday qilib, ochiq iqtisodiyotning rivojlanish jarayonida markaziy o‘rin iqtisodiy o‘shishga beriladi, garchan u har xil mamlakatlarda farovonlikka har xil ta‘sir etadi. Shu bilan birga nafaqat uning sur‘ati muhim, balki sifati



ham. Mamlakatlar rivojlanishiga balanslashgan yondashuvidan foydalanishi shart, bir vaqtda uning insoniy, ijtimoiy, tabiiy va jismoniy o‘zgarishlarni mustahkamlashga va kengaytirishga harakat qilishi kerak. Faqat shunday holatda rivojlanishning natijasidan aholining keng qatlami foydalanadi. Mustahkam farovonlikni qaytarishni ta’minlash uchun, iqtisodiy o‘sishni boshqarish zarurdir.

Shu bilan birga barcha tipdagi aktivlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: inson, tabiiy va jismoniy kapitallarga, umumiy farovonlik jihatining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini hisobga olish kerak hamda davlat boshqaruvining samarasini oshirish maqsadida institutsional tizimni mukammallashtirish kerak. Bularning barchasi nafaqat rivojlanishga bevosita yordam beradi, balki iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy va ekologik mustahkamligiga ta’sirini kuchaytirishda ham.

### **Qisqacha xulosa**

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining rivojlanish sharoitida milliy iqtisodiyotning holatini va kelajakda rivojlanishini alohida umumjahon tendensiyalaridan ajratib baholash murakkab bo‘ladi. Iqtisodiyotning asosiy takror ishlab chiqarish qismi (elementi) – mikroiqtisodiyot xo‘jaligi (korxonalar, uy xo‘jaligi va boshqalar) dir.

Iqtisodiyotning boshqa asosiy tarkibi megoiqtisodiyot xo‘jaligi bilan ifoda etilgan. Bu tarmoq, sektorlardir.

An’anaviy iqtisodiyot butunligi ostida milliy xo‘jalik (mamlakat xo‘jaligi) tushuniladi. Aynan o‘sha makroiqtisodiyot takror ishlab chiqarish vazifasini bajaradi. Makroiqtisodiy bir butunlik milliy darajada tomom bo‘lmaydi. U o‘z navbatida ancha yirik – xalqaro, jahonshumul miqyosiga o‘tadi. Bu jahonshumul miqyosidagisi nafaqat mikro va mezo qismlardan iborat bo‘ladi, balki makro qismlardan ham. Bunday makro – makrotuzilish (paydo bo‘lishlar) mego butunlik deb aytish qabul qilingan. Bu megoiqtisodiyot hamdir. Megoiqtisodiyot sathi – olamshumul, bashariydir.

“Megoiqtisodiyot” tushunchasi jahon xo‘jaligining shunday bir butunligini xarakterlaydi, bunda uning tizim ostidagilari, elementlari va sub’ektlarining munosabatlari o‘zaro bog‘liqligi bilan, o‘zaro bir-biriga o‘tishi bilan, o‘zaro shartlangani bilan, o‘zaro aloqasi bilan va o‘zaro ta’siri bilan ifodalanadi. Ba’zan ilmiy tadqiqotchilar dunyo miqyosidagi iqtisodiyot haqida (global, yer sharini qamrab olgan) gapiradilar.

## **Asosiy tushunchalar**

Mikro  
Makro  
Mezo  
Mego  
Sathi  
Yer shari  
Iqtisodiy o‘shish  
Ochiq iqtisodiyot  
Iqtisodiy rivojlanish

### **Mavzuning namunaviy savollari**

1. O‘zbekistonning strategik rivojlanish imkoniyati jahonning bir butunlik doirasida qanday ahamiyatga ega?
2. O‘zbekistonning ahamiyati butun jahon iqtisodiyotida nimalardan iborat?
3. Hozirgi zamon sharoitida “ochiq” va “yopiq” iqtisodiyot to‘g‘risida gapirish mumkinmi?

### **Seminar darslarida muhokama uchun savollar**

1. Megoiqtisodiyot, milliy iqtisodiyot degan atamalarni siz qanday tushunasiz va ularning o‘zaro bog‘liqligini dalillab bering?
2. O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar strategiyasiga iqtisodiy globallashuv jarayoni ta’sir ko‘rsatadimi?
3. Iqtisodiyotni rivojlanishi bozor sharoitida hamma vaqt yuqori sur’atda rivojlanishga intilishi kerakmi?

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi jahon sathida deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekiston xo‘jaligiga jahon iqtisodiyot tizimining ziddiyatlari ta’sirini qanday yumshatish mumkin?
3. Raqobatbardoshlikning qanday omillariga e’tiborni qaratish, to‘plash mumkin, o‘ylab ko‘ring?

## **59 BOB. JAHON XO‘JALIGI MAMLAKATLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINING FARQLANISHI VA NOTEKISLIGI**

### **59.1. Qoloq rivojlanish: iqtisodiy mazmuni va hal qilish yo‘llari**

Jahon xo‘jaligi tuzilishini tasavvur etishdagi haqiqiy ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ya‘ni ularning organik butunligi mamlakat tizimining holatidan iborat bo‘lib, ular o‘zlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi, milliy xo‘jaligining strukturasi, aholining daromadlari va iste‘moli hamda jahon iqtisodiyotida tutgan roli va o‘rni bo‘yicha jiddiy farqlanadi. Endi biz bunday yetarli darajada rang-barang va juda ham murakkab tizimlarni muhokama etamiz. Albatta, bu faqat milliy xo‘jaliklarning iqtisodiy tahliliga va jahon hamjamiyatining u yoki boshqa guruh mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvolidan farqlanish sabablariga yondashuvdir.

### **59.2. Jahon xo‘jaligi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlani darajasining farqlanishi va notekisligi.**

Albatta jahon mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida notekislik bu haqiqiylikdir. Jahon mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini xarakterlovchi ko‘rsatkichlarining o‘zaro nisbatlari o‘zgardi, ularning har birining jahon xo‘jaligidagi egallab turgan o‘rnini haqiqiy ma‘lumotlar guvohlaydi. XX asrning ikkinchi yarmida Yaponiya va yangi industrial mamlakatlar jadvaldagi oxirgi o‘rindan iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha birinchi o‘ringa ko‘tarildi.

Bu muammolarni ko‘rib chiqishni tahlil qilishda shunday “iqtisodiy qudrat” va “iqtisodiy salohiyat” tushunchalari “iqtisodiy rivojlanish darajasi” tushunchalaridan mazmuni bo‘yicha farqlanishda ajralib turadi. Iqtisodiy qudrat va iqtisodiy salohiyat tushunchalari bir-biriga o‘xshaydi va mamlakatlarning xo‘jaliklari o‘zlarining rivojlanishiga imkoniyati bo‘yicha miqdoriy tomoni bilan va salohiyati tomonidan xarakterlanishga chaqiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar mutlaqo o‘lchamlarda jalb etiladi: ya‘ni ichki mahsulotning va milliy daromad hajmida, aholining va mehnat resurslarining miqdorida, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hajmida, egallab turgan hududida va boshqalarda. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati (qudrati) mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasidan farqlanishida uning sifati bilan xarakterlanadi: aholining yashash miqdori, aholining ma‘lumoti va madaniyati darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarning rivojlanishi, aholining ijtimoiy himoya qilinganligi va ijtimoiy tabaqalanish darajasi bo‘yicha va boshqalar.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining miqdoriy darajasi milliy daromadning aholi soniga nisbatan xizmat qilishini ifoda etadi.

Bu yerda ishonch bilan shuni aytish kerakki, ya'ni mamlakatlararo ishlab chiqarilgan ko'rsatkichning milliy daromadi o'rtacha aholi jon boshiga to'g'ri kelishdagi farqlar, umumiy mehnat unumdorligining farqida, ishlab chiqarishning samaradorligida, fan-texnika taraqqiyotining jahonshumul yutuqlarining samaradorligi sur'atlarida, ishchi kuchining bilim darajasi va malakali tayyorgarligi, ijtimoiy xizmatlar sohasining rivojlanishi va boshqalarni.

XX asrning 70-80 yillarida nihoyat Sharq mamlakatlarinnig neftni eksport qilishi bo'yicha boyib ketishi, bu o'z navbatida "iqtisodiy rivojlanish darajasi" bo'yicha miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining o'rtasidagi farqlarning yuz berishiga yordam berdi. BMT buni hisobga olgan holda, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashda uni milliy daromadni o'rtacha aholi jon boshiga ishlab chiqarishda sanoatning mamlakat milliy daromadini ishlab chiqarishdagi ulushini, aholining savodxonligini va malakali kadrlarning sonini qo'shishni qabul qildi, ya'ni insonning rivojlanish indeksini.

Hududi va aholining miqdori bo'yicha kichkina mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanishi darajasi bo'yicha jahon mamlakatlarining jadvalning birinchi satrini egallashi mumkin, agar u umumiy mehnat unumdorligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga erishgan bo'lsa va milliy daromadni o'rtacha aholi jon boshiga ishlab chiqarishda aholining daromadlari va iste'moli bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa.

Endi bir vaqtda g'oyat ulkan mamlakat, katta iqtisodiy qudratga ega bo'lib, iqtisodiy qoloqligi bilan jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jadvalining oxirgi satrini egallab tursa. Bunday davlatlarning g'oyat katta hududi ularning tabiiy boyliklari, aholining katta soni ham iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun faqat imkoniyat bo'lib, bu amaliyotda realizatsiya qilinishi yoki qilinmasligi mamlakatning ichki kuchlariga bog'liq bo'lib qoladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot fanida miqdoriy va sifatli deb atalgan mezonlari tufayli iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha jahon xo'jaligining umumiy tizimida mamlakatlar uchta guruhga ajratilgan:

1. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, bular postindustrial rivojlanishda ijtimoiy va ishlov xizmati sohasiga ko'ra eng yuqori ish bilan bandligi bilan.

2. Iqtisodiy rivojlanish o'rtacha darajadagi mamlakatlar, bular industrial rivojlanish bosqichida turgan mamlakatlar.

3. Rivojlanib kelayotgan mamlakatlar yoki "uchinchi dunyo" mamlakatlari, XX asrning 70-80 yillarida bu davlatlarni shunday deb atagan yoki periferiyadagi, chetdagi mamlakatlar, hozirgi vaqtda shunday deb ataladi.

Ushbu uchta tizim ostidagi jahon hamjamiyatining mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasida farqlar mavjud. Bu farqlar miqdoriy va sifatli ifodaga ega. Miqdoriy farqlanish yalpi ichki mahsulotni o'rtacha aholi jon boshiga ishlab chiqarishda har xil o'lchamda ifoda etadi. Sanoatda rivojlangan davlatlarda yalpi ichki mahsulotni taqqoslash narxi bo'yicha aholi jon boshiga 2000 yilda 15 ming dollardan 2010 yilda o'rtacha 40-45 ming dollargacha to'g'ri keladi. Endi barcha rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 10.000 dollardan, 20.000 dollargacha, qoloq davlatlarda esa 410 dollardan 4000 dollargacha to'g'ri keladi (bu mamlakatlar to'g'risida ushbu darslikning ilovasida batafsil berilgan).

Ushbu miqdoriy ko'rsatkichlarning ichida mamlakat aholisining juda ham yuqori va past darajadagi iqtisodiy rivojlanishlarining eng ulkan sifatli farqlanishlari yashirilgan. Agarda sanoatda rivojlangan mamlakatlar asosiy ehtiyoji qondirilgan darajaga erishgan bo'lib va o'zining texnologik va ijtimoiy strukturasi yangi sifatli iqtisodiy o'sish uchun qaytadan qurayotgan bo'lsa, unda "uchinchi dunyo" mamlakatlari o'zlarining qoloq iqtisodiyoti sharoitida aholisining o'sib kelayotgan elementar ehtiyojini qondirish uchun kurashmoqda, kishilarni ish bilan ta'minlashga, elektroenergiya, toza suv bilan, transportlarini va infratuzilmani ta'minlashga intilmoqdalar.

Postindustrial guruhdagi mamlakatlarning milliy daromadni o'rtacha jon boshiga ishlab chiqarishda jadvalning yuqori satrini AQSh egallab turadi. Shu bilan bir vaqtda, ikkinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropaning ko'pchilik davlatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha AQShning ushbu muvofiq ko'rsatkichlariga yaqinlashdi, hatto hozirgi vaqtda bir xil mamlakatlar undan o'tib ketdi. Yaponiyaning milliy daromadining yuqori sur'atdagi o'sishi urushdan keyingi yillarda iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha 2 - o'rinni (AQShdan keyin) egalladi. Agarda 1950 yil Yaponiyaning siyosiy daromadining o'rtacha jon boshiga ishlab chiqarilishi 5 marotaba AQShnikidan past bo'lgan bo'lsa, unda Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanish sur'ati va uning urushdan keyingi davrda erishgan yutuqlarini "Yapon mo'jizasi" deb nomlangani tasodifiy emas.

Albatta iqtisodiy yutuqlarga erishgan har bir davlat jiddiy diqqat bilan qarashga va ob'ektiv ravishda iqtisodiy tadqiqotga loyiq.

Shunday qilib, har bir davlat samarali iqtisodiy o'sishga, o'zining kuchini safarbar etishga, ham ichki ham tashqi omillarini aql-idrok bilan foydalanishga o'zicha erishmoqda. Bu xulosaning ma'nosi, albatta, O'zbekiston va boshqa sobiq sotsialistik xo'jalik tuzilishga ega mamlakatlari uchun tushunarli. Bu mamlakatlarning rahbarlari qaysi davlatlarning bozor mexanizmlari modellaridan foydalanishda, o'zining mamlakatida uni amalga oshirish

istiqboli yoʻqligini, kelajakda nomaʼlumligini tushundilar, sababi iqtisodiy muvaffaqiyatlarning unversal modemi mavjud emas. Ushbu davlatlarning har biridan iqtisodiy “boʻzib” oʻtishning noyobligiga qaramasdan barcha mamlakatlarga xos umumiy omillarni ham ajratish mumkin. Bu birinchidan, hozirgi bosqichdagi fan-texnika inqilobining jahon yutuqlariga erishishdagi iqtisodiy samaradorligi; ikkinchidan, mamlakat rivojlanishining davlat tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy taʼminlanganligini tartibga solish; uchinchidan, xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish miqdorini koʻpaytirish va tovar va hizmatlarning eksportini ichki rivojlanishning jiddiy omiliga aylantirish.

Albatta, har bir nomlangan omillarning oʻz navbatida, koʻpchilik xarakterga ega. Xuddi shunday FTI ning dunyoviy yutuqlarining iqtisodiy samarasi ish kuchining tezda oshishini, mehnat va ishlab chiqarish usullarni tubdan yangilash, moliya ishlab chiqarishning tarmoqlari tuzumida va takror ishlab chiqarishda jiddiy oʻzgarishlarni taxmin etadi. Jahon xoʻjaligi strukturasi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi nuqtai nazardan iqtisod qilish, boshqa yondashuvlar bilan taqqoslaganda koʻproq amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun keyingi asosiy savolga oʻtishdan avval, hozirgi zamon strukturasi tahlil qilishda boshqa yondashuvlar mazmunining qisqacha xarakterini koʻrib chiqish zarur.

Juda koʻp iqtisodiyot adabiyotlarda bozor iqtisodiyotiga keskin burilishigacha hozirgi jahon xoʻjaligining strukturasi va jahonning rivojlanish tarixini baholashda formatsevtik yondashuv mavjud boʻlgan.

Ushbu yondashuv maʼlumotlariga muvofiq insoniyat jamiyati oʻzining rivojlanishida beshta ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni oʻtadi: ibtidoiy (eng ilgarigi), quldorlikka oid (quldorlik), feodal (feodalizm davri), kapitalistik (kapitalizm) va (sotsialistik fazasi) bilan. Bulardan oldin uchta ishlab chiqarish usuli – eski (arxaik) ishlab chiqarish usuli, ilk jamoa ishlab chiqarish usuli, urugʻaymoqchilik ishlab chiqarish usullari ham sodir boʻlgan, ulardan tashqari ibtidoiy jamiyat va quldorlik jamiyati oʻrtasida ham osiyoviy ishlab chiqarish usuli va feodalizm bilan kapitalizm oʻrtasida absotizm ishlab chiqarish usullari ham mavjud boʻlgan (ammo bular toʻgʻrisida koʻpchilik adabiyotlarda gapirilmaydi). Bu yerda bu farmatsiyalarni bir-biridan farqlantiruvchi asosiy mezon boʻlib, ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik shakllari xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon xoʻjaligini tahlil qilish uchun sivilizatsiyaviy yondashuv taklif qilinmoqda. Ammo «Sivilizatsiya» tushunchasi oʻzi hozircha batafsil ifodaga ega emas.

Sivilizatsiya ostida madaniy qadriyatlarning aniqlangan tizimi tushuniladi. “Agarda formatsiyaviy yondashuv sotsiotexnika (ijtimoiylashgan texnika) dunyosi bilan bog‘langan bo‘lsa, unda sivilizatsiya – bu shunday normalar, qadriyatlar, tushunchalar, obrazlar bilan, ya’ni kishilarning mustaqil o‘qishi yoki o‘rganishi uchun aniq yoki noaniq javob beradigan, avloddan-avlodgacha ko‘p asrni madaniyatlarni insonlarning aniqroq birligidagi tarixiy yodgorliklarni ko‘rsatish uchun, o‘zgaruvchan sharoitlarga shu birlikning moslashuvi uchun ishlatiladi”. Sivilizatsiya bu badaviy (varvar), yovvoyilarga holatdan farqlanishda jamiyatning barcha insonparvarlik rivojlanishi ahamiyatining yig‘indisi bo‘lib hisoblanadi. Sivilizatsiyalashgan va sivilizatsiyalashmaganning o‘rtasidagi chegara davlat tashkilotlarining paydo bo‘lishi hisoblanadi. Dunyoda sivilizatsiya yoki ijtimoiy-madaniy usullar juda ham ko‘p uchraydi. G‘arbiy va sharqiy sivilizatsiya deb farqlanadi. Bir qancha mutaxassislar diniy belgilardan chiqqan holda to‘rtta sivilizatsiyaning mavjudligini dalillaydilar: g‘arbiy islomiy, Konfutsiyaviy-buddiyligni, Hindobuddiylignilarni. Bir qanchalari, jahon hamjamiyatining bitta jahon texnogen yoki texnotron sivilizatsiyalarga harakat qilishini ta’kidlaydilar.

Shu bilan birga jamiyatning (iqtisodiyotning) sikllik rivojlanishi, to‘g‘risida ham sivilizatsiyaga oid izlanishlar mavjud, ya’ni sivilizatsiyalarning almashuvi haqida so‘z yuritiladi va shunga muvofiq, yettita sivilizatsiyaga ajratiladi. Neolitik tosh davri sivilizatsiya davom etish dunyoda 30-35 asrni, sharqiy quldorlik sivilizatsiya (bronza asri) 20-23 yuz yillik antiq, (temir asri) -12-13 asr, ilgarigi feodal 7 asr, industriyadan oldingi davri - 4.5 yuz yil, industriya davri-2.5 yuz yillik, postindustrial davri -1.3 yillik davom etgan.

Sivilizatsiya tushunchasining noaniqligi sababli, uning madaniyat bilan bog‘liqligi, sivilizatsiyaning ko‘p qiyofali bo‘lgani uchun hozirgi zamon dunyosini tizimlashganligidan paydo bo‘lgani sifatida baholashga yondashuv taklif qilinadi. Shu bilan bir vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy paydo bo‘lishni tizim sifatida ko‘rib chiqishni taklif etiladi.

Formatsiyaga oid yondashuvni tanqidiy tushunishida, tadqiqotchilar uni foydalanish imkoniyatini nafaqat istisno qilmaslikni, balki sivilizatsiyaviy yondashuv bilan o‘zaro bog‘liqliqni ham tadqiq qilishni aytadilar.

Agarda sivilizatsiya ostida ijtimoiy taraqqiyot bilan tenglashtirib mukammallashgan jamiyat deb tushuntirishsa, unda sivilizatsiya konsepsiyasi uchta asosiy lahzani o‘z ichiga oladi. 1) sivilizatsiya taraqqiyotning o‘lchami bo‘lib inson, uning erkinligi, o‘z-o‘zining rivojlanish imkoniyati, o‘z-o‘zini ifoda qilishi deb e’lon qilinsa. Boshqacha aytganda, sivilizatsiya jarayonlari, ya’ni bular umuminsoniy qadriyatlarni amalga oshirishga yordam beradi; 2)

kapitalistik rivojlanishning mohiyati bo'lib hisoblangan g'arb sivilizatsiyasining rivojlanish tajribasi ko'proq darajada bunga mezon bo'lishi taxmin etiladi; 3) sivilizatsiya jarayoni konsepsiyasi yoki yagona jahon sivilizatsiyasi bo'lib shakllanish imkoniyatiga ishonch bilan asoslangan.

Jahon hamjamiyatining strukturasi ko'rib chiqishda boshqa mezonlar ham mavjud. Shunday qilib, O.Toffler, jahon hamjamiyatining rivojlanish asosiga texnika va texnologiyani qo'yib sivilizatsiyaning evolyutsiyasiga uchta bosqichini yoki to'lqinsimonini ajratib, ularning har biriga o'zining jamiyat va madaniyati turi muvofiq bo'lgan: 1) agrar 10 yil davom etgan; 2) sivilizatsiyaning industrial turi; 3) postindustrial turi u XX asrning 50 yillaridan boshlangan. Ushbu sivilizatsiya rivojlanishining har biri bosqichini O.Toffler hokimiyat –hukmronlik nuqtai nazaridan baholagan: birinchi bosqichida hukmronlik kuchga; ikkinchi-boylikka; uchinchi bilimga tegishli bo'lgan.

Hozirgi zamon ekologik muammolarni tadqiqot qiluvchi olimlar jamiyatning rivojlanishida uchta bosqichni farqlaydilar: eng ko'p davom etgan arxaikka oid: ikkinchisi-diniy; uchinchisi-ilmiy-ratsionalizmga oid tabiatni 200 yil ichida vayron qilgan.

Ma'lum bo'lishicha, K.Marks va F.Engels insoniyat jamiyatining rivojlanishida uchta bosqichini ajratadilar: varvarlik (vahshiy, badaviy); ular sivilizatsiyaning yagona maqsadi boylikni jamg'arish deb hisoblagan insoniyat jamiyatining eng oliy darajadagi rivojlanishi uning xarakterli xususiyati jamiyatni boshqaruvda demokratik yondashuv, jamiyat ichida boylik, huquqiy tanglik ommaviy ta'lim deb aytganlar.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligining strukturasi boshqacha yondashuvni qisqacha ko'rib chiqilganidan xulosalar qilish mumkin, bular quyidagilardan iborat: hozirgi vaqtda sivilizatsiyaviy yondashuv bo'sh-bo'shroq ishlab chiqilgan, hatto, sivilizatsiya so'zining o'zini ifodalashda aniqlik yoritilmagan. Ba'zan bu so'zni mutlaqo o'rinsiz ishlatadi.

Sivilizatsiyaviy yondashuv ko'proq chuqurroq ishlab chiqishni talab qiladi. Uni hozirgi zamon ishlab chiqilgan darajasida jahon xo'jaligi va uning strukturasi baholashda foydalanish juda ham kam aniqlik kiritishi mumkin.

Endi formatsiyaga oid yondashuvga to'xtab o'tsak unda uni qandaydir mafkuraviy qatlamlardan tozalansa, nafaqat jahon iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarixini, balki uni hozirgi strukturalarini ilmiy tadqiqot qilish uchun ham foydalanish mumkin.

Shunday qilib, hozircha xo'jaligining strukturasi tadqiqot qilishda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi nuqtai nazaridan yondashuv bunda ko'proq samarali bo'ladi.



### **59.3. Iqtisodiy qoloq tushunchasining mazmuni**

Jahon xo'jaligining 120 tadan ko'proq rivojlanib kelayotgan mamlakatlarni birlashtirib turgan bir xil bo'lmagan uchinchi siyosiy tizim osti. Ushbu guruhga ya'ni industrial sifatida bo'lgan hamda ko'proq iqtisodiy qoloq Afinaning (janubiy sahrosi kabilar), Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo davlatlari kiradi. Qoloq uning hozirgi zamon tushunchasida jahon xo'jaligining burjuaziyagacha rivojlangan bosqichida joylashgan hududlarning holati bilan bog'langan. Shu bilan birga shunga e'tibor berish kerakki, ya'ni qoloq rivojlanish – bu statik-harakatsiz, moliyaviy ko'rsatkichlar to'plami bilan xarakterlanadigan holat emas, balki dinamik harakatda bo'lib, doimo o'zgarib turadi.

Tizim ostida rivojlanib kelayotgan mamlakatlar har hil guruhlanadi. Rivojlanib kelayotgan mamlakatlarni uchta guruhga ajratishda shunday farqlanadi: 1) yangi industrial mamlakatlari; 2) o'rtacha rivojlanib kelayotgan mamlakatlar; 3) qoloq mamlakatlar.

Mamlakatlarni aholining miqdori bo'yicha guruhlariga ajratish mezonida juda ham nozik bo'lib, bunga juda ham past rivojlangan (Bangladesh) kabi mamlakatlarni kiritishga hamda yangi industrial mamlakatlarga kiritish mumkin bo'lgan (Braziliya, Meksika)larni ham kiritishga ijozat etilgan. Garchan, bu guruhdagi mamlakatlar aholisi deyarli "uchinchi dunyoda" yashayotgan barchasining yarmini tashkil etadi, o'z-o'zidan ma'lumki demografik ko'rsatkich bu mamlakatlarning rivojlanish xususiyatlarining faqat yig'indisi bo'lib xizmat qiladi (ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlari, har xil tipdagi birlashtiradi). Ushbu yirik rivojlanib kelayotgan guruh mamlakatlari, ularning iqtisodiy o'sishga imkoniyatlari, avvalombor bularda yaratilgan mehnat resurslaridan foydalana olmaslik nuqtai nazaridan qiziqishni tasavvur etadi.

Tizim ostida rivojlanib kelayotgan mamlakatlarni bo'linishi bo'yicha beshta guruhga ajratiladi: 1) yangi industrial mamlakatlar birinchi va keyingi avlodlari. Bularga: Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong, Tayvan, Malayziya, Indoneziya, Xitoy kiradi.

2) yirik rivojlanib kelayotgan mamlakatlar, bu yerda mezon sifatida aholining soni foydalaniladi (70-75 milliondan kam bo'lmagan). Ushbu talabga 8 ta rivojlanib kelayotgan mamlakatlar: Bangladesh, Indiya, Indoneziya, Xitoy, Meksika, Nigeriya, Pokiston.

3) neft qazib oluvchi mamlakatlar (birinchi navbatda OPYeK mamlakatlari).

4) asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha holatni egallagan mamlakatlar.

5) qoloq rivojlangan mamlakatlar.

Rivojlanib kelayotgan mamlakatlarni guruhlash ularning bir xil bo‘lmaganligi uchun zarurdir. Bu mamlakatlarning qoloqligini iqtisodiy tahlil qilishi uchun ularni faqat daromadlarning jon boshiga ko‘rsatkichi bo‘yicha yetarli darajada emas. Neftni qazib oluvchi mamlakatlarni, masalan, ular milliy daromadni jon boshiga ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bo‘laturib (G‘arbiy Yevropa davlatlariga yaqin yoki hatto ulardan yuqori turadi, ularni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritish mumkin bo‘lmaydi, ancha ko‘p ko‘rsatkichlar bo‘yicha ular rivojlangan davlatlarga qaraganda rivojlanib kelayotgan mamlakatlarga yaqinroq turadi. Shu bilan birga, yangi industrial mamlakatlarni alohida guruhga ajratmasdan bo‘lmaydi. Uning muvofaqiyati qoloq rivojlanishini bartaraf qilishi shubhasizdir. Ammo u noyob ichki va tashqi omillarning birgaligi tufayli erishilgan, o‘z navbatida ulardan har biri tengi yo‘q, yagona bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tashqi iqtisodiy va tashqi siyosatlar sharoiti yangi industrial mamlakatlarning (YaIM) yuksalish davrining boshlanishi yuzaga kelgan vaziyatlar bilan taqqoslaganda keskin o‘zgargan. Rivojlanib kelayotgan mamlakatlardan faqat ozginasi industrial yuksalish uchun zaruriy ichki sharoitlar bilan ta‘minlangan. Ko‘pchilik tadqiqotchilar buni hisob olib, ya‘ni yangi industrial mamlakatlarning tajribasi universal xarakterga ega emas deb xulosa qiladilar. Eng kam rivojlangan mamlakatlar qoloq rivojlanishi juda ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Ular « uchinchi dunyoning» ancha qismini egallaydi, hozirgi vaqtda 41 mamlakat hisoblanadi, jumladan, Osiyoda-8ta, lotin Amerikada-1 ta, Okeaniya-4 ta, Afrikada-28 ta BMT ma‘lumoti bo‘yicha bundan o‘n yillar oldin Afrikada eng kam rivojlangan mamlakatlar-17 ta edi.

Ushbu guruhdagi mamlakatlar uchun aholining minimal ehtiyojini ta‘minlashga mutlaqo qobiliyatsizlikni xarakterli bo‘lib, bu o‘z navbatida 400 mln. dan ko‘proq kishilarni tashkil etadi va har yili 2,4% ga ko‘payadi. Bu guruhdagi mamlakatlar axolisining o‘shish surati milliy daromadning o‘shidan o‘tib ketadi. Oziq-ovqatning jon boshiga ishlab chiqarilishi yilma-yil 0,8% ga qisqarib boradi.

Jamg‘armaning YaIM dagi uning ulushi juda ham past va kamayish tendensiyaga ega.

Ushbu guruhdagi mamlakatlarda boshqa barcha rivojlanib kelayotgan mamlakatlarga qaraganda « jamg‘ara iste‘mol muammolari» deyarli hal qilib bo‘lmaydigan xarakterga ega. Ish joylarining yo‘qligi, past daromadlari aholining ko‘pchiligining yetarlicha iste‘mol qilmasligi jamg‘armalarni shakllantirishga va jamg‘arma fondini tashkil qilishga yordam bermaydi, buning natijasida yangi ish o‘rinlari yaratilmaydi, aholining daromadlari

o‘smaydi. Bunday mahkam beqilgan to‘siqlardan o‘tish qoloq rivojlangan mamlakatlardan faqat ozginasiga mumkin bo‘ladi.

Rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning umumiy tizim ostida har xil guruhlarning va sifatli ko‘rsatkichlari bilan farqlanishining miqdoriy naqdliligiga qaramasdan iqtisodiy adabiyotlarda «uchinchi dunyo» barcha mamlakatlari uchun bir qator umumiy xarakteristikasini ajratadilar.

G‘arb adabiyotlarida «uchinchi dunyo»ning birinchi ancha ko‘proq, chuqur kompleks tadqiqot muammolariga Shvedsiyaning iqtisodchi va sotsiolog olimi G.Myurdalning monografiyasini tan olish mumkin. Bu tadqiqotning muallif tomonidan birinchi metodologik yondashuvi munosib bo‘lib hisoblanadi. Uning mohiyati mamlakatlarni ijtimoiy tizim sifatida qarab chiqadi. G.Myurdal «uchinchi dunyo» mamlakatlaridan har birini oltita element yoki shart-sharoitdan iborat ijtimoiy tizim sifatida qarab chiqadi. Bular:

- 1) mehnat unumdorligi va daromadlari;
- 2) ishlab chiqarish shart-sharoitlari (asosan yirik sanoatning rivojlanmaganligi; texnikaning oddiyligi (ibtidoiy), mehnatning past kapital bilan qurollanganligi; daromadlarga jamg‘armalarning past darajadagi munosabati va yana jamg‘armaning bitta ishlab chiqaruvchiga va aholining jon boshiga pastligi, infratuzilmada kapitalning yetarli emasligi va boshqalar;
- 3) hayot darajasining pastligi, u o‘z navbatida o‘ziga xos miqdoriy va sifatli ko‘rsatkichlarda paydo bo‘ladi; doim ovqatga to‘ymaslik, yashash sharoitining yomonligi, davlatning va xususiy tibbiy va sanitariya xizmatlar bilan ta‘minlashning qoniqarsizligi talabga javob bermasligi; barcha darajalarda texnikaviy va malakaviy tayyorlashda va bilim olish uchun imkoniyatlarning yetarli emasligi hamda ta‘lim va madaniyat sohasida umumiy kamchiliklar;
- 4) bu mamlakatlardagi hayotga va mehnatga bo‘lgan munosabatlarni G. Myurdal an’anaviy qoniqarsiz deb xarakterlaydi, ya’ni bu mehnat intizomidagi past daraja, aniqlik to‘g‘rilikning va tartibga aniq rioya qilishning yetarli emasligi, xurofotga berilgan, irim-chirimlarga ishonadigan bidgatparast, kamchilikka epchillik bilan qarashi moslashish qobiliyati, jismoniy mehnatga nafratlanishda o‘zgarishlarga va tajribalarga shuhrat parastlik va umumiy tayyorgarligi, hukmronlikka va ekspluatatsiyaga so‘zsiz, e’tirozsiz bo‘ysunish va boshqalar. Bunday barcha an’analarga G. Myurdal aql-idrok bilan va uzoq vaqtga tug‘ilishni cheklashga tayyor emasligini qo‘shadi. Rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda kambag‘allikning, faqirlikning asosiy sabablari yuqori suratda aholining tabiiy o‘rishni hisoblaydi.

5) ijtimoiy institutlar G.Myurdalning asoslab berishicha barcha aytilganlarning yig'indisi «qoloq davlatlarni» (erga egalik qilish va yerdan foydalanish, tadbirkorlik tizimining yollanishi, savdo va kreditlashning rivojlanmaganligi, hukumat idoralarining kompetensiyaning yetarli emasligi va jamiyat ma'muriyatining vijdon bilan samarali ishlashining past darajasi milliy siyosat darajasini o'zlasligi, yetarli emasligi va boshqalar);

6) siyosiy tadbirlar barcha yuqorida aytib o'tilgan sharoitlarda qoloq rivojlangan davlatlar o'zgarishiga yordam berishni aniqlaydi. Geografik holati, iqlimi va tabiiy boyliklari farqida boshqa noqulay, nomuvofiq sharoitlar doimiy bo'lib hisoblanmaydi va albatta prinsipda siyosiy xarakteridagi tadbirlar yordamida o'zgarishi mumkin.

Qoloq rivojlanishning oltita tizim shart-sharoitida asosiysi mehnat unumdorligi darajasi ko'rsatkichi deb hisoblaydi G.Myurdal bu bir qator qo'shimcha tushunchalar bilan hisoblaganda qolgan boshqa (beshta) shart-sharoitlarni taxminiy ko'rsatkichga qabul qilish mumkin, ya'ni (nomukammal) mamlakatlarning qoloq rivojlanish indeksi darajasi. Ammo u ham «qoloq rivojlanish» ni aniqlashga xizmat qilmaydi, uning teng taraqqiy o'zgarishi kabi hozircha «rivojlanish» ni ham aniqlab bermaydi.

Qoloq rivojlanishga tizimli yondashuvni foydalanish amaliy ahamiyatga ega. Bu mamlakatning aniq yo'nalishi bo'yicha rivojlanishida barcha shart-sharoitlarning qoloq rivojlanishni xarakterlovchi sabab-oqibati o'zaro bog'liqlikni hisobga oladi.

Hozirgi zamondagi iqtisodiy adabiyotlar asosan qoloq rivojlanish ko'rsatkichlar tizimining nomini takrorlaydi. Ancha ko'p manbalarda u faqat ko'p bo'lmagan ijtimoiy qatlamlar o'rtasida va aholining daromadlari va iste'molining jiddiy aniqlangan farqida jamiyatning keskin tabaqalanishi amalda o'rtacha sinfdagilarga o'rin qoldirmasdan shunday asosiy xarakterliklar bilan to'ldiradi.

Ko'p tadqiqotchilar jahon xo'jalik tizimida mamlakatlar rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanib, jiddiy qonuniyatlarni ro'kach qiladilar: mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik past bo'lsa, ijtimoiy tabaqalanishi darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Bunday qonuniyatlar ijtimoiy ishlab chiqarishning nisbiy past davom etadigan davrida yuqori darajada iqtisodiy rivojlanib kelayotgan mamlakatlar uchun ham ko'zatiladi.

Qoloq rivojlanish xarakteriga tashqi shart-sharoitlar hamma vaqt ta'sir ko'rsatadi. Ushbu shart-sharoitlarning xususiyatini ichki shart-sharoiti bilan taqoslanganda ularning katta dinamikasidir. Jahon xo'jaligi tuzilishida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining notekisligi savdo qilish shart-sharoitlarning, jahon bozorida vaziyatlarning o'zgarishiga va unga

kirishining qisqarishiga olib keladi. Qoloq rivojlanishga chet el xususiy kapitallarning qochishi, TMKlarning asta-sekin «uchinchi dunyoning» ancha-muncha qismlaridan chiqib ketishi, tashqi qarzar muammosining hal etilmaganligi, yetarli bo‘lmagan yordam hajmi jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Endi «qoloq rivojlanish» tushunchasining iqtisodiy mazmunini xulosa qilamiz:

1. Qoloq rivojlanish barcha rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning asosiy xususiyati bo‘lib hisoblanadi. U ushbu guruhdagi mamlakatlarning tizimlashishini tashkil qiluvchi omili bo‘lib xizmat qiladi.

2. Modomiki rivojlanib kelayotgan mamlakatlar guruhi jahon xo‘jaligi tizimining o‘zviy qismi hisoblan ekan, uning hukmi ostida bo‘ladi va bu holatda qoloqlik barcha jahon hamjamiyatining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniq.

3. Qoloq rivojlanish o‘zining barcha xarakteri bo‘yicha umum insoniyat muammosi bo‘lmoqda. Qoloq rivojlanish jahon hamjamiyatining global, ekologiya energetikaga, hatto ommaviy vositalarni vayron qiladigan harbiy qurol-yorog‘lardan foydalanish extimoliga oid muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

4. Qoloq rivojlanish shart-sharoitlarini o‘z ichiga olgan muammosini hal qilishning murakkabligi, bunga nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy an’anaviy milliy xarakteriga egaligi ham kiradi. Shu bilan birga, har bir rivojlanib kelayotgan mamlakat noyob, «o‘z-o‘zining qoloq rivojlanishi» bilan xarakterlanadi. Amaliyot ko‘rsatmoqda, ya’ni xalqaro har xil tashkilotlarning qoloq rivojlangan mamlakatlar uchun tavsiya qilgan dasturlarini bajarib bo‘lmaydigan bo‘lib qolmoqda, sababi bu dasturlar ularga qo‘shimcha berilgan, o‘zining «qoloq rivojlangan» tushunchasining murakkabligi va ko‘p qiyofaligi tufayli universal xarakterga ega emas.

5. Jahon xo‘jaligi tizimi doirasida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishning notekis tendansiyasining ob’ektiv naqdligini eslata turib, ularning butunlay iqtisodiy, tenglik hajmdagi tezisini amalda realizatsiya etishiniga intilishini tan olish umuman xomxayol bo‘lib hisoblanadi. Hatto rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning yutuqlari bo‘yicha iqtisodiy o‘lishining su’rati va samarasi hayot darajasining sifatining farqi «uchinchi dunyo» va rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida shubhasiz qoladi. Aynan har bir mamlakatning milliy xususiyatlari, an’analari, madaniyat va san’ati, tarixiy rivojlanishi, jahon tizimining ajratib bo‘lmaydigan zarur xususiyatlari bo‘lib qoladi. Ushbu qismida farqlarining aniqlanishi sivilizatsiyalashgan yondashuvni foydalanishga yordam beradi.

Endi, mantiqan bo‘lib ko‘rsak har qanday odam, shaxs o‘zining mehnati bilan boy bo‘lishi mumkinmi? bugun dunyoda 7 milliarddan ko‘proq aholi yashamoqda. Yer yuzi maydoni 510,2 million km<sup>2</sup>, shundan 148,6 million km<sup>2</sup> quruqlikni tashkil etadi, har bir davlatning, ozmi-ko‘pmi, o‘z yer osti-er usti boyliklari mavjud. Bu yerda yana o‘nlab savollar tug‘iladi: nega kambag‘al-faoqir bor?...

Umuman, bunday jahontushul muammolarni kim hal qiladi? BMTimi yo jahon hamjamiyati? AQShmi yo Yevropa Ittifoqi? Yoki sanoatda iqtisodiy rivojlangan davlatlarmi?!

Birinchidan, harqanday davlatning millatga bog‘liqligi rostmi?

Ikkinchidan, albatta beshta odamning o‘z-o‘zidan boyib ketishi qiyin. Bu o‘ta murakkab muammo, ayniqsa, buning ustiga, bozorning erkin mexanizmlari sharoitida narx-navoning erkinlashishida, ish haqi buning orqasidan quvib yetaolmayapti. Sobiq SSSR, iqtisodiy rivojlanishni tenglashtirish maqsadida Ukraina va Bellorussiyada yaratilgan qo‘shimcha qiymat O‘rta Osiyoning qoloq respublikalariga qayta taqsimlanadi, deb aytilar edi, ya’ni bu respublikalar mustaqil yasha olmaydi, degan bo‘liag‘ur buhtoplar tarqatilardi. Vaqt-hakam, deydilar. Haqiqat o‘zini ko‘rsatdi: O‘zbekistonda har yili o‘rtacha 8-9 foizdan YaIM sur‘ati, o‘sib bormoqda, tashqi qarzi yo‘q, YaIM o‘rtacha 3110 dollardan jon boshiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu nimaga bog‘liq: birinchidan, davlat rahbari o‘zbek modelini ilmiy asoslab, isbotlab, uning istiqbolini ham ta‘minlab berdi, O‘zbekiston kundan-kunga iqtisodi rivojlanib borgayotgan davlat sifatida. Tanilib bormoqda, xalqimiz shonu shavkati, ko‘tarilmoqda bu biz uchun katta faxr, shon- sharafdir.

#### **59.4. Qoloq rivojlanishni bartaraf etish yo‘llariga va sabablariga evolyutsiyaviy nazariy qarashlar.**

Iqtisodiy qoloq rivojlanishni tushuntirib beradigan juda ham nazariya va konsepsiyalar ko‘p. Iqtisodiy adabiyotlarda shunday ma’qullangan konsepsiyani uchratish mumkin, ya’ni qoloq rivojlanish tarixiy bo‘lmagan tabiatga ega, u birqancha mamlakatlar va xalqlar uchun oldidan aniqlangan. Shunga muvofiq, bu millatlar tarixda bo‘lmagan qoloqlikka muqarrar bo‘lgan va qoloq rivojlanishga bardosh berish imkoniyati haqida qo‘yilishining o‘zi qonunga to‘g‘ri kelmaydigan bo‘lib ko‘rinadi. Bunday konsepsiyalar qoloqlikdan qutilmoqqa ishonch qoldirmaydi.

Iqtisodiy o‘zaro yordam maslahati (IYoM-SEV) tashkilotining parchalanishiga iqtisodiy qoloq rivojlanish va unga bardosh berish sabablarining ikkita konsepsiyasi rivojlangan edi. Bu konsepsiyalar XX asrning ikkinchi yarmida, ikkita jahon tizimining siyosiy qarama-qarshilik

ta'siri ostida shakllangan. Bir qator ozod bo'lgan mamlakatlar siyosiy va iqtisodiy rivojlanishlarni urush va katta tanafotlar evaziga hal qilingan (Vetnam, Korreya).

SEV mamlakatlarining iqtisodchilari sobiq SSSRdagi qoloqlikni mustamlakachilik salbiy oqibatlarini sifatida talqin etishgan. Sobiq sovet jamiyatshunosliklari iqtisodiy qoloqlikni yagona bardosh bilan yengish, birgina sotsialistik yo'l, ishlab chiqarish vositalarini natsionalizatsiya qilish va davlatning direktiv planlashtirish orqali xalqni etish mumkin deb hisoblashgan. Ushbu maqsad ular sotsialistik rivojlanish yo'lini targ'ibot qilib, mustamlaka respublikalarning iqtisodiy qoloqligi oktyabr inqilobi arafasida feodal rivojlanish bosqichida bo'lganligini ro'kach qilar edilar.

G'arb jamiyatshunoslari esa sobiq koloniyalardagi iqtisodiy qoloqlikni tarixiy xarakterli omillari bilan tushuntirishgan. Asosiy qoloq rivojlanish omili qatoriga ular aholining yuqori tabiiy o'sishini va tug'ilishni nazorat qilolmaslikni, sanoat rivojlanish uchun tabiiy resurslarning kamchiligini, savodsizlik bilan birga tarixiy qashshoqlikni va jamg'armani tashkil qilish uchun haqiqiy shart-sharoitlarning yo'qligi sabab qilib ko'rsatishgan.

Tabiiy holda, iqtisodiy qoloqlikni bardosh bilan yengishning ko'pincha samarali yo'lini g'arb iqtisodchilari bozor ho'jaligi modelini g'arb mamlakatlari tipida kapitalistik yo'l bilan rivojlanish asosida shakllantirish deb hisoblar edilar. Shu bilan birga, qoloqlikni yengish uchun har xil modellar ishlab chiqilgan va taklif etilgan.

Jahon sotsialistik tizimi parchalanganidan so'ng vaziyatlar o'zgardi. Ushbu o'zgarishlarga nafaqat sotsializm tizimining parchalanishi, balki Yaponiya, Koreya respublikasi va Hindistonda, bir qator Lotin Amerikasi mamlakatlarida g'oyat katta iqtisodiy yutuqlar ta'sir ko'rsatdi.

Jahon iqtisodiyotida yangi hodisalar ta'siri ostida "uchinchi dunyo" mamlakatlarining nekolonial qaramligi yangi sifatli rivojlangan mamlakatlar bilan ularning o'zaro harakati yangi sifatli modeliga o'rin beradi. Bu yangi model bozor mexanizmining har bir qoloq rivojlangan mamlakatlarning haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarini to'liq hisobga olgan holda iqtisodiy qonunlarga asoslanadi. "Nekolonializm" tushunchasining o'zi o'tmishga ketayapti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida aniq tarixiy davrlarni xarakterlash uchun qo'llanilishi mumkin.

Qashshoqlik – katta muammo. U inson tanazzudiga sabab bo'lishi, Yer yuzida ekologik vaziyatlarning yomonlashuviga olib kelishi, shu bilan birga ya'ni «uchinchi dunyo»ni asta-sekin xavfli zonasiga aylanturmoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda, bu davlatlarning aholi esa jon

boshiga daromadlari 40 barobar past-bo‘lib harbiy harajatlari esa rivojlangan mamlakatlar bilan tenglashib bermoqda.

Bugungi kunda jahon fan-texnika yutuqlarini samarali amalga oshirmasdan ushbu mamlakatlarning iqtisodiy yuksalishini ta‘minlash mumkin emas.

Fan-texnika taraqqiyoti muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun kamida ikkita shart-sharoit zarur:

1) Chuqur asoslangan fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish va uni realizatsiya etish davlat dasturini ishlab chiqish;

2) aholining ta‘lim darajasini ko‘tarish kerak.

Oxirgi yillarda yuqori darajada iqtisodiy rivojlanish natajalariga erishgan rivojlanib kelayotgan mamlakatlar tajribasi xulosa qilishga ijozat beradi, ya‘ni davlat faqat iqtisodiyot islohotlar va modernizatsiyalarning boshlang‘ich davridagi bozorni tartibsiz tashkillashtirishga berish mumkin emasligini. Mamlakatlarda qayerda xukumat iqtisodiyotning boshlang‘i” bozorni ko‘rinmas qo‘li” yaxshi ishlamagan bo‘lar edi.

Shunga o‘xshagan Koreya Respublikasida Li Sven Man (1960) hukumatining iqtisodiyot sohadagi qat‘iy o‘zgarishlari aynan davlatning sustkashlik bilan bog‘liq bo‘lgan strategiyani tanlashi yaxshi muvaffaqiyatga olib kelmadi, bu o‘z navbatida bu yerda kommunistik mafqurolarning ro‘y berishining ko‘rinishi davlatning tartibga solish g‘oyalariga bu siyosatchining salbiy murosabati tushinarli edi. Shunday sabablarga ko‘ra Urugvayda va Lotin Amerikaning boshqa ko‘proq mamlakatlarida ham islohotlarning barbod bo‘lishiga olib keldi. Sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan yangi mustaqil mamlakatlarning birqanchasida “falaj” terapiyasi bilan islohotlar olib borayotganlarida ham shunday salbiy natijalar ro‘y berdi. Bozor iqtisodiyotning mustahkamlanishi, bozor infratuzilmasini yaratish bo‘yicha, bozor mexanizmlariga va xo‘jalikning xususiy sektorlariga tashabbusni berib davlatning iqtisodiyotga ta‘siri asta-sekin kamayib boradi. Ammo davlatning tartibga solishdagi muvaffaqi islohotlarning boshlang‘ich davrida mamlakatning strategik rivojlanishga asoslangan va chuqur o‘ylangan, hamda ushbu strategiyani realizatsiya qilishni ishlab chiqanligi bilan ifodalanadi.

Davlatning iqtisodiyotga chalasavodli aralashi uni usloh qilishning har qanday davrida zarari yuqori va oqibatini oldidan aytish qiyinroqdir.

Bir qancha eksport iqtisodchilar rivojlanib kelayotgan malakatlarning kelajagiga ko‘z tashlab yaqin ikki yarim o‘n yilliklarda (2030 y.) ushbu mamlakatlarning jahon xo‘jaligida va xalqaro savdoda aniq o‘sinh sur‘atini kutmaqdarlar. Ammo ularning jahon xo‘jatligini markazi va chetdagilarning



orasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarining kamayishiga nazori juda ham ishonchsizli edi. Avvalambor bu yerda bugungi kunda farqlanishi ikki ma'noli raqamlar bilan hisob-kitob qilinadi. Bundan tashqari, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini jadallashtirish uchun chet el kapitalli va texnologiyalarning ko'plab to'planishi muxtojlsizigidir. Ammo, hozirgi ko'rsatilgan jarayonlarning rivojlanishidagi tendensiyalar chatdagi mamlakatlar foydaga to'g'ri kelmaydi va bu tendensiyalarning o'zgarishi dargumondir.

Endi sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan va boshqa mamlakatlar kerak, unda bularni hozircha rivojlanib kelayotgan mamlakatlar guruhiga kiritish mumkin emas, ayniqsa qoloq mamlakatlar qatoriga kiritish ham. Bu mamlakatlarning borchasi xo'jalik yuritishning bozor modeliga o'tish munosobati, bilan bog'langan ijtimoiy iqtisodiy inqirozlargacha o'rtacha darajada iqtisodiy rivojlanish bilan bog'langan mamlakatlar qatoriga kiritilgan. Ushbu ko'rsatkichlarning ishlab chiqarishning inqorozda tushishi natijasida pasayishi bu mamlakatlarni rivojlanib kelayotganlar guruhiga kiritishga asos bo'lmaydi. Bularni o'rtacha darajada iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritishga juda ham ko'p sifatli ko'rsatkichlar mavjud. Albatta o'tish davri qanchalik davom etishga bog'liq bo'ladi va bu mamlakatlarning shunday sifatli ko'rsatkichlar (ta'lim, ho'jalik tuzumi, fan-texnika ahvoli va boshqalar), bularni o'rtacha rivojlangan mamlakatlarga kirishiga ijozat etadi. Ammo bularning islohotlar jarayoni qanchalig cho'ziladi va iqtisodiyoti o'sishni boshlaydi, bularni yoki rivojlangan, yoki rivojlanib kelayotgan mamlakatlar qatoriga o'tishi bilan bog'liq.

«Uchinchi dunyo» mamlakatlarining iqtisodiy tahlili shuni ko'rsatmoqda-ki, ularning qatlamlarida ajratilish jarayonlari davom etmoqda. 2000 yillar boshida Gonkong, Singapur, Qatar, Kuveyt, Birlashgan Arab Amirliklari, Bagomar, Bermud va boshqalari iqtisodiy o'sish bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kirdilar. Koreya, Tayvan, Saudiya Arabistoni ularga yaqinlashdi. Shu bilan bir vaqtda, bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar bir joyda deysinib qoldilar. G'arb iqtisodchilarining bahosi bo'yicha, bu guruhlardagi qashshoqlik metropoliya (mustamlakaga ega) ekspluatatsiyasi oqibati bo'lib hisoblanmoqda.

U, o'z navbatida, jahon tizimining ko'rsatmasi bilan ularning tashqaridan majburan bog'langan o'zgarishlarga qarshi turishining qobiliyatsizligi yoki boshqacha aytganda, kapitalistik davlatlarda qabul qilingan o'yin qoidalari bo'yicha demografik o'sishlar va shaharlar aholisining ko'paylib ketishi ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

## **AQSh iqtisodiyotining tarmoqlari strukturasi**

O‘zining pastindustrial ifodasi bilan farqlanadi. Qishloq xo‘jaligi sohasida, 2%, YaIM, sanoatda – 23% YaIM yaratiladi. YaIM ning ko‘proq qismi nomoddiy sohalarga to‘g‘ri keladi. Xizmat ko‘rsatish sohasida YaIMning 75% yaratiladi.

### **59.5 Amerika iqtisodiyoti**

AQSh o‘zining hududi va aholisi bo‘yicha jahonning yirik mamlakati bo‘lib hisoblanadi. Maydoni 93 mln kv.km, aholi 317 mln. kishi, dunyoda uchinchi o‘rinni egalladi. Takror ishlab chiqarish bo‘yicha birinchi turga kiradi. Mamlakat YaIM yiliga 14-14,5 trln.doll (jahonda birinchi o‘rinda, jahonning 30% YaIM) – jon boshiga yiliga 47 ming.doll to‘g‘ri keladi. Amerika dollariga jahonning barcha valyuta zaxirasining 65% ga yaqini to‘g‘ri keladi, Amerikaning valyuta zaxirasi jahonning umumiy hajmidan 4% ni tashkil etadi. Mamlakat budjetining o‘lchami Yaponiya va Germaniyadan tashqari jahonning barcha davlatlarining YaIM birga hisoblaganda undan ko‘p chiqadi.

Amerikaning hamma vaqt davomida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarixiga uning qulay geografik va tabiiy omillari yordam berdi, jumladan:

– keng hududi, doimo aholi va iqtisodiy ekspansiya kiritishga qaratilgan;

– qishloq xo‘jaligi uchun foydali qazilmaga boy resurslar, qulay, o‘rtacha zonalar;

– xomashyo, ayniqsa – importiga buyuk davlatlar ichida eng kam bog‘liq bo‘lmagan;

– ikkita mo‘zlamagan okeanlarga erkin kirishi;

– AQSh manfaatiga va uning xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘diradigan qo‘shnisining yo‘qligi (uning hududida 100 yildan ko‘proq urush bo‘lmagan).

Boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ijobiy ta’sirga ega bo‘lgan AQSh da ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, deyarli 1,5 asr bu mamlakatda revolyutsiya, to‘ntarishlar hokimiyatning nokonstitutsiyaviy o‘zgarishi, kuch bilan ko‘zatiladigan ommaviy to‘lqinlanishning va boshqa salbiy hodisalarning bo‘lmaganligi 177 yil, Filadelfiyada AQSh konstitutsiyasining 27 ta to‘zatishtlar kiritilgan. Endi, AQSh tarixida bir necha salbiy voqea va xodisalar ham sodir bo‘lgan.

AQShning 44 prezidentidan 4 tasi otib o‘ldirilgan 16- prezidenti Abraam Linkoln (1851-1865); 20- prezidenti Abraam Garfield DjEyme (1881); 25- prezidenti Mak Kinli – (1897-1901) 35- prezidenti Djon Fitsdgerald Kennedi (1961-1963). Shu bilan birga bularning o‘rniga Amerika Konstitutsiyasiga binoan prezidentlik vazifasini bajarganlar. 17- prezidenti Endryu Djonson

(1865-1869); 21- prezidenti Artur Geyeter Alon (1881-1885); 26- prezidenti-Teodor Ro'zvelt (1901-1909);36- prezidenti Lindon Djonson (1963-1969).

AQShning 9- prezidenti Garrison Uilyam Genri (1841 yil mart-aprel) ikki oydan keyin to'satdan vafot etgan.

AQShning 32-prezidenti–Ruzvelt Franklin Deleno (1933-1945) 4 marotaba prezident etib saylangan, u ham prezidentlik vazifasini bajarayotgan vaqtda vafot etgan. AQShning 37-prezidenti Richard Milxaus Nikson (1969-1974) ikkinchi muddatga saylangandan keyin AQSh kongressi qarori bilan vazifasidan ozod etilgan.

1948 yilda professor Artu Shlezinger o'sha vaqtgacha prezident vazifasini bajargan. 33 tasidan kimlar buyuk bo'lganini so'roq o'tkazganda, 6 ta prezidentning nomi aytilgan. AQSh ning birinchi prezidenti Dorj Vashington; AQShning (birinchi davlat kotibi), uchinchi prezidenti – Tomas Djefferson; 7 prezidenti Endro Djonson; 16-Prezidenti Abraam Linkoln; 28-prezidenti Vilson Tomas Vudro va 32-prezidenti Ro'zvelt Franklin Delenolar aytilgan.

AQShning 22 – prezidenti Steven Graver Klivlend AQShning 24 – prezidenti etib saylangan.

AQShning barcha hududi uchta chegaradosh bo'lmaganlardan iborat. Bular geografik holati va tabiiy resurslar o'lchami bo'yicha har xil.

– AQShning maydoni 7,83 mln.km<sup>2</sup>

– Alyaska yarim oroli o'zining ko'p sonli orollari bilan Amerikaning shimoliy-g'arbida joylashgan bo'lib, Amerikaning 16% hududini egallaydi, (maydoni – 1,53 mln.km<sup>2</sup>) Kanada bilan chegaradosh, Shimoliy mo'z okeani va Tinch okean suvlari bilan oqib o'tadi.

– Gavayi (Tinch okeanda 24 orol) mamlakatning 0,2% hududini egallaydi (maydoni – 16,8 ming km<sup>2</sup>) hamda AQSh bir qator egalik qilgan joylari: Puerto-Riko va Virgin oroli Karib dengizida, Tinch okeanida-Sharqiy Samoa, Guan, Miduey,Ueyk boshqa orollarga ega.

AQSh mehnat bozorining asosiy harakatlanishi jahonning rivojlangan davlatlari orasida eng yuqori ish vaqti davomi hamda jahonda eng yuqori mehnat unumdorligi. YaMT ning ma'lumoti bo'yicha, 1997 yilda amerikalik ishchi o'rtacha 1966 soat ishlagan, Yaponiyaning ko'rsatkichida ikki hafta ko'p (1989 soat yiliga) shu bilan birga bitta amerikalik ishchi yaratgan tovar 50 ming doll, shu vaqtda Yapon ishchisi-40 ming doll, Nemets-46 ming.doll, Irland ishchisi – 43 ming.doll bo'lgan.

### **Iqtisodiyotning tarmoqli tuzilishi**

AQSh iqtisodiyotining tuzilishi o'zining aniq postindustrialligi bilan farqlanadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida 2% ga yaqin YaIM yaratiladi, sanoati 23% YaIMni beradi, YaIM ancha ko'proq ulush nomoddiy ishlab chiqarishga to'g'ri keladi: xizmat ko'rsatish sohasi mamlakatning 75% YaIM beradi. Jahon rivojlangan davlatlar orasida amalda o'zining industrial rivojlanishi bo'yicha raqibi yo'q (ya'ni bunga tengi yo'q) AQShga qaraganda xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha ko'p faqat Niderlandiyada (78%), Izrailda (81%) va Gonkokda (83%) ko'zatiladi. Bular bir qancha ega bo'lgan raqobatli afzalligi bo'yicha XMT tizimida xizmat ko'rsatishda ixtisoslangan. Ammo yuqorida aytilgan mamlakatlar jahon xizmat ko'rsatish bozorida ko'zga tashlanadigan o'zlarining uncha katta bo'lmagan o'lchami bo'yicha AQSh bilan raqobatlasha olmaydi.

### **AQShning sanoat majmuasi**

AQSh iqtisodining sanoati juda ham dinamik rivojlanayotgan tarmoq bo'lib qoladi. AQShning sanoatda ishlab chiqarish indeksi 2001 yilda 127,1 teng bo'lgan, bunga o'xshagan ko'rsatkichlar sanoatda rivojlangan mamlakatlar bo'yicha 113,4 bo'lgan. AQSh ulushiga jahonning sanoat ishlab chiqarishida 34% to'g'ri keladi. AQShning sanoati jahonda qazib olinadigan xomashyoning 1/3 yaqinini iste'mol qiladi. AQSh sanoati uchta ishlab chiqarish bo'limini o'z ichiga oladi: ishlab chiqaradigan sanoati, qazib oluvchi sanoati va elektroenergiya sanoatini. Tabiiy resurslarning ancha ko'p ulushi qazib oluvchi sanoati mahsulotining hajmida qiymat ifodasida (90%)ini energoresurslar: neft, ko'mir, tabiiy gaz va uran tashkil etdi. Qazib olinadigan metalning 75%ga yaqini temir rudaga va milga to'g'ri keladi. Shu bilan birga milliy iqtisodiyotda iste'mol qilinadigan mineral xomashyoning 50% gacha import ta'minlanadi. Xususan olganda, AQSh shunday strategik metallarning Xrom, marganets, volfam, kobalt kabilarning zaxirasiga ega emas.

Ishlab chiqarish sanoati 80,4% ko'proq ulushi sanoat mahsulotlarini beradi. Sanoat mahsulotlarining 13%ga yaqinini elektro energetikada yaratiladi.

Juda ham tez yangi fanga oid (katta hajmli) tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari rivojlangan: mikroelektronika, lazerga oid texnika oldindan berilgan tarkibiy prinsiplar yangi materiallarni ishlab chiqarish, genga oid injener va biotexnologiya, yangi ishlab chiqarish texnikalari-robotlar, egiluvchan avtomatlashgan ishlab chiqarish, avtomatlashgan loyihalari sistemalar va boshqalar. Robotlarning o'rtacha yillik ishlab chiqarish sur'ati 36% dan ko'proq. Sanoatda ishlab chiqarish kompyuterlarni indeksi 1926 yilda 297,0 bo'lgan bo'lsa, 2000 yilda 319,0 ga teng bo'ldi. AQSh iqtisodiyotida 2000 yillarda yangi ish joylarining oltitasidan bittasi kimyosanoati tarmog'iga to'g'ri keladi. 2000 yillarning boshlarida bu sanoat 80milliardli eksporti bilan

mamlakatda tirik eksport bo'ldi. Tadqiqot va ishlov berishga 31mlrd.doll sarflangan edi. Yalpi ichki mahsulotning bir ishchiga 170 ming.dollar ko'rsatkichi bilan kimyo sohasidagi biznes Amerika iqtisodiyotining barcha sanoat tarmoqlari orasida uchinchi o'rinni egalladi. Qo'shilgan qiymat kimyo sektorida 1999 yilda 176 mlrd. dollarga yetdi, ya'ni Amerikaning barcha YaIM uning 2% yaqinini tashkil etadi.

### **AQSh iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi sektori**

AQShning YaIMda agrosanoat majmuasining ulushi 20%dan oshmaydi. Ushbu sohada mehnat unumdorligi yetarli darajada tez o'sib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sof mahsulot va ASM bandlik ko'rsatkichidagi salmog'i oxirgi o'n yilliklarda sezilarli darajada qisqarib bormoqda. Oxirgi 30 yilda AQShning YaIM ko'rsatkichida qishloq xo'jalik ulushi deyarli 2 marta qisqardi va 1,1% ni tashkil etadi.

2001 yilda AQShning agrobiznes sohasida band bo'lganlar 21,6 mln kishi bo'lib, ya'ni mamlakat iqtisodiyotda umumiy ish o'rinlarini 17%ni tashkil etdi. AQShning qishloq xo'jaligi mahsulotining eksport qilish ulushi doimiy o'sib bormoqda, bu o'z navbatida mahsulotni haddan ko'p ishlab chiqarishga olib keladi. Shu bilan birga fermer xo'jaligining 2,4dan 1,6 mln gacha qisqarishi yuz berdi. Shu bilan bir qatorda qolgan fermalarning yiriklashishi yuz berdi. Va endi hozirgi vaqtda 13,8% yirik xo'jaliklari 70%dan ko'proq barcha tovarli mahsulotni bermoqda, o'sha vaqtda qolgan fermalarning ulushi 9% dan oshmaydi. AQShda oxirgi o'n yillikda qishloq xo'jaligining mustahkam o'sishi ko'zatilmoqda. Shu bilan birga fermer xo'jaligining 2,4 dan 1,6 mlngacha qisqarishi yuz berdi. Shu bilan bir qatorda qolgan fermalarning yiriklashishi yuz berdi va endi hozirgi vaqtda 13,8% yirik xo'jaliklari 70% dan ko'proq barcha tovarli mahsulotlarni bermoqda, o'sha vaqtda qolgan fermalarning ulushi 90% dan oshmaydi. AQShda oxirgi o'n yillikda qishloq xo'jaligining mustahkam o'sishi ko'zatilmoqda. Shu bilan birga fermalar soni kamaymoqda, ularning o'lchami va mehnat unumdorligi o'smoqda (1945 yilda 5,9 mln fermalar hisobda bor edi). O'sha vaqtda fermalarning o'rtacha maydoni 79 dan 1989 ga gacha ko'paygan. Shu bilan birga fermalarning umumiy miqdorining faqat 3% (60mingga yaqini) qishloq xo'jaligi mahsulotining yarmini ishlab chiqargan edi.

Amerikalik fermerlar jahonda eng yuqori ishlab chiqarish unumdorligiga erishgan. Bitta fermer qishloq xo'jaligi mahsulotiga ehtiyoji bo'yicha 59 kishini ta'minlaydi, o'sha vaqtda G'arbiy Yevropada 19 kishining, Yaponiyada 14 kishini ehtiyojini qondiradi. O'z navbatida bunga qishloq xo'jaligining murakkab mashinalaridan, yuqori darajadagi infratuzilmaning rivojlanishidan (bunga), foydalanish hamda davlat tomonidan qishloq

xo'jaligidagi ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash yordam beradi. Qishloq xo'jaligi sohasidagi va oziq-ovqat davlat dasturlarini bajarishga sarf-xarajatlari AQSh federal budjetining 45% ni tashkil etadi. Bular o'z navbatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yillik qiymatining 27% ga ekvivalent va har yili haydagan har bir gektar yerga davlat beradigan 410 dollar o'lchamida subsidiyaga teng baho bo'ladi.

Mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 25% ga yaqini eksport qilinadi. (chetga chiqariladigan hajmi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi). AQSh jahonda makkajo'xori va don eksporti bo'yicha birinchi o'rinni, guruch (Tailanddan keyin) eksporti bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. AQShning ulushiga makkajo'xorini ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 45%dan ko'proq, bug'doy – 12, soya o'simligi- 32, (jahonda birinchi o'rin), paxta – 21, yog'li urug' – 18, go'sht – 17 (jahonda birinchi o'rin), taban – 12, guruch – 18% ga to'g'ri keladi.

### **Xizmat ko'rsatish sohasi**

AQShning iqtisodiyotini islohot qilish xizmat ko'rsatish sohasining YaIMda salmog'ini ko'paytirish yo'li bilan davom etmoqda: ularning ulushi 65%ga yaqinini tashkil etadi (transport va aloqani hisobga olmasdan). Ushbu sohada bandlikning ulushi 75%ga yaqinlashmoqda.

Amerika statistikasi nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga transport va aloqa, chakana va ulgurchi savdo, umumiy ovqatlanish, moliya-kredit va sug'urta xizmatlarini, maishiy va ishlab chiqarishga tanlangan, ta'lim, sog'liqni saqlash, xususiy fan, xo'jalikni boshqaruvchi davlat apparati hamda harbiy-politsiya faoliyati, siyosat mafkura va targ'ibot apparat xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Barcha nomoddiy sohalardagi 25%dan ko'proq moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishga, sug'urtalash, ko'chmas mulk bilan operatsiyalarga to'g'ri keladi. 22%ga yaqinroq xizmatlar chakana va ulgurji savdoga yaratiladi. 26,3% - bu har xil ishlarga, huquqiy, ijtimoiy shaxsiy xizmatlar, sog'liqni saqlash, dam olish, sayr-tomosha, avtoservis va boshqa xizmatlardir. Transport va aloqa ulushi 8,8%ga, davlatni boshqarish xizmatlari esa 18,4% ga to'g'ri keladi.

AQSh iqtisodiyotini hozirgi zamon ko'rinishida asosiy rolni axborotlashuv inqilobi o'rnatdi. Kompyuterlar va hozirgi zamon aloqa vositalariga investitsiyalar XX asrning 90 yillarining oxirida yilma-yil o'sishi 25,8%ga to'g'ri keldi. Ushbu investitsiyalar hisobiga AQShning iqtisodiy o'sishining 1/3ga yaqini ta'minlandi. Har yili amerika biznesi kompyuter texnologiyalariga va yaqin kommunikatsiyalarga 220 mlrd. dollar va yana dasturlar bilan ta'minlashga 10 mlrd. dollarni sarflaydi.

Iqtisodiyot uchun transport xizmatlari katta ahamiyatga ega. AQShda transport sohasining barcha turi rivojlangan, mamlakat juda ham ajoyib hozirgi zamon transport infrotuzilmasiga ega. Yuk tashish sohasida asosan temir yo‘l transport katta ahamiyat egallaydi, yo‘lovchilar tashish bo‘yicha esa ancha katta ahamiyatga avtomobil va havo yo‘llari transportlariga ega.

### **AQShning transport majmuasi**

Transport majmuasi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida asosiy rol o‘ynaydi. AQShda temir yo‘l o‘zunligi tarmog‘i 265 ming. km.ga to‘g‘ri keladi. Mamlakatda elektro energiyani umumiy iste‘mol qilishda transport ulushiga 20% va barcha suyuq yoqilg‘i iste‘moli 50 dan 60% gacha to‘g‘ri keladi. AQShda transport majmuasiga umumiy foydalanish transporti-temir yo‘l, avtomobil, dengiz, ichki suv, havo yo‘llari va truboprovodga oidlar kiradi. Yuk va yo‘lovchilar tashishning ancha qismi sanoat korxonalarini yengil avtomobillar, shaxsiy samolyotlar va boshqalar bajaradilar.

Transport majmuasining moddiy-texnik bazasi asosan katta quvvatni va yuqori sifatni xarakterlaydigan zamonaviydir. XX asrning 80 yillaridan boshlab AQShning transport majmuasi avvalombor EVM, miroprotsessorlar, tolali optikalar, lazerlar, yerning sun‘iy yo‘ldoshi va boshqalardan foydalanish bilan avtomatlashgan sistemali boshqaruvni keng joriy etish hisobiga texnika va texnologiya sohasida tashishning yangi sifatli bosqichga siljishi boshlandi. Transport xizmatlarining sifatini oshirishdagi asosiy yo‘nalish “faqat o‘z vaqt”ida tashish sistemasini joriy etish bo‘lib, yuklarni harakat qiladigan tartibga bir daqiqasigacha aniq yetkazib berishdan iborat. Bu o‘z navbatida buyurtmachiga qimmat turadigan omborxonalar qurishdan voz kechishi va aylanma vositalarga talabni qisqartirishni aks ettiradi.

Transport hozirgi vaqtda barchi iqtisodiyotni va uning samaradorligini jiddiy oshirishni o‘z ichiga oladigan ishlab chiqaruvchi transport sistemasining murakkab organik tarkibiy qismiga aylanmoqda.

### **Tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi iqtisodiy faoliyat**

#### **AQSh eksporti**

AQSh jahonda tovarlarni (jahon eksportining 13%) va xizmatlarni (jahon eksportining 18%) eksport qiladigan eng yirik eksportchi bo‘lib hisoblanadi. AQShning eksporti jahon eksporti hajmining 16% ni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda mamlakatning 10% yaqin yalpi ichki mahsuloti va 30% AQShda barcha ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar tashqi bozorga realizatsiya qilinadi. Hozirgi vaqtda 1.3 eksport 1.3 trln dollarni tashkil etadi.

Mamlakatning eksport pozitsiyasiga ijobiy yordam berishga XX asrning 90- yillarining oxirida rivojlangan mamlakatlar bilan hamda Janubiy-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikaning tezda o‘sib kelayotgan iqtisodiyotda investitsiya

jarayonlarining jadallashtirilishi iqtisodiy konyunkturaning yaxshilanishiga olib keldi. Tovar va xizmatlarning eksporti AQShda 11-12% ga yaqin YaIM yaratadi. AQShning savdo balansi – 13% tashkil etadi. (bu yerda salbiy ko‘rsatkich import qiymatining import qiymatidan oshib ketishi hisobiga).

Oldingi qatorda ketishi sur‘ati bilan yarim o‘tkazgich va telekommunikatsiya asbob-uskunalar, transport vositalari (avtomobillar va avialaynerlar), energetikaga oid va dvigellar, o‘lchov va ilmiy priborlar eksporti rivojlanmoqda. Jahon moliya-iqtisodiy inqirozidan keyin bir necha avia texnikani va kimyo mahsulotlarini Osiyo va Lotin Amerika mamlakatlari iste‘molchilariga yetkazib berish qisqardi. Umuman 1997-1988 yillardagi va 2008 yildagi inqirozning ta‘siri, Osiyo hududida amerikaning eksportini va iqtisodiy o‘rishni kelgusi ko‘rinishda izohlash mumkin. Osiyo hududidagi mamlakatlarga yaqin vaqtlarda amerikaning barcha eksporti 1/3 (33%) to‘g‘ri kelgan edi. 1998 yilda ushbu mamlakatlarga eksport 13% ga qisqardi. Eksportning sof samarali qisqarishi YaIM-0,5% ga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlarni eksport qilishda moliyaviy boshqaruvga, transportga oid, tibbiyot, ta‘lim va konsultativ xizmatlar ustuvor turadi.

Amerika eksportining o‘rishiga ancha-muncha rag‘batlantirish 1994 yil Meksikaning NAFTAga kirishi bo‘ldi. Shundan keyin tezlik bilan Meksikaga investitsiyaviy va iste‘mol tovarlarining eksport qilinishi ko‘paydi. Meksikaning AQSh bilan chegaradosh tumanlarida Amerika TMK to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari asosida katta quvvatga ega importdan to‘ldirilgan tayyor tovarlarni keyinchalik Amerikaga eksport qilish maqsadida ishlab chiqarish bazalari yaratildi. Amerika TMKlari Meksikada past darajali mehnat xarajatlaridan foydalanadi, ammo bu o‘zaro Meksika va AQSh o‘rtasidagi savdoning o‘rishiga olib keladi. NAFTAning tashkil bo‘lgandan keyin darhol Meksikaga va Kanadaga eksport Amerika barcha eksporti o‘rish sur‘atining yarimini berdi. AQShning eksport bo‘yicha asosiy sheriklari Kanada (AQSh eksportining 23%), Yaponiya (10,3%), Meksika (10,1%), Buyuk Britaniya (5,3%), Germaniya (3,7%), Janubiy Koreya (3,4%) va Tayvan (3,2%).

Hozirgi vaqtda mamlakatning yalpi ichki mahsulotning 10% va AQShda ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning barchasining 30ta tashqi bozorda realizatsiya qilinadi. Amerika monopoliyasining asosiy eksport ekspansiyasi mashinalar, asbob-uskunalar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga to‘g‘ri keladi. AQSh ulushiga jahonning fan o‘lchamiga oid tarmoqlar mahsulotlarining 20% to‘g‘ri keladi. Juda katta miqdorda elektrli kompyuterlar, maishiy elektronika va kompyuterlar import qilinadi. AQSh uchun asosan katta ahamiyatga ega bo‘lgan omil bu har yili jahonning don eksportining yarmi to‘g‘ri keladi. AQShning chet eldagi transmilliy korporatsiyalarining korxonalarini yiliga tovar



va xizmatlarni ishlab chiqarishning umumiy qiymatining deyarli 1,5 trln dollarini ta'minlaydi. AQSh jahonda kapitalning yirik eksportyori bo'lib hisoblanadi. (yilma-yil 0,3-0,4 trln. doll. chiqariladi). Chet eldagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning foydasi AQSh iqtisodiy rivojlanishining asosiy manbasi bo'lib, ular amerika korporatsiyalarining 1/3 gacha barcha foydasining hajmini tashkil etadi.

Chet el bozorlarida sotish uchun tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni kengaytirish – bu amerika xo'jaligi o'sishining asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. 1994-1996 yillarda AQSh dan tovar va xizmatlarni eksport qilish 698,3 dan 835,7 mlrd.dollarga ko'paydi (hozir ushbu ko'rsatkich 1,1 trln. ga yaqin bo'lib qoldi). Taxminan mamlakat YaIM yilma-yil o'sish sur'ati xo'jalikning eksport qilinadigan yuqori texnologiyaga oid, yuqori unumdorlik sektorlarida ishlab chiqariladi. Shu tufayli 1992-1996 yillarda 1,5 mln yangi ishchi o'rinlari yaratilgan edi. Boshqacha aytganda, AQShda baynalminallashgan takror ishlab chiqarish jarayonlarining yangi sifatli fazaga kirishi, buning asosiy xususiyati–Amerika Qo'shma Shtatlarining jahon xo'jaligining doirasida bir butun takror ishlab chiqarish mexanizmida qatnashishidir.

### **AQSh iqtisodiyotida import**

AQShning importi jahon import hajmining 23%ni tashkil etadi (2001 yilda AQShga import 1,4 trln.dollar tashkil etdi). Amerika iqtisodiyoti uchun import eksportga qaraganda yana katta ahamiyatga ega. Importning ulushi ichki maishiy elektronikasi, poyabzal va boshqa bir qator iste'mol tovarlarining iste'moli 80% dan ko'p bo'ldi, metallga ishlov beradigan stanoklar va neft – 50%, qora metallar va to'qimachilikka oid – 20% bo'ldi. YaIMni ishlab chiqarishning 13% import bilan bog'langan, AQShning ulushiga esa jahon tovarlar importi 17% va 12,5% jahon xizmatlar importi to'g'ri keladi. AQSh importi sur'atining o'sishida mashinalar va asbob-uskunalar 2/3 beradi, avtomobillar va iste'molga tayinlangan tovarlarning ulushiga to'rtinchi qism to'g'ri keladi. O'tgan asrning 90 yillarida amerika dollari kursining jahonda tovarlarning yetakchi eksportyoriga nisbatan ancha-muncha mustahkamlanishi natijasida AQShga Yevropadan, Janubiy Sharqiy Osiyodan va Lotin Amerikasidan nisbatan arzon va raqobatdosh mahsulotlar oqimi kela boshladi. AQSh savdo balansining 40%gacha tanqisligi Yaponiyaga, yana shuncha Janubiy-Sharqiy Osiyo hududidagi mamlakatlarga to'g'ri keladi. Importning anchagina ulushi xalqaro ixtisoslashuvning afzalligidan amerika korporatsiyalarining tarmoqlanish natijasida hosil bo'lgan kompaniyalarning va chet el filiallarining ichki firmalari yetkazib bergani bilan bog'liq.

O'tgan XX asrning 90 yillarida iste'mol tovarlarini AQSh bozoriga eksport qiladigan mamlakatlar orasida Xitoy va boshqa iqtisodiyoti tezda o'tib kelayotgan Janubi-Sharqiy Osiyo Yaponiyani maishiy texnika bozorida siqishtirib qo'ydi hamda kiyim-kechaklar va poyabzal bozorlarida ancha katta ulushni egallab oldilar.

AQSh chet el investorlari uchun eng yoqimli bozor bo'lib hisoblanadi. To'lov balansining ma'lumoti bo'yicha 2000 yilning boshlarida AQShga 0,5trln.dollar kapital olib kelingan. Mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri investitsiya (0,1 trln.dollarga yaqin) oqimi ham va portfelli (0,3-0,4 trln. dollar) oqimi ham o'smoqda. To'lov balansi muammosining nafaqat juda katta ijobiy savdo kapital harakat yengillashtiradi, balki amerika iqtisodiyotiga ancha qismi kapital qo'yilmaganlari ham olib keladi. Shunday qilib faqat to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari amerika iqtisodiyotining asosiy fondlariga 0,7% gacha kapital qo'yilmalarini ta'minlaydi.

2000 yillarning boshlanishida bir qator amerika iqtisodchilari va hukumat a'zolari amerika iqtisodiyotining importga bog'liqligi bo'yicha tashvishlangan edi. AQSh uchun importning eksport ustidan ancha-muncha ustun kelganligi jiddiy muammo bo'lib hisoblangan edi. Tashqi aloqalarning balanslashmaganligining asosiy manbasi Yaponiya, G'arbiy Yevropa va yangi industrialashgan mamlakatlar bilan savdo qilishda passivligi. Shunday bo'lsa ham oxirgi yillarda tanqislik qisqardi, AQSh uchun eng keskin masala savdo oqimlarini tenglashtirish bo'lib turibdi. Alohida yillarda mamlakatning importning o'sish sur'ati ikki marta eksportning ko'payishi sur'atidan oshib ketgan edi. Natijada 2000 yillarning boshida mamlakat tashqi savdo balansi tanqisligi 120 mlrd.dollardan oshib ketdi. Shu bilan birga amerika ma'muriyati eksportni rag'batlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirmoqda. Alohida chet el bozorlarining xususiyatlari bo'yicha amerika eksportyorlariga mutaxassis maslahati yordami berishgan davlat dasturini qabul qilish. Yaponiya, Xitoy boshqa yangi industrial mamlakatlarning bozorlarida chet el tovarlarining to'siqlarini bartaraf qilish bo'yicha keng kompaniya tashkil etildi.

Amerika bozorlarida tovar va xizmatlari eksportyori asosiy mamlakatlari bo'lib Kanada (AQSh importning 19%), Yaponiya (17,4), Meksika (7,3%), Xitoy (5,6%), Germaniya (4,6), Tayvan (3,9) va Buyuk Britaniya (3,6%).

### **AQShning "ikkinchi iqtisodiyot" tushunchasi nimani bildiradi.**

Iqtisodiyot adabiyotlarida transmilliy korporatsiyalarining chet el filiallarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari yordamida yaratilgan xalqaro ishlab chiqarish va tijorat faoliyati tarmoqlari mamlakatning "ikkinchi iqtisodiyoti" nomini olgan, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari

yordamida yaratilgan xalqaro ishlab chiqarish tarmog‘i. AQShning “ikkinchi iqtisodiyoti” o‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyasining hajmi, tovar va xizmatlarning ishlab chiqarish yig‘indisi, ichki bozorda sotilishi va eksport (korporatsiyalarning ichki eksportini ham) bo‘yicha boshqa rivojlangan davlatlardan ancha ustun turadi. 2000 yillarning boshida amerika korporatsiyalarining ulushi jahonda jamg‘arilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumiy investitsiyalarning hajmining 25% tashkil etdi. AQShning “ikkinchi iqtisodiyoti” tashqi savdoning rivojlanishida kuchli rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib hisoblanadi: 50% dan ko‘proq amerika korporatsiyalari filiallarining eksport hajmi ichki firmalar savdosiga to‘g‘ri keldi. Boshqa korporatsiyalarning 40%dan ko‘proq tovar va xizmatlarning chetga chiqishi ularning chet el filiallari tomonidan o‘rnatiladi. Amerika kompaniyalarining amalga oshiradigan 20% yaqin barcha xalqaro bitimlari, ularning xalqaro ishlab chiqaruvchilari bilan shartlangan.

Amerika korporatsiyalarining chet el filiallarida 10 mln. ga yaqin ishchi va xizmatchilar mehnat qiladilar. Amerikaning bozori uchun ba‘zi bir tovarlar(avtomobillar, kompyuterlar, metall kesadigan va boshqalar) amerika korporatsiyalarining chet el filiallarida ishlab chiqarishni baynalmilallashtirish bilan, ya‘ni bitta kompaniyaning bo‘limlari o‘rtasida davlatning chegaralari orqali texnologiyalar aloqasidan foydalanib ishlab chiqaradi. Shu vaqtda AQSh korporatsiyalari mahalliy bozorlarga xizmat qilish maqsadida boshqa mamlakatlarga kapitalni boshqalarga nisbatan ko‘proq investitsiya qiladi, tayyor mahsulotlarni yoki yarim fabrikalarni ishlab chiqarish, ularni keyinchalik AQShga yuborish uchun emas. 2000 yillarning boshida taxminan 2/3 amerika TMK filiallarining kompaniyalari sotishning o‘zlarining turar joylarida amalga oshirgan. Faqat Kanadada va Meksikada amerika investitsiyalari ancha-muncha holatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni amerika bozorida realizatsiya qilishga hisoblangan.

Amerika TMK jahon bozorlarida mustahkam o‘rinlarni egallaydi, chet eldagi korxonalari yiliga taxminan 3 trln.dollar hajmida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni ta‘minlaydi. (deyarli AQShning YaIMning 40%). “Ikkinchi iqtisodiyot” yadrosi chet el sanoat firmalarini tashkil etadi, ularga 70% dan ko‘proq barcha chet el bo‘limlarining sotishi to‘g‘ri keladi. Ular mamlakat iqtisodiyotiga o‘zlarining ishlayotgan joyida juda katta ta‘sir ko‘rsatadi.

AQShning jahon va ichki bozorda yirik savdo sheriklari va bir vaqt ichida asosiy raqobat Germaniya va Yaponiya bo‘lib qoladi. Germaniya AQShga 8-9%, Yaponiya esa-29-31% o‘zlarining eksportini yuboradilar. Savdoda mustahkam tanqislik ushbu mamlakatlar bilan ularning iqtisodiy rivojlanishining asosiy shartlaridan biri bo‘lib qoladi.

Jahon iqtisodiyotida AQShning yetakchi rolini asosiy guvohi mamlakat to'lov balansining texnologik harakati bo'lib hisoblanadi. U o'z navbatida to'lov va texnologiyalarning berishi va kelib tushishini o'z ichiga oladi. Bunga patentlarni ro'yxatga olish hisobi, litsenziyalarni sotib olish, savdo markasi, dizaynlarni ishlab chiqish, mualliflik huquqi sanoat huquqi va nusxasi, "nou-xau", menejment sohasidagi hizmatlarni to'lash va boshqalar kiradi.

### **G'arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiyotiga qisqacha xarakteristika**

Jahon xo'jaligida asosiy o'rinni G'arbiy Yevropa egallaydi. Uning ulushiga YaIM 28% va jahon aholisining 7% to'g'ri keladi. U 25% mamlakatni o'z ichiga oladi. Ular bir-biridan egallab turgan hududi, aholisining miqdori, tabiiy resurslari, iqtisodiyoti va fan-texnika salohiyati bilan farqlanadi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlangan guruhga qarashlidir. Bir tipdagi iqtisodiyot bilan ular iqtisodiyoti yuqori yetarli darajada rivojlangan, YaIMning o'lchami bo'yicha jahon mamlakatlari orasida 2- o'rindan 44-o'ringacha egallab turadi. Iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, tashqi iqtisodiyotning strukturali xarakteri, iqtisodiyot faoliyatining miqyosi bo'yicha G'arbiy Yevropa mamlakatlari bir necha guruhlarga bo'linadi. Hududlarning asosiy iqtisodiy quvvati sanoat munosabatlarida to'rtta yirik yuqori rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi – Germaniyaga, Fransiyaga, Italiyaga va Buyuk Britaniyaga, ular aholining 50% ni, yalpi ichki mahsulotlarning 70% ni to'playdilar. Bu davlatlar ko'pincha hududning barcha xo'jaliklarining umumiy tendetsiyasini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ifoda etadi.

Qolgan mamlakatlar sanoatda rivojlangan mamlakatlarga kiradi. Rivojlangan mamlakatlarning hududda va jahonda egallagan o'zni, ishlab chiqarishda yuqori darajada murakkab texnikaviy ixtisoslashgan, yuqori sifatli mahsulotlari bilan aniqlanadi. Ushbu mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi jarayonida katta ahamiyatga ichki bozorlarning uncha katta bo'lmagan miqyosi o'ynaydi, ular barcha xo'jalik tarmoqlarida talabning yetarli bo'lmaganligi uchun yirik korxonalarining paydo bo'lishini to'xtatib turgan.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiyotga siljishi ularning xalqaro mehnat taqsimoti tuzumida qatnashish xarakteriga va miqyosiga ta'sir ko'rsatdi. Jahon xo'jaligi aloqalari tovarlarni eksport qilishdan kapitalni eksport qilishga o'zgarishi jarayonlari kuchaydi. XX asrning oxirlarida G'arbiy Yevropa TMK chet el aktivlari miqyosi bo'yicha amerika korporatsiyalarini ikkinchi o'ringa surib qo'yib birinchi o'ringa chiqdilar. Ammo G'arbiy Yevropa mamlakatlari investitsiyalarining ancha-muncha

(40%) hududlarining ichida joylashgan bo‘lib, jahonning boshqa hududlarida ular Amerikaga tegishlilariga joy bergan.

Kichik mamlakatlar o‘zlarining Amerikaga aktivlarini tezda kuchaytirib, ular orasida yetakchi o‘rinni Shveysariya egallagan, unga G‘arbiy Yevropa mamlakatlarning chet eldagi aktivlarining 1/6 ga yaqini to‘g‘ri kelgan.

### **59.6 Germaniya. Umumiy ma’lumot**

1990 yilda G‘arbiy va Sharqiy qismi qo‘shilgandan keyin Germaniya iqtisodiy salohiyati bo‘yicha Yevropada yirik mamlakat bo‘ldi. Jahon iqtisodiyotida ham Germaniya oldingi qatordagi mamlakatlarning biri bo‘lib hisoblanadi, jahonda YaIMni ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha uchinchi o‘rinni egallaydi. Germaniya tabiiy resursga boy mamlakat emas. Torf va ko‘k rang ko‘mir, kaliy to‘zlarini aytish mumkin. Hududining 55%ga yaqinini qishloq xo‘jaligi ekinlari egallaydi, o‘rmonlarga 30% to‘g‘ri keladi. Mamlakatning suv resurslari orasida daryo va kanallar tarmoqlarini (Reyn, Elba, Mayn, Dunay) ajratishi kerak, bunday ko‘p tarmoqlar daryoda kemalar yuradiganining rivojlanishiga yordam beradi, (Duysburg - Rurot) esa jahonda eng yirik port bo‘lib hisoblanadi. Ko‘llari orasida ko‘pincha ma’lum bo‘lib hisoblanadigani Boden ko‘li, bu Germaniya, Avstriya va Shveysariya chegaralari birikishida joylashgan va bu yerga juda ham ko‘p sayohatchilar jalb etiladi.

#### **Germaniyada iqtisodiy vaziyatlarning xususiyatlari**

Germaniya uchun hamma vaqt davlatning iqtisodiyotdagi yuqori yo‘li xarakterli bo‘lgan. Ijtimoiylashgan bozor xo‘jaligi modeli iqtisodiy o‘sish va boyliklarni teng huquqli taqsimlash o‘rtasida kompromis tasavvur etgan. Bu tuzumning markazida ijtimoiy ne‘matlarni jamiyat a‘zolari o‘rtasida teng o‘lchamda taqsimlashni ta‘minlovchi davlat tadbirkorlik faoliyati qo‘yilgan.

Germaniyaning iqtisodiy yo‘l bilan rivojlanishining boshqacha xususiyati shunday mamlakat iqtisodiyotida banklarning ancha ahamiyatli rolini xarakterlovchi shunday nomlangan “Reyin kapitalizm” bo‘lib hisoblangan. Germaniya banklar sanoat kompaniyalarida va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi yirik hissadorlar bo‘lgan, shuning uchun ularning biznes-qarorini qabul qilishida faol aralashuvchi favqulodda emas. Shunday qilib, Germaniya iqtisodiyotida banklarning o‘rni, ularning biznesga haqiqatan ta‘sirini hisobga olganda jahon boshqa mamlakatlari qaraganda ko‘proq kuchli ekan. Hozirgi vaqtda Germaniya o‘zining iqtisodiyotida ijtimoiy bozor modeli uchun jiddiy murakkablik sinalmoqda. Germaniya federativ respublikasida 2000 yillarning boshlarida YaIM o‘sish sur‘ati jiddiy past bo‘lgan, deyarli AQShning o‘sha davrdagisiga qaraganda uch marta past bo‘lgan, 1993 yildan boshlab eng yuqori ishsizlik darajasi ro‘yxatga olingan, uning eng yuqori darajasi iqtisodiy

faol aholining 11,3% tashkil etgan. 1993 yilning yozigacha nemis markazining kursini pastlashuvi davom etgan, bu o'z navbatida AQSh dollari uchun 1,92 marka darajasiga yetgan.

### **Mamlakatda investitsiya muhiti qanday xarakterlanadi?**

Yuqori darajadagi ijtimoiy kafolat shunga olib keldiki, ya'ni nemis kompaniyalarining 40% sof foydasi mehnat haqqini to'lashga va ijtimoiy fondlarga ajratishga ketmoqda. Sof ish haqining 100 markasidan ish beruvchilarning o'rtacha ijtimoiy fondlarga ajratmasi 81 markaga to'g'ri keladi. Ishsizlik bo'yicha nafaqa yetarli darajada yuqori, ya'ni nemislarning boqimandalik qismiga yordam beradi. 2000 yillarning boshlarida mamlakatda soliq to'lash darajasi mislsiz o'lchamga yetdi. Endi, agarda AQShga soliqqa taqsimlanmagan foydaning 32%, Buyuk Britaniyada – 45% unga, Germaniyada ushbu ko'rsatkich 65% ga yetdi. Soliqlarning yuqori darajasi va chet el investitsiyalarini rag'batlantirish bo'yicha dasturlarning yo'qligi bu Germaniyaning chet el kapitalini juda ham jalb eta olmasligini bildiradi. Germaniyada iqtisodiyotga chet el investitsiyasining hajmini uch marta oxirgi o'n yilliklarda 55 mlrd.dollar o'lchamigacha ko'paytirishga qaramasdan chet el investitsiyalarining ulushiga 7,5% umumiy qo'yilmasi to'g'ri keladi.

### **Germaniyaning iqtisodiyotdagi dolzarb muammolari**

Germaniyada yuqori texnologiyaga oid ishlab chiqarishning yaratilishida chet el investorlarining qiziqmasligi mamlakatning asta-sekin texnika jihatidan qoloqlashuviga olib keladi. Germaniya jahon texnologik miqdori bo'lib hisoblanmaydi, ayniqsa, uning o'rni gen injeneriyasi va mikroelektronikada bo'shroqliligi. Bularning barchasi nemis eksportining raqobatbardoshligini yomon oqibatlariga olib kelib yo'qotishidir. Shubhasiz, ya'ni ijtimoiy bozor iqtisodiyoti fan-texnikasining rivojlanishiga hozirgi kunda ham zarar keltirishi davom etkazmoqda. Davlatning iqtisodiy siyosatida yuqori texnologiyalar emas, balki ijtimoiy dasturlar ustuvor bo'ladi. Bular o'z navbatida o'zining orqasidan kelajakda yuqori texnologiyali mahsulotlar bozorini yo'qotishga olib keladi. Hatto nemislarning TMK o'zlarining ilmiy tadqiqot va tajribali loyiha ishlarini uchdan birigacha chet ellarda amalga oshiradi, sababi Germaniyada fan bilan shug'ullanish foydasizdir.

Davlat aholining ommaviy ijtimoiy noroziliklarini chaqirmaslik uchun nemislarning iqtisodiyotining zarar keltiradigan sektorlarini ochiq subsidlamoqda. Natijada Germaniya nafaqat jahon bozorida raqobatga ega bo'lmagan ko'mirga oid, po'lat quyadigan sanoatni saqlab qolmoqda, balki iqtisodiyotning shunday zarar keltiruvchi tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri subsidlar ko'rinishida davlat budjetining uchdan biriga sarflamoqda. Bunday siyosatni davlatning selektiv qo'llab-quvvatlashini AQSh va Yaponiyadagi

butunlay raqobatbardosh korxonalar bilan taqqoslaganda Germaniyaning sanoatdagi strukturali muammolarni hal qilishini to'liq asossiz ekanligini tan olish kerak.

Sanoatning asosiy tarmoqlarida yuqori haq to'lanadigan ish o'rinlarini saqlab qolishda Germaniya o'zining milliy iqtisodiyotining ko'pincha taraqqiyparvar sektorlarida, ya'ni ish o'rinlarini yaratishga qobiliyatsizdir.

Germaniyada yaratilgan mahsulotning deyarli 10%dan kam xizmat ko'rsatish sohasida to'g'ri keladi, bu jahondagi boshqa yetakchi mamlakatlarning nomoddiy ishlab chiqarishga ancha-muncha yutqazib qo'yish deganidir. Nemislarning infratuzilma tarmoqlari uchun esa yaqin vaqtlargacha aloqa, energetika, transport kabilarga yuqori darajadagi narx xarakterli bo'lgan. Mamlakatga chet el investitsiyalarning kirishi cheklanganligi sababli, ichki bozor ham kamroq raqobatdoshlikka qobiliyatli bo'lmoqda.

Davlatning bozor iqtisodiyotini talab iqtisodiyoti tasdiqlagandek tartibga solish haqiqatan ham tartiblanishi davom etmoqda. Ijtimoiylashgan bozor xo'jaligi iqtisodiyotda davlatning barcha resurslarini katta taqsimlashdagi o'rnini mustahkamlashga olib kelmoqda.

Germaniyaning iqtisodiyotda davlat xarajatlarining unumi ancha yuqori (50%ga yaqin), davlat xarajatlarining o'sishi esa budjet tanqisligi va davlat qarzlari muammolarini tug'diradi.

Germaniyaning Sharqdagi va G'arbdagi yerlarini birlashuviga oid ijtimoiy-iqtisodiy xo'jalik muammolari murakkablashmoqda. Inqiroz sharoitida sobiq TDOning hududida ijtimoiy qizg'inlikni va ishsizlikni ishlab chiqarish yoshidagi Sharqiy yerlardagi tug'dirilayotgan iqtisodiyotning milliy modeliga strukturali o'zgarishlarni hal qilishga to'g'ri kelmoqda. Sharqiy yerlardagi qoloqlikni yengish uchun 2 trln.marka investitsiya zarur bo'lmoqda. G'arbdagi va Sharqdagi rivojlanish darajasini tenglashtirish uchun hatto korporatsiyalarga va jismoniy shaxslarga soliqlar darajasini ko'paytiradigan taxminiy maxsus "birdamlik solig'i" kiritildi. Sharqdagi mehnat unumdorligi darajasini G'arbdagi standartgacha yetkazish undan uch marta ko'p bo'lishini taxmin qilish kerak. Sharqiy Germaniya nemislarning yerlarini xususiylashtirish va ijtimoiy siyosat strukturali o'zgarishlar oqibatlaridan himoya qilish zarur bo'ldi. Ushbu vazifalarning barchasi Germaniyaning federal hukumatidan yangi sarf-xarajatlarni talab qiladi, mamlakatning budjeti esa o'zining vazifasi bilan borgan sari kamdan-kam eplab bormoqda.

Germaniya iqtisodiyoti uchun yuqori darajali industriyalash xarakterlidir, ya'ni YaIMni ishlab chiqarishda jahonning mamlakatlari bilan taqqoslash bo'yicha sanoatning ulushi yetarli darajada katta bo'lishi kerak.

Faqat Yaponiya, Irlandiya va Portugaliya katta miqdorda industriyalashgan bo‘lib hisoblanadi. Bu tasodif emas, sababi Germaniya jahon iqtisodiyotida sanoatda mahsulot ishlab chiqarishda ixtisoslashgan bo‘lib, (asosan mashina qurish bo‘yicha) hisoblanadi.

Shubhasiz Germaniya 2000 yillikning boshlarida iqtisodiyot milliy modelining rivojlanishda aniq cho‘qqiga erishdi, buni endi jiddiy modernizatsiya qilish kerak bo‘lmoqda.

Germaniyaga tezda hammasidan oldin iqtisodiyotni liberallashtirish (erkinlashtirish) va amerika tilidagi konservativli islohotlar talab etiladi. Germaniyaning iqtisodiyotini strukturali o‘zgartirishdagi qoloqligi uchun hamma vaqt o‘zining Yevropa va Yevropa ittifoqligining lokomativli roli borgan sari kamdan-kam eplanmoqda.

### **Qishloq xo‘jaligi**

Qishloq xo‘jaligining ulushi urushdan keyingi davrlarda juda ham pasayib ketdi. Shunday bo‘lsada, qishloq xo‘jaligi yuqori sifatli darajada bo‘lib qolishni davom etkazmoqda. Iste‘molchilarning 90%ga yaqini o‘zining qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan qoniqtirmoqda. Qishloq xo‘jaligi ham iqtisodiyotning boshqa ko‘p asosiy tarmoqlari kabi davlat subsidiyalarini olmoqda, ya‘ni uni juda ham samarasiz qilmoqda. Yetakchi tarmoq bu – chorvachilikdir. Germaniya o‘z navbatida go‘sht, yog‘, g‘alla kabi mahsulotlarni eksport qiladi.

### **Ko‘pincha rivojlangan sanoat tarmoqlari**

Germaniyaning sanoati mamlakatda liderlik qilib jahon bozorining ko‘pida tayyor mahsulot bilan ta‘minlanmoqda. Ko‘proq raqobatdosh tarmoqlari quyidagilar:

- Mashina qurish;
- Transportga oid mashina qurish (vagon qurish, samolyot qurish);
- Umumiy mashina qurish (stanoklar, har xil asbob-uskunalar ishlab chiqarish);
- Elektr texnik sanoat;
- Aniq mexanika va optika;
- Kimyoviy farmatsevtika va parfyumeriya-kosmetikaga oid sanoat;
- Qora metallurgiya.

Ilgari Germaniya po‘lat ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda liderlardan biri bo‘lib hisoblandi. Rura tumanida po‘lat quyish sanoatining asosiy ishlab chiqarish quvvati to‘plangan edi, ammo 1973 yildan ko‘plab metallurgiya korxonalarining yopilishi o‘tkazilgan edi. Ushbu tarmoqlarning Sharqiy yerlarining xolatiga nima tegishli bo‘lsa, unda mahalliy og‘ir sanoat, ikkita mamlakatning birlashishidan keyin ko‘p o‘tmasdan to‘xtatilgan edi.



Mashina qurish tashqi bozorga mo'ljallangan edi, shuning uchun ham ko'p profilli va ko'p ukladli bo'lgan. Avtomobil qurish zavodlari Baden-Vyurtembergda ("Audi", "Daymler-Bens"), Nijney Pastki Saksoniyada ("Folksvagen"), Gessenda ("Opel"), Severnoy Shimoliy Reyn-Vestfalinda ("Ford", "Opel"), Bavariyada ("BMV") va Saarlendoda ("Ford") yerlarida to'plangan edi. Sharq yerlaridagi avtomobil ishlab chiqarish ekologiya talablariga to'g'ri kelmasligi sababi bo'yicha to'xtatilgan edi. Ammo "Folksvagen", "Opel" va "Daymler-Bens" zavodlari tezda o'zlashtirishga va Sharqiy Germaniya zavodlari o'zlarining markasi bo'yicha avtomobillarni tayyorlashga mo'ljallangan edi.

XIX asrning oxirida Germaniya jahonda birinchi o'ringa elektrotexnik asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni oldinga sura boshladilar. Buning markazi Berlin shahri bo'ldi, bu yerda shunday mashhur korporatsiyalar Siemens, AEG, Telefuncenu Osvam kabilar joylashgan edi. Ikkinchi jahon urushidan va Germaniya bo'linganidan keyin ko'pincha quvvatli va hozirgi zamon ishlab chiqarish Myunxenda, Shtutgardda, Nyurnbergda va Germaniyaning boshqa janubiy markazlarida joylashtira boshlagan edi. TDRda elektrotexnik va elektronga oid sanoat Berlin va Drezdenda to'plangan bo'lib (bular kommunistik mamlakatlarga yuborishga ixtisoslashgan edi). Germaniya qo'shilganidan keyin bu tarmoq sharqiy yerlarda ishlab chiqarish quvvatlari ma'naviy va jismoniy jixatdan kuchli esqirganidan keyin rivojlanishi to'xtatildi.

XIX asrning oxirlarida kimyo sanoatining yuksalishi boshlandi. Mamlakat jahon bozorida faol sun'iy bo'yoqlarni yaratdi. Kimyo tarmog'ining asosiy xomashyosi uchun neft bo'lib hisoblandi. Kimyoviy neft zavodlarining ko'pchiligi Reyn qirg'og'i bo'ylab va uning Lyudvingsxafenda, Frankfurtga yaqin va Rura sanoat joylarida to'plangan edi. Gallda va Leypsigda Sharqiy Germaniya zavodlari kuchli ekologik muhitlari ifloslanib ketgani uchun beqilgan edi.

Germaniya iqtisodiyotining to'qimachilik tarmoqlari oxirgi vaqtlarda o'zining ishlab chiqarishini chet elga o'tkazdi, ammo ilgari vaqtdagidan eng quvvatli tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda. To'qimachilik (engil sanoat) sanoat korxonalari Shimoliy Reyn-Vestfalada va Janubiy Bavariyada joylashgan.

Sanoatda asosiy o'rinni aniq texnika va optika ishlab chiqarishni egallaydi. Germaniya birlashganidan keyin g'arbiy Germaniya firmalari Zeiss bir- biriga profilli bo'yicha Yenda bir-biriga o'xshash ishlab chiqarishni (Sharqiy yer) oldi.

Sanoatning rivojlanishiga ancha ko'proq darajada yangi va taraqqiyparvar tarmoqlar to'qimachilik, oziq-ovqat, tikuvchilik, qazib oluvchi sanoatning ahamiyatini kamaytirish ta'sir ko'rsatmoqda.

Germaniyaning Sharqiy yerlar sanoati uning ilgari vaqtdagi tarmoqlari boshlanishida sobiq SSSRga va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga mo'ljallangan bo'lib, endi jiddiy strukturali o'zgarishlariga (kimyoviy, to'qimachilik sanoati, metallurgiya, va chang qurish, kemasozlik) va ularni likvirovat qilishga to'g'ri keldi, rivojlanish markaziga markaziy qurilish sanoatini, oziq-ovqat sanoatini, aniq texnika va optika kabilar qo'yildi.

Germaniyaning xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi darajasi boshqa rivojlangan mamlakatlarnikidan ancha qolib ketgan. Germaniyada xizmat ko'rsatish sohalarida ish o'rinlari ham kamroq yaratilgan. Shunga qaramasdan Germaniya jahon xo'jaligida bank va moliya, turizm xizmatlariga ixtisoslashmoqda.

Germaniya juda ham yaxshi infrotuzilmaning rivojlanishiga ega: a'lo darajada avtomobil va temir yo'llari, jahonda va Yevropada yirik havo yo'llaridan biri (Frankfurt, Djseldorf, Myunxen) bo'lib hisoblandi va dengiz portlari (Gamburg, Bremon, Kil, Keln, Lyubek, Ratok, Shtutgard) va boshqalar. Transport sohasida eng oldingi qatordagi texnologiyalar qo'llaniladi (o'zlari ishlab chiqargan tez yuradigan poyezdlar inter City Express).

Germaniyaning aloqa tizimi jahonda eng yuqori texnologiyali bo'lib hisoblanadi. Bunday ustunlik bilan rivojlanishida bu tarmoqlar intensiv ravishda kapital qo'yilmalari sarflash natijasida erishgan edi; hozirgi vaqtda sharqiy yerlarga aloqa tizimini modernizatsiya qilish ketmoqda. Mahalliy aloqalarida keng tarqatilgan aloqa tizimi tolali-optik, kabellar, radioreleysli kanallar, yer ustida joylashgan tarmoqlar stansiyasi, keng tarqalgan uyali aloqalardan iborat bo'lib, ancha ko'p Yevropa mamlakatlari bilan rouming xizmatlarini tasavvur etadi. Xalqaro aloqalarida – 7 dengiz kabeli va 14 sputnik tizimi "Intelsat" (2tasi Hind okeani ustidan va 12 tasi Atlantika okeani ustidan), 1 sputnik tizimi "Inmarsat" (1 tasi Atlantika okeani ustidan), 1 ta "Yeutelsat", 2 ta "Intersputnik" troposferli zondlar, 2 ta radiotelefoniga oid aloqa markazi mavjuddir.

### **Germaniyaning tashqi iqtisod aloqalari**

Germaniya hukumatining iqtisodiyot strategiyasida tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida asosiy rolni iqtisodiyot holatini tashqi dunyo xo'jalik aloqalarida qatnashishini hisobga olish natijasi bilan bog'laydi. FRGning asosiy tashqi iqtisodiy siyosati bo'lib uning asosiy tashqi iqtisodiy sheriklari bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi UI, AQSh va Yaponiya hisoblanadi. Katta e'tibor nemis firmalarining har xil mamlakatlarda iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga qaratiladi, jumladan, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi, Afrika kontinentining janubiy kontinenti, Sharqiy va Markaziy Yevropa va boshqalarga. Birinchi darajadagi ahamiyatni EI bilan

mustahkamlashga qaratiladi, bunga Germaniya asosiy o‘rin egallaydi, G‘arbiy Yevropa integratsiyasining lakomativi bo‘lib hisoblanadi.

Tashqi savdo – bu FTR iqtisodiyotining ancha ko‘proq dinamik tarmoqlaridan biri, uning iqtisodiy o‘shining rag‘batlantiruvchi bo‘lib hisoblanadi. Urushdan keyingi davrlarda YaIM eksport doimiy ulushining o‘shishi yuz bergan (195 oy – 9,3%; 1980 yil – 26,7%; 1991 yil – 32,8%) 2000 yillarning boshida YaIM eksport ulushi 20,8% gacha pasayib ketdi. Bu Germaniyaning qo‘shilishi va yangi federal yerlarning iqtisodiy salohiyati, Sharqiy Germaniyaning mahsulot G‘arbiy Yevropada va sobiq SSSR da sotuv bozorlarining yo‘qotishi, Sharqiy Germaniya tovarlarining raqobatbardoshligining yetarli emasligi, G‘arb mamlakatlarida konyunkturaning noxushlik oqibatidir. 2000 yillarning boshlarida eksport va import xizmatlar bilan birga FRG YaIM hajmidagi ulushi joriy narxlarda 26,6 va 24,9% tashkil etdi.

Germaniyaning tashqi savdosi uchun yuqori suratlardagi o‘sh xarakterli (2005 yil – 15% ga yaqin) va doimo (1952 yildan) boshlab tashqi savdo boshlanishida ijobiy o‘sh savdosi bir vaqtda xizmatlar savdosida tan qisman pasayishni hisobga olgan holda saqlanadi. 2000 yillarning boshlarida tashqi savdo balansida rekordli ijobiy savdo 136,1 mlrd nemis markasi o‘lchamida bo‘ldi. Bu o‘z navbatida 19,6 mlrd 1997 yil darajasidan va 1,6 mlrd 1989 yil rekordi ko‘rsatkichidan yuqori bo‘ldi. Bunday yuqori o‘sh asosan Yel sherikchilari bilan savdo qilish hisobiga erishildi.

## **59.7 Fransiya**

### **Fransiyada iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari**

Fransiya g‘arb mamlakatlari ichida yetakchilardan biri bo‘lib hisoblanadi, jahon mamlakatlari orasida 1% aholisi bo‘yicha YaIM 4,7% bilan yettinchi o‘rinni egallaydi. Hududi 551 ming.km<sup>2</sup>, aholisi 57 mln kishi. G‘arbiy Yevropaning 17% sanoat va 20% qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarishiFransiya ulushiga to‘g‘ri keladi.

XX asrning 80-yillarida mamlakat iqtisodiy rivojlanishi sekinlashtirilgan sur‘at bilan o‘shni, ommaviy ishsizlik, davlatning tartibga solish rejimini almashtirishning asosiy yo‘nalishlari bilan xarakterlaydi. Jahon xo‘jaligidagi strukturali inqirozlar, ya‘ni tipdagi takror ishlab chiqarishga o‘tish sanoat ishlab chiqarishiga kuchli ta‘sir o‘tkazdi. XX asrning 80- yillaridagi inqirozdan so‘ng Fransiya sanoati o‘zining ishlab chiqarish darajasini faqat 1986 yilda tiklashga muvaffaq bo‘ldi.

Fransiyaning iqtisodiyoti ham boshqa sanoatda rivojlangan kapitalistik mamlakatlar kabi, erkin tadbirkorlik va savdo prinsipiga asoslangan. Hozirda

Fransiya bozor xo‘jaligi mexanizmi sharoitida yashamoqda, ammo erkin baho belgilash darajasi ob‘ektiv iqtisodiy qonunlar hamda davlatning tartibga solish bilan belgilanmoqda. Narx-navoning erkin belgilanish prinsipi harakatiga qaramasdan Fransiyada davlat bir qancha tovar va xizmatlarga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, gaz, elektroenergiya, transport xizmatlariga narx-navoning to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilashi mumkin hamda raqobat sharoitida narx-navo ustidan nazoratni amalga oshirishi mumkin.

Fransiyaning davlat sektori iqtisodiyotda nisbatan YaIMda uncha katta salmoqni egallamaydi va o‘z ichiga monopollashgan tarmoqlarni (gaz sanoatini, elektroenergetikani va transportni) va bozor raqobati rejimida ishlaydigan (milliy va tijorat banklarini, sug‘urta kompaniya va boshqalarni) tarmoqlarni oladi. Davlat birinchi holatda monopol tarmoqlar faoliyatini barcha iqtisodiy parametri shu jumladan investitsiya hajmini, mehnat haqqini va tayyor mahsulot narxini belgilaydi. Ikkinchi holatda davlat ushbu tarmoqlar iqtisodiy parametriga ularda xususiy sektorlar bilan raqobatga turtki berib minimal ta’sir ko‘rsatadi.

Fransiya iqtisodiyotining bu xususiyatlari tovar va xizmatlarga tartibga solinuvchi va erkin narxlar o‘rtasidagi nisbatlarni taxminan 20% davlat tomonidan tartibga solinadi, qolgan 80% esa erkin bozor belgilagan narx rejimida turishini aniqlaydi. Shuni aytish kerakki, Fransiya sanoati rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan biri bo‘lib, ya’ni davlat narx-navoni qattiq rejimda tartibga solib turuvchi hisoblangan, u, o‘z navbatida, qisman hozirgi zamongacha saqlanib qolmoqda.

### **Fransiyada narx-navo belgilashning davlat tomonidan tartibga solinishi**

Fransiyaning narx-navo tizimini tartibga solish 1945 yili 30 iyundan boshlangan edi, 1939 yil 1 sentabr sanasidan esa narx-navoni muxosara qilish prinsiplarini joriy etishni e’lon qildi. Urushdan keyingi davrlarda, iqtisodiy vaziyatlar murakkab bo‘lgan, paytlarga Fransiya frankining qadrsizlanishi oqibatida narx-navo ustidan nazorat qilish zarurati tug‘ildi, chususan yanvar-fevral oylarida narx-navoni 10% ga pasaytirdi. 1947 yilning oxirida iqtisodiyot sur’atining qayta tiklanishini hisobga olgan holda “narx-navo o‘sishini nazorat qilish” siyosati o‘zlashtirma bo‘ldi, shunga muvofiq tadbirkorlar narx-navoni oshirish xuquqini oldilar, davlat organlarining bu siyosatga to‘siq qo‘ymasliklari qat’iy belgilab qo‘yildi. Ammo 1948 yilning boshlariga kelib tovarlarga narx-navoning to‘liq yoki qisman erkinligini belgilanish rejimiga o‘tkazil edi. Keyingi o‘n yil davomida Fransiya xukumati tomonidan narx-navo bo‘yicha qabul qilingan oltita qonun narx-navoni nazoratining doimo qat’iylashishiga olib keldi.

1960-1962 yillarda sanoat tovarlari deyarli to'liq erkinlashtirishga o'tkazildi, ammo 1963 yilning o'rtalarida Fransiya xukumiati narx-navo bo'yicha 1963 yilning 31 avgust darajasida yangi to'xtatish xaqida yangi iqtisodiy siyosat bilan qaror qabul qildi. 1965 yildan 1972 yilgacha davlat tomonidan narx-navoning tartibga solinishi "Barqarorlashtirish shartnomasi" (1965yil), "Dasturlash shartnomasi" (1966) va "Narx-navoni oshirishga qarshi shartnoma" (1971) lar orqali amalga oshirilgan edi. Asosiy maqsad narxning umumiy darajasi barqarorligini qo'llab-quvvatlab turish, xalqaro raqobatchilik shartlariga javob berish kerak edi.

"Dasturli shartnoma" tufayli korxonalar davlatga o'zlarining investitsiya dasturlari, moliyaviy ahvollari, tashqi bozorga chiqish, bandlik hamda narx-navoning shakllanishi, mehnat unumdorligi ko'rsatkichi, boshqaruvni moliyalash usullari va boshqalar bilan bog'liq ahborotlarni yetkazishi huquqiga ega bo'ladilar.

### **Hozirgi vaqtda Fransiya iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari qanday?**

Hozirgi vaqtda Fransiyaning jahon iqtisodiyotidagi o'rni ancha susaydi, shu bilan birga ohirgi paytlarda mamlakatning sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 6,6% dan 5,7% gacha qisqardi. Eksport imkoniyati ham kamayib ketdi. Ishsizlik me'yori 10% ga oshib, ixtisoslashgan sanoati haligacha kamchiliklarga ega, bozor talabining tez-tez o'zgarib tuishiga juda ham qiyinchilik bilan erishilmoqda. Ishlab chiqarish samaradorligining pastligi iqtisodiy rivojlanishning tarixiy xususiyati bilan bog'liq. XX asrning 50-60 yillarida asosan ichki bozorga mo'ljallangan edi, tashqi aloqalarda esa katta o'rni esa rivojlanib kelayotgan, asosan sobiq mustamlaka imperiyalar doirasida edi.

Ushbu jarayonda kredit sektori xo'jaligi tuzilishidagi ustunligi uncha ahamiyatga ega emasdi, u, odatda, uzoq vaqtga mo'ljallangan sanoat loyihalarini amalga oshirishda ehtiyotkorlikni talab etadi.

Fransiya kapitalini to'plash, markazlashtirish va iqtisodiyotni qayta qurish, hamda ishlab chiqarish va kapitalni baynalminallashtirish jarayoni bilan bir vaqtda o'tmoqda, u, o'z navbatida, quvvati bo'yicha juda ham yirik TMK ga olib keladi. Shu bilan birga, «Imetal» 25 mamlakatda mavjud bo'lgan 62 ta jamiyatni birlashtirib turadi. Avtomobil qurish kompaniyasi «Reno»ning deyarli 45% ishlab chiqarishi quvvati va 25% ishchi kuchi chet el korxonalarida joylashgan va boshqalar.

Kapitalni milliy va xalqaro darajada markazlashtirish natijasida fransuz kompaniyalarini butunlay yiriklashtirishga olib keldi. Kimyo kompaniyasi «Teshine» mahsulotlarni joylashtirishda, xoligrafiya firmasi «Ashey» esa jurnallarni nashr etishda yetakchi o'rinlarni egallashdi, «Kablde Lion» firmasi

jahonda eng yirik kabellarni ishlab chiqarish borasida jahonda birinchi o'ringa chiqdi.

Fransiya banklari hissadorlik kapitali egalik qilgan mulkini tizim orqali qatnashib, xoldinga oid kompaniyalardan, investitsiyaviy fondlardan foydalanib, sanoat kompaniyalari faoliyatida faol qatnashadilar.

Kapitalning birikib ketish jarayonlari barcha iqtisodiyotini keng xalqaro aloqalarga ega bo'lgan bir necha moliyaviy guruhlar tomonidan qamrab olinganlikka olib keldi.

Mamlakatning iqtisodiyotida kichik biznes faol rol o'ynadi. Kichik va o'rtacha korxonalar XX asrning 70-80 yillarida o'zlarining mavqiyeylarini mustahkamladilar. Kichik sektor juda ham harakatchan bo'lib, ro'yxatga olingan tadbirkorlardan birligi 30% dan ikkinchisiga o'tgach, barbod bo'ladi, ulardan har bir ikkinchisining faoliyati 5 yilgacha yetmadi.

Bankrot bo'lgan firmalar yangi kompaniyalar faoliyatida to'siq bo'lish.

### **59.8 Italiya iqtisodiyoti**

Jahon va Yevropa sanoatida Italiya ham yetakchi o'rin tutadi. 57 mln aholiga ega Yevropa ittifoqi YaIMning 18% ni ishlab chiqadi. O'tgan o'n yillikda iqtisodiy rivojlanish darajasidagi o'zilishni qisqartirdi. XX asrning oxirlarida Italiya iqtisodiyoti o'sish sur'atiga ega bo'ldi va G'arbiy Yevropaning yetakchi mamlakatlaridan ustunlik qildi. YaIM hajmi bo'yicha Buyuk Britaniyadan sanoatda esa Fransiyadan o'zib ketdi, sanoatda rivojlangan malakatlar orasida birinchi o'ringa chiqdi.

#### **Italiya iqtisodiyotida davlat sektorining o'rni**

Davlat iqtisodiy munosabatlarning asosiy agenti hisoblanadi, u nafaqat moliyaviy, qonunchiligi orqali xo'jalik munosabatlarini bevosita ifoda etadi, balki ishlab chiqarish vositalarining yirik mulk egasi bo'lib kolmoqda. Davlat sektorining rivojlanishi tarixan xususiy tadbirkorlikning o'jizligi bo'lib shartlandi, vaholanni, bir paytlar mamlakat iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal qilishda tang ahvolda qolgan edi. Davlatning bankrotligidan saqlash bo'yicha va xususiy kompaniyalarni banklarning sog'lomlashtirishga qaratilgan keng chora-tadbirlari davlat sektorini yaratishga va kengaytirishga olib keldi. Agarda kompaniyalar, davlatdan moliyaviy yordam olib, o'zlarining qarzlarini to'lolmaydigan bo'lsa, ular davlat nazorati ostida qolar edi. Natijada «sudraluvchi» shunday guruhlardagi «Inochenti», «SIR», «Likuimika», «Onike» va boshqalar davlat nazorati ostida ishlashga o'tdilar.

Davlat sektori yangi milliy va munitsinnal darajadagi qurilishlar, hamda xususiy mulk davlat mulkiga aylantirilishi, qisman elektroeneggetik

korxonalar va nazorat paketlarining aksiyalarni sotib olishi natijasida hisobiga kengaydi.

Rivojlangan kapitalik mamlakatlarda XX oxirlarida boshlangan Neokonservativga oid siljishlar Italiyaga kamroq darajada dahl qildi. Buyuk britaniyaga qaraganda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish (xususiylashtirish) yangi iqtisodiyotni davlatlashtirish cheklangan miqyosda bo'ldi. Sanoatni xususiylashtirish aksiyalarni xususiy bozorchada realizatsiya qilish orqali o'tdi.

Kichik sektor asosan xizmat ko'rsatish va savdo sohasiga mo'ljallangan.

Iqtisodiy tizimning harakat qilishi takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning kuchli ta'siri ostida ro'y bermoqda.

Fransiyaning savdo va to'lov balansi a'nanaviy ravishda salbiy saldoga olib kelmoqda. Asosan tanqislik mineral xomashyo kimyoviy va iste'mol tovarlari, maishiy va elektronika hisobiga vujudga kelmoqda. Oxirgi o'n yillikda sanoat tovarlari bilan savdo qilishda saldo yomonlasha boshladi. Yirik bo'ysinishlar FRG va Yaponiya bilan savdo qilishda yuzaga kelmoqda.

Fransiya yetarli darajada mustahkam iqtisodiy munosabatlarni Rossiya federatsiyasi bilan qo'llab-quvvatlamogda. Eksport qilishda asosiy o'rinni mashina va asbob-uskunalar, kimyoviy va qishloq xo'jaligi mahsulotlari egallamoqda. Fransiya Rossiyadan yonilg'i va xomashyo tovarlarini. O'zbekistondan esa paxta, kimyoviy mahsulotlarini olib kelmoqda. Butunlay bir qator kompaniyalar esa allaqachon xususiy faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy strukturasi asosiy o'rinlar kooperativ sektorlarga tegishli, ular davlat va xususiy tadbirkorlar o'rtasida oraliq holatni egallaydi. Kooperativ sektorning kengayishiga uning tarkibiga o'tgan xususiy va bankrot xolatida qolgan davlat kompaniyalari yordam beradi.

### **Italiyaning tashqi iqtisodiy aloqasi**

Xalqaro mehnat taqlimotining chuqurlashuvi, mamlakatning tashqi xomashyolarni yetkazib borishga bog'liqligi importining katta miqyosini ta'minladi.

Italiya katta hajmda mineral xomashyolarni olib keladi. Import hisobiga u 80% o'zining energetik ehtiyojini qoplaydi –G'arbiy Yevropa bo'yicha qaraganda ikki marotaba katta. Importda yirik o'rinni qishloq xo'jaligi va kimyoviy tovarlar, oziq-ovqat egallaydi.

Geografik munosabatda tashqi savdo aloqasi YeII mamlakatlari bo'yicha 60% ga yaqini Italiya eksporti hisobiga to'g'ri keladi.

Savdoda asosan birinchi o‘rinda Germaniya bo‘lib, uning o‘shiga 17% va Fransiyaga-16% eksport to‘g‘ri keladi. Savdo aylanmasida 8.6% eksportini AQSh egallaydi. Bu – juda katta salmoq. Ularning o‘shisi ham tezlashmoqda.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy hisoblari xronik salbiy saldog – yoqilg‘i va kimyoviy tovarlari, transport vositalari va oziq-ovqat tovarlari hisobiga yuzaga kelmoqda. Savdoda disbalans Germaniyadan kelgan importning yarim baravar oshib ketishi shartlangan. Yirik vositalar mamlakatdan foiz va dividendlar shaklida o‘tkaziladi. To‘lov balansining uzoq vaqtli tanqislik xarakteri valyuta bozorida liraning o‘zgaruvchan xolatini aniqlaydi. Bunday jarayonlarda inflyatsiya asosiy omil sifatida chiqadi.

Iqtisodiyot uchun muammoni qarzlarga xizmat qiladigan mos shtablarning ko‘payishi tasavvur etadi, ya‘ni YaIM 11% ga chasini o‘ziga jalb etadi. Shu faolligining ko‘payishi inflyatsiyaviy tendensiyalar bilan ko‘zatiladi.

Davlatning faol qatnashishi bilan iqtisodiy modelning mavjudligi oxirgi ikki o‘n yillikda Italiyaning YeII da ko‘proq yuqori iqtisodiy o‘sh sur‘atini tadbirkorlik sohasida ta‘minladi. Oxirgi yillarda u tashqaridan katta ta‘sir ostida bo‘ldi, sababi G‘arbiy Yevropada Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqini yaratishga yo‘naltirilgan integratsiya jarayonlarining maqsadlariga yordam bermaydi.

## **59.9 Buyuk Britaniya**

### **Buyuk Britaniya iqtisodiyotining holati bo‘yicha asosiy tushuncha**

Buyuk Britaniya bozor iqtisodiyotining rivojlanishida jahon iqtisodiyotida birinchi mamlakat bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda u , yuqori darajada rivojlangan va mustaqil iqtisodiyoti bilan tanilgan mamlakat. Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiyotini tiklash uchun qirq yil kerak bo‘ldi. Ichki resurslardan tashqari, Yevro hamjamiyatiga a‘zo bo‘lishi natijasida, ya‘ni 1973 yildan tiklanish jarayoni tezlash boshladi, bu, o‘z navbatida, mamlakat raqobatdoshligining yuksalishiga yordam berdi. Hozirga Buyuk Britaniya o‘zining ishlab chiqarish unumdorligi va raqobatdoshligi darajasi bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar orasida birinchi qatorda turadi. Ishlab chiqarish va mashina ishlab chiqazish ulushi ikkinchi jahon urushi yillarida 1/3 dan 1/5 ga tushib ketgan edi, o‘sha vaqtda xizmat ko‘rsatish sohasi ancha kengaygan va mamlakat daromadning katta qismini olib kelaboshlagan edi.

AQSh va Yaponiya – Buyuk Britaniyaning ancha katta savdo sherigi hisoblanadi. Yaponiya kopmaniyalari ko‘pincha o‘zlarining Yevropadagi bazasi sifatida aynan Buyuk Britaniyani tanlab oladilar. Rivojlanib kelayotgan Sharqiy Osiyo mamlakatlari ham eksportga mo‘ljallangan iqtisodiyotlari bilan



Buyuk Britaniyaning ochiq bozorida faol qatnashdilar. Shunday qilib, Buyukbritaniya nafaqat hamjixatlikka a'zo mamlakatlar bilan, balki Yevro, Osiyo va shimoliy Amerika mamlakatlari bilan ham faol hamkorlik qiladi.

XX asrning 80- yillaridan oldin davlat ixtiyorida bo'lgan korxonalarini keng miqiyosda xususiylashtirilgan, aholi hayotning esa biroz darajasi ko'tarilgan edi, shunga qaramasdan, mamlakatning janub-sharqiy qismi – London shahri ham ikkiga ko'proq rivojlangan hududga va kamroq boy, g'arb va shimol hududlariga ajralgan edi. Ishsizlik darajasi va inflyatsiya asta-sekin pasaytirildi, ammo dolzarbigi saklanib qoldi. Shimoliy dengizda tabiiy gaz va neft konlarining ochilishi bilan bir qatorda iqtisodiyotning ko'proq an'anaviy energiya manbaalari bilan bog'liqligi pasaydi, ammo mamlakatning ichki iqtisodiyoti, hukumatning iqtisodiy siyosati ancha sog'lom holga keldi.

### **Mamlakatning iqtisodiy hayotida davlatning qatnashishi**

Mamlakat xukumati siyosatining asosiy boshlang'ich joyi foiz stavkalarini tartibga solish va qisman o'zgartirish, asta-sekin to'g'ridan-to'g'ri soliq yuklarini pasaytirish, kasaba uyushmalarining ta'siri rolini pasaytirish, aholi orasida ko'chmas mulkni rag'batlantirish, kompaniyalarning aksiyasini ushlaydigan jismoniy shaxslarning ulushini ko'paytirish, real dunyoda ta'lim muassasalari talabalarini haqiqatan ishga tayyorlash darajasini oshirishdan iborat bo'ldi. Ancha-muncha kuchni mehnat unumdorligini tovar va hizmatlarning raqobatdoshligini yaxshilashga qaratilmoqda.

### **Ish kuchi bozorining holati**

Aholining ishga qobiliyatli qismi deyarli barcha aholining yarimini tashkil etadi. Ushbu guruhning uncha katta bo'lmagan qismi o'zining ishi bilan, qolgani harbiy sektorda va hukumat ishlari bilan band. Yollangan ishchilarning 2/3 dan ko'proq qismi hizmat ko'rsatish sohasida ko'proq qismi moliya sektorida faoliyat ko'rsatadi. Ohirgi yarim asrda ishlab chiqarishning kamayib borishiga qaramasdan, esa barcha ishchilarning 1/5 foizi, yollangan shchilarning kamroq qismi esa qurilishda, energiya yetkazish tarmoqlarida, qishloq xo'jaligida mehnat qiladi. To'liq bo'lmagan ish kunida band miqdori ancha ko'paygan.

### **Tabiiy qazilma boyliklari**

Buyuk Britaniya hududida qimmatbaholi tabiiy qazilma boyliklar uncha ko'p emas. Oldingi asosiy temir rudasini qazib olish endilikda juda ham pasayib ketgan, umuman yo'q desa ham bo'ladi. Boshqa iqtisodiy asosiy qazib olinadigan rudalar iqtisodiyotdagi ehtiyojning yarmini qondiradi va tsink ham kiritiladi. Yetarli miqdorda mis, ohak, loy, qum gips kabi resurslar ham mavjud.

Boshqa tomonlardan, Buyuk Britaniya Yevropa hamjamiyatining har qanday mamlakatga qaraganda energiya, neft, tabiiy gaz va ko'mir resurslarining katta zahirasiga ega. Oldingi vaqtlarda asosiy energiya manbasi bo'lgan ko'mir o'zining ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Agarda 1913 yilda bir milliondan ortiq ishchilar 300 mln. tonna ko'mir qazib olgan bo'lsa, bugungi kun bilan taqqoslaydiganda ko'mir qazib olish uch martadan ko'proq tushib ketganini va qazib olish sanoatida ishchilar sonining yanada kamayib ketganini ko'ramiz. Elektrostansiyalarda haligacha ko'mir yoqilg'i sifatida foydalanadi.

Shimoliy dengizdagi neft konlaridan. 1975 yildan bo'yen neft qazib olish ko'payib bormoqda, bu, o'z navbatida, Buyuk Britaniyaning neftni iste'molini yetarli darajada qondirib, hatto eksport qilishga imkon yaratdi. Shu bilan birga Buyuk Britaniya har kuni o'rtacha 2,6 mln barrel darajada neft qazib olishi bilan jahon neft ishlab chiqarish ro'yxatida oltinchi o'rinni egallab turibdi. Uning neft zaxirasi 770 mln. tonna, deb baholangan.

1967 yil tabiiy gazni qazib olish boshlanishi bilan shaharlarda ko'mirni asta-sekin gazga almashtirildi. Mamlakat bo'yicha gazoprovod qurildi. Tabiiy gaz zahirasi 22,7 trln.kub.fut aylanasida baholanadi.

### **Mamlakat iqtisodiyotida sanoat sektori**

Yuqorida qayd etilgandek, toshko'mir qazuvchi sanoat pasayib ketdi, iqtisodiyotning energetika sektori ichki tabiiy gaz va neft qatlami bilan o'zgartirildi. Yadro yoqilg'isi mamlakat energiyasini ko'tardi, lekin elektrostansiyalar o'zlarining mavqeini qanday saqlab qoldi, ba'zi joylarda esa, masalan, Shotlandiyada ham energiyaning asosiy manbai saqlab qolishgan, umumlan, energiyaning asosiy qismi oddiy elektrostansiyalarda ishlab chiqarilayotgan edi.

Butunlay ishlab chiqarish sohasi ushbu sohada ishchilarning bandligi bilan ham, uning yalpi ichki milliy mahsulotdagi ulushi ham qisqarishni davom yetkazmoqda.

Iqtisodiyotning bu sektori XX asrning 80-yillarda ishsizlik darajasining tez sur'at bilan davom etishining asosiy sababi bo'lgan edi. Ishlab chiqarishning yangidan o'sib borishida, mehnat unumdorligida va foydada ancha o'sish ham kuzatildi.

Mashina sozliq, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat, tamaki, kimyo sanoati, qog'oz noshirlik, sanoatning, ayniqsa, asosiy sektori hisoblanadi. Kimyo, o'rmon, mebel, rezinaga oid sanoat, plastik ishlab chiqarishi sanoatning, ayniqsa, tez rivojlanadigan sektoridir.

Kimyo sanoati ichida, ayniqsa, farmatsevtika sanoati faol rivojlana boshladi. Oziq-ovqat va yengil sanoat hamda mashinasozlik butunlay

o'rtachadan past ishlamoqda. XX asrning 80-yillarida sanoat mahsulotlarini import qilish ko'paydi, shunga qaramasdan, Buyuk Britaniya tovarlarini eksport qilishda davom etmoqda, lekin balans foydasiga kamaymoqda.

### **Qishloq xo'jaligi**

Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligida Yevropa mamlakatlari orasida ajralib turadi, ya'ni iqtisodiyotning ushbu sektorida uning 2% dan kamroq aholisi band. Hosildorlikni tijoratga oid intesivatsiyalashda va yuqori darajada mexanizatsiyalashda bir qancha o'rinlar bo'yicha mamlakat agrosanoat ishlab chiqarish hajmida talab darajasi oshib ketdi.

Bu sohada bandlik darajasi asta-sekin pasayib bormoqda. Qishloq joylarida kishilar uchun alternativ ishlarni yaratish uchun hukumat ishchi kuchini boshqa tarmoqlarga tashlashga urinib ko'rmoqda. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydoni (3/4 ga yaqin barcha maydonning qismi), ham kamaymoqda, shu bilan birga, boshoqli g'allani o'stirish uchun yaroqli yerlar yaylov (o'tloq) ostiga berilmoqda.

Qishloq xo'jaligiga nisbatan davlat siyosati agrosanoat majmuasida ishlayotgan kishilarni va bu yerda ishlab chiqarilgan tovarlarga narx-navoni saqlab turish bilan birga ishlab chiqarish unumdorlik darajasini va hayot darajasini oshirishni taxmin qiladi. Bunga erishish uchun ichki tovarlarga minimal narx-navoni va import tovarlariga poshmina tizimini yaratilgan edi. Mol va qo'y go'shtini ishlab chiqaruvchilarga ularning tovarlarini Yevropa bozorlarida raqobatdoshlik qilish uchun qo'shimcha mablog' sarf etilgan. Yaqin yillarda qabul qilingan choralar sut ishlab chiqarishni va fermerlarga foydalanmagan yerlariga kompensiyalarni cheklashni esga solish mumkin.

Boshoqli g'alla chorva uchun, qolganlari – non, yorma va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga sarflanmoqda. Chorvachilikda yirik shoxli mollarni yetishtirish katta ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligida import qilinadigan shakar va pishloqni ishlab chiqarishdan tashaqari, yuqori darajada o'ziga yetarililikni qo'llab-quvvatlashga harakat qilinmoqda.

### **Buyuk Britaniyada xizmat ko'rsatish sohasi qanday rivojlangan?**

Buyuk Britaniyaning iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining o'sishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. U aholining real daromadlarining oshishini hamda tovar va xizmatlarga sarflar o'rtasidagi o'zaro nisbatlarni aks ettiradi.

Xususan, moliya va sayohat sektorlari vakillari katta yutuqlarga erishdilar. Shunga qaramasdan, bir qancha xizmat ko'rsatish sohalarida, masalan, umumiy transport, kiriyuvish va kinoteatrlar, avtomobillar, va televizorlar ishlab chiqarishining o'lish turaydi daromadlarning salmog'i pasayib ketdi, bu, o'z navbatida, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga yordam berdi.

Xizmat ko'rsatish sohasining boshqa sektorlari – mehmonxonalar, turizm-sayohat, chakana savdo, moliyaviy va dam olish, shunidek boshqa sektorlar oldingi vaqtda bozorning ancha-muncha ulushini egallagan yoki umuman mavjud bo'lmagan bo'lsa, endilikda ko'proq ahamiyat kayt etdi. Ular kompyuter ishlab chiqarish, dasturlarni ta'minlash, reklama, bozorni tadqiqot qilishi, ko'rgazmalar, prezintatsiya va anjumanlar o'tkazishni o'z ichiga oladilar. Oxirgi yillarda, Buyuk Britaniyada chet mamlakat talablarini o'rta va oliy ta'limga jalb qilish bilan birga o'zining ta'lim sifatini ham yuqori darajaga o'tdirmoqda.

### **Davlat moliyaviy-siyosatining asosiy holati**

Buyuk Britaniya jahonda o'zining moliyaviy-liderlik holatini saqlab qolish uchun, XX asrning 80- yillarida moliyaviy institutlarni tartibga soldi va ularning tizilini o'zgartirdi. Bank sug'urta, qurilish ob'ektlariga, fond birjalariga hamda iste'mol tovarlari bozoriga ta'sir o'tkazildi. Agarda oldingi vaqtda uy qurish uchun kredit berish faqat qurilish jamiyatlarining huquqi bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu kreditlarni banklar kabi sug'urta kompaniyalari ham beradigan bo'ldilar.

Ushbu holatga bog'langan ikkita o'zgarish yuz berdi: qurilish jamiyati filiallarining haqiqiy banklarga o'zlarining mulkiy zaxiralarning naqdligi bilan transformatsiyalashuvi va ko'chmas mulk bozorida barcha uchta turdagi mamlakatlarning faoliyat sohasining kengayishi. Qurilish jamiyatlari qandaydir darajada kapital quyilmalari xizmatida sug'urta qilish va yer xizmatlarida ham qatnashadilar.

London sharhi xalqaro moliyaviy muomala markazi bo'lib qolishni davom ettirmoqda. Bu yerda kapital oqimlari hamda valyuta almashtirish va qimmatbaho qog'ozlar savdosi ko'paymoqda, shuning uchun bu yerdan chet el banklarining katta miqdori to'plangan.

Raqobatning ko'paytirilishi, texnikaning rivojlanishi savdo jarayonini jadallashtirdi. Fond birjalari qayta tashkil etildi hamda an'anaviy brokerlar va djobberlar tizimi bekor qilindi. Natijada chet el banklari, sobiq brokerlar va djobberlar oraliq zvenolar bo'lib qolgandi.

XX asr 80-yillarining oxirida yangi moliyaviy tashkilotlarning faoliyatini tartibga solib turadigan qonunlar qabul qilindi. Hatto yangi nazorat qiluvchi organlarni yaratishga to'g'ri keldi. Bular, o'z navbatida, mazkur soxa faoliyatida ushbu qonunning bajarilishini ko'zatib turar edi.

Barcha tijorat banklari Angliya bankining qarmog'i ostida bo'lgan, ular Angliyada va Uelsda banknotlarni chiqarish xuquqiga ega (Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya o'zlarining xududlarida cheklangan xuquqga ega edi). Angliyaning asosan aholi pul chiqarishi bilan ishlaydigan (xalq banki sifatida)

investitsiyaviy ipoteka va boshqa britaniya yoki chet el banklari kabi banklarga litsenziya beradi.

Ushbu sektordagi ajratilgan litsenziyasi ham kamroq farqli bo‘lib qoldi, jismoniy shaxslar bilan ishlaydigan banklar, ipoteka bankka, sug‘urta bankiga, qimmatbaho qog‘ozlar bilan ishlaydigan banklarga ajratildi. Angliya banki foizli stavkalar darajasiga va strukturasi ta‘sir ko‘rsatadigan moliyalashtirish stavkasini ham nazorat qiladi. U chet el valyuta bozorining ishiga, funtning barqarorligiga faol aralashadi. Funt sterling – jahonning eng asosiy valyutalaridan biri, London shahri esa jahonning eng asosiy savdo markazi sifatida qolmoqda.

Aholining jamg‘armalari iqtisodiyotning rivojlanishiga moliyaviy tashkilotlarning tarmoqlar orqali sarflanadi. Bunga misol bo‘lib sug‘urta kompaniyalari, nafaqa va investitsiya fondlar xizmat qiladi. Boshqa tashkilotlar moliyalashtirishning alohida sohalarida ixtisoslashadi, shunday qilib moliyaviy mamlakatlar pullarni ko‘chmas mulk garovi ostida ta‘minlaydi. Yana kompaniyalar borki, ular lizing asbob-uskunalarini moliyalashtiradilar hamda o‘rta va uzoq davrli kapital bozorlari ular banklarni yoki innovatsiyaviy texnologiyalarini o‘z ichiga oladigan fond bozorlarini ham moliyalashtiradilar.

Buyuk Britaniyada bir qancha moliyaviy bozorlar mavjud. Qimmat baholi qog‘ozlar banki ro‘yxatga olingan qimmat baholi qog‘ozlar va aksiyalar bilan ishlaydigan Xalqaro fond birjalari (davlat qimmat baholi qog‘ozlar va aksionlarni o‘z ichiga oladigan) kichik kompaniyalar uchun ro‘yxatga olinmagan qimmatbaholi qog‘ozlar bozori va uchinchi bozor – bu uncha katta bo‘lmagan kompaniyalar uchun, ularning qimmat baholi qog‘ozlari ro‘yxatga olinmagan. Valyuta bozorida harakatlar depozit sertifikatlari, qisqa davrli depozitlar bilan savdo qiladigan va boshqa bozorlar yevro-valyuta almashtirish, f‘yucherlar bilan ish olib boradi.

Ko‘rinmas savdolar ulushi (gonorarlarni va moliyaviy xizmatlarga to‘lov, qo‘yilmalar uchun foizlar, foyda va dividendlar) doimo davlatning barcha tashqi daromadlarining uchdan bir qismidan yarmigacha ko‘paymoqda.

### **Mamlakatda ro‘y beradigan iqtisodiy jarayonlarga jamiyatning ta‘sirilanishi qanday?**

Ijtimoiy fikrlar so‘rovi 1979 yildan iqtisodiyotning yuksalishi va pasayishini iqtisodiy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Iqtisodiyot yuksala borsa, kishilar hukumatdan mamnun va xursand bo‘ladilar, aks holda, ya‘ni iqtisodiyot pasayib, hayot qutilashar ekan, jamiyatda norozilik kuchaya boradi.

Iqtisodiy vaziyat britaniyaliklarni bezovta qilmoqda, ayniqsa, ishsizlik, zavod-fabrikalarning yopilishi, sanoat ishlab chiqarish xajmining pasayishi,

inqiroz, narx-navo va soliqlarning oshishi ularni tashvichga somayedan qo‘yaydi. Shunday fikrlar borki, ya’ni hukumat ishsizlik darajasining pasayishida va kapitalni sanoatga investiyalash sohasida ancha katta ishlarni amalga oshirishi mumkin. Ish o‘rinlarini saqlab qolishda tanlov asosiy mezon bo‘lmoqda: bo‘, o‘z navbatida, ishsizlik ish joyida o‘zini namoyon qilishga ish shart-sharoit va kelajakda o‘shiga qaraganda ancha katta tashvishga soladi. Ammo so‘rovlarning ko‘rsatishicha, 82% ish bilan bandlar o‘zlarining ish sharoitlarining saqlab qolishiga ishonadilar va faqat 10% bu muammolar tashvishga qolmoqdalar, ammo Buyuk Britaniyada ish beruvchi xo‘jayinlar va yollangan ishchilarning manfaatlari bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Ular mamlakat boyliklarining adolatsizlik, nohaqlik bilan taqsimlanganligiga ishonardilar va bu adolatsizlikdan qo‘pincha yollangan ishchilar esa azob-uqubat tortmoqdalar. Shu bilan birga.

Yollangan ishchilarning o‘zlari ishlayotgan tashkilotlar ustidan nazorat qilishlarida va qarorlar qabul qilish uchun ko‘proq erkinlik berishini qo‘llab-quvvatlaydigan kishilarning soni tobora o‘smoqda.

Tanqidlar Buyuk Britaniya iqtisodiyotining asosan madaniy omillar borasidagi tashvishlarga e’tibor karatadi, ya’ni an’analar bo‘yicha ma’lumotli va malakali kishilar ishlab chiqarishga va savdo sohasiga ishlashni uichalik xush ko‘rmaydilar: Buyuk Britaniyada ishchi kuchi boshqa mamlakatlarga mehnat unumdorligi bo‘yicha yutqazib qo‘ymoqda, ya’ni iqtisodiyotning sanoat sektoriga kapital yetarli darajada jalb etilmayapti, ya’ni boshqaruv personalisi o‘z kasbiga oid emas va fan-texnika rivojlanishiga juda ham kam pul vositalari sarflanmoqda.

### **59.10. Yaponiya iqtisodiyotining hozirgi zamon rivojlanish tendensiyalari**

Yaponiya – yuqori darajada rivojlangan mamlakat. Yer sharining 2,5 aholisiga va 0,3% maydoniga ega bo‘lib, u hozirgi zamonda o‘zining iqtisodiy salohiyati bo‘yicha AQShdan keyin ikkinchi o‘rinda mustahkam o‘rnashib oldi. Bugungi kunda Yaponiya AQSh va G‘arbiy Yevropa bilan birga jahonning asosan ahamiyatli iqtisodiy markazi “uchtalikka kiradi”.

Yaponiyaning yalpi milliy mahsuloti AQSh yalpi milliy mahsulotining yarimini tashkil etadi, yalpi milliy mahsulotning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi bo‘yicha esa 2010 moliyaviy yilida 42830 AQSh dollarini tashkil etdi, ya’ni taxminan AQShning shunday ko‘rsatkichiga teng bo‘ldi. Yaponiyaning ulushiga jahon sanoatida ishlab chiqarishning 1/6 to‘g‘ri keladi. Mamlakat jahonda kemasozlikni, avtomobillarni, traktorlarni, metal asbob-uskunalarni,

maishiy elektr texnikani, robotlarni ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi.

Uning iqtisodiy salohiyati 61% amerika darajasiga yetdi, ammo aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichi bo'yicha u amerikanikidan o'zib ketadi. Yaponiyaga sharqiy ashyoning 70% yalpi mahsuloti to'g'ri keladi, uning yalpi ichki mahsuloti joriy valyuta kursi asosida hisoblaganda Xitoyning YaIMdan to'rt marotaba oshib ketadi.

Mamlakat yuqori darajadagi texnikaviy mukammalashishga erishdi, ayniqsa oldingi qatordagi texnologiyaning alohida yo'nalishlarida Yaponiyaning hozirgi zamondagi jahon ho'jaligidagi o'rni XX asrning ikkinchi yarmida uning iqtisodiy rivojlanishining natijasidir. 1938 yilda uning ulushiga jahon ishlab chiqarishning faqat 3% to'g'ri kelgan edi. Xususan mamlakatning rivojlanishida yangi iqtisodiy modelga o'tishi bo'ldi, avvalambor, asosiy vazifa eksport qilish emas, balki ichki iste'molni qondirish edi.

Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishda kichik xo'jaliklar ustunlik qiladi. Yer maydonining 14,8% ga ishlov beriladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotining asosi guruch hisoblanadi. Boshqa tarmoqlar – parrandachilik, sabzavot va meva ishlab chiqariladi. Baliq ovlash ishi ham rivojlangan.

Eksport qilinadigan asosiy tovarlar: bular jumlasiga mashina va asbob-uskunalar, elektronika, metallar va metaldan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, kimyoviy mahsulotlar. Import qilinadigan tovarlarga: sanoat xomashyolari va yarim fabrikantlar, yoqilg'i va oziq ovqatlar kiradi. AQShning Yaponiya tovar aylanmasidagi ulushi 35-40% ga teng keladi.

Ishsizlar soni hozirgi vaqtda bir milliondan kamroq kishini tashkil etadi.

Yaponiyaning hozirgi zamondagi ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvining farqlanadigan xususiyati ancha-muncha ko'proq boshqa mamlakatlarga qaraganda aniq xududiy nisbatlarni ifoda etadi.

Shu bilan birga, AQShda 1981 yil sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barcha yuksatilgan 51,3% uning hududida yaratilgan mahsulotning 18,9% to'g'ri keladi, o'sha vaqt Yaponiyada sanoatda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha yuklatilgan 53% uning hududida yaratilgan mahsulotning 9% to'g'ri keladi. Yaponiya hududida to'plangan ishlab chiqarish kuchi hatto G'arbiy Yevropaning asosiy mamlakatlari ega bo'lgan teng o'lchamlari bilan taqqoslaganda kishini hayratda qoldiradi.

**Mamlakat xo'jalik rivojlanishidagi to'rtta tamoyil nimalarda xulosa qilinadi?**

Urushdan keyingi og'ir davrlarda tiklanishni boshidan kechirgan Yaponiya boshqa davlatlarga qaraganda, XX asrning 50-60 yillarida o'zining o'sish sur'atini boshqa namoyish qildi. Yaponiyaning o'sish sur'ati 1960-1973

yillarda har yili 10,1%ni tashkil etgan AQShda 3,9%, FRGda 4,5%, Buyukbritaniyada 3,1%, Fransiyada – 5,6%, Italiyada 5,0% tashkil etdi. O‘shir sur‘atidagi bunday rivojlanishning XX asrning 60-yillarining ohiri va 70-yillarning boshlarida Yaponiyaning “iqtisodiy mo‘jiza sini namoyon etdi qildi.

Boshlanish bosqichlarda Yaponiya, Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlar rivojlanishining iqtisodiy asoslari amalda bir xil edi. Mamlakatning qisman transformatsiyalashuvi Yaponiya izidan boruvchi boshqa mamlakatlarda qabul qilingan edi. Ammo bu yo‘llarni mutlaqo deb bo‘lmaydi, sababi bir xil mamlakatlar har xil iqtisodiy salohiyat va rivojlanish darajasiga ega.

“Yaponiya mo‘jasi” haqidagi gaplar deyarli to‘xtagan bo‘lsa ham, Yaponiya iqtisodiyoti fenomeni katta qiziqish o‘yg‘otmoqda. Haqiqatan ham, nima uchun mamlakat katta tashkiliy iqtisodiy bog‘lanish bilan, amalda tabiiy resurslardan barbod bo‘lib, barcha tartibsizlik va kataklizatsiyalarga qaramasdan, oxirgi ikki o‘n yillikda o‘zining iqtisodiy o‘rinlarini jahon maydonida (shu bilan birga siyosiy o‘rinni ham) mustaxkamlashda davom etmoqda?!

Yaponiya xo‘jaligining rivojlanishi to‘rtta tamoyillarga asoslangan:

- Qattiyatlikda davlatni tartibga solish, ya‘ni barcha resurslarni ustuvor vazifalarni hal qilish uchun safarbar etish;
- Iqtisodiyotning quvvatli jamg‘arma va investitsiya fondlarini yaratish uchun aniq eksportga mo‘ljallanganlik ifodasi;
- Chet el kapitalini keng jalb etilishi (birinchi navbatda fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi uchun);
- Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatini doimo yaxshilash uchun va tashqi bozorda raqobat kurashiga ega bo‘lgan yirik milliy monopoliyalarni yaratish.

Sanab o‘tilgan tamoyil faqat sharqiy mamlakatlarning “kashfiyoti” bo‘lmasdan, ular bozor iqtisodiyotidagi barcha mamlakatlarda sinab ko‘rilgan. Sharqiyosiyoviy ushbu modelda sharqiyosiyoviy instrument bo‘lib falsafiy, diniy va ahloqiy qadriyatlar asosida murakkab tabiiy va tarixiy sharoitlarda shakllangan aholining keng psixologik an‘analiradan foydalanish o‘rinlidir.

### **Yaponiya iqtisodiyoti rivojlanishining o‘ziga xos omillari.**

Yaponiya uchun uzoq vaqtli ish kuni. Erkaklar haftasiga o‘rtacha 57,7 soat ishda bo‘ladilar. Bu g‘arbiy yevropaliklardan 10 soat ko‘p demakdir.

Kompaniyalarda ish haqi to‘lashda keskin farqda bo‘lmaydi. Soliqlar chegirib olingandan so‘ng, boshqaruvchining o‘rtacha oyiligi 10 marta eng kam ish haqi oluvchi ishchining ish haqidani oshib ketadi.



Mehnat munosabatlarda o‘ziga xos holatni ishchi ayollar egallaydi. Ko‘p kompaniyalarning rahbariyati xodimini zo‘r qiziqish bilan “chiqim materiali” sifatida ko‘rib chiqadi. Noqulay iqtisodiy sharoitda aynan bu kategoriyadagi ishchilar birinchi bo‘lib qisqartirishga tushadilar. Davlat statistikasida ayollar uy bekasi sifatida o‘tadi, shuning uchun ular ishni yo‘qotish vaqtida, ularni ishsizlar kategoriyasiga kiritmaydi. Ushbu oddiy qabul qilingan qoida rasmiy ishsizlik ko‘rsatkichini past darajada saqlashga ijozat beradi. Yapon ayollariga o‘rtacha ish haqini to‘lash erkaklarga qaraganda ikki marta past darajada bo‘ladi. Ammo yapon ayollari oila va martabalarni birga olib borishni uddalamoqdalar, shu tufayli ham Yaponiyada nikoh bo‘zilish hollari juda kam uchraydi.

Ijtimoiy-madaniy an‘analarda ta‘lim tizimi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirishga asoslangan, shuning uchun Yaponiyada umuman Yevropaga qaraganda olimlar ko‘p.

Ushbu tamoyil va qadriyatlarning barchasining qo‘llanilishi tufayli XX asrning 50 yillaridan boshlab vayron va zaiflashgan Yaponiyada iqtisodiy o‘shish boshlanib, o‘zining rivojlanish darajasi bo‘yicha barcha mamlakatlardan o‘zib ketdi, ya‘ni:

- Vayrona va eskirgan zavod asbob-uskunalarini keng yangilash amalga oshirilib, FTT erishilgan yangi yutuqlardan asbob-uskunalarining fan-texnika tadqiqotlari kengaytirildi;

- Eng asosiy hal qiluvchi omil – ishchi sinfini ekspluatatsiya qilish edi;

- Davlat texnologik kapitalizmi barcha choralar bilan Yaponiya sanoatini qayta qurishga yordam berdi: korxonalarini yangidan qurishga ketgan sarf-xarajatlarning ancha qismini o‘ziga qabul qildi, monopolitsiyalarga soliq imtiyozlariga va kreditga keng imkon berdi;

- Mudofaa sohasiga sarf-xarajatlarning ulushi kam bo‘lib davlat sanoat rivojlanishiga ko‘prok matlag‘ ajratish imkoniyatiga ega bo‘lgan edi, ammo reaksiya kuchlarning tazyiqi ostida harbiy-sanoat sohasini yana rivojlantirishga to‘g‘ri keldi, bu, o‘z navbatida, xo‘jaliklar mablag‘lariga qo‘ldan chiqib ketishiga olib keldi;

- Hozirgi vaqtda Yaponiyaning sanoati import xomashyolarini qayta ishlashga va yuqori texnologiyalarni ishlab chiqishga ixtisoslashmoqda.

### **Yaponiyaning urushdan keyingi sanoat siyosati**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Yaponiya rivojlangan mamlakatlar orasida yuqori sur‘atda ishlab chiqarishi va mehnat unumdorligi bilan ajralib turdi. Aholi jon boshiga 19,5 marta ko‘paydi. Yillik o‘rtacha o‘shish sur‘ati 7,7% tenglashdi va AQShga qaraganda 4 marta, Buyuk Britaniyaga qaraganda, 7,7 baravar yuqori bo‘ldi. Yaponiyaning iqtisodiyoti

faqat ikki marta – 1975 va 1993 yillarda yalpi mahsulotning qisqarishini boshidan kechirdi, odatda, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning pasayish vaqtida faqat o‘shish sur‘atining pasayishi ro‘y beradi. Iqtisodiy o‘shishning asosiy barqaror sur‘ati bo‘lib, o‘z vaqtida iqtisodiyotning strukturali qayta qurilishi hisoblandi.

Urushdan keyingi Yaponiyaning sanoatdagi siyosatining ustuvor izchil va aniq bir maqsadga qaratilgan mehnat talab qiladigan tarmoqlarining (engil sanoat) afzalligidan, keyinchalik moddiylikdan (metallurgiya, neft-kimyoviy, avtomobil, kemasozlik sanoati) chuqur ilm-fanga asoslangan tarmoqlarga va ishlab chiqarishga (elektronika, biotexnologiya, yangi materiallar) o‘tishi ko‘zatilgan edi. Ushbu jarayonlarda muqarrar ravishda, ustuvorliklarni almashtirish, yangilash esa mutlaqo og‘riqsiz o‘tmadi. Bu yerda gap yuqori tinchlik reytingiga ega bo‘lgan tarmoqlar haqida ketmoqda (qora metallurgiya, avtomobil sanoati), ya‘ni amalda urushdan keyingi yillarda yaratilgan yetarli darajada mehnat vositalariga va taqqoslangan yangi ishlab chiqarish apparatlariga ega bo‘lgan. Yangilangan iqtisodiyot strukturasida ushbu tarmoqlarning sifatli yangi o‘rnini va yangi rolini aniqlash edi.

Ko‘proq qora metallurgiya uchun yilma-yil 450 ming kishiga yaqin bandlik bilan 150 mln.t, ko‘proq po‘lat eritishga qobiliyatli zavod qurish kerak edi, albatta bu vazifa ancha murakkab bo‘lib turgan edi. Shu bilan birga xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishi keskin sur‘atda o‘sa boshladi. 1970-1985 yillarda YaIM moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ulushi 51,7 dan 41,4% gacha qisqardi. Qolganlari axborotlashuv, boshqaruv, moliya xizmati, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, savdo va sotuvdan keyingi xizmat ko‘rsatish, ishdan holi vaqt sohasi, ijtimoiy sug‘urta va boshqalar tashkil qilingan edi.

Asosiy bir maqsadga qaratilgan islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda o‘tkazilgan edi. Urushdan keyingi yillardagi katta qurilishlar mehnatkashlar tashkilotlarini qonunlashtirdi, mehnat va kapital o‘rtasidagi feodalga oid sarqit-qoldiqlar munosabatlarini tamom qildi. Agrar islohotlar amalda feodalga oid yerga egalik qilish esa tugatildi.

### **1970 yillardagi Yaponiya iqtisodiyoti. Yangicha iqtisodiy o‘shish tipiga o‘tish g‘oyalari**

XX asrning 70 yillarida Yaponiya iqtisod rivojlanishida yangi bosqich bo‘ldi. Jahon bozorlarida xomashyo va energiya resurslari narx-navosining keskin o‘shishi resurslar ko‘p jalb etiladigan tarmoqlar uchun yangi vaziyatlarni keltirib chiqardi, XX asrning 60- yillarining o‘rtalarida real ish haqining o‘shishi mehnatli tarmoqlarining raqobatdoshligini barbod qilaboshladi. Bu davrgacha sanoati rivojlangan davlatlar orasida Yaponiya amalda arzon ish kuchiga ega yagona mamlakat edi. Yuqori sur‘atli rivojlanishga yordam beruvchi oldingi omillarning harakati Yaponiya sanoatining orqada qolib

ketishini ko'rsatib berdi va milliy xo'jalik energiya va materiallarni saqlovchi texnologiyalarga, taraqqiyotda boshqalarga nisbatan ilgarilab ketuvchi ilmfanga asoslangan tarmoqlarga o'tishga majbur edi. XX asrning 70-yillarining boshlanishida Yaponiya iqtisodiyotining muvaffaqiyatlariga qaramasdan, hukumat muqarrar ravishda iqtisodiy o'sishning yangi tiplariga o'tishni lozim topdi. 1971 yili may oyida nashr etilgan "1970 yillarda tashqi savdo va strukturali siyosatning asosiy yo'nalishlari qanday bo'lishi kerak" nomli maxsus ma'ro'zada birinchi marta yangi intellektual yutuqlarga ega bo'lgan ishlab chiqarish strukturasi yaratishga qaratilgan yo'nalishlar qo'rsatib berildi. Yalpi tipdagi rivojlanishga o'tish ravon bo'lishi tahlil etilib, agarda 1973-1974 yillarda "neftga oid shok" bo'lmaganda, shunday tasodifiy ravishda bo'lishi ham mumkinligi e'tirof qilindi. Birinchi navbatda, Yaponiya iqtisodiyotining asoslaridan biri bo'lgan – tuzatilgan resurslar bilan ta'minlangan tizim tebranib ketdi. Ayniqsa energiya va moddiylashgan tarmoqlar uchun yangi modelning shakllanishi juda ham og'ir bo'lib qolgan edi.

Qora metallurgiyada kutilmagan darajada noqulay holatlar yuzaga keldi. Shu vaqtgacha ushbu tarmoq jahonda yo'lboshchilik o'rnini mahkam egallaganligi uning texnologik darajasi bo'yicha va ishlab chiqarish sur'atining oshishi tan olingan edi. Tashqi savdo va sanoat vazirligining tahliliy xulosasiga ko'ra, qora metallurgiyaning kelajakda rivojlanishi optimal baholandi. Masalan, o'sha vaqtda, ya'ni 1975 y 160 mln.t, 1980 y – 215 mln, 1985 yilda esa- hatto 300 mln.t po'lat ishlab chiqariladi, deb taxmin qilingan edi. Ammo asosiy metallurgiya tarmoqlarida – kemasozlik, avtomobil sanoati, qurilishdagi inqirozlar mamlakatda metalni iste'mol qilishni keskin tushib ketishiga olib keldi, po'lat prokati va uni ishlab chiqarishga bo'lgan talab barqarorligini tushirib yubordi. Shunga qaramasdan bir necha kompaniyalar deyarli XX asrning 70-yillarining oxirigacha oldindagi davrlarda qabul qilingan yirik investitsiya dasturlarini realizatsiya qilaturib, ishlab chiqarish quvvatini o'stirishni davom ettirdi, bu, o'z navbatida, vaziyatlarni murakkablashtira boshladi. Natijada strukturali inqirozni kuchaytirdi, Yaponiya qora metallurgiyasining quvvati mislsiz darajada pasayib ketdi, ya'ni 62% ni tashkil etdi.

Yangi tipdagi takror ishlab chiqarishga o'tish mustaqil ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishi bilan kuzatilgan edi. Davlat va kompaniyalarning nafaqat amaliy kuchlari, balki atom energiyasidan foydalanish, koinotni o'zlashtirish, axborot tizimini ishlab chiqish kabi fundamental tadqiqotlar ham ko'paydi. Yaponiyaning ilmiy tadqiqot va tajriba-loyiha ishlari harajatlari 1975 yilda 2,1% dan 1985 yilda 3,1% gacha va 1994 yilda 2,8% gacha

ko'paydi. Ayniqsa, elektron sanoatda, asbobsozlikda ahamiyatli bo'lib, shunga muvofiq ushbu tarmoqlarning sotilish hajmidan 6 va 5% ga erishildi. Yaponiya ilmiy-tadqiqot tajriba-loyiha ishlari bo'yicha AQShdan uzilishi qisqardi. Agarda 1986 yilda Yaponiyaning sarf-xarajatlari faqat 1/3 yetgan bo'lsa, undan 1994 yilda endi u amerikaning darajasiga 4/5ga erishildi.

Natijada Yaponiyaning ishlab chiqarishida sodir bo'lgan siljishlar jahonda robotlarni, (50%dan ko'proq ishlab chiqardi), yarimo'tkazgich (40% ko'proq), yengil avtomobillar, kemalar, stanoklar, po'lat, mo'zlatgichlar, kir yuvish mashinalari bo'yicha yirik ishlab chiqaruvchiga aylandi. An'anaviy tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinlarni saqlab qolib, ilm-fan yutuqlari bo'yichaa rivojlanishda AQShga yetib oldi.

### **Yaponiya xalqaro iqtisodiy munosabatlarda**

Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanishda katta rol o'ynadi. Tovarlar va kapital eksporti o'rtasidagi o'zaro nisbatlarning o'zgarishi, ya'ni kapital eksporti hisobiga o'sish tezlashdi. Bu yerda Osiyoning yangi industrial mamlakatlari bilan munosabatlar asosiy misol hisoblanadi. Yaponiya ushbu mamlakatlarga biridan keyin biriga o'zining sanoat strukturasi "pastki qavatni" berdi, shu bilan birga o'zining hududida juda ham katta va katta murakkab ishlab chiqarishni rivojlantirdi. Yildan-yilga bu mamlakatlardan Yaponiyaga hilma-hil tovarlar (to'qimachilik, metallmahsulotlar, kimyoviy-o'g'itlar, bir necha turdagi elektronika va mashinasozlik asboblari) kelishi o'sa boshladi, o'z navbatida, bunday tovarlarning ishlab chiqarilishi Yaponiyada qisqardi. Bunday tovarlarni ishlab chiqarish uchun xomashyolarni olib kelish ham qisqardi. Shu bilan bir vaqtda, Yaponiyaning integratsiyalashuv shartnomalari har xil mamlakatlar bilan, birinchi navbatda, AQSh bilan kuchaya boshladi.

Tezkor iqtisodiy rivojlanishning natijasida Yaponiya xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yetakchi o'rinlardan birini egalladi. XX asrning 90-yillarida chet el kapital qo'yilmalarining umumiy hajmi bo'yicha jahonda ikkinchi o'ringa chiqdi (15% umum jahon hajmi). Oldingi o'n yilliklarda tashqi savdo yetakchilik qilgan edi. Eksport o'lchami bo'yicha Yaponiya faqat AQSh va FRGdan ortda edi, xolos, uning ulushiga jahon eksportining 9-10% to'g'ri keladi (1994-1995yy). Chet elda YaIM 10-13% realizatsiya qilinadi. Bir qator sanoat tarmoqlari deyarli eksporti batafsil ishlaydi (soat, magnitafon – 90 %, kassa apparatlari – 83%, nusxa ko'chiradigan mashinalar – 77% ishlab chiqarish kabilar).

### **Tashqi savdoning rivojlanishi va strukturasi**

Ohirgi 50 yilda Yaponiyaning eksport hajmi 70 martadan oshdi, uning sur'ati deyarli ikki marta jahon eksportining o'sishidan o'zib ketdi.

Yaponiya uzoq vaqtlarda o'zining tovarlari bo'yicha jahon bozorlarida yetakchi o'rinni egalladi, narx-navoning ko'payishi natijasida 1993 yilda Singapur va AQShdan keyingi uchinchi o'ringa tushdi. Ish kuchi qiymatining ancha o'sishi yuz berdi. Alohida mahsulotlar turi bo'yicha Yaponiyaning ulushiga jahon eksportining juda katta qismi to'g'ri keladi: yarim o'tkazgich – 5%, yengilavtomobillar – 22%, idoraga oid va telekommunikatsiya asbob-uskunalar – 22,6%. Yaponiyaning mashina qurish va ilm-fan yutuqlariga ega bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqarish va jahon eksportlarining asosiylaridan biriga aylanishi uning sanoatda va fan-texnikaning rivojlanishining yakuni bo'lib qoldi.

### **Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiyotida import strukturasi**

Import strukturasi sanoatda xalqaro ixtisoslashuv, xo'jalikning baynalminallashuvini va mineral asoslari jarayonini aks ettiradi. Yaponiya sanoatda rivojlangan mamlakatlar orasida eng past darajadagi xomashyo va yoqilg'i bilan o'zini ta'minlanishida farqlanadi, mamlakat deyarli batafsil ancha ko'p turdagi mineral va qishloq xo'jaligi xomashyolarini olib kelish bilan bog'liq. Mineral xomashyolarning ko'p turlari bo'yicha u jahon bozorida yirik xaridor hisoblanadi. Temir rudasi bo'yicha jahon importining 30% dan ko'prog'i, 19% dan rangli metall rudasi, tosh ko'mir, paxta va ipak to'g'ri keladi.

Yaponiya iqtisodiy rivojlanishining birinchi bosqichlarida rivojlanib kelayotgan mamlakatlardan uning eksportining yarimiga yaqini va 40% dan ko'prog'i importi katta bog'liqlikni sinab ko'rdi. Janubiy-Sharqiy Osiyo va Fors qo'ltig'i mamlakatlari haligacha energetika xomashyolarini sotuvchi va yetkazib beruvchi asosiy bozor hisoblanadi. Ohirgi o'n yilliklarda ruda va kimyoviy xomashyolarni sanoati rivojlangan mamlakatlardan yetkazib berish borasida Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya yetakchilik qilmoqda.

Tashqi savdo aloqasi geografik strukturasi asosiy xususiyati uning AQShda to'planganligi hisoblanadi. Hozirgi vaqtgacha amerika bozorida Yaponiyaning 29% eksporti realizatsiya qilinadi va 22% importi ta'minlanadi. O'z navbatida, Yaponiyaga amerikaning 11% eksporti to'g'ri keladi, jumladan deyarli 20% qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotiladi.

Yaponiya Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoning qator mamlakatlarining asosiy savdo sherikchilari bo'lib chiqmoqda. U Indoneziyaning 37% eksportini va 24% importini, Malayziya uchun uning – 26% importini va 16% eksportini, Singapur uchun uning 21% importini va 17% eksportini, Janubiy Koreya uchun uning 26% importini ta'minlaydi. Yaponiya XXR asosiy eksport va import bozori (15-16%) ham hisoblanadi.

1981-1985 yillarda eksport va import (saldor o'rtasidagi farqi 6 marta o'sdi va 130 mlrd dollardan oshib ketdi. Ijobiy saldo o'rta Sharq va 90-yillarda Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan tashqari barcha xududlarida ro'y bermoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan savdo ulushi Yaponiyaga majburlash, uning eksportiga "o'z xohishi bilan cheklanishni" o'rnatish yo'li bilan ko'zatilmoqda. Ayniqsa, bunda AQSh oldinda ketmoqda.

Bugungi kunda amerika ekanomikasi ulushiga 40% yaqin Yaponiyaning chet el kapital qo'yilmalari to'g'ri keladi. Bu har xil shaklda firmalar o'rtasida ishlab chiqarish kooperatsiyalarning rivojlanishiga yordam beradi. Buning ma'qulanishiga misol bo'lib AQShning qora metallurgiyasi, uning rivojlanishini hozirgi vaqtda Yaponiyaning investitsiyasiz va Yaponiyaning texnologiyasiz ko'z oldiga keltirib bo'lmaydi.

### **Texnologiyalar bilan almashish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida**

XX asrning 80 yillaridan boshlab Yaponiya fan va texnika sohasida hamkorlikni kengaytirishga kuch qo'llamoqda. Fan-texnika aloqasi xalqaro tadqiqot loyihalarini amalga oshirishga asoslangan. 1986 yilda Yaponiya "Insoniyat chegarasi" ostida nomli yirik miqyosli dasturni oldinga surdi, u yaponlarning o'zi bilan amerikasi "SOI" va Yevropaning "Evrika"si bilan taqqoslanadi. Buning maqsadi – mamlakat obro'sini ko'tarish, boshqa G'arb mamlakatlardan fundamental tadqiqot sohasida qolib ketishni yo'qotmoq hamda ko'pincha kelajakda FTT yo'nalishlari bo'yicha, xususan yirik organizm mexanizmlari ilmiy tadqiqot qilishda oldingi o'rinlarni egallash ko'zda tutiladi. Shu bilan birga, bu yo'nalishlar hozirgi vaqtda qiyin muammolarni yechishga asos bo'lib turadigan prinsipial yangi texnologiyalarni yaratish (energiya, tabiiy resurslar va boshqalar)dan iboratdir. Ushbu dastur 20 yilga mo'ljallangan, buning oqimida 6-7 mlrd.dollarni sarf-harajat qilish ta'minlangan, buning yarmi Yaponiya hisobiga to'g'ri keladi.

XX asrning 70 yillarida Yaponiya texnologiyasini eksport qilish kuchaytirildi. Yaponiya texnologiyasini olib chiqish qiymati bo'yicha yetakchi g'arbiy Yevropa mamlakatlaridan oldinga chiqdi. Shu bilan birga, shuni esdan chiqarmaslik kerak, ya'ni texnologiya bo'yicha ko'pincha oldingi vaqtda merosga qolgan qarzlar, mamlakat to'liq chet el texnologiyalariga bog'liq edi. 1993 yilda (olib ketish – olib kelish) butunlay texnologiya hajmi bo'yicha jahon harakatida o'ziga xos o'rinni egalladi. U barcha texnologiyalarni industrial mamlakatlardan import qiladi, eksport qilishi esa deyarli teng hajmda sanoatda rivojlangan va rivojlanib kelayotgan mamlakatlar bilan. Texnologiya eksporti umumiy hajmining 40% Osiyo mamlakatlariga chiqariladi. Yaponiya kompaniyalari fan-texnika hamkorligini va sanoat

kooperatsiyasi rivojlanishini Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo bilan kengaytirmoqda, o'rtacha murakkablikda mahsulot ishlab chiqarishni qo'shni mamlakatlarga o'tkazishga urinmoqda, o'zlari esa murakkab texnologiyalar bilan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga to'planmoqda.

Texnologiyalarni almashish bo'yicha AQSh bilan munosabati hamkorlikda va mojarolarda xarakterlanmoqda. Yaponiya AQSh texnologiyalarini import qilish bilan bog'liqligi yuqori bo'lib kelmoqda. XX asrning 90- yillarida eksport va import orasidagi munosabat taxminan 2:1 AQSh hisobiga edi, ammo elektronika sohasida u 5:1, stanoklar qurishda 7:1 ni tashkil etdi. AQShda savdo-iqtisodiy munosabatlarning keskinlashishi tufayli amerika texnologiyalarini himoya qilishi kuchaymoqda.

### **59.11 Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishg xususiyatlari**

Xitoyda XXI asrning boshlarida ro'y bergan iqtisodiy sinishlar.

XX asrning ikkinchi yarmida jahonning boshqa ko'p mamlakatlari kabi Xitoy dan yo'l bilan katta iqtisodiy o'zgarishlar yasay oldi? Mamlakatning aholi soni 2,2 marta ko'paydi (1952 yilda 575 mln kishidan 1 354 mlrd kishigacha 2010 yilda). Ayniqsa, shahar aholisining ko'paydi. Ammo o'tgan asrning oxirlarida ham aholining ko'pchilik qismi avvalgidek qishloklarda yashamoqda. 1952 yilda 36% dan 2010 yilda 56% gacha aholini ish bilan ta'minlangan ulushi o'sib bormoqda (711,5 mln kishi), deyarli 80% 15 yoshdan 64 gacha yashovchilarning sonini tashkil etadi. Xitoy jamiyatida bandlik strukturasi jiddiy o'zgarishlarga bardosh berdi. Shaharlarda ish bilan ta'minlanganlar soni deyarli 8,5 marta va qishloklarda 2,7 marta ko'paydi. Shahar mehnatkashlarining ko'pchilik qismi davlat strukturasi kengayishi natijasida shakllana boshladi .

Xitoy katta ko'lamdagi industriyalashtirish davrini boshdan kechirdi. Jahonda mutlaqo va nisbatan eng yuqori o'lchamlardan biri bo'lgan jamg'arma tufayli qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan ishlab chikarishga va xizmat ko'rsatish sohasiga ko'p o'n millonli ishchilarni jalb etishi tufayli mamlakatda sanoat tizimi majmuasini yaratdi, infrotuzilmani ancha kengaytirdi va mukammallashtirdi, mamlakatda ilgari yo'q bo'lgan sanoatlashgan har xil mehnat sohasini shakllantirdi. Qishlok xo'jaligiga oid bo'lmagan faoliyat turlari ham moslashtirildi.

Xitoy agrar industriyalashgan davlatga aylanishi, juda katta resurslar tufayli iqtisodiy va harbiy salohiyatga ega bo'lishi jahon ishlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ldi.

XXI asrning boshlanishida XXR jahon maydonida bir qator asosiy tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha liderlik o'rinni egalladi. Mamlakat ko'mir

qazib olish, sement, kimyoviy o'g'it, televizor ishlab chikarish, g'alla, paxta, yog'li ekinlarni yeg'ib olish bo'yicha jahonda birinchi o'rinni egalladi. Mevalarni, elektroenergiyani, kimyoviy tolalarni, ip gazlamani, go'sht choybarglarini ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda bormoqda. Yildan yilga jahon savdo aloqasidagi ulushi ham kengaymokda. U jahonda chet yel investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri jalb egadigan ikkinchi o'rinni egallagan davlat bo'lib qoldi. XXR oltin valyuta zaxiralari bo'yicha ham jahonda yetikchilik qiladi.

Yer yuzida aholisi eng ko'p bo'lgan va bir vaqtlar qoloq xisoblangan XHR bugungi kunda tovar hajmi bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldi va rivojlanishning yangi istiqbollari amalda isbotladi.

### **XX asr davomida Xitoyda sanoati o'sish tezligining uchta bosqichi.**

Mamlakat tarixida sanoat o'sishi tezligining uchta bosqichi mavjud bo'lgan. Birinchisi 1950-yillarning va 1960-yillarning birinchi yarimini o'z ichiga oladi. Mamlakatda yangi tarmoqlar aviasozlik, avtomobilsozlik, stanoksozlik, rangli metallurgiya paydo bo'ldi, ko'mir va neft ishlab chiqarish ko'paydi, energetika, transport va qishloq xo'jaligi, mashina sozlik qurishlari yaratildi. Shu yillarda ekspluatatsiya qilishga 4600 dan ko'proq yirik va o'rtacha korxonalar chiqarildi.

Ikkinchi bosqich (1965-1970 y.y.) "Uchinchi liniya mudofaasi" sifatida 2000 ta yirik va o'rtacha korxonalar qurildi, 45 ta ilmiy tadqiqot ishlariga ixtisoslashtirilgan bazalar shakllantirildi, 300 ta shaharlar paydo bo'ldi. Bularda mudofaa sanoati va asosan mashina qurish, tarmoqlar shakllangan edi. Ularning rivojlanishiga 200 milliarddan ko'proq yuan sarflandi, ya'ni bu, o'z navbatida, amalda 1969 yil 1970 yillarda YaIM ning barcha hajmiga tenglashgan edi. "Uchinchi liniya mudofaasi" o'zining kuchiga tayangan, o'zini-o'zi ta'minlash borasida eski iqtisodiy markazlardan uzoqlashgan va qoloq rivojlangan infratuzilma bilan tog'li va olis tumanlarda yaratilgan edi. Boshlanishida bu yangi sanoatning va tadqiqot bozorlarining shakllanishida anchagina qiyinchiliklar yuzaga keldi, keyinchalik esa bular redyurma qilinishni boshladi.

Uchinchi bosqich "1980 yillar – 1990 yillarning birinchi yarimida" hozirgi zamon yirik korxonalari energetika, elektronika, avtomobil qurilishi, aviasozlik, kimyoviy, oziq-ovqat, yem-xashak va boshqa sanoat tarmoqlarining ishga tushirilganligi bilan farqlangan edi. 1980 yillarda hozirgi zamon chet el texnika va texnologiyalarni import qilishga qaratilgan edi. Televizor, magnitafon, xolodilnik, konditsioner va boshqa iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1990 yillarning 2-yarmida mamlakat industrial rivojlanish yangi bosqichga kirdi. XXRning – globallashuvi va jahon bozori



bilan o'sib kelayotgan iqtisodiy aloqalar jarayonlari rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni texnika-texnologik katta qurishlar ishlab chiqarishini samaradorligini jiddiy oshirishiga, yangi va yuksak texnologiyalarni o'zlashtirishiga yo'naltirilgan siyosatini ishlab chiqilishining zarurligini shart qilib qo'ydi. Mamlakatda intensiv ravishda eksportga yo'naltirilgan modeli rivojlanishga o'tish jarayoni kengaytirildi. Bu yo'ldagi birinchi qadamlar jiddiy cheklovchi o'zgarishlarni ko'rsatdi: samarasiz ishlab chiqarishni berkitish va unumdorlikni ko'tarish bo'yicha choralar keskin ishsizlikning o'sishini va jamiyatda ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqardi.

Iqtisodiy salohiyatning o'sishi bilan bir vaqtda mamlakatda ichki bozorning shakllanishi yuz bermoqda. Barcha turdagi transportlarda yuklarni tashish va yuk hajmi oshishi xaqidagi ma'lumotlar avtomobil va suv transportining iqtisodiy o'sishiga guvohlik beradi, shu bilan birga, yaqin masofalarga ham yuk yetkazib berishni qo'rsatadi.

### **Hozirgi zamon Xitoyning to'rtta iqtisodiy zonasi.**

Mamlakatda resursli baza, iqtisodiy o'sish va rivojlanish darajasi bilan bir qatorda farqlanadigan to'rtta iqtisodiy zona ham yaratilgan.

Birinchi zonani bir necha provinsiyalar (viloyat), asosan dengiz bo'yidagi hamda Shanxay tashkil etadi. U yetakchi va ko'pincha iqtisodiyot rivojlangan zona hisoblanadi. Birinchi zonaning Xitoy sharoiti bo'yicha eng yuksak rivojlangan qishloq xo'jaligi va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy sub'ektlarining eksportga mo'ljallanganligi bilan farqlanadi. Aynan ushbu zonaga chet el kapitalining asosiy oqimi yo'naltirilgan.

Ikkinchi zonani tabiiy sharoitlari ancha keng bo'lgan va ko'paygan hamda, qishloq xo'jaligi rivojlanishi bilan farqlanadigan hududlar tashkil etadi. Yaxshi geografik holati, transport tizimi, sanoatning an'anali tarmoqlari, markazga yaqin jadal iqtisodiy o'sishi ularning dinamik rivojlanishiga yordam beradi. Bulardagi eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish asta-sekin mustahkamlanmoqda.

Uchinchi zona o'zining, xalq xo'jaligi, uning provinsiyalari va avtonom tumanlaridagi qazib olinadigan mudofaa va an'anaviy sanoat tarmoqlarining ifodalanishi bilan e'tiborga molikdir. Ular ekstensiv rivojlanish, salohiyatlariga ko'ra importga yarasha mahsulotlar ishlab chiqarishga qodirdirlar.

To'rtinchi zonaga aholining past zichligi va oddiy infratuzilmasi qoloq bo'lgan chekka tumanlar kiradi. Bu yerlarda aholining ko'proq qismi istiqomat qiladi. Tabiiy sharoitning murakkabligi, bir qator joylarda ichimlik suvining juda ham tanqisligi, natural xo'jalikning hukmronligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jiddiy chegaralamoqda.

Mamlakat barcha iqtisodiy hayotining markazi va iqtisodiy o‘rta sishning “motori” bo‘lib birinchi zona hisoblanadi. Ular mamlakatning yaqin yillardagi iqtisodiy holatini aniqlab berishadi. Aynan bu yerga asosiy kapitalga milliy kapital qo‘yilmalarning oqimi yo‘naltirilmoqdaki, ular asosan chet el kapital qo‘yilmalarini o‘ziga tortadi.

Mamlakat murakkab muammolar oldida turgan edi, ya‘ni umum milliy bozorni shakllantirish va integratsiv jarayonlarni jadallashtirish uchun ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirishni ta‘minlash lozim edi. Murakkab vaziyatlarning qiyinlashishi, ya‘ni alohida hududlar resurslar salohiyati bo‘yicha jiddiy farqlanar edi. Ushbu muammolarni hal qilishning ahamiyatini XXR juda ham yaxshi tushundi va optimal hal qilish yo‘llarini topdi.

### **Iqtisodiy o‘rta sish omillari**

Xitoyning iqtisodiy tarixida ancha ko‘proq muvaffaqiyatli davri XX asrning 80-90 yillarida bo‘lgan. O‘sha yillardagi rasmiy ma‘lumotlar ko‘rib chiqilsa mamlakatning YaIMi, 7,4 marta o‘sgan, jumladan, sanoatda 11 martadan ko‘proq, xizmat ko‘rsatish sohasida yaratilgan YaIM 8,6 marta ko‘paygan.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini asosiy omillaridan biri bandlik miqdorining o‘rta sishi bo‘ldi. Agarda mamlakatda yangi va ancha ko‘proq samarali tarmoqlar va ishlab chiqarish uchun harakter bilan industrializatsiyalash paydo bo‘lmaganda, hozirgi zamon xizmat ko‘rsatish sohasi shakllanganda va restrukturizatsiyalash jarayoni doirasida texnikaviy – texnologik qayta qurishlar paydo bo‘lmaganda, unda faqat bandlik miqdorining bitta o‘rta sishi 1950-2000 yillarda iqtisodiy salohiyatning ko‘payishini 3 – 4 marta ta‘minlar edi.

Faqat 1981-2000 yillar davrida ishlab chiqarishda 288 mln. kishidan ko‘proq qatnashgan edi. Shu bilan birga, iqtisodiy faol aholining miqdori 291 mln. kishiga ko‘paygan edi. Bu jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammo bo‘lgan edi. XX asrning oxirgi 10 yilida mehnatga qobiliyatli aholi miqdorining o‘rta sishi ishga joylashtirishga qaraganda tezda oshib borardi.

XX asrning ikkinchi yarmida mamlakatda bandlikning barcha tuzilishining o‘zgarishi jiddiy sodir bo‘ldi.

Iqtisodiy faol aholining malakasi qishloq xo‘jaligidan sanoat, qurilishi, xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘zgartirgan edi.

Mamlakatda ishlab chiqarishga ishchi kuchini jalb qilish sifatida bilinadigan o‘zgarishlar yuz berdi: shaharlarda ta‘lim darajasini jiddiy ko‘tarishga erishildi va korxonalariga savodsizlar va chalasavod ishchilar o‘rniga ilmi, malakali ishchi va xizmatchilar kelgan edi.

Asosiy kapitalga kapital sarflarining nafaqat mutlaqo o'ldhamining o'sishi yuz berdi, balki uning ShMdagi ulushi o'sa boshladi, ammo uning unumli o'sishiga qaraganda, asosiy kapitalga mamlakatda, yangi hozirgi zamon tarmoqlarining ro'y berishiga qaramasdan kapital qo'yilmalari sur'atlarining oshirilishi ancha ko'proq yuz berdi. Resurslarni iste'mol qilish ko'paya borib, jumladan barcha turdagi energiyadan foydalanuvchilar soni o'sdi. O'sha vaqtda energiyadan foydalanishni ko'payishi XX asrning 80-90 yillarida YaIM o'sish sur'ati va hajmining aniq oshirib yuborilganini ko'rsatadi. Bu Xitoy iqtisodiyotining ekstenziv rivojlanishi imkoniyati darajasining erishilganligi haqida guvoh beradi.

### **Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida chet el investitsiyalari roli qanday?**

XX asrning oxirgi yigirma yilliklarida iqtisodiy salohiyatining haddan tashqari jadallashgan o'sishi sur'atida asosiy rolni chet el kapitalining oqimi o'ynadi.

XX asr respublikasida chet el investitsiyalariga munosabat bir necha marta o'zgardi. Mamlakat, uning iqtisodiyotida "buyuruqbozlikning yuqori" darajasini chet el kapitali egallagan edi, mamlakat haqiqatan ham chet el dastavvallari tomonidan ta'sir etadigan zonalarga bo'lingan sharoitlarga kirishgan edi. O'sha asrning 60-70 yillarida mamlakatda "o'zining kuchiga tayanish" yo'nalishiga muvofiq o'z-o'zini yakkalab qo'yish siyosati amalga oshirildi. Xitoy yana chet el tadbirkorlari uchun eshigini ochdi. Yillik valyutali o'zlashtirishni butunlay unumdorli foydalanishi, to'g'ridan-to'g'ri chetel investitsiyalarini jalb etishni har xil shakllarda va usullarda qo'llash bo'yicha islohotlar va ochiqlik siyosatiga o'tish tufayli Xitoy rivojlanib kelayotgan mamlakatlar orasida ularning yirik reyipmenti bo'lib qoldi.

Avvalambor g'arb TMK investitsiyasi Xitoyning ichki bozorida kelgusida mustahkam bo'lib qolishga mo'ljallangan edi. Ularni ancha yirik o'ldhamdagi o'rtacha investitsiya loyihalari, uzoq xarakterli qo'yilmalar mamlakatning ko'pincha iqtisodiy rivojlangan markazida joylashtirishi farqlantirdi. Tashkiliy-xuquqiy shakllarni tanlashda ular qo'shma korxonalarni yaratishga afzallik beradi.

1979-2000 yillar ichida rasmiy ma'lumotlarga muvofiq mamlakatga 633.7 mlrd. dollarlik, shu jumladan, 446.5 mlrd. to'g'ridan-to'g'ri shaklida chet el investitsiyalari kelib tushgan. 2000 yilning oxiridagi holati bo'yicha mamlakatda chet el kapitali qatnashuvi bilan 203.2 ta korxonalar tashkil etilgan edi.

Xitoy Xalq Respublikasi xalq xo'jaligining oltita sohasi ko'pincha chet el investitsiyalarini qiziqtiradi:

- ishlab chiqaradigan sanoati;
- ko‘chmas mulk;
- kommunal xizmat;
- chakana va ularning savdo va umumiy ovqatlanish;
- energetika, gaz va suv bilan ta’minlovchi ishlab chiqaruvchi;
- transport, aloqa telikommunikatsiya, qishloq xo‘jaligi.

Chet el kapitali qatnashishi bilan yaratilgan korxonalarining barchasining rivojiga ular 92% dan ko‘proq to‘g‘ri keldi, ularning o‘sish avvalgi kapitali 92% tashkil etdi. Eng yirik investitsiyalar ishlab chiqarish sanoatiga jalb etilgan edi. Bular tufayli XX asr yangi sanoat tarmoqlari, poydevori hozirgi zamon texnikasi va “Nou-xau”, tajriba va bilim boshqaruvi kirib keldi.

Chet el investitsiyalari tashqi savdoning ko‘p marotaba o‘sishiga, milliy iqtisodlarining texnikaviy-texnologik yangilanishiga yordam berdi. Chet el kapitali qatnashishi bilan yaratilgan korxonalar eksportga va uning yuksalishiga mo‘ljallangan iqtisodiyotiga yordam berdi.

Chet el kapitali ko‘magida korxonalarining yuqori sur‘atda rivojlanishi, tashqi savdo operatsiyalarining oshishi Xitoy iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etdi. Ular davlat sektorining tashqi va savdo monopoli holatini bekor qildi. 2000 yillarning boshlarida mamlakat davlat sektori ulushiga eksportda 50.5% va importda 44.8%, chet el kapitali bilan ishlaydigan korxonalar esa 45 va 52% muvofiq to‘g‘ri keldi.

Chet el investitsiyalarining oqimi bir qator keskin muammolarni ham tug‘dirdi. Milliy iqtisodiyotda mamlakatning nafaqat xalq xo‘jaligi bilan bog‘langan, balki jahon bozori va jahon bozori kon’yunkturasi bilan bog‘langan yetarli darajada yirik segmentlar paydo bo‘ldi.

Chet el kapitali bilan ishlaydigan oqimi ancha-muncha mamlakatning alohida hududlari iqtisodiy rivojlanishida keskin noshkesimini kuchaytirdi, bir qator korxonalarining milliy sanoatining an’anaviy tarmoqlarida raqobatni jiddiy chuqurlashtirdi.

Yagona milliy iqtisodiy majmualarni yaratishga ulgurmasdan Xitoy butun jahon integratsiyaviy jarayonlariga sheriklasha boshladi. Ammo mamlakatning alohida hududlari har xil darajada xalqaro mehnat taqsimoti va boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy hamjamiyatlikka jalb etildi.

**2000 yildagi ochlik va kambag‘allik muammolarini hal etish yakunlari.**

Xitoy xalq Respublikasining rivojlanishida 2000 yil asosiy tarixiy davr bo‘lib nishonlandi, ya’ni yetti yillik ochlik va kambag‘allik qashshoqlik bilan kurashish dasturining bajarilishini yakunlash, uch yillik davlat korxonalari islohot dasturi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining to‘qqizinchi

besh yillik planining bajarilishi bo‘lib hisoblandi. 2000 yilning oxirida 2001 yilning boshlarida mamlakat rivojlanishining yakunlari chiqarildi, yaqin o‘n yillarga, o‘ninchi besh yillik planlarga va joriy yilga ustuvor yo‘nalishlar belgilangan edi.

1999 yilning oxirida BMT kompressiyasi, XX asrning oldindan kambag‘allikka qarshi kurashda erishilgan yutuqlarini tan olib, mamlakatning muhtoj aholisi soniga o‘zining bahosini qayta ko‘rib chiqdi, uning miqdorini 300 mln. kishi deb aniqladi. Bunday qashshoqlikning qiyofasini aniqlashdagi alternativ yondashuv shunday rasmiy hisoblangan qashshoqlik uyezdlarning miqdorini hisobga olishga asoslangan. Islohotlarning boshlanishida ular uyezdlarning umumiy miqdoridan to‘rdan uch qismi bo‘lib, XX asrning oxirida taxminan shuncha 590 bo‘lib qolgan.

Mamlakatning barcha tumanlarida islohot yillarida aholining yashash miqdori jiddiy ko‘tarildi, ammo ochlik bilan doimo kurash olib borayotgan kishilarning katta qismi saqlab qolingani ochlikni va qashshoqlikni bartaraf etish vazifalari XX asrning oxirlarida erisha olmaydigan bo‘lib qoldi. Shu bilan bir vaqtda, mamlakatda mavjud fuqarolar kontingentsiyaning zo‘rg‘a yashashi iqtisodiy o‘rishining jiddiy chegarasi bo‘lib qoldi. Shuning uchun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor vazifalaridan biri sifatida o‘ninchi besh yillik yillarida dehqonlar daromadlarining bir qadar oshishiga (sabab bo‘lgan) ajratilgan.

### **Mamlakat iqtisodiyotiga qishloq xo‘jaligi sektorini isloh etish.**

2000 yilda agrar sektori transformatsiyalashuvining va jamiyatning “kam ta‘minlangan” (SYaOKAN) shakllanishining birinchi bosqichi tamom bo‘lishi shart edi. XX asr 80 yillarining o‘rtasidan 2000 yilgacha qishloqlarda oziq-ovqat va aholi asosiy ehtiyojlari qondirish muammolari hal etish bosqichlari yakunlanishi kerak edi, haydaladigan yerlarga erishgan dehqonlar qo‘lida to‘planish jarayonining boshlanishi, qishloq xo‘jaligining yirik tarmoqlari doirasida mehnat taqsimotining va ixtisoslashuvining birinchi boshlanishi jarayonlari tamom bo‘lishi kerak edi.

2000 yil mamlakat agrar siyosatida asosiy o‘zgarishlarni qabul qilishdan boshlandi. XX asr xaqiqatan maksimallashtirish g‘alla yig‘ishni yo‘lini rad etdi. 2000 yilda XX asr tashkil bo‘lgani vaqtdan ikkinchi marta g‘alla, paxta va boshqa ekinlar ostiga ekish maydonini qisqartirish haqida e‘lon qilgan edi. 2000 yil bir vaqtda g‘alla va boshqa hayotiy muhim mahsulotlarni majburiy sotib olish tizimini va bularni sotib olish narxlarini kafolatlashni rad etish taxmin qilingan edi. Hamda davlat zahiralari hajmini pasaytirish taxmin etilgan edi. Ekindan bo‘shatilgan maydonlar ko‘p yillik ekinlarga, yaylovlarga, daraxt o‘tkazish, ostlarini band etishga mo‘ljallangan edi.

Natijada, 2000 yilda g'allani yalpi yig'ishi 1999 yilga nisbatan 508dan 462 million tonnagacha qisqardi. Jon boshiga hisoblanganda bu 403 dan 365 kg.gacha g'allaning yiliga kamayganini bildiradi. Ushbu ko'rsatkich 2000 yilda belgilangan 40 kg ko'rsatkichdan "kam ta'minlangan" ekvivalent sifatida ancha kam bo'ldi. 2000 yildan esa g'alla ekish maydonlari qisqarmaydigan bo'ldi. Xitoy aholishunoslarining hisobi bo'yicha yaqin 30 yillar ichida mamlakat aholi soni 1,6 mlrd kishiga yetadi. Hozirgi zamonda iste'mol miqdorini saqlab qolish uchun mamlakat yoki g'alla yig'ishni ancha tahminan 30% gacha ko'paytirishi shart, yoki g'allani yiliga 150 mln hajmda import qilishga to'g'ri keladi.

### **Davlat sektorini isloh qilish va pensiyaga oid muammolar.**

2000 yilning oxirida davlat korxonalarini har xil aktivlarga o'zgartirishlarni tamom qilish, davlat korxonalarining zararlarining o'sish tendensiyalarini sindirmoq va "hozirgi zamon korxonalar tizimi"ning umumiy xususiyatlarini shakllantirishga mo'ljallangan edi. 2000 yil davomida mol-mulkni boshqarish bo'yicha to'rtta maxsus yaratilgan davlat kompaniyalari davlat tijorat banklaridan davlat korxonalarining qarzini 1393,9 mlrd yuanni (168,5 mlrd doll) to'lab qaytarib oldi va aktivlarni joylashtirish bosqichiga kirishdilar. Joylashtirish mexanizmining asosi – bu korxonalar mol-mulkinging mablag'lariga teng aksiyalar chiqarish va ularga fond birjalari orqali joylashtirish edi. Haqiqatan davlat tijorat banklari uchun ham shunday davlat korxonalarini qayta o'zgartirish uchun ham ushbu kompaniya navbatdagi, garchi yangi shaklda bo'lsa ham, to'plangan qarzlarni hisobdan chiqarish edi. Natijada 6599 o'rta va yirik davlat korxonalaridan 4098 (62%) zarar ko'rishdan to'xtatildi. Rasmiy ma'lumotlar bo'yicha, Xitoy iqtisodiyotida faqat ikkita zarar ko'ruvchi tarmoq qoldi – ko'mir tarmog'i va harbiy-sanoat majmuasi. Davlat sektori islohoti bevosita shaharlarning barcha ijtimoiy sohasiga tegishli bo'ldi. Shaharlarda yashovchilar ohirgi vaqtgacha o'zlarining korxonalaridan ijtimoiy xizmatlarni olgan va hozirgi vaqtlarda ham barcha ijtimoiy xizmatlarni olmoqda. Pensiya islohotlari 1997 yilda boshlangan edi va 2000 yilda haqiqiy natijani berishi shart edi, ammo bu jarayon ham davom etmoqda. Pensiya to'lash muammolari yopilgan, bankrot bo'lgan, qayta tashkil etilgan korxonalar muammolari ham o'tgan davrlarda hal bo'lmay qolgan edi, keskinlik yanada osha bordi. Hukumat pensiya bo'yicha juda katta qarz to'planganligini tan oldi (1,8 trln. yuanda), qisman joriy pensiyalar ishchilarning shaxsan pensiya hisobidagi jamg'armalaridan olinadigan vositalaridan to'lanmoqda.

Muammolarni hal qilishning ko'proq ma'qul yo'llari sifatida qarzdorlikni hissadorlik korxonalaridagi davlat ulushni sotish hisobiga to'lash

taqlif etilmoqda. Ammo uni amalga oshirish fond bozori va sanoat inqirozini hozirlaydi. Ammo faqat bundan sotib tugatish haqidagi maqsadni amalga oshirishdagi e'lonlar bozorida inqirozni inkor qiladi. Buning hisobiga pensiya to'lovlari bo'yicha barcha qarzlarni qoplash mumkin bo'lishi uchun Xitoy kompaniyalarining kapitalizatsiyalashga erishgani unchalik yuqori emas. Shu bilan birga ushbu choralar oqibatlarini yumshatadi, ammo pensiyalar bo'yicha qarzдорlikni kelib chiqish sabablarini bartaraf eta olmaydi. Pensiya tizimida to'plangan qarzlik siyosatini davom ettirish faqat vaziyatni chuqurlashtiradi, xolos.

Xitoy o'zining rivojlanishida juda qiyin va mas'uliyatli vazifalarni bajarishga yaqin keldi. Bitta mamlakatda rivojlanish muammolarini shakllantirish dunyoning barcha davlatlariga xos bo'ldi. Agarda XX asrning oxirida birinchi o'ringa mamlakatda sof iqtisodiy rivojlanish maqsadi oldinga surilgan bo'lsa, XXI asrda ijtimoiy va ekologik muammolar katta ahamiyat kasb etmoqda, buning ustiga bir qator iqtisodiy vazifalar uzil-kesil hal bo'lmadi. Hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha tabaqalashtirishni chuqurlashtirish, aholining mol-mulk o'sishini qatlamlarga ajratish, atrof-muhitni tanazzul etish, dehqonlarning huquqsizligini bartaraf etish, ya'ni bu muammolarni hal qilish keyinga qoldirish mumkin emas. Qanday hal qiluvchi qarorlar topiladi, qanday qilib ichki ziddiyatlarni bartaraf etish mumkin? Bu savollar, masalalar nafaqat XXR ichki muammolari, balki dunyo miqyosidagi masala hisoblanadi.

## **59.12 Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga qisqacha ta'rif**

### **Yangi industrial mamlakatlar nimani bildiradi?**

Yangi industrial mamlakatlarga (YaIM) Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong, Tayvan, ulardan keyin Tayland, Malayziya, Indoneziya, Xitoy kiradi. Ayniqsa, birinchi to'rtta mamlakat ilohida ajratiladi, bular ajdaho (ajdar) yoki yo'lbars deb nomlanadi.

XX asrning 80-yillari davomida barcha 8 ta mamlakatning iqtisodiyoti yiliga 7% dan ko'proq miqdorda o'sishni qo'llab-quvvatlash holatida turmoqda. Bu mamlakatlar tarixiy qisqa davrda o'zining ijtimoiy-iqtisodiy qoloq rivojlanishini bardosh bilan anglashga erishdi va katta yoki kichik darajada rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashdi. Bu mamlakatlar miqdori, aholining bandlik tuzilishi, rivojlanish sur'ati bo'yicha ham bir-biridan ancha-muncha farqlanadi, masalan: Tayvan aholisi, Janubiy Koreyaga qaraganda ikki marta ko'p, Singapurning aholisi esa Gonkongnikiga qaraganda ikki marta kam. Singapur xalqaro kompaniyalar uchun jozibali

paket sharoitini yaratishga katta e'tibor beradi. Janubiy Koreya barcha kuchlari bilan chet elliklarni o'zining iqtisodiyotidan uzoqroq ushlashga harakat qiladi, o'zining uy kompaniyalarini subsidiyalar bilan boqmoqqa intiladi.

Olti millionli Gonkong XX asrning 90-yillarida Jahonning yirik eksportlarining ro'yxatida reeksporti bo'yicha juda ham kam ulushga qaramasdan, o'ninchi o'rinni egalladi. Bu mohiyati bo'yicha o'zgarmaydi. Gankongdan boshqa osiyoviy mamlakatlar ichida o'ntalikka faqat Yaponiya kiradi. Ushbu fenomen asosida nima yotadi?

### **Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish fenomeni**

Tashqi omillar, ya'ni rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning iqtisodiy va harbiy siyosiy yordami haqida ancha ko'p yozilgan. Kapitalizmning iqtisodiy mohiyatini namoyish qiladigan misollar iqtisodga oid adabiyotlarda juda ham ko'p. Ammo yangi industrial mamlakatlarning ro'y berishi to'la bayon etilmagan. Bu ham unday yoki bunday yosh davlatlarning YaIMga aylanishi kapitalizmning yasama sirdan o'rnatilish natijasi emasligiga guvohlik (beradi)qiladi. Bu haddan tashqari YaIM paydo bo'lishi o'zaklashgan mexanizmning sxemasi yangi jahon kapitalizmi liderlarining yangi avlodi bo'lar edi. Unumdor tuproqqa tushgan urug'lar yuqori sifatli kurtaklarni beradi. Shubhasiz, yangi industrial hududlarda biz ko'zatayotgan kapitalizm rivojini kerakli sharoitlarsiz tezlashtirish mumkin bo'lmas edi.

Jamiyatning o'zida, ichida bunga nima mumkin qadar qulaylik beradi? YaIM paydo bo'lishi bir qator omillarning o'zaro harakati natijasini tasavvur etadi. Agar iqtisodiy omillarni olsak, unda bu, avvalambor ushbu mamlakatlarning bozorga va xususiy mulkchilikka berilganligini ko'rsatadi. Ularga ichki mammlarni xalqimizga murojaat qilingan strategiyalar tashqi bozorda import o'rnini bosadiganlarga mo'ljallangan eksportni taqdirlash strategiyasiga almashtirish va buning asosida tezlashtirilgan industrializatsiya yengil sanoatning mashinalashgan bazaga o'tishidan boshlanishi yotar edi, bu, o'z navbatida, qisqa vaqtda ichki bozorda foydalanadigan iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan edi.

Bir qancha vaqt o'tgandan keyin milliy sanoat tuzilishi tor mahalliy bozorlarda realizatsiya qilish muammolariga duch kelib, tashqi bozorlarga mo'ljallanishga majbur bo'lgan.

Bu mamlakalarining eksporti Lotin Amerikasi eksportidan ikki baravar ko'p. Bu mamlakatlarda nafaqat ijtimoiy sohada, balki eksportni rag'batlantirishda ham, muvaffaqiyatli investitsiyaning o'sishiga yordam beradigan soliq siyosatida hamda, chet el investorlari, kapital qo'yilmalar uchun ham yuqori moliyaviy to'siqlarning yo'q. Bu yerda katta rolni ish kuchining arzonligi va hududlarda kapitalning takror ishlab chiqarish



xususiyati bu mamlakatlarning milliy iqtisodiyotida Xitoy aholisining faol ishtirokini ta'minlaydi. Xitoyning chet el jamoasi xususiyatining farqlanishi Xitoy kapitalining Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishida doimiy element sifatida ko'rsatilishi bo'ldi.

### **Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiyotida fan-texnika salohiyati asosiy dvigatel sifatida**

Fan-texnika revolyutsiyasi yangi bosqichining hal qiluvchi ahamiyati, jahon xo'jaligining qayta qurish tuzilishi XX asrning 90-yillarida boshlangan bo'lib fan-texnika salohiyati, intensivatsiyaning rivojlanish tendensiyasi, ilmiy salohiyati va sanoatda rivojlanish pallasi ko'zga tashlandi. Intensifikatsiya mamlakatlar o'rtasida fan-texnika omillariga ustunligini bera turib, hududiy va resurslar mezoni bo'yicha farqlarini tenglashtiradi. Aytib o'tilgan mamlakatlardagi integratsiyalarning rivojlanish jarayoni jahon xo'jaligining yangi sifatiga o'tishda iqtisodiy, fan-texnika salohiyati, rivojlangan mamlakatlarning texnologik o'sishida intellektual fikrlarning paydo bo'lishi zarurdir.

Fan-texnika revolyutsiyasining yuqori erishilgan yutuqlariga ega bo'lish mamlakatlarga ko'pincha raqobatli kurashda qulay imkoniyat beradi.

Yangi industrial mamlakatlar ekspertga mo'ljallangan alternativ ishlab chiqarishni yaratishga kirishdilar. Elektron, oziq-ovqat, avtomobil va boshqa turdagi sanoat paydo bo'ldi, bularning rivojlanishi mamlakatlarga mamnuniyat bilan tez orada 10 yildan kamroq vaqtda shunga o'xshagan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchisi bo'lgan yirik davlatlarning o'rnini siqib qo'yishga erishdilar. YaIMda yangi texnologiyalarning katta miqdoridan, ayniqsa, informatika industriyasiga e'tibor qaratildi. XX asr 80-yillarining boshlarida ushbu hududning 4 ta mamlakatida u amalda mavjud emas edi, 1988 yilda esa EVM va ularning bloklari ishlab chiqarilishi bu mamlakatlarda jahondagi ushbu sektor mahsulotining 7% ini tashkil etdi. O'sha asrning 80-yillarida Tayvan lider bo'ldi. Ancha ko'p informatika industriyasini tashkil etuvchi orollardagi yuzlab kichik va o'rtacha firmalar juda ham tezda mikro EVM modellarini ishlab chiqarishni egallab, Amerika firmalarining eng yaxshi mahsulotlariga mos keladigan, juda ham past narxda sotdilar, natijada har xil fan-texnikaning imkoniyatlari Osiyoning yangi industrial zonalarida tabaqalashtirishni boshlab berdi. Janubiy Koreya va Tayvan moddiy ishlab chiqarishning ustunligini saqlab qoldi va ushbu yo'lda turib, bir qator jahon texnologiyasining ilg'ori bo'lishga yaqinlashdi. Singapur esa ko'pincha fan-texnika potensiyali ahamiyatga ega bo'lib, noishlab chiqarish sohali ixtisoslashuvni afzal ko'rdi, bu to'g'rida uning oxirgi yillarda hududda yangi moliyaviy markazlar sifatida ixtisoslashuvi kuchaytirildi.

## **Yangi industrial mamlakatlarning siyosiy sharoitlari, ularning iqtisodiyotlarining rivojlanishiga ta'siri qanday?**

Ushbu masalalarni o'rganish jarayonida katta ahamiyatga shu hududlardagi siyosiy jihatlar ham muvafiqlikka ega. Ushbu mamlakatlarda kapitalistik modernizatsiyalarning tezlashishi hukumatga avtoritar rejim kelganidan keyin davlat kapitalizmining siyosati maksimal samara tufayli faol ochildi. Xitoy Xalq Respublikasi, Tayvan, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar demokratik rivojlanishi yo'lida muvaffaqiyatga erishgan Yaponiyada farqlanishida samarali iqtisodiyotga avtoritarizm orqali keldilar. Shuni alohida qayd qilish kerakki, Xitoy ham, Koreya ham tarixiy rejada hozirgi vaqtda yirik o'zgarishlar oldida turibdi.

YaIM tajribasi shunga guvohlik beradiki, aynan avtoritarga oid rejalar iqtisodiy barqarorlash va milliy rivojlanish masalalari muvaffaqiyatli hal etadi. Barcha yangi industrial mamlakatlar (Koreya Respublikasi, Tayvan va Singapur) hamda bularga asta-sekin iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha yaqinlashib kelayotgan Tayland va Indoneziya, Malayziyaga o'xshashi bo'yicha, universal evolyutsion yo'lni bosib o'tdilar. Bularning barchasida kommunistik partiyalar va boshqa chapradikal harakatlar va tashkilotlar tormor etilgan va ta'qiqlangan edi. Bu ta'qiqlar shu bilan bog'langan ediki, ya'ni keng marginal qatlamlarning mavjudligi populistikka oid va tenglashtiriladigan, tug'ilib kelayotgan bozor munosbatlari uchun kuchli, halokatga olib keladigan g'oyalarni tarqatish uchun qulay sharoitlarni yaratadi, uning natijasida mulkchilik sinflarining paydo bo'lishi shart. Qattiq, ba'zan esa hatto yovuz choralar populistik qarshiliklar ba'zi vaqtlarda himoya qilinadi va shu bilan birga yillar davomida qadam-baqadam yaratilgan tinchlik, eson-omonlik ommaviy tartibsizlik natijasida tezda vayron bo'lishi mumkin. Ko'pincha shunday ko'p millatli Janubiy-Sharqiy Osiyo, Indoneziya, Malayziya va Singapur kabi mamlakatlarning qattiq shakldagi boshqaruvi tufayli oxirgi yillarda va etnik oqibatlardan qutilishga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga siyosiy barqarorlik va ish tashlash, qo'zg'olonlarning yo'qligi bu davlatlarning chet el investorlari oldida yoqimlilikni, jozibalikni ko'taradi. Ushbu sabablarga ko'ra ham, siyosiy partiyalarning va hatto parlament oprozitsiyalari faoliyati sezilarli darajada cheklanadi. Masalan, ravnaq topayotgan Singapur parlamentida uzoq yillar faqat bitta oppozitsiyadagi deputat bo'lgan. Ammo siyosiy erkinlikning yetarli emasligini o'zini biznes sohasida kichik va yirik kompaniyalardan to'ko'chadagi savdo qiluvchilargacha, imkoniyati boricha, aholini tasavvurini bo'itib boradi. Iqtisodiyotni boshqaruvi va isloxotlar konsepsiyasini ishlab chiquvchi

professionallarga – texnokratlarga topshiriladi, bulardan ko‘pchiligi chet el ma’lumotiga egadirlar.

### **Qisqacha xulosalar**

Jahon xo‘jaligining iqtisodiy rivojlanishidagi notekislik – bu xaqiqatlikdir. Hozirgi zamon iqtisodiyot fanining miqdoriy va sifatli mezoniga muvofiq iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha jahon xo‘jaligining umumiy tizimi uchta post sistemaga ajratiladi. 1) Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, ya’ni post industrial rivojlangan ijtimoiy va ishchan xizmatlar sohasida yuqori ulushda bandligi. 2) O‘rtacha darajada rivojlangan mamlakatlar, ya’ni industrial rivojlanish bosqichida turgan mamlakatlar. 3) Rivojlanib kelayotgan mamlakatlar yoki “Uchinchi dunyo” mamlakatlari, ularni o‘tish iqtisodiyoti bilan ajralib turadigan mamlakatlar, deyiladi.

### **Asosiy tushunchalar**

Rivojlangan  
Rivojlanib kelayotgan  
Qoloq rivojlangan  
Yangi industrial  
Yirik industrial

### **Mavzuning na’munaviy savollari**

1. Jahon hamjamiyati mamlakatlari deganda nimani tushunamiz?
2. Rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq rivojlangan mamlakatlar deganda nima e’tiborga olinadi?
3. Jahon mamlakatlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari?

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Jahon hamjamiyati: yangi industrial mamlakatlar; o‘rtacha rivojlangan mamlakatlar; qoloq rivojlangan mamlakatlar guruhlanishining asoslari nimadan iborat?
2. Jahon mamlakatlarining mehnat taqsimotida ixtisoslashuvining sabablari, ularni tahlil qilib bering?

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Bozor iqtisodiyotini rivojlanishi sharoitida jahon mamlakatlarining rivojlangan, qoloqlik degan mezonlarga ajratishining iqtisodiy sabablari?
2. Qoloq rivojlanish sabablari va ularni yengish yo‘llariga nazariy va evolyutsiyaviy qarash? Rivojlanishdagi va qoloqlikdagi sabablar bu tabiiymi yoki sun’iymi?

## **60 BOB. GLOBAL MUAMMOLAR VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR**

### **60.1. Hozirgi sharoitda global muammolarning mohiyati va ular haqida tushuncha**

Global muammolar barchaga daxldor bo‘lib, universal xarakterga ega. Global muammolar mavjudligi haqidagi masala birinchi marotaba 80-yillarning o‘rtalarida qator xalqaro tashkilotlar (BMT, Rim klubi, OBSYe, OESR) hamda “Katta yettilik” mamlakatlarning yillik kengashlari va jahon jamoatchiligi tomonidan ko‘tarilgan edi. Muammolarning universalligi va globalligi ularning ijtimoiy-siyosiy tuzumidan qat’iy nazar yer sharidagi barcha mamlakatlarga daxldorligi bilan, ularni bir davlat yoki davlatlar guruhi hal eta olmasligi bilan bog‘liq.

Global muammolar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tobora kuchli salbiy ta’sir etmoqda, ularni jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi kuch-g‘ayrati bilangina hal etish mumkin. Global muammolar, odatda, butun insoniyat taraqqiyot jarayonining kechishi bilan, hozirgi zamon jamiyati ishlab chiqaruvchi kuchlarining takomillashib borishi xarakteri bilan belgilanadi. Ko‘pgina global muammolar hozirgi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim elementi hisoblanadi va tobora ularning ajralmas qismiga aylanib borayapti.

Global muammolar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) iqtisodiy rivojlanish va gullab-yashnayotgan jamiyatlarni barpo etish maqsadida tinchlikni saqlash va qurollanish poygasiga chek qo‘yish;

2) cheklangan harbiy to‘qnashuvlar oqibatida ko‘plab odamlarning majburiy migratsiyasi, aholining alohida toifasi – qochoqlarning paydo bo‘lishi;

3) shaxsiy va iqtisodiy erkinliklarni kuchaytirish yo‘li bilan inson huquqlarini yanada kengaytirish;

4) oziq-ovqat muammosi va uni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar, bu ayniqsa Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi qit‘alariga daxldor;

5) erdagi hayotning o‘ziga xavf solayotgan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer yuzidagi deyarli barcha geografik hududlarni qamrab olgan ekologiya muammosini hal etish;

6) BMT turli tuzilmalarining hamda boshqa ayrim xalqaro tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini kuchaytirish.

Yuqorida aytib o‘tilgan muammolarning hammasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, nisbatan qisqa muddatda kompleks tarzda hal etishni talab

qiladi. Hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, taniqli siyosatchilar, olimlar, tadbirkorlarning hammasi bir fikrga “ana shu global muammolarni birgalikdagi kuch-g‘ayratlar bilangina hal etish mumkin” degan fikrga kelishmoqda. Ammo bu talaygina pul mablag‘larini, hatto harbiy sarfxarajatlardan ko‘proq mablag‘larni talab qilishi mumkin, deb hisoblaydi ko‘pchilik.

Amaldagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimini modernizatsiyalash muammosi global muammolarning hal etilishi bilan mustahkam bog‘liq. Bir tomondan qaraganda, bu mustaqil muammo, ikkinchi tomondan qaraganda, u aytib o‘tilgan global muammolarning har biri bilan bog‘liq, ularni esa jahon hamjamiyati konstruktiv muloqot yo‘li bilangina hal eta oladi.

Global muammolarni hal etish uchun dastlabki tarzda muayyan shart-sharoitlarni yaratish kerak bo‘ladi. Quyidagilar ana shunday shart-sharoitlar qatoriga kiradi:

**Birinchi**dan, harbiy xarajatlarni (bu xarajatlar bir yilda qariyb 1 trillion dollarni tashkil etadi) qisqartirish yo‘li bilan jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va mustahkamlanishi uchun ma‘lum shart-sharoitlarni yaratish zarur. Hozircha jami NIOKRning 25 foizi harbiy maqsadlarga sarflanmoqda.

**Ikkinchi**dan, hamma uchun iqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy imkoniyatlar tengligini ta‘minlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun doimiy iqtisodiy o‘shish, inflyatsiya va ishsizlikni kamaytirish, barqaror tovar almashuvini va jahon bozoriga erkin kirib borilishini ta‘minlash, adolatli xalqaro narx-navolarni belgilash, bozor iqtisodiyotini barpo etayotgan mamlakatlar uchun samarali chora-tadbirlarni qabul qilish, rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzi asoratlarni kamaytirishga qaratilgan odimlarni amalga oshirish, rivojlangan g‘arb mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi qoloq mamlakatlarning ehtiyojiga yordamni kuchaytirish, hamkorlikni kengaytirish yo‘li bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni qayta qurish va samaradorligini oshirish kerak bo‘ladi.

**Uchinchi**dan, insoniyatning ishlab chiqarish va maishiy faoliyati bilan atrof-muhit o‘rtasida favqulodda ziddiyatlar vujudga kelganligi bois, ekologiya muammolari jadal ishlab chiqilishi va hal etilishini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida muayyan tadbirlar amalga oshirildi, ammo bu dengizdan tomchi xolos. Ehtimol, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi eng salmoqli tadbirlarning aksariyati XXI asrda amalga oshirilsa kerak. Ammo bu so‘nggi ikki-uch asr mobaynidagi mamlakatlar va xalqlarning yer shari ekologiyasining yomonlashuviga olib kelgan xudbinligi uchun o‘ziga xos haq bo‘ladi. Atrof-muhit muhofazasini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni bajarish uchun birinchi navbatda quyidagi

masalalarni hal etish zarur bo‘ladi: a) to‘g‘ri ekologik tafakkur davlat va amaliy doiralarda ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim; b) “qayta tiklash va davolash” formulasi ekologiya sohasida “oldini olish va bartaraf etish” formulasi bilan almashtirilishi lozim; v) g‘oyatda jiddiy ekologiya fojialarining: qurolli to‘qnashuvlar, ocharchilik va qashshoqlik, sayyoramiz iqlimi oshib borishi, o‘rmonlarning nobud qilinishi, atmosfera ozon qatlamini yemirilishining oldini olish uchun yanada qat‘iyat bilan harakat qilish lozim.

**To‘rtinchidan**, ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash kerak. Bu sohaning istiqboli nafaqat AQSh, Yaponiya, YeH mamlakatlari, Rossiya, Xitoy, O‘zbekiston kabi yirik davlatlarning qarorlariga, shu bilan bir qatorda millatlararo korporatsiyalarning, boshqa xalqaro ekologiya tashkilotlari qatnashchilarining qarorlariga, tobora global ko‘lam kasb etib borayotgan mintaqaviy darajadagi siyosiy harakatlarga bog‘liq. Fan va texnikaning yanada rivojlanishi ham globallashish jarayonini jiddiy ravishda kuchaytirmoqda. Bularning hammasi xalqaro hamkorlikning muayyan va aniq me‘yorlari qabul qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bu me‘yorlar nafaqat har bir insonning talab va manfaatlariga, shu bilan bir qatorda butun insoniyatning ma‘naviy va madaniy qadriyatlariga javob berishi lozim. Buning uchun fan-texnika inqilobini, shaxsni yangicha baholash, xususiy va ijtimoiy manfaatlarni uyg‘unlashtirish va kuchaytirish talab qilinadi. Bu jahon hamjamiyati har bir a‘zosining manfaatlarini qondirish imkonini beradi.

Jumladan, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida milliy xo‘jaliklarni bir-biriga yaqinlashtirish, iqtisodiyot sohasidagi qonunlarni xalqaro huquq me‘yorlariga muvofiqlashtirish, aholi ijtimoiy muhofazasi darajasini ko‘tarish zarur. Global muammolarning hal etilishi katta pul sarfini talab qilishi sababli, jahon hamjamiyati doirasida nihoyat boshqaruv va idora qilishning ham milliy iqtisodiyotlar, ham umuman tarkib topgan hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlar barqarorligini saqlab turish imkonini beradigan ko‘rinishlari va usullarini topish kerak bo‘ladi.

## **60.2. Global muammolar sohasidagi xalqaro iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari**

Hozirgi vaqtda ekologiya, qurolsizlanishni davom ettirish, koinotni va jahon okeanini o‘zlashtirish sohasi, oziq-ovqat muammosi, jahon moliya tizimining barqarorligi xalqaro iqtisodiy hamkorlikning eng muhim yo‘nalishlari sirasiga kiradi. Ana shu yo‘nalishlarning har birini alohida-alohida ko‘rib chiqaylik.

**Ekologiya va atrof-muhit ifloslanishining oldini olish.** Hozir insoniyat

atmosfera, tuproq, daryo, dengiz, okeanning bulgʻanishida, yer yuzidagi yashil maydonlarning (oʻrmonlarning) kamayib borayotganida ifodalanuvchi keskin ekologiya vaziyati mavjudligini tushunib yetdi. Shu munosabat bilan 60-yillarning oʻrtalaridan boshlab ekologiya keng xalqaro hamkorlik sohasiga aylandi. Uni 1968 yilda tashkil etilgan va atrof-muhit bulgʻanishiga qarshi kurashda faol hamkorlik zarurligini eʼlon qilgan Rim klubi boshlab berdi. Yakuniy ravishda mazkur hamkorlik 1972 yilgi Stokgolm konferensiyasida “Stokgolmning harakat rejasi” sifatida rasmiylashtirildi. Natijada, xalqaro amaliyotga ekologik huquq qoidalari joriy etildi, atrof-muhitni muhofaza qilish esa hukumatlar va xalqaro jamoatchilikning diqqat markazidagi sohaga aylandi.

BMT tarkibidagi xalqaro tashkilotlar tizimi, jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish Yevropa agentligi (YuNYeP) hamda qator mustaqil tashkilotlar ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga yordam berdi. Bu borada hukumatga qarashli boʻlmagan tashkilotlar va harakatlar alohida rol oʻynamoqda. Ular mustaqil boʻlib, mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham harakatlarni muvofiqlashtirish bilan shugʻullanmoqda. Soʻnggi yillarda turli mamlakatlarda oʻz vakillariga, oʻz boshqaruv va moliyaviy taʼminlash tuzilmasiga, shuningdek, atrof-muhit holatini va uning insonning ishlab chiqarish va boshqa faoliyatiga taʼsirini baholash uchun ilmiy bazaga ega “Yashil dunyo” – “Grinpis” tashkilotining faoliyati keng yoyildi. Masalan, “Grinpis” zaharli va radioaktiv chiqindilarning tashlanishiga, tabiat, hayvonot olami va insoniyat uchun xavfli korxonalarining qurilishiga, shuningdek ekologiya talablariga zid ravishda tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari va maishiy tovarlar sotilishiga qarshi kurashda faol ishtirok etmoqda. Mazkur tashkilot suyuq yoqilgʻining (neft) toʻqilishi, yongʻin, suv toshqini, zilzilalar va boshqa tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan qushlarni va hayvonlarni qutqarish bilan bogʻliq tadbirlarda qatnashmoqda.

90-yillarning boshlanishiga kelib, atrof-muhit muhofazasi va ekologiya siyosati yer yuzidagi aksariyat mamlakatlar moliyaviy-iqtisodiy siyosatining ajralmas qismiga, hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlarining bir qismiga aylandi. 1984 yilda AQShda tashkil etilgan tashkilotlar – Jahon koʻzatuvchisi ekologiya muammolari boʻyicha faol ish olib bormoqda. Bu tashkilot ilmiy tadqiqotlar olib boradi, konferensiyalar uyushtiradi, har yili ekologiya muammolari boʻyicha maʼlumotnoma eʼlon qilib boradi. “Ekotexnika” xalqaro instituti ham xuddi shunday masalalarni hal etmoqda. U yer yuzining turli mintaqalaridagi ekologik tanazzullarni bartaraf etish boʻyicha muayyan yechimlarni ishlab chiqadi. Hozirgi vaqtda ekologiya

masalalarining aksariyati BMT va Yevropa ittifoqi doirasida hal etilmoqda.

Jumladan, 1992 yili Rio-de-Janeyroda (Braziliya) ekologiya muammolariga bag'ishlangan BMTning xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda jahon hamjamiyatining turg'un barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqildi, mazkur konsepsiyani ko'pchilik mamlakatlar imzoladi. Uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlarining bir-biriga qarama-qarshi emasligi, barcha mamlakatlar xalqlari ekologiya huquqlarining tengligi, ekologiya muammolarini hal etishda hamkorlik va o'zaro yordam berish. Konsepsiya hali ishlab chiqish bosqichida bo'lsa ham uning asosiy g'oyasi jahon taraqqiyotining mutlaqo yangi doktrinasidek ko'rinadi. Shu sababli konferensiya birinchi navbatda XXI asr insoniyat uchun "Iqtisodiyot asri" emas "Ekologiya asri" bo'lishi lozim, deb ta'kidladi.

Chegaralarosha ta'sir uchun javobgarlik davlatlararo munosabatlarning eng samarali omillaridan biri bo'lib qoldi. Jumladan, hozir aksariyat mamlakatlarda zararli moddalarni uzoq masofaga eltuvchi osma quvurlar qurilishi taqiqlangan, YuNYeP va Yevropa ittifoqidagi Ta'sir o'tkazish bo'yicha muvofiqlashtirish markazi kabi tashkilotlar har yili sessiyalar o'tkazishadi, ular har bir mamlakat bo'yicha atrof muhit sohasidagi ishlarga yakun chiqariladi, hamkorlikdagi harakatlarning yangi loyihalari va dasturlari ishlab chiqiladi. Ular shuningdek, atrof muhit muhofazasining xalqaro moliyaviy ta'minotini amalga oshiradilar, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarga zarur yordam ko'rsatadilar.

1994 yilda YeI iqtisodiyoti o'tish bosqichidagi mamlakatlar uchun "Ekologiya siyosatini o'tkazish bo'yicha amaliy tamoyillar"ni ishlab chiqdi. Unda ana shu mamlakatlar uchun o'z davlatlarining xususiyatlarini inobatga olib, atrof- muhitni muhofaza qilish sohasidagi asosiy tadbirlarni tanlash va amalga oshirish yuzasidan tavsiyanomalar beriladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol ekologiyalashuvi, atrof muhit sohasidagi xalqaro hamkorlik amaliy faoliyatning yangi sohasi – "yashil biznes"ning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu iqtisodiyotning o'ziga xos sohasi bo'lib, resurslarning tejallishini, atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyasini, turli ekologiya xizmatlarini nazarda tutadi. AQShda, G'arbiy Yevropada, Yaponiyada va boshqa qator mamlakatlarda korporativ ekologiya biznesi faol rivojlanmoqda, bu turli tozalash uskunalari va texnologiyalarini, energiyaning muqobil manbalarini ishlab chiqaruvchi, ekologiya ekspertizasini o'tkazuvchi, hududlarni ko'kalamzorlashtiruvchi kompaniyalar sonining o'sishida ifodalanadi. Tabiatni himoya qiluvchi texnologiyalarning yillik obroti 700 milliarddan ziyod dollarni tashkil etadi, 2000 yilga kelib esa yana 10 baravarga oshadi.



## **Quolsizlanishni davom ettirish sohasidagi global hamkorlik.**

Iqtisodiyotni militarlashtirish va harbiy harajatlar hali ham ishlab chiqarish, moliya, mehnat resurslarining talaygina qismini o'ziga jalb qilmoqda. 90-yillarning boshiga kelib butun dunyoda harbiy iqtisodiyot va mudofaa sohasida 80 millionga yaqin kishi band edi. Bevosita harbiylarning o'zi qariyb 29 million (rivojlangan mamlakatlarda – 11 million, rivojlanayotgan mamlakatlarda – 18 million) kishini tashkil etar edi. Harbiy ilmiy tadqiqotlarga sarf-xarajatlar ana shu maqsadlarga butun dunyodagi sarf-xarajatlarning 25 foizini tashkil etadi. Harbiy sanoat va harbiy harajatlar mamlakatlarning valyuta zaxiralarini jalb etib, tashqi qarzlarni ko'paytirib, tovarlar raqobatbardoshligini pasaytirib va shu tufayli tashqi savdo samaradorligini kamaytirishi hamda uning inflyatsiya harajatlarini oshirishi sababli umuman iqtisodiyotga, shuningdek, xalqaro iqtisodiy aloqalarning butun tizimiga salbiy ta'sir etmoqda. Shu sababli, 90-yillarning boshidan iqtisodiyotni yalpi fuqarolik izlariga o'tkazish, ya'ni mumkin bo'lgan joylarda harbiy ishlab chiqarishni va harbiy harajatlarni qisqartirish yo'li bilan konversiya o'tkazish vazifasi qo'yilmoqda. Chindan ham SSSR bilan AQSh o'rtasida, so'ngra Rossiya bilan AQSh o'rtasida yadro-raketa qurollari sohasida muhim shartnomalarning tuzilishi hamda oddiy qurol-yarog'larni qisqartirish to'g'risidagi xalqaro bitimlarning imzolanishi natijasida "sovuq urush" tugab, keskinlikning yumshaganligi NATO mamlakatlari, Rossiya va ba'zi boshqa mamlakatlar harbiy budjeti va harbiy ishlab chiqarishining qisqarishiga olib keldi. Jumladan, artilleriya tizimlarini, samolyotlarning ba'zi turlarini, qurollarning boshqa turlarini ishlab chiqarish qisqardi. Ammo bu o'zgarishlar iqtisodiyotga va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jiddiy ta'sir o'tkazadigan darajada keng ko'lamlil bo'lmadi. Bu hali mamlakatlar o'rtasida to'liq siyosiy ishonch yo'qligi bilan bog'liq, cheklangan urushlar davom etmoqda, hali "qaynoq nuqtalar" mavjud, buning ustiga harbiy-sanoat majmui (HSM) iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch, u tashqi savdoni rivojlantiradi, valyuta zaxiralarinitoradi, degan tushuncha saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillar amaliyoti ko'rsatishiga qaraganda, HSM ko'pgina mamlakatlarda ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatga o'zining g'arazli maqsadlarini ko'zlab ancha kuchli ta'sir o'tkazmoqda.

Aytib o'tilgan sabablar tufayli jahon hamjamiyati uchun salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar saqlanib turibdi. Shu sababdan ham global yo'nalishda quolsizlanish jarayonini davom ettirish ishida turli mamlakatlar hukumatlarining kuch-g'ayratlarini birlashtirish zarur. Buning uchun quolsizlanishni davom ettirish va milliy xavfsizlik siyosatini o'tkazish, bir yoki bir nechta davlatlarning o'z sheriklariga yoki raqiblariga po'pisa qilishi,

tazyiq o'tkazishi, kuch ishlatishi kabi an'anaviy amaliyotdan voz kechish yo'li bilan xalqaro harbiy-siyosiy munosabatlar mazmunining o'zini o'zgartirish talab qilinadi. Bundan tashqari davlatlarning harbiy doktrinalarini tenglashtirish, hujum doktrinalarini himoya doktrinalar bilan almashtirish, qurolsizlanish iqtisodiyoti sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro va milliy darajalarini aniqlash yo'li bilan harbiy sanoat konversiyasini chuqurlashtirish, buning hisobiga iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, shu sohadagi umumiy sharoitlarni va amaliy tadbirlarni belgilash, qisqartirish maqsadida harbiy-sanoat majmuining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash kerak.

Ana shu shartlarni bajarish umuman jahon hamjamiyatiga hamda ayrim davlatlarga, jumladan, anchagina moddiy, mehnat, moliya va valyuta resurslarini tejab qolish, ularni ko'p sonli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga safarbar etish valyuta-moliya munosabatlarini sog'lomlashtirish, butun xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimini mustahkamlash imkonini beradi.

**Koinotni va jahon okeanini o'zlashtirish sohasidagi hamkorlik.** So'nggi yillardagi eng muhim yo'nalishlardan biri koinotni o'zlashtirish sohasidagi yetakchi rivojlangan mamlakatlar, birinchi navbatda Rossiya bilan AQSh, AQSh bilan G'arbiy Yevropa hamda Rossiya bilan boshqa mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlik hisoblanadi.

Bunday hamkorlik, birinchi navbatda, Rossiyaning "Mir" orbital stansiyasidan birgalikda foydalanishdan, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlar tomonidan kosmonavtlarning tajriba parvozlari tarzida, vaznsizlik sharoitida turli fazoviy, biologik va texnik sinovlar o'tkazish maqsadida foydalanishida keng namoyon bo'ldi. Bunday tajribalarda ishtirok etuvchi har bir davlat, odatda, o'z kosmonavtlari va astronomlarining orbital stansiyada bo'lishini valyuta bilan hisob-kitob qiladi. Bunday hamkorlik 90-yillarda, Rossiya bozor iqtisodiyoti izlariga o'tganidan so'ng keng rivoj topdi. Mamlakatlarning o'z kosmonavtlari va astronomlarining "Mir" stansiyasida bo'lishiga doir harajatlari 90-yillarda mustahkam valyutada to'lanib bordi va bir necha yuz million dollarni tashkil etdi. Bu pullar Rossiyaga yangi avlod koinot texnikasini ishlab chiqarish yo'li bilan koinotdagi o'z tadqiqotlarini qisman moliyaviy ta'minlash imkonini berdi. Mazkur dasturda ishtirok etuvchi boshqa davlatlar ham noyob ilmiy tadqiqotlarni o'tkazib muayyan darajada foyda ko'rmoqda. Rossiyaning "Mir" stansiyasining uzoq vaqt kosmik orbitada bo'lishi qator g'arb mamlakatlariga talay pul mablag'larini tejab qolish imkonini beradi, zero, ularning o'z orbital stansiyasini yaratishi juda katta harajatlarni talab qilgan bo'lardi. O'z navbatida Rossiya fazogirlari Amerikaning "Shatl", "Chelenjer", "Diskaveri" tipidagi kosmik kemalarida bir necha marta stajirovkada bo'lishdi, Rossiyaning kosmik tadqiqotlarini

o‘tkazishdi. Bunday hamkorlikka 1974 yilda SSSR va AQSh o‘z kosmik kemalarini tutashtirish bo‘yicha “Soyuz” - “Appolon” qo‘shma kosmik loyihasini amalga oshirganliklaridan so‘ng yo‘l ochildi.

Koinotdagi hamkorlikning boshqa bir yo‘nalishi tijorat maqsadlarida retranslyatsiya qiluvchi aloqa yo‘ldoshlarini uchirish hisoblanadi. Bunday uchirishlar asosan uch mamlakat: qudratli kosmik imkoniyatlarga, shu jumladan raketalarni ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan va kosmodromi mavjud Rossiya, AQSh va Fransiya (Rossiyaning kosmodromi Boyqo‘ng‘irda, AQShniki – Kanaveral burunida, Fransiyaniki – Fransuz Gvianasida) tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu mamlakatlar yer yuzining turli mintaqalarida teleko‘rsatuvlarni namoyish etayotgan boshqa mamlakatlar yoki xususiy telekommunikatsiya kompaniyalarining buyurtmasiga ko‘ra tijorat yo‘ldoshlarini yer atrofidagi orbitaga chiqarib beradilar. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Braziliya va boshqalar bunday xizmatdan keng foydalanadilar.

Hozirgi vaqtda mamlakatlar o‘rtasidagi kosmik hamkorlikning yangi elementi rivojlanib borayapti. Mana bir necha yildirki, yangi orbital kosmik stansiyaning uchirish va montaj qilishga tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Ana shu stansiyaning asosiy modullarini ishlab chiqarayotgan AQSh va Rossiya ana shu g‘oyaning tashabbuskori bo‘lib chiqishdi. Shu munosabat bilan Amerikaning bir qator aviakosmik korporatsiyalari kosmik jihozlarning ayrim turlari Rossiya korxonalarida ishlab chiqarilishini moliyaviy ta‘minlamoqda. Kelajakda stansiyadan boshqa mamlakatlarning manfaatlari yo‘lida foydalanish ham taxmin qilinadi.

Koinotdagi xalqaro hamkorlikning yana bir muhim bosqichi tijorat yo‘ldoshlarini uchirish uchun okeanda maxsus so‘zuvchi platforma-kosmodrom yaratish hisoblanadi. Shu rusumdagi yo‘ldoshning tajriba tariqasidagi birinchi uchirilishi 1999 yilning martida amalga oshirilgan edi. Mazkur loyihada Rossiya, AQSh, Norvegiya va boshqa qator mamlakatlar ishtirok etmoqda.

Jahon okeaniga kelsak, bu sohadagi hamkorlik hali koinotdagi hamkorlik ko‘lamiga yetganicha yo‘q. Jahon okeani iflosanishining oldini olishga qaratilgan xalqaro bitimlar, dengiz va havo kemalari dengiz va okeanlar ustida falokatga uchraganida bu haqda yer yo‘ldoshlari orqali xabar berish va yordam ko‘rsatish tizimini tashkil etish haqidagi bitimlar mazkur sohadagi asosiy yutuqlar hisoblanadi. Bu sohada barcha mamlakatlar va jahon hamjamiyati hamkorlik qilishyapti. Shunga qaramay koinot sohasidagi xalqaro hamkorlikning rivojlangan ko‘rinishlari hozircha bu sohada jiddiy rivojlangani yo‘q.

Jahon okeanini tadqiq etish va uni o‘zlashtirish sohasida eng katta

muvaffaqiyatga Fransiya, jumladan mashhur fransuz tadqiqotchisi J.I.Kusto erishdi. Ammo uning okean biologiyasini, gidrografiyasini, o'simlik va hayvonot olamini o'rganishga doir ko'p yillik dasturi sof milliy loyiha doirasidan chiqqani yo'q. AQSh ham okeanning turli jihatlarini o'rganish, uni o'zlashtirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega, uning maxsus kemalari va suv osti kemalari bor. Ammo bu imkoniyatlar harbiy-ilmiy maqsadlarga qaratilgan. Ayni paytda baliq resurslarini va dengiz hayvonlarini muhofaza qilishga doir bir qator xalqaro bitimlar va konvensiyalar mavjud. Mana, bir necha yildirki, kitlarni ovlash man etilgan.

Oziq-ovqat muammosi. Oziq-ovqat muammosi hozirgi zamon iqtisodiy munosabatlarining eng muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Jahon hamjamiyati uni so'nggi yillar mobaynida, ya'ni 2 ming yillikning oxiriga qadar bajara olmadi. Ushbu muammo G'arbiy Yevropaning bir nechta mamlakatlari, AQSh, Yaponiya, Avstraliya uchun muammo bo'lmay qoldi. Urushdan keyingi yillarda oziq-ovqat ishlab chiqarish ancha ko'paydi, ammo u qit'alar va alohida mamlakatlar bo'yicha tekis taqsimlanmayapti. Mazkur muammo Afrikaning ko'pgina mamlakatlari, Osiyo va Lotin Amerikasining qator mamlakatlari uchun hamon keskin bo'lib qolmoqda. Ayni vaqtda aholining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ko'payishidan o'zib ketmoqda. 60-yillarning oxiridan 90-yillarning boshiga qadar g'alla hosilini yig'ib olish qariyb ikki baravar ko'paydi, Yer sharining aholisi esa ana shu davrda 1,8 baravar ko'paydi. Shu bilan birga ekspertlar yer hosildorligining pasayishi oqibatida oziq-ovqat mahsulotlarining ko'payishi aholi sonining o'sish sur'atlaridan yanada ortda qolishini bashorat qilishmoqda.

Oziq-ovqat muammosi muayyan mintaqaviy xususiyatlar bilan izohlanadi. **Birinchi**dan, G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika (AQSh va Kanada), Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zelandiya yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarining ortiqchaligiga duch kelmoqda. **Ikkinchi**dan, Janubiy Yevropa mamlakatlari, Lotin Amerikasining aksariyat qismi, Shimoliy Afrika, ASYeAN mamlakatlari, neft qazib chiqarilayotgan arab mamlakatlari Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BMTning JST) ning talablariga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlangan. **Uchinchi**dan, Sharqiy Yevropa mamlakatlari, MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlari hamda Misr, Hindiston, Indoneziyaning oziq-ovqat bilan ta'minlanganligi BMTning Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti standartlaridan "yo'l qo'yilgan og'ish darajasida" turibdi. **To'rtinchi**dan, Osiyo, Afrika, Okeaniya, Karib havzasi rivojlanayotgan mamlakatlarning katta guruhi doimiy va davomli oziq-ovqat tanqisligini boshdan kechirmoqda, ularning oziq-ovqat bilan ta'minlanganligi BMT Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti talablaridan jiddiy ravishda ortda

qolmoqda. Bu ayniqsa, Saxel zonasiga – Afrikaning Sahara sahrosidan janubroqdagi mamlakatlarga taalluqli. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma‘lumotlariga qaraganda, ocharchilikdan azob chekayotgan jami aholi soni 70-yillarning boshida 400 million kishiga, 80-yillarda 500 million, 90-yillar boshida qariyb 700 million kishiga yetgan.

Oziq-ovqat bilan ta‘minlash muammosi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan chirmashib ketgan. Gap shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining anchagina qismi yer bilan kam ta‘minlangani holda, ya‘ni bir parcha yerda dehqonchilik bilan shug‘ullanishda davom etmoqda. FAO ma‘lumotlariga ko‘ra 60 yillarda ishlov berilayotgan yer maydoni aholi jon boshiga hisoblaganda, Osiyoda 0,35, Afrikada 0,9, Lotin Amerikasida 1,14 gektarni tashkil etgan. Yer kamligi sababli ishsiz dehqonlar soni oshib bormoqda. Bundan tashqari, mazkur muammo yer maydonlarining teng taqsimlanmaganligi sababli, tobora keskinlik kasb etmoqda. 90 yillarning boshida jami fermerlarning 90 foizini tashkil etuvchi mayda xo‘jaliklarga ishlov beriladigan jami maydonlarning 7 foizidan 17 foizigacha to‘g‘ri kelgan. Buning aksi o‘laroq, jami xo‘jaliklarning 7 foiziga yaqinini tashkil etuvchi yirik xo‘jaliklar hissasiga qishloq xo‘jaligiga ajratilgan maydonlarning 37 foizidan 82 foizigacha to‘g‘ri kelgan. Buning ustiga Lotin Amerikasining qator mamlakatlarida (Meksika, Argentina, Braziliyada) latifundistlar deb ataluvchilar (pomeshchiklar) yerdan ataylab qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun foydalanmaydilar, shu yo‘l bilan ortiqcha ishchi kuchi muammosini vujudga keltiradilar. Bularning hammasi demokratik yer islohotlarini o‘tkazish zaruratini taqozo etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi oziq-ovqatlar muammosi mustamlakachilik o‘tmishi, iqtisodiyot va qishloq xo‘jaligining qoloqligi, ko‘hna agrar munosabatlarning saqlanib qolganligi hamda demografik, iqlimiy, madaniy, etnik va boshqa har xil omillarning o‘zaro va o‘zviy aloqasi bilan izohlanadi. Ana shu omillar, odatda, ayrim mamlakatlar va mintaqalardagi muayyan vaziyatlarda bir-biri bilan chirmashib ketib, oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarilishiga, taqsimlanishiga va iste‘moliga ta‘sir etadi. Shuning uchun jahon hamjamiyati oldida, xalqaro tashkilotlar va industrial mamlakatlar oldida mana ko‘p yillardan beri oziq-ovqat muammosini hal etish zarurati keskin bo‘lib turibdi.

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat muammosining hal etilishi “yashil inqilob” deb ataluvchi xalqaro hamkorlik dasturi bilan bog‘lamoqda. Mazkur dastur yuqori hosilli ekinlarni va g‘alla ekinlarini hosildorligini oshirish imkonini beradigan o‘g‘itlarni qo‘llab, ilg‘or agrotexnika usullari joriy etilishini nazarda tutadi. Ekinlarning yuqori hosilli

navlaridan foydalanish 70 yillarning oxiri va 80 yillarning boshida Meksikada bug‘doy, Hindistonda, Indoneziya va Fillipinda guruch, Argentina, Keniya va Zimbabveda makkajo‘xori, Markaziy Amerika va And guruhi mamlakatlarida tariq va g‘alla hosilini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

**Jahon moliya tizimining barqarorligi.** Kapital bozorlari integratsiyasiga milliy kapitallar bozorlarida ro‘y berayotgan salbiy jarayonlar, bozor iqtisodiyotiga o‘tgan ayrim mamlakatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan valyuta-moliya ziddiyatlari jiddiy ta’sir etayotgani bugungi kunda tobora ayon bo‘lib bormoqda. Osiyodagi valyuta – birja inqirozi rivojlangan mamlakatlarning kapitallar bozoriga jiddiy va anchagina salbiy ta’sir etdi. Avvalambor, buning zaminida quyidagi sabablari yotganini qayd etish zarur. **Birinchidan**, gap Yaponiyaning soliq siyosati haqida bormoqda. Yaponiya hukumati 1997 yilda soliqlarni keskin oshirib yubordi, bu yapon ishlab chiqaruvchilarini o‘z tovarlarini Janubi-Sharqiy Osiyodagi qo‘shni mamlakatlarda past narxlarda sotishiga majbur qildi. Bu mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni xonavayron qildi. O‘z navbatida, Yaponiyada soliqlarning oshirilishi iqtisodiy o‘shishning jadal sur‘atlarini rag‘batlantirish zarurati hamda davlat budjetini ulkan kamomadi mavjudligi bilan izohlashar edi. Ammo soliqlarni oshirish vaqtida uning Janubi-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlarida qanday oqibatlariga olib kelishi puxta o‘ylanmagandi, vaholanki, ular uchun Yaponiya iqtisodiyoti uzoq vaqt iqtisodiy taraqqiyotining lakomativi bo‘lib kelgandi. **Ikkinchidan**, Osiyodagi moliyaviy inqiroz bozorlarida qimmatbaho qog‘ozlarning, jumladan, fond birjalarida faqat chayqovchilik xarakteridagi hosila qimmatbaho qog‘ozlar (konvertatsiya qiluvchi obligatsiyalar, varrantlar, opsionlar, f‘yucherslar) ning ko‘p miqdorida mavjud bo‘lganligi bilan bog‘liq. Bu qog‘ozlar foyda olish maqsadida muntazam sotib olinadi va qayta sotiladi. Derivatlar deb ataluvchi bunday hosila qog‘ozlarning qiymati 100 trillion dollarga yaqinini tashkil etadi, bu barcha mamlakatlar YaIM hajmidan ko‘p. Shuning uchun ham bunday qog‘ozlar bozorlarga chiqarib tashlanishi boshqa qimmatbaho qog‘ozlar kursini pasayishiga olib keladi, birjalarning xonavayron bo‘lishiga xizmat qiladi.

**Uchinchidan**, inqirozning sababi deb “sharqiy yo‘lbarlar” deb atalmish Janubi-Sharqiy Osiyoning bir qator mamlakatlarining iqtisodiyotining izdan chiqishi AQSh ning ma’lum darajada manfaatdorligini ko‘rsatish mumkin. Bu mamlakatlar maishiy texnika, gazlamalar, o‘yinchoqlar va boshqa arzon tovarlarini Amerika bozorlariga yetkazib berishar ekan, so‘nggi yillar mobaynida AQSh ning raqobatchisi bo‘lib kelishgan. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga qarshi AQSh harakatining ko‘rinishlaridan biri Gonkok dollari

kursini pasaytirishga qaratilgan o'yin hamda Amerikalik sarmoyador Sorosning ana shu mamlakatlar, jumladan, Malayziya valyutasiga qarshi o'tkazgan chayqovchilik operatsiyalarini ko'rsatish mumkin.

Ana shu omillarning birgalikdagi ta'siri natijasida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining valyuta va fond birjalarida inqiroz boshlandi, bu ularning valyutasi va qimmatbaho qog'ozlari, birinchi navbatda aksiyalarning kursi tushishida ifodalandi va o'zviy ravishda qator banklar hamda boshqa kredit-moliya institutlarining bankrot bo'lishiga olib keldi.

Ammo qimmatbaho qog'ozlar investitsiya bozorlari orqali kapital bozorlarining globallasuvi mavjud bo'lganligi sababli Osiyodagi moliyaviy inqiroz ko'pgina boshqa mamlakatlarga, shu jumladan G'arbning yetakchi mamlakatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu Nyu-York va g'arb mamlakatlarining boshqa yirik fond birjalarida (London, Parij, Frankfurt) aksiyalar kursi pasayishida ifodalandi.

Osiyodagi moliyaviy inqirozning **to'rtinchi** sababi, dollar va iyenalardagi kredit va investitsiyalardan noto'g'ri foydalanish, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ularning ishlab chiqarishga emas, ko'chmas mulk va moliyaviy aktivlarga sarflanganligi bo'ldi.

**Beshinchidan**, kapital bozorlarini globallashtirish jarayoni muayyan ziddiyatlar sharoitida kechmoqda, buni 1999 yilning boshidan yagona pul birligi – yevroning joriy etilishi bilan bog'liq Yevropa ittifoqidagi ahvol ham tasdiqlaydi. Yagona pul tizimiga kirib borish Yevropa ittifoqi mamlakatlarini ikki to'lqinga bo'lib yubordi. Birinchi to'lqin – 11 ta mamlakat yevroni 1999 yil 1 yanvardan qabul qildi, ikkinchisi esa yana bir necha yildan keyin qabul qildi. Bundan tashqari, Yevropa ittifoqi Markaziy bankining Prezidentini tayinlash borasida GFR va Fransiya o'rtasida jiddiy kelishmovchilik mavjudligi aniqlandi. Bu kelishmovchilik har ikki tomonni qoniqtiruvchi qaror qabul qilinishi bilan hal etildi: dastlabki yillarda bankka Gollandiya vakili, keyinchalik esa Fransiya vakili boshchilik qildi. GFR va Fransiya Yevropada kapital bozorlari yanada globallasuvi lakamativi hisoblanadi, vaholanki, ularning ham boshqa mamlakatlar, ayniqsa Angliya bilan ma'lum kelishmovchiliklari bor. Angliya yagona pul birligi tashkil etishining birinchi to'lqiniga kirmaganligining boisi ham shunda.

Moliyaviy inqiroz kengayib borayotgan bir sharoitda jahon hamjamiyati ana shu inqirozdan chiqish yo'llarini izlamoqda. Inqiroz oqibatlarini tugatish borasidagi asosiy yo'nalishlar inqirozdan ayniqsa jiddiy aziyat chekkan mamlakatlarda (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari hamda Yaponiya, Rossiya, Braziliya va qator boshqa mamlakatlar) amalga oshirayotgan pul-kredit tizimini barqarorlashtirish va qattiq tejamkorlik; XVF, ABRR

tomonidan kreditlar ko‘rinishida iqtisodiy-moliyaviy yordam ko‘rsatish, jahon moliya bozorini, shu jumladan, faoliyat ko‘rsatishlari va kapitallarning milliy bozori bilan yaqindan hamkorlik qilishlari uchun yanada muhim sharoitlarni yaratish maqsadida kapital, valyuta va qimmatbaho qog‘ozlar bozorlarini ham isloh qilishga taraddud ko‘rish hisoblanadi.

### **Qisqacha xulosa**

Agar unga yashirin tomondan nazar tashlamosak, bizning jahon iqtisodiyoti bilan tanishuvimiz to‘liq bo‘lmaydi. Gap shundaki, planeta miqyosidagi gullab-yashnayotgan xo‘jalik sari yo‘lda uning beqarorligiga sabab bo‘luvchi yengib bo‘lmas to‘siqlar bor. XXI asrning boshlariga kelib insoniyat ayrim mamlakatlarga emas, butun dunyoga daxldor qator keng ko‘lamli muammolarga duch keldi. Keng ko‘lamli deganda, butun insoniyat hamjamiyatining hayotiy manfaatlariga daxldor va o‘zining salbiy oqibatlarini bilan butun sivilizatsiyaning rivojlanishiga xavf solayotgan qator voqea va hodisalar tushuniladi.

Demografiya muammosini XX asrning oxirlarida boshlangan “demografik portlash” yer yuzining keskin ko‘paya boshlaganini keltirib chiqaradi. Ayni vaqtda uning dinamikasida odatdan tashqari nomutanosiblik vujudga keldi: dunyo aholisining ko‘payishining 80 foizi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ana shu “demografik portlash” markazida hozirgi zamon tibbiyot vositalari yordamida bolalar o‘limini jiddiy ravishda kamaytirishga, ba’zi ommaviy epidemiyalarni tugatishga muvaffaq bo‘lindi. Yangi texnika yordamida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘paydi. Bu va boshqa o‘zgarishlar inson o‘rtacha umrining o‘zayishiga olib keldi. Ikkinchi tomondan, ana shu qit‘alarda tug‘ilishning yuksak darajasi saqlanib qolaverdi. Taxminlarga ko‘ra, bunday hol XXI asrning o‘rtalarigacha saqlanib qoladi. Ana shu vaqtga kelib, sayyoramiz aholisining 95 foizi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida yashaydiganlar bo‘ladi.

Shu bilan birga oziq-ovqat muammosi, ekologik fojia xavfini bartaraf etish va boshqa jahonshumul muammolarning hal etilishi hozirgi zamon iqtisodiy sivilizatsiyaning asosiy muammosi bo‘lib qolmoqda.

Yana bir narsa ayon. Jahon hamjamiyati odamlar uchun ko‘ngilsiz voqealar kechishini o‘z holiga tashlab qo‘yishi kerak emas. Hayotiy muhim ulkan muammolar xalqaro tashkilotlarining ta’sirchan nazorati ostiga olinishi zarur.



### **Asosiy tushunchalar:**

Keng ko‘lam deganda, butun insoniyat hamjamiyatining hayotiy manfaatlarga daxldor va o‘zining salbiy oqibatlari bilan butun sivilizatsiyaning rivojlanishiga xavf solayotgan qator voqea va hodisalar tushuniladi.

Ekologiya – bu insoniyatning va atrof-muhitning o‘zaro munosabatlaridagi muammolar (atmosfera, tuproq, daryo, dengiz, okeanning bug‘lanish).

### **Mavzuning namunali savollari**

1. Iqtisodiy rivojlanish va ekologik muammolarning mohiyati va tushunchasi.
2. Iqtisodiy hamkorlik va global muammolarni hal etishdagi xalqaro tashkilotlar o‘zaro munosabatlari.
3. BTM ning Global iqtisodiy fondining faoliyati.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar:**

1. Hozirgi sharoitdagi global muammolarning mohiyati va tushunchasi.
2. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va ekologik muammolar va ularning xususiyatlari.
3. Ekologiya va atrof-muhitning bug‘lanishi va iqtisodiy integratsiyalar.

### O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida ta’limning ahamiyati

*Biz 2017-2021-yillarda Oliy o‘quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish dasturini qabul qilib, ushbu sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishga, oliy ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga qattiq bel bog‘laganmiz.*

**Shavkat Mirziyoyev**

Iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida keynscha va monetar nazariyalarga asoslangan makroiqtisodiy modellar keng miqyosda tarqatilgan. Muallifning fikricha, iqtisodiyot nazariyasidagi ilmiy yo‘nalishining yana biri institutsional (jamiyat tomonidan belgilangan va qoida tusini olgan tartiblar – xususan Amerika iqtisodchilari va sotsiologlari Torsteyn Veblen (1857-1929) va Jon Kennet Gelbreyt (1908-2004)lar uning asosiy tomonlarini taxminlaganlar) g‘oyalari bo‘lib, dunyo qarashini rivojlantirish zaruriyatidir.

Keynscha va neoklassik maktablarning modellaridan institutsional yondashuv nima bilan farqlanadi?

Institutsionalistlarning neoklassiklardan farqi, ular bozor iqtisodiyotini va bozorning afzalligini ideallashtirib shak-shubhasiz samarali xo‘jalik tizimi sifatida ko‘rib chiqishga qodir emasligini bildiradi. Institutsionalistlar bozor iqtisodiyotidagi kamchiliklarni, “bozorning muvaffaqiyatsizligini”, ya’ni ularning nuqtai nazaricha davlatning tartibga solishini, xarajatlarni to‘ldirishini va jamiyat tomonidan “ijtimoiy nazorat” qilishning shartligini ko‘rsatadilar. Davlatning iqtisodiyotga aralashishini hech qanday direktivasiz, huquqiy, iqtisodiy bevosita uslublar yo‘li bilan to‘zishni, ya’ni bozor tizimining asosi bo‘zilmaligini aytadilar.

Iqtisodiyotga institutsional yondashuv bir necha o‘ziga xos prinsiplarga asoslangan.

**Institutsional maktabning tadqiqot ob’ekti sof iqtisodiy** voqea va hodisalar bo‘lmasdan, balki jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, diniy, tarixiy va boshqa jihatlaridagi jarayonlarni o‘z ichiga olishdan iboratdir.

Institutsional maktab maxsus “institutlar” qonunlari bilan mustahkamlangan, jamoa psixologiya xususiyatini saqlagan va urf-odat sifatida aniqlangan bo‘lishi kerak. Institutsionalistlar Adam Smitning ma’lum bo‘lgan “iqtisodiy inson” postulatini shubhalantiradi. Ular individlarning

xulqi, fe'l-atvoriga, ularning qabul qilgan qarorlariga tezda ularning foydasining va manfaatining maksimal chegarasidan chiqib ketadigan katta miqdordagi omillar ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaydilar. Institutsionalistlarning nuqtai nazaridan, insonni faqat bir maqsadga harakat qiladigan sub'ekt sifatida qaramasdan, o'zining yaxshi ko'rishi va yoqtirmasligidan chalg'imasdan, o'zini o'rab turganlarning xulqini oldindan ziyraklik bilan ko'ra oladigan va shu bilan birga yanada o'zining xulqida boshqalar uchun oldindan aytib beruvchi bo'lishi kerak.

Institutsionalistlar barcha individlarni va iqtisodiy sub'ektlarni tovarlarning narxi, bozor kon'yunkturasi, iste'molchilarning talabi hoida va boshqa asosiy katta foyda olish maqsadidagi bitimlar haqida zaruriy qarorlar qabul qilishga ijozat beradigan masalalarni hisoblashga moyil emas. Institutsionalistlar o'z navbatida individlar, firmalar, davlatlarning noaniq, to'ldirilmagan axborotlar va bo'zib ko'rsatilgan axborotlar sharoitida harakat qilishga majbur ekanligining ko'proq realistik variantlarni afzal ko'radilar.

Institutsionalistlar iqtisodiyotni yagona optimal muvozanatga intilayotgan tizimlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqmaydilar. Institutsional iqtisodiyot so'zsiz eng qulay bo'lmagan holatda baravar bo'lmagan vaziyatlarda yoki bir necha baravar nuqtalarning naqdligi imkoniyatlariga yo'l qo'yadi.

### **Institutsionalizmning asosiy yo'nalishlari**

Iqtisodiyotda institutsional yondashuv bir xil emas, bulardan ikkita asosiy yo'nalishlarni ajratish mumkin.

Bir tomondan, **“yangi” institutsionalizm**, bu o'z navbatida “eski” (amerikacha) an'anaviy institutsionalizmni davom yetkazadigan, ijtimoiy muhitlarning ustunligi yoki “institutlar”ning insoniyatga bo'lgan munosabati bo'yicha o'rinda turadi. “Yangi” institutsionalizm insonni, o'zining xulqi bo'yicha tashqi muhitga bog'liq, uning ta'siri ostida turganligini ko'rib chiqadi. Bunday yondashuv iqtisodiyot nazariyasida metodologik xorizm (grekcha, *holos* – butunlik) – nomini olgan, ya'ni qismlarning butunlikka bo'ysunish prinsiplari.

Boshqa tomondan, **neoinstitutsionalizm**, u neoklassik maktablar metodiga suyanadi, metodologik individualizm prinsiplaridan foydalanadi. Neoinstitutsionalistlar iqtisodiy va ijtimoiy xodimlarni, birinchi navbatda alohida kishilarning, agentlarning harakatini tahlil qilib, alohida inson nuqtai nazaridan tushuntiradi.

Institutsional maktab butunlay mustaqil prinsiplarga asoslanib, iqtisodiy jarayonlarni yangicha aks ettiruvchi, bir qator nazariyalarni yaratishga ijozat etdi.

## **Davlatning institutsional nazariyasi**

Bizning qarashimizcha, O'zbekiston uchun davlatning institutsional nazariyasi o'ziga xos manfaatni tasavvur etadi.

Institutsionalistlar davlatning ikkita asosiy turini ajratadi – shartnomaga va ekspluatatsiyaga oid.

**Shartnomaga oid davlat** fuqarolar va davlat o'rtasida ixtiyoriy shartnoma sifatida ko'rib chiqiladi. Amerikalik iqtisodchi Nort, Duglas Sesil (1920)ning nuqtai nazaridan insoniyatning iqtisodiy taraqqiyotida alohida individlar o'rtasida shartnoma huquqi himoyasini o'ziga olib, davlat juda ham katta rol o'ynagan. 200 yildan ko'proq oldin Adam Smit aytgan G'arb jamiyatining boyligiga kalit shundaycha qolgan. Mehnat taqsimoti va o'sib kelayotgan ixtisoslashuv hamma vaqt institutsional tuzilishlar rivojlanishiga talablar, bular o'z navbatida kishilarga harakat qilishda ijozat beradigan, o'zlari shaxsan tanish bo'lmagan boshqa kishilar bilan murakkab munosabatda qurilgan. Bu faqat o'sha vaqtda mumkin bo'lgan, ya'ni qachonki ayirboshlashda uchinchi tomon qatnashganda – o'z navbatida davlatning mulkchilik huquqini ifoda etishi va to'zilgan shartnomalarning amal qilishi uchun ko'zatish olib bormog'i.

Davlatning shartnoma nazariyasiga muvofiq kishilarning shartnomasi natijasida o'zlarining bir guruh fuqarolariga jamiyatning foydali vazifalarini bajarishga ixtisoslashuvi chegarani va mulkni saqlash bo'yicha, yo'l va boshqa inshootlarni qurish, fuqaro va boshqalarni ijtimoiy himoya qilish yuklatilgan edi.

Davlat tabiatan fuqarolar va davlat apparatining hukmronlik vakolat sohasi o'rtasidagi munosabat ifoda etiladi. Fuqarolar davlatga o'zlarining huquqining bir qismini vakil qilib yuboradi. Hukmronlik munosabatlarini taqsimlash konstitutsiya bilan mustahkamlangan, bu o'z navbatida ijtimoiy shartnoma rolini o'ynagan va o'ynab kelmoqda.

Fuqarolar ixtiyoriy ravishda o'zlarining huquqidan rad qilishi mumkin, sababi ular ishonadiki, davlat o'ziga xos markazlashgan va ixtisoslashgan tashkilot sifatida ularning o'zlarini muvaffaqiyatli bir qator o'zaro harakatdagi vazifalarni ta'minlash bo'yicha amalga oshirishni uddalay oladi. Har bir fuqaro natijada o'zining resurslarini va kuchlarini o'zlarining huquqlarini mustaqil himoya qilishni yo'qotmasdan iqtisodiy nuqtai nazardan yutib chiqadi. Davlat ixtisoslashgan tashkilot sifatida kamroq sarf-xarajatlar bilan jamiyat vazifalarini bajarishi mumkin.

Shartnomali davlatga amalga oshirish uchun aniq sharoitlar talab qilinadi:

- davlat apparati o'zlarining vakolatlarini oshirib yubormaslik uchun davlatning va fuqarolarning konstitutsiyaviy mustahkamlangan huquqlarini

aniq taqsimlash;

- davlatdan tashqari mulkiy huquqlarni himoya qilish yo‘li alternativ imkoniyatlar – manfaatdor bo‘lmagan shaxs ishtirokida o‘tkaziladigan hakamga oid, oppozitsiya, jahon hamjamiyati va boshqalar;

- fuqaroli jamiyatning naqdligi, ya’ni fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni, o‘z-o‘zini boshqaruv institutlari, jamiyat tashkilotlari, mustaqil ekspertlar ta’sir orqali hal qilish.

Davlatning boshqa – **ekspluatatsiyaga oid turi** – bu o‘z fuqarolari ustidan zo‘ravonlik asosida soliqlarni yig‘ish, majburiy ishlatish natijasida o‘zlarining daromadlarini ko‘paytirishni ko‘zlash bilan mavjud bo‘lgan. Eksploatatsiyaga oid davlatning asosiy maqsadi o‘zlarining daromadlarini hatto umummilliy manfaatlar hisobiga o‘stirish bo‘lgan. Bunday turdagi davlatda davlat apparatining vazifasi cheklanmagan edi, aksincha, jamiyatda hamma vaqt kattaroq vakolatlarni bosib olish va kengaytirish ro‘y bergan. Masalan, o‘rta asrlarda davlat doimo fuqarolar manfaatiga emas, balki o‘zlarining manfaatini, daromadlarini ko‘paytirish harbiy mojarolarni chiqargan.

Amerikalik iqtisodchi Mansur Olson ekspluatatsiyaga oid davlatni aholining bir qism daromadlarini tortib olgan “o‘troq banditlar” bilan taqqoslagan. Anarhiya yoki vaziyat bilan taqqoslash bo‘yicha, davlat tizimi yo‘q bo‘lgan, masalan, “banditlar-gastralyor ucharlar” hukmronligida hokimiyatni qayta taqsimlash, bo‘lib olish bo‘yicha, ekspluatatsiyaga oid davlat ko‘proq samarali bo‘lgan, sababi u aholi daromadlarining hammasini emas, xo‘jalikni rag‘batlantirishga qoldirib, faqat bir qismini tortib olgan. Bundan tashqari, davlat “o‘troq-bandit” sifatida o‘zlarining bo‘ysundirilgan, qaram aholisini boshqa begona banditlar himoya qilgan. Ushbu hududdagi hokimiyat uchun hukmdorlar o‘rtasida kurash – hamma vaqt bularning bittasiga monopol hukmronlikka qaraganda o‘ta yomon aholi uchun variant bo‘lgan. Tarixda bunday jarayonlar feodal davridagi o‘zaro (ichki) urushlarda yaxshi ko‘ringan, bular kuchli markazlashgan davlatlar bilan taqqoslaganda mutlaqo samarasiz bo‘lgan.

Shunday qilib, davlatning shartnomaga oid nazariyasi ham, ekspluatatsiyaga oid nazariyasi ham davlatning vazifasi – o‘zining bo‘ysunganlariga mulkiy huquqlarning belgilanishi va qayta taqsimlanishi bir xildir. Bu ikkita modelning o‘rtasidagi farqi davlatning hukmronlik vazifalarini amalga oshirish usullarida hamda himoya qilish va tasniflash jarayonida kim qonuniy foyda oladi.

Shartnomaga oid davlat modelida huquqiy mulkni himoya qilish fuqarolar manfaati uchun amalga oshiriladi. Davlat faoliyati natijasida har bir alohida

insonning foydasi ko‘payadi, sababi kishilar o‘zlarining manfaatini himoya qilishda davlatni vakil qiladi. Davlat markazlashgan organ sifatida bu vazifalarni kamroq xrajat bilan bajaradi.

Davlat ekspluatatsiyaga oid modelida huquqiy mulkni himoya qilishda va taqsimlashda hukmron ijtimoiy guruhlar, klanlar manfaati uchun amalga oshiradi. Shunga muvofiq foyda yoki daromadlarni hukmronlikka monopoliya huquq va kuch qo‘llash uchun to‘lov sifatida hukmron guruhlar oladi.

### **Davlatning sintetik nazariyasi**

Davlatning shartnomaga oid va ekspluatatsiyaga oid modellarini birlashtirish yondashuviga oid yanada **sintetik nazariyasi** mavjud. Bu nazariyaning yaratuvchisi amerikalik iqtisodchi Duglas Nort bo‘lgan.

Sintetik nazariyaning mohiyati shundan iboratki, ya‘ni davlatning asosiy maqsadi hatto kuch qo‘llash yordamida daromadlarni maksimallashtirish yoki mamlakatda huquqiy mulkni samarasiz taqsimlashni o‘rnatish. Bundan tashqari, davlat aholining ixtiyoriy to‘lovlarini rag‘batlantirishga sharoit yaratishga imkoniyati boricha davlat jamiyatga faqat hamma uchun foydali “xizmat” sharoitini yaratishga intiladi. Bu ziddiyatlar vazifasini birlashtirish haqiqatan ham har qanday davlatda ro‘y beradi. Davlat o‘zining foydasini ko‘paytirishga intila turib, fuqarolar va ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining daromadlarini xufyona iqtisodiyotga yashirmasligi yoki umuman chet elga ketib qolmasligi uchun soliq yuklarini to‘g‘rilashga majbur.

Davlatning fe‘l-atvori uchun monopolistlarning narx-navo siyosatini kamsitishga qaratilgan strategiyasi xarakterli bo‘lib turadi. Buning mohiyati tovar va xizmatlarni har xil kategoriyadagi fuqarolar uchun har xil narxda realizatsiya qilishdan iborat. Davlat soliq yuklarini va huquqiy mulklarni jamiyatda tengsiz taqsimlashga moyil. Taqsimlashning mezoni aholi ijtimoiy guruhlarining “shartnomali kuchi” bo‘ladi, boshqacha aytganda bularga davlat hukumati harakatining nazorati ostidan “ketish” imkoniyatidir. Natijada sobiq SSSR tarkibidan chiqqan bir xil davlatlarda yuz bergandek davlat qoida bo‘yicha huquqiy mulkni jamiyatning barchasiga zarar keltirib ko‘pincha kuchli ijtimoiy guruhlariga taqsimlaydi.

Davlat ziddiyatli vazifalar bilan to‘qnashib, o‘zining daromadlarini saqlab qolishga moyil bo‘lib jamiyatda huquqiy mulkni samarasiz taqsimlashni belgilaydi, ya‘ni bu o‘z navbatida iqtisodiy o‘sishning o‘zlashishiga sabab bo‘ladi.

Tarixda shunday fakt bor, voqelarni ma‘qullaydi, ya‘ni siyosiy usullarning ko‘pchiligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishni cheklash bilan to‘qnashgan, sababi mulkiy huquqlarni samarasiz taqsimlash resurslarni noratsional foydalanishga olib kelgan.

Bu yerda shunday xulosa chiqarish mumkin, ya'ni institutsional nuqtai nazaridan mamlakatda siyosiy usullarni almashtirish uchta asosiy muammolarni hal qilish bilan bog'liq:

- davlat xazinasining daromadlarini maksimallashtirishga intilishi;
- huquqiy mulklarni har xil ijtimoiy guruhlarning shartnomali kuchlarini hisobga olish bilan taqsimlash;
- mamlakat resurslarini samarali foydalanishni ta'minlash.

### **Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish asosi sifatida.**

Mamlakat fani o'zining vazifasini iqtisodiyotning transformatsiyalashuv sharoitiga muvofiq institutsional nazariya maktabining pastulat prinsipini taraqqiy etishdan iborat.

O'zbekiston iqtisodiyot fani olimlari qoida bo'yicha neoinstitutsional pozitsiyalarning fikriga qo'shiladi, bu o'z navbatida mohiyati bo'yicha hozirgi zamon neoklassik jahon iqtisodiyot nazariyasining asosiy oqimlari munosabatlariga muxolif chiqishdir.

**Hozirgi zamon iqtisodiyot fani faqat bozor mexanizmining amaliy jihatining tor doirasi konsepsiyasini ko'rib chiqishdan voz kechish nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlash kerak.** Hozirgi zamon iqtisodiy haqiqati juda ham murakkab bo'lib qoldi. Iqtisodiy jarayonlari juda ham yaqin siyosiy, ijtimoiy, psixologik huquqiy jarayonlar bilan to'qishib, chatishib ketmoqda. XIX – XX asrlar davomida taklif qilingan metodologik yondashuvlar fanning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi, ammo mustaqillik davridagi hayot jiddiy o'zgardi va yangicha modernizatsiyalashgan, diversifikatsiyalashgan yondashuvlarni talab qilmoqda. O'zbekistonning iqtisodiy fikri neoinstitutsional maktablarning sekin-asta iqtisodiyot nazariyasining asosiy oqimlarini “ekonomik” izidan olib ketish bilan bog'liq intilish tendensiyalarini qo'llab-quvvatlamogda.

O'zbekiston iqtisodchi olimlarining anchagina qismi amerika iqtisodiyot fani xulosalari bilan birdamlik qiladi, ya'ni davlatning, barcha jamiyatning vazifalari avvalambor milliy iqtisodiyot tizimida aniq ishlaydigan huquqiy maydonni yaratishdan iborat. Hukumatning vazifasi – bu huquqiy maydonning ishga layoqatliligi, har xil institutlarda “o'yin qoidasiga” asoslangan iqtisodiyot sub'ektlari tomonidan amal qilishni ta'minlash, bevosita iqtisodiy jarayonlarga aralashishdan o'zini tutishni yaratish va nazorat qilishdan iboratdir.

Shunday jahon iqtisodiyot fanida mulkchilik parametriga berilgan ma'noli oqimda bugungi kunda O'zbekiston iqtisodchilari faol ishlamoqda. Mamlakat fanini jahonda shunday mulkchilik va huquqiy mulkchilik kabi asosiy nazariy masalalar sohasida erishgan yutuqlar bilan boyitish turibdi.

Transformatsiyalashgan iqtisodiyotning o'ziga xos sharoitlariga muvofiq kelajakda nazariy holatlar sohasidagi ma'lumotlarning rivojlanishi ham buyuk vazifadir.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, mulkchilik instituti yaqin kunlarga O'zbekiston aholisi tomonidan (hatto olimlar, iqtisodchilar ham) ko'pincha mutlaqo boshqacha qabul qilingan va tushunilgan edi. Uning tahlili faqat sinfiy pozitsiyadan amalga oshirilgan edi.

O'zbekiston iqtisodchilari Nobel mukofoti sovrindori (1986 yil) amerika institutsionalisti Dj.Byukenening bir qator yakuniy xulosalariga ham hurmat bilan qarashlari kerak. "Shunday yoki bunday siyosatchilarning foydasiga tanlov qila turib (ular orqali esa – ijrochi hokimiyat vakillariga ham)" –deb yozadi Dj.Byukenen. Aholi aholining har xil qatlamlarida mavjud bo'lgan manfaatlar va har qanday siyosatchi (davlat) shaxsning individual manfaati o'rtasidagi bor farqni tushunish kerak. Jamiyatga haqiqatni ko'ra bilmog'i ham kerak: siyosiy arbob saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlashni olish, uning imidjiga yordam uchun sarf-xarajatni ta'minlashga davlat budjetidan kerakli mablag'ni olishga intiladi. Sababi buni amalda hamma siyosatchilar qiladi, bunday holda moliyaviy ortiqcha sarf-xarajatning xavfliligi mavjud. Moliya vazirligiga parlament orqali tazyiq ko'rsatib, kerakli sarflarni talab qilish yo'li bilan **siyosatchilar muqarrar ravishda mamlakat iqtisodiyotiga inflyatsiyani tezlatadi.** Buning mantiqiy oqibati davlatning iqtisodiyot ustidan nazorat va tartibga solish choralarini qattiq qo'llik darajasini oshirish zaruriyati tug'iladi. Shunday qilib, natijada byurokratik yo'llar bilan boshqarishning o'sishini ifoda etadi.

Davlat avvalambor "o'yin qoidasi" orqasidan qarashi kerak, ya'ni institutsionalistlarning to'g'ridan-to'g'ri bostirib kirishiga yo'l qo'ymasligi to'g'risidagi xulosalariga to'liq rozi bo'lish mumkin. Ammo bunday holatlar XX asr davomida adolatli sharoitlar uchun qayerda huquqiy institutlar kerakli darajada shunday mamlakatlarda yaratilgan bo'lsa edi.

Hozirgi vaqtdagi sobiq sotsialistik tizim tarkibidan chiqqan mamlakatlarga vaziyatlarga e'tibor qaratsak shuni tan olmoq kerak: bizning mamlakatimizda davlatning vazifasi bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga ega bo'lgan mamlakatlarga qaraganda shubhasiz anchagina ko'lamlidir. Shu bilan bog'liq O'zbekiston iqtisodchi olimlari davlatning iqtisodiy siyosat nazariyasini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqoti katta e'tiborga ega bo'lishi kerak.

Qachonki ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurishlar modernizatsiyalash diversifikatsiyalash, transformatsiyalash yetarli darajada tez amalga oshirilayotgan sharoitlarida va shu bilan birga mamlakatning globallashuv



sharoitlarida raqobatbardoshlikni saqlab qolishga ulgurish O‘zbekiston hukumatining vazifasi o‘ziga xos o‘tkirlikka erishishdan iboratdir.

### **O‘zbekiston jamiyati oldida turgan vazifalar**

Ammo shunday faktni e‘tiborga olish kerakki, ya‘ni mamlakatda institutsional, iqtisodiy tartib muammolarini hal etish zarurligi iqtisodiy o‘shni adolatli ijtimoiy qayta taqsimlash mexanizmlarini ta‘minlash – bular O‘zbekiston hukumati oldida turgan yagona vazifalar emas. Davlat, hukumat ijtimoiy xizmatchilardan, ilmiy tadqiqot markazlaridan, olimlardan O‘zbekiston aholisi hayotining ma‘naviy sivilizatsiyalashgan asoslari sohasidagi aniq mukammallashgan tavsiyalarini kutmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston jamiyati oldida turgan global vazifa nafaqat kelajakda O‘zbekiston mentaliteti tajribasiga asoslangan tomonlaridan foydalanish, balki uning salbiy tomonlarini to‘zatish hamdir. Salbiy tomonlari esa aholining fuqaroli va mehnatga oid yetarli tarqatilgan ko‘rsatmalarining sustkashligi bilan bog‘liq (tashqi, qattiq ma‘muriy organlarga oid, ba‘zan o‘tgan zamonga ketgan tartib-intizomga nisbatan bo‘lgan jazolash stimuli, ichkisi esa hali uncha ro‘y bermagan raqobatni sezishga asoslangan).

Sobiq SSSRning siyosiy-iqtisodiy barbod bo‘lishi hamda yangi bozor munosabatlariga o‘tish vaqtida bir xil davlat-millatlarda (sobiq sotsializmdan chiqqan) yuz bergan sharoitda sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda past ish haqini aholining ancha-muncha qismida beparvolik saqlanganligi tezda o‘sgan edi, bu paradoksni barcha dunyo ko‘rdi.

O‘sha vaqtda **hozirgi zamondagi iqtisodiy ong sohasida ham anchagina muammolar** to‘planib qolgan edi. Albatta, bu sohaning evolyutsiyaviy rivojlanishi mumkin emas. Vaqt kutmaydi! Davlat (boshqa ijtimoiy institutlar kabi) aholining iqtisodiy savodini ko‘tarishga faol ravishda maqsadli yo‘nalish olib borishi shart. Nafaqat umum ma‘lumot olish muassasalar tizimini rivojlantirish yo‘li bilan, balki mohir usta, ishbilarmon choralar bilan ham.

Shunday haqiqatlar kelib chiqishi kerak: ya‘ni iqtisodiy, xalq xo‘jaligining umumiy rivojlanishi har bir yashovchi, istiqomat qiluvchilar moddiy boylik ro‘y berishini tushunmog‘i, hayotning xursandligini ko‘rishi bilan bog‘liq bo‘lib, avvalambor shaxs o‘z-o‘zining rivojlanish yo‘li bilan afzalroq, hechdan ko‘ra kech yaxshiroq, hech bo‘lmagandan kech bo‘lgani yaxshi degan buyuklikka erishishga intilmoq ham kerakdir.

Ta‘lim tizimini isloh qilishda iqtisodchilar XX asrning 60 yillarining boshida **inson kapitali** muammosini ilmiy tadqiqot qilishda qatnashadilar.

Bu nazariyaning asosiy g‘oyasi inson omiliga katta miqdorda kapital sarflashning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini dalillab berishi, ya‘ni

inson kapitali ostida ta'lim, kelajak mutaxassislarini tayyorlash, ijtimoiy dasturlar tushuniladi. "Inson kapitaliga investitsiya" tushunchasi kiritiladi, bu deganimiz ta'limga va daromadga ta'lim olish vaqtida ketgan bevosita pul xarajatlari yig'indisi kiritiladi.

Bu yerda inson kapitaliga umumiy hamda maxsus investitsiya kiritishini farqlanadi. Umumiy investitsiya ostida olingan bilimlar va malaka ko'nikmalar tushuniladi, ya'ni individlar keyinchalik har qanday ish joyida foydalanishi mumkin, shuning uchun bu sarf-xarajatlarni individlarning o'zlari ko'taradilar.

**Maxsus investitsiya** – bu qoida bo'yicha har qanday aniq firma, korxonalar, tashkilotlarning ishchilarini o'qitishga ketgan investitsiya bo'lib, ya'ni ushbu firmadan boshqa joyda foydalanmaslik uchun (masalan, ichki hujjat aylanmasi tartibi).

### **Ta'lim investitsiya sifatida**

Hozirgi vaqtda obro'ga ega inson kapitali, nazariyasi, ta'limni ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan mehnatning, samarali harakat qilishini oshirish maqsadida sarflangan investitsiya sifatida ko'rib chiqadi. Shuning uchun ham umumiy investitsiya sifati ostida, biz ta'lim olish vaqtida har qanday individning olgan bilimi, malakasi, ko'nikmasi bo'lib, keyinchalik individ har qanday joyda foydalanishi mumkin, shu sababli qo'yilmani individning o'zi to'lashi kerak.

Investitsiyaning o'ziga xos xususiyati bu – qoida bo'yicha har qanday aniq firmaning o'zi ishchining ta'lim olishi uchun qo'yilma investitsiya bo'lib, ya'ni u ushbu firmadan tashqari boshqa joyda foydalanishi mumkin emas bo'lgandi.

Inson kapitali ham mashina asbob-uskunalarga yoki yerga qo'yilgan investitsiya kabi trening dasturlariga oid, umumiy va maxsus ta'lim yoki hatto shaxsning integral rivojlanishiga sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan tadbirlar bozor iqtisodiyoti sub'ektlari tomonidan mutlaqo aniq kelajakda foyda olish maqsadida ko'zatiladi. Har qanday ta'limga investitsiya vositalarini yuborishga harakat qilayotgan kompaniya boshqa investitsiya loyihalarida qatnashayotganlar kabi, doimo bor alternativaga taqqoslab amalga oshiradi. Kompaniya o'zining hisobiga personallarni ta'lim olishga faqat shunday holatda yuborishi mumkin, agarda ta'limga qo'yilgan vositalardan kelajakda olinadigan foyda yuqori bo'lsa, masalan, resurslarni ancha katta foyda keltiradigan stanoklarga yo'naltirilgandek.

Bu yerda ta'lim xizmatining ikkita katta guruhi prinsipial farqlanadigan ahamiyatga aynan o'ziga xos xususiyatli va umumiy treningga oid. Ushbu ma'noda trening tushunchasi juda ham keng talqin etiladi, ya'ni bunga hatto

ko'p yillik oliy ta'lim dasturlari kiritilgan. O'ziga xos xususiyatga va umumiy treningga ajratilishi shunday bog'langan, ya'ni trening jarayonida band bo'lib olingan yangi bilim va malaka ushbu firmaning tashqarisida real bozorga oid qadriyatga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin.

Birinchi holatda o'zlarining bilimni oshirish bilan bandlar uni erkin bozorda "sotishi" mumkin bo'lmaydi (ya'ni firmadan tashqarida ish haqini o'zining olgan malakasiga loyiq). Sababi o'ziga xos xususiyatli trening bo'yicha malaka oshirish jarayoni juda ham kuchli bo'lib, faqat aniq firmaning talabiga xos, ya'ni uning tashqarida yoki hech kimga kerak emas yoki faqat o'zining alohida manfaatini tasavvur etadi.

O'ziga xos xususiyatli trening, masalan, yirik korporatsiyalarning har xil xizmatlarda birgalikda ilm olishi – ishlab chiqarishga oid hamda shartnomaga oid, personallarni boshqarishga oid, moliyaviy va boshqalar so'zsiz foydali. Ammo firmaning faqat ushbu tashkiliy tuzilishiga muvofiq qadriyatlarga ega. Ya'ni bundagi boshqaruv ishlarda qabul qilingan korporativ madaniyatlarga. Boshqa xarakterdagi firmalarda trening o'tgan ishchilar, o'ziga joy topadi, ammo ilm olish vaqtida olganini o'ziga xos xususiyatli malaka qo'llanmaydi. Shunga muvofiq qolgan boshqa kompaniyalar, ta'lim dasturlarini tashkillashtirilgan firmaning o'zidan boshqasi o'ziga xos xususiyatli treningni o'tganlarga yuqori darajadagi ish haqini taklif qilishga moyillik qilmaydi.

Aynan inson kapitaliga ushbu investitsiyaning har xilligi o'ziga xos xususiyatli trening-klassik kapitalizmning sof bozorli prinsipi yengil rivojlanishi mumkin. Ta'lim jarayonining asosiy sub'ektlarining ushbu holatdagi dalillari yetarli darajada bir-biriga o'xshaydi:

- bandlar ta'limga kelajakda ish haqining oshishiga va xizmat darajasining o'sishiga ishonchi bilan intiladilar;
- firmalar treningni mehnat omillaridan foydalanishi samarasini oshirish maqsadida to'laydilar;
- ta'lim muassasalari o'zlarining xizmatlarini tasavvur qiladi, sababi yetarli buyurtma beruvchilar bor bo'lib, u tayyor.

Umumiy trening aniq firma tashqarisida ishchiga qadriyatga ega bo'lgan, malaka beradigan ta'lim dasturlarini birlashtiradi. Shunday aytish mumkin, ya'ni firma o'zining yosh xodimini moliya akademiyasiga inqirozga qarshi kasbga ega bo'ladigan menejerni yuborishi mumkin. Ammo bunday vaziyatda imkoniyatli buyurtmachining (firmaning) ta'lim dasturini moliyalashtirish uchun dalil bo'lmaydi.

Agarda firma ta'lim olgan, o'rgangani uchun uning hisobiga kam ish haqi, uning ko'pchilik kursdoshlariga qaraganda belgilansa, u umuman bu ish

joyidan boshqa tashkilotga o'tib ketadi. Shunga muvofiq firmaning bu xodimi ketishi uchun qilgan harajatlari yo'qolib ketadi.

Agarda firma o'zining yosh mutaxassisi uchun oddiy ish haqi belgilasa, unda umuman nima uchun uning ta'lim olishi uchun pul sarf qilinadi. Axir o'rtacha bozor stavkasi bo'yicha tayyor mutaxassisni yaratish mumkin hech qanday qo'shimcha sarf-xarajatlarsiz va tavakkalchiliksiz. Shunday qilib, umumiy trening xarakterini olganlarga ta'lim xizmatini to'lash (aynan bunday xarakter oliy ta'lim uchun xos bo'lgan), odatda kompaniya uchun inson kapitaliga o'zini oqlamaydigan qo'yilma bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, kompaniyaning tayyorlangan mutaxassislar to'g'risidagi axborotlari juda ham cheklangan. U oliy ta'lim to'g'risidagi diplomning naqdligiga kiritiladi. Kompaniya yosh mutaxassislarning mutlaqo afzalligiga emas, faqat nisbatan afzalligi haqida baho berishi mumkin. U yoki bu mutaxassis qanday ishlaydi, uning mehnatining unumdorligi, qanday kompaniyada uning faoliyati boshlanguncha noaniq bo'ladi.

Shuning uchun tadbirkorning sarf-xarajatlari pasayishining asosiy omili bo'lib diplom "sifati" hisoblanadi. Bu yerda ham oliy ta'lim mutaxassislarning reyting kuchining farqlari chiqadi. Kompaniya mutaxassislarning sifatli tayyorligi haqida axborotlarning yetarli emasligining sababli hamda kelajak xodimlarning ta'lim olishi uchun, ayniqsa, xususiy ta'lim muassasalariga to'lashga tayyor emasligidir.

### **Ta'lim tizimini isloh qilish**

Ammo biz realist bo'lishimiz ham kerak: moliyalashtirish ta'limga faqat shunda yetib boradi, qachonki uning ahamiyati nazariy fizikaning o'z vaqtida atom bombasini yaratishdek shubhasiz ravshan bo'ladi. Bizning qarashimizcha, bu maqsadga erishishning asosiy yo'llaridan biri bizning oliy ta'lim tizimiga va undagi muammolarga keskin burilish kerak bo'ladi.

Ayniqsa, buni hatto tashqaridan qo'llab-quvvatlamasdan oliy maktablarning o'zlari amalga oshirishi mumkin. Ta'lim tizimiga juda ham moliyaviy resurslar yetishmaydi, haligacha byurokratik qo'llanmalar oliy maktablarning faoliyatini to'xtatib turmoqda, boshqa qiyinchiliklarni sanab o'tmaylik. Ammo o'quv jarayonining mazmunli tomoni faqat o'zimizga bog'liq.

Ta'kidlash kerakki, ya'ni biz hech qachon millatchilik ruhidagi ta'limga chaqirmaymiz. G'arbdagi va slavyanparastlik, asrlar davomida olimlarni hamda pedagoglarni ikkita lagerga ajratish, ochiq ravishda o'zini yo'qotgan. Shu bilan birga, o'z ehtiyojini yetarli darajada qondirib boshqalardan ajraganlar kabi bo'sag'adan turib boshqa mamlakatlarning tajribasini rad etib va o'z mamlakatining barcha haqiqatini murakkablashishini begonalar ostida,

chet elliklarga oid standartlarga moslashishga intilish ham bir xil kontur unumlidir.

Bu ikkita yondashuvning mahkamligini bilish uchun uzoqqa borishning hojati yo‘q. Agarda sobiq SSSRning turg‘unlikka tushgan davrida Yugoslaviya, Vengriya, Polsha va boshqa sobiq sotsialistik davlatlarda bozor islohotlarini o‘ylamasdan tanqid qilishga o‘tganlarni eslab o‘tadigan bo‘lsak, benuqson faqat bitta SSSR to‘g‘ri iqtisodiy siyosat olib borishi mumkindek.

Mamlakat rahbari o‘zining takabbur manmanligi bilan o‘shanda tarixiy imkoniyatni boy bermasdan islohotlarni tadrijiy yo‘nalishiga ko‘proq ishonch bilan hamda asosan aholi uchun kamroq qiynalmaydigan yo‘l bilan olib borish kerak edi. Aynan shuni hozirgi vaqtda Xitoy namoyish qilmoqda.

Bizning chuqur ishonishimizcha fan va ta‘limning vazifasi shundan iboratki, mamlakatda shunday axloqiy-psixologik sharoit yaratish kerakki, ya‘ni "g‘arbiy" va "slavyanparastlik" ekstremizmga teng to‘g‘ri kelmaydigan qilish kerak. Hozirgi vaqtda ta‘limning yuzini O‘zbekistonga qaratmoq kerak, demak, bizning qarashimizcha jahon fanida erishilgan yutuqlarning katta salohiyatidan foydalanmoq kerak. Ayniqsa bu vazifalar juda ham muhimki, sababi quvib kelayotgan iqtisodiy o‘shish modeli ko‘pgina davlatlardan farqi hozirgi O‘zbekiston shunday omillarga egaki, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda ularning iqtisodiy yuksalish vaqtida bular yo‘q edi. Bu juda ham quvvatli ishlab chiqarish salohiyati va katta resursdir. Yana bu aholining yuksak umumiy darajasidir. Aynan, ta‘lim sohasidagi katta ishonchga ijizat beradi, ya‘ni navbatdagi O‘zbekistonning iqtisodiyotdagi modernizatsiya sikli quvib kelayotgan rivojlanish bilan chegaralanmaydi, balki mamlakatni oldingi qatorlarda o‘shib ketayotganlar darajasiga chiqaradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining bozor sharoitida moliyalashtirishga o‘tishi katta keskinlik bilan davlatning oliy ta‘lim tizimini isloh qilishgacha bo‘lgan muammolarini ko‘tardi.

Vaziyat: ta‘limni moliyalashtirish muammolarini imkoniyati boricha hal qilish yo‘lini topish kerak bo‘ladi.

Davlatning oliy ta‘lim tizimini isloh qilish jarayonida oliy ta‘limni bozor sharoitida moliyalashtirish muammolari juda ham keskin bo‘lib turmoqda. Ta‘lim xizmatini moliyalashtirish va imkoniyati boricha variantlarni tanlab olish, ayniqsa ma‘lum bo‘lgan loyihalar taklif qilingan edi:

1. Davlat oliy o‘quv yurtlari mutaxassislarni qat‘iyat bilan pirovard "iste‘molchilar" tomonidan "buyurtma ostida" va ular to‘lagan to‘lovlar asosida tayyorlash (bunday sxemada ta‘lim uchun xususiy va davlat korxonasi hamda tashkilotlar to‘laydigan, qanday ta‘lim to‘g‘ri sifati, vaqti, mutaxassislar bo‘yicha tanlov huquqi ularga tegishlidir).

2. Ta'limni batafsil hissadorlash, keyinchalik talabalarga ta'lim xizmatini ko'rsatishni faqat shartnoma asosida qilish kerak.

3. Haqiqatan ham davlat va xususiy oliy ta'lim o'rtasidagi farqning yo'qotilishi abituriyentlarga davlat yordamida ajratilgan vositalar bo'lsa kerak (bunday sxemada to'lovlar batafsil yoki qisman davlat amalga oshiradi, ammo tanlab olish huquqi xususiy shaxsga tegishlidir).

Endi bu variantlardan qaysi biri ko'proq asoslanganligini ko'rib chiqamiz.

Inson kapitali nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda quyidagi ziddiyat ro'y beradi: bu yerda so'zsiz personallar umumiy treningi korxonasi, firmalarga ham butunlay xalq xo'jaligiga ham kerak, ammo buni ish bajaruvchilarga yo'llash foydasiz bo'ladi. Albatta, bunday holatda ikkinchi benefits hisobiga hal bo'lishi kerak, ya'ni ta'lim jarayonini olib boruvchi o'qituvchining o'zi to'lashi kerak.

Kompyuter kursini o'qib o'tgan (umumiy treningga o'xshagan), kelajakda yoki o'zining korxonasida, yoki uning tashqarisida ish haqining oshishiga ishongan ishchi, agarda o'zining korxonasida uni erishilgan darajada baholamasa.

Shuning uchun, albatta o'zining olgan bilimi uchun o'zi to'lashini kutish kerak. Lekin oliy ta'limga bunday moliyalashtirish mexanizmini qo'llash mumkin emas, aholining ko'pchilik qismiga ham bunday holat to'g'ri kelmaydi. Buning sababi oliy ta'lim qiymatining kattaligida. Buni to'liq besh yil ichida to'lash hamda buning ustiga bo'lmasdan normal ish vaqtiga ega qo'shimcha o'zining mavjudlik hayotini mavjudlik qo'llab-quvvatlash faqat bu juda yaxshi ta'minlangan oiladagilarning bolalari uchun mumkin.

Bunday muammolar hatto eng boy mamlakatlar uchun ham juda keskindir. Buni hal qilish uchun yetarli darajada murakkab hamda bunday moliya samarasi katta boshlang'ich kapital talab qilinadi. Misol, AQSh ko'pchilik nufo'zli universitetlarning talabalari o'zlarining oliy o'quv yurtlaridan uzoq (10-15 yilga) vaqtga ta'limga to'lash uchun kredit oladilar, ta'limni tamom qilganlaridan keyin o'zlarining ish haqi hisobidan to'laydilar (eng yaxshi oliy yurtlarini bitirib chiqqanlarning ne'matlari juda ham yuqori). O'zbekiston uchun ko'pchilik aholining yashash darajasi pastligi hamda iqtisodiyot kon'yunkturasining beqarorligi talabalarning oliy ta'lim qiymatini o'zlari to'lash yo'li mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Mamlakatda hatto bitta moliyaviy tashkilot yo'qki xususiy shaxslarga 10-15 yilga kelajakda daromadning ishonchli ta'minlanganligi ostida kredit berishga ishonadigan. Agar izchil ravitmda oliy ta'lim talabalarning o'zlari hisobidan to'laydigan bo'lsa, unda oliy o'quv yurtlarini bitirib chiquvchilarning soni oligarxlarning bolalarining sonidan ko'p bo'lmaydi (agar ular o'zlarining bolalarini chet elga

o‘qishga yubormasa).

Albatta, kelajakda mamlakatda yashash darajasi sezilarli o‘sadi. Ammo kishilarning daromadlarining oshishiga qaramasdan, oliy ta’limni batafsil to‘lov asosiga o‘tkazish barcha uchun bunday ta’lim olish mumkin bo‘lmaydi. Har qanday ijtimoiy oliy ta’limning sarf-xarajatlar tizimi juda ko‘p moliyaviy moddalarni va bilimlarni o‘z ichiga oladi. Bu yerda misol sifatida hozirgi vaqtdagi o‘qituvchi-professorlarning ish haqi darajasini olish mumkin, ya’ni bu bularning hech qanday klassifikatsiya malakasiga to‘g‘ri kelmaydi.

Aholining daromadlari bilan normallashtirish vaziyatlari hech kanday shubhasiz oliy ta’lim ishchilarining ish haqiga daxl qilmog‘i shart. Shunday qilib, aholi daromadlarining oshishi bilan birga oliy ta’limning qiymati ham oshadi, demak bu deganimiz, u aholining aksariyat qismi uchun nomutanosib bo‘ladi.

Shunday qilib, ma’lum bo‘lishicha kelajakda oliy ta’lim qiymatining ko‘pchilik qismini bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat ixtiyorida qoldirish kerak.

Shunday qilib ta’limning nafaqat milliy iqtisodiyotning rivojlanishidagi ahamiyatiga, balki uning milliy madaniyat, milliy mentalitetning va sportning rivojlanishida ham katta ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonda 2015 yil 1 apreldan 9 aprelgacha birinchi marotaba qilichbozlik (fextovaniya) bo‘yicha jahon birinchiligi musobaqasi o‘tkazildi. Unda jahonning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilar qatnashdilar.

Shu bilan birga bizning o‘zbek millatimizning vakillari qayerda yurmasin, qaysi mamlakatning fuqarosi bo‘lmasin, albatta o‘zbek davlatining taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shadi va shu bilan o‘zining milliy an‘anasini saqlab qolishga harakat qiladi.

**Xulosa: O‘zbekiston uchun iqtisodiyot fanida milliy g‘oya nimalardan iborat bo‘lishi kerak?**

Bizning mamlakatimiz ikki ming yillikning va asrlarning to‘qnashishida juda ham murakkab, ammo juda ham qiziqarli vaqtda yashamoqda. O‘zbekiston jamiyati navbatdagi o‘zining kelajakka yaxshi yo‘lni tanlab olmoqda. O‘tgan tanlovlar (1917-1924 yillardagi, ammo ungacha ham) halokatli, fojiviy ishonchsiz, asossiz bo‘lgan edi, shuning uchun bu safar adashmaslik, yanglishmaslik juda ham muhimdir.

Izlanishning mohiyati nimadan iborat?

Ko‘pchilik adolatli ravishda o‘ylaydiki, shunday qiziqarli, ma’noli bo‘lgan atama milliy g‘oyani jamiyat aniqlashi, o‘zlashtirishi kerak va buning asosida nima bor, ya’ni o‘zbekistonliklarni birgalikda katta va murakkab ishlarni ma’naviy-axloqiy boshlanishini ruhlantirmoq, ilxomlantirish va

mustahkam birlashtiruvdan vatanning ravnaq topishi, tinchlik va xotirjamlikdan Shavkat Mirziyoyevdek jonkuyar, haqiqiy O‘zbekistonda barcha iqtisodiy demokratik davlat tuzilishini isloh qilish, modernizatsiya, diversifikatsiya qilish bo‘yicha buyuk ishlarning ilmiy asoschisi bo‘lgan rahbar rahbarligi menga vatan nima berdi deb emas, men o‘zim halqim, vatanim uchun nima qilmoqdaman deb yashash kerak.

Har bir xalq hayotining g‘oyaviy ma‘nosi bo‘lishi shart. Haqiqatan ham, insoniyatning oxirgi ming yillikda shunga ko‘ra homo sapiens sinfiga kiritadilar, ya‘ni u ma‘noli. Ongli ravishda yashamoqda. Montening aytishicha, “Jonzot oldindan biroq ko‘rsatilgan maqsadga ega bo‘lmasa – u halokatga duchor bo‘ladi”. Axir hattoki yo‘l-transport hodisalaridan saqlanish uchun yayov yuruvchi va haydovchilar juda yaxshi shaxsiy xavfsizlik aniq yo‘l qoidalariga rioya qilishlarida kafolat g‘oyasini bilishlari zarurdir. Ayniqsa hayotning umumiy ma‘nosi muhim yoki butun millatning rivojlanishi uchun dunyo miqyosidagi g‘oyadir. Bunday g‘oyalar millionlab fikri, tafakkurlarni, maqsadlarni bir nuqtaga yig‘ishga ijozat beradi, bulardan kuchli, yagona intilgan oqim va ishlarni yaratishdir.

Ko‘pchilik mualliflar millatlarning g‘oyaviy yuksaklik samaradorliklarini ko‘rsatadi. Shunday qilib, donishmandlar alohida e‘tibor bergan, ya‘ni xalqning haqiqiy tarixi faqat shu kundan boshlanishi mumkinki, qachonki millat umumma‘noli yo‘l ko‘rsatadigan g‘oyalar bilan sug‘orilgan, ma‘naviy an‘ana, qaysiki u asrlardan asrlarga amalga oshirishga va rivojlantirishga chaqirsa, o‘zining tarixiy o‘zluksiz va sezilarli taraqqiyotini ta‘minlab bersa, har qanday yangi avlod garchi pog‘ona, lekin ma‘naviy tepaga ko‘tarilishi shart. Ilohiy kitoblarda “mening orqamdan mendan tezroq keluvchilar” aytilgandek.

### **Millat uchun g‘oya – kuchli davlatchilik g‘oyasi**

Sobiq SSSR vaqtida (o‘sha vaqtdagi) bizning mamlakatimizning taqdiri to‘g‘risida fikr yurituvchi bir qator mualliflar, ya‘ni milliy g‘oya uning fuqarolari uchun kuchli davlatning va qudratli buyuk saltanatlarni yaratish, uning kuchi bilan dunyoning davlatlari hisoblashsa deb taxmin qilgan. Bunday g‘oyaviy ko‘rsatkichlar oqibitida “Davlatchilik” va “Saltanatchilik” ko‘p avlodlarining aql-idrokini buzadi. Ajab emas, ammo ular jamiyatning taraqqiyotini ta‘minlash bo‘yicha rejasida unumdorlik bo‘lar ekanmi? Hamda bizning tariximizda uni hayotga tatbiq qiladigan tajriba bo‘lganmikan? Va boshqa ko‘rsatkichlarda biz Rossiyani ko‘proq ko‘rsatamiz.

Aynan saltanatni-davlatchilik g‘oyalari deyarli hamma vaqt Rossiya va O‘zbekistonning o‘tgan davrlarida shaxsiyatparastlik g‘oyalar ustidan ko‘tarilishi ustunlik qilgan. Rossiyaning o‘tgan davrlaridagi vatandoshi



Chadayev “Bizning solnomalarimizga qarang boshidan oxirigacha – siz bunda har bir beshta hokimlikning chuqur ta’sirini topasiz va qariyb hech qachon jamoat idorasiga oid aktivlikni uchratmaysiz” deb chaqirgan. Rossiyaning barcha qudratini, uning yerining kattaligi va boyligi va quvvatli hukmdorlar idorasi aniqlaydi; xalqning buyukligi – faqat uning cheksiz itoat qilishi, bo‘ysunishi bo‘lgan.

Demak, “qudratli davlat” ning kuchi g‘oyasiz, idorasiz va bo‘yin egish (g‘oyasizlik, g‘oyaviy jihatdan bo‘shliq) haqida ekanda – mana bizning tariximizning asosiy yo‘llari. Xususan, bir o‘sha vaqtdagi bir qancha mualliflar guvohlik qiladi (1939 yil), ya’ni mamlakatda “hamma joyda va hamma vaqt savodsizlik, noqonuniylik, talash, ozish, faqirlik, tartibga solinmaganlik, ma’rifatdan mahrum va jinsiy yoki shaxvoniy buzuvchilik” va doimo bir necha oligarxlar o‘zining shaxsiy foydasi uchun mamlakatning ishlarini va taqdirilarini qo‘lida mug‘ombirlik qilib aylantirgan, ammo xalq bilan do‘st bo‘lgan hokimiyat hech qachon bo‘lmagan.

Shunday qilib har bir mamlakatda ikkita ijtimoiy kuchlar (soha) mavjud; davlatning hukmronlik kuchi va erkin o‘zaro harakat qiluvchi, tashabbuskor kishilarning kuchi-fuqarolik jamiyati. Ular qarama-qarshi o‘zaro bog‘langan aloqalardir; davlat qanchalik kuchli bo‘lsa, shunchalik jamiyat kuchsiz va aksincha. Nimaga? Kuchli davlat muqarrar ravishda xalqni bosadi, uni erkinligini ola turib va uni kuchsiz va o‘ziga qaram qiladi. Kuchli jamiyat esa davlatni kerakli joyga o‘tqazadi. O‘zbekiston tajribasida hozirgi vaqtda mamlakatning ravnaq topishi uchun juda ham kuchli fuqaroli jamiyatiga o‘tish zarur bo‘lmoqda, ya’ni mustaqil, faol, mehnatsevar, uddaburon, korchalon, o‘ziga va mas’uliyatni o‘z bo‘yniga oladigan va erkin harakat qiladigan kuchli fuqarolar bo‘lishi talab qilinmoqda (kuchli shaxs).

Georg Vilgelm Fridix Gegel shunday fikr yurgizgan ekan, ya’ni davlatning haqiqiy qudrati – kishilarning mustaqilligida va har birining batafsil ijodiy qobiliyatining ochilishida. Axir “davlatning maqsadi o‘zining fuqarolarining baxtli yashashi bo‘lib hisoblanadi” va agarda fuqarolar yomon, faqir yashayotgan bo‘lsa, agarda ularning manfaati va erkinligi cheklangan bo‘lsa va hukumat majburlash bilan suiiste’mol qilsa, unda bu demak, ushbu davlat “o‘zining kuchsiz bo‘sh oyog‘ida turadi” deb aytgan.

Shuning uchun ham donishmand kuchli davlat rahbari amaldor, mansabdor, chinovniklarga oid urushlarni, janjallarni minimallashtiradi, haddan oshib ketgan byurokratlar “Tartibga to‘g‘rilab ko‘payadi va o‘zining qo‘l ostidagilarning axloqiy tozaligi haqida tashvishlanadi, g‘amxo‘rlik qiladi. Podshoh Salomonning ibratli so‘zlarining agarda hokimiyatning kishilari axloq-odobsiz bo‘lsa, unda hamma joyda gunoh, yoziqlik bo‘ladi” deb xatira

qiladi. Bir vaqtda u erkinlikni fuqarolarning mustaqilligini va ularning huquqini qo'llab-quvvatlaydi. O'zi esa o'zgarimasdan Podshoh derjavin oq uyidan boradi: "O'zining podshohlik kuch his-tuyg'u, ehtirosingda bo'lgin, inson taxtda bo'lgin" deydi.

Milliy g'oyaga qaytadigan bo'lsak, bu yerda ayniqsa shuni aytish kerakki, u juda ham hajmli va ko'p qirrali. Bu o'z navbatida inson sifatini va prinsiplarini, har bir millatning va shohning rivojlanishini va ko'tarinkiligini jiddiyliги bo'yicha, bir butun majmualı samaralı g'oyalardır. G'oyalarning alohida elementlarini hatto latifalarda, anekdotlarda ko'rish mumkin. Masalan, mashhur inglizcha gazon, maysazor to'g'risidagi anekdotda; "Buyuk Britaniyalikdan so'raydi, - qanday qilib Sizlarda shunday juda yaxshi bo'lib o'smoqda" deb so'raganda, "Juda ham oddiy yo'l bilan – biz uni sug'oramiz va kesamiz, sug'oramiz kesamiz. Shunday ikki yuz yil davom etkazamiz" deb javob beradi britaniyalik.

Iqtisodiyot hayot sohasida harakat qiluvchi g'oyalarni asosan kishilarning ehtiyoji orasida qidirish kerak. Ko'pchilik uchun bu – yaxshi ta'lim va qiziqarli ish, shaxsiy muvaffaqiyat va jamiyatning tan olishda, oilaviy farovon hayot, eson-omonlik, tinchlik, qulaylik. Ammo bozor munosabatlari sharoitida bularning barchasini tan olish uchun faqat kuch va faoliyat tufayli erishish mumkin, unda millat uchun iqtisodiy g'oya shunday foydali (nafilı) va ijodiy ishga xohishi, har bir shaxs uchun g'ayratli va unumdorli mehnat zarurligini ko'rib chiqmasdan mumkin emas.

Hozirgi vaqtda har qanday millatning moddiy va ma'naviy rivojlanish doirasida ancha ko'p bahslashmoq, tortishuvlar bo'lib turadi. Nima birlamchi. Shartli ravishda gapirganda; oziq-ovqat do'koni yoki teatrmi? Iqtisodiyot fanining nuqtai nazaridan gapiradigan bo'lsak, bari bir iqtisodiyot ma'naviy tomonga qaraganda insoniyat hayotida birinchi, muhimliroqdir; o'z navbatida insonning jismoniy mavjudligini ta'minlaydi, hatto ushbu ma'naviy hayot uchun ham moddiy sharoit yaratadi. Agar u inson och bo'lsa yoki boshpanasi bo'lmasa, bari bir u inson "teatr yoki boshqa ma'naviy tomonlargacha bo'lmay qoladi. Ushbu muammolarga iqtisodiy adabiyotlarda har xil yondashuvlar keltirilgan". Qashshoqlik, kambag'allik darajasi, himoyalalmagan moddiy qiynalغانlar bor, buning oldida barcha madaniyat haqidagi barcha fikrlar, savollar indamasdan turishi shart. Och odamning qo'lida non muqaddas bo'lib turadi. Har qanday holatda xalq qayerda yarim ochlik mavjudligini olib borayotgan bo'lsa, eng kerakli narsalardan ajralgan bo'lsa, faqat quriq, olifta, o'zini oliy darajada madaniyatli deb hisoblovchi kishi, xudbin iqtisodiyotdan pishqirib ketishi mumkin.

Shu bilan birga sezilarli darajada qachonki “zaruriy ehtiyojlar” ta’minlangan bo’lsa, kishilar hayotining ma’naviy tomoni birinchi rejaga chiqadi. Bari bir “non madaniyatning muqaddas ramzi bo’lishi mumkin, kamfort, dabdabali hayot hech qachon”.

Yana agarda, to’satdan, qandaydir mamlakatning hayot mazmunidan jamg’arilgan moddiy boyligi bo’lib hisoblansa, unda bu deganimiz “mamlakat insoniyat uchun yo’qolgan” va ya’ni uning xalqi “Bekor o’zining ajoyib yerini iflos qiladi” (u iflos qilmasligi ham mumkin).

Shunday qilib, bugungi kunda eng yaratuvchan va birlashtiruvchi g’oyalardan biri – bu har bir odamning, oilasining moddiy va ma’naviy eson-omonligi, tinchligi uning mamlakat miqyosida shaxsiy ravnaq topishdir, O’zbekiston aholisining tinchligi, eson-omonligi, birga umum birlashganligi O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shaxsan rahbarligida umumiy eson-omonligi xamdir. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish – milliy mafkuraning bosh g’oyasi bo’lib, millatimizning azaliy orzu umidlari, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatining ma’no-mazmunini ifodalaydi.

## **Mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida klassifikatsiyasi**

### **1. Jahon mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha ko'rsatkichlari**

Yer yuzidagi mamlakatlar miqdori doimo ko'paymoqda. Agarda XX asrning boshida 50 ta mamlakatdan ko'p bo'lmagan bo'lsa, unda XXI asrning boshlarida jahon iqtisodining sub'ektlari har xil baholash bo'yicha 220 tadan 230 gacha o'zgarib turmoqda (bir qator mamlakatlar o'ziga xos suverenitetga ega emas yoki ularning suvereniteti noaniq). BMTning a'zolari 193 davlatni tashkil etadi.

Ularning orasida egallab turgan maydoni bo'yicha juda ham katta davlatlar (Rossiya, Xitoy, Hindiston, AQSh, Braziliya) va juda ham kichik mamlakatlar (Andora, Lixtenshteyn, Monako) kabilar mavjud. Jahonda tabiiy resurslarga boy mamlakatlar (Rossiya, Kanada, Saudiya Arabistoni) va shunday bo'lmagan (Yaponiya) kabi mamlakat ham mavjud. Jahonda bir millatli davlat (Yaponiya, Shvetsiya) va ko'p millatli (Hindiston, Rossiya, AQSh, O'zbekiston, Nigeriya) kabi mamlakatlar tasavvur etilgan. Shu bilan birga shunday dengizga yaxshi chiqadigan, dengiz qirg'og'i uzoq mamlakatlar (Kanada, AQSh, Rossiya, Fransiya) kabi mamlakatlar bor, umuman dengizga chiqishdan mahrum (Mongoliya, Chad, Nepal, Mali, O'zbekiston, Niger) kabi mamlakatlar ham bor. Bir qancha davlatlar butunlay kontinentni egallab turgan mamlakatlar (Avstraliya), yana orolni yoki bir guruh orollarni egallab turgan (Malta, Nauru) kabilar ham mavjud. Jahonda mehnat resurslariga boy va aholining salbiy o'sishiga, mehnat resurslari taqchilligini sezayotgan mamlakatlar ham mavjud. Iqtisodiy-geografik xolati uning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan muqarrar ravishda aks ettiriladi.

Iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar va mezonlardan foydalaniladi:

- mutlaqo va nisbiy YaIM;
- YaMD va aholi jon boshiga daromadlar;
- milliy iqtisodiyotning tarmoqli tuzilishi;
- jon boshiga maxsulotlarning asosiy turlarini ishlab chiqarish;
- mamlakatning eksport va import strukturasi;
- aholi xayotining darajasi va sifati;
- iqtisodiy samara ko'rsatkichlari va boshqalar.

Rivojlanish darajasi xo'jalikning industriyalashgan darajasini hamda (ishlab chiqarishni mashinalashgan asosga o'tkazish) asosiy o'sish sharoiti bo'lgan milliy daromadning ishlab chiqarish strukturasi o'z ichiga oladi.

Hozirgi davrdagi industrializatsiyalash oldingi texnikaviy surilishlar kabi mujassamlashgan mehnatni katta tejashni beradigan axborotlashuv texnikasi va texnologiyalarini keng foydalanishni xarakterlaydi.

**Sanoat ishlab chiqarish strukturasi** ishlab chiqarish vositalaridan va iste'mol predmetlaridan iborat. Industriyalashgan mamlakatlarda asosiy o'rinni uzoq vaqtga foydalaniladigan iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish egallaydi, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol predmetlari darajasi esa taxminan barobar. Iqtisodiy rivojlanish darajasini ko'tarish bo'yicha xom-ashyo va energiyalarning sarf-xarajatlari qisqarmoqda va ashyoviy xom-ashyolar o'rniga butunlay katta darajada asosan yangicha kimyoviy turdagi sanoat materiallari foydalanilmoqda.

Jahondagi har xil mamlakatlarning tabiiy resurslarga nisbatan bir xil bo'lmagan "omad keldi": bir xillariga boshidan hosildorlik yerlar bilan bo'lib berilgan bo'lib, boshqalariga esa yerni sun'iy ravishda yaxshilash uchun katta sarf-xarajatlarga tushish to'g'ri kelmoqda; bir xillarining hududlarida mineral yoqilg'ilarning katta zaxirasi (neft, gaz, ko'mir kabilar) bo'lib, boshqalari esa chet el mamlakatlaridan olib kelishga majbur bo'lmoqda. Tarixan tabiiy resurslarga boyligi yoki uning yo'qligiga jahon mamlakatlarining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Ammo bir hisobdan bu hal qiluvchi omil bo'lmadi. Masalan, bugungi kunda shunday boy Yaponiya yoki Janubiy Koreya kabi mamlakatlarni oladigan bo'lsak, bu mamlakatlarning nisbatan yuqori darajada iqtisodiy rivojlanishi ularga ularning tarixan ixtiyorida bo'lgan cheklangan tabiiy resurslarini anchagina samarali foydalanishga ijozat bermoqda.

Aynan ishlab chiqarish resurslardan samarali foydalanish – nafaqat tabiiy, balki "insoniyatga" ham, inson ishlab chiqarganiga ham yoki hozirgi vaqtda aytishimizcha tabiiy ishlab chiqarilgan va inson kapitallari – bugungi kunda haqiqatdan ham har xil mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasining mezoni bo'lib hisoblanmoqda.

Ochiq aytganda, jahondagi qaysi mamlakatlardan ko'proq iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritishni aniqlash uchun mutaxassislar har xil mamlakatlarning iqtisodiyotini samarali baholashlari kerak edi. Ammo amaliyotda bunday hisob-kitoblar juda ham noaniq bo'lar edi. Sababi haligacha dunyodagi tabiiy resurslarning katta qismi hisob-kitob qilinmagan. Juda ham jahondagi har xil mamlakatlarning inson kapitalini baholashi ham taxminan bo'lmoqda. Shuning uchun har xil mamlakatlarning rivojlanish darajasini taqqoslash uchun iqtisodchilar hamma vaqt yalpi milliy mahsulotning (YaMM) aholi jon boshiga yoki yalpi milliy mahsulotning (YaMM, hozirda YaMD – yalpi milliy daromad) aholining jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkilardan foydalanar edilar. Iqtisodiyot samaradorligi

ko'rsatkichi bilan taqqoslaganda YaMM yoki YaMD aholi jon boshiga hisob-kitob qilish yengilroq bo'ladi. Shu bilan birga bu ko'rsatkichlar, birinchidan, har xil mamlakatlarda kapitalni samarali foydalanish to'g'risida tasavvur etish chuqurroq bo'ladi; ikkinchidan, qo'shimcha manfaat o'rtacha darajada moddiy farovonlik yoki "hayot darajasi" ko'rsatkichi sifatida tasavvur etadi, bu farovonlik har xil mamlakatlar fuqarolarining hayoti boy tabiiy resurslarga egalikda yoki ulardan ko'proq yuqori samarali foydalanishga qaramasdan kelib chiqadimi.

XX asrning 90 yillaridan boshlab YaIM va YaMM (YaMD) BMTning metodikasi tufayli milliy valyutaning sotib olish qobiliyati tengligi (SKT) asosida hisob-kitob qilinadi. Sotib olish qobiliyati tengligi nazariyasi Shved olimi Gustav Kassel tomonidan 1916 yilda yaratilgan edi. Sotib olish qobiliyati tengligi (inglizcha purchasina power parey, PPP) – ushbu mamlakatning pul birligining miqdori shu mamlakatning bozorida shunday miqdorda sotib olish uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarga teng bo'lib, u o'z navbatida AQSh bozorida 1 dollarga sotib olish mumkin bo'lgan miqdorga teng bo'lishi kerak.

Mamlakatning YaMM (YaMD) agarda mamlakatda olinadigan daromadlarning ko'proq qismi undan chet el firmalari yoki fuqarolari olib chiqib ketadigan YaMMga qaraganda jiddiy kam bo'lishi mumkin. Aksincha, agarda ushbu mamlakat fuqarolari qimmat baholi qog'ozga (aksiya, obligatsiya) esa bo'lsa, chet el kompaniyalari va hukumat o'sha bo'yicha daromad oladigan bo'lsa, unda YaMM, YaIMga qaraganda ko'p bo'lishi mumkin. Ammo ko'pchilik mamlakatlar uchun YaIM va YaMD unga ko'p bo'lmagan holda farq qilsa ko'pincha o'zaro almashiladi deb hisoblanadi.

Sababi, qoida bo'yicha kambag'al mamlakatlarda narxning o'rtacha darajasi boy mamlakatlarga qaraganda past bo'ladi, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda sotib olish qobiliyati tengligi (SKT) bo'yicha baholangan YaIM odatda, ular o'zlarining mavjud valyuta kursi bo'yicha o'tkazilgan dollarda YaIMga qaraganda yuqori bo'ladi.

#### **Jadval 1.**

#### **Nominal YaIM SQT bo'yicha YaIM bilan taqqoslash (SQT bo'yicha YaIMning ortib ketishi 2010 y.)**

No p/p	Mamlakat	YaIM (mlrd doll. SShA)	YaIM (SQT, mlrd doll. SShA)
1	Xitoy	5878,6	10000,9
2	Rossiya Federatsiyasi	1479,8	2223,0
3	Tailand	318,8	586,9
4	Argentina	368,7	596,0
5	Jazoir	159,4	251,1

6	Chili	203,4	257,9
7	Indoneziya	706,5	1000,3

Rivojlangan mamlakatlar uchun aksincha, SQT bo'yicha baholangan YaIM qandaydir darajada kamaytirilgandek ko'rinadi (jadval 1). Natijada SQT bo'yicha baholanishni foydalanishda boy va kambag'al mamlakatlarda jon boshiga daromadlar darajasi o'rtasidagi farqi odatda taqqoslangan metodlarga qaraganda kamroq bo'lar ekan.

**Jadval 2.**

**Nominal YaIM SQT bo'yicha YaIM bilan taqqoslash (YaIM SQT bo'yicha kamayishi 2010 y.)**

No p/p	Mamlakat	YaIM (mlrd doll. AQSh)	YaIM (SQT, mlrd doll. AQSh)
1	AQSh	14582,4	14660,6
2	Yaponiya	5497,8	4310,0
3	Buyuk Britaniya	2246,0	2173,0
4	Shveysariya	523,7	324,5
5	Shvetsiya	458,0	354,7
6	Norvegiya	414,4	255,3
7	Daniya	310,4	201,7

YaIM yoki YaMM (YaMD) ko'rsatkichlari bo'yicha alohida mamlakatlarning iqtisodiyotining o'lchami haqida fikt aytish mumkin. Mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini (uning iqtisodiy qudrati) YaIMning bir yilda ishlab chiqarilgan umumiy hajmini taqqoslash yo'li bilan baholaydilar. Bir necha mamlakatlar valyutasining sotib olish qobiliyati tengligi bo'yicha hisoblangan YaIM (trln dollarda) jadval 3 da keltirilgan.

**Jadval 3.**

**YaIM SQT bo'yicha**

Mamlakat	YaIM (SQT, AQSh trln doll.)		
	2004g.	2007 g.	2010 g.
AQSh	10,990	13,860(1)	14,660 (1)
Xitoy	6,449	7,043 (2)	10,000 (2)
Yaponiya	3,582	4,305 (3)	4,310 (3)
Hindiston	3,033	2,965 (4)	4,060 (4)
Germaniya	2,271	2,833 (5)	2,940 (5)
Buyuk Britaniya	1,666	2,147(6)	2,173 (7)
Fransiya	1,661	2,067 (8)	2,145 (9)
Italiya	1,550	1,800(10)	1,774(10)
Braziliya	1,375	1,838(9)	2,172 (8)
Rossiya Federatsiyasi	1,282	2,076 (7)	2,223 (6)

Ammo oldinda ko'rsatilganidek ushbu mamlakatlarning rivojlanish darajasi bo'yicha taxminan ta'surot olish uchun, bu ko'rsatkichlarni shunga to'g'ri keluvchi mamlakatning aholi soniga bo'lish zarur (jadval 4). YaIM va YaMM (YaMD)lar aholi jon boshiga tovar va xizmatlarning miqdori, mamlakatning o'rtacha yashovchi aholisiga to'g'ri kelishi haqida ma'lumot beradi, bu o'z navbatida "aholi jon boshiga daromad" yoki "jon daromadi" deb ham ataladi.

**Jadval 4.**

**Aholi jon boshiga yuqori YaIM mamlakatlari**

№ p/p	Mamlakat	YaIM aholi jon boshiga (SQT, AQSh doll.)		
		2004 yil	2007 yil	2010 yil
1	Lyuksemburg	61190	80800(1)	82 600 (3)
2	Norvegiya	36600	55600(5)	54600(7)
3	Irlandiya	36360	45600 (10)	37 300 (27)
4	AQSh	35750	46 000 (9)	47200 (11)
5	Daniya	30940	37 400 (24)	36600 (28)
6	Shveysariya	30010	39400 (15)	42600 (17)
7	Islandiya	29750	39400 (16)	38 300 (25)
8	Kanada	29480	38200 (18)	39400 (22)
9	Avstriya	29220	39000 (17)	40 400 (19)
10	Gollandiya	29 100	38600 (19)	40300 (21)
17	Yaponiya	28200	33800 (34)	34000 (38)
86	Rossiya	8900	14600 (75)	15900 (71)
120	Ukraina	5400	6900 (120)	6700 (133)
122	Xitoy	5000	5300 (130)	7600 (125)

Ammo yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlarning barchasi o'zining ahamiyati bo'yicha taqqoslangan mamlakatlar aholisining haqiqatdan ham muvoffaqiyatli o'lchami sifatida kamchiliksiz emas. Ularning o'lchami bo'yicha, masalan, mamlakat aholisining nechta qismi kambag'al yoki sog'ligi uchun xavotirli sharoitda yashayotganligi to'g'risida qaror chiqarish mumkin emas. Bundan tashqari YaIM va YaMM (YaMD) ko'rsatkichlari qiymatli ko'rsatkich sifatida juda ham kuchli mamlakatning inflyatsiya sur'atiga bog'liq bo'ladi.

Ko'rsatkich ma'lumoti asosida 4 ta asosiy klassifikatsiyalarni ajratish mumkin.

1. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha klassifikatsiya (aholi jon boshiga YaMD);



2. BMT standartlashgan klassifikatsiyasi:

- sanoatda (industrial) mamlakatlar (industrial countries);
- rivojlanib kelayotgan mamlakatlar (oldingi vaqtda “uchinchi dunyo mamlakatlari” deb nomlangan) (developing countries);
- o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari (economies/countries in transition).

3. Hayot sifati bo‘yicha mamlakatlar klassifikatsiyasi (IRSI);

4. Tarmoqli klassifikatsiya.

Ko‘pincha bu klassifikatsiya bir-biri bilan qo‘shilgan. Bularni batafsil ko‘rib chiqamiz.

## **2. YaIM tarmoqli tuzilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining ko‘rsatkichi sifatida**

Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar uchun aniq vaziyat, ularning YaIM tuzilishida uchinchi sektor (xizmat sohasi) ustunlik qilganda, ikkinchi sektor (sanoat va qurilish) avvalam bor ishlab chiqarish sanoati ko‘rsatilgan, birinchi sektor (qazib oluvchi sanoat, qishloq va o‘rmon ho‘jaligi) ulushi esa, uncha katta emas. Shunday bo‘lsada rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning bir qatorida YaIM tuzilishida uchinchi va ikkinchi sektorlarning ulushi kattaroq, odatda u sayyohlik yoki savdoning keng rivojlanishi bilan tushuntiriladi. Rivojlangan mamlakatlarning sanoatida yuqorida ko‘rsatilganidek tarmoqlarning uchinchi sektorlarning ulushi 50 % dan ko‘p bo‘lib, 70 % gacha ham boradi.

Jahon xo‘jaligining tuzilishida tarmoqli soha bo‘lib sanoat qoladi. Uning ulushiga sanoatda rivojlangan mamlakatlarning 28 % YaIM va 27 % YaIM rivojlanib kelayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Sanoat tuzilishida yetakchi xolatni qazib oluvchi tarmoqlar egallaydi, ular boshqa xo‘jaliklar sohasining texnikaviy rivojlanish darajasini ta‘minlaydi, sababi bunda fan-texnika yutuqlari to‘planadi. Industriyalashgan mamlakatlarda sanoat mahsulotlarining 82,6 % va 23 % YaIM, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda shunga mos 73 % va 20 % to‘g‘ri keladi.

Rivojlanib kelayotgan davlatlarda oxirgi o‘n yillikda qazib oluvchi sanoat ulushi ko‘paymoqda. Mamlakatlarning rivojlanish darajasi bo‘yicha resurs hajmi bo‘yicha tayanch tarmoqlardan ilm-fan tadqiqotlarini egallagan tarmoqlariga o‘tish yuz bermoqda. Shu bilan birga boshlanishida xom ashyo va texnikaviy yuqori ulushini murakkab bo‘lmagan ishlab chiqarishdan kapitallashgan va materiallashgan hamda keyinchalik ilm-fan tadqiqotlarini egallagan tarmoqlarga o‘tishda aniqroq izchillik kuzatilmoqda. Ammo sanoatda strukturali o‘zgarishlar bitta tarmoqni boshqasiga to‘liq almashtirishga olib kelmaydi: ularning rivojlanishida birinchilik almashib turiladi. Qazib oluvchi sanoat ulushi barcha sistemalarda qisqartiriladi.

Endi qishloq xo‘jaligiga kelsak, unda uning samarasi jahonning ko‘pchilik rayonlarida ko‘tarilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda agro-sanoat majmualari yuzaga keldi, bular o‘z navbatida pirovard mahsulotlardan yaxshiroq foydalanishga olib keldi. Sanoatda rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish ulushiga 2,3 % va rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda YaIM – 15,4 % to‘g‘ri keladi.

### **3. Iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha mamlakatlar klassifikatsiyasi (jahon bankining bahosi)**

Jahon mamlakatlarini ularning iqtisodiy rivojlanishiga bog‘liq holda guruhlarga bo‘lish uchun turli tashkilotlar har xil mezonlardan foydalanadilar. Bu yerda eng oddiy yondoshuv – jahon iqtisodiyotini aholi jon boshiga daromadlar darajasi bo‘yicha mamlakatlarni guruhlarga bo‘lish kerak. Bu klassifikatsiyani jahon banki qo‘llagan.

Yalpi milliy daromadlari aholi jon boshiga miqdori bo‘yicha mamlakatlarni bir necha guruhlarga bo‘lish (2009 yil miqdori bo‘yicha):

1) past daromadi bilan (yiliga aholi jon boshiga daromad – 975 dollardan ko‘p bo‘lmagan) – 43 mamlakat (jadval 5);

**Jadval 5.**

#### **Past daromadli mamlakatlar (43)**

Afg‘oniston	Gvineya-Bisau	Ruanda
Bangladesh	Gaiti	Senegal
Benin	Keniya	Serra-Leone
Burkina-Faso	Koreya Dem. Resp.	Somali
Burundi	Qirg‘iziston Respublikasi	Tojikiston
Chad	Liberiya	Togo
Kambodja	Laos	Tanzaniya
Chad	Madagaskar	Uganda
Komor orollari	Malavi	Uzbekiston
Kongo, Dem. Resp.	Mali	Vetnam
Eritreya	Mavritaniya	Yemen
Efiopiya	Mozambik	Zambiya
Gambiya	Myanma	Zimbabwe
Gana	Nepal	
Gvineya	Niger	

2) O‘rtacha daromadli (yiliga aholi jon boshiga daromad – 976 dollardan 11905 dollargacha) 101 mamlakat (jadval 6 va jadval 7).

**Jadval 6.****O'rtachadan past daromadlar bilan mamlakatlar (55)**

Albaniya	Gonduras	Paragvay
Angola	Hindiston	Filippin
Armaniston	Indoneziya	Samoa
Ozarbayjon	Eron Islom Respublikasi	San-Tome va Prinsipi
Beliz	Iroq	Solomonov orollari
Butan	Iordaniya	Shri-Lanka
Boliviya	Kiribati	Sudan
Kamerun	Kosovo	Svazilend
Kabo-Verde	Lesoto	Siriya Arab Respublikasi
Xitoy	Maldiv	Tailand
Kongo Resp.	Marshallov orollari	Sharqiy Timor
Kot-d'Ivuar	Mikroneziya Federal Shtati	Tonga
Djibuti	Moldova	Tunis
Ekvador	Mongoliya	Turkmaniston
Misir Arab Respublikasi	Marokko	Ukraina
Salvador	Nikaragua	Vanuatu
Gruziya	Nigeriya	Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'i va G'azo sektori
Gvatemala	Pokiston	
Gayana	Papua — Yangi Gvineya	

**Jadval 7.****O'rtachadan yuqori daromadlar bilan mamlakatlar (46)**

Jozir	Grenada	Peru
Amerikali Samoa	Yamayka	Polsha
Argentina	Qozog'iston	Ruminiya
Belarus	Latviya	Rossiya Federatsiyasi
Bosniya va Gersegovina	Livan	Serbiya
Botsvana	Liviya	Seyshel orollari
Braziliya	Litva	Janubiy Afrika
Bolgariya	Makedoniya	Sent-Kits va Nevis
Chili	Malayziya	Sent-Lyusiya
Kolumbiya	Mavrikiy	Sent-Vinsent va Grenadin
Kosta-Rika	Mayotta (Fransiya)	Surinam
Kuba	Meksika	Tursiya
Dominika	Chernogoriya	Urugvay
Dominikan Respublikasi	Namibiya	Venesuela
Fidji	Palau	
Gabon	Panama	

O‘z navbatida mamlakatlar o‘rtacha daromadlari bilan o‘rtachadan past (976 dollardan 3855 dollargacha) davlatlarga va daromadlari o‘rtachadan yuqori (3856 dollardan 11905 dollargacha) davlatlarga bo‘linadi.

3) Yuqori daromadli (aholi jon boshiga 11906 dollardan yuqori) 66 mamlakat (jadval 8).

### Jadval 8.

#### Yuqori daromadli mamlakatlar (66)

Andorra	Fransiya	Niderland Antil orollari
Antigua va Barbuda	Fransuz Polineziyasi	Yangi Kaledoniya
Aruba	Germaniya	Yangi Zelandiya
Avstraliya	Gretsiya	Shimoliy Marian orollari
Avstriya	Grenlandiya	Norvegiya
Bagam orollari	Guam	Oman
Baxrayn	Gonkong, Xitoy	Portugaliya
Barbados	Vengriya	Puerto-Riko
Belgiya	Islandiya	Qatar
Bermud orollari	Irlandiya	San-Marino
Bruney	Men oroli	Saudiya Arabistoni
Kanada	Isroil	Singapur
Kayman orollari	Italiya	Slovakiya Respublikasi
Normand orollari	Yaponiya	Sloveniya
Xorvatiya	Koreya Respublikasi	Ispaniya
Kipr	Quvayt	Shvetsiya
Chexiya	Lixtenshteyn	Shveysariya
Daniya	Lyuksemburg	Trinidad va Tobago
Estoniya	Makao, Xitoy	Birlashgan Arab Amirligi
Ekvatorial Gvineya	Malta	Buyuk Britaniya
Farer orollari	Monako	SShA
Finlyandiya	Niderlandiya	Virgin oroli (AQSh)

Mamlakatlarni ushbu klassifikatsiyada unday yoki bunday guruhga kiritish quyidagilarga kirishni ochadi yoki yopadi:

- moliyaviy va texnikaviy yordamga;
- imtiyozli moliyalashtirishga;
- aniq turdagi kreditlarga;
- past tarif bo‘yicha zayomga;
- foizsiz kreditlarga;
- grantlarga.

Jahon banki tadqiqotchilari bitim qildilar, ya’ni mamlakatlar aholi jon

boshiga past va o'rtacha daromadlar bilan rivojlanib kelayotgan mamlakatlar qatoriga qo'shiladi, ularning daromadlar bilan yashayotgan mamlakatlardan farqi bular industriyalashgan, industrial rivojlangan yoki oddiy rivojlangan mamlakatlar deb ataladi.

Mamlakatlarni shunday oddiy metodlar bilan rivojlanib kelayotgan yoki rivojlangan deb aholi jon boshiga daromadlar darajasi bilan hisoblash – hamma vaqt yaxshi natija bermaydi. Shu bilan birga shunday qilish ham mumkin, masalan, yuqori daromad darajasi bilan yashaydigan rivojlanib kelayotgan mamlakatlar, bularga Isroil, Quvayt, Birlashgan arab amirligi va Singapurni kiritish mumkin. Bu mamlakatlarni BMTda rasman ularning iqtisodiyotini yetarli bo'lmagan taraqqiyot strukturali belgilari bo'yicha yoki bu mamlakatlar o'zlarining hukumatlarining xoxishi bo'yicha rivojlanib kelayotgan mamlakatlar deb hisoblaydilar, shunday bo'lsada ham bular rasman, YaMD aholi jon boshiga darajasi bo'yicha ular rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishi shart bo'lar edi.

Bunday soddalashgan metod klassifikatsiya “o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar”, ya'ni sobiq sotsialistik mamlakatlarga qo'llash ham bekor bo'lmagan ekan. Bir tomondan, bu mamlakatlardan bittasi ham Jahon banki tomonidan belgilangan aholi jon boshiga yuqori daromad bo'sag'asiga erishmadi, boshqa tomondan esa o'zlarining iqtisodiy strukturasi bo'yicha bu mamlakatlardan ko'pchiligi butunlay industriyalashgan davlat bo'ladi. Bunday sabablardan bittasi, bu o'tish iqtisodiyotdagi mamlakatlar Jahon bankida hozircha oldindan deb hisoblaydi. E'tibor qaratsak, 1982 yil Jahon banki tomonidan chiqarilgan har yili “Jahonning rivojlanishi haqidagi ma'ruzasida” bu mamlakatlar esa rivojlanmagan, balki “bozorsiz iqtisodiyot bilan industriyalashgan” deb nomlangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining e'lonlarida bular haligacha rivojlanib kelayotgan mamlakatlar qatoriga kiritilmagan, faqat asosiy guruhga ajratilgan.

Mamlakatlarning taqqoslash xarakteristikasini tahlil qilishda ancha-muncha murakkabligi shunday “o'rtacha sinf” yoki “nochor”, “kambag'al” tushunchalarni foydalanshga chaqiradi. Sababi bu tushunchalarning yagona talqini mavjud emas. Masalan, AQShda o'rtacha sinfga yiliga 25 dan 100 ming dollargacha daromad oladigan oilalar kiritiladi, XXR da yiliga 850 dollar oladiganlarni kiritadi. AQShda nochor, kambag'allarga yiliga kimda-kim daromadlardan 1/3 qismini ovqatga, kiyim-kechakga harajat qiladiganlarni kiritadilar. Kambag'al chizig'i tashqarisida kimning yiliga 11 ming dollardan ko'p mo'lmaganlar kiritiladi. Hozirgi vaqtda AQShda undaylar soni 46 mln kishi hisoblanadi. Yevropa ittifoqida 600-800 yevro daromadi bilan yashayotganlar kambag'al hisoblanadi.

#### **4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining standartlashgan klassifikatsiyasi**

Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning klassifikatsiyasiga boshqacha yondoshuvlar ularning jahon takror ishlab chiqarish jarayonlarida aniqlovchi roli (BMT, Jahon bankining iqtisodiy va ijtimoiy maslahati va boshqalar) ham mavjuddir.

Hozirgi vaqtda jahonda bir qancha guruh ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari bir-biriga o'xshaydigan davlatlar bor.

Jahon o'zining ijtimoiy-iqtisodiy tabiatlari bo'yicha juda ham bir xil emas. Hozirgi vaqtda mamlakatlarni uchta guruhga ajratish mumkin:

- jahon xo'jaligini qandaydir karkasni tashkil qiladigan bozor iqtisodiyoti bilan sanoati rivojlangan;
- rivojlanib kelayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniya mamlakatlari;
- o'tish iqtisodiyotini tasavvur etgan Sharqiy Yevropa, Rossiya va sobiq SSSR respublikalaridan shakllangan davlatlar.

Har bir guruhlarning mamlakatlari kelgusi o'xshash xarakterga ega:

- iqtisodiyotning tarmoqli strukturasi;
- aholi jon boshiga YaIM miqdori;
- aholi jon boshiga SQT bo'yicha YaIM;
- iqtisodiyotning institutsional strukturasi (mulchilik shakllari);
- jamiyatning ijtimoiy strukturasi.

Mamlakatlarni rivojlangan yoki rivojlanib kelayotgan guruhlarga kiritishning asoslaridan biri aholining jon boshiga SQT bo'yicha YaIM miqdoridir. 2000 yilda rivojlangan mamlakatlar qatoriga 9 ming dollardan, 2005 yilda 12 ming dollardan ko'proq ko'rsatkichlar bilan mamlakatlar kiritilgan. Ammo bu guruhlar o'rtasida juda ham keskin chegaralarni o'tkazish xatolik bo'ladi. Masalan, hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning bir butun guruhlari, ayniqsa janubiy-sharqiy mamlakatlari Janubiy Koreyani, Gonkongni (1997 yildan Xitoyning provinsiyasi Syangan), Tayvanni, Braziliyani, Argentinani va boshqalarni bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha jahonning industrial rivojlangan davlatlari qatoriga mantiqiy ravishda kiritish kerak. Ammo boshqa muhim ko'rsatkichlar bo'yicha (keskin ijtimoiy farqlar chuqurligi, hududiy rivojlanish notekisligi va boshqalar) ular an'anaviy ravishda hali rivojlanib kelayotgan mamlakatlar guruhiga kiritiladilar. AQShning ishga aloqador doirasi, ayniqsa Janubiy Koreyaning YaIM aholi jon boshiga to'g'ri kelish hajmi bo'yicha ancha oldin jahon mamlakatlarining birinchi o'ntaligi qatoriga kirishiga qaramasdan jahon savdosida rivojlanib kelayotgan mamlakat sifatida imtiyoz bilan foydalanishiga rozi emas.

Shu bilan bir vaqtda bir qator rivojlangan davlatlar shubhasiz o'zlarining iqtisodiyotlarining sifatli o'zgarishi bilan kechikmoqda, ya'ni mehnat unumdorligining o'sishini sekinlashtirmoqda. Shunday qilib, Sharqiy Yevropa mamlakatlari va Rossiyada G'arbiy Yevropa mamlakatlarining faqat 50 % ga yaqin miqdorini tashkil etadi.

Ammo olimlar va siyosatchilar o'rtasida tarqatilgan jahonning barcha mamlakatlarini "rivojlangan", "rivojlanib kelayotgan" va "o'tish iqtisodiyot mamlakatlar"ga bo'linishiga qaramasdan, u oldindan o'sha atamalarning o'zi muvaffaqiyatli chiqmagan. Tushunarli, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar ham har xolda rivojlanishni davom etkazmoqda. Agarda mamlakatlarni "ko'proq rivojlangan" va "kamroq rivojlangan"ga bo'lish yo'li bilan boradigan bo'lsa, unda aynan ular orasidagi chegaralarni qayerdan boshlab ajratish noaniq bo'ladi. Shubhasiz har qanday bo'linish tadqiqotchilar orasida (rasmiy va norasmiy) faqat vaqtincha kelishi bo'yicha shartli va asosiy bo'lishi mumkin.

BTM, Jahon banki va XVF yuqorida ko'rsatilganlarni jahon xo'jaligi sistemasiga ajratadi, ammo ularning tarkibi farqlanadi. Shu bilan birga, XVF rivojlangan mamlakatlar guruhiga Tayvanni, Gonkongni, Janubiy Koreyani, Singapurni kiritadi, ammo Janubiy Afrika Respublikasini kiritmaydi. Shu vaqtda BMT birinchi to'rtta mamlakatni rivojlanib kelayotgan mamlakatlarga kiritadi, shunga qaramasdan ular yuqori darajadagi rivojlanishga erishdilar va g'arb mamlakatlariga o'xshagan iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy strukturasi ega, JAR ni esa rivojlangan mamlakatlarga kiritadi. IHRT (iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti) esa bularning qatoriga ushbu tashkilot qatnashchilari Meksika, Turkiyani qo'shadi, bular ko'proq rivojlanib kelayotgan mamlakatlardir, ammo ular hududiy belgilari bo'yicha bunga kiritilgan (Turkiya qisman Yevropaga qarashli, Meksika esa erkin savdo to'g'risidagi Shimoliy Amerika bitimiga kiradi).

### **5. Mamlakatlarning inson rivojlanishi to'plami ko'rsatkichi bo'yicha klassifikatsiyasi. Inson salohiyatining rivojlanish indeksi.**

Yuqorida oldingi klassifikatsiyalarning kamchiligi ko'rsatilgan edi. Shu sababli uzoq vaqtlar ichida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining ko'proq mukammallashtirilgan darajasini baholash mezonini ishlab chiqish uchun urinishga harakat qilinmoqda. Har xil mamlakatlarda nisbatan hayot sifati haqida asoslanib gapirish uchun tahlilga qo'shimcha bir qator statistik ko'rsatkichlarni jalb qilish zarur. Masalan, jamiyatda daromadlarning notekis taqsimlanish darajasini, ta'limning rivojlanish, kishilarning sog'ligi va uzoq vaqt hayot kechirish darajasini ularni o'rab turgan muhit, xolat va ko'proq boshqalar bo'yicha. Shuning uchun jahon mamlakatlari ko'p o'lchamli klassifikatsiyalarni foydalanilmoqda ham. Xususan 1970 yilda BMT 16 ta

ko'rsatkichlar asosida hisob qilingan ijtimoiy rivojlanish indeksi majmuasi ishlab chiqilgan edi. Ammo iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash – mamlakatlarning ahvoliding, uning taraqqiyotining yagona mezonini emas.

Hozirgi zamonning kattaroq bahosi markazida inson turadi. BMT 1990 yildagi maxsus dasturida inson rivojlanish indeksi (IRI) ishlab chiqilgan edi, bunda mamlakat aholisi hayotining sifati aks ettirilgan bo'lib va bu har yili HUMAN DEVELOPMENT REPORT hisobotida nashr etilar edi. Hisob qilish metodologiyasining ko'rsatkichlari doimo aniqlanadi va mukammallashtiriladi. Buning ko'pincha murakkabligi ko'pchilik rivojlanib kelayotgan hamda o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda kerakli ijtimoiy statistikaning yo'qligi bo'yicha zaruriy taqqoslash ko'rsatkichlarini olish bilan bog'liq edi. Hozirgi vaqtda u "inson salohiyatining rivojlanish indeksi" deb ataladi va uchta komponentdan iborat:

1. Kishilar kutilgan hayoti o'rtacha davomiyligi, bu shunday formulada hisoblanadi:

$$HDI_k = \frac{HDM - HDJ_{min}}{HDJ_{maks} - HDJ_{min}}$$

Bu yerda:

**HDI<sub>k</sub>** - Kutilgan hayot davomiyligi indeksi

**HDM** - Mamlakatda hayot davomiyligi

**HDJ<sub>min</sub>** - Jahonda minimal hayot davomiyligi

**HDJ<sub>maks</sub>** - Jahonda maksimal hayot davomiyligi

Endi, masalan, Yaponiyada kutilgan hayot davomiyligi 2000 yilda 80,7 yil, Avstraliyada – 79,8, Shveysariyada va Shvetsiyada – 79,6, Norvegiyada – 78,7, Serra-Leonda esa faqat 40,3, Malaviyada – 40,7, Ugandda – 41,4, Angolada – 46,5, Mozambikda – 46,9 yil.

Jahonda butunlay o'rtacha hayot davomiyligi 66 yosh (erkaklar uchun 64 yil, ayollar uchun 68 yil) bo'lmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkichlar 72 va 79 yosh, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda 62 va 66, kamroq rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda – 51 va 52 yosh bo'lmoqda.

2. Ta'limning rivojlanish darajasi. Shunday formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\text{Aholini ta'lim bilan qamrab olish indeksi (I}_2\text{)} = \frac{\text{15 yoshdan oshgan savodxonlik ulushi} + \text{Aholining maktabdagi va talabali yoshdagi ta'lim bilan qamrab olganlar ulushi}}{3}$$

Bu yerda aholining m'lumotlilikgi ikkita o'lchamdan iborat kombinatsiya bilan o'lchanadi:



a) 15 yoshdan katta bo‘yi yetgan kishilar orasida savodxonlilarning ulushi (% da);

b) ta‘lim olishning o‘rtacha davomi (necha yil).

Hozirgi vaqtda umumiy ta‘lim hisobida savodxonlik ulushi  $2/3$  koeffitsiyent bilan hisob qilinadi, ta‘lim olish davomi esa  $1/3$  koeffitsiyent bilan hisoblanadi. Agarda o‘rtacha ta‘lim davomi to‘g‘risida ma‘lumot yo‘q bo‘lsa, unda aholining o‘rtacha va oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotganlarning yalpi ulushi olinadi. BMT ma‘lumoti bo‘yicha 1990 yilda 960 mln kishi yozishni ham, o‘qishni ham bilmas edi, shu vaqtdan savodsizlar sonini 100 mln kishiga qisqartirishga erishildi. Aholining Nigerda va Burkin-Fasoda – 80 %, Somali va Nepalda – 70 %, Mali, Liberi, Efiopiya, Pokistonda – 60 % ga yaqini savodsiz edi.

3. Yashovchilarning o‘rtacha daromadining real o‘lchami kelgusi formulada hisoblanadi:

$$\text{Daromadlar indeksi (I}_3\text{)} = \frac{\text{Ushbu mamlakatda YaIM aholi jon boshiga}}{\text{Jahonda o‘rtacha YaIM aholining jon boshiga}}$$

To‘g‘irlangan daromadlar murakkab dastur bo‘yicha YaIM bir yashovchi o‘lchami asosida hisob qilinadi, ammo SQT bo‘yicha va jamiyatda vositalarni taqsimlash xususiyatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar hisobi bilan, xususan 20 % kambag‘allar daromadi ulushi va 20 % eng boy kishilarning o‘zaro nisbati, hamda kishilarning normal yashash darajasini ta‘minlovchi o‘rtacha “daromad bo‘sag‘asi” bilan milliy ko‘rsatkichlarning o‘zaro nisbati. Natijada aholi jon boshiga “real” YaIM o‘lchami shunday usulda aniqlangan va keyinchalik ISRIning hisoblashda rasmiy boshlang‘ich raqamlarga qaraganda ancha kam.

ISRI formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\text{ISRI} = \frac{I_1 + I_2 + I_3}{3_3}$$

1990 yildan moddiy eson-omonlik  $X_4$  maxsus indikatori siri real YaIM aholi jon boshiga o‘nli logarifm sifatida hisob qilingan. ISRIning maksimal imkoniyatli ahamiyati – 1, minimal – 0.

ISRI – 1 tengga ega bo‘lgan mamlakatning o‘rtacha yashash hayotining davomiyligi 85 yilga teng, aholi jon boshiga (sotib olish qobiliyati tengligi bo‘yicha hisoblangan SQT) YaIM 40 ming dollarga teng, bu yerda 100 % bo‘yi yetgan aholi savodxon bo‘lib, qoganlari esa, shunga muvofiq yoshda boshlan0ich yoki o‘rta maktabga yoki oliy yoki o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida o‘qiydilar. Ushbu ko‘rsatkichga yaqinlar bugungi kunda

Norvegiyada turadilar. Ularning ISRI 0,956 ga teng (BMT 2002 yil ma'lumoti bo'yicha).

Endi, ISRI – 0 ga teng bo'lgan mamlakat bu yerda o'rtacha yashash hayoti davomiyligi 25 yilga teng, aholi jon boshiga (sotib olish qobiliyati tengligi bo'yicha hisoblangan SQT) YaIM AQShning 100 dollariga teng. Bunda 100 % bo'yi yetgan aholi savodsiz va hech kim hech qanday ta'lim olmaydi. Ushbu haddan oshib ketishga yaqin Serra-Leon turadi, bu yerda ISRI 0,273 ga teng (BMT 2002 yil ma'lumoti bo'yicha).

Ushbu mamlakatlar rangidan kelib chiqqan xolda ISRI bo'yicha BMT ekspertlari jahon mamlakatlarini uchta guruhga bo'ladilar:

1) inson salohiyati rivojlangani bo'yicha yuqori darajali mamlakatlar (ISRI > 0,8; 50 mamlakat);

2) inson salohiyati rivojlangan o'rtacha darajali mamlakatlar (0,5 < ISRI < 0,8; 86 mamlakat);

3) inson salohiyati rivojlangan past darajali mamlakatlar (ISRI < 0,5; 36 mamlakat).

Yetakchi o'rinli ko'rsatkichlari bo'yicha sanoatda rivojlangan mamlakatlar egallaydi. ISRI o'lchami bo'yicha birinchi o'nlik o'rinni 2002 yil egallagan jahon mamlakatlari (kamayish tartibida) : Norvegiya, Shvetsiya, Avstraliya, Kanada, Niderlandiya, Belgiya, Islandiya, AQSh, Yaponiya va Irlandiya. Rossiya o'rtacha darajada rivojlangan mamlakatlar sifatida tavsiya qilingan, (Bolgariya va Liviya o'rtasida) 57 o'rinni egallaydi.

Rivojlanib kelayotgan mamlakatlar orasida past guruhni tashkil etuvchilar (ko'payish tartibida): Serra-Leon, Niger, Burkina-Faso, Mali, Burundi (jadval 9).

### Jadval 9.

#### Inson rivojlanish indeksi to'plam ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatlar.

Yuqori darajada inson salohiyati rivojlangan mamlakatlar (ISRI 0,800 va yuqori)	O'rtacha darajada inson salohiyati rivojlangan mamlakatlar (ISRI 0,500 dan 0,799 gacha)	Past darajada salohiyati rivojlangan mamlakatlar (ISRI 0,500 dan past)	
Norvegiya	Bolgariya	Eron Islom Respublikasi	Pokiston
Shvetsiya	Rossiya Federatsiyasi	Falastin bosib olingan hududlari	Togo
Avstraliya	Liviya Arab Respublikasi	Salvador	Kongo
Kanada		Gayana	Lesoto
Niderlandiya	Malayziya	Kabo-Verde	Uganda

Belgiya	Makedoniya	Siriya Arab Respublikasi	Zimbabve
Islandiya	Panama	O'zbekiston	Keniya
Amerika Qo'shma Shtatlari	Belarusiya	Jazoir	Yemen
Yaponiya	Tonga	Ekvatorial Gvineya	Madagaskar
Irlandiya	Mavrikiy	Qirg'iziston	Nigeriya
Shveysariya	Albaniya	Indoneziya	Mavritaniya
Buyuk Britaniya	Bosniya va Gersegovina	Vetnam	Gaiti
Finlyandiya	Surinam	Moldova Respublikasi	Djibuti
Avstriya	Venesuela	Boliviya	Gambiya
Lyuksemburg	Ruminiya	Gonduras	Eritreya
Fransiya	Ukraina	Tojikiston	Senegal
Daniya	Sent-Lyusiya	Mongoliya	Sharqiy Timur
Yangi Zelandiya	Braziliya	Nikaragua	Ruanda
Germaniya	Kolumbiya	Janubiy Afrika	Gvineya
Ispaniya	Oman	Misr	Benin
Italiya	G'arbiy Samoa	Gvatemala	Birlashgan Tanzaniya
Isroil	Tailand	Gabon	Kot-d'Ivuvar
Gonkong, Xitoy (OAR)	Saudiya Arabistoni	San-Tome va Prinsipi	Zambiya
Gretsiya	Qozog'iston	Solomonov orollari	Malavi
Singapur	Yamayka	Marokko	Angola
Portugaliya	Livan	Namibiya	Chad
Sloveniya	Fidji	Hindiston	Kongo Demokratik Respublikasi
Koreya Respublikasi	Armaniston	Botsvana	Markaziy Afrika Respublikasi
Barbados	Filippin	Vanuatu	Efiopiya
Kipr	Maldiv orollari	Kambodja	Mozambik
Malta	Peru	Gana	Gvineya-Bissau
Chexiya Respublikasi	Turkmaniston	Myanma	Burundi
Bruney-Darussalam	Sent-Vinsent va Grenadini	Papua-Yangi Gvineya	Mali
Argentina	Turkiya	Butan	Burkina-Faso
Seyshel Orol	Paragvay	Laos Xalq Demokratik Respublikasi	Niger
Estoniya	Iordaniya	Komor Orol	Serra-Leone
Polsha	Ozarbayjon	Svazilend	
Vengriya	Tunis	Bangladesh	
Sent-Kits va Nevis	Grenada	Sudan	
Baxrayn	Xitoy	Nepal	
Litva	Dominika	Kamerun	

Slovakiya	Shri-Lanka		
Chili	Gruziya		
Quvayt	Dominikan Respublikasi		
Kosta-Rika	Beliz		
Urugvay	Ekvador		
Qatar			
Xorvatiya			
Birlashgan Arab Amirligi			
Latviya			
Bagam Orollari			
Kuba			
Meksika			
Trinidad va Tobago			
Antigua va Barbuda			

1990 yildan boshlab 20 mamlakat ISRIni pasayishini sinagan. Aksincha 1980 yillarda faqat 3 (ma'lumotga ega bo'lgan mamlakatlar) ISRI pasayishini sinagan. Bu mamlakatlarda ko'rsatkichlari boshqalardagi stagnatsiya bilan bir qatorda yomonlashishini, ko'plari umuman oxirgi o'n yilliklarda ISRI ning o'sishining sekinlashishini tushuntiradi.

BMT 2009 yil oktabr oyida 182 mamlakatning hayot sifati bo'yicha (ISRI) sarflash natijalarini nashr qildi. Ushbu hujjatlar mualliflari o'lchamlar orasida – hayot davomiyligi, savodxonlik darajasi, o'quvchilar soni, iqtisodiy xolatini ko'rib chiqqanlar. Ammo ro'yxatlarni tuzishda global iqtisodiy inqirozning boshlanishigacha 2007 yilda yig'ilgan ma'lumotlar foydalanilgan. ISRI reytingida birinchi o'rinni Norvegiya egalladi. Norvegiyada hayot darajasi 19960 yillarning oxirida Norvegiya sektorining Shimoliy dengizda neftning katta zaxirasi topilgandan keyin tezda paydo bo'ldi. Mamlakat hayoti uchun eng ijobiy uchlikka Norvegiyadan keyin Avstraliya va Islandiyalar ham kiradilar.

Eng yuqori aholi jon boshiga daromad Lixtenshteyn knyazligi aniqlangan, uning aholisi 35 ming kishidan iborat. U 85383 dollargacha yetadi.

Britaniya Germaniyadan keyin 21-o'rinda turadi.

Xitoy ayniqsa Hayot darajasi tezda o'sib kelayotgan mamlakatlar qatoriga aholining shaxsiy daromadlari va hayot davomiyligining ko'payishi tufayli kirdi.

Rossiya ushbu ro'yxatda sobiq sovet respublikalari bo'lgan Estoniya (40-o'rin), Litva (46-o'rin) va Latviya (48-o'rin), larga ancha joy berib 71-o'rinni egalladi, ammo Ukrainadan oldinda.

Rossiya, Belorussiya va Qozog'iston yuqori darajadagi rivojlangan

guruhlariga kiritilgan. Armaniston, Ukraina, Ozarbayjon va Gruziya, shunga muvofiq, 84, 85, 86 va 89-o'rinni egallagan mamlakatlar o'rtacha darajadagi mamlakatlar guruhida qoldi.

Jahonning hayot uchun eng kam ijobiy uchlikka Nigeriyadan keyin Afg'oniston va Serra-Leone kiradi. Reytingni tuzgan rivojlanish bo'yicha BMT dasturi vakilining aytishicha, u boy va kambag'al mamlakatlar orasidagi rivojlanish darajasida chuqur farqlarni namoyish qildi. BMT ma'lumotlari Nigeriyada hayot davomiyligi faqat 50 yosh, bu 30 yosh Norvegiyaga qaraganda kam deb guvohlik qiladi. BMTning ma'lumotlari bo'yicha 24 mamlakatlarda eng kam hayot darajasi, aholining yarmi savodsiz.

2010 yilning yakuni bo'yicha yanada Norvegiya egallagan. Bugungi kunda bu neftga boy davlatda kutilgan hayot davomiyligi 81 yil bo'lib, o'rtacha yillik daromadi 58810 dollarga yetadi, o'rtacha norvejlik maktabda va oliy ta'limda 12, 6 yil o'tkazadi. 2001 yildan boshlab Norvegiya o'zgarmasdan (ikki yilni hisobga olmasdan) ISRIning cho'qqisida bo'lmoqda. Birinchi beshlikka Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSh va Irlandiya kirgan. Aholi jon boshiga eng yuqori daromad yanada Lixtenshteyn knyazligida – 81011 dollar hisoblangan.

Jahon mamlakatlarining asosiy qismi sog'liqni saqlash, ta'lim, tender tengligi va siyosiy erkinlik sohasida ancha-muncha taraqqiyot ko'rsatdi. Planetada o'rtacha hayot davomiyligi (1970 yil bilan taqqoslaganda) 59 dan 70 yoshgacha ko'paydi, boshlang'ich maktab o'quvchilari 55 dan 70 %gacha o'sdi, aholining jon boshiga daromadlari ikki marta oshdi 10 ming dollardan ko'proq bo'ldi.

ISRI insonning omon-esonligi va daromadlari o'rtasidagi farqnianiq belgilab beradi. ISRI sog'liqni saqlashda, ta'limda va daromadlarda o'rtacha erishganlarini ulov yo'li bilan, mamlakatning rivojlanish xolatini, daromadlari darajasini faqat nimalar bilan o'lchanishini ko'proq to'liq kartinasini ham beradi. Boliviya uning YaIM aholi jon boshiga ancha past darajasi bilan Gvatemalaga qaraganda ancha yuqori darajada ISRIGA erishdi, sababi insonning rivojlanishi uchun bu ko'rsatkichlardan foydalandi. Tanzaniya jahonda juda ham kambag'al mamlakatlardan biri bo'lib undan deyarli to'rt barobar boy Gvineya bilan taqqoslaganda ISRIGA ega. Hamda aksincha, mamlakatlar shunday daromadlari darajasiga ISRIDA katta farqqa ega – Vetnamning taxminan shunday darajada daromadi Pokistonnikidek bo'lib, ammmo ISRI ancha yuqori, sababi hayot davomiyligi va savodxonlik ancha yuqori darajada bo'lganligi uchun.

**O'zbekiston iqtisodiyoti raqamlarda**  
**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti**  
**hajmi (joriy narxlarda, mlrd.so`m)**

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021
<b>I. YAİM, jami</b>	<b>3 255,6</b>	<b>15 923,4</b>	<b>78 936,6</b>	<b>221 350,9</b>	<b>602 193,0</b>	<b>734 587,7</b>
Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	2 848,0	14 233,3	69 473,0	201 204,0	557 831,5	681 423,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	407,6	1 690,1	9 463,6	20 146,9	44 361,5	53 164,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati</b>	<b>2 848,0</b>	<b>14 233,3</b>	<b>69 473,0</b>	<b>201 204,0</b>	<b>557 831,5</b>	<b>681 423,7</b>
Qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi	978,5	4 192,8	21 251,3	64 680,3	151 279,6	183 518,5
Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	658,6	4 142,0	16 757,9	49 849,2	190 736,4	235 408,9
sanoat	462,4	3 370,9	12 997,3	38 466,6	153 187,9	189 606,8
qurilish	196,2	771,1	3 760,5	11 382,6	37 548,5	45 802,1
Xizmatlar	1 210,9	5 898,5	31 463,8	86 674,5	215 815,5	262 496,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	351,6	1 400,2	5 982,7	16 145,3	37 341,3	47 577,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	250,6	1 676,7	7 337,8	19 158,2	39 125,8	48 851,3
boshqa xizmat tarmoqlari	608,7	2 821,6	18 143,3	51 371,0	139 348,4	166 067,5

**Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

*(mlrd. so`m)*

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>
<b>Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so`m</b>	<b>38119,0</b>	<b>97598,2</b>	<b>368740,2</b>	<b>456056,1</b>
<b>Tog` - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>5103,1</b>	<b>9466,6</b>	<b>33106,9</b>	<b>43872,2</b>
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>28742,8</b>	<b>78492,3</b>	<b>305928,6</b>	<b>378186,4</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	5521,5	18511,6	42314,9	48643,3
Ichimliklar ishlab chiqarish	922,4	2538,1	7417,6	10135,4
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	400,0	840,0	1951,2	2089,4
To`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	4845,5	13241,7	36713,9	52372,3
Kiyim ishlab chiqarish	575,8	1585,3	10402,4	13592,8
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	80,7	757,9	1616,9	2083,9
Yog`och va po`kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to`qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	70,6	745,3	1563,8	2209,0
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	129,8	614,6	2257,8	2896,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	209,6	573,2	1081,5	1683,2
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1785,3	3102,6	11003,3	11371,5
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	1960,0	4993,7	21213,5	28080,7
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	174,7	750,6	2543,5	3903,0
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	572,7	1891,7	7017,7	8463,3
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	1640,6	4889,5	16287,7	20714,8
Metallurgiya sanoati	3688,6	8493,0	79445,1	96785,5
Mashina va uskunalar tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	565,7	1936,8	7063,3	11064,1
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	445,2	481,5	3457,7	6232,9
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	395,7	1587,7	8635,4	11212,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	211,4	787,6	4291,3	4353,3
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3562,3	7826,3	33594,9	32167,6
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	91,3	212,4	879,3	1137,6

Mebel ishlab chiqarish	164,1	614,8	2097,3	3059,8
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	226,7	450,6	1699,3	2049,5
Mashina va uskunalarni ta`mirlash va o`rnatish	502,6	1065,6	1379,4	1885,3
<b>Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>4084,1</b>	<b>8993,3</b>	<b>27375,3</b>	<b>30815,5</b>
<b>Suv bilan ta`minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>189,0</b>	<b>645,8</b>	<b>2329,3</b>	<b>3182,0</b>

#### Qishloq xo`jaligining asosiy ko`rsatkichlari

Ko`rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021
<b>Qishloq xo`jaligi ekinlari ekin maydoni, ming gektar</b>	3778,3	3647,5	3708,4	3694,2	3396,1	3260,7
Qishloq xo`jaligi mahsuloti, mlrd. so`m	1387,2	5978,3	30856,7	99604,6	250250,6	303415,5
shu jumladan:						
dehqonchilik	696,8	3323,1	18119,0	55429,2	123858,8	152130,4
chorvachilik	690,4	2655,2	12737,7	44175,4	126391,8	151285,1
Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o`sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	103,1	105,4	106,3	106,1	102,7	103,9
shu jumladan:						
dehqonchilik	103,1	107,0	105,9	105,5	103,2	104,3
chorvachilik	103,0	103,6	106,9	106,9	102,1	103,5



**Tashqi savdo (mln.AQSH.doll.)**

<b>Deskriptor</b>	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>
<b>Tovarlarni eksport qilish (FOB bahosida)</b>	<b>2 815,6</b>	<b>4 749,5</b>	<b>11 687,9</b>	<b>9 446,3</b>	<b>13 097,3</b>	<b>14 081,1</b>
Paxta	897,1	1 033,3	1 572,7	736,1	146,9	136,6
Kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari	93,4	285,0	661,3	613,0	873,2	1 225,3
Qora metallar	19,0	98,8	224,8	168,0	317,5	184,6
Rangli metallar	197,6	401,0	669,6	656,2	924,4	1 467,0
Energetika va neft mahsulotlari	335,2	623,0	2 973,8	2 685,2	659,0	914,8
Mashina va uskunalar	111,8	452,8	715,4	159,3	442,0	702,5
Oltin	554,2	1 164,7	2 618,1	1 920,6	5 804,4	4 109,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	176,4	206,0	1 260,5	1 316,4	1 443,8	1 471,8
<b>Xizmatlarni eksport qilish</b>	<b>449,1</b>	<b>659,3</b>	<b>1 335,5</b>	<b>3 061,3</b>	<b>2 005,0</b>	<b>2 581,7</b>
qurilish	0,7	8,2	23,7	77,6	42,3	14,6
Transport xizmatlari	384,3	586,9	847,4	1 465,9	1 426,1	1 744,1
Sayohat	33,8	23,6	273,3	1 187,5	255,8	422,1
Boshqa xizmatlar	30,3	40,7	191,2	330,3	280,8	400,9
<b>Boshqa</b>	<b>430,8</b>	<b>484,8</b>	<b>991,7</b>	<b>1 191,5</b>	<b>2 486,1</b>	<b>3 868,7</b>
<b>Tovarlarni import qilish (CIF bahosida)</b>	<b>2 696,4</b>	<b>3 666,5</b>	<b>8 685,4</b>	<b>11 462,5</b>	<b>19 932,4</b>	<b>23 740,4</b>
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan mahsulot ishlab chiqarish	399,5	558,7	1 265,7	2 108,2	3 436,7	4 259,6
Qora metallar	231,9	390,0	654,1	790,0	1 473,6	1 986,3
Rangli metallar	21,6	29,4	88,0	129,4	277,7	328,4
Energetika va neft mahsulotlari	112,7	103,7	654,6	725,0	1 106,9	1 556,8
Mashina va uskunalar	1 044,1	1 770,4	4 032,5	5 026,7	8 904,2	9 454,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	361,1	287,2	963,2	1 585,3	2 159,6	2 925,8
<b>Xizmatlarning importi</b>	<b>251,0</b>	<b>424,7</b>	<b>490,4</b>	<b>954,1</b>	<b>1 221,4</b>	<b>1 767,3</b>
qurilish	6,1	32,5	2,1	21,8	107,2	135,6
Transport xizmatlari	188,2	250,2	237,1	219,4	165,6	211,1
Sayohat	1,2	1,0	75,8	352,1	442,5	886,9
Boshqa xizmatlar	55,6	141,1	175,4	360,8	506,1	533,7
<b>Boshqa</b>	<b>525,5</b>	<b>527,2</b>	<b>1 027,3</b>	<b>1 097,9</b>	<b>2 573,7</b>	<b>3 229,4</b>
<b>Tovar va xizmatlar tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>6 212,1</b>	<b>9 500,0</b>	<b>22 199,2</b>	<b>24 924,2</b>	<b>36 256,1</b>	<b>42 170,5</b>
Tovarlarni va xizmatlarni tashqi savdo balansi	317,3	1 317,5	3 847,6	91,0	-6 051,5	-8 844,9

Tovarlarning tashqi savdo balansi	119,2	1 082,9	3 002,5	-2 016,2	-6 835,1	-9 659,3
Xizmatlarning tashqi savdo balansi	198,1	234,6	845,1	2 107,2	783,6	814,4

**O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosi**

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021
<b>mln.AQSH doll.:</b> <b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>6 212,1</b>	<b>9 500,1</b>	<b>22 199,2</b>	<b>24 924,2</b>	<b>36 256,1</b>	<b>42 170,5</b>
eksport	3 264,7	5 408,8	13 023,4	12 507,6	15 102,3	16 662,8
import	2 947,4	4 091,3	9 175,8	12 416,6	21 153,8	25 507,7
<i>savdo balansi saldosi</i>	317,3	1 037,0	3 847,6	91,0	-6 051,5	-8 844,9
<b>shu jumladan:</b> <b>MDH davlatlari bilan</b>	<b>2 297,8</b>	<b>3 403,4</b>	<b>9 369,2</b>	<b>9 548,9</b>	<b>11 826,4</b>	<b>15 920,4</b>
eksport	1 172,2	1 722,6	5 647,7	5 230,3	4 106,4	5 433,8
import	1 125,6	1 680,8	3 721,5	4 318,6	7 720,0	10 486,6
<i>savdo balansi saldosi</i>	46,6	41,8	1 926,2	911,7	-3 613,6	-5 052,8
<b>Boshqa davlatlar bilan</b>	<b>3 914,3</b>	<b>6 096,7</b>	<b>12 830,0</b>	<b>15 375,3</b>	<b>24 429,6</b>	<b>26 250,1</b>
eksport	2 092,5	3 686,2	7 375,7	7 277,3	10 995,8	11 229,0
import	1 821,8	2 410,5	4 545,3	8 098,0	13 433,8	15 021,1
<i>savdo balansi saldosi</i>	270,7	1 275,7	1 921,4	-820,7	-2 437,9	-3 792,1
<b>O'tgan yilga nisbatan,% da:</b> <b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>97,9</b>	<b>109,6</b>	<b>104,7</b>	<b>90,5</b>	<b>86,8</b>	<b>116,3</b>
eksport	100,9	111,5	110,6	92,3	86,5	110,3
import	94,8	107,2	97,2	88,8	87,1	120,6
<b>shu jumladan:</b> <b>MDH davlatlari bilan</b>	<b>128,2</b>	<b>113,3</b>	<b>117,0</b>	<b>79,0</b>	<b>81,8</b>	<b>134,6</b>
eksport	119,3	112,7	144,0	77,2	65,9	132,3
import	139,0	114,0	91,0	81,2	93,8	135,8
<b>Boshqa davlatlar bilan</b>	<b>86,0</b>	<b>107,6</b>	<b>97,2</b>	<b>99,6</b>	<b>89,5</b>	<b>107,5</b>
eksport	92,9	110,9	94,0	107,4	98,0	102,1
import	79,2	102,9	102,0	93,5	83,6	111,8

**Mehnat bozori (ming kishi)**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>
Iqtisodiy faol aholi	12286,6	13767,7	14797,4
Ish bilan band aholi	11628,4	13058,3	13236,4
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3118,1	3601,7	3499,2
Sanoat	1605,7	1768,7	1809,5
Qurilish	1033,7	1222,2	1305,6
Savdo	1235,6	1413,8	1405,4
Tashish va saqlash	509,9	614,7	610,5
Ta'lim	1102,0	1105,3	1158,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	596,2	601,5	669,5
Boshqa turlari	2427,2	2730,4	2778,5
<i>Ish bilan band aholini mulkchilik turlari bo'yicha taqsimlash</i>			
Davlat sektori	2410,2	2341,3	2483,1
Nodavlat sektori	9218,2	10717,0	10753,3
Mehnat idoralarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar <sup>1)</sup>	16,2	2,7	37,1

**Ishsizlik darajasi (foizda)**

<b>Hududlar</b>	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>0,4</b>	<b>0,3</b>	<b>5,4</b>	<b>5,2</b>	<b>10,5</b>	<b>9,6</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,7	1,0	7,4	5,3	10,5	10,1
Andijon	0,3	0,1	5,8	5,6	10,9	9,9
Buxoro	0,3	0,1	5,2	5,5	10,6	9,8
Jizzax	0,3	0,3	5,7	5,2	11,0	10,1
Qashqadaryo	0,3	0,3	5,8	5,5	11,1	10,2
Navoiy	1,0	0,6	4,9	5,0	9,4	8,8
Namangan	0,5	0,4	5,9	5,2	10,6	9,7
Samarqand	0,4	0,2	6,0	5,7	11,0	9,9
Surxondaryo	0,2	0,1	5,8	5,5	11,1	10,2
Sirdaryo	0,4	0,2	4,5	4,9	11,0	10,2
Toshkent	0,1	0,1	4,1	4,1	10,5	9,4
Farg'ona	0,2	0,1	5,7	5,4	10,9	10,0
Xorazm	0,5	0,9	5,5	5,4	10,9	9,9
Toshkent sh.	0,3	0,2	3,3	3,8	8,0	7,0

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi**

*umumiy hajmga nisbatan % da*

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>
YaIM	31,0	38,2	60,8	64,6	55,7	54,9
Sanoat	12,9	10,0	26,6	40,6	27,9	27,0
Qurilish	38,4	50,9	52,5	66,7	72,5	72,4
Bandlik	49,7	64,8	74,3	77,9	74,5	74,4
Eksport	10,2	6,0	13,7	27,0	20,5	22,3
Import	22,8	33,7	35,8	44,5	51,7	48,7

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>
Sanoat (mlrd.so'm)	244,0	1104,8	10132,9	39643,5	103020,8	121719,2
Qurilish (mlrd.so'm)	149,0	739,2	4163,2	16954,0	63866,6	77762,0
Bandlik (ming kishi)	4467,1	6602,5	8643,9	10170,4	9865,7	10070,7
Eksport (mln.AQSH.dol)	334,3	325,8	1782,8	3377,7	3100,9	3711,2
Import (mln.AQSH.dol)	672,1	1379,9	3287,9	5523,1	10943,3	12389,0
Savdo (mlrd.so'm)	760,3	4918,9	18616,1	61972,3	164106,1	204787,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	1021,0	5019,7	31900,4	101197,5	253238,2	307280,2
Xizmatlar (mlrd.so'm)	x	x	15214,1	47269,6	114052,7	144812,7
Yuk tashish (mln.tonna)	46,8	156,8	255,2	472,8	638,9	678,9
Yuk aylanmasi (mln.tonna-km)	2304,3	8249,9	6084,5	9225,1	12304,6	13108,1
Yo'lovchi tashish (mln.yo'lovchi)	972,9	2490,4	3084,5	4486,3	4904,8	5237,6
Yo'lovchi aylanmasi (mln.pass.km)	10181,9	29971,5	67874,1	99872,8	107766,7	114681,5

**Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha "Axborot va aloqa" sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

<b>Tarmoqlar</b>	<b>2016</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>
<b>Axborot va aloqa - jami</b>	<b>6 370</b>	<b>7 901</b>	<b>9 517</b>	<b>10 587</b>
Kitoblar nashr qilish	84	145	193	217
Ma'lumotnoma va ro'yxatlar nashr qilish	21	7	8	7
Gazetalar nashr qilish	106	315	337	324
Jurnallar va davriy nashrlar nashr qilish	39	176	182	211
Nashirlik faoliyatining boshqa turlari	216	270	358	405
Kompyuter o'yinlarini chiqarish	82	109	136	130
Boshqa dasturiy ta'minotlarni chiqarish	122	248	315	352
Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqarish	115	227	293	353
Kino- videofilmlar va televizion dasturlar tayyorlashning ishlab chiqarish bosqichi	12	42	53	59
Kinofilmlar, video va televizion dasturlarni tarqatish	46	46	49	47
Kinofilmlar namoyish qilish	95	95	99	84
Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat	125	76	84	77
Radioeshittirish	227	87	88	66
Televizion dasturlarni yaratish va namoyish qilish bo'yicha faoliyat	99	92	106	106
Simli aloqa xizmatlarini taqdim etish	845	457	463	362
Simsiz aloqa xizmatlarini taqdim etish	1 025	1 127	1 382	1 457
Yo'ldosh vositasidagi aloqa xizmatlarini ko'rsatish taqdim etish	16	20	24	22
Boshqa telekommu-nikatsiya xizmatlari ko'rsatish	368	805	1 017	1 255
Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat	370	710	896	1121
Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari	169	309	387	461
Kompyuter uskunalarni boshqarish bo'yicha faoliyat	66	149	198	243
Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari	1 020	1 217	1 433	1 596
Ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	92	396	510	628
Web-portallar	3	70	97	109
Axborot agentliklari faoliyati	454	188	175	171
Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat	553	518	634	724

## Izohli lug‘at (glossariy)

-A-

**Absolyut** - mutlaqo - aslo - ustunlik- bu degani qachon birorta firma, korxonaga boshqasiga qaraganda o‘zining mahsulotini ko‘proq samarali ishlab chiqarishi mumkin.

**Aktiv** (*asset*) har qanday qimmatbaho firmaga, uy xo‘jaligiga yoki alohida shaxsga qarashli narsa.

**Aval** (aval) (veksel kafolati)

1. Veksel egasi oldida mas‘ul shaxs;
2. Vekselning oldi tomoniga yoki unga qo‘shimcha varoqda imzo shaklida ifoda etilgan bank kafolati.

**Avizo** (*it. awiso*), (*xabarnoma*) – banklar, kommertsiya amaliyotida rasmiy ravishda hisob - kitob operatsiyalarini bajarilganligi to‘g‘risida xabardor qilish. Banklar avizo yordamida o‘zlarining mijozlariga debet va kredit yozuvlar, schyotda qolgan qoldiq mablag‘lari, o‘tkazilgan pullarga to‘langan to‘lovlar, berilgan cheklar, ochilgan akkreditivlar va hokozolar haqidagi operatsiyalar.

**Agent** (*lat. agentis - hal qiluvchi*) – kommertsiya vositachisi; idoralarning har xil topshiriqlarini bajaruvchi vakili.

**Audit** (frans. *aveitr - mol - mulk , boylik*)

1. Pul hujjatlari (cheklar, veksellar, pul o‘tkazish, akkreditivlar), bular yordamida har xil to‘lovlar bajariladi va ularning ixtiyorida bo‘ladigan majburiyatnomalarni to‘lash.

2. Banklarning schyotida xorijiy banklarida turadigan chet el valyutalari vositasi.

**Abbreviatura** (*qisqartma so‘z*) – bosh harflardan to‘zilgan qisqartma murakkab so‘zlar, axborotlar almashish maqsadida va ularning samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi.

**Ayirboshlash** – (*obmen, barter*) - almashish, ayirboshlash, biror tovarni boshqa bir tovarga yoki mahsulotga ekvivalent (tenglik) asosida almashtirish.

**AKSIYA** (*lat. action - u eshitadi*) – xo‘jalik faoliyati tahlili, tekshirish, reviziya qilish.

**Aksiya** – (fr. *Action*) pay pul barobariga beriladigan va aksiyadorlar jamiyati ishda qatnashish, uning daromadlaridan dividend shaklida hissa olish huquqini beradigan qimmatbaho qog‘oz.

**Aksil** (fr. *action*) - pay pul barobariga beriladigan aksiyadorlar jamiyati ishida qatnashish, uning daromadlaridan dividend shaklida hissa olish huquqini beradigan qimmatbaho qog‘oz.

**Assotsiatsiya** (lat. associative - birlashtirish) - jismoniy, yuridik shaxslarning ixtiyoriy birlashmasi.

**Auksion** (lat. auctio - ochiq savdo) - tovarlarni haridorlarga tanlov asosida sotish, bunda tovarlar (yoki uning namunalari) oldindan ko'rgazma qo'yiladi. Auksion shaklida to'lashga qodir emas, to'lay olmaydigan qarzdorlarning ham mol-mulki majburiy sifatda sotishga qo'yiladi .

**Avtarkiya** (grek, avtarkeia - o'zini qoniqtirish)

1. Davlatning boshqa davlatlar siyosiy iqtisodiga bog'liq bo'lmagan mustaqil milliy xo'jalik yaratishga qaratilgan reaksiyon siyosati.

2. Zarur narsalarni chetdan olmasdan o'zi yetkazishga asoslangan milliy xo'jalik sistemasi. Bunday mamlakatning fuqarolari xalqaro bozorlarda tovar va xizmatlarni sotish va sotib olish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni erkin amalga oshira olmaydi.

**Aksiz** - tovar yoki xizmat narxiga qo'yiladigan bilvosita soliq turi.

- B -

**Bank** (frans. banque) - pul vositalarini jalb qilish va ularni joylashtirish uchun o'zining nomidan qaytarib berish, to'lashga qodir, zudlik shartida ish olib boradigan moliyaviy idora yuridik shaxs hisoblanadi.

**Buxgalteriya balansi** – korxonada, firma va idoralarning iqtisodiy hisob - kitob faoliyatini aks ettiradigan ko'rsatkich sistemasi (pul ifodasi) bo'lib, yalpi jadvalda guruhlarda ko'rsatilgan holda, ularning hisobot vaqtida joylashishi, vositalarning manbaini va tayinlanishini ko'rsatadi. Ikkita qismdan iborat: chap tomonidan - aktiv, o'ng tomonidan - passiv bo'ladi. Aktiv va passivlarning jami barovar bo'lishi shart (shakl - 1).

**Biznes** (angl, business) - daromad-foyda olib keladigan iqtisodiy faoliyat; umuman har qanday daromad yoki shaxsiy foyda, manfaat keltiradigan faoliyat kichik, o'rta va yirik biznes turi.

**Birja** (lat. bursa) - bu ulgurji bozorning doimiy ishlab turadigan asosiy shakli bo'lib, unda qimmatbaho qog'ozlar oldi - sotdisi fond birjasi). Valyuta oldi - sotdisi (valyuta birjasi) yoki standartlar va namunalar bo'yicha tovarlar sotiladigan (tovar birjasi) muassasi va hokazolar.

**Bojxona** - davlat chegarasidan olib o'tiladigan yuklarni va aloqa sohasida mol - mulklarni nazorat qiluvchi davlat idorasi. Shu yuklardan poshlina va boshqa to'lovlar olinadi. Bojxonalar dengiz va daryo portlarida, xalqaro aeroportlar, temir - yo'l stansiyalarida, mamlakatning yirik markazlarida joylashadi.

**Bozor** (market) - sotuvchilar haridordar bir - birini topadigan joy. Tovar va xizmatlar sub'ektlari va pul sub'ektlari o'rtasidagi ayiriboshlanadigan iqtisodiy munosabat. Taklif bilan talab o'rtasidagi narx - navo.

**Bozor bahosi** - (market ekonomik)- tovar va xizmatlar haqiqatda pulga ayirboshlanadigan narx. Taklif bilan talab aniq muvozanatga keltiriladigan narx - navo.

**Bozor iqtisodiyoti** - (market ekonomik, - bu iqtisodiyot tizimining bir turi bo'lib, bu yerda davlat miqyosidagi iqtisodiy qarorlar bozorida ayrim sotuvchilar va haridorlar qabul qiladigan qarorlarning natijasi bo'ladi. Bozor iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatishi asosan bozor mexanizmlari (talab, taklif, narx - navo va raqobat) orqali amalga oshiriladi.

**Bozor infratuzilmasi** - bozor sub'ektlari hamma turdagi mulkdorlar o'rtasidagi o'zaro harakatni ta'minlovchi idora, firma. Bular jumlasiga tovar bozorini ta'minlovchi ulgurji va chakana savdo, korxonalar, auksionlar, yarmarkalar, tovar birjalari, moliyaviy bozorni ta'minlovchi banklar sistemasi, fond birjasi, valyuta birjasi, brokerlik va surg'urta kompaniyalari va hokazolar kiradi.

**Budjet** - (budget)

1. Ko'rsatilgan va tasdiqlangan ravishda daromad (kirish) va sarf - harajatlarni (chiqim) ma'lum bir davrga mo'ljallangan moliya - pul ifodasida aks ettiradigan ro'yxat.

2. Loyihalarning sarf - harajatlar smetasi.

3. Davlatning moliyalashtirish vazifasini ta'minlovchi shakldagi hujjat.

**Bozor strategiyasi** - korxonalar, firmalar, korporatsiyalarning bozor sharoitlarida faoliyat yuritish bilan bog'liq uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadlarga erishish yo'lidagi xatti - harakatlari majmui. Odatda bozor strategiyasi ma'lum bir tovar yoki tovarlar guruhi bozorining avvalgi holatini saqlab qolishga yoki mutlaqo yangi holatiga erishishga qaratilgan bo'ladi.

- V -

**Valyuta** (valuta) - so'zma - so'z - baho, qiymat.

1 . Mamlakatning pul birligi.

3. Xorijiy davlatlarning pul belgisi va xorijiy davlatlarning pul birligi (veksel, chek) ifodasida to'lov va kredit vositalari muamalasida xalqaro hisob - kitoblarda foydalaniladi.

**Valyuta kursi** - mamlakatlarning pul birligining boshqa mamlakat pul birligidagi ifodasi - ayirboshlash narxi.

**Valyuta bozori** - xorijiy valyutasining mustahkam ravishda iqtisodiy munosabatlarida operatsiyalarini va oldi - sotdi, to'lov hujjatlarni ta'minlovchi sistema. Bundan tashqari xalqaro eksport va import hisob - kitoblari o'tkaziladi.

**Venchur kapital** (venture capital) - benihoya yuqori tavakkalchilar xatari darajasidagi kapital sarflanishi mumkin bo'lgan pullar.



**Veksel** (hemwechsel) – qat’iy belgilangan shakldagi yozma, qarz majburiyat majburiyatnoma. Veksel egasi qarz muddati tugaganidan keyin belgilangan pul summasini talab qilishga haqli.

**Valyutaning konvertatsiyalanishi** - tashqi xalqaro hisob - kitoblarda chet el valyutasini milliy va milliy valyutani chet el valyutasiga valyutaga erkin almashtirish. Ichki - biror mamlakatning pul birligiga o’sha mamlakatning banklarida chet el valyutasini sotib olish yoki ana shu banklarga chet el valyutasini belgilangan kurs bo’yicha milliy pul birligiga sotish imkoniyati.

**Vakolat doirasi** - hal etilishi uchun rahbar beradigan vazifalar ko’lami. Umuman tashkilotga daxldor va maslahatlashib olish natijasida qabul qilinadigan qarorlarning "Bamaslahat vakolat doirasi" ham mavjud.

- G -

**Garov** (collateral) - biror qarz olgan narsani qaytarib berilishiga kafolat beruvchi va garovga qo’yiladigan mol-mulk.

**Giperinflyatsiya** - tovar bahosining asossiz ravishda oshib ketishi natijasida pul massasining tez sur’atda oshib ketishi, ishlab chiqarish holatining pasayib ketishi, oqibatda muomalalariga juda ko’p pulning asossiz chiqarilishi va qadrsizlanishi.

**Guvohliq** – reklama turi; unda mashhur kishilarning muayyan mahsulotdan foydalanayotganliklari va mazkur mahsulot ularga manzur ekanligi haqidagi bayonotlar e’lon qilinadi.

Gonorar - muallifga fan sohasidagi chop yoki biror narsani kashf etilganligi haqida beriladigan mukofot.

Gastrabayter - (nem. Gastrabeter – ishchi imigrant) - davlatlardan rivojlangan davlatlarga kelib ishlaydigan chet ellik kishilar.

Daromad

1. Biron - bir faoliyat natijasida qo’lga kiritilgan pul yoki boshqa boylik.
2. Amalga oshirilgan ishlab chiqarish yoki ko’rsatilgan xizmatning tannarxi bilan ishlab chiqarish harajatlari o’rtasidagi farq sifatida olingan faoliyat natijasi.
3. Qimmatbaho qog’oz egalariga to’lanadigan, qimmatbaho qog’ozlarning joriy narxidan kelib chiqib belgilangan dividendlar va foizlar. Omonatlar va depozitlarga monand.

**Daromad solig’i** - fuqarolarning, korporatsiyalarning oy, yil davomidagi oladigan daromadiga solinadigan soliq.

**Debet** - buxgalteriya hisob - kitobida to’lovga yoki xo’jalik faoliyatiga jismoniy yoki yuridik shaxslar olish uchun tayinlangan summa.

**Devalvatsiya** - boshqa mamlakatlar valyutasiga nisbatan milliy yoki xalqaro pul birligi kursining pasayib ketishi.

**Deklaratsiya** - davlat ichki yoki tashqi siyosatining asosiy prinsiplari aks etgan hujjat.

**Denonsatsiya** - shartnomani bekor qilish; biror davlat tomonidan ikkinchi davlatga ular o'rtasidagi ahdnomaning bekor qilinganligini bildirish.

### **Depozit**

1. **Bank jamg'armasi.**
2. **Zaklad (o'y puli).**
3. **Bankka omonat kassasi yoki foydalanish uchun vaqtincha qo'yilgan pul yoki qimmatli qog'ozlar, qimmatbaholi narsalar.**

### **Davlat**

**1. Jamiyatni tashkil etishning ma'lum usuli, siyosiy tizimning asosiy elementi, butun jamiyatga joriy etiluvchi, zarur hollarda** majburlash vositasi va chorasi sifatida namoyon bo'luvchi ommaviy siyosiy hokimiyatni tashkil etish.

2. Konstitutsion huquqda mamlakat ko'lamida yoki federatsiya sub'ekti sifatida harakat qiluvchi hokimiyatning rasmiy organlari (hukumat, parlament, sudlar va hokazolar) yig'indisi yoxud ana shu organlarning (prefektlari, komissarlari va hokazolari) mahalliy agentlik (vakillari) bilan hududiy hamjamiyatning qonun chiqarish avtonomiyasidan foydalanuvchi organlari anglashiladigan tushuncha.

3. Xalqaro huquq sub'ekti sifatida - xalqaro munosabatlarning asosiy qatnashchisi.

### **Davlat iqtisodiy sub'ekt sifatida**

1. Iqtisodiy hokimiyatni o'z qo'liga olgan, davlat ko'lamida iqtisodiy qarorlar qabul qiladigan davlat mulkini idora qiladigan organlar va shaxslar yig'indisi.

2. Davlat mulki hisoblanuvchi, davlat hokimiyat organlari boshqaruvida va izmida bo'lgan (davlat iqtisodiyoti) iqtisodiy resurslarning, ishlab chiqarish omillari va pul mablag'larning <sup>1</sup> barcha turi.

### **Demokratiya ta'rifi:**

1. Fikrlarni bayon etish erkinligi (oqibatlaridan qo'rqmay nima o'ylasang shuni gapirish).

2. Fikr va yurish - turish erkinligi, tanlash erkinligi.

3. Lavozimidan qat'i nazar odamlarning tengligi.

4. Odamlar o'rtasidagi adolatli (normal, yaxshi) munosabatlar.

5. Boshqaruvda boshliqlarning ham, bo'ysunuvchilarning ham ishtirok etishi.

6. Demokratiya - xalq hokimiyati.

7. Odamlarning huquq va imkoniyatlari tengligi (o'z e'tiqodiga muvofiq harakat qilish erkinligi, ammo ular asoslangan bo'lishi lozim).

8. Intizom, insoniy majburiyatlar.

9. Byurokratizmning yo'qligi.

10. Demokratiya - bu oshkoralik.

11. Demokratiya - ishlab chiqarish va mahsulotni realizatsiya qilishda Ishchilar ishtirokining ishlab chiqarish tizimi.

**Demokratiya** (yunoncha demokratia - demos-xalq -kratos hokimiyat so'zidan)

1. Jamoa faoliyatini uning barcha a'zolari teng ishtiroki sharti bilan tashkil etish tamoyili.

2. Xalq hokimiyatiga asoslangan siyosiy tuzum.

- Ye -

**Yevro** - Yevropa davlatlarining yirik banklarining Yevropa valyutasi bozori resurslari hisobidan chiqaradigan xalqaro zayomlari, qarzga beradigan valyutalar.

**Yevrokredit** - Yevropa davlatlarning yirik banklarining Yevropa valyuta sibozori resurslari hisobidan chiqaradigan xalqaro zayomlari, qarzga beradigan valyutalar.

**Yer rentasi** - qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan yaratiladigan qo'shimcha mahsulotning bir qismi yer egalari tomonidan o'zlashtiriladi. Yerga mulkchilik yuzaga kelishi natijasida shakllanadi.

**Yer kadastr** - yerlarning tibbiy xo'jalik va huquqiy holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'indisi. Yer kadastrida yer egasining qismi, umumiy maydon hajmi, uchastka manzili, yer - suv tarkibi, sifati, daromadlilik, yerning bahosi ko'rsatiladi.

- J -

**Jahon banki** (world bank) - rasmiy nomi Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot - banki bo'lib rivojlanayotgan mamlakatlarning o'sishini rag'batlantirish uchun ularga qarz berib turadigan xalqaro tashkilotdir.

**Jamoa mulki** - umuman mulkchilikning bir shakli sifatida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan boyliklarni birgalikda o'zlashtirishni bildiradi. Ijara korxonasi, jamoa korxonalari kooperativlar, aksioner jamiyatlari, xo'jalik shirkatlari, assotsiatsiyalari va ijtimoiy tashkilotlar kiradi.

**Jam'arma** (economy) - aholining kelajak ehtiyojlarini qondirish va kelajakda harid qilish uchun saqlab qo'yilgan pulli daromadlari; uning hajmi ixtiyorida daromaddan iste'mol harajatlarni ayirish yo'li bilan belgilanadi.

**Jarima** - qonuniy shartnomani yoki belgilangan qoidani bo'zganligi uchun ko'riladigan chora-tadbir, pul to'lovi; jarima.

**Jismoniy shaxs** - iqtisodiy faoliyat yurg'izishda qatnashuvi va bu jarayonning to'la huquqli sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs. Jismoniy shaxs o'zining nomidan ish yuritadi, firma yoki korxonada kabi hokimiyatda ro'yxatdan o'tish majburiyatidan ozod.

**Jahon xizmatlar bozori** - xalqaro tovar almashuvining o'ziga xos sohasi bo'lib, ishlab chiqarish va iste'mol uchun mo'ljallangan xizmatlar oldi - sotdisi bo'yicha turg'un, doimiy operatsiyalar bilan ajralib turadi. Hozirga vaqtda jahon savdo - sotig'ining 1\3 qismi xizmatlar almashuviga to'g'ri keladi. Axborot vositalari, injiniring, konsalting va hokazolalar uning asosiy ob'ekti hisoblanadi.

- Z -

**Zaxiralar** - bankdagi omonatlarning qat'iy belgilab qo'yilgan qismi, undan kreditlar berish uchun foydalanish mumkin emas.

**Zapas zaxira** - firma omborlarida saqlanadigan tovarlar.

**Zayom** - qarz, zayom beruvchi va oluvchi o'rtasida tuziladigan kelishuv bitim. Zayomlar bir necha turlarga bo'linadi:

- davlat zayomi;
- yutuqli zayom;
- tilla zayom
- hukumatlararo zayom;
- ochiq zayom;
- yopiq zayom;
- protsentli zayom va boshqalar.

**Zararlar** - korxonada va xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish harajatlarning daromadlardan oshib ketgan qismi. Zarar bilan ishlaydigan korxonalar moliya va bank organlari tomonidan choralar ko'riladi, nazorat kuchaytiriladi.

- I -

**Import** (angl, import) - mamlakatning ichki bozorida realizatsiya qilish va foydalanishi uchun chet mamlakatlardan olib kelinadigan chet el tovarlari, texnika - texnologiyalar; kapitallar; chet el (partnyorlardan) sheriklardan olingan ishlab chiqarish va iste'mol uchun tayyorlangan xizmatlarni to'ldirish.

**IMPORT kvotasi** - xalq xo'jaligi alohida tarmoqlar, har xil mahsulot ishlab chiqarish uchun, import qismini xarakterlaydigan **miqdoriy** ko'rsatkich.

**Iqtisod** (gr. oikonomika) - xo'jalik uy - ro'zg'or ishlarini yurgazish san'ati.

1. Xalq xo'jaligi tarmoqlarida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarni kiritadi.

2. Ishlab chiqarish sektorlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish) va mamlakat tarmoq - xo'jaliklari bo'limlari, ishlab chiqarish

sharoitlari va elementlarini o'rgatadigan ilm - fan sohasi.

**Inkotermos** - (angl, incoteris) - savdo ishlari termini bo'lib, xalqaro savdo shartlari bo'yicha yuklarni ortish, transportga yuklash, yuklarni tushirish va tovarlarni sug'urta qilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bildiradi. Bu termin xalqaro savdo palatasi tomonidan belgilangan va tomonlarning bitimlarni qabul qilishda majburiyatlarini va huquqlarini to'g'ri aniqlaydi.

**Inson rivojlanish indeksi** - Birlashgan millatlar Tashkiloti 1990 yildan inson rivojlanish indeksi ko'rsatkichini qo'llay boshlagan va bu ko'rsatkich uchta o'lchovning o'rtacha miqdorini bildiradi, ya'ni yalpi milliy mahsulotning o'rtacha jon boshiga to'g'ri kelishi, insonning o'rtacha umr ko'rish darajasi, yoshi 25 va undan katta bo'lgan o'rtacha ta'lim (madaniyat) bilan belgilanadi.

**Injenering** (angl. Engineering - ixtiro etish) - tijorat asosida sanoat sub'ektlarini, infratuzilmasini tashkil etish faoliyati turini o'rganib chiqish va boshqa injener - loyiha xizmatlari ko'rsatish, buning asosiy xizmat turlariga loyihalashtirish oldidagi, loyihalashtirishdan keyingi xarakteriga ega bo'lgan hamda mahsulot xizmat-ekspluatatsiya, boshqaruv, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish kiradi.

**Investitsiya** (nem. investition) - xalk xo'jaligi tarmoqlarida - sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga uzoq muddatli kapital va mablag'larini foiz to'lov yo'l bilan sarflanadigan harajatlar yig'indisidir.

### **Innovatsiya**

1. Texnika - texnologiya bo'g'inlarini yangilash, almashtirishni iqtisodiy kapital mablag'lari bilan ta'minlash.

2. Yangi texnika - texnologiya taraqqiyoti natijalariga erishish. Katta pioner ixtirolarining rivojlanishi va paydo bo'lishi innovatsiyaning omillari bo'lib hisoblanadi.

**Inflyatsiya** - (lat. Inflatio - haddan tashqari ko'tarilgan) muomalaga tovar oboroti hajmidan va uning talabidan oshib ketadigan ko'p miqdorda pulning chiqarilishi va tovarlarga narx - navoning o'sishi, ish haqining pasayib ketishi natijalarida ishlab chiqarishning pasayib ketishi oqibatiga qog'oz pullarining qadrsizlanishi.

**Informatsiya** (information) - dunyo davlatlarining bozorlarida yuz beradigan har xil ma'lumotlarni, xabarlarni yig'ish va ularni qayta ishlab chiqib, iqtisodiy va boshqa rivojlanishda samarali qo'llashdir. Informatsiya qiymati rahbarlarning va ularning xizmatchilarining xabar yig'ish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni o'z ichiga oladi.

***Infratuzilma - moddiy ishlab chiqarish shartlarini ta'minlovchi*** ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi; yo'llar, aloqa, transport, sog'liqni saqlash va boshqalar kiradi.

***Ipoteka*** (garov) - ko'chmas mol-mulkni garovga berib va muayyan muddatga ssuda olish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabat.

***Iqtisodiy o'sish*** (economic growe) - bir davr mobaynida iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish umumiy hajmining ko'payishi; yalpi milliy mahsulotning umumiy hajmining va uning jon boshiga o'sishi bilan aniqlanadi. Iqtisodiyotning harakat qilishidagi natijalarning o'zgarishi ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish deb farqlanadi.

***Ishlab chiqarish kuchlari*** - ishlab chiqarish vositalarini va ularni harakatga keltiruvchi ishlab chiqaruvchi kuchlarining yig'indisi. Har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi moddiy boyliklarni mehnat malakasiga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilardir. Ishlab chiqarishning asosiy ashyoviy qismida ishlab chiqarish vositalari rol o'ynaydi.

***Ishlab chiqarish munosabatlari*** - mahsulot, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda, taqsimlashda, ayirboshlashda va iste'mol qilishdagi iqtisodiy munosabatlarning yig'indisi.

***Ishlab chiqarish usuli*** - ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining yig'indisi.

***Islohot*** - o'zgartirmoq, yangilash, o'zgartirib yubormoq, to'zatisht o'zgartirishlar kiritish, qayta qurish.

***Iqtisodiyot qonuniyati*** - ishlab chiqarish munosabatlari tizimidagi ichki, jiddiy, turg'un, muntazam takrorlanib turuvchi **sabab** - oqibat bilan bog'liq aloqalar.

***Iqtisodiy nazariya*** - iqtisodiy tizimlar, iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy qonunlar va qonuniyatlarga doir ilmiy dunyoqarashlar yig'indisi. Iqtisodiy nazariya iqtisodiyotning eng umumiy jiddiy aloqalarini, zarur sababiy qaramliklarni bozor va boshqa xil iqtisodiyotlarni rivojlantirishning iqtisodiy jarayonlariga xos ichki sabablarni tadqiq etadi. Ishlab chiqarish usullarini rivojlantirish va taqsimotini, mehnat natijalaridan foydalanish yo'nalishlarini, mulkiy munosabatlarining nazariy ifodasi iqtisodiy kategoriyalar (ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovar, pul, kapital, tannarx, ish haqi, renta, soliq, narx - navo, milliy boylik va hokazo) orqali ro'y beradi.

***Iqtisodiyot*** - xo'jalik yuritish san'ati, ro'zg'orshunoslik so'zidan olingan:

1. Moddiy va ma'naviy bo'lmagan ishlab chiqarish tarmoqlarini o'z ichiga olgan xalq xo'jaligi.

2. Mamlakat yoki uning ayrim mintaqalar xo'jaligi sektorlarini (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar) va tarmoqlarini, shuningdek ishlab chiqarishning

ayrim shart - sharoitlari va elementlarini o'rganuvchi ilmiy fan.

**Ishlab chiqarishning umumiy rentabelligi** - balans bo'yicha foydaning ishlab chiqarilgan asosiy fondlar va me'yorlashtirilgan oborot vositalarining o'rtacha yillik qiymatiga munosabati. Rejali iqtisodiyotda qo'llaniladi.

**Ijtimoiy soha** - jamoat ishlab chiqarishning ijtimoiy (nomoddiy ishlab chiqarish) sohasi shunday bir sohaki, unda bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarilmaydi. San'at, madaniyat, sport, maorif, sog'liqni saqlash ijtimoiy sohaga kiradi.

**IS egri chizig'i** - rejalashtirilgan investitsiyalar (L) rejalashtirilgan jamg'armalarga (S) teng bo'lgan sharoitdagi foiz stavkasi va haqiqiy milliy mahsulotning o'zaro aloqasini ta'sirlovchi egri chiziq. Egri chiziq foiz stavkasi pasaygani sayin rejalashtirilgan investitsiyalar va haqiqiy milliy mahsulot o'sib borishidan dalolat beruvchi manfiy og'ishga ega.

Foiz stavkasi

Haqiqiy milliy daromad

IM egri - har bir nuqtasi pul taklifiga (M) talab uchun foiz stavkasi va haqiqiy milliy mahsulot o'rtasidagi aloqani aks ettiruvchi egri chiziq.

Foiz stavkasi

IM

Haqiqiy milliy daromad

**Iste'molchi beparvoligining egri chizig'i** - haridor uchun bir xil qiymatga ega bo'lgan ikki tovar kombinatsiyalarini xarakterlovchi egri chiziq.

**Iqtisodiy model** - miqdorlar tavsifida ifodalangan va tenglamalar tizimida taqdim etilgan iqtisodiy hodisalarning o'zaro aloqasi tizimi. Iqtisodiy model ma'lum bo'lgan yoki saylab beriladigan o'zgaruvchan (egzogen) qiymatlar asosida tenglamalar tizimini yechish yordamida ba'zi o'zgaruvchilarning (endogenlarning) qiymatini topish imkonini beradi. Iqtisodiy modellar makro va mikroiqtisodiy modellarga hamda (ko'zlangan maqsadidan kelib chiqib) bashorat qilinadigan, imitatsiya qilinadigan (biron - bir xatti - harakatning oqibatlarini baholash imkonini beruvchi) va optimal (bir yoki bir nechta maqsadga erishish uchun eng yaxshi variantni izlash maqsadida) modellarga bo'linadi.

**Iqtisodiy xavfsizlik** - 1. Iqtisodiyotning holati mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va mudofaa salohiyati, qay darajada taraqqiy etganligi, mudofaa qudrati, uning iqtisodiy manfaatlari ichki va tashqi tahdidlardan, ta'sirlardan naqadar muhofaza qilinganligi bilan ta'minlanadi; 2. yuridik va iqtisodiy munosabatlar tashkiliy aloqalar bilan, korxonalarining moddiy va aqliy resurslari bilan ta'minlanadi. Mazkur omillar mavjud bo'lsa, korxonalarining

barqaror faoliyat ko'rsatishi, moliya - tijorat sohasidagi muvaffaqiyati, ilmiy - texnik va ijtimoiy rivojlanishi kafolatlanadi.

- Y -

**Yillik foiz stavkasi** - (annual percenta qe vate) -

Kreditning foizlardan hisoblangan yillik qiymati.

**Yillik hisobot** (annual vepore) - kompaniya aksiyalariga taqdim etiladigan va eng muhim moliyaviy ma'lumotlar bayon etilgan hisobot.

**YIG'UV liniyasi** - (asscenibly line) - ishlab chiqarish majmui; unda yig'iladigan qismlar bir ishchidan yoki mashinadan ikkinchisiga o'zatilib turadi.

**Yo'l cheklari** - (travelers cheks) - ayrim banklar va ixtisoslashgan firmalar (masalan American Exprees) tomonidan sotiladigan va yo'qotilganda yoki o'g'irlatib qo'yilganda qaytadan berilishi mumkin bo'lgan cheklar

- K -

**Kapital** (frans.angl.,.capital)

1. Qo'shimcha qiymat olib keluvchi qiymat;  
2. Har qanday shaxslarning majburiyatidan qolgan umumiy aktivlarining qiymati;

3. Iqtisodiyot nazariyada ishlab chiqarish omillarining odatdagi mashina, asbob - uskunalarda, ishlab chiqarish binolarida jismoniy yoki pulda ifodalangan aktivlari;

4. Iqtisodiyotda ifodalangan kapital mablag'lari va pul vositalari hamda investitsiyalar deb ataladi.

**Kapitalizm** (capitalism) - ishlab chiqarish omillarining xususiy mulkligi raqobat va foyda olish maqsadiga asoslangan iqtisodiy tizim.

**Kvota** (quotas) - chet ellardan mamlakatda olib kelinishi mumkin bo'lgan import tovarlarining miqdorini cheklash.

**Kafil** (so-signer) - agar siz olgan qarzingizni o'zingiz to'lay olmasangiz, siz uchun uni to'lashga kafolatini oladigan puldor odam.

**Kichik biznes** (small business) - tadbirkorlik faoliyati shakllaridan biri. Kichik biznesda kapital faqat birinchi darajali sohalarga sarflanadi, iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etadi. Sanoat va qurilish sohasida yangi tashkil etilgan va amal qilayotgan korxonalar kiradi. Kichik biznesmenlar asosan - tavakkal, raqobat, soliq, kredit va o'zgartirib turadigan qiyinchiliklar bilan ko'proq uchrashib turadi.

**Kambist** - valyuta operatsiyalari bo'yicha mutaxassis.

**Kliring** (clearing)

1. O'zaro zachyot talabnomasi asosida tovarlar, qimmatli qog'ozlar va ko'rsatilgan xizmat bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar.



2. Eksport va import balans beruvchi ikki tomonlama hisoblar tizimi.

**Kommivoyajer** (commercial traveller) - mijoz talabiga ko'ra uni sotib oladigan haridorni qidiruvchi ta'minotchi, vositachi.

**Konkurensiya, raqobat** (competetion) resurs va mahsulotlarni olish - sotishda sotuvchilar va haridorlar o'rtasidagi raqobatchilik, kurash

**Kompentensiya** (ability) - vakolat, huquq doirasi.

**Kompensatsiya** (compensation) - qoplash, rag'batlantirish yoki bir majburiyat to'lovini ikkinchisi bilan to'lash; biror narsa uchun to'lanadigan pul, haq, tovon, badal.

**Konsalting** (consulting) - tashkiliy, texnikaviy, moliyaviy iqtisodiy masalalar bo'yicha ishlab chiqaruvchilar, sotuvchi va haridorlarga maslahat berish muassasalari.

**Kredit** (credit) - foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanish uchun pul yoki material mablag'lari jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi, qarz, nasiya.

**Kurs** (exchange, line, rate) – aksiya, obligatsiya, boshqa qimmatli qog'ozlarning oldi - sotdisiga qo'yiladigan bahs; qog'oz pullar kursi ularni oltin valyutada yoki boshqa mamlakat valyutasida aks etish.

**Ko'chmas mulk** (real estate, immovalles) - yer, tabiiy hududlar va yeri bilan bog'langan mulk. Yerga egalik huquqlari ham ko'chmas mulkka kiradi.

**Kupon** (coupon)

1. Foiz yoki dividend berilgan qimmatli qog'ozning qirqib olinadigan bir qismi.

2. Vaqtincha pul taqsimlash birligi.

**Krizis** (crisis) - nizoning keskin shakli; maqsad va mablag', taktika va strategiyaning qarshiligi, qimmatli narsalarni katta baholashni aks ettiradi. Ishlab chiqarish sub'ektlarining keskin pasayishi bilan belgilanadi.

**Kurtaj** (courtage) - birja bitimini amalga oshirganda vositachilik uchun brokerga beriladigan mukofot. Kurtaj stavkalari qimmatli qog'ozlar va tovarlarning hajmi xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Kurtaj miqdorlari birjalarning ustavlari yoki birja bitimi qatnashchilari va broker o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanadi.

**Konsern** (concern) - korxonalar birlashishining rivojlangan shakli, moliya aloqalari, manfaatlar asosidagi shartnomalar, shaxsiy maqsadlar asosida faoliyat ko'rsatadi. Boshqaruv tizimining bir turi.

**Konsessiya** (concession) - sanoat korxonalarining yerdan foydalanganligi uchun davlat va xususiy tadbirkor o'rtasida to'zilgan shartnoma.

**Ko'rsatkich** - faoliyat ayrim jihatlarining raqamlardagi tavsifi. Uning quyidagi turlarini farqlashadi: mutloq ko'rsatkich (ishlovchilar soni tovar oboroti va hokazo), nisbiy ko'rsatkich (korxonalar yoki tashkilotning o'z kapitali va qarzga olgan kapitali, asosiy va oborot jamg'armalari nisbati va hokazo). Ko'rsatkichlarni ularning kelib chiqishi va mazmunidan kelib chiqib guruhlarga ajratishadi - balans, xodimlar, ishlab chiqarish, moliya, reja ko'rsatkichlari va hokazolar shular jumlasidan. Ko'rgazmalikni ta'minlash va o'zaro aloqalarni aniqlash uchun ko'rsatkichlar tizimi yaratiladi, ko'rsatkichlarni tahlil qilish va solishtirish yo'li bilan u yoki bu korxonaning ahvoli shu turdagi boshqa korxonaning ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi.

### **Klassifikatsiya**

1. Bilimning biron - bir sohasidagi bir - biriga qaram tushunchalar tizimi.
2. U yoki bu ob'ektlarni ularning umumiy belgilaridan kelib chiqib klasslarga (bo'limlarga, razryadlarga) ajratish.

**Kumulyativ samara** - omillari asta - sekin jamlab borish, to'plash va keyinchalik ularning "portlash" ta'siri hisobiga erishiladigan iqtisodiy, moliyaviy samara.

**Ko'lam samarasi** - ishlab chiqarish ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi ko'payib borgani sayin uzoq mudatli o'rtacha harajatlar qisqarib boradigan qilib tashkil etilganida vujudga keluvchi samara.

**Konsensus** (lot. Rozilik, yakdillik so'zidan) - xalqaro va amaliy konferensiyalar, mo'zokaralarning qatnashchilari nizoli masalalar yuzasidan erishadigan umum roziligi. Konsensus keyinchalik xalqaro shartnomalar va bitimlarning imzolanishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Konsensus hammaning to'liq yakdilligini anglatmaydi.

### **Konservatsiya** (lot, conservation - so'zidan)

1. Biror narsani asrab qolish, uzoq vaqt saqlashga tayyorlash bo'yicha ishlarni olib borish.

2. Bunyodkorlik ishlari vaqtincha to'xtatilgan qurilishlarda binolarning tiklangan qismlari va inshootlarini asrash maqsadida, bunyodkorlik ishlarini vaqti kelganda davom ettirish uchun amalga oshiriladigan ishlar.

Konservatsiyani amalga oshirish uchun zarur kapital mablag'lar u nazarda tutiladi. Konservatsiya qiladigan qurilishlar va ob'ektlar sirasiga ish haqidagi hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan qurilishlar va ob'ektlar kiradi.

**Konsignant** (lot. consignatio - so'zidan) - odatda konsissioner (konsignator) orqali xorijga sotiladigan tovarning egasi.

**Konsignator** - tovarlar turkumini mukofot evaziga o'z ombori orqali, o'z nomidan xorijga sotuvchi agent.

**Konsignatsiya** - (lot. consignatio so'zidan) - yozma dalil, hujjat;

- tovarlarning vositachilik savdo - sotig'ini ko'rish, bunda tovar egasi konsignant vositachining ombori orqali sotish uchun tovarlarni kommissionerga topshiradi. Konsignatsiya shartnomasi bo'yicha ishlab chiqaruvchi yoki diler tomonidan tovarlar; agentga eng yaxshi narxda sotish uchun jo'natiladi, ayni vaqtda tovarlar jo'natuvchining mulki bo'lib qolaveradi. Konsignatsiyaning odatdagi sharti - vositachining omborida tovar 1 - yildan 15 yilgacha saqlanadi, shu vaqt ichida tovar sotilmasa, u egasiga (eksport qiluvchiga) uning hisobi evaziga qaytariladi.

**Konosamment** - (fransuzcha *connaissance*) - transport korxonasi odatda kemachilik yoki aviz korxonasi agenti tomonidan yuk jo'natuvchiga berilgan tashish uchun yuk qabul qilinganini tasdiqlovchi va yuk tashuvchining belgilangan joyda yukni konosament egasiga topshirish haqidagi majburiyati bayon etilgan tilxat. Savdo - sotiq sohasida konosament muhim hujjat hislanadi, u yuk tashish shartnomalari mavjudligini tasdiqlaydi va uning shartlari ijrosini nazorat qiladi. Konosament qog'oz pul hisoblanadi, uni topshirish qimmatbaho qog'ozlarni (egasining nomi yozilgan va muhofaza qilingan konosament, ko'rsatuvchiga berilgan konosament) topshirish qoidalarini bo'yicha **amalga oshiriladi**. Konosamentda transport vositasining **yuk tashuvchini** jo'natuvchining, yuk qabul qiluvchining nomi, yuk qabul qilingan, ortilgan joy, yuk qanday maqsad uchun mo'ljallangan, nomi, kira haqi va yuk tashuvchiga daxldor boshqa to'lovlar, konosamentlar qachon va qayerda borilgani, necha nusxada to'zilgani ko'rsatiladi. Sug'urta qilingan konosament sug'urta polisini ham o'z ichiga oladi.

- L -

**Lag (lag)** – Harajatlarni amalga oshirish va iqtisodiy samara olish o'rtasidagi vaqt o'zilish.

**Lizing** (leasing) - mashina, asbob-uskunalar, transport vositalarini, texnikani, ishlab chiqarish binolarini, inshootlarini, uzoq muddatli ijaraga berish. Ijaraning bir turi bo'lib muayyan davrdan keyin, ijara to'lovlarining hammasi amalga oshirilgandan keyin ijaraga olingan narsa ijarachi mulkiga aylanadi.

**Legitimatsiya** (legemation)

1. Hujjatni e'tirof qilish, tasdiqlash, tan olish;
2. Huquqni yoki vakolatni tan olish yoki tasdiqlash.

**Likvidlilik** (licvidity)

1. Narxlarning o'zgarishi bilan yirik miqdordagi qimmatli qog'ozlarni bozorning o'zlashtirish qobiliyati;
2. Kompaniyani tez va oson sotiladigan asosiy yoki oborot kapitali elementlari.

**Litsenziyalash** (license) - ba'zi xo'jalik faoliyati va tashqi savdo operatsiyalarini bajarish uchun davlat tomonidan beriladigan ruxsat. Yangi texnika va texnologiyaga asosan litsenziya uch xil bo'ladi;

- oddiy litsenziya;
- maxsus litsenziya;
- to'la litsenziya.

- M -

**Makroiqtisodiyot** (macroeconomics) - iqtisodiyotni yaxlit holda o'rganish (budjet, investitsiya, inflyatsiya, ishsizlik).

**Mikroiqtisodiyot** (microeconomics) - mikroiqtisodiyotning ayrim qismlarini o'rganish, unda bozor jarayonlariga va o'sha ayrim qismlar qanday ishlashiga asosiy e'tibor beriladi (korxonalar, firma, ayrim mahsulot ishlab chiqaradigan xo'jaliklar).

**Makler** (banian) bitimlar kelishuvidagi vositachi. U bitim to'zmaydi, balki bitim to'zish uchun haridorlarni jalb etadi, buning uchun vositachilik haqi oladi.

**Marketing** (marketing) - umuman bu insonlarning talabini qondirish maqsadida bozor bilan ishlash. Buning asosiga tovarlarni ishlash, bozorlarni tadqiqot qilish, tovarlarni taqsimlashni ta'minlash, narx-navo qo'yish, bozordagi xizmat ko'rsatadigan servislarni ishga solish, tovarlar sotilishini ta'minlash, ayirboshlashni tezlashtirishga qaratilgan faoliyat.

**Mentolitet** - (aql, fahm-farosat) - muayyan guruh uchun xos bo'lgan fikrlash tarzi, aql - idrokining darajasi.

**Menejer** (manager) - korxonalar, firma, bank rahbari hamda tashkilotchi, boshqaruvchi, koordinator, hamma narsaga javob beruvchi, alohida xo'jalik mustaqilligi bilan ajralib turuvchi shaxs.

**Menejment** (menegement) - korxonaning moliyaviy xomashyo material va intellektual resurslarini boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishning bilish jarayoni.

**Mehnat** (labor) - tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun inson sarflaydigan jismoniy va aqliy kuch-g'ayrat. Maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatish.

**Mehnat resurslari** (bilman resources) - doimiy ishlovchi va ish qidiruvchi 16 va undan katta yoshdagi barcha fuqarolarni o'z ichiga oladi. Har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyatning muhim t-element hisoblanadi.

**Mehnat birjasi** (employment exchange) - mehnat bozorining instituti, ish beruvchilar va yollanma ishchilar kuchi o'rtasida vositachilik qiladigan bo'g'in. Mehnat birjasi yordamida davlat mehnat bozoriga o'z ta'sirini o'tkazadi, ishga joylashish muammolarini boshqaradi. Mehnat birjasi

mamlakat, jahonning turli- tuman hududlarida ishchi kuchiga bo‘lgan talab va takliflarini o‘rganadi, yoshlarni ishga joylash, kasbga yo‘naltirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

**Milliy banklar** (national banks)

1. To‘liq yoki qisman milliy kapitalga tegishli va uning manfaatlari yo‘lida harakat qiluvchi banklar.

2. AQSh da tajorat banklarining nomi bo‘lib, ular faoliyati federal qonunlar bilan boshqariladi.

3. Ba’zi mamlakatlarda markaziy banklar shunday nomlanadi.

4. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki.

**Milliy boylik** (national wealth) - jamiyat ixtiyorida bo‘lgan barcha moddiy boyliklar. Ishlab chiqarish fondlari, nomoddiy ishlab chiqarish fondlari, oborot mablag‘lari va boshqalar kiradi.

**Milliy valyuta tizimi** (national monetary system) - bir mamlakatda valyuta amal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy va qonuniy munosabatlar yig‘indisi.

**Milliy daromad** (national income) - mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilab beruvchi umumlashgan muhim ko‘rsatkich. Mamlakatda ma’lum bir davr ichida yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulotning bir qismidan iborat. Yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish harajatlarning chegirib tashlangan qismi (amortizatsiya ajratmalari). Mamlakatda yil davomida vujudga kelgan barcha daromadlar yig‘indisi deyish mumkin.

**Milliylashtirish** (nationalisation) - xususiy shaxslar mulklarini tegishli davlat organining maxsus aktiga kura davlat ixtiyoriga o‘tkazilishi.

**Moliyaviy yoki pul bozori** (money market) - bu moliyaviy mablag‘lar, ya’ni pul zayomlar, aksiyalarga bo‘lgan talab va taklifni aks ettiruvchi bozor. Moliyaviy bozorda individiumlar va muassasalar pulni qarzga oladilar va beradilar. Odatda moliyaviy bozor fond, valyuta birjalari faoliyat ko‘rsatishni talab etadi.

**Moliya siyosati** (financial policy) - iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi; davlat o‘z funksiyalari va vazifalarini amalga oshirilishi uchun moliyaviy mablag‘larni shakllantirish va ulardan foydalanish tadbirlari yig‘indisi. Misol uchun, soliq siyosati, amortizatsiya siyosati, moliya siyosatining tarkibiy qismlaridir.

**Monetarizm** (monetarism) - moamalada bo‘lgan pul ta’limotini aks ettirgan iqtisodiy nazariya. Monetarizmning ilk formasi; muomaladagi pul massasi xo‘jalik konyunkturasining- yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi omil

bo‘lib, muomaladagi pul massasini o‘zgarishi bilan yalpi milliy mahsulot miqdori o‘rtasidan to‘g‘ri aloqa o‘rnatiladi.

**Monitoring** (monitoring) – Insonning xo‘jalik faoliyati orqali atrof - muhitning holatini har tomonlama ko‘zlash, tadqiqot qilish, baholash va oldindan aytib berish (prognozlash).

**Monopoliya** (monopoly) - davlat, korxonalar yoki jismoniy shaxslarga u yoki bu faoliyat olib borishi uchun berilgan alohida huquq; yirik firmalar, kompaniyalar yoki ularning birlashmalari; yakka hokimlik.

**Mulk** (acres, demesne; command; domain; dominion) - birorta narsaga, mulkka egalik qilish, ko‘chmas mulk (uy, uy anjomlari). Mulkchilik kishilar o‘rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o‘zlashtirish yuzasidan paydo bo‘lgan mulkiy munosabatlar. Mulkning ob‘ekti fuqaro yaratgan moddiy va madaniy boyliklar, tabiat boyliklari intellektual mehnat mahsulati va mehnat qobiliyati hisoblanadi. Jamiyatda mulk turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: xususiy, jamoa, davlat, aralash mulk va hokazo.

**Mezon** - belgi, unga asoslanib baho beriladi, klassifikatsiya qilinadi, o‘lchov birligi.

**Moddiy** ishlab chiqarish sohasi - xalq xo‘jaligi tarmoqlarining va faoliyatining moddiy ne‘matlarni yaratuvchi yoki muomala sohasida ishlab chiqarish jarayonining davomi hisoblanadigan vazifalarni bajaruvchi turlari yig‘indisi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida mashg‘ul bo‘lgan xodimlarning mehnati ishlab chiqarish texnik u maqsadga mo‘ljallangan mahsulotlarda, xalq iste‘moli tovarlari va buyumlarida, transport mahsulotlarida, moddiy xizmatlarda moddiy qiyofa kasb etadi.

**Muomala sohasi** - siyosiy iqtisod tushunchasi bo‘lib, kapitalning to‘liq aylanish bosqichini hamda ishlab chiqarish fondlari va ularning xizmat shakllari o‘zgarishini qamrab oladi. Muomala sohasi tovarning tayyorlanish va uning iste‘moli turli bosqichlari, ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish bosqichlari o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ladi. Muomala sohasini tashkil etishda savdo, tarmoqning moddiy - texnika ta‘minoti muhim rol o‘ynaydi. Ular iqtisodiy statistikada moddiy ishlab chiqarish sohasiga kiritilgan, sababi ularning faoliyatida ishlab chiqarish jarayonlari, materiallarni bichish, qadoqlash va hokazolarning solishtirma vazni anchagina katta. Muomala sohasida dilerlar, distribyutorlar, ekspeditorlar va boshqalar muhim rol o‘ynaydi.

- N -

**Narx** (prise) - tovar va xizmatlar qiymatining pulda ifodalanishi; xo‘jalik mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy vosita. Bozor sharoitida narx qiymat

o'Ichovi, rag'batlantirish omili, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi.

**Nafaqa** (pension) - fuqarolarga ma'lum yoshga yetganda, nogiron bo'lib qolganda, boquvchisini yo'qotganda, ko'p yillik xizmatlari uchun davlat tomonidan beriladigan doimiy pul to'lovlari.

**Netto** - foiz (net interest) - davlat budjetining moddasi; unda davlatning investitsiyadan daromad tarzida oladigan foizlari bilan to'planib qolgan qarzlari bo'yicha to'laydigan foizlari o'rtasidagi farq ifodalanadi.

**Nisbiy ustunlik** (comparative advantage) - biron-bir tovar ishlab chiqaruvchi mahsulot ishlab chiqarishni boshqalardan ko'ra kamroq chiqim bilan o'zgartira olsa, u ustunlikka ega bo'ladi.

**Nomukammal raqobat** (imperfect competition) – Joan Robinson muomalaga kiritgan ibora; unda sotuvchilar narx belgilashda mukammal raqobatga nisbatan ko'proq, ammo monopoliya sharoitida bo'lganidan ko'ra kamroq erkinlikka ega bo'lgan bozorlarni tavsiflash uchun foydalaniladi.

**Negotsiant** (negotiant) - boshqa mamlakatlar bilan yirik savdo ishlarini bajaruvchi tijoratchi; savdogar.

**Nomenklatura** (nomenclature) - buyumlar, narsalar, nomlar, ro'yxat, masalan, schyot, tovar nomenklaturasi.

**Nominal** (nominal cost) - tovarda ko'rsatilgan narx; pul birligi yoki qimmatli qog'ozga yozib qo'yilgan qiymati.

**Me'yoriy** (norm, standart) - minimal talab darajasida belgilangan, qurilish tashkilotini to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydigan pul ko'rinishidagi oborot mablag'larining rejadagi miqdori. Iqtisodiy va texnikaviy ko'rsatkich bo'lib, bu ko'rsatkich asosida qandaydir ish bajariladi.

**"Nou-xau"** (know-how) - korxonada va professional faoliyatda amaliy qo'llanilgan tajriba va ilmiy-texnik. Ishlab chiqarish ma'muriy, moliyaviy, tijorat xarakteridagi turli xil yangi bilimlar yig'indisi; "Nou-xau" dan foydalanish litsenziya shartnomalarini to'zish asosida amalga oshiriladi.

**Nomoddiy ishlab chiqarish sohasi** - faoliyatning aholiga va xalq xo'jaligiga xizmat ko'rsatishga doir tarmoqli va turlari yig'indisi.

**Obligatsiya** (bonds) - o'z egasiga nisbatan korporatsiya yoki davlat idorasining qarz majburiyatidan guvohlik beruvchi sertifikat.

**Oltin bilan ta'minlash** (gold backing of currency) - olingan majburiyatning bajarilishini ta'minlash uchun oltin zapasi ko'rinishidagi garov narsalari. Masalan, zayom, kredit, shartnomani oltin bilan ta'minlanganligi.

**Oligopoliya** (oligopoly) – bir necha yirik firmalar hukmronlik mavqeini egallab turgan bozor.

**OPYeK** (Neftni eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti - Organization of petroleum exporting countries)

U 1960 yilda tashkil etilgan bo‘lib tarkibiga Eron, Iroq, Vnesuela, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Qatar, Indoneziya, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, Aljir (Jazoir), Nigeriya, Ekvador, Gabon davlatlari kiradi. OPYeK jahon bo‘yicha neft savdosi hajmining yarmiga yaqinini nazorat qiladi, neftning rasmiy bahosini belgilaydi, ko‘pincha bahoning jahon darajasini aniqlab beradi. Shtab kvartirasi Venada joylashgan.

**Oligarxiya** (oligarchy) - bir to‘da shaxslarning yoki guruhlarining (boylar, harbiylarning) siyosiy va iqtisodiy hukmronligi bo‘lgan tuzum.

**Oila budjeti** (family income) oilaning mazkur vaqtda vujudga kelgan pulli yoki jami daromadlari va sarf-xarajatlari.

**Oferta** (offer) - sotuvchining tovar turkumini sotuvchi belgilangan shartlar asosida sotish haqida ehtimol tutilgan haridorga yo‘llangan yozma taklifi. Bunday taklifni yo‘llagan firma yoki shaxs oferent deb nomlanadi. Ofertada quyidagilar ko‘rsatiladi:

- tovar nomi;
- uning miqdori;
- narxi;
- bazis shartlari;
- idish va o‘raladigan narsa xususiyati;
- tovarni qabul qilib olish - topshirish tartibi;
- yuridik manzil, imzo.

Xalqaro savdoda ikki xil oferta farqlanadi: qat‘iy oferta va erkin oferta

- P -

**Pay** (share) – qism, a‘zolik hissasi, badal, pay; birorta korxonada tashkil etilganda a‘zolari to‘laydigan a‘zolik badallari.

**Patent** (patent) – yangi tovar yoki g‘oyadan 17 yil davomida tanho foydalanish huquqiy.

**Pakt** (pact) - pakt, bitim, ahd, ahdnoma; xalqaro shartnoma

**Paritet** (parity)

1. Ikkala tomonning baravarligi, tengligi;
2. Har xil davlatlarning pul birligi o‘rtasidagi solishtirish, ya‘ni yoki oltin miqdorida yoki ularning sotib olish kuchi. Pul birligining oltin bilan ta‘minlanishi.

**Penya** (fine) - to‘lov muddatini bo‘zganligi uchun qo‘llaniladigan sanksiya (jarima) to‘lov summasiga nisbatan foizda olinadi.



**Proteksionizm** (protection) - davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

**Pudrat** (lease) - shartnoma yoki xo'jalik yuritishning bir turi. Bir tomonning ikkinchi tomon talabiga ko'ra belgilangan ishni bajarishi to'g'risidagi shartnoma. Masalan, qurilish tashkilotining jamoa xo'jaligiga biror ob'ektni qurish to'g'risidagi kelishuvi.

**Pul** (cash) - o'ziga xos tovar, barcha tovarlar qiymatining umumiy ekvivalenti. Tovar qiymatini ifodalaydi. Turlari:

- metall;
- qog'oz;
- kredit, elektron pullar ayirboshlashda umumiy vosita bo'lib xizmat qiladi, pul birligi funktsiya (vazifa) ni bajaradi;
- qiymat o'lchovi;
- muomala vositasi;
- jamg'arma vositasi;
- to'lov vositasi;
- dunyo pullari vositasi. Pul *eng* likvidli tovar - vosita.

**Pul bozori** (money market) - tijorat bank, davlat, firma xususiy shaxslarning pul mablag'lari harakatiga xizmat ko'rsatadi. Pul bozori inflyatsiyaning oldini olish, budjet defitsitini yo'qotishga ta'sir etadi.

- R -

**Regressiv teskari soliq** (regressive tax) - soliqning bir turi; unga binoan yuqori daromadga qaraganda past daromaddan ko'proq undirib olinadi.

**Renta** (rent) - tabiiy resurslar egasining ishlab chiqarishdan foydalanish huquqini berish evaziga oladigan daromadi.

**Resurslar** (recourses) - tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida sarflanadigan narsalarning hammasi.

**Rivojlanayotgan mamlakatlar** (less - developed countries) - sanoati rivojlangan mamlakatlardagiga qaraganda aholi boshiga haqiqiy daromad ancha kam bo'lgan mamlakatlar.

**Realizatsiya** (realization) -

1. Sotish, bajarish, foyda keltirish;
2. Narsalarni sotish, mulkni va boshqa narsalarni pulga aylantirish.

**Real ish haqi** (nominal wages, real wages) - fuqarolarning pulda ifodalangan, haqiqiy mehnati uchun olgan haqi; real ish haqi nominal ish haqi miqdori, baho darajasi, xizmatlar va olinadigan soliqlar miqdori bilan aniqlanadi.

**Rentabellik** (efficiency) - korxonada xo'jalik faoliyatning bir ko'rsatkichi, ma'lum bir davr davomida korxonada faoliyati foydaliligi (zarar ko'rib ishlashi) ni xarakterlab beradi. Mahsulotni sotishdan keladigan foydaning shu mahsulot chiqarish harajatlari nisbati.

**Reklama** (advertisement)

1. Yangi tovar, uning o'ziga xos belgilari, xizmatlari to'g'risidagi ma'lumot.

2. Ommaviy axborot vositasida tijorat faoliyati (tovar va g'oyalarni e'lon qilish).

**Reglament** (order) - majlisni olib borish tartibi, ish tartibi, ish qoidasi.

**Remissiya** (remission) - to'lov mablag'ini hisob varaq bo'yicha kamaytirish soniga yaxlitlash.

- S -

**Savdo balans** (balance of trade) - muayyan mamlakat tovarlari importi hajmi bilan eksporti hajmi orasidagi farqi.

**Savdo belgilari (trademarks)** - tovar, xizmat yoki firmaning xilini bildiradigan mahsus tasvirlar, nomlar, ramzlar.

**Savdo palatasi** (chamber of commerce) - amaliy hamjamiyat manfaatlari yo'lida ishlovchi tadbirkorlar va mutaxassislar uyushmasi.

**Savdo -sotik** (auction) - savdo, savdo - sotiq, oldi - sotdi, auksion - kim oshdi savdosi; manfaatli shartlarni taklif qilib, shaxslar bilan yuridik bitim to'zish; savdoning bir shakli.

**Sarflar** (charges, onlay) - chiqim, harajat, sarflar, masalan, ma'muriy yalpi kalkulyatsiya sarflari.

**Svop** (swap) - forvard bitimi va "spot" sharti bo'yicha bitim asosida amalga oshadigan turli xildagi valyuta operatsiyalari.

**Sollik** (charge) - majburiy to'lov. Soliqning mohiyati, roli va tarkibi jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tuzumi, davlatning iqtisodiy - ijtimoiy tabiatni va funksiyalariga ko'ra belgilanadi. Davlat budjeti daromadlarining, asosiy manbai soliqlardir. Masalan, aksiz, daromad, transport soliqlari va hokazo.

**Samaradorlik** - natija va sarf - harajatlarning o'rtasidagi solishtirishlar, ya'ni shu natijalarga erishish uchun ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifati (minimal harajat - maksimal foyda) bo'lishi mumkin.

**Samaralilik** - qandaydir faoliyat natijasi.

**Sof eksport** (net exports) - chetdan keltirilgan va chetga chiqarilgan tovarlarning farqi.

**Subsiya** (subsidy) - moliyaviy yordam.

**Sanatsiya** - korxonada, firmalarning moliyaviy ahvolini yaxshilash va raqobatga bardosh berish uchun qo'llaniladigan chora - tadbirlar.

**Sudxo‘r** (qom beenman) - sudxo‘r, ijorachi, foydaxo‘r. Foyda olishni ko‘zlab pulni qarz beruvchi kishi.

**Sug‘urta** (assurane) - sug‘urta, masalan, mol-mulkni yong‘indan sug‘urta qilish, davlat sug‘urtasi, iqtisodiy munosabatlar tizimi bo‘lib, maxsus fondlar (sug‘urta) tashkil topadi. Har xil zararlar sug‘urta hodisalarining oldini olish uchun foydalanadi.

**Supermarket** (supermarket) - savdo zalining maydoni 600 m<sup>2</sup> dan katta bo‘lgan, savdo jarayoni zamonaviy tashkil etilgan, kamida 2000 nomdagi oziq - ovqat mahsulotlarini va ular bilan birga keng assortimentdagi nooziq - ovqat tovarlarini sotuvchi hamda aholining keng ko‘lamdagi qo‘shimcha xizmatlarni (buyurtmalarni qabul qilish va topshirish, ovqatlanish korxonalarining xizmati, tovarlarni qadoqlash, sovg‘a termalarini jamlash, avtomat - telefonlar va avtotransport bekatining mavjudligi, haridorlarning hordiq chiqarish burchaklari tashkil etilganligi va hokazo) ko‘rsatadigan shinam savdo korxonasining.

**Soha** (grekcha sphaira - shar so‘zidan) -

1. Biror narsaning tarqalish ko‘lami, sarhadi;
2. Muhit, jamiyatdagi yon-atrofdagilar;
3. Tugallangan sath bo‘lib, uning barcha nuqtalari markazdan bir xil olislikda joylashgan; sharning ichki va tashqi sathi.

**Siyosat** (yunoncha politika - davlatni boshqarish san’ati so‘zidan)

1. Davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlarining mamlakat ijtimoiy tuzumi va iqtisodiy tuzilishini aks ettiruvchi faoliyati, shuningdek, ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlari bilan belgilangan faoliyati;
2. Ijtimoiy va davlat hayotining masalalari va voqealari;
3. Biror narsaga erishishga qaratilgan, odamlarning munosabatlarini belgilovchi xatti - harakatlar tarzi.

**- T -**

**Tadbirkor** (entrepreneur) - biron - bir foyda olish uchun ish boshlaydigan odam, ishni tashkil etadigan, boshqaradigan, shuningdek tavakkal xatarlarini zimmasiga oladigan shaxs.

**Tadbirkorlik** (enterprise) - tovar va xizmatlar ishlab chiqarish foyda berishi uchun ko‘pchilik firmalarga zarur bo‘lgan boshqaruvchilik va tashkilotchilik mahorati.

**Talab** (demand) - iste‘molchining muayyan joyda va muayyan vaqtda tovar yoki xizmatni sotib olish istagi va imkoniyati.

**Talab konuni** (law of demand) - barcha shartnomalar teng bo‘lgan holatda yuqori narxda sotilganidan ko‘ra past narx bilan ko‘proq tovar sotish mumkin bo‘ladi.

**Taklif** (supply) - savdogarlar haridorga muayyan joyda va muayyan vaqtda biron-bir narxda sotishga tayyor bo'lgan tovarlar miqdori.

**Taklif qonuni** (law of supply) - sotuvchilar narx yuqori bo'lganida ko'proq, narx past bo'lgan kamroq tovar taklif qiladilar.

**Tanlash** (trade off) - boshqa biron narsani olish uchun narsadan voz kechish.

**Tanho egalik** (sole proprietorship) - shaxsan bir kishiga qarashli ish.

**Tarif** (tariff) - importga solinadigan soliq yoki boj.

**Tirikchilik minimumi** (subsistence level) - eng oz turmush darajasini ta'minlash uchun zarur daromad miqdori; daromadning shu darajadan pasayishi ochlikka va kasalliklarga olib boradi.

**Tijorat** (commerce) - egasiga foyda keltiradigan faoliyat turi; tadbirkorlik faoliyati; mustaqil xo'jalik yuritish.

**Tovar** (article) - tovar ishlab chiqaruvchilarning mujassamlangan mehnati. Ehtiyojni yoki talabni qondiruvchi barcha narsalar (mahsulot, xomashyo, tovar va hokazolar).

**To'lov balansi** (balance of payments) - ma'lum davr maboynida tegishli mamlakatga chet eldan kelgan va chetga chiqarilgan to'lovlar nisbati. Tashqi savdo operatsiyalari (savdo balansi), xizmatlar (xalqaro yuk tashish, sug'urta va boshqalar), nosavdo operatsiyalari, kredit bo'yicha foiz to'lovlari, kapital qo'yilmalaridan daromadlar kiradi. Umuman savdo balansi tovar eksporti va importi o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi.

**Tender** (cutter)

1. Yozma taklif, oferta talabnoma.
2. Qimmatli qog'ozlar savdo uchun obuna bo'lishi haqidagi ariza.
3. Muddatli shartnomaga ko'ra tovarni yetkazib berish to'g'risidagi xabarnoma.

4. Bozorda obligatsiya va g'azna vekselini taklif etish vositasi.

5. Xalqaro savdo shakli.

**Tashqi savdo** (oversea trade) - bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi (eksport, import munosabatlari). Tashqi savdo asosida xalqaro mehnat taqsimoti shakllanadi.

**Tarmoq** - ishlab chiqarayotgan mahsuloti, ishlab chiqarish texnologiyasi, asosiy fondlari, ishlovchilarning kasbiy ko'nikmalari bir xil bo'lgan korxonalar va tashkilotlar yig'indisi. Ijtimoiy mahsulotni, milliy daromadni yaratishdagi ishtirokiga ko'ra, uni moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga va mahsulot ishlab chiqarmaydigan soha tarmoqlariga ajratadilar. Birinchi guruhga sanoat, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa, mahsulot tayyorlash va hokazolar kiradi. Ikkinchi guruhga xizmat ko'rsatish sohasi

tarmoqlari - fan, maorif, madaniyat, san'at, maishiy xizmat, kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash, sport, jismoniy tarbiya va hokazolar kiradi.

- U -

**Uy-joy fondi** (housing)

1. Uy-joy qurilishi va boshqa qurilishlardan iborat va ularga tegishli binolar yig'indisi. Uy - joy fondi hisoblash birligi bo'lib, uy - joy qurilishi, uy-joy binolari, umumiy va uy - joy maydoni hisoblanadi;

2. Budjetdan uy - joylarini qurish uchun ajratiladigan fond.

**Ulgurji savdo** (whole sale) - tovar va xizmatlarning partiyasi bilan yoki ko'p miqdorda qayta sotish yoki professional foydalanish uchun sotish.

**UNUMDORLIK** (capacity) - ishlab chiqarishning foydaliligi, unumdorligi, unumliligi, mahsuldorlik, barakali faoliyat. Mahsulotning hajmi, sifati va mehnat harajatlari o'rtasidagi nisbati.

**Ustav fondi** (authorized capital) - korxonalarining ustavida u ko'rsatiladigan doimo foydalanish uchun ixtiyoriga beriladigan moddiy va pul mablag'larining yig'indisi. Davlat resurslaridan ajratiladigan va ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlaydigan asosiy va oborot vositalari.

**Unitarizm** - ma'muriy hududiy birliklarga markazlashgan rahbarlik va alohida (mustaqil) davlat uyushmalari mavjud emasligi bilan xarakterlanuvchi davlat qurilishi.

- F -

**Fabrika** (factory, manufactory) - mashina, texnika turlarini va texnologiyani qo'llashga asoslangan holda ish yurituvchi sanoat korxonasi; yirik mashinalashgan ishlab chiqarishning turi.

**Faktoring (factoring)** – savdo komission operatsiyalarning turi, bundan maxsus kompaniya mijozning debitor qarzini mustaqil to'lashni talab qiladi.

**Faktura** (bill of parsele; invoice; texture) - tovar hujjatning bir turi bo'lib, tovarning bahosi va belgilari ko'rsatiladi.

**Ferma** (bascule: bowery; tramework; dirder location; pen; steoding; farm) - qishloq xo'jaligi tashkilotining bir bo'limi yoki alohida xo'jalik. Chorvachilik, parrandachilik va shu kabi sohalar bilan shug'ullanadi.

**Fermer** (farmer) - jamoa yoki davlat xo'jaliklarining bir bo'limida ish olib boruvchi shaxs, xususiy xo'jalik faoliyati yurituvchi shaxs.

**Fermer xo'jaligi** (farm) - qishloq xo'jaligi mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonasi, xo'jalik. Qishloq joylarda shaxsiy yerda yoki ijaraga olingan yerida xususiy faoliyat yurituvchi fermer xo'jaligiga fermerning oila a'zolari, qarindoshlari va boshqa fuqarolar kirishi mumkin.

**Fiktiv kapital** (fictitious capital) - egalariga daromad (dividend yoki foiz shaklida keltiradigan qimmatli qog'oz, rivojlangan mamlakatlarda ma'lum

daromad olib turishga huquq beradigan har xil qimmatli qog'ozlar; qalbaki, soxta kapital (aksiyalar, obligatsiyalar)).

**Firma** (business; concern; firm) - korxonalar, kompaniya, tashkilot (ishlab chiqarish, savdo, transport, bank va boshqa sohalarda). O'zi mustaqil faoliyat yuritadi, ustav fondiga ega.

**Floting** (floting) - kursining erkin o'zgarib turishi, so'zib yuruvchi kurs, ya'ni shunday sharoitlarda unda valyuta kursi diskretion intervensiyalarsiz xalqaro bitimga muvofiq belgilangan chiqish o'zgarib turishi mumkin, biroq valyuta - so'zib yuruvchi kursi bozor sharoitlari bilan belgilanmay ma'muriyatning aralashuvi tufayli sun'iy tarzda saqlab turilishi mumkin.

**Foiz** (interest; rate of interest; percent) – hissa, ustama; foyda qo'shimcha; foiz; qarzga olgan pullari yoki material buyumlari (qimmatli narsalar) foydalanganligi uchun kreditorga zayomchining to'lovi.

**Foiz stavkasi** (rate of interest) – hissali, foizli miqdor; belgilangan davr uchun zayomchining kreditoriga to'laydigan foizli to'lovi miqdori.

**Foyda** (benefit; gain; profits) – xo'jalik yurituvchi sub'ektning sof daromad shakli; xo'jalik faoliyatining umumlashgan ko'rsatkichi. Foyda - balans foydasi; tovar mahsulotini ishlab chiqarishdan olingan foyda va hisob foydasiga bo'linadi; tovar realizatsiyasi va xizmatlaridan kelgan daromadlar, summasini harajatlar va soliqlarni chegirib tashlagandan so'ng qolgan pul.

**Fond birjasi** (stock exchange; bourse - market) - chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar bilan oldi - sotdi qiluvchi maxsus bozor. Asosiy funksiyalarni: vaqtincha erkin pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar sotish orqali jalb etish; qimmatli qog'ozlarga bozor narxini o'rnatish; kapitalni kompaniyalar orasida qayta taqsimlash. Fond birjasi oldin chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan munosabatda bo'lgan ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoriga xizmat ko'rsatadi.

**Forvard** (forward rate) - bitim imzolanganidan ikki kun davr uchun keyingi valyuta yoki boshqa bitim bo'yicha hisob - kitoblar.

**Fors major** (act of god; force majeure; vis major) - yong'in, tabiiy ofat, urush, qamal kabi kutilmagan sharoitlarda tomonlar, qaysi bo'lsa ham o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmay qolgan vaziyat. Ikki tomon ham bu haqda oldindan kelishib oladi.

**Franko** (free) - oldi - sotdi va tovarlarni yetkazib berish shartnomalarida qo'llaniladigan xalqaro termin. Kelishuvga ko'ra tovarni jo'natish bo'yicha harajatlarning bir qismi sotuvchi tomonidan to'lanadi. Sotib oluvchi molni sug'urta qilishdan va transport harajatlariidan ozod bo'ladi, masalan: franko - vagon bunda kelishuvga ko'ra sotuvchi vagon olishi va yuklarni vagonga orttirishga majbur bo'ladi.

**Franchayzing** (franchising) - fransuzcha soʻzdan olingan boʻlib, imtiyoz, yengilliklar degan maʼnoni bildiradi.

1. Yirik va kichik tadbirkorlik korxonalarining kelishuv shakli.
2. Davlatning xususiy korxonaga beradigan maxsus imtiyozi.

**Fraxt** (freight; lading; traffic) - dengiz transportida yuk va passajirlarni tashish uchun transport vositasi, egasiga toʻlanadigan haq, fraxt yuklarini tushirish, yuklash, joylashtirish va tashishni oʻz ichiga oladi. Fraxt haqi ichki yuklarni tashishda tariflar boʻyicha, tashqi yuklarni tashishda esa shartnomaga koʻra kelishgan tartibda toʻlanadi.

**Federal zaxira tizimi** (federal reserve system; FED) - AQSh davlat bank-kredit tizimi. Davlat tomonidan Markaziy bankning bank krediti uchun hisobli foiz stavkalarini oʻrnatish bilan pul - kredit munosabatlarini tartibga solish tijorat banklarida boshqa mablagʻlarni majburiy rezerv miqdorini belgilash uchun moʻljallangan. 1913 yil tashkil etilgan boʻlib, u 12 federal zaxira banklari yigʻindisidan iborat.

**Fyuchers bitimlari** (futurest contract) - tovar yoki fond birjasida bajariladigan muddatli bitimlar. Baholar yoki aksiya kurslari oʻrtasida farq hisobga olinadi. Fyuchers fond yoki tovar birjasida bajariladigan bitim, bunda maʼlum muddatdan soʻng pul summasini toʻlash sharti bilan aksiya yoki tovar muayyan narxda narxlar oʻzgarsa ham sotiladi. Shartnomada koʻrsatilgan baho boʻyicha toʻlanadi.

**Faoliyat sohasi** - tashkilot, korxonada ustavida nazarda tutilgan ish va xizmatlar turi. Bajariladigan ish va xizmat turlarining roʻyxati faoliyatining qonunlar bilan taqiqlanmagan turli yoʻnalishlarini oʻz ichiga olishi mumkin.

- X -

**Xayring** (hiring) - ijara mulki boʻyicha toʻzilgan oʻrta muddatli shartnoma.

**Xalq xoʻjaligi balansi** (national economy balance) - kengaytirilgan ishlab chiqarish va ishlab chiqarishning metodologiya va uslubiyati boʻyicha oʻzaro bir - biri bilan bogʻliq boʻlgan asosiy kesishimlar, masshtablar, surʼatlar va yakuniy natijalarni tasvirlovchi iqtisodiy jadval va koʻrsatkichlar tizimidir.

**Xalqaro valyuta fondi** (international monetary Fund) - xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga taʼsir koʻrsatish maqsadida tashkil etilgan xalqaro valyuta - moliya tashkiloti. BMT ning ixtisoslashtirilgan muassasi. 1944 yilda valyuta kurslarining oʻrtacha muddatli valyuta kursida zayomlar berish yoʻli bilan bir meʼyorda saqlab turish uchun toʻzilgan. Vashingtonda joylashgan.

**Xalqaro mehnat tashkiloti** (international labor organization) - BMTning maxsus muassasasi 1919 yilda Xalqaro Komissiya mehnat qonunlari va mehnat qilish sharoitlarni yaxshilash masalalari bo'yicha konvensiya va tavsiyalarni ishlab chiqarish uchun tashkil etilgan.

**Xalqaro moliya korporatsiyasi** (international financial centers) -hukumat kafolatsiz xususiy kapitalga yuqori rentabellik va loyihalarning yuqori samaradorligiga erishishi sharti asosida kreditlar berish faoliyati bilan shug'ullanuvchi muassasasi BMT ning maxsus muassasasi bo'lib, 1956 yilda tashkil qilingan.

**Xalqaro moliya markazlari** - ssuda kapitali bozorning xalqaro markazlari. Birinchi navbatda Nyu-York, Tokio, London, Parij, Syurix, Lyuksemburg; rivojlanayotgan mamlakatlar Gonkong, Singapur, Baxreyn va boshqalar. Bu markazlarda boshqa moliya - kredit moliya institutlari yuqori darajada konsentratsiyalashgan operatsiyalari uchun liberal soliq va valyuta rejimi amal qiladi.

**Xalqaro rekonstruksiya va rivojlanish banki** (International Bank for Reconstruction and Development, World Bank, IBKD) - hukumatlararo tuzilgan moliyaviy tashkilot, asosiy vazifasi shu bank a'zolari bo'lgan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish, xalqaro savdoni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish va to'lov balanslarini qo'llab - quvvatlashdan iborat.

**Xalqaro hisoblar** (international settlements, international clearing) - turli mamlakat territoriyalaridagi davlatlar, tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy -texnik, madaniy va boshqa munosabatlar asosida pul talabnomasi va majburiyatnoma to'lovlarni tartibga solish tizimi.

**Xarajatlar** (charges, pence, outlay) - ishlab chiqarish faoliyati jarayonida yuzaga kelgan chiqim, harajatlar sarflar. Xarajatlarga va sotilgan mahsulot tannarxi, nomidagi ishlab chiqarish ma'muriy xarajatlar, foizlarni to'lash, ijara to'lovi, ish haqi, soliqlar kiradi.

**Xedj** (hedge, sellig hedge)

1. Baho bo'yicha tavakkalchilik sug'urtasi.
2. Fyuchers shartnomasi.

**Xolding** (holdidg company) – o'z ishlab chiqarish korxonalariga ega bo'lmagan, lekin boshqa firmalarning nazorat paketlari aksiyalariga ega bo'lgan kompaniya; bojxona.

**Xorij valyutasi** (foreign currency, foreign exchange) - xorijiy davlatlarning pul belgilari, masalan: AQSh dollari, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Germaniya markasi, Yaponiya iyenasi, O'zbekiston so'mi va hokazo.



**Xorij chet el investitsiyalari** (foreign investments) - xorij iqtisodiy sub'ektlarining biror mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun sarflangan investitsiyalari (pul mablag'lari).

**Xususiy mulk** (private ownership) – mulkning turi, individual mulkning bir shakli sifatida fuqaro foyda omil maqsadida o'z mulkidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Ishlab chiqarish fuqaroni o'z mehnati bilan yoki ishga yo'llash orqali ham bo'lishi mumkin.

2. Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlariga xususiy shaxslar tomonidan egalik qilinishi va o'zlashtirilishi. Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilishi va quldorlik jamiyati shakllanayotgan davrda vujudga kelgan.

**Xususiylashtirish** (privatisation) - davlat mulkning xususiy mulkka aylantirilishi; davlat *mulkini* fuqarolarga bo'lib berish vositasi; jamiyatni rivojlanish darajasi va holati uchun javobgarlikni taqsimlash shakli deb ham tushuniladi.

**Xufiyona iqtisodiyot** (shadow economy) - jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan ishlab chiqarish taqsimot ayirboshlash va tovar - material boyliklarning iste'moli va xizmat ko'rsatish sohalari. Bu sohalar faoliyati Davlat boshqaruv organlaridan yashirincha tarzda olib boriladi (yashirin sexlar, fabrika, shirkatlar). Uni bartaraf etish yo'llari bozorni shakllantirish, markazlashgan rejalashtirish va davlat monopol hukmronligiga chek qo'yish kabilardir.

**Xo'jalik assotsiatsiyalari** (associations) - bir yoki bir necha ishlab chiqarish xo'jalik funksiyalarini amalga oshirish uchun to'zilgan korxonalar birlashmasi.

**Xizmat ko'rsatish sohasi** - xo'jalikning mahsuloti xizmatlar ko'rinishida namoyon bo'luvchi tarmoqlari yig'indisi.

**Xizmatlar sohasi** - xalq xo'jaligi tarmoqlarining tizimi bo'lib, uning mahsulotlari iste'mol qiymati qulayliklarini yaratishda ifodalanadi. Xizmatlar sohasida mehnat buyumlarda moddiy qiyofa kasb etmaydi. Xizmatlarni ko'rsatish jarayonida, odatda, iste'molga muvofiq bo'ladi. Uning moddiy ishlab chiqarishdagi xizmatlar sohasi (transport, aloqa, maishiy xizmat), ma'naviy hayot xizmatlari sohasi (maorif, jismoniy tarbiya, fansan'at); ijtimoiy sohadagi, xizmatlar sohasi (savdo, uy-joy kommunal xizmati, sog'liqni saqlash) kabi turlarini farqlashadi.

- Ch -

**Chayqov** (illicit dealer, operator, profiteer) - olib-sotar chayqovi; o'z manfaatlari uchun daromad olish maqsadida tovar va mahsulotlarni sotib olish, ustiga qo'yib sotuvchi shaxs.

**Charter** (charter)

1. Kema yoki boshqa transport vositasi bo'yicha belgilangan muddat va reys bo'yicha to'zilgan fraxt shartnomasi;

2. Moliya - kredit faoliyati bilan shug'ullanish huquqi berilgan hujjat.

**Cheklash** (bound, cut off, limitation) – tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatini himoya qilish, umumdavlat manfaatlari va xalqaro majburiyatlarni bajarish bo'yicha davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan eksport va import sohasida o'rnatiladi.

Chek (check, cheque, tad)

1. qimmatli qog'oz turi;

2. bankka berilgan yozma farmoyishga ko'ra shaxsning joriy schyotida ko'rsatilgan summani berish to'g'risidagi maxsus hujjat; naqd pulsiz hisob - kitoblarda chek daftarchasi ko'rinishida foydalaniladi;

3. to'lash lozim bo'lgan, kassadan berilgan va so'mi ko'rsatilgan talon.

**Chizma** (yunoncha - shema timbl, ko'rinish, shakl ma'nosini anglatadi)

1. tizim va birikmaning qismlari yoki ular o'rtasidagi aloqalar tasvirlangan chizma;

2. biror narsaning umumiy, asosiy chiziqlardagi tasviri, bayoni.

- Sh -

**Shartnoma** (contract, agreement, contract note) - shartnoma, bitim, kontrakt; huquq va majburiyatlarni belgilash, o'zgarishi yoki to'xtatish to'g'risidagi ikki yoki ko'p tomonlama kelishuv; savdoda oldi-sotdi to'g'risidagi hujjat.

**Shartnoma bahosi** (contract price) - tovarlar oldi-sotdisi bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan baho.

Shaxsiy bir nomga berilgan aksiyalar (registered shares, deposited shares, deposited stocks) - ushbu hujjat egasi vakolatli shaxs bo'lgan aksiyalar. Ularning nomi aksiyada ko'rsatiladi va aksionerlik jamiyati kitobiga kiritiladi. Shaxsiy aksiyalar bo'yicha yon bosish, imtiyozlar, hujjatda boshqa shaxsga o'tkazilganligi va hujjat ham boshqa kishiga tegishli bo'lganligi haqidagi yozuv bilan amalga oshiriladi va uning yangi egasi hissadorlik jamiyat kitobiga kiritiladi.

- E -

**Ekvivalent** (adequation, equivalent) - biror narsani o'rnini bosa oladigan yoki uning ifodasi bo'lib, xizmat qiladigan narsa teng baholi, teng qimmatli narsa miqdor. Masalan: pul barcha tovarlarning qiymatini ifodalovchi ekvivalent rolini bajaradigan alohida tovardir.

**Ekologiya** (bionomics, ecology) - inson va atrof-muhitning munosabatlari, muammolarin o'rganuvchi fan; suvda, havoda va yerda

yashovchi tirik organizmlarni rivojlantiruvchi yoki oziq beruvchi muhit bilan o‘zaro aloqasi.

**Ekonometrika** (econometrics) - iqtisodiy hodisa va jarayonlarning miqdoriy qonuniyatlari va o‘zaro aloqalarni matematik, statistik metodlar, modellar yordamida o‘rganuvchi fan. Matematikaning iqtisodiyotda qo‘llanilishi bo‘yicha iqtisodiy nazariyadagi alohida oqim.

**Eksport** (export, exportation) - tashqi bozorda sotish uchun tovar - pullarni chet elga chiqarish. Eksport tarkibiga boshqa davlatlarda qayta ishlab chiqarish uchun olib chiqarilayotgan mollar, mahsus eksport uchun mo‘ljallangan tovarlar kiradi.

**EKYu** (European currency unit, ECU)

1. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining pul birligi. 1979 yilda hisob vositasi sifatida ta‘sis etilgan. YeIH ga a‘zo bo‘lgan davlatlarning valyuta karzinasida aniqlanadi;

2. Fransiyada XVIII asrdan muomalaga kiritilgan oltin va kumush tanga; muomaladan 1834 yilda chiqarilgan bo‘lsada, uning nomi 5 franklik tangada saqlanib qolgan.

**Elastiklik** (ductility, elasticity, give) - bu o‘zgarishning 2 chi uncha katta bo‘lmagan o‘zgarishiga ta‘siri, masalan, eksport qilinayotgan valyuta kursi yoki narxlarning o‘zgarishi bilan talablarning ham o‘zgarishi.

**Elektron pochta** (e-mail, computer mail) - hisoblash tizimidan foydalanuvchilar orasida axborot o‘zlash tizimi. Bunda EHM, model yordamida oddiy telefon yoki kompyuter tizimiga ulanganda axborotni saqlash va o‘zlash funksiyalarini o‘z ichiga oladi. Idoralar faoliyatini avtomatlashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, elektron pochta kanallari orqali birja ma‘lumotlari jo‘natiladi va bitimlar tuziladi.

**Embargo** (embargo)

1. tovarlar, qimmatli qog‘ozlar, oltin kabilarni boshqa mamlakatlardan keltirish yoki olib chiqishni davlat organlari tomonidan taqiqlash;

2. davlat organlari tomonidan boshqa davlatlarga tegishli kemalarni portga kirishini taqiqlash;

3. tinchlik vaziyatida embargo boshqa mamlakatlarga iqtisodiy va moliyaviy ta‘sir qilmaydi, urush paytida esa iqtisodiy blokada formasi sifatida foydalaniladi.

**Emigratsiya** (emigration, expatriation) - iqtisodiy, siyosiy va diniy sabablarga ko‘ra odamlarni majburan yoki ixtiyoriy ravishda bir **mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko‘chishi aholini bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko‘chishi turli tarixiy** davrlarda amalga oshib, har bir

ijtimoiy - siyosiy tuzumda emigratsiyaning o'ziga xos bo'lgan maxsus shakllari bo'lgan.

**Emissiya** (emission, issue)

1. Qog'oz pullarning g'aznaxona yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi.

2. Barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi tarkibiga xususiy (aksionerlik jamiyat chiqargan aksiyalar va obligatsiyalar) va davlat (davlat zayom obligatsiyalarini chiqarish) tomonidan amalga oshishi mumkin.

**Emissiya banklari** (bank of circulation, bank of issue) - banknotlar, pul chiqarish, pul muomalasini, kredit va valyuta kursini boshqarish, rasmiy oltin valyuta zaxiralarini monopol ravishda saqlash huquqiga ega bo'lgan bank. Asosan bu vazifalarni **Markaziy bank bajaradi**.

**Emitent** (emitter, issuer) - kapitalni jalb etish maqsadida qimmatli qog'ozlarni oborotga (muomala) chiqaruvchi moliya - kredit muassasalari; bank, kompaniya.

**Erkin** (ochiq) iqtisodiy zona (free economic area) - ma'lum bir hududlarni o'z ichiga olgan, boj to'lovlaridan ozod qilingan savdo zonalari; erkin tashqi savdo zonalari, erkin sanoat zonalari, erkin boj hududlari, maxsus iqtisodiy zonalar va hokazo.

**Eskirish** (wear, wear and tear) - asosiy vositalar (bino, inshoot, transport) ning amortizatsiyasi; xizmat muddati davridagi aktiv qiymatining davriy o'tib borishi; asosiy vositalarning eskirishi, zamon talablariga va standartiga javob bermasligi sifatida ham tushuniladi.

**Ehtiyoj** (demand, requirement, need) - organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyati va taraqqiyoti uchun ob'ektiv ravishda zarur bo'lgan narsalar; aktivlikni yuzaga chiqaruvchi ichki sababiyat. Ehtiyojning turlari: iqtisodiy, sotsial, madaniy, siyosiy, ma'naviy, fiziologik va hokazo.

**Egri chiziq**

1. To'g'ri bo'lmagan chiziq, shuningdek sath yoki kenglikdagi har qanday chiziq.

2. Biror narsaning o'sish yoki pasayishini qandaydir rivojlanish jarayonida tasvirlovchi chiziq.

**Erkinlik**

1. Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlari asosida sub'ektning o'z **irodasini** namoyish etish imkoniyati.

2. Biron-bir sinf, butun jamiyat yoki uning a'zolari ijtimoiy - siyosiy hayoti va faoliyatini cheklovchi chegaralar va tashkilotlarning yo'qligi.

3. Umuman biron-bir narsada, sohada cheklashlarning, chegaralarning yo‘qligi.

- Yu -

**Yuk oboroti** (freight tommies, freight turnover) - ma’lum vaqt davomida tashilgan yukning hajmi (miqdori), yuk oboroti, transport sohasining asosiy ko‘rsatkichi. Tashilgan yukning soni va tashish masofasi (km) ga ko‘ra hisoblab chiqiladi.

**YuNIDO** (BMT ning sanoatini rivojlantirish bo‘yicha bo‘linmasi - United Nations industry development organization)

BMTning rivojlanayotgan mamlakatlarga sanoatini rivojlantirish va industrializatsiyasiga ta’sir etish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1966 yilda tashkil etilgan, 137 davlat a’zo. Faoliyati operativ va yordamchi faoliyatiga bo‘linadi. Operativ faoliyat - rivojlanayotgan davlatlarga konkret loyihalarni amalga oshirish uchun texnikaviy yordam berish (ekspertlar yuborish, maslahatlar berish, mutaxassislar yuborish), yordamchi faoliyat - sanoatni rivojlantirish bo‘yicha axborotni yig‘ish, umumlashtirish.

**YuNKTAD** (BMT ning savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi - UNCTAD, United Nations Conference on Trade and Development) - xalqaro savdo tashkiloti bo‘lmagan, BMT BOSH Assambleyasi organi, 1964 yilda tashkil qilingan, 168 davlat a’zo. Vazifalari - davlatlar orasida xalqaro savdoni rivojlantirish, o‘zaro teng huquqli hamkorlikka yordam berish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirilishi uchun tavsiyalar ishlab chiqish. A’zo davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy va geografik prinsiplari bo‘yicha 4 ta guruhga bo‘lingan. YuNKTAD qarorlari revolyutsiya, bildirish va boshqa shakllarida rasmiylashtirilib tavsiya xarakteriga ega. Bu organ tomonidan ko‘p tomonli bitimlar, konferensiyalar ishlab chiqiladi. Bir qancha xalqaro tashkilotlar ham YuNKTAD a’zosidir. Bosh organ - konferensiya va savdo rivojlanishi bo‘yicha kengash bo‘lib, uning tarkibida 6 ta komitet faoliyat olib boradi.

**Yuridik shaxs** (etity, juridical person) - muassasa; korxonalar yoki tashkilot; inson huquqlari va majburiyatlarining mustaqil sub’ekti sifatida o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajaruvchi muassasa, tashkilot. Yuridik shaxs mulk bo‘yicha sudlarga da’vogar va javobgar bo‘lish huquqiga ega, qonunda, ma’muriy aktda yoki o‘z ustavida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshiradi, o‘z mulkiga va o‘z majburiyatlariga mustaqil ravishda javobgardir.

Yurist maslahatchi (legal adviser) – myaccaca, korxonalar yoki tashkilotdagi yuridik masalalar bo‘yicha doimiy maslahatchi. Huquq masalalari bo‘yicha ushbu korxonalar yoki tashkilotning manfaatini sud va boshqa vaziyatlarda himoya qiladi.

- Ya -

**Yagona iqtisodiy makon** (integrated economic area) - bir necha davlatlar territoriyasi, ular ko'p tomonlama shartnoma asosida yagona iqtisodiy siyosat olib boradi va iqtisodiy ittifoq yuzaga keladi.

**Yalpi daromad** (gross revenue) - ish haqi va sof daromaddan tashkil topgan yangidan yaratilgan qiymat; tushum va ishlab chiqarish harajatlari o'rtasidagi farqdan iborat.

**Yalpi ijtimoiy mahsulot** (gross social product) - yil davomida jamiyat tomonidan moddiy sohada yaratilgan mahsulotlarni pul birligidagi qiymati; ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy statistik ko'rsatkichlaridan biri (eski statistik tizimda ishlatilgan).

**Yalpi ichki mahsulot** (gross domestic product, GDP) - ma'lum davr 1 yil mobaynida mamlakat ichida ishlab chiqarilgan barcha tayyor tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning pul ko'rinishidagi qiymati, (ular) daromadlar, harajatlar va qo'shimcha qiymat metodi orqali hisoblab chiqiladi.

**Yalpi milliy mahsulot** (gross national product, GNP) - ma'lum davr mobaynida mamlakat ichida va xorijda ishlab chiqarilgan barcha tayyor tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy summasi. Yalpi ichki mahsulot kabi hisoblanadi.

**Yangi industrial mamlakat** (new industrial countries) - industrilashtirish bo'yicha yuqori yutuqlarga erishgan, zamonaviy ilm - fan tarmoqlari tashkil etilib, qayta ishlash sanoati mahsulotlari eksportini kengaytirgan va quyi rivojlangan mamlakatlar etalonlariga yaqinlashayotgan mamlakatlar. Masalan, Kanada, JAR, Yangi Zelandiya, Avstriya, Daniya, Shvetsariya, Niderlandiya, Belgiya, Janubiy Koreya, Gonkong, Singapur.

**Yarmarka** (fait)

1. Tovar namunasi ko'rgazmasi; davriy savdo manzili.
2. Davlat ruxsat bergan vaqtincha savdo shakli. Yarmarkalar keng iste'mol tovarlari yoki asbob - uskunalarning namunalarini namoyish etuvchi katta bozordir. Belgilangan muddatda, ma'lum cheklangan vaqtda ishtirokchilarga mahsulot, tovar namunalarini ko'rsatish uchun maxsus ajratilgan joyda harakat qiladi, milliy va xalqaro miqyosida savdo shartnomalarini to'zadi. Yarmarkada naqd savdo - sotiqqa ruxsat berilmaydi.

**Yasoq** (tax in kind) - qadimgi davrda yashagan xalqlarning to'lagan natural soliqlari. Aholini o'z qishloq boshliqlariga soliqni natural (mahsulot, xomashyo) ko'rinishida to'lab berganlar.

**O'zaro hisoblar** (mutual settlements) - davlat bilan korxonaning yoki korxonalar bilan tashkilotning o'zaro hisoblari, masalan, tovar, mahsulot ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish borasida.

**O‘z-o‘zini qoplash** (self repayment, self recoupment, self sufficiency) - korxonaga o‘z harajatlarini organ foydasi bilan qoplash; mahsulotni sotish va xizmat ko‘rsatishdan qolgan daromad bilan korxonaga o‘z harajatlarini qoplashi.

**O‘z-o‘zini moliyalashtirish** - jamoa ishlab chiqarish faoliyati va ijtimoiy rivojlanishuvi o‘z daromadlari va zayom mablag‘lari hisobidan qoplash manbalari foyda, amortizatsion ajratma va kredit hisoblanadi.

Qimmatli qog‘oz

1. Konversiya imtiyoziga ko‘ra obligatsiya va aksiyani boshqa qimmatli qog‘ozga almashtirish. Muayyan mulkiy huquqni ifodalovchi hujjat: aksiya, obligatsiya, veksel va boshqalar qimmatli qog‘ozlar faqat naqd po‘l o‘tkazish yo‘li bilan mazkur mulkni qo‘lga kiritish mumkin. 2. Egasiga daromad keltiradigan, egalik huquqi yoki zayom ko‘rinishidagi pul hujjati. Qimmatli qog‘ozlarga aksiya, obligatsiya, davlat g‘azna majburiyatlari, omonat sertifikatlari va veksellar kiradi. Qimmatli qog‘oz keltiradigan daromadga qarab har xil narxda sotiladi.

**Qonun** (canon) - Konstitutsiyada asosan davlat organi tomonidan qabul qilingan me‘yoriy akt.

**Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindorlari**

Nobel mukofoti iqtisodiyot fanida  
1969 yildan boshlab oliy darajada tan olingan

1969 yil	Yan Tinbergen (1903-1994 yy. Gollandiya). Rangnar Frish (1895-1973 yy. Norvegiya). Iqtisodiy jarayonlari matematika usulida tahlillash ishi bo'yicha.
1970 yil.	Pol Samuelson (AQSh) (1915-2009) Statik va dinamik iqtisodiy nazariyalarni rivojlantirgani va iqtisodiyot fanining tahlil darajasini oshirishga qo'shgan g'issasi uchun.
1971 yil	Saymon Kuznets (AQSh) (1901-1985) Iqtisodiy o'sish ta'rifi asoslarini rivojlantirishga bag'ishlangan amaliy ilmiy tadqiqoti uchun.
1972 yil	Kennet Errou (1921-2017 yy. AQSh). Jon Xiks (1904-1989 yy. Buyuk Britaniya). Umum iqtisodiy muvozanat nazariyasi va farovonlik nazariyasi taraqqiyoti ishi bo'yicha.
1973 yil.	Vasiliy Leontev (AQSh) (1905-1999) "Xarajat-ishlab chiqarish" usulini ishlab chiqqani va uni muhim iqtisodiy muammolarni hal etishda qo'llagani uchun.
1974 yil	Gunnar Myurdal (Shvetsiya) (1898-1987) Fridrix fon Xayek (Avstriya) (1899-1992) O'zaro bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional hodisalar tahlili, pul nazariyasi va iqtisodiy tebranishlar bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari uchun.
1975 yil	Leonid Kantorovich (1912-1986 yy. SSSR). Tyalling Kupmans (1910-1985 yy. AQSh). Resurslardan optimal foydalanish nazariyasi ishi bo'yicha.
1976 yil.	Milton Fridman (AQSh) (1912-2006) Iste'mol tahlili, pul muomilasi tarixi va monetar nazariyasini ishlab chiqish hamda iqtisodiy barqarorlik siyosatining murakkabligini amaliy tahlil etgani uchun.
1977 yil	Bertil Olin (Shvetsiya) (1899-1979), Jeyms Mid (Buyuk Britaniya) (1907-1995) Xalqaro savdo va kapitalning xalqaro harakati nazariyalariga qo'shgan hissalar uchun.



1978 yil	Gerbert Saymon (1916-2001 yy. AQSh). Iqtisodiy tashkilotlarda tahlil sistemasini qo‘llash.
1979 yil	Artur Lyuis (1915-1991 yy. AQSh), Teodor Shuls (1902-1998 yy. AQSh). Rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda iqtisodiy jarayonlar tadqiqoti ishi bo‘yicha.
1980 yil	Lourens Kleyn (AQSh) (1920-2013) Iqtisodiy modellarni yaratgani va ularni iqtisodiy tebranishlar va iqtisodiy siyosatni tahlil etishga qo‘llash borasidagi ilmiy ishlari uchun.
1981 yil.	Jeyms Tobin (AQSh) (1918-2002) Moliya bozorlari va ularning xarajatlar, ishsizlik, ishlab chiqarish va narxlar bo‘yicha qaror qabul qilishda ta’sirining tahlili uchun.
1982 yil	Jorj Stigler (AQSh) (1911-1991) Sanoatning tarkibi, bozorlarning amal qilishi, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish sabablari va natijalari borasidagi tadqiqotlari uchun.
1983 yil	Jerar Debryo (1921-2004 yy. AQSh). Umum iqtisodiy muvozanat nazariyasini ishlab chiqish ishi bo‘yicha.
1984 yil	Richard Stoun (Buyuk Britaniya) (1913-1991) Iqtisodiy fanning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi uchun.
1985 yil	Franko Modilyani (1918-2003 yy. AQSh). Moliyaviy-siyosiy muammolarini tadqiqot qilish ishi bo‘yicha.
1986 yil	Djeyms Byukenen (1919-2013 yy. AQSh). Moliyaviy siyosat muammosi ishi bo‘yicha.
1987 yil	Robert Solou (AQSh) (1924) Iqtisodiy o‘shish nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun.
1988 yil	Moris Alle (1911-2010 yy. Fransiya). Iqtisodiy muvozanat, invertitsiya, foiz stavkalarining o‘zaro ta’siri nazariyasini yaratish ishi bo‘yicha.
1989 yil	Tryugve Xovelmo (1911-1999 yy. Norvegiya). Iqtisodiy tahlil nazariyasiga qo‘shgan hissasi uchun.
1990 yil	Garri Markovits (1927 y. AQSh). Merton Miller (1923-2000 yy. AQSh). Uilyam Sharp (1934 y. AQSh). Hozirgi zamon moliyaviy bozorlarining resurslarini taqsimlashda o‘rnatgan ishi bo‘yicha.

1991 yil	Ronald Kouz (1910-2013 yy. Buyuk Britaniya, AQSh). Transaksion xarajatlarni va mulkdorlar huquqiy ma'nosini ochish va oydinlashtirish ishi bo'yicha.
1992 yil	Geri Bekker (1930-2014 yy. AQSh). Mikroiqtisodiy tahlil sohalarini qo'llash, inson kapitali nazariyasini ishlab chiqarishni kengaytirish ishi bo'yicha.
1993 yil	Duglas Nort (1920-2015 yy. AQSh). Robert Fogel (1926-2013 yy. AQSh). Iqtisod tarixida yangi yo'nalish sifatida iqtisodiy statistikadan foydalanish ishi bo'yicha.
1994 yil	Djon Xarsani (1920-2000 yy., AQSh), Djon Nesh (1928-2015 yy., AQSh), Raynxard Zelten (1930-2016 yy., Germaniya). Iqtisodiy jarayonlar o'yin nazariyasini qo'llanishi bo'yicha.
1995 yil	Robert Lukas (AQSh) (1937) Ratsional kutish gipotezalarini rivojlantirgani va qo'llagani, makroiqtisodiy tahlilni o'zgarishi va iqtisodiy siyosat tushunchasini chuqurlashtirgani uchun.
1996 yil	Uilyam Vikri (1914-1996 yy., AQSh). Djeym Mirrlis (1936-2018 yy., Buyuk Britaniya). Ziddiyatli va yetarli darajada bo'lmagan axborotlar sharoitida iqtisodiyotda rag'batlantirish nazariyasini ishlab chiqish ishi bo'yicha.
1997 yil	Robert Myorton (1944 y, AQSh) va Mayron Shoulz (1941, Kanada). Yasama qimmatbaho qog'ozlar qiymatini baholash formulasini ishlab chiqish, buning asosida keyinchalik hamma moliyaviy bozorlar faoliyatini qurish (Fyucherlar, opsionlar, varrantlar, ovanlar va boshqalar) ishi bo'yicha.
1998 yil	Amartiya Sen (Hindiston) (1933) Farovonlik iqtisodiyoti rivojlanishiga qo'shgan hissasi uchun.
1999 yil	Robert Mandell (Kanada) (1932) Turli almashuv kurslari va optimal valyuta zonalari sharoitida monetar va fiskal siyosatni tahlil qilgani uchun.
2000 yil	Djeym Xekman (1944, AQSh), Deniyel Makfadden (1937, AQSh). Diskret tanlovi metodlari tahlili va rivojlanish nazariyalari uchun.
2001 yil	Djorj Akerlof (1940, AQSh), Maykl Spens (1943, AQSh), Djozef Stiglits (1943, AQSh). Bozorning assimetrik axborot taxlili uchun.

2002 yil	Daniel Kaneman (1934, AQSh, Isroil), Vernon Smit (1927, AQSh). Alternativ bozorlar mexanizmini yaratish bo'yicha qarorlar qabul qilish sohasida ilmiy tadqiqoti uchun.
2003 yil	Robert Engl (1942, AQSh), Klayv Grendjer (1934-2009 yy., Buyuk Britaniya) – iqtisodiyotda matematik usuli asosida vaqtinchalik qatori analizi metodini qo'llash uchun.
2004 yil	Finn Kidland (Norvegiya) (1943) Edvard Preskott (AQSh) (1940) Vaqt omilini iqtisodiy siyosat va iqtisodiy davrlarning harakatlantiruvchi kuchlariga ta'sirini tadqiq etishga qo'shgan hissasi uchun.
2005 yil	Robert Auman (1930, AQSh), Tomas Shelling (1921-2016 yy., AQSh) – o'yinlar nazariya tahlilida qarama - qarshilik va hamkorliklar mohiyatini tushunishimizni chuqurlashtirish uchun.
2006 yil	Edmund Fulps (AQSh) (1933) Makroiqtisodiy siyosatda vaqtlar oralig'idagi ayirboshlash tahlili uchun.
2007 yil	Leonid Gurvich (AQSh) (1917-2008) Erik Meskin (AQSh) (1917-2008) Rodjer Mayerson (AQSh) (1950) Optimal mexanizmlar nazariyasi asoslarini yaratgani uchun.
2008 yil	Pol Krugman (AQSh) (1953) Savdo tarkibi va iqtisodiy faollikning joylashuvi borasidagi tahlili uchun.
2009 yil	Elinor Ostrom, Oliver Uilyamson – iqtisodiyotni tashkillashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqot uchun.
2010 yil	Piter Daymond, Deyl Mortensen, Kristofer Pissarides – bozorlarni izlanish modeli bilan ilmiy tadqiqoti uchun.
2011 yil	Tomas Sardjent (AQSh) (1943) Kristofer Sims (AQSh) (1942) Makroiqtisodiyotdagi sabab-oqibat aloqalarini amaliy tadqiqotlari uchun.
2012 yil	Lloyd Stauell Shepli, Elvin Eliot Rot – amalda bozorni qurilish va barqaror taqsimlash nazariyasi uchun.
2013 yil	Yudjin Fama, Lars Piter Xansen, Robert Shiller – aktivlar narxini o'zgarishining emperik tahlili uchun.

2014 yil	Jan Tirol – bozor hukmronligi va uni tartibga solish tahlili uchun
2015 yil	Angus Diton (AQSh) (1945) Iste'mol, kambag'allik va ijtimoiy ta'minot muammosini tahlil qilgani uchun.
2018 yil	Uilyam Nordxaus (AQSh) (1941) Iqlim o'zgarishlarini uzoq muddatli makroiqtisodiy tahlilga integratsiyalashtirgani uchun  Pol Romer (AQSh) (1955) Texnologik innovatsiyalarni uzoq muddatli makroiqtisodiy tahlilga integratsiyalashtirgani uchun.
2019 yil	Abxijit Banerji (AQSh) (1961) Ester Dyuflo (AQSh, Fransiya) (1972) Maykl Kremer (AQSh) (1964) Global kambag'allikka qarshi kurashda amaliy yondashuvlari uchun.
2020 yil	Pol Milgrom (AQSh) (1948) Robert Uilson (AQSh) (1937) Auksionlar nazariyasini takomillashtirish va ularning yangi formatlarini ixtiro qilgani uchun.
2021 yil	Devid Kard (AQSh) (1956) Mehnat iqtisodiyotini tadqiq etishga empirik hissa qo'shgani uchun. Joshua Angrist (AQSh) (1960) Sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilishga qo'shgan uslubiy hissasi uchun. Gvido Imbens (AQSh) (1963) Mehnat iqtisodiyotini tadqiq etishga empirik hissa qo'shgani uchun.

### Iqtisodiy tarixning xronologiyasi

VI asrda (bizning yangi eramizgacha) – Tarixda birinchi monetalarning (tanga, chaqalarning chekankalar) zarb qilinishi (Malayziyalik tsar Lidiya).

XIII – XIV asrlar – Sexlar xo‘jaligining ravnaq topishi (shahar hunarmandchiligi).

1526 – Kopernikning Greshema qonunining ochilishi.

1600 – Angliyaning Ost - Indiya kompaniyasining asoslanishi.

1607 – Shimoliy Amerikada (Verjiniya) birinchi angliya manzilgoh - qishloqlarning asoslanishi.

1608 – Amerika birjalarining (Gollandiya) tashkil topishi.

1615 – A.Monkreton (Fransiya). “Siyosiy iqtisod traktati”.

1679 – Angliyada shaxsiy erkinlik kafolati to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi.

1683 – U.Petti (Angliya). “Siyosiy arifmetika”.

1689 – Angliyada “Bill huquq to‘g‘risida”.

1690 – Qog‘oz puli belgilarining chiqishi (AQSh, shtat Massachusetts).

1694 – Angliya bankining asoslanishi.

1703 – Rossiyada birinchi birjaning rasmiy ochilishi.

1707 – P.Buagilber (Fransiya). “Tabiat boyligi to‘g‘risidagi fikr”.

1724 – I.Pososhkov (Rossiya). “Boylik va kamlik to‘g‘risidagi fikr”.

1733 – D.Keem uchadigan odamni ixtiro qilishi.

1757 – Rossiyada birinchi aksionerlik jamiyati (“Rossiyaning Konstantinopoldagi savdo kompaniyasi”).

1768 – F.Kene (Fransiya). “Iqtisodiy jadval”.

1763 – I.Polzunovning bug‘ mashinaning ixtiro qilishi.

1764 – D.Hargrivning “Djenni” to‘qimachiligining ixtiro etilishi.

1768 – Arkraytning shamol to‘qima mashinasiga patent olishi.

1769 – Rossiyada qog‘oz pulining chiqishi (assignatsiya).

1773 – Angliyada fond birjasining paydo bo‘lishi.

1776 – A.Smit (Angliya). “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot”.

1776 – A.Tyurgo (Fransiya). “Boyliklarni yaratish va taqsimlash to‘g‘risida fikr”.

1784 – D.Uattning universal bug‘ dvigatelga potent olishi.

1785 – E.Kartraitning mexanik ip yigirish stanogini ixtiro etishi.

1789 – Fransiya. “Insonlarning va fuqarolarning huquqi deklaratsiyasi”.

1789 – AQSh kongressining “Bill huquqi” to‘g‘risida qabul qilinishi.

1791 – Le Shapelening Fransiyada stachkalar va kasaba uyushmalarni taqiqlanish qonunining qabul qilinishi.

1792 – AQSh da fond birjasining asoslanishi. XVIII asrning 2 - yarmida XIX asrning boshlarida Angliyada sanoat to‘ntarilishi.

1807 – R.Fulton kemasining Gudzon daryosida birinchi reysi.

1811 – 1812 – Angliyada Ludditlar harakatining oliy yuksalishi.

1817 – D.Rikardo (Angliya). “Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliq solish”.

1819 – Atlantika orqali kemanding birinchi reysi.

1825 – Angliyada temir yo‘lining ochilishi.

1825 – Angliyada birinchi ortiqcha ishlab chiqish sikllik krizisi.

1838 – A.Kurno (Fransiya). “Boylik nazariyasining matematik prinsiplari tadqiqoti”.

1854 – G.Gossen (Germaniya). “Umumiy almashinuv qonunining rivojlanishi va undan kelib chiqadigan umumiy savdo qoidasi”.

1855 – Vessemerning yangi po‘lat quyish usulini kashf etilishi.

1859 – K.Marks (Germaniya). “Siyosiy iqtisod tanqidi” asari.

1861 – Rossiyada krepostnoy huquqining bekor qilinishi.

1864 – Fransiyada marten pechlarini ekspluatatsiya kiritilishi.

1866 – AQSh da milliy ishchilar ittifoqining paydo bo‘lishi.

1867 – K.Marks (Germaniya). “Kapital” 1 – tom.

1869 – Germaniyada sotsial demokratik ishchilar partiyasining asoslanishi.

1869 – Suets kanalining ochilishi.

1871 – Angliyada tred - yunionlarni tanqid qilish to‘g‘risidagi qonunning chiqishi.

1871 – U.Djevanos (Angliya). “Siyosiy iqtisod nazariyasi”.

1871 – 1873 – L.Valras (Shvetsariya). “Siyosiy iqtisodning sof elementi”.

1875 – F.Engels (Germaniya). “Anti – Dyuring”.

1884 – F.Engels (Germaniya). “Xususiy mulkning va oilaning paydo bo‘lishi”.

1886 – E.Bem Baverk (Avstriya). “Xo‘jalik boyligi qiymatining nazariy asosi”.

1890 – AQSh kongressining trestlarga qarshi Sherman qonunining qabul qilinishi.

1890 – A.Marshall (Angliya). “Siyosiy iqtisod prinsiplari”.

1897 – Rossiyada oltin standarti sistemasini kiritish.

1899 – T.Veblen (AQSh). “Bayramli sinflar nazariyasi”.

1899 – V.Lenin “Rossiyada kapitalizmning rivojlanishi”, XIX asrning oxiri. Ishlab chiqarishda dvigatelning ichki yonishini umumiy tarzda qo‘llanilishi.

1902 – V.Pareto (Italiya). “Siyosiy iqtisod kursi”.

1904 – 1914 – Panama kanali qurilishi.

1905 – G.Knapp (Germaniya). “Davlatning pul nazariyasi”.

1906 – 1917 – Rossiyada Stolipinning agrar islohoti.

1910 – R.Gilferding (Germaniya). “Moliya kapitali”.

1913 – A.Aftalon (Fransiya). “Ortiqcha ishlab chiqarishning bosqichma - bosqich krizisi”.

1917 – V.Lenin. “Imperializm kapitalizmning yuqori bosqichi”.

1918 – Sovet Rossiyada “Harbiy kommunizm siyosati” boshlanishi.

1921 – Sovet Rossiyaning “Yangi iqtisodiy (NEP) siyosat” ga o‘tishi.

1929 – 1933 “Ulug‘ depressiya” davri.

1930 – Xalqaro hisob - kitob (MVR) bankining asoslanishi.

1944 – Xalqaro qayta qurish va rivojlanish banki (MBRR) ning asoslanishi.

1944 – Xalqaro valyuta fondining (VF) asoslanishi.

1944 – Brettonvud bitimi.

1951 – Xalqaro iqtisodiy tashkilotning “Yevropa ko‘mir va po‘lat uyushmalarining yaratilishi”.

1958 – Xalqaro “Yevropa iqtisodiy jamiyati” (BVS) tashkilotining yaratilishi.

1965 – SSSR da “Xo‘jalik islohoti” ning boshlanishi.

1967 – D.Galbreyt (AQSh). “Yangi industrial jamiyat”.

1969 – Shved bankining iqtisodiyot fani bo‘yicha Alfred Nobel memorial mukofotini berishni tasdiqlanishi.

1973 – Qog‘oz pullari (dollar) oltinga almashinuvining to‘xtatilishi.

1991 – O‘zbekiston Davlat Mustaqilligi to‘g‘risidagi bayonotning va O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining asoslari to‘g‘risidagi Qonunning qabul qilinishi.

1991 – 1 sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni. Bayram kuni.

1991 – Rossiya, O‘zbekistonda va boshqa sobiq SSSR tarkibidan mustaqil ajralib chiqqan davlatlarda bozor transformatsiyasining boshlanishi.

1991 – 18 noyabr O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasdiqlandi.

1992 – 2 mart O‘zbekiston BMT ga qabul qilindi.

1992 – 2 iyul O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi tasdiqlandi.

1992 – 8 dekabr O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1992 – 10 dekabr O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

1994 – 1 iyul O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi “so‘m” muomalaga kiritildi.



## Metrlanmagan o'lchovlar.

## Xalqaro Savdo munosabatlarida foydalanadigan asosiy metrlanmagan o'lchovlar.

<p><b><u>Adarme</u></b> Argentina, Kuba, Meksika-1.79 g. Gonduras, Peru-1.8 g.</p> <p><b><u>AKR</u></b> Buyuk Britaniya, AQSh va boshqalar- 1233.48 m<sup>3</sup> 100 2</p> <p><b><u>Ar, Anker</u></b> Germaniya-34-35 l Buyuk Britaniya-74-44 l</p> <p><b><u>Ardeb</u></b> Yegipet. (MIor), Surdan-197.6 l</p> <p><b><u>Arroba</u></b> Braziliya metrlangan-15 kg odatida-14.69 kg Gonduras, Ispaniya, Kosta-rika, Kuba, Salvador, Filipinda-411.5 kg Meksika va Peru-16.13 kg Urugvay-10 kg</p> <p><b><u>Arshin</u></b>-Eski ruscha o'lchov Yugoslaviyada-71.1 sm Bolgariya: kiyim tikuvda-68 sm qurilishda-75.8 sm</p> <p><b><u>Barrel</u></b> Argentina-76 l Buyuk Britaniyada-187 l odatdagi o'lchov uchun: mol go'shtini -101.6 kg un-88.9 kg pivo-163.6 l</p> <p><b><u>Granets</u></b> eski rus o'lchov-3.28 l</p>	<p><b><u>AQShda</u></b> odatdagi o'lchov uchun suyuqlik- 158.98l sochiladigan-115.6l benain-11621 kg svina shari-117.9 kn. lampamoy-125.74 kg makkajo'xori-127 kg go'sht-90.72 kg ho'l neft-139.07 kg bug'doy uni-80.90 kn guruch-272.2 kg</p> <p><b><u>Bord-fud</u></b> Buyuk Britaniya va AQSh-2.360 m<sup>3</sup></p> <p><b><u>Bushel</u></b> Buyuk Britaniya imperiyasi yoki odatda o'lchash uchun -36.369 l unni o'lchash uchun-25.401 kg bug'doyni-27.216 kg arpani-21.772 kg ko'mirni-33.868 kg sulini-18.144 kg.</p> <p><b><u>AQShda</u></b> Vinhearli-35.239 l o'lchov uchun: antransit-34.019 kg kartoshka-27.126 kg jo'xori-29.101 kg bug'doy-27.216 kg meva-21.772 kg chelak (vedro)-12.299 l chaqirim (vorota)-1.067 uanlik (veshok)-14.44 sm</p> <p><b><u>Galon</u></b></p>
---	---

<p><b><u>Gill (djill)</u></b> AQShda: suyuqlikni-0.118 l sochiladigan narsani -0.138 l suyuqlikni-0148 l Buyuk Britaniyada: Yaponiyada</p> <p><b><u>Go-0.180 l</u></b></p> <p><b><u>Gran</u></b> Buyuk Britaniya, AQShda troyskli, antekarli-64.799 mg</p> <p><b><u>Dan (Pikul)</u></b> Xitoy-50 kg</p> <p><b><u>Desyatina</u></b> eski ruscha o'lchov-1.092 g.</p> <p><b><u>Dir</u></b> Yegipet (Misr), Sudan-3.18 g</p> <p><b><u>Dolya</u></b> eski ruscha o'lchov -44.435 mg</p> <p><b><u>Doppelsentner</u></b> Germaniya va Shvetsariya-100kg X1 bu yerga yozish kerak Uchinchi beshtan.</p> <p><b><u>Kvarter</u></b> Buyuk Britaniya o'lchov uchun: o'lchov (vesa)-12.701 kg vino-242.3 l gazmol-22.9 sm imperiyali yoki odatda-290.9 l eski (staraya)-281.9 l AQSh o'lchov uchun: o'lchov (vesa) 11:340 kg vino-242.3 l bug'doy-217.7 kg sochiladigan narsa-281.9 l</p> <p><b><u>Kvintal</u></b> Buyuk Britaniya o'lchov uchun yog'och taxtalar (lesomaterialov)-45.36 kg</p>	<p>Argentina-3.80 l Buyuk Britaniya: imperiyasi yoki odatdagidek-4.546 l pruf-gallon (Spirt o'lchash uchun)-2.594 l eski o'lchov uchun vino, suyuqlik-3.785 l sochiladigan narsalar-4.405 l Kubada-1.405 l AQShda -3.785 l o'lchash uchun: asal-5.443 kg kerak</p> <p><b><u>Kalibr</u></b> ( 1/100 dyuma)-254 mkm</p> <p><b><u>Kantar</u></b> Yegipet (Misr). Sudan aleksandriya o'lchov uchun:-139.78 kg tozalangan paxta-45 kg Hindiston-50.75 kg.</p> <p><b><u>Karat</u></b> metrlangan-200 kg inglizcha-205 kg</p> <p><b><u>Kvadratli Dyuma</u></b> Buyuk Britaniya, AQSh-6.452 sm<sup>2</sup></p> <p><b><u>Kvadratli perch</u></b> 25.293 m<sup>2</sup></p> <p><b><u>Kvadratli mil ustavli</u></b> odatdagi-2.590 km<sup>2</sup> Buyuk Britaniya, AQSh-0.0930 m<sup>2</sup></p> <p><b><u>Kvadratli fut</u></b> Buyuk Britaniya, AQSh-929.030 sm<sup>2</sup></p> <p><b><u>Draxma</u></b> Buyuk Britaniya, Aqsh dorixona (apteka)-3.888 k savdoda (torgovaya)-1.7772 g</p> <p><b><u>Dyum</u></b> eski ruscha o'lchov Buyuk Britaniya, AQShda-2.54 sm</p> <p><b><u>Eolotnik</u></b> eski ruscha o'lchov-4.27 l</p>
---	--

<p>Kuba, Peru, Avstriya, Ispaniya. Italiya, Fransiya-46 kg kvintal matrlan-100 kg Kolumbiya kvintal metrlangan-50 kg</p> <p><b><u>Kin</u></b> Yaponiya-0.6 kg</p> <p><b><u>Kipa</u></b> Avstriya, Jun (sherot) ni o'lchash uchun-149.7 kg Braziliya paxtani o'lchash uchun-180 kg Germaniya qog'ozni o'lchash uchun-10000 kerak (list) Misr (Yegipet) Paxtani o'lchash uchun-216.89 kg Hindiston o'lchash uchun kanop (djut) va paxta-181.4 kg AQSh paxtani o'lchash uchun-226.8 kg odatda: 375 ingliz funti-170 kg 478 ingliz funti-216.8 kg qog'ozni o'lchash uchun-136 kg</p> <p><b><u>Qandi</u></b> Hindiston o'lchov uchun: bug'doy-297.5 kg shakar-226.8 kg paxta-355.6 kg jun (sherot)-266.7 kg</p> <p><b><u>Katti</u></b> Oyangan (Gonkong)-604.8 kg Birma-544 g Indoneziya-617.6 g Tailand-600 g Filipin-632.5 g</p> <p><b><u>Li</u></b> Buyuk Britaniya (uein katushkali, dinnokatushochnoye) o'lchash uchun: Inyanoy pryaji-274.31 m</p>	<p><b><u>Kabal</u></b> ( kabeltov) Buyuk Britaniya Katta-219.5 m Kichik-185.5 m Germaniya-0.2 m AQSh-219.5 m</p> <p><b><u>Koku</u></b> Yaponiya-80.4 l</p> <p><b><u>Qord</u></b> Buyuk Britaniya yog'och paxtalari uchun: Katta-3.624 m<sup>2</sup> Kichik -3.568 m<sup>2</sup> toshko'mir-1.34 t AQSh yog'och taxtalarni o'lchash uchun-3.624 m<sup>2</sup></p> <p><b><u>Kubik (kubicheskiy) dyuym</u></b> Buyuk Britaniya, AQSh-16.387 sm<sup>3</sup></p> <p><b><u>Kubik (kubicheskiy) fut</u></b> Buyuk Britaniya, AQSh-0.028 sm<sup>3</sup></p> <p><b><u>Kubik (kubicheskiy) YaRD</u></b> Buyuk Britaniya, AQSh-0.765 m<sup>3</sup> AQSh yog'och taxtalari-3.624 m<sup>3</sup></p> <p><b><u>Qop, Qanor (meshok)</u></b> Braziliya o'lchov uchun: kofe, kakao-60 kg jo'xori, guruch-58 kg shakar-50 kg paxta-80 kg Belgiya o'lchov uchun: un-100 kg urug' (semyan)-80 kg toshko'mir-50 kg Buyuk Britaniya o'lchov uchun: jun (sherot)-165.1 kg toshko'mir -109 kg sement-50.8 kg AQSh sementi-42.6 kg</p>
---	--

<p>prochey pryaji-109.72 m qisqa katushkali-73.15 m (korotkokatushechnoye) <b><u>Liga ustavli</u></b> (ustavnaya) (zustavnye) mili-4.830 km <b><u>Liga morskaya</u></b> (zustavnye)-5.56 km <b><u>Liniya</u></b> eski ruscha o'lchov-2.54 mm Buyuk Britaniya. AQSh Katta-2.54 mm Kichik-2.117 mm <b><u>Lot</u></b> eski ruscha o'lchov-12.8 g Germaniya-16.67 <b><u>Loud</u></b> eski ruscha o'lchov-12.8 g Buyuk Britaniya o'lchov uchun rudalarni-158.3 kg ot kuchi nigan (ana)-914.4 kg (loshadnaya sila)-745.7 Vt <b><u>Man</u></b> Afg'oniston-56.5 kg Hindiston – 11.34 kg Iroq -25 kg Eron-2,969 kg <b><u>Kvarta</u></b> Buyuk Britaniya imperiyasi-1.137 l o'lchov uchun: vino-0.946 l pruf-kvarta-0.649 l eski (staraya)-1.101 g Germaniya o'lchov uchun: pivo-2.198 l AQSh odatdagi o'lchov uchun-1.145 l vino va neft-0.946 l sochiladigan narsa-1.101 l <b><u>Maund</u></b> Hindiston ustavli -37.324gkg Bombey (Bombeyskiy) – 12.701 Gudjorat (gudjoratskiy) – 16,783 dan 19,958 gacha Pokiston - 37,324 kg</p>	<p><b><u>Milaya</u></b> eski ruscha o'lchov uchun- 7.467 km Buyuk Britaniya, AQSh ustavli (ustavnaya) odatda -1.609 km Xalqaro-1.852 km geografiyali-1.853 km (dengiye)-1.853 km uayel admiralteyskiy-1.853 km Germaniya saksonli-9.062 km geografiyali-7.42 km.  <b><u>Momme</u></b> Yaponiya – 3,75 sm <b><u>Keyl</u></b> Buyuk Britaniya – 5,71 sm <b><u>Pek</u></b> Buyuk Britaniya odatda Vinchestrli (AQSh) – 9,092 l toshko'mir – 8,91 tua – 6,35 kg <b><u>Sotni bolshaya</u></b> Buyuk Britaniya – 120 dona <b><u>Standart (yog'och taxta)</u></b> inglizcha – 4,247 m<sup>3</sup> Xalqaro Lelingrad – 4,672 m<sup>3</sup> London – 7 646 m<sup>3</sup> <b><u>Stoun</u></b> Buyuk Britaniya, AQSh odatda – 6,35 kg go'sht uchun – 3,63 kg <b><u>Suku</u></b> Indoneziya o'lchov uchun asl (blagorodnye) metallar – 6,761 g  <b><u>Tola</u></b> Hindiston o'lchov uchun : o'lchov (vesa) – 11,664 g</p>
--	--

<p>Saudiya Arabistoni – 37,285 kg</p> <p><b><u>Penin (peniveyt)</u></b></p> <p>Buyuk Britaniya, AQSh 1,555 g</p> <p><b><u>Pikul</u></b></p> <p>Syangan (Gonkong) odatda – 60,479 kg</p> <p>bojxona – 80,453 kg</p> <p>Indoneziya o‘lchov uchun; o‘lchov (vesa) – 67,761 kg</p> <p>idish (emkosti) – 87,0 l</p> <p>Xitoy bojxona – 60,453 l</p> <p>yangi – 50 kg</p> <p>Tailand</p> <p>dvoynoy – 121.,3 kg</p> <p>oddiy (prostoy) – 60,65 kg</p> <p>odatda metrli – 60 kg</p> <p>Yaponiya – 60,479 kg</p> <p><b><u>Pinta</u></b></p> <p>Buyuk Britaniya imperiyali (yangi) – 0,568 l</p> <p>eski katta – 0,551 l</p> <p>eski kichkina – 0,473 l</p> <p>AQSh o‘lchov uchun; vino va suyuqlik – 0,473 l</p> <p>asal – 0,680 l</p> <p>zaytun yog‘i – 0,431 l</p> <p>sochilgan narsa – 0,551 l</p> <p>Pud eski ruscha o‘lchov – 16,381 kg</p> <p>Rod (5,5 yadrov) = pol = perch – 5,03 m</p> <p><b><u>Ri</u></b></p> <p>Yaponiya dengizda - 1,853 km</p> <p>Quruqda (suxoputnyy) – 3,927 m<sup>2</sup></p> <p>Rud (40 kv perchet) – 1011,714 m<sup>2</sup></p> <p>Sajen eski ruscha o‘lchov – 2,13 m</p> <p>Buyuk Britaniya, Germaniya – 1,829 m</p> <p>Daniya o‘lchov uchun: hayvonlar yog‘i – 112 kg</p>	<p>hajmi (ob‘m) – 12,3 sm<sup>3</sup></p> <p><b><u>Tonna</u></b></p> <p>Avstriya o‘lchov uchun – 907,185 kg</p> <p>Argentina (eski) – 918,7 kg</p> <p>Braziliya – 918,7 kg</p> <p>Buyuk Britaniya o‘lchov uchun – 793,2 kg</p> <p>katta (o‘zun, 2240 funt) – 1016,047 kg</p> <p>kichik (qisqa 2000 funt) – 907,185 kg</p> <p>idishlarni o‘lchash uchun katta (bochka) – 11,456 l</p> <p>registrli – 2,832 m<sup>3</sup></p> <p>Germaniya o‘lchov uchun – 1000kg</p> <p>Toshko‘mir, pivo – 219,8 l</p> <p>odatda – 114,5 l</p> <p>registrli – 2,832 m<sup>3</sup></p> <p><b><u>Barlong</u></b> 220 yadrov, 1/3 mili – 201,168 m</p> <p><b><u>Berdan</u></b></p> <p>Misr (Yegipet)</p> <p>Odatda – 0,456 ga</p> <p>Misr – 0,42 ga</p> <p>Eski – 0,512 ga</p> <p><b><u>Funt</u></b></p> <p>Eski ruscha o‘lchov</p> <p>Polsha, Buyuk Britaniya, AQSh</p> <p>Troyskiy (antekarskiy) – 372,242 g</p> <p>torgovoy (everdyapois) – 453,593 g</p> <p>Argentina – 459,4 g</p> <p>Braziliya – 344,2 g</p> <p>Ispaniya, Kuba, Salvador – 460,09g</p> <p>Italiya venetsianskiy – 301,2 g</p> <p>Metrli – 1 kg</p> <p>Sitsiliyskiy – 318 g</p>
---	--

<p>o'simlik yog'i –  pivo – 131,39 l  don va to'z – 139,12 kg  Kanada – 907,185 kg  Niderlandiya Gollandiya  va Norvegiya – 102 l  Shotlandiya o'lchov uchun:  to'zli baliqlarni o'lchash – 115 kg  to'zli baliq idishi – 118 l  Norvegiya katta – 115,8 l  kichik – 102 l  AQSh o'lchov uchun:  katta (o'zun, 2240 funt) – 1016,047 kg  kichik (qisqa 2000 funt) – 907,185 kg  Qurilish yog'och taxta dumaloq  (kruglyy) – ok. 1,133 m<sup>3</sup> (yaqin)  (tesanogo) – ok. 1,417 m<sup>3</sup> (yaqin)  Pigan (presovannogo) – 2,832 m<sup>3</sup></p> <p><b><u>Tenna miliz</u></b>  Buyuk Britaniya, AQSh  Katta tonna – milya – 16,36 t/km  kichik tonna milya – 1.460 t/km  <b><u>Tochka</u></b> - 315,460 mkm</p> <p><b><u>Unsiya</u></b>  Buyuk Britaniya, AQSh  Troyskiy (aptekarskaya) – 31, 103 g  Torgovaya (ever dyupoys) – 28.350 g  Suyuqlikni o'lchash uchun – 28,4 ml  Argentina, Braziliya – 28,7 g  Ispaniya, Kuba – 28,75 g  Belgiya, Germaniya, Niderlandiya –  100 g</p> <p><b><u>Xandradveyt</u></b>  Buyuk Britaniya – 50, 802 kg</p> <p><b><u>Xold</u></b> (arpa)  Vengriya – 0, 575 ga</p> <p><b><u>Sental</u></b></p>	<p>Niderlandiya  Amoterdamokiy – 494,1 g  Apkarskiy – 375 g  Metricheskiy – 500 g  Norvegiya – 498,1  Fransiya metrli – 500 g  Shvetsiya aptekarskiy – 375 g  odatda – 500g  Daniya  Karabelnyy – 170 g</p> <p><b><u>Funtomilya</u></b>  Buyuk Britaniya, AQSh – 0,730  kg/m</p> <p><b><u>Fut</u></b> eski ruscha o'lchov  AQSh, Fransiya – 30,48 sm  Argentina – 28,9 sm  Belgiya – 28,7  Braziliya – 33 sm  Buyuk Britaniya – 30,48 sm  ilova uchun – 27,216 kg  Germaniya saksonli – 28,32 sm  Bargarli – 29,2 sm  bedenli – 30 sm  Daniya, Indoneziya – 31,4 sm  Italiya, Venetsiya – 34,8 sm  Odatda – 28 sm  Rimli – 30,2 sm  Fransiya, Shvetsiya – 29,7 sm  Shveysariya – 30 sm</p> <p><b><u>Syibik</u></b>  Buyuk Britaniya (choy uchun) –  27,2 kg  Cheyn (22 yarda) – 20,117 m  Chetverik, eski ruscha o'lchov –  26,24 l  Chetvert eski ruscha o'lchov  Sochiladigan narsalar uchun –  209,9l</p>
--	--

<p>Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada, SShA, YuAR – 45,359 kg</p> <p>Buyuk Britaniya katta inglizcha xondrayveyt – 50, 302 kg</p> <p>Kichik inglizcha (tsental) – 45,359 kg</p> <p>Germaniya dvoynoy (delpelsentner) – 100 kg</p> <p>oddiy (bojxona) metrli – 50 kg</p> <p>Daniya, Kanada, AQSh (tsental) – 45,359 kg</p> <p>Niderlandiya – 49,409 kg</p> <p>Polsha – 40,953 kg</p> <p>Finlandiya - 43,501 kg</p> <p>Shveysariya</p> <p>Oddiy – 50 kg</p> <p>Qo‘shma – 100 kg</p> <p>Shveysariya</p> <p>oddiy – 50 kg</p> <p>qo‘shma – 100 kg</p> <p>Shvetsiya – 40, 508 kg</p>	<p>Suyuqlik uchun – 3,075 l</p> <p>Polsha – 32 l</p> <p>Shtof (kujka) eski ruscha o‘lchov – 1,32 l</p> <p><b><u>Yard</u></b></p> <p>Belgiya, Kanada, AQSh – 91,44 sm</p> <p><b><u>Yashin</u></b></p> <p>Belgiya – 15 l</p> <p>Buyuk Britaniya gugurt - 1000 kb</p> <p>Choy – 38,7 kg</p> <p>Tuxum – 350 dona</p>
--	--

## IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI

/Qisqacha ocherk/

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi – bu iqtisodiy hayotning asosiy qonuniyatlariga nazariy qarashlar tadrijiy taraqqiyotining in'ikosidir. Ta'limotlarning turli yo'nalishlari o'rtasida "Xitoy devori" yo'q: iqtisodiy voqelik tavsifi va tahlili iqtisodiy ta'limot mualliflari uchun ko'pincha ularni isloh qilish, hatto tubdan qayta qurish yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqish uchun asos vazifasini o'taydi - hamma gap u yoki bu ta'limotdagi tahlil bilan me'yoriy modelning nisbatiga borib taqaladi.

**Markaziy Osiyoda iqtisodiy tafakkurning rivojlanishi** Markaziy Osiyoda iqtisodiy tafakkurning rivojlanishi **Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, A. Navoiy** kabi olamga mashhur olim va adiblarning nomi bilan bog'liq.

Ularning asarlarida iqtisodiy g'oyalar hali falsafiy va ijtimoiy bilimlar majmuidan alohida ajralib chiqqan bo'lmasa ham ma'lum darajada qiziqish uyg'otadi.

Forobiy va Ibn Sino ilmiy qarashlarida inson ehtiyojlari haqidagi ta'limot markaziy o'rinni egallagan. **Forobiyning** (870 – 950) fikriga ko'ra, odamlarning moddiy ehtiyojlari jamiyat shakllanishining birlamchi sababi hisoblanadi.

**Abu Ali ibn Sino** (980 – 1037) – o'rta asrning mashhur mutafakkirlaridan biri, buyuk qomusiy olim va gumanist, avvalambor o'zining tibbiyot sohasidagi asarlari bilan mashhurdir. Shu bilan birga uning iqtisodiy masalalar qiziqtirgan. Uning nafaqat oila miqyosidagi, shu bilan birga shahar va davlat miqyosidagi daromadlar va sarf-xarajatlar haqidagi mulohazalari, ayniqsa qiziqarli. Uning fikriga qaraganda, maorif uchun mablag'lar ajratilishining tabiiy ofatlar yoki urush ehtimolini nazarda tutib zaxiralar hosil qilinishini inobatga olib, daromadlar harajatlar muvofiqlantirilishiga erishish zarur

**Abu Rayxon Beruniy** (973 – 1048) Ibn Sinoning zamondoshi, ulkan qomusiy olimlaridan biridir. U o'z asarlarida insonning tevarak atrofidagi olam bilan aloqa qilishi kabi ob'ektiv olamdan kelib chiqib inson uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Beruniy jamiyat shakllanishining iqtisodiy omillari haqidagi Forobiy va Ibn Sinoning ta'limotini rivojlantirgan. Beruniyning Markaziy Osiyo iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishdagi xizmatlari shundaki, u pulning kelib chiqishini birinchi bo'lib tadqiq etgan, uning mehnat mahsulotlarini ayirboshlash ehtiyoji paydo bo'lishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatgan.



XI asrning taniqli shoiri va mutafakkiri Yusuf Xos Hojib iqtisodiy bilimlar sohasida muhim rol o‘ynagan. U o‘zining iqtisodiy qarashlarini “Qutadg‘u bilig” (“saodatga eltuvchi bilim ”1069), kitobida bayon etilgan. Yusuf Xos Hojib mehnatning jamiyatini rivojlantirishdagi rolini ta’kidlab, ne’matlarini, xususiyatlarini, xarakterlarini qayd etadi.

Sharq iqtisodiy tafakkurining shundan keyingi rivojlanishi Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davri uchun ayniqsa xarakterlidir. Bu ko‘p jihatdan buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri, qomusiy olim va davlat arbobi **Alisher Navoiyning** (1441 – 1501) nomi bilan bog‘liqdir. A. Navoiyning iqtisodiy g‘oyalari bayon etilgan 22 asari orasidan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi haqidagi uning asosiy fikrlari ana shu asarlarda o‘z mujassamini topgan. Olim mehnatining boylik yaratishdagi rolini qayd etar ekan, “boylik – basharti undan butun xalq foydalangan taqdiridagina ne’matdir”, deb hisoblangan. Uning fikriga ko‘ra, davlatning boyish manbayi soliqlar hisoblanadi, shuning uchun u adolatli soliqlar tizimi o‘rnatilishini yoqlagan. Navoiyning asarlarida davlat moliyasiga ham anchagina katta o‘rin ajratilgan.

Markaziy Osiyo iqtisodiy tafakkuri tarixidan, shuningdek, Abdurahmon Jomiy (1414 – 1492), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 – 1530), Mirzo Bedil (1644 – 1721), Ozodiy (1700-1760), Maxtum Quli (1733-1782) va boshqalarning asarlari o‘rin olgan.

Iqtisodiyot nazariyasining shakllanishi. Qadimgi dunyo ham, feodalizm davri ham ozmi-ko‘pmi tartibga solingan iqtisodiyot nazariyasini bilmagan.

Iqtisodiyot nazariyasi debochalarini qadimgi yunon faylasufi **Aristoteldan** /eramizdan avvalgi IV asr/ topish mumkin. U iqtisodiyotni – natural ko‘rinishdagi boylik haqidagi ta’limotni va xrematistikani – pul boyligi haqidagi ta’limotni bir-biridan farqlaydi. Natural, moddiy boylik ma’qullanadi, chunki u inson ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Hayot uchun zarur ne’matlar qo‘lga kiritilishiga xizmat qiluvchi chakana savdo ham iqtisodiyot sirasiga kiritiladi. Xrematistika esa foyda olish uchun xizmat qiluvchi savdoni va sudxo‘rlikni qamrab oladi - bu qoralanadi. Dastavval almashuvdan iborat savdo zarurati sifatida paydo bo‘lgan pul yovo‘z qiyofa kasb etadi, uni iloji boricha ko‘proq to‘plash hammaning birdan-bir maqsadiga aylanadi.

Shundan keyingi ko‘p asrlar mobaynida Aristotelning hurmat- obro‘yiga hech kim shak keltira olmadi. Uning iqtisodiy qarashlari xristian cherkovi kazolari tomonidan ma’qullanar edi. O‘rta asrning taniqli mutafakkiri Foma **Akvinskiy** /eramizning XIII asri/ ham uning qarashlariga suyanar edi. Ammo tovar - pul munosabatlarining foydaliligini e’tirof etishda u Aristoteldan ancha ilgari ketdi; savdodan foyda olinishiga yo‘l qo‘yish mumkin, agar u

sotuvchi uchun tirikchilik vositalari manbai bo'lib xizmat qilsa, sotishdan avval tovarni yaxshilash uchun uning sarflagan mehnatiga to'lanadigan haq hisoblansa yoki Allohga ma'qul maqsadlar yo'lida foydalanilsa, deydi u. Aslini olganda, qarz evaziga foiz olish ham ma'qullanadi, chunki qarzga pul bergan odam ana shu puldan boshqa ma'qul maqsadlarda foydalanib, daromad olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Foma Akvinskiy adolatli narx haqidagi kanonistlar /katolitsizm asoslarini sharhlovchilar/ ta'limotini rivojlantiradi. Adolatli narx bir tomondan - tovarni ishlab chiqarish uchun qilingan sarf-xarajatlarni aks ettirishi, ikkinchi tomondan, sotuvchiga uning matlabiga mos turmush tarzini ta'minlashi lozim, deydi u.

Kapitalistik xo'jalik yuritish tongotarida **merkantilizm** ta'limoti shakllanadi. Pul /oltin va kumush/ haqiqiy boylik deb e'lon qilinadi. Ishlab chiqarish - boylik yaratish uchun hozirlik xolos, tovarlar pulga aylanadigan muomala sohasi boylikning bevosita manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ichki savdo-sotiq oltinni bir qo'ldan ikkinchisiga o'tkazadi xolos, mamlakat boyligini esa xorijdan pullarning oqib kelishini ta'minlaydigan tashqi savdo-sotiq ko'paytirishi mumkin. Merkantilizm G'oyalari ayniqsa Angliyada keng rivoj topdi. XVI asrda monetar merkantilizm /pul balansi merkantilizmi/ xukmronlik qilgan. Uning tarafdorlari - U.Stafford va boshqalar hukumatdan chet elga oltin va kumush chiqarilishini taqiqlashni, ya'ni importdan voz kechishni talab qilishgan. XVII asrda monetar merkantilizm o'rniga savdo balansi merkantilizmi /uning eng yorqin namoyandasi - T.Men/ keldi: importga ruxsat beriladi, ammo eksport hajmi ko'proq bo'lishi kerak, buning ustiga xomashyoni emas, tayyor mahsulotni eksport qilish zarur. Rossiyada merkantilizm g'oyalarini **I.Pososhkov** /XVIII asrning boshlari/ rivojlantirgan.

Ilk iqtisodiy ta'limotlarning hammasi aksariyat hollarda me'yoriy xarakterga ega bo'lgan.

**Fiziokratizm.** Birinchi yaxlit iqtisodiyot nazariyasi XVIII asrning o'rtalarida Fransiyada tarkib topdi. Fiziokratlar maktabining asoschisi – **F.Kene**. Merkantilistlardan farqli ravishda fiziokratlar savdo-sotiq boylikni bir joydan ikkinchi joyga o'tkazadi xolos, boylikning o'zi ishlab chiqarishda, tabiatning o'zi moddalar miqdorini ko'paytiradigan yerda yaratiladi, deb tasdiq- lashgan /ta'limotning nomi ham shundan kelib chiqqan: yunoncha fiziokratiya - tabiat hukmronligi degani/. Shuning uchun yagona ishlab chiqaruvchi sinf – bu dehqonlardir, sanoatchilar – samarasiz sinf, ular boylik ko'rinishini o'zgartiradilar xolos, o'z harajatlarini qayta tiklaydilar, ammo foydani yaratmaydilar, yer egalari esa dehqonlardan undiriladigan renta hisobiga yashaydilar. Kenening asari bo'lmish "Iqtisodiy jadval" - birinchi

makroiqtisodiyot modeli bo'lib, unda tovarlar va pullarning jamiyat uch sinfi o'rtasida aylanib yurishi shunday tasvirlangan, har bir sinfning avvalgi pozitsiyasi saqlab qolingani holda o'zgarimas ko'lamlarda ishlab chiqarishi qayta va qayta takrorlash mumkin bo'lib chiqadi. Nazariy xulosalardan Kenening amaliy dasturi kelib chiqadi: sof daromadning hammasi yer egalari uchun bo'lgan, barcha soliqlar ham ularning zimmasiga yuklanishi kerak.

Fiziokratlar ta'limotini keyinroq **A.R.Tyurgo** rivojlantirdi. Kene bo'yicha yagona hisoblangan sanoatchilar sinfini u tadbirkorlar va yollanma ishchilarga taqsimlanadi. Bu shunchaki taqsimlash emas – bu birinchilarining tejamkorligi va mehnatsevarligi, ikkinchilarining isrofgarchiligi va dangasaligi oqibati hisoblanadi. Tyurgo savdo-sotiq va sanoat foyda keltirishini e'tirof etadi, ammo ularga yer egalari daromadidan chegiruv deb qaraydi. Kapital foizining kattaligi yer rentasi miqdori bilan belgilanadi: sanoat yoki savdo korxonalariga yo'naltirilgan pullar, ana shu pulga sotib olishi mumkin bo'lgan yer qancha daromad keltirsa, shuncha daromad keltirishi lozim.

Fiziokratlar davlatning iqtisodiyotga aralashmasligini qattiq talab qilishgan. Ular iqtisodiy liberalizmning "Laissez faire, laissez passer" /Qo'yib bering - nima qilishsa qilishsin, qo'yib bering - qayerga bormoqchi bo'lishsa boraverishsin"/ degan shiorni e'lon qilishdi.

Angliya klassik maktabi. 1776 yilda "Xalqlar boyligining sabablari va tabiatiga doir tadqiqot"ni e'lon qilgan **A.Smit** mazkur maktabining asoschisidir. A.Smitning ta'limoti qiymatning qadrlikning mehnat nazariyasiga asoslanadi, mazkur nazariyaning ilk nishonalari merkantelist U.Pettida va fiziokrat P.Buagilberda ko'zatiladi. Fiziokratlardan farqli ravishda A.Smit: boyluk moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida yaratiladi, chunki uning manbai - mehnat, deb tasdiqlaydi. Boylikni ko'paytirishning sharti mehnat unumdorligini oshirishdir. Smit o'z asarini mashinalar inqilobidan ilgari yozganligi sababli, unumdorlikning oshirishini, avvalambor, ijtimoiy mehnat taqsimotini chuqurlashtirish bilan bog'landi.

Smit tovarning almashish vaqtidagi qadrini /qiymatini/ uning iste'mol qiymatidan chiqarib tashlashga doir urinishlarni rad etadi. Almashish vaqtidagi qadrilikning manbai va o'lchovi - mehnat va faqat mehnatdir, deydi u. Bozor muayyan ishlab chiqaruvchining shaxsiy mehnat sarfini emas, ijtimoiy zarur sarfini hisobga oladi. Ijtimoiy zarur sarfi deganda, Smit ishlab chiqarishning mavjud sharoitlaridagi o'rtacha sarf-xarajatlari tushunadi. Iqtisodiyot hodisalarini tushuntirishda Smit insonning tabiatan xudbin ekanligidan kelib chiqadi. Bozor shunday bir joyki, turli xil xudbin niyatlar shu yerda bir-biriga duch keladi, har biri o'z manfaatini ko'zlovchi alohida sub'ektlarning bir-birini

cheklovchi xatti-harakati oqibatida umumiy ne'mat tabiiy ravishda hosil bo'ladi. Odamlarning iqtisodiy munosabatlari jamoat shartnomasi bilan belgilanmaydi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xohish-irodasidan qat'i nazar o'z-o'zidan vujudga keladi. Umuman Smitning ta'limotida bozorga muhim ahamiyat beriladi: "bozorning ko'zga ko'rinmas qo'li"- butun xo'jalik hayotini boshqaradi, deb hisoblanadi.

Smit iqtisodiyot nazariyasiga birinchi bo'lib yalpi va sof daromad kategoriyalarini kiritdi.

Smitning qarashlari qarama-qarshiliklardan xoli emas. Qiymatning mehnat nazariyasidan chekinar ekan, u mehnat faqat sodda jamiyatlardagina almashuv qadriyatini belgilovchi yagona omil hisoblanishiga yo'l qo'yadi, hozirgi zamon sharoitlarida esa kapital va mulk sifatidagi yer almashuv qadriyati tashkil topishiga o'z hissasini qo'shadi, deydi u.

**D.Rikardo** almashuv qadriyatini birmuncha izchilroq talkin etadi. Uning bosh asari "Siyosiy iqtisod va soliq solishning asoslari" 1817 yilda dunyo yuzini ko'rgan. Rikardo boylikning moddiy mazmunini va uning almashuv qadriyatini bir-biridan aniq chegaralaydi: mehnat unumdorligining oshishi boylikning almashuv qadriyatini emas, uning jism ko'rinishidagi hajmini ko'paytiradi. Kapital va yer almashuv qadriyatini hosil qilmaydi, bu demak, kapitalistning foydasi va yer rentasi ishchilar mehnati mahsulidan chegirma mohiyatiga ega. Ijtimoiy zarur mehnat sarfini Rikardo o'rtacha mehnat sarfi deb emas, eng unumsiz, ammo jamiyat uchun kerakli sarfi deb hisoblaydi.

Yer rentasini ham u shu nuqtai nazardan izohlaydi: qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi hosildorligi eng past yerlardagi mehnat sarfi bilan belgilanadi, bu demak, nisbatan unumdor yerlarda fermerlar qo'shimcha daromad olishadi, uni yer egalari renta sifatida tortib oladilar.

Rikardoning fikriga ko'ra, kapitalistning foydasi ishchining o'z mehnatini faqat tirikchilik minimumini ta'minlaydigan narx bo'yicha sotishga majbur ekanligi bilan izohlanadi. Agar mehnat haqi ma'lum muddatga ana shu minimumdan jiddiy ravishda oshib ketsa, bu oilada bolalar sonining ko'payishiga, pirovard oqibatda, ishchi qo'llarining ortiqcha taklif qilinishiga va mehnat haqining kamayishiga olib keladi. Aslini olganda, Rikardo ish haqining "temir" qonuni deb atalmish qonunning muallifi hisoblanadi. Kapitalistik ishlab chiqarish rivojlanib borgani sayin ish haqining oshib borish imkoniyatlarini rad etar ekan, Rikardo kapi-talistlar foydasi ko'payib borishi istiqboliga ham shunday ishonchsizlik bilan qaraydi: tobora yaroqsiz qishloq xo'jaligi ekinzorlariga ishlov berishga muqarrar ravishda o'tish oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatlashib borishiga-mehnatga haq to'lashning muqarrar

o'sishiga, shu sababli tadbirkorga tegadigan almashuv qiymati ulushining pasayishiga olib keladi.

Rikardo pulga avvalambor muomala vositasi deb qaraydi. Sotuvga taklif qilinayotgan tovar massasi o'zgarishsiz qolgani holda, muomaladagi pul miqdori ko'paytiriladigan bo'lsa, narx-navo ko'tariladi, ya'ni pul birligi qadrsizlanadi. Shunday qilib, Rikardo pulning miqdor nazariyasiga – pulning qadri uning miqdoriga bog'liqligiga keladi, qog'oz pul qonuniyatlarini oltin va kumush pullarga ham qo'llaydi.

Rikardoning mehnat qadri nazariyasi xulosalari voqelikka zid ekanligini uning zamondoshlariyoq qayd etishgan: basharti foyda faqat jonli mehnat bilan hosil qilinsa, kapitalda uning moddiy qismi ulushi katta bo'lgan tarmoqlarda foyda normasi kamroq bo'lishi lozim - aslida esa bunday bo'lmaydi.

**Klassik maktabning tadrijiy rivojlanishi.** A.Smitning fransiyalik izdoshi J.B.Sey Smitda keyinroq uchraydigan, qadriyat bu uch omil: mehnat, kapital va yerning harakati natijasidir, degan talqinni yanada rivojlantirdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ish haqi, kapitalistning foydasi va yer rentasi ishlab chiqarish chiqimlaridir, ya'ni tovarning almashuv qadri uni tayyorlashga qilingan chiqimlarga tengdir. Seyning bozor nazariyasi iqtisodiyot fanining keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Savdoda tovarlar tovarlarga almashinuvi bois /pul – almashuv vositasi xolos/, savdoning umumiy tanazzuli bo'lishi mumkin emas/ ayrim nomutanosibliklarning o'rni bo'lishi mumkin/, har bir tovar ishlab chiqaruvchi boshqa barcha potensial haridorlarning badavlat bo'lishidan manfaatdordir, import eksportga ijobiy ta'sir etadi, hech narsa ishlab chiqarmay, faqat iste'mol qiladigan qatlamlar mamlakatni xonavayron qiladilar.

A.Smitning angliyalik shogirdi T.R.Maltus Seydan farqli ravishda foyda olinishini amalga oshirish uchun kapitalistlar va ishchilar bilan bir qatorda, faqat sotib oladigan, hech narsani sotmaydigan "uchinchi shaxslar" zarur deb isbotlaydi. Ishchilar o'z mehnatini sotishar ekan, ishlab topgan mablag'lariga o'z mehnatlari bilan yaratilgan ne'matlarnigina sotib olishlari mumkin; tovarlarni bir-biriga sotadigan kapitalistlar foyda olishlari mumkin emas, chunki sotuvchi sifatida olgan foydalaridan haridor sifatida ajralib qoladilar. Maltus e'lon qilgan "aholi nufusi qonuni" ko'pchilikka yaxshi ma'lum: qashshoqlikning asosiy sababi yomon idora qilishda va boyliklarning notekis taqsimlanishida emas, aholi nufuzining o'sishi muqarrar ravishda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishidan o'zib ketishida /aholi soni geometrik progressiyada o'sib borib, kamida 25 yilda ikki baravar ko'payadi, oziq-ovqat mahsulotlari miqdori esa arifmetik progressiyada ko'payib boradi/.

Rikardoning shogirdlari, mehnat – bu qadriyatni yaratuvchi, degan tushunchani qayta ko‘rib chiqqan borib, qadriyatning mehnat nazariyasi bilan turli tarmoqlar uchun foyda me‘yorlari bir ekanligini e‘tirof etish o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishga urinishgan. Nafaqat jo‘yali mehnat, shu bilan birga buyumga aylantirilgan mehnat ham qadriyatlarni yaratadi, deb hisoblaydi Jeyms Mill. D.R.Mak-Kullox tabiat kuchlarining ta‘sirini ham mehnat deb e‘lon qiladi. N.U.Senior mehnatni xususiy tiyilish hodisasi sifatida talqin qiladi: o‘z mehnatini sarflar ekan, ishchi osoyishtaligi va dam olish vaqtdan voz kechadi, kapitalist esa, o‘z pullarini ishlab chiqarishga sarflar ekan, uni bugun ho‘zur baxsh etishi mumkin bo‘lgan narsalarga sarflashdan voz kechadi. **Kon Styuart Mill** qadriyatning mehnat nazariyasini ishlab chiqarish chiqimlari nazariyasi sifatida talqin etar ekan, uni talab va taklifining muvozanat nuqtasi sifatida almashuv qadriyati ta‘limoti bilan birlashtirishga harakat qiladi. J.St.Millning fikriga ko‘ra, taklif ishlab chiqarishga qilingan chiqimlar bilan belgilanadi.

**Aksil kapitalistik ta‘limot.** Agar A.Smit va D.Rikardo kapitalizmga “tabiiy tartib”ni ko‘rgan bo‘lishsa, qadriyat mehnat nazariyasining ayrim izdoshlari undan aksil kapitalistik xulosalar chiqarishgan. Ingliz sotsialist - rikardianchilari **U.Tompson, T.Godskin, D.Tred, J.F.Brey** shunday deb e‘lon qilishadi: qadriyat, ya‘ni boyluk mehnat bilan yaratilishi bois, kapitalning uni o‘zlashtirishga hech kanday haq-huquqi yo‘q. Ular bozor munosabatlari saqlab qolingani holda, mulkka jamoa egaligiga asoslangan jamiyatni yoqlashgan.

Rikardoning ta‘limoti XIX asrning birinchi yarmida P.J.Prudon /Fransiya/ va K.I.Rodbertus-Yagetsov /Germaniya/larning bir-biriga yaqin sotsialistik ta‘limotlari uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Birovlarning mehnat qilmay daromad olishini va boshqalarning qashshoqligini Prudon almashuv noto‘g‘ri tashkil etilganligi bilan bog‘laydi. Bozor narxining o‘rnini ekspertlar tomonidan belgilanadigan, ishlab chiqarishning turli tarmoqlari o‘rtasida mehnatning teng taqsimoti inobatga olingan, mehnat chiqimlarini aks ettiruvchi, barchaga maqbul yoki proporsional qadriyat egallashi lozim, deb hisoblaydi u. Iqtisodiyot asosini mayda tovar ishlab chiqarishi tashkil etishi kerak. Tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini xalk banki orqali almashadilar, ana shu bank ne‘matlarning proporsional qadrini belgilovchi sifatida namoyon bo‘ladi. Rodbertusning fikriga ko‘ra, xususiy mulk asta-sekin qator islohotlar orqali davlat qo‘liga o‘tishi kerak, bu foydaning va yer rentasining g‘oyib bo‘lishiga olib keladi.

Ingliz sotsialisti **R.Ouen** ham qadriyatning mehnat nazariyasi tarafdori bo‘lgan. U kapitalizmga mazkur nazariyaning qoidalari amalga oshmay koladi,

chunki pul tufayli mehnatning bahosi o'zgaradi, deb hisoblagan. Xususiy mulk va shaxsiy manfaatdorlik tamoyili o'z umrini yashab bo'ldi, yangi jamiyatning poydevoriga ishlab chiqarish vositalariga xodimlarning kooperativ egaligini, umumiy mehnat hamda huquqlar va majburiyatlardagi tenglikni qo'yish kerak. Kooperativlar xususiy korxonalar bilan raqobatlashib, nisbatan samaraliroq bo'lgani sababli, pirovard oqibatda ularni siqib chiqaradi.

Fransuz mutafakkiri **K.A.Sen-Simon** kapitalizmni boshqa nuqtai nazardan tanqid qiladi. U ishlab chiqarishdagi bosh-boshdoqlikni kapitalistik jamiyatning bosh illati deb hisoblaydi. Hali bunyod etilishi kerak bo'lgan industrilashgan jamiyatda xususiy mulk saqlanib qoladi, ammo korxonalar egalari ishlab chiqarishni markazlashgan usulda ishlab chiqiladigan xalq xo'jaligi reja-siga qaram qilishlari va mehnatda shaxsan ishtirok etishlari lozim.

Kapitalizmning boshqa fransuz tanqidchisi Sh.Fure ishchilarning haridor sifatida aldanishida ularning ekspluatatsiya qilinishini ko'radi. Iqtisodiyotdagi tanazzullarni u haridorlar asosiy massasining qashshoqligi bilan izohlaydi. Fure raqobat monopoliyaga olib kelishini va kapitalizm savdo-sotiq feodalizmga aylanishini bashorat qilgan. Bunyod etilishi lozim bo'lgan ongli jamiyat asosan natural xo'jalik yurituvchi /jamoalar o'rtasida faqat ortiqcha ne'matlarning almashinishiga yo'l qo'yiladi/, o'z-o'zini boshqaradigan bir qator ixcham jamoalardan /bo'g'inlardan/ iborat bo'lishi lozim. Bo'g'inda xususiy mulk va odamni qulga aylantiruvchi xodimlarning umrbod ixtisoslashuvi bo'lmaydi, ishlar odamlarning qobiliyatlariga muvofiq ravishda tanlanadi, mehnat sohasini o'zgartirish hatto bir ish kuni mobaynida amalga oshirilishi mumkin, raqobat o'rnini musobaqa egallaydi, bundan hamma yutadi, xolos.

Kapitalizm tanqidchilarining barcha ta'limotlarida me'yoriy yondashuvning ustuvorlik qilishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

*Marksizmning iqtisodiy ta'limoti.* K.Marks tomonidan, o'z safdoshi F.Engelsning bevosita ishtirokida ishlab chiqqan iqtisodiyot nazariyasi Angliya klassik maktabi bilan genetik bog'liqdir. Marks qadriyatning mehnat nazariyasi haqidagi rikardiancha tushunchadan kelib chiqadi, ammo o'zining uch jildli "Kapital" asarida tahlilga prinsipial yangi jihatlarni ham olib kiradi. Shulardan eng asosiysi - qo'shimcha qiymat nazariyasidir /sho'rolar davridagi iqtisodiyotga oid rus tilidagi adabiyotlarda "qo'shimcha qiymat nazariyasi" tarjimai mustahkam o'rin olgan/. Marksning fikriga ko'ra, kapitalist mehnatni emas, ishchi kuchini, ya'ni mehnat qilish qobiliyatini sotib oladi. Ishchi kuchining qadri /qiymati/ uni qayta tiklashga qilinadigan chiqimlar: ovqatlanishi, kiyim-kechagi, malaka orttirishi, jismonan yaroqsiz holga keladigan otanalari ishchi kuchi o'rnini bosishi kerak bo'lgan bolalarni boqishga

qilinadigan chiqimlar va hokazolar bilan belgilanadi. Ishchi kuchi qadri bilan u yaratishi mumkin bo'lgan qadriyat o'rtasidagi farqni Marks qo'shimcha qiymat deb nomlaydi.

Shunday qilib, kapitalistning foydasi mehnat bozoridagi almashuv ekvivalentini bo'zmasdan vujudga keladi.

Marks kapitalning doimiy /ishlab chiqarish vositalariga safarbar etilgan/ va o'zgaruvchan /ishchi kuchiga safarbar etilgan/ qismlarga bo'linishini joriy etadi. Texnika taraqqiyoti jarayonida kapitalning tarkibiy tuzilishi /doimiy kapitalning o'zgaruvchan kapitalga nisbati/ oshib boradi, ishchi qo'llarga talab kapitalga qaraganda sustroq o'sib boradi, bu ommaviy ishsizlikni hamda ishchilar sinfining muqarrar ravishda qashshoqlashishini keltirib chiqaradi.

Foyda faqat mehnat bilan yaratilishi bois, kapital tarkibiy tuzilishidagi tarmoqlar o'rtasidagi farq foydaning turli xil bo'lishiga olib keladi. Kapitallar kapitalning organik tuzilishi past darajadagi tarmoqlarga oqib o'ta boshlaydi. Shu tarmoqlarda raqobatning kuchayishi tovarlar bozor narxining pasayishiga olib keladi, aksincha, kapitaldan ajralgan tarmoqlarda narxlar oshib boradi. Kapitallarning tarmoqlararo oqib o'tishi tovarlarning qadriga/qiymatiga/ ko'ra emas, har qanday tarmoqda foydaning o'rtacha me'yorini ta'minlovchi ishlab chiqarish narxlari bo'yicha sotilishiga olib keladi. Angliya klassik maktabining tishi o'tmagan vazifani – qadrlilikning mehnat nazariya- sini kapital tarkibida mehnatga chiqimlarning turli ulushi bo'lgan tarmoqlarda aslida ko'zatiladigan foyda me'yorlari tengligi bilan muvofiqlashtirish vazifasini Marks shu tariqa yechishga urinadi.

Rikardoning yer rentasi nazariyasini rivojlantira borib, Marks uchastkalarining unumdorligi va qayerda joylashganligiga ko'ra farqi bilan izohlanuvchi tabaqalashtirilgan renta bilan bir qatorda, yana xo'jalik ob'ekti sifatida yerga yakka egalik qilish keltirib chiqaradigan mutlaq renta mavjudligini isbotlaydi.

Marks ijtimoiy qayta ishlab chiqarish /barcha ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonini qayta va qayta takrorlovchi/ modelini yaratadi, unda ishlab chiqarish bilan iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish o'rtasidagi zarur nisbatlar mujassamdir. U kapitalizm davrida ishlab chiqarishda anarxiya hukm surgani bois, vaqti-vaqti bilan iqtisodiy tanazzullar muqarrar bo'lib turadi, deb tasdiqlaydi.

Marks nazariyasida kapital va ishlab chiqarishning to'planish qonuni katta rol o'ynaydi, shu qonunga muvofiq kapitalizm rivojlanib borgani sayin mayda va o'rtacha korxonalariga xo'jalikda o'rin qolmaydi. Ana shu qonundan muqarrar ravishda yirik xususiy mulkka egalik o'rnini yagona umumxalq egaligi egallaydi, ya'ni kommunizmga o'tiladi, degan xulosa chiqariladi.



Kommunistik jamiyat o'z rivojida ikki bosqichni bosib o'tadi. Birinchi bosqichda - ishlab chiqarish yetarli darajada rivojlanmaganligi va ommaning umum manfaati yo'lida beg'araz mehnat qilishga tayyor emasligi sababli taqsimot mehnatga ko'ra bo'lishi lozim /Engelsning fikriga ko'ra, mehnatning qay darajada malakaliligi emas, uning miqdori hisobga olinishi kerak: kasbga o'rgatish jamiyat hisobiga amalga oshirilishi bois, uning samaralari ham xodimning o'ziga emas, jamiyatga borib tegishi lozim/. Ikkinchi bosqichda - ishlab chiqarish kuchlari mislsiz darajada oshib, mehnat qilish insonning hayotiy ehtiyojiga aylanganida, mehnatga ko'ra taqsimot o'rnini ne'matlarni ehtiyojga qarab taqsimlash egallaydi .

*Tarixiy\_maktab.* Germaniyada XIX asrning o'rtalarida tarkib topgan mazkur maktab, har bir millat o'z iqtisodiy taraqqiyot yo'liga ega, shu sababli qandaydir barchaga maqbul iqtisodiyot nazariyasi bo'lishi mumkin emas, deb tasdiqlovchi **F.Listning** qarashlariga tayangan. Agar Angliya klassik maktabi mavjud kapitalistik xo'jalikka yagona maqbul, yagona tabiiy xo'jalik deb qaragan bo'lsa, List iqtisodiyotga tarixiy yondashuv zarurligini e'lon qilgan.

List va uning izdoshlari iqtisodiy liberalizm doktrinasini rad etishgan va mamlakat ishlab chiqaruvchilariga davlat rahnamolik qilishini talab etishgan. V.**Rosher** ishlab chiqarish omillari nazariyasini ma'qullagani holda, tarixiy rivojlanish jarayonida hal qiluvchi rol yerdan mehnatga, undan esa kapitalga o'tgan deb isbotlashga harakat qilgan. **B.Gildebrand** iqtisodiyot evolyutsiyasining uch fazali: natural xo'jalik - pul - kredit sxemasini taklif qilgan; **K.Knis** iqtisodiy vaziyatlarning betakrorligiga asoslanib, umuman iqtisodiyot qonunlarining mavjudligini rad etgan; u tadqiqotchilarning vazifasi nazariyalarni yaratishda emas, xo'jalik hayotining muayyan hodisalarini ta'riflashda va ma'naviy baholashda deb bilgan.

1870 yillarda yosh tarixiy maktab deb atalmish maktab shakllandi /etakchilari – **K.Byuxer**, **G.Shmoller**, L.Brentano/. Mazkur maktab uchun iqtisodiy jarayonlar va vaziyatlarni ruhiy, axloqiy, diniy va boshqa iqtisodiyotga aloqasi yo'q omillar ta'sirining natijasi sifatida talqin qilishga intilish xosdir.

Ammo mazkur maktab vakillari birgina iqtisodiy tadqiqotlar uslubiyatini rivojlantirishda muayyan rol o'ynashgani yo'q. Byuxer qarzga berilgan kapitalning ahamiyati tobora oshib borishini birinchilardan bo'lib qayd etdi, bundan u "foiz qulligi" haqida xulosa chiqardi, ana shu qullik asoratiga beistisno tadbirkorlar ham, yer egalari ham, sotuvchilar va ishchilar ham tushib turishadi /keyinchalik bu g'oya natsional-sotsialistlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi, ular g'oyaga antisemit yo'nalishini berdilar/. Brentano mehnatga oz haq to'lash pirovard natijada tadbirkorlarning o'ziga ham foydali

emasligini, zero, bu qo‘l mehnatining mashinalar bilan almashtirilishiga, shu yo‘l bilan tovarlarning arzonlashishiga hamda ularning raqobatbardoshligi oshishiga to‘sqinlik qilishini isbotlashga harakat qilgan. Kasaba uyushmalarining taqiqlanishi uchun kurashgan Schmollerdan farqli ravishda, Brentano ularda yaxshi narxlarni kutib, o‘z mehnatlarini sotishni ishchilar kechiktira olmasligidan g‘arazli maqsadlarida foydalanayotgan tadbirkorlarning munosib raqiblarini ko‘ra bildi. Monopoliyalar davrini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Brentano ishlab chiqarishning kartellar tomonidan rejali idora qilinishiga asoslangan krizislarni yengib o‘tish nazariyasining ijodkorlaridan biridir.

Tarixiy maktab g‘oyalari dunyoga mashhur sotsiologlar – V.Zombart va M.Veberning qarashlari shakllanishiga juda katta ta‘sir o‘tkazdi.

**Institutsionalizm.** Ushbu yangi yo‘nalish XIX asr bilan XX asr sarhadlarida AQShda paydo bo‘ldi. **T.Veblen** va uning izdoshlari A.Smit davridan beri hukmronlik qilib kelgan, butun xo‘jalik faoliyati faqat bir narsa - xo‘jalik faoliyati sub’ektlarining iloji boricha ko‘proq shaxsiy daromad olishga intilishi bilan izohlanadi, degan tasavvurni rad etishdi. Ular iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishida ijtimoiy institutlar - huquqiy yo‘riqnomalarda mustahkamlangan /aksariyat qismi/ va jamoat muassasalari orqali amalga oshiriladigan yoxud tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilmagan/urfo-odatlar, an‘analar/fe‘l-atvor normalari majmui ulkan rol o‘ynaydi, deb hisoblashgan. Institutsionalistlar kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, tadbirkorlarning uyushmalari va boshqa shu kabi institutlar doirasida amalga oshiriladigan jamoa harakatlariga e‘tiborni jalb etadilar. Veblen iqtisodiyot – bu teng-muvozanatli-tizim va turg‘un muvozanat shart-sharoitlarining izlanishlari degan an‘anaviy yondashuvni tanqid qilgan, u iqtisodiyotni harakatdagi jarayonlar haqidagi fan deb tushungan.

Institutsionalizmning paydo bo‘lishi uning zamondoshlari tomonidan iqtisodiyot fanidagi uslubiy to‘ntarish sifatida qabul qilingan.

Asr oxiriga kelib, rivojlangan mamlakatlarning xo‘jaliklarida ro‘y bergan o‘zgarishlarning in‘ikosi sifatida, Veblen xo‘jalik munosabatlari tahliliga kapitalistlar va ishchilardan tashqari muhandis-texnik xodimlardan iborat ijtimoiy guruhni ham kiritadi. Agar ilgari kapitalist ishlab chiqarishning tashkilotchisi bo‘lgan bo‘lsa, endilikda kapital egalari - moliya sohasining ishtirok etuvchi shaxslaridir, ularning kapitallari ishlab chiqarish vositalarida emas, qimmatbaho kog‘ozlarda mujassam, ishlab chiqarish boshqaruvini aslida texnik mutaxassislar amalga oshiradilar. Ana shu ijtimoiy guruhlarning manfaatlari har xil, bu biznes va industriya o‘rtasidagi ziddiyatga olib keladi, Veblenni yag fikriga ko‘ra, narx-navoni oshirib borayotgan va ishlab chiqarish

hajmini cheklayotgan monopoliyalarning hukmronligi bois, hozirgi zamon iqtisodiyotining modeli talab va taklif zahirida yaratilishi mumkin emas. Veblen kredit gipertrofiyasini va kreditlar qadrsizlanishini monopoliyalar bilan bog'laydi, buning oqibatida iqtisodiy tanazzullar kelib chiqadi, deydi u. Qarama-qarshiliklardan chiqish yo'lini u iqtisodiyotga rahbarlik qilishni muhandis-texnik xodimlar qo'lga topshirishda ko'radi, bunga mutaxassislarining umumiy ish tashlashi orqali erishish mumkin, deydi.

**D.Kommons** asosiy e'tiborni huquqiy institutlarga qaratdi. Bitim qatnashchilari tobora tez-tez yakka shaxslar emas, ularning uyushmalari bo'lib borishi bois, ular o'rtasida murosaga erishish tobora mushkullashadi, bu davlatning ham hakam sifatida, ham tomonlarni zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishga majbur qiluvchi kuch sifatida aralashuvini taqozo etadi. Pirovard oqibatida mavjud tartib o'rniga ma'muriy kapitalizm keladi.

Veblenning boshqa bir shogirdi **U.Mitchell** iqtisodiy sikllarning tadqiqotchisi sifatida tarixdan o'rin olgan. Mitchell o'zaro bog'liq xo'jalik hodisalarining notekisligiga /o'zib ketishi va kechikishlariga/ alohida ahamiyat bergan. Kon'yunkturani /"iqtisodiyot barometrini/ bashorat qilish tizimini u yaratgan iqtisodiy-matematik yo'nalishning paydo bo'lishi. Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish uchun matematika usullarini qo'llashga birinchi bo'lib A.O.Kurno XIX asrning 30-yillarida Fransiyada urinib ko'rgan. U talabga narx-navoning uzluksiz funksiyasi sifatida qaragan, bu tabaqalashtirilgan hisob-kitob apparatidan savdo-sotiqdan olinadigan eng yuqori yalpi daromadni topishda foydalanish imkonini berar edi. Kurno "talabning narxga ko'ra moslashuvi" tushunchasini joriy etdi va mazkur xususiyat turli guruhga mansub tovarlar uchun xos ekanligini ko'rsatdi.

Mavhum modellar yaratgan matematika professori Kurnodan farqli ravishda nemis pomeschigi/ma'lumoti bo'yicha u ham matematik bo'lgan I.G.Tyunen o'z xo'jaligiga doir aniq ma'lumotlar ostida ish olib borgan. Shu jihatdan qaraganda, u ekonometrikaning o'tmishdoshi sifatida namoyon bo'ladi. Tyunen ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyasining asoschisi hisoblanadi. Tyunen- oradan ko'p yillar o'tganidan keyingina o'z qadrini topgan bir qator uslubiy yondashuvlarning muallifidir. Jumladan u daromadlarning ishlab chiqarish omillari bo'yicha taqsimlanish nazariyasini yaratishga uringan, buning uchun u bir omillarni o'zgarishsiz qoldirgani holda, boshqalarini izchillik bilan o'zgartirib borgan.

Kurno va Tyunenning asarlari kabi, nemis tadqiqotchisi G.Gossenning "Insoniy munosabatlar qonunlarining rivojlanishi va ulardan kelib chiquvchi inson faoliyati qoidalari" asari ham zamondoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Gossenning e'tiborini talab va ne'matlar orasidan birini

tanlash sifatidagi iste'mol bahosi o'ziga jalb etdi. Keyinchalik "Gossen qonunlari" sifatida keng shuhrat qozongan nizomlarning ta'rifi uning ijodiga mansub. U yoki bu ne'matdan qoniqish hosil qilish va ana shu ne'matning keyingi donalari iste'mol qilingani sayin kamayib borishi bois, foydalilikning qadrlilik sifatidagi bahosi ne'matning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Ne'matlar cheklangan bo'lsa, kombinatsiyasining foydaliligi maksimal, ularning iste'mol qilingan so'nggi birliklari teng darajada foydali bo'ladi. Gossen o'z fikrlariga matematik izoh beradi, ayni vaqtda ne'matlarning foydaliligi va miqdori o'rtasidagi bog'lanish uzunlik o'lchovi sifatida ko'rib chiqaradi. Gossen qarashlari tizimi uning kitobi chiqqanidan so'ng oradan qariyb 20 yil o'tgach, Avstriya maktabi asoslari tomonidan aytish mumkinki, "Qayta kashf etildi".

*Avstriya\_\_maktabi.* XIX asrning 70-yillari boshlarida K.Menger tomonidan marjinalizm yoki foydalilik mengerning o'zi "Foydalilik" terminini qo'llamagan. Mazkur nazariyasining mohiyati quyidagilardan iborat: u yoki bu ne'matning qadrliligi qiymati-iste'molchining sub'ektiv bahosidir; ana shu baho qondirilayotgan ehtiyojning naqadar muhimligiga va shu ne'matning iste'mol qilinayotgan so'nggi donasi foydaliligiga bog'liqdir.

Agar an'anaga ko'ra, pirovard mahsulotning qadrliligi uni ishlab chiqarishga sarflanadigan materiallar, mehnat qurollari va hokazolarning qadrliligiga bog'liq deb hisoblansa, Mengerning fikri bo'yicha, ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotning qadrliligi uni ishlab chiqarishga ketgan jami narsalarning qadrliligi bilan belgilanadi. Menger XX asr iqtisodchilarining asarlarida yanada rivoj topgan bir qator kategoriyalarni va g'oyalarni fan muomalasiga kiritdi. U ishlab chiqarish omillarining substitutsiya /bir-birining o'rnini bosishi/ haqidagi nizomni ishlab chiqdi, ana shu nizomdan keyinchalik ishlab chiqarish vazifalari konsepsiyasi yaratildi, u ishlab chiqarilgan ne'matlar komplementarligi /qadriyatlar bir-birining o'rnini bosishi/ haqidagi g'oyani ilgari surdi, "talab narxi" va "taklif narxi" kategoriyalarini ta'riflab berdi, almashuvga da'vat etuvchi mayllar tahliliga qadrlilik tushunchasini kiritdi.

Mengerning shogirdi **E.Bem-Baverk** nafaqat ehtiyojning qondirilishini, shu bilan birga mashaqqatlardan forig' bo'lishni ham /kuch-g'ayrat tejalishini, chiqimlarning qisqarishini va hokazo/ foydali deb hisoblaydi. U "substitutsion benihoya foydalilik" tushunchasini joriy etadi: u yoki bu ne'matning sub'ekt uchun qimmatliligi ana shu ne'matni deb u voz kechayotgan boshqa ne'matlarning benihoya foydaliligi bilan belgilanadi.

Avstriya maktabi konsepsiyasi **F.Vizerning** ishlarida o'zining to'liq ifodasini topdi. Vizer kadrlilik tahliliga boy berilgan naf tushunchasini kiritadi. U "ishlab chiqarish chiqimlari Qonuni"ni ta'riflab berdi /keyinchalik u "Vizer

qonuni" deb ataladigan bo'ldi/: turli buyumlarni yasashda foydalanilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish ne'matining qadriligi benihoya foydaliligi eng kam bo'lgan buyumning qadriligi bilan belgilanadi. Vizer o'rindoshlik nazariyasining asoschisi hisoblanadi, ana shu nazariyaga ko'ra yer, kapital va mehnat komplementlardir, bir-birisiz ular daromad hosil qilmaydi. Olingan daromadni ishlab chiqarish omillari o'rtasida taqsimlash muammosi - sababiy-oqibatlilik aloqalarini aniqlash emas. Gap faqat bir narsa, hosil kilingan daromadning qaysi qismini u yoki bu omil hisobiga o'tkazish, uning samarasi deb hisoblash mumkinligi xususida bormoqda.

Avstriya maktabining yaratuvchilari o'rtasida ba'zi masalalar borasida yakdillik bo'lmagan. Jumladan, Menger bilan Vizer ordinalistik yondashuv tarafdorlari edi - ular foydalilikni o'lchab bo'lmaydi, uni faqat darajalash mumkin deb hisoblashgan; Bem-Baverk esa kardinal yondashuvni - ne'matlar foyda-liligini miqdorlab o'lchash imkoniyatini yoqlagan.

Menger bilan bir vaqtning o'zida, ammo undan mustaqil ravishda ingliz olimi **U.S.Jevons** marjinalizmning eng muhim qoidalarini ta'riflab berdi. Avstriya maktabidan farqli ravishda Jevons matematika apparatidan keng foydalandi. U foydalilik kategoriyasi bilan bir qatorda befoydalilik va aksilfoydalilik kategoriyalarini joriy etdi, ulardan mehnat jarayonini tahlil qilishda foydalandi: mehnatning aksilfoydaliligi va mehnat mahsulining foydaliligi muvozanatga kelganida, ishlab chiqarish jarayoni to'xtaydi.

Avstriya maktabi g'oyalarining iqtisod fani rivojlanishiga ta'siri shu qadar katta ediki, zamondoshlar bu haqda "marjinalistlar inqilobi" deb gapirishar edi.

Lozana maktabi. Mazkur maktab vakili L.Valras umumiy iqtisodiy muvozanatning tutashgan matematik modelini birinchi bo'lib ishlab chiqdi. Ishlab chiqarish barcha ishtirokchilarining ishlab chiqarish xizmatlarining egalariga va ana shu hizmatlarni harakatga keltiruvchi so'ngra, ishlab chiqarilgan tovarlarni sotuvchi tadbirkorlarga taqsimlanishi unga asos qilib olingan edi. Valrasning fikriga qaraganda, iqtisodiy muvozanat ijtimoiy jihatdan aholi uchun foydali. Ammo u ana shu foydalilikning yagona mezoniga ta'rif bermaydi. Valras qadrilikka foydalilik deb qaragani bois, uni marjinalistik nazariyaning asoschilaridan biri deb hisoblashadi.

Valrasning muvozanat modeli keyinchalik V.Parento tomonidan o'zgartirildi. U ne'matning qadrilik va foydalilik tushunchalarini rad etib, ularni faqat tartibiy ma'noga ega bo'lgan "afzallik" tushunchasi bilan almashtiradi. Afzalliklarni tahlil qilish uchun u ingliz iqtisodchisi F. Ejuort tomonidan taklif qilingan "beparvolik egri chiziqlari" dan foydalanadi. Pareto muvozanatning aniq mezonini ta'riflab berdi/ keyinchalik u "Pareto optimumi"

degan nomni oldi/: ijtimoiy optimum – bu shunday bir ahvolki, bunda boshqa bir sub’ektning farovonligiga shikast yetkazmay turib, tovarlarni ishlab chiqarish va almashish, xizmatlar ko’rsatish yo‘li bilan bironta ham sub’ektning farovonligini oshirish mumkin emas. Pareto statistika ma’lumotlariga asoslanib, daromad miqdori bilan aholi ichidagi shaxslar oladigan ulushi o‘rtasida bog‘liqlik borligini isbotlaydi / “Pareto qonuni”/.

Kembrij maktabi. XIX asrning oxirida shakllangan ana shu maktabning yetakchisi A.Marshall Angliya klassik maktabi va marjinalizm nizomlarini umumlashtirishga harakat qilgan, shunday qilib, neoklassik yo‘nalishga asos qo‘ygan. Bozor muvozanatiga u taklif va talab narxlarining muvozanati deb qaraydi. Basharti taklif narxlari ishlab chiqarishga chiqimlar bilan belgilansa, talab narxi tovarning benihoya foydaliligi bilan belgilanadi. Rikardo va uning izdoshlari nazariyasini taklifga nisbatan, marjinalistlar nazariyasini ega talabga nisbatan qo‘llasa bo‘ladi. Marshall taklif qilgan model Valrasning modelidan tubdan farq qiladi. Valrasning fikriga ko‘ra, narx-mustaqil o‘zgaruvchi, tovarlarning taklif qilinishi ega narxga bog‘liq, bu demak, muvozanatga narx harakati bilan erishiladi; Marshallning fikriga qaraganda, taklif narx bilan emas, chiqimlar belgilanadi, muvozanatga ishlab chiqarish hajmini o‘zgartirish orqali erishiladi/hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasida mazkur yondashuvlar “narx-navoni to‘g‘rilash modeli” va “ishlab chiqarishni to‘g‘rilash modeli” deb nomlanadi/. Marshall chiqimlar dinamikasini ishlab chiqarish ko‘lamining o‘zgarishi bilan bog‘laydi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning o‘sishi chiqimlar tobora ko‘payib borishi bilan izohlanadi, ya‘ni bu borada mahsuldorlikning pasayib borish qonuni amal qiladi. Sanoatda qisqa vaqtli davrda ham shu qonun amal qiladi, uzoq vaqtli davrda-ishlab chiqarish ko‘lamining o‘sishi birligiga chiqimlar kamayishi bilan ko‘zatiladi, ya‘ni mahsuldorlikning oshib borish qonuni namoyon bo‘ladi. Marshall talab qayishqoqligi tahliliga katta hissa qo‘shdi, ana shu maqsad uchun matematik vositalarni ishlab chiqdi.

Marshallning shogirdi A.S.Piru – “farovonlik nazariyasi”ning ijodkoridir. Yakka tartibdagi faoliyat jamiyatga ham naf keltirishi, ham chiqimlar keltirishi mumkin. Farovonlik ham milliy daromad miqdoriga, ham uning tekis taqsimlanishiga bog‘liq. Shuning uchun soliqlar, yordam pullari va davlat budjetidan kambag‘allarga beriladigan transfertlar mexanizmi orqali davlatning iqtisodiyotiga aralashuvi zarur, monopoliya paydo bo‘lish ehtimoli bo‘lgan joylarda narx-navo va ishlab chiqarish ustidan davlat nazorati kerak bo‘ladi. Amerika maktabi Marshallnikiga ko‘p jihatlari bilan yaqin nizomlar D.B. Klark tomonidan rivojlantirilgan. U xo‘jalik sohasida har qanday tarixiy davrda uch universal qonun amal qiladi, deb tasdiqlaydi. Unumdorlik qonuni

benihoya foydalilik konsepsiyasidan kelib chiqadi. Klark unga bir qator to'zatislar kiritdi. Birinchidan, ne'matning foydaliligiga iqtisodiy bahoni yakka shaxslar emas, ijtimoiy guruhlar /haridorlarning sinflari/ beradi, shu bilan birga har bir sinf o'zi uchun ahamiyati bor tovarlar narxini idora qiladi. Ikkinchidan, har qanday tovar-foydali jihatlar termasidir va narx uning benihoya foydalilik majmuini aks ettiradi. O'ziga xos unumdorlik qonuni ishlab chiqarishning har bir omili mahsulotning qadrililigiga o'z hissasini qo'shishini aks ettiradi. Bu demak, ana shu omilning o'ziga xos hissasi mazkur omilning egasiga tegishi kerak. Klarkning fikriga ko'ra, kapital-foizlarni kapital ne'matlari-rentani tadbirkorlik faoliyati-tadbirkorlik foydasini, mehnat-ish haqini keltiradi. Kamayib boruvchi unumdorlik qonuni – shunchaki kamayib boruvchi samaradorlik qonunining ta'rifi emas; Klark har bir olimning “mukofoti uning eng ko'p mahsuloti miqdoriga bog'liq ekanligini isbotlar ekan, buni marjinalizm ruhida talqin etadi.

Klark iqtisodiyot nazariyasini statika va dinamikaga taqsimlaydi. Statika – bu qandaydir mavhum, lekin shunga qaramay, asosiy qonuniyatlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan kategoriyadir. Ayrim kategoriyalar faqat dinamikada yashaydi, masalan, tadbirkorlik daromadi, uni Klark novatorlik uchun mukofot sifatida talqin etadi.

**Monopoliyaning ilk nazariyalari.** Monopoliyaning iqtisodiy hayotga olib kirgan yangiligini birinchi bo'lib idrok etishga Marksning izdoshlari urinib ko'rdilar.

Bank ishidagi monopoliya masalasi nemis iqtisodchisi **R.Gilszerding** diqqat-e'tiboridan chetda qolmadi. Ana shu monopoliyalarning sanoatga joylangan kapitalini u moliyaviy kapital deb nomlaydi. Bank monopoliyalari sanoat ishlab chiqarishini o'zlariga qaram qila borib, avvaliga mamlakat ko'lamida erkin raqobatni iqtisodiyotni rejali tashkil etish bilan almashtirish sari yo'l ochadilar, so'ngra xalqaro monopolistik uyushmalar rivoj topgach, uni jahon ko'lamida amalga oshiradilar. Jamiyat "uyushgan kapitalizm" davriga qadam qo'yadi.

Avstriyalik sotsial-demokrat **K.Kautskiy** diqqat-e'tiborini sanoat monopoliyalariga qaratib, kapitalizmning ultraimperializmga o'tishi nazariyasini yaratdi: ayrim mamlakatlarda tashkil topgan monopolistar yagona jahon karteliga uyushadilar, bu raqobatning yo'q qilinishini, ishlab chiqarishdagi monarxiyaning xususiy mulk saqlab qolingani holda rejali xo'jalik yuritish bilan almashtirilishini anglatadi.

**V.I.Lenin** moliya kapitalini bank va sanoat monopoliyalarining chatishib ketgan kapitali, deb talqin etadi. Mazkur chatishish bank va sanoat biznesi korchalonlarining bir-birlariga shaxsan yakinlashishida, moliya oligarxiyasi

tashkil topishida ifodalanadi. Lenin monopoliyalar hukmronligining o'rnatilishida rejali xo'jalik yuritishga o'tishni emas, uning inqirozga yuz tutishini ko'radi. Raqobatning bartaraf etilishi kapitalistik ishlab chiqarishni rivojlanishga da'vat etuvchi omillardan mahrum qiladi. Monopolistik kapitalizm – bu tekinxo'r, chirib borayotgan kapitalizm, deydi u. Ammo monopoliyalar raqobatni to'liq bartaraf eta olmasligi bois, chirib borish mutlaq qoida emas, yetakchi tamoyilgina xolos. Monopolistik kapitalizm davrida ayrim tarmoqlarning va mamlakatlarning notekis, sakrab-sakrab rivojlanishi ana shundan kelib chiqadi.

**Monopoliyalarning nomarksistik nazariyalari.** Monopoliyalarning markscha konsepsiyalaridan birmuncha keyinroq avstriyalik iqtisodchi **I.Shumpeter** samarali raqobat nazariyasini yaratdi. U iqtisodiyot o'sishining sharti sifatida raqobatning va bunday o'sish yo'lidagi to'siq sifatida monopoliyaning bir-biriga an'anaviy qarama-qarshi qo'yilishini rad etadi. Ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga va mahsulot sifatini yaxshilashga asoslangan raqobatgina samaralidir, deydi u. Ammo ixtiyorida ulkan resurslari bo'lgan monopoliyalargina texnika, tashkilotchilik, boshqaruv sohalarida lirik angiliklarni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Hozirgi sharoitlarda yangiliklarni joriy etayotgan monopoliyalar o'rtasidagi raqobat – aynan samarali raqobatning o'zginasidir.

XX asrning o'ttizinchi yillarida amerikalik iqtisodchi **E. Chamberlin** tomonidan monopolistik raqobat nazariyasi taklif etildi. Ana shu nazariyaga ko'ra, xo'jalik yurituvchi turli sub'ektlarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun mutlaqo bir xil shart-sharoitlar hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi ham, bu demak, ana shu sub'ektlarning har biri ma'lum jihatiga ko'ra monopolist hisoblanadi. Erkin raqobat deb ataluvchi raqobat aslini olganda, monopolistlar raqobatining o'zginasi. Rosmana tashkil topgan raqobat muhitida ishlab chiqarish quvvatlarining bir qismi bekor turadi, buning oqibatida chiqimlar, sof raqobat sharoitidagi chiqimlardan ko'prok bo'ladi. Umuman olganda, monopolistik raqobat salbiy xarakterga ega emas.

Ayni vaqtda angliyalik D.Robinson nomukammal raqobat nazariyasini ishlab chiqdi xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan birontasi/yoki bir-biri bilan til birlashtirgan sub'ektlar guruhi/ o'zining sotish yoki harid qilish hajmi tufayli narx-navoning umumiy darajasiga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan shart- sharoitdagi raqobat nomukammal hisoblanadi. Nomukammal raqobat sharoitida yirik korxonalarda ongli ravishda narx-navo siyosatini o'tkazish, ma'lum bir zamon va makonda hamda haridorlar yoki sotuvchilarning alohida guruhlariga nisbatan narx-navo bilan o'ynash imkoniyati paydo bo'ladi. Robinsonga qadar iqtisodchilar sotuvchilar monopoliyasini tahlil qilish bilan



cheklanishar edi. Robinson esa tadqiqotlar doirasiga haridorlar monopoliyasini ham kiritdi va uni monopsoniya deb atadi.

**Shvetsiya maktabi.** Shvetsiya maktabining tarafdorlari tomonidan yaratilgan nazariy konstruksiyalar XX asrning dastlabki o'n yilliklarida **K.Viksell** tomonidan ilgari surilgan nizomlarga borib taqaladi. An'analarga amal qilgan iqtisodchilar erkin bozor iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlarga qaytalanuvchi jarayon deb qarashar edi, Viksell esa iqtisodiyot tahliliga uyg'un jarayonlarni ham kiritdi. Viksellning fikriga qura, iqtisodiy hayotning kechishi jiddiy ravishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning orzu-umidlari bilan belgilanadi. Jumladan u orzu-umidlarni kumulyativlik bilan bog'laydi.

Kumulyativ jarayonlar konsepsiyasi, aslini olganda, bozor iqtisodiyoti o'z-o'zini boshqarishi haqidagi tasavvurni rad etar, inersion turg'unlik kasb etib borayotgan va shu sababli kucha-yib borayotgan salbiy iqtisodiy tamoyillarni bartaraf etish uchun davlatning aralashuvi zarurligini asoslab berar edi.

Bank foizlarini boshqarishni Viksell ana shunday aralashuvning yetarli usuli deb hisoblagan.

30-yillarda shakllangan, o'z murabbiylarining fikrlarini rivojlantirgan, ba'zi qarashlarini esa qayta ko'rib chiqqan Viksell izdoshlarining bir guruhini Shvetsiya maktabi deb atash qabul qilingan.

E.Lindal kumulyativ jarayonlar dinamikasini baholash uchun qayishqoq orzu-umidlar koeffitsiyentini joriy etdi: agar kutilgan proporsional o'zgarishlarning ro'y bergan o'zgarishlarga nisbati birdan katta bo'lsa, kumulyativ jarayon davom etaveradi, boshqa hollarda jarayon susayib boradi va tizim yangi bosqichda muvozanatga keladi.

G.Myurdal orzu-umidlar nuqtai nazaridan kapitallar bozorini ko'rib chiqdi. U real kapitalni, muayyan bir vaqtga qo'llaganda diskont sifatida, kutilgan daromadlar miqdori deb talqin etadi. Kapitallar bozoridagi muvozanat ishlab chiqarish sohasidagi muvozanat uchun zamindir. Muvozanatni o'rnatish uchun investitsiyalar erkin kapital miqdoriga mos bo'lishi zarur, ammo bu muvofiqlik iqtisodiy tizimning o'z ichidagi omillar bilan bo'ziladi. Narx-navo qayishqoqligi yetarli darajada bo'lmagan tovar bozorlarida muvozanatning bo'zilganligi uzoq vaqt payqalmasligi mumkin, bu keyinchalik og'ir oqibatlarga olib keladi.

**B.Olin** foiz stavkalarini boshqarish vositasida muvozanatga erishish mumkinligi haqidagi Viksellning tezislarini rad etadi - bunday yo'l bilan narx-navoning faqat vaqtincha barqarorlashishiga erishish mumkin. Olin inflyatsiya muomaladagi pul miqdorining o'zgarishi bilan emas, kapitallar bozorida

kechayotgan jarayonlar bilan, jumladan, hukumat zayomlari va noto'g'ri siyosat bilan bog'liq ekanligini isbotlaydi.

E.Lundberg ayrim iqtisodiy jarayonlarning hamda bozor signallariga turli sub'ektlar reaksiyasining bir xil emasligiga alohida ahamiyat beradi. U ishlab chiqarish chiqimlarining va shu chiqimlarni qoplash uchun zarur bo'lgan daromadlarning vaqt mobaynida bir-biriga mos kelmasligini iqtisodiyot beqarorligining asosiy manbai deb hisoblaydi. Taklif bilan to'lov qobiliyatiga ega talab o'rtasidagi qarama-qarshilik sifatida namoyon bo'ladigan ana shu mos kelmaslik vaqti-vaqti bilan iqtisodiyotdagi tebranishlarni keltirib chiqaradi.

**Keynsianchilik.** Ingliz iqtisodchisi J.M.Keynsning konsepsiyasi; (bu konsepsiya uning "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" /1936 y./ kitobida bayon etilgan) 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy krizisiga nazariy javob edi. Konsepsiya shu vaqtga qadar hukmronlik qilib kelgan bozor xo'jaligi o'z-o'zini samarali boshqarishi haqidagi tasavvurdan ko'pchilikning xafsalasi pir bo'lganligini aks ettirar edi. Keyns konsepsiyasining zamirida milliy daromad dinamikasi taklif omillari bilan emas, talab omillari bilan belgilanadi, degan tezis yotadi. Samarali, ya'ni to'lov qobiliyatiga ega talablar majmui (ish bilan bandlik darajasi shunga bog'liq) iste'mol va investitsion talablardan iboratdir.

Tejamkorlik odamlar tabiatiga xos bo'lganligi bois, iste'molning o'sish sur'atlari hamisha daromadlarning o'sish sur'atlaridan ortda yuradi. Omonatlarni investitsiyalarga aylantirish cheklangan bo'ladi, zero, odamlar bugungi kun bilan yashashni afzal ko'radilar, ular uchun hozirgi kun ne'matlari kelajakdagi ne'matlardan afzaldir. Keynsning fikriga ko'ra, foiz – bu shu kun ne'matlaridan voz kechganlik uchun to'lanadigan haq. Foiz normasi bilan kutilayotgan investitsiya daromadlari o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, investitsiyalar qilish jarayoni shu qadar faollashib boraveradi.

Xususiylar investitsiyalarning o'sishidagi yetishmovchilik davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga qoplanishi kerak. Ayni vaqtda davlat ishlab chiqaruvchi sifatida emas, buyurtmachi sifatida ish yuritishi lozim. Dastlabki investitsiyalar ish bilan band bo'lganlar sonining o'sishiga hamda buyurtma yo'naltirilgan tarmoqning o'zida emas, ana shu tarmoq uchun xomashyo, materiallar, dastgohlarni yetkazib beradigan, shuningdek, xodimlar olgan daromadiga harid qiladigan iste'mol buyumlarini ishlab chiqaradigan tarmoqlarda ham daromadlarning ko'payishiga olib keladi. Ana shu tarmoqlardagi jonlanish, o'z navbatida, ish bilan bandlikning, mazkur tarmoqlar bilan tutash bo'lgan ishlab chiqarish ob'ektlarida investitsion va harid talabining o'sishini keltirib chiqaradi. Dastlabki investitsiyalarning

multiplikatorlik /nusxa ko‘paytirish/ samarasi iste‘molga behad moyillikka bog‘liqdir. Iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishida pul-kredit siyosati emas, budget siyosati hal kiluvchi rol o‘ynaydi, deb hisoblaydi Keyns. Hukumat investitsiyalari uchun mablag‘lar manbaini u zayomlarda va nazorat qilinuvchi pul emissiyasida ko‘radi. Muomaladagi qog‘oz pullar miqdorining ko‘paytirilishi aholi ish bilan to‘liq band bo‘lgan holda inflyatsiyaga olib keladi, ishsizlik avj olgan holda esa talabni pul bilan to‘yintirish ishlab chiqarishni kengaytirish uchun omil vazi-fasini o‘taydi xolos, deb tasdiqlaydi u. Ayni vaqtda, taklif qilinayotgan chora-tadbirlar o‘z samarasini berishi uchun, tashki savdo-sotiqda raxnamolik siyosatini o‘tkazish kerak bo‘ladi.

Keyns vafotidan so‘ng ko‘p vaqt o‘tmay, uning angliyalik izdoshlari so‘l keynsianchilarga va neokeynsianchilarga ajralib ketishdi.

So‘l keynsianchilar /etakchisi – D.Robinson/ to‘lov qobiliyatiga ega talabning oshirilishiga milliy daromadni yanada tekisroq taqsimlash va monopoliyalarni cheklash yo‘li bilan erishish mumkin, deb tasdiqlaydilar. Davlat buyurtmalari, birinchi navbatda, ijtimoiy soha ob‘ektlarining o‘shishini rag‘batlantirishi lozim.

Neokeynsianchilar R.Xerrod va N.Kaddor fan-texnika taraqqiyoti kiritayotgan o‘zgarishlarni ham tahlil qilishni taklif kiladilar. Bunday o‘zgarishlar o‘zluksiz ro‘y berib turgani bois, davlatning aralashuvi ora-sira emas, doimiy bo‘lishi, ayni vaqtda ular ilmiy tadqiqotlarni kengaytirishga va ishlab chiqarishning zaruriy tarkiban qayta ko‘rilishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Neokeynsianchilarning modeliga multiplikator bilan bir qatorda, investitsiyalar o‘shishining mazkur investitsiyalar samarasi bo‘lmish milliy daromadning o‘shishiga nisbatini ifodalovchi akselerator ham kiritilgan.

Iqtisodiy o‘shish nazariyalari. Mazkur nazariyalarining sarchashmalarida neokeynsianchilar turishgan. Xerrod ishchi kuchi, aholi jon boshiga daromadlar o‘shishining naqd kapital bilan aloqadorligini tadqiq etdi. U milliy daromadning kapital sig‘imlilik tushunchasini joriy etib, ana shu nuqtai nazardan innovatsiyalarning ikki turini ko‘rib chiqdi: shulardan biri mehnat sarfini kamaytirib, moddiy ko‘rinishdagi kapital sarfini ko‘paytiradi, boshqasi moddiy kapitalni tejaydi, ammo jonli mehnat sarfining ko‘payishiga olib keladi. Innovatsiyalarning turiga bog‘liq ravishda mehnat va ishlab chiqarish vositalari bozorida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Amerikalik neokeynsianchi Ye.Domar investitsiyalar talabni ko‘paytirish bilan bir vaqtda taklifning o‘shishiga olib kelishiga, bunda muvozanatning qaytadan bo‘zilish xavfi borligiga e‘tiborni jalb etadi. U "o‘shishning asosiy tenglamasi"ni taklif qildi, undan "muvozanatga keltirilgan o‘shish" sur‘ati o‘rin olgan, bunda tovarlarga taklif va talabning o‘shishi balanslashtiriladi.

Amerikalik iqtisodchi **R.Solou** neokeynsianchilarning o'sish modelini tanqid qilib chiqqan. Uning iqtisodiyot dinamikasi modelidagi asosiy narsa – mehnatning moddiy kapital o'rnini bosishidir. Mahsulotga mehnat sarfining kamayishi iqtisodiy o'sishni mehnat taklifidan nisbatan mustaqil qiladi. Solou o'sish nazariyasining boshqa ko'pgina ijodkorlari kabi, ishlab chiqarish natijalarining ishlab chiqarish turli omillari nisbatining o'zgarishlariga miqdor jihatidan qaramligini aks ettiruvchi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan ish ko'radi /makroiqtisodiyot tahlilida ishlab chiqarish vazifalari apparatidan birinchi bo'lib amerikalik tadqiqotchilar Ch.Kobb va P.Duglas foydalanishgan/.

**Neoklassik yo'nalishning rivojlanishi.** 30-40-yillarda angliyalik **D.Xiks** va amerikalik **P.Samuelson** mazkur yo'nalishning eng ko'zga ko'ringan namoyandalari edi.

Foydalilikni o'lchab bo'lmasligi sababli, Xiks benihoya foydalilik tushunchasidan voz kechadi va befarqlik egri chiziqlari bilan muomala qilar ekan, benihoya o'rindoshlik me'yori tushunchasini joriy etadi. Mazkur me'yor bir tovarning qaysi miqdori iste'molchiga boshqa tovar eng ko'p birligi boy berilishining o'rnini qoplashini ko'rsatadi. Xiksga qadar marjinalistlar ayrim tovarga talab qonuniyatlarini aniqlar edi, Xiks esa ko'p sonli turli xil tovarlarga bo'lgan talab majmuining nazariy tahlilini amalga oshiradi. U Valrasning muvozanat modelini turg'unligi uchun tanqid qiladi va unga o'zining muvozanatning dinamik konsepsiyasini qarshi qo'yadi. Unda bozorlarning o'zaro bog'liq to'rt guruhi: ishlab chiqarish omillari, xizmatlar, oraliq mahsulotlari va tayyor tovarlar guruhlari ajratib ko'rsatilgan. Muvozanat bo'zilishining asosiy manbai - daromad samarasining ishlab chiqarish omillari bozoriga ta'siridir. Orzu-umidlar muvozanatni tartibga soluvchi sifatida /masalan, foiz stavkasining yuksak qayishqoq orzu-umidlari/ va izdan chiqaruvchi sifatida /masalan, yuksak darajada qayishqoq narx-navo bilan bog'liq orzu-umidlar/ namoyon bo'lishi mumkin.

Samuelsonning ishlarida mavhum tuzilmalarni ko'zatuvar natijasida matematik usullar bilan olinadigan xulosalar bilan almashtirishga ko'rsatma aniq ko'zatiladi. Samuelsonning fikriga ko'ra, butun iqtisod fanining zamirida o'zaro bog'liq ikki gipoteza: iqtisodiy maksimum va iqtisodiy muvozanat gipotezalari yotadi. Muvozanat qandaydir maksimum mavjudligini taxmin qiladi, tizim ana shunga intiladi, ammo bu o'z tabiatiga ko'ra muvozanat turg'un emasligini, aksincha dinamik ekanligini anglatadi. Dinamik tizimda jarayonlar bir tekis kechmaydi, bu tahlil uchun tegishli matematik apparatni talab qiladi.

Samuelson "neoklassik sintez" - neoklassiklarning ishlab chiqarishning optimal darajasini belgilovchi omillar tahlilini keynsianchilarning talab

omillari tahlili bilan birlashtirishga urinishdan iborat konsepsiya ijodkorlaridan biri edi.

Kapitaldan olinadigan foyda amerikalik iqtisodchi **I.Fisherning** ishlarida o'zining yangi talqinini topdi. Foyda foizning boshqacha ko'rinishi foiz kapitalning unumdorligidan emas, hozirgi va kelajak ne'matlarining turlicha baholanishidan hosil bo'ladi, deb hisoblaydi u. Fisher tomonidan kiritilgan ne'matlar zaxirasi va shu ne'matlar bilan ko'rsatiladigan xizmatlar oqimi tushunchalari keng qo'llab-quvvatlandi. Fisherning fikriga ko'ra, xizmatlar oqimining qadrililigini ne'matlar zaxirasining qadriligi belgilamaydi, aksincha, ne'matlar zaxirasining qadriligi – bu kelajakdagi xizmatlarning /ularning kelib turishi kutilgan davomiyligini hisobga olib/ diskontlashgan qadriligidir.

Amerikalik iqtisodchi **F.Nayt** foizni va tadbirkorlik daromadini bir-biridan aniq chegaralaydi. Tadbirkorlik daromadi tavakkalga haqiqatga yaqin baho berishning iloji bo'lmagan, chindan ham mavhum sharoitlardagi faoliyat bilan bog'liq. Bunday daromadni faqat novator-tadbirkorlar qo'lga kiritadi. Nayt tadbirkorlik daromadida ko'z ilg'amas jihatni - iqtisodiyot tizimining to'la muvozanatiga erishib bo'lmashligini ko'radi.

**Davlat sotsializmi konsepsiyasi.** Sobiq SSSRda tarkib toptan tizimni yoritish va asoslab berishga da'vat etilgan bo'lib, u rasman sotsializmning markscha-lenincha nazariyasi deb nomlanar edi.

**V.I.Lenin** ishlab chiqarish vositalarining davlat mulki bo'lishini sotsialistik jamiyatning iqtisodiy asosi deb hisoblar, butun xalk xo'jaligini markazlashgan usulda rejali boshqarish imkoniyatini istisno qiladi deb, mulkning korxonalar xodimlari jamoalariga topshirilishini rad etar edi. Ko'p sonli mulk egalari bo'lmagan joyda, tovar-pul munosabatlari ham bo'lmaydi - ularning o'rnini barcha ne'matlarning rejali taqsimoti egallaydi. Xo'jalik operatsiyalarining pul ifodasidagi hisob-kitobi saqlanib qoladi, xolos. Leninning sotsializm haqidagi tasavvurlari ularni amalga oshirish jarayonida duch kelingan muvaffaqiyatsizliklar ta'siri ostida ba'zi evolyutsiyani boshdan kechirdi: yer va ishlab chiqarishning asosiy qurollari davlat mulki bo'lib qolavergani holda, kooperativ mulki ham sotsialistik mulk deb e'tirof etildi; iste'mol ne'matlarining natural taqsimoti ularning savdo-sotig'i bilan almashtirildi.

Sotsializm davridagi tovarsiz munosabatlar haqidagi nizomni dastavval yoqlagan **N.I.Buharin**, mayda dehkun xo'jaliklari kollektivlashtirilganidan so'ng, davlat va kooperativ korxonalari o'rtasida savdo-sotiq zarurligini e'tirof etdi.

**I.V.Stalin** kooperativ mulkini "to'laqonli" sotsialistik mulk emas, shuning uchun u davlat mulkiga aylantirilishi kerak, deb hisoblagan. Tovar-pul muomalasi ijtimoiy mulkning ikki ko'rinishi mavjud bo'lishi bilan bog'liq ekanligi bois, u asta-sekin, kooperativ mulkning davlat ixtiyoriga o'tishi jarayonida, bevosita tovar almashuvi bilan almashilishi lozim. Stalinning fikriga ko'ra, sotsializm davrida ishlab chiqarishning sozlovchisi rolini tannarx qonuni emas, rejali, proporsional rivojlanish qonuni o'ynashi kerak. Raqobat o'rnini sotsialistik musobaqa samarali egallashi mumkin.

Stalinning vafotidan so'ng davlat sotsializmi modelining ayrim qismlari qaytadan ko'rib chiqildi. Foyda ishlab chiqarishning omili deb, foyda me'yori esa – uning samaradorligi ko'rsatkichi deb e'tirof etildi. Savdo-sotiqni tovar almashuvi bilan almashtirish rad etildi. Ammo konsepsiyaning asosiy qoidalari daxlsiz qoldi.

Rossiya olimlarining XX asr iqtisodiyot nazariyasiga qo'shgan hissasi. XX asrning boshlarida Rossiyada qudratli iqtisodiy matematik yo'nalish shakllandi.

V.K.Dmitriyev narx-navoning belgilanish modellarini yaratdi, ulardan ijtimoiy chiqimlar tushumi inobatga olindi. Uning novatorlik yondashuvi shundan iborat ediki, u koeffitsiyentlar modeliga butun texnologiya zanjiri bo'yicha kapital sarfini kiritdi. Dmitriyevning pirovard mahsulotga sarf-xarajatlarining chiziqli tenglamalar tizimini yaratish g'oyasi keyinchalik Amerikaga ko'chib ketgan iqtisodchi V.V.Leontev tomonidan yaratilgan "sarf-xarajatlar-ishlab chiqarish" modelida o'zining keng ifodasini topdi.

Ma'lum bir ne'matga talabning shu ne'mat va boshqa ne'matlar narxiga /o'rindoshlik effekti/ va haridor daromadiga /daromad effekti/ bog'likligini matematika vositasida sharhlashga doir Ye.Ye.Slutskiyning ishlari klassik hisoblanadi.

Chiziqli programmashtirishning ijodkori L.V.Kantorovichning ishlari jahon e'tirofiga sazovor bo'lgan. Kantorovich taqsimotning har qanday vazifalari ko'p sonli cheklashlar holatidagi maksimallashtirish vazifalari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin ekanligini ko'rsatadi.

N.D.Kondratevning asarlari jahon fanida alohida o'rin tutadi. Nihoyatda boy statistika ma'lumotlari ustida ishlab u iqtisodiy ahvolning katta sikllari konsepsiyasini yaratdi. Sikl ikki o'zun to'lqin – ko'tarilish va pasayish to'lqinlaridan iborat. Iqtisodiyotning davriy rivojlanishi zamirida ishlab chiqarish texnik usullarining almashuvi yotadi. Ishlab chiqarishning shunday usullaridan har biri asosiy kapital ne'matlari/ishlab chiqarish infrotuzilmasi va malakali ishchi kuchi/va xo'jalik - jamoat hayotining boshqa omillari muvozanati bilan tavsiflanadi. Inqiroz – muvozanat bo'zilishining natijasidir.

Ishlab chiqarish inshootlari asosiy kapital ne'matlarning yetakchi elementi hisoblanadi; ular hayotning muddati sikl/davr/davomiyligini belgilayda. Fan - texnika taraqqiyoti zamirida ana shu ne'matlarning yangilanib turilishi – yuksalishning shartidir.

Katta sikllar /davrlar/ tevaragidagi baxs-munozaralar bugungi kunga qadar tingani yo'q.

### **Iqtisodiy liberalizm XX asrning birinchi yarmida**

Iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi haqidagi g'oyalar o'tgan asrning 60-yillariga qadar fanda ustuvorlik qilib keldi. Vaholanki, xuddi shu davrda iqtisodiy liberalizm o'zining ikki mashhur himoyachisiga ega bo'ldi.

Avstraliyalik iqtisodchi L.Mizes narx-navoni markazlashgan usulda belgilash iqtisodiy muvozanatga erishilishini amrimahol qilib qo'yadi, deb isbotlaydi. Agar narx-navo talab va taklif aloqadorligining o'lchovi bo'lmay qolsa, u ishlab chiqarish uchun kompas bo'lib xizmat qila olmaydi – investitsiyalarning turli variantlarini solishtirib ko'rish va optimal qaror qabul qilish imkonini beradigan asos yo'qoladi. Shu sababli bozor mexanizmining har qanday cheklanishi iqtisodiyotini davlat amaldorlarining o'zboshimchaligi maydoniga aylantiradi.

Mizesning nemis izdoshi F.Xayek diqqat - e'tiborini quyidagilarga jalb etadi, xo'jalikka rejali rahbarlik qilish uchun davlat organlariga "to'liq axborot" kerak bo'ladi, bu esa amalga oshmaydigan narsa, deydi u. Hatto axborotlar qo'l ostida bo'lgan taqdirda ham xo'jalikdagi vaziyatning o'zgarishiga munosabat bildirish tezligi markazlashgan usulda boshqariladigan iqtisodiyotda g'oyatda sust bo'ladi. Davlat apparati iqtisodiyot haqida emas, hokimiyat manfaatlari haqida qayg'uradi. Jumladan, pul emissiyasini boshqarish, avvalambor, davlat budjetini to'ldirish maqsadini ko'zlaydi, bu muqarrar ravishda inflyatsiyaga olib keladi. Xayek "xususiy pullar" konsepsiyasini ilgari suradi: pul emissiyasiga davlat monopoliyasi bekor qilinishi va emissiyani idora qilish huquqi tijorat banklariga berilishidan iqtisodiyot yutadi xolos, deb taqiqlaydi u.

Mizes va Xayek sobiq SSSRda sotsialistik tizim hukm surgan va u ishlab chiqarishda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan sharoitlarda bozor xo'jaligi afzalliklarini himoya qilishgan. Sovetlar iqtisodiyoti, o'z mohiyatiga ko'ra samarasiz bo'lishiga qaramay, shuning uchun ham barbod bo'lmayaptiki, chunki u bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilishiga amal qilmoqda deydi Mizes. Xo'jalikning sotsialistik tizimi faqat yasama tizim sifatidagina bo'lishi mumkin, zero, u kapitalistik muhimsiz har qanday oriyentrlardan mahrum bo'ladi. Xo'jalikning davlat tomonidan boshqarilishi yakka shaxslar tashabbuskorligini so'ndiradi, shu sababli u

nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga siyosiy jihatdan ham zararlidir, deb ta'kidlaydi Xayek. Iqtisodiyotga hukumat ta'sirining har qanday kuchayishi qullikka olib boradi.

V.Oyken tevaragida jipslashgan frayburg maktabi tomonidan 30-yillarning arafasida ordoliberalizm /lotincha ordo – tartib so'zidan/ konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Davlatning iqtisodiyotdagi roli rad etilmaydi, ammo u xo'jalik hayoti qoidalarini o'rnatish va ularga rioya qilinishini nazorat qilish bilan cheklanadi.

Postkeynsianchilik. 1960 yillarning o'rtalarida keynsianchilar tomonidan o'z ustozlarining qator nizomlarini qayta ko'rib chiqish boshlandi. Postkeynsianchilik – yagona nazariya emas, bir nechta bir-biridan jiddiy farq qiluvchi konsepsiyalarning umumiy nomidir.

Kaletsiancha postkeynsianchilik. Kensdan avvalroq o'z talab nazariyasini yaratgan, uzoq vaqt Buyuk Britaniyada ishlagan polshalik iqtisodchi M.Kaletskiyning g'oyalaridan foydalanadi. Keynsning nazariyasidan farqli ravishda M.Kaletskiyning talab nazariyasi nomukammal raqobat sharoitlariga mos holda ishlab chiqarilgan edi. Ko'pgina mamlakatlarda vujudga kelgan vaziyatlarni – inflyatsiya sharoitida ishlab chiqarishdagi turg'unlikni va yuksak darajadagi ishsizlikni izchil keynsianchilik nuqtai nazaridan izohlab bo'lmas edi. Ushbu hodisani stagflyatsiya deb nomlagan ingliz iqtisodchisi K.Kouling, uning sababini monopoliyalar hukmronligida deb bildi. Monopoliyalar siyosati milliy daromadda ishchilar ulushining kamayishiga olib keladi, bu o'z navbatida haridorlar talabining pasayishini keltirib chiqaradi. Monopoliyalar foydasining ko'payib borishi investitsiyalar ham tegishli ravishda ko'payadi, degan ma'noni anglatmaydi.

Monetar keynsianchilik asosan AQShda rivoj topdi. Uning sarchashmalarida R.Klauer, A.Leyyonxufvud, P.Devidson va boshqalar turishgan. Mazkur yo'nalish tarafdorlari o'z o'tmishdoshlarini – keynsianchilarni pulning roliga yetarli baho bermaganlikda ayblashadi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti zamirida ma'lum muddatga pul bitimlari yotadi. Bu uning prinsipial darajada notekis qiladi. Pulning talabga nisbatan qayishqoqligi nolga, narx-navoning o'rnini bosishiga ko'ra qayishqoqligi nolga yaqin. Bundan ish bilan bandlik to'liq bo'lmagan sharoitda to'rg'un muvozanatsizlik imkoniyati kelib chiqadi.

**Neorikardiancha postkeynsianchilik** britaniyalik iqtisodchi P.Sraffining g'oyalariga asoslanadi. Uning tarafdorlari Rikardo va Keynsning g'oyalarini birlashtirishga urinadilar. Keynsning konsepsiyasini samarali talabning qisqa muddatli tahliliga nisbatan qo'llasa bo'ladi, iqtisodiyotdagi



uzoq muddatli muvozanat esa, Rikardoning fikri bo'yicha, bir holat sifatida tushuniladi, bunday holat barcha tarmoqlarda foydaning teng me'yor va ish haqining yagona darajasi hukm suradi. Ushbu o'rtacha miqdorlar ishlab chiqarish va ish bilan bandlik hajmi qanday bo'lishidan, takliflar yig'indisi va talab-lar yig'indisi o'rtasidagi nisbat qanday ekanligidan qat'i nazar mustaqil shakllanadi.

Yangi keynsianchilik AQShda shakllangan. B.Grinvold, D.Stiglits, **D.Akerlof** monopoliyalarning belgilovchi roldan kelib chiqadilar, ammo monopoliyalashtirishni monopolistik raqobat nazariyasi ruhida tushunadilar. Ma'lum bir korxonada maxsus ixtisoslikni egallagan ishchi monopolist sifatida, uni yollayotgan firma esa - monopsoninchi sifatida namoyon bo'ladi. Turg'unlik vaqtida tadbirkor malakali ishchini ishidan bo'shatishga yoki uning ish haqini qisqartirishga oshiqmaydi, chunki bunday xatti-harakat firma daromadlarining yanada kamayishiga olib kelishi mumkin. Yangi keynsianchilarning konsepsiyasida axborotni olish va tarqatish bilan bog'liq chiqimlar muhim o'rin egallaydi. Talabdagi o'zgarish katta bo'lmasa, firma narx- larni o'zgartirmaydi, chunki narxlarni qayta ko'rib chiqish haridorlarni xabardor qilish uchun ketadigan chiqimlar bilan bog'liq. Narxlarning bunday qat'iyiligi jamiyat miqyosida yig'ila borib, talab va ish bilan bandlikka salbiy ta'sir o'tkazadi.

**Chikago maktabi.** Mazkur maktabning ijodkori M.Fridmen hozirgi zamon monetaristlarining yetakchisidir. Monetaristlar davlatning keynsiancha retseptlar bo'yicha aralashuvi qisqa muddatli samara berishi mumkin, uzoq muddatli istiqbolda esa u zararli, zero, bozor regulyatorlarining xatti-harakatiga to'sqinlik qiladi, deb isbotlashga intiladilar. Ularning fikriga ko'ra, davlatning iqtisodiyotdagi roli pul muomalasini boshqarish bilan cheklanishi kerak. Pul emissiyasi yalpi ichki mahsulot o'sishining uzoq muddatli tamoyillariga mos bo'lishi lozim, ammo hech qachon joriy ahvolga moslashmasligi kerak, /bu ahvol "Fridmenning pulga doir qoidasi" degan nomni olgan/. Monetaristlar inqirozlarning sababini normal pul muomalasining bo'zilishlarida ko'radilar.

Monetaristlar Keynsning butun ta'limotini xato deb hisoblaydilar. Keynsning inflyatsiya – bu ish bilan bandlik o'sishini ta'minlovchi omil, degan tezisi rad etiladi. Daromad oshib borgani sayin iste'molga bo'lgan moyillik pasayib boradi deb tasdiqlovchi Keynsning fikriga qarshi chiqib, Fridmen daromadning iste'mol talabini tashkil etuvchi ulushi barqarordir deb isbotlaydi.

Monetarizmdan ratsional orzu-umidlar maktabi /etakchisi R.Lukas/ ajralib chiqqan. Sub'ektlar yetarli darajada xabardor bo'lganida ular orzu-

umidlarining ehtimoliy taqsimlanishi tasodifiy omillar ta'siri ostidagi hodisalarning ob'ektiv taqsimlanishiga mos bo'ladi, deb ta'kidlashadi ular. Davlat organlari ixtiyoridagi axborotlardan xabardor bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, hukumat tayyorlayotgan iqtisodiy aksiyalarning oqibatlarini oldindan ko'ra biladilar, ularni o'z vaqtida bartaraf etishlari mumkin. Bu demak, iqtisodiyotning davlat boshqaruvi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmaydi. Ayrim iqtisodchilar boshqacha xulosa chiqaradilar: faqat "esankiratuvchi" ta'sirlargina samaralidir, deyishadi ular.

**Institutsional-ijtimoiy yo'nalish.** Ikkinchi jahon urushidan so'ng institutsionalizm g'oyalariga qiziqish qayta uyg'ondi. Turli institutsional nazariyalar uchun fanlararo yondashuv, tarixshunoslik, ijtimoiy - iqtisodiy ziddiyatlar tahlili kabi uslubiy tamoyillar umumiy edi.

AQShda G.Minz, A.Berli, D.M.Klark tomonidan kapitalizm transformatsiyasi nazariyasining turli variantlari yaratildi. Mazkur transformatsiya mulkka egalikning aksiyadorlik qurilishi hukmronlik qilgan sharoitlarda "kapitalning demokratiyalashuvi" bilan, "boshqaruvchilar inqilobi" ishlab chiqarishning real boshqaruvi mulk egaligidan menejerlarga o'tishi bilan bog'lanar edi.

J.K.Gelbreyt ana shu konsepsiyalarga yaqin texnokratik determinizm nazariyasini ilgari surdi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida bozor tizimi mayda firmalardan tashkil topgan. Yirik korporatsiyalar rejalashtiruvchi tizimni tashkil etadi. Ularda hokimiyat texniklar tarkibiy tuzilmasi - yetakchi mutaxassislar guruhining qo'lida. Texniklar tarkibiy tuzilmasining maqsadi foyda emas, bozordagi ahvoldan qat'i nazar "firmani kengaytirish va maksimal mustaqillikka erishishdan iborat.

Fransuz iqtisodchisi F.Perru ustuvorlik va garmonik o'sish nazariyasini ishlab chiqdi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti zamirida tengsizlik yotadi. Bu tengsizlik, jumladan, ustuvorlik qiladigan va qaram xo'jalik korxonlari va butun - butun tarmoqlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Ustuvor birliklar tevaragida deformatsiyalashgan, qutblarga ajralgan muhit vujudga keladi, bunday muhitda mukammal raqobat bo'lishi mumkin emas. Ishlab chiqarishning rivojlarnishi notekis kechadi: tez rivojlanayotgan tarmoqlar /"motor – tarmoqlar"/ qutb tevaragida rivojlanish zonasi o'sishini tashkil etib, turdosh tarmoqlarning "qiziqish effekti" ni vujudga keltiradilar. Perru – indikativ rejalashtirish tizimining ijodkorlaridan biridir. U o'z nazariyasidan davlat boshqaruvi tamoyillarini: notekis o'zishga qarab yo'nalish olish; tarmoq tarkibiy tuzilishini faol qayta ko'rish; iqtisodiyotga global emas, saylanma ta'sir o'tkazish tamoyillarini chiqaradi.

NeoinstitutSIONalizm. Mazkur yo‘nalish 70-yillarning oxiri - 80- yillarning boshlarida tarkib topgan bo‘lishiga qaramay, uning sarchashmalari ingliz iqtisodchisi R.Kousning urushdan avvalgi davrga mansub ishlariga borib taqaladi.

Kous transaksion chiqimlar tushunchasini muomalaga kiritdi. Har qanday firma o‘zining ichki boshqaruv chiqimlari bozor bitimlarini to‘zish chiqimlaridan oshib ketadigan vaqtga qadar o‘shida davom etadi. NeoinstitutSIONalistlar vaqt hamda axborotlarni olish va qayta ishlash uchun resurslar sarfini ham transaksion chiqimlar sirasiga kiritadilar. Yetarli axborotlarni olish uchun qilinadigan chiqimlar katta bo‘lganligi bois, iqtisodiyot sub’ektlarini fe‘l-atvori, odatda, optimal bo‘lmaydi, deb isbotlaydi D.Stigler /AQSh/.

Amerikalik iqtisodchi A.Alchian – mulkka egalik huquqi konsepsiyasining ijodkoridir. Davlat uchun mulk – bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlarni boshqaradigan qoida, alohida olingan sub’ekt uchun esa – bu resurslar yuzasidan qaror qabul qilish huquqini beradigan bir necha dasta vakolatlardir. Mavjud resurslar bilan bog‘liq vakolatlar termasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning qadrliligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Bozor samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun mulkka egalik huquqining aniq ta‘rifi /spetsifiaksiyasi/ zarur, ammo spetsifiaksiya bepul bo‘lmaganligi bois, odatda u to‘liq bo‘lmaydi. NeositutSIONalistlar hammabop mulk, davlat mulki va xususiy mulkni bir-biridan farqlab, ularni qiyosiy tahlil qiladilar.

NeositutSIONalizmda evolyutsion iqtisodiyot konsepsiyasi yetakchi o‘rinni egallaydi. U ma‘lum darajada, o‘z vaqtida XX asrning mashhur iqtisodchisi I.Shumpeter tomonidan ilgari surilgan qoidalarga asoslanadi. Amerikalik iqtisodchi D.Nort mazkur nazariyaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Iqtisodiyotning rivojlanishi kechishiga ko‘ra davrning biologik evolyutsiyasiga o‘xshab ketadigan jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Evolyutsion iqtisodiyotning asosiy ob’ekti tabiiy saralanishga muhtalo firmalarning populyatsiyasi hisoblanadi. Tahlilda irsiyat, o‘zgaruvchanlik, mutatsiya, ob’ektlarning tug‘ilish va halok bo‘lish qoidalari kabi kategoriyalardan foydalaniladi.

Ijtimoiy bozor xo‘jaligi nazariyasi. Xo‘jalik faoliyati ustidan davlat nazorati amalga oshirilgan Gitler reyxi yakson qilinganidan so‘ng, ordoliberalizm konsepsiyasi boshqa nom ostida, birmuncha yangilangan ko‘rinishda yangicha hayot kasb etdi. Ijtimoiy bozor xo‘jaligi nazariyasini ishlab chiqishga V.Repke, L.Erhard, A.Ryustovlar ayniqsa salmoqli hissa qo‘shdilar. Erkin bozor xo‘jaligi o‘zi uchun xavfli oqibatlarni o‘zi keltirib chiqaradi: erkin raqobatdan monopoliyalar kelib chiqadi. Ishlab chiqarishning

rivojlanishi turli ijtimoiy guruhlar daromadi o'rtasidagi farq chuqurlashib borishi bilan ko'zatiladi. Bu siyosiy larzalar xavfini keltirib chiqaradi. Shuning uchun davlat aralashuviga nafaqat yo'l qo'yish mumkin, bunday aralashuv bozor xo'jaligining normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur hamdir, deb e'tirof etiladi. Birinchidan, davlat monopoliyalar tashkil topishiga yo'l qo'yimasligi, hech bo'lmaganda ularning ustidan nazorat olib borishi kerak. Ikkinchidan, soliqlar va ijtimoiy dasturlarni budjetdan moliyaviy ta'minlash orqali, kam ta'minlanganlar manfaatini ko'zlab, daromadlarning ma'lum darajada qayta taqsimlashini amalga oshirishi lozim.

70-yillarda ijtimoiy bozor xo'jaligi konsepsiyasiga ba'zi o'zgartirish kiritildi. Davlat aralashuvining yo'l qo'yilgan chegaralari kengaydi: iqtisodiy va ijtimoiy muhim tovarlar narxini boshqarish maqsadga muvofiq deb e'tirof etildi, ishlab chiqarishning umumiy yuksalishi va mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatdoshligi bog'liq bo'lgan tarmoqlarga davlatning bevosita investitsiyalar qilishi istisno qilinmadi.

Germaniya va boshqa qator mamlakatlar hukumatining iqtisodiy siyosati zahirida ijtimoiy bozor xo'jaligi nazariyasi yotadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 8 декабрь 1992 йил. 2017 йил 6 апрель № ЎРҚ-426. <https://lex.uz/ru/docs/20596>
2. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик ва тадбиркорлик фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги қонуни. 1999 йил 14 апрель, 755-I-сон. <https://lex.uz/ru/docs/66268>
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги қонунининг 4-моддаси. 1990 йил 31 октябрь, 152-XII-сон. <https://lex.uz/ru/docs/111466>
4. Ўзбекистон Республикасининг “Деҳқон хўжалиги тўғрисида”ги 2021 йил 1 апрелдаги ЎРҚ-680-сон Қонуни
5. Ўзбекистон Республикасининг “Ер солиғи тўғрисида”ги 1993 йил 6 майдаги 831-XII-сон Қонуни
6. Ўзбекистон Республикасининг “Ижара тўғрисида”ги 1991 йил 19 ноябрдаги 427-XII-сон Қонуни
7. Ўзбекистон Республикасининг “Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги 1993 йил 6 майдаги 839-XII-сон Қонуни

### О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 592 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. 15.01.2017
3. Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.- Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. -416 bet.

### О‘quv adabiyotlari

4. Физиократы. Избранные экономические произведения. Франсуа Кенэ, Анн Робер Жак Тюрго, П. С. Дюпон де Немур. 2008. 1200 стр.
5. А.Смит. «Исследование о природе и причинах богатства народов». М.: Директ-Медиа, [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=560822014](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=560822014).
6. John Stuart Mill. Principles of Political Economy. 1848
7. С. Фишер, Р. Дорнбуш, Р. Шмалензи. Экономика (ECONOMICS). М.: ДЕЛО Лтд, 1995. – 864 с.
8. Гальперин В. М., Игнатъев С. М., Моргунов В. И. Микроэкономика. В 2-х томах. Институт "Экономическая школа", Санкт-Петербург, 2004.

9. Хайман Д.Н. Современная микроэкономика: анализ и применение. Т.1-2.- М.: Финансы и статистика, 1992.
10. Davis J. and Goldberg P. A concept of agribusiness. – Boston. Mass.: Harvard Univ, 1957
11. Национальная система политической экономики / Ф. Лист; пер. с нем. В. М. Изергин. – Москва; Челябинск: Социум, 2017. – 451 с.
12. Тодаро М. Экономическое развитие. М. : Экономический факультет МГУ : Юнити, 1997.
13. Denisop Edward F. Trends in American Economic Growth, 1929-82, Brookings Institution, 1985
14. Н.Д.Кондратьев. «Мировое хозяйство и его конъюнктуры во время и после войны»;
15. Кондратьев Н. Д. Спорные вопросы мирового хозяйства и кризиса. (Ответ нашим критикам.) Социалистическое хозяйство. 1923. № 4–5. С. 50–86.;
16. Н.Д.Кондратьев. Большие циклы конъюнктуры. М.: Издательство: Юрайт, 2016
17. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. — М. : Эксмо, 2008. — 864 с.
18. А. В. Аникин. История финансовых потрясений. От Джона Ло до Сергея Кириенко. М. : ЗАО "Олимп-Бизнес", 2000. 378 стр.
19. От шока к терапии : Полит. экономия постсоц. преобразований / Гжегож В. Колодко. - М. : Журн. Эксперт, 2000. - 389 с.
20. Okun Arthur M. Prices and Quantities: A Macroeconomic Analysis', 1981

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

21. Ўзбекистон Республикасининг Ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2020 йил, январь-декабрь. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Тошкент – 2021 й. 494 бет.
22. O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent – 2021 y. B.150.
23. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plam. 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent 2021. 290 bet.
24. Топ-50 наиболее прибыльных компаний мира в 2021 году. <https://globalstocks.ru/materialyi/rejtingi/top-50-naibolee-pribyilnyih-kompaniy-mira/>
25. 20 самых прибыльных и 10 убыточных компаний с госдолей в Узбекистане. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/05/06/profit-and-loss/>
26. Деловой мир, 1992, №19.

## MUNDARIJA

<b>V BO‘LIM.</b>	<b>MEGAIQTISODIYOT</b>	
<b>48 BOB.</b>	<b>JAHON XO‘JALIGI VA UNING EVOLYUSIYASI</b>	
48.1.	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo	10
48.2.	Jahon iqtisodiyotining mohiyati	12
48.3.	Xalqaro savdo	13
48.4.	Xalqaro iqtisodiy munosabatlar	17
48.5.	To‘lov balansi	18
48.6.	Kapitalning xalqaro ko‘chishi	19
48.7.	Kapitalning xalqaro harakati va uning shakllari	19
48.8.	Bevosita chet el investitsiyalari	21
48.9.	Portfel investitsiyalari	22
48.10.	Boshqa investitsiyalar	23
48.11.	Xalqaro valyuta tizimi	24
48.12.	Oltin standarti	25
48.13.	Bretton-Vud valyuta tizimi	26
48.14.	Yamay valyuta tizimi	26
48.15.	Yevropa valyuta tizimi	27
	Qisqacha xulosa	28
	Asosiy tayanch atamalar	28
	Mavzuning namunaviy savollari	28
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	28
	Mustaqil ta’lim uchun savollar	28
<b>49 BOB.</b>	<b>JAHON IQTISODIYOTIDAGI INTEGRASIYA JARAYONLARI</b>	
49.1.	Yevropa erkin savdo-sotiq uyushmasi-YeESU	38
49.2.	Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi-NAFTA	39
49.3.	Osiyo – Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik uyushmasi-OTIH	40
49.4.	Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi-ASYeAN	41
49.5.	Lotin Amerikasining hamkorlik birlashmalari	42
49.6.	Afrikaning hamkorlik birlashmalari	43
	Qisqacha xulosa	45
	Asosiy tayanch atamalar	47
	Mavzuning namunaviy savollari	47
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	47
	Mustaqil ta’lim uchun savollar	47

<b>50 BOB.</b>	<b>JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI</b>	
50.1.	Milliy iqtisodiyotda valyuta kurslarining ahamiyati	48
50.2.	Almashuv kursining tizimini tanlash	51
50.3.	Barqarorlik va almashuv kursi	56
50.4.	Xalqaro kredit	64
	Qisqacha xulosa	68
	Asosiy tayanch atamalar	68
	Mavzuning namunaviy savollari	68
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	69
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	69
<b>51 BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTON OCHIQ IQTISODIYOTINING SHAKLLANISHI</b>	
51.1.	O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarning xususiyatlari	70
51.2.	Ochiq iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari va shakllari	74
51.3.	O'zbekiston ochiq iqtisodiyotning shakllanishi maqsadi va ziddiyatlari	76
51.4.	Tashqi iqtisodiyot siyosati	81
51.5.	Tashqi savdo siyosati	83
51.6.	Tashqi savdo faoliyatini davlatning tartibga solishi	88
51.7.	Eksport	93
51.8.	Tashqi iqtisodiy siyosatning hududiy jihatlari	93
51.9.	Tashqi iqtisodiy faoliyatning o'tish shakllari	95
51.10.	Iqtisodiy xavfsizlik	96
51.11.	O'zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizlik darajasi	99
	Qisqacha xulosa	100
	Asosiy tayanch atamalar	100
	Mavzuning namunaviy savollari	101
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	101
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	101
<b>52 BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTONDA CHET EL INVESTISIYALARI</b>	102
	Qisqacha xulosa	111
	Asosiy tayanch atamalar	111
	Mavzuning namunaviy savollari	111
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	112



	Mustaqil ta'lim uchun savollar	112
<b>53 BOB.</b>	<b>TO'LOV BALANSI VA O'ZBEKISTONNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI</b>	
53.1.	To'lov balansining makroiqtisodiy va tahliliy roli	113
53.2.	To'lov balansining tuzilishi	114
53.3.	Sof joriy transfetlar	115
53.4.	O'zbekiston to'lov balansining o'zgarish tamoyillari	117
	Qisqacha xulosa	120
	Asosiy tayanch atamalar	121
	Mavzuning namunaviy savollari	121
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	122
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	122
<b>54 BOB.</b>	<b>XALQARO IQTISODIY TASHKILOTLAR RIVOJLANISHINING UMUMIY JIHATLARI</b>	
54.1.	Birlashgan Millatlar Tashkiloti	124
54.2.	BMTning rivojlantirish dasturi	128
54.3.	BMTning savdo-sotiq va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (YuNKTAD)	132
	Qisqacha xulosa	137
	Asosiy tayanch atamalar	138
	Mavzuning namunaviy savollari	138
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	138
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	138
<b>55 BOB.</b>	<b>XALQARO IQTISODIY MA'LUMOT (XIM) VA TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT (TIF)GA DOIR IQTISODIY AXBOROT</b>	
55.1.	Iqtisodiy axborotning asosiy turlari	139
55.2.	Xalqaro statistikaning tashkil etilishi	140
55.3.	Asosiy xalqaro iqtisodiy tasniflar	142
55.4.	XIAga doir axborot manbalari	144
55.5.	O'zbekiston xalqaro hisob-kitob va statistika tizimiga o'tishi	147
	Qisqacha xulosa	149
	Asosiy tayanch atamalar	149
	Mavzuning namunaviy savollari	149
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	149

	Mustaqil ta'lim uchun savollar	150
<b>56 BOB.</b>	<b>JAHON XO'JALIGI SOHASIDAGI BIZNES. AYRIM YO'NALISHLARI VA SHAKLLARI</b>	
56.1.	Lizing tushunchasi	151
56.2.	Lizing mohiyati	151
56.3.	Lizing beruvchining asosiy majburiyatlari	151
56.4.	Bay-Bek	157
56.5.	Lizingning afzalliklari	158
56.6.	Lizing huquqiy ta'minoti	161
56.7.	Xalqaro faktoring	162
	Qisqacha xulosa	164
	Asosiy tayanch atamalar	164
	Mavzuning namunaviy savollari	165
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	165
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	165
<b>57 BOB.</b>	<b>XALQARO XIZMATLAR BOZORI</b>	
57.1.	Jahon xizmatlar bozorining shakllanish omillari va shart sharoitlar	166
57.2.	Xizmatlar bozorining tarkibiy tuzilishi	169
57.3.	Xalqaro turizm	171
57.4.	Xalqaro texnologiyalar bozori	172
57.5.	Litsenziyalar va patentlar bozori	174
57.6.	Injiniring xizmatlarining xalqaro bozori	175
57.7.	Konsalting xizmatlari	176
57.8.	Axborot xizmatlari	177
57.9.	Transport xizmatlari bozori	178
57.10.	Sug'urta va bank xizmatlari bozori	179
	Qisqacha xulosa	181
	Asosiy tayanch atamalar	182
	Mavzuning namunaviy savollari	182
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	183
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	183
<b>58 BOB.</b>	<b>JAHON XO'JALIGI MILLIY IQTISODIYOT SATXIDA</b>	
58.1.	Jahon xo'jaligi mego-iqtisodiyot sifatida	184
58.2.	Jahon va milliy xo'jaliklarning birgalikda rivojlanishi	191

58.3.	O'zbekiston xo'jaligi jahon iqtisodiyotida	194
58.4.	Ochiq iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish	200
	Qisqacha xulosa	208
	Asosiy tayanch atamalar	209
	Mavzuning namunaviy savollari	209
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	209
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	209
<b>59 BOB.</b>	<b>JAHON XO'JALIGI MAMLAKATLARINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINING FARQLANISHI VA NOTEKISLIGI</b>	
59.1.	Qoloq rivojlanish: iqtisodiy va hal qilish yo'llari	210
59.2.	Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasining farqlanishi va notekisligi	210
59.3.	Iqtisodiy qoloq tushunchasining mazmuni	216
59.4.	Qoloq rivojlanishini bartaraf etish yo'llariga va sabablariga evolyutsiyaviy nazariy qarashlar	221
59.5.	Amerika iqtisodiyoti	225
59.6.	Germaniya iqtisodiyoti	236
59.7.	Fransiya iqtisodiyoti	242
59.8.	Italiya iqtisodiyoti	245
59.9.	Buyuk Britaniya iqtisodiyoti	247
59.10.	Yaponiya iqtisodiyoti	253
59.11.	Xitoy iqtisodiyoti	262
59.12.	Yangi Industrial rivojlangan davlatlar (J.Koreya, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Filippin, Tailand, Tayvan, Gonkong)	270
	Qisqacha xulosa	274
	Asosiy tayanch atamalar	274
	Mavzuning namunaviy savollari	274
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	274
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	274
<b>60 BOB.</b>	<b>GLOBAL MUAMMOLAR VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR</b>	
60.1.	Hozirgi sharoitda global muammolarning mohiyati va ular haqida tushuncha	275

	Global muammolar sohasidagi xalqaro iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari	277
	Qisqacha xulosa	287
	Asosiy tayanch atamalar	288
	Mavzuning namunaviy savollari	288
	Mustaqil ta’lim uchun savollar	288
	<b>ILOVA</b>	
Ilova 1.	O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida ta’limning ahamiyati	289
Ilova 2.	Mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida klassifikatsiyasi	307
Ilova 3.	O‘zbekiston iqtisodiyoti raqamlarda	325
Ilova 4.	Izohli lug‘at (Glossariy)	333
Ilova 5.	Iqtisoddan Nobel mukofoti sovrindorlari	367
Ilova 6.	Iqtisodiy tarixning xronologiyasi	372
Ilova 7.	Metrlanmagan o‘lchovlar	376
Ilova 8.	Iqtisodiy ta’limotlar tarixi	383
	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	412

**H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, Ismailov, A.**

# **IQTISODIYOT NAZARIYASI**

**(darslik)**

**III tom**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 31.10.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 24. Shartli bosma taboq 24,5.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)



t.me/ Bookmanyprint



+998 99 180 97 10